V. F. Tendryakov

O'RMONLAR ORASIDA

Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

Ilgarigi berilmalar miqdori _____	

on

821
T 39

5.0.

Rus adabiyoti durdonalari

VLADIMIR FYODOROVICH

TENDRYAKOV

O'RMONLAR ORASIDA

(Qissa va roman)

T 76

TOSHKENT – «O'ZBEKISTON» – 2021

UO‘K 821.161.1-32
KBK 84-445(2Ros=Rus)
T 39

Rus tilidan **Gulnora Aripova** va **Raila Isxakova** tarjimasi

XX asr 60–70-yillarining taniqli yozuvchilaridan biri Vladimir Fyodorovich Tendryakov haqli ravishda rus «qishloq hayoti nasri»ning klassigi hisoblanadi.

«O‘rmonlar orasida» qissasi dastlab 1953-yilda nashr etilgan bo‘lib, unda qishloq odamlarining mehnati, ular hayotining o‘tkir axloqiy muammolari, inson vijdoni, diyonati masalalari asosiy o‘rinni egallaydi.

«Yechilmas tugun» romanida jamoa xo‘jaligi raisi Ignat Gmizin vafot etgan tuman qo‘mitasi kotibining o‘g‘li Sasha Komelevni o‘z qaramog‘iga olgani haqida hikoya qilinadi. Yigit jamoa xo‘jaligida ishlay boshlaydi va institutning sirtqi bo‘limiga o‘qishga kiradi, ko‘p vaqtini qorako‘z Katya bilan o‘tkazadi, Katya esa tuman qo‘mitasining yangi kotibi – Sashadan farqli o‘laroq mard va dovyurak bo‘lgan insonga ko‘ngil qo‘yadi...

ISBN 978-9943-7333-6-7

© V.Tendryakov, 2021
© G.Aripova, R.Isxakova (tarj.), 2021
© «O‘zbekiston» NMIU, 2021

TOSHKENT SHAHAR YASHIRIN BIBLIOTEKA
№ 2022/ИЕ-48

O'RMONLAR ORASIDA

Qissa

BIRINCHI QISM

1

Lobovishe qishlog‘i yaqinidagi o‘rmonlarda, sersoya va nam joylarida chirigan yaproqlar ostida butun bir to‘dasi bilan qattiq qo‘ziqorinlar o‘sadi. Yangi uzilgan bu qo‘ziqorinlardan achigan malinaning hidi kelib turadi…

Bu o‘rmondan qishloqni suvi sayoz, ostiga quyosh nuri tushib turadigan qumloq daryo ajratib turadi.

Yozning o‘rtasiga kelib, daryoning yuqori qismida iyul yomg‘irlarining ketma-ket jalasi quyiladi, Vajenka daryosi o‘tloqlarni bahorning loyqa va xira suvlari bilan emas, balki yomg‘irning tiniq suvlari bilan sug‘oradi. Suv ostida qolgan maysazorlardagi moychechaklar quyosh nurida, kahrabo rangida tovlanadi. Kapalaklar, bolarilar, qo‘ng‘izchalar o‘rnida esa uvuldirig‘idan yangi chiqqan baliqchalar suzib yuradi.

Vasiliy Rodnevning bu yerdan jo‘nab ketganiga deyarli o‘n yil bo‘ldi. Esida, o‘shanda xayrlashish uncha qiyin kechmagandi. Onasi odatiga ko‘ra ko‘zyosh qilgandi, qo‘shni qizlar esa unga po‘pisa qilishgandi: «Qara, shaharlik qizlarga ko‘z tashlab yurma, tag‘in…»

Shunday qilib, qorong‘i o‘rmon ortida arang ko‘rinib turgan pastgina kulbasiga so‘nggi bor nigohini tashlab, jo‘nab ketgandi. Nimaga ham qarasin? Oldinda – shahar, oldinda – institut!..

Vasiliy osongina jo‘nab ketgandi, biroq ortga, tug‘ilgan go‘shasiga qaytish juda uzoq vaqtga cho‘zilib ketdi va qiyin bo‘ldi.

Urush boshlandi. Endigina birinchi bosqichni tamomlagan Rodnevni harbiy bilim yurtiga jo‘natishdi. So‘ng esa frontga, birinchi yaralanish, gospital, yana front…

U kichkina nemis shaharchasida bo‘lganida 1945-yilning bahori edi. Ertalablari shaharning ayollari deraza tokchasiga yo‘l-yo‘l chi-

ziqli ko'rpalarini yoyardilar. Ular Rodnevning orqasidan xushomad bilan ta'zim qilib, derdilar: «Guten morgen, gerr kapitan». «Gerr kapitan» esa, ko'rpalarga nazar tashlab, sog'inch bilan xayol surardi: «O'xshamaydi... Bizniki kabi emas...» Lobovisheda mana shunday tonglarda jamoa xo'jaligi otboqari Fedot Nespanov otlarni daryoga olib chiqadi, turadi, tovlanib turgan suvga erinchoqlik bilan ko'zini qisib qaraydi, hushtak chaladi. Shu yerda Rodnevning yodiga malina hidi anqib turadigan qo'ziqorinlar ham tushdi, shuningdek, suv bosgan maysazorlardagi kahraborang moychechaklarni ham esladi.

1946-yilda uni zaxiraga bo'shatishdi.

Batalyon komandirining siyosiy qism bo'yicha sobiq o'rinbosari, zaxiradagi kapitan Rodnev yana institutga keldi, darsliklarni o'qiy boshladi, suv bosgan o'tloqlarda g'aramlanadigan pichan tarkibidagi to'qimalar va proteinlar miqdorini diqqat bilan hisoblashga kirishib ketdi...

Lekin bahorda, shahar xiyobonlarida oyoq ostida ezilgan qor ostida qayerlardadir qandaydir dilga yaqin, qishloq hidini eslatuvchi bo'y taratadigan qoraygan yerlar ko'rina boshlaganda Rodnevni yana eski jarohati bezovta qila boshladi. U butun yoz va kuz bo'yi shifoxonada yotdi, faqat qishning o'rtasidagina u to'shakdan turdi, institutga qaytdi, yana darsliklar ustida o'tirdi, yana bahor keldi... Ammo bu gal jarohat unday qo'zg'amadi, lekin shifokorlar unga qishloqqa qaytishni maslahat berishdi.

Batalyonda mamlakatning hamma joyidan uning do'stlari bor edi. Xat yozib, ular uni Belorussiyaga ham, Kavkazga ham va qandaydir nomi tanish bo'lmagan Volgorod shaharchasi Gryazovetsga ham chaqirishdi. Biroq u o'z vataniga, Lobovishega qaytdi, garchi uni bu yerga xat yozib hech kim chaqirmagandi – otasi urush boshlangunga qadar vafot etgan, onasi Molotovdagi katta o'g'linikida yashab, nevaralariga qarardi. Barcha qarindoshlari orasida bu yerda faqat xolasi qolgandi – uni umuman quvnoq deb bo'lmasdi – hatto quvonchli marosimlarda ham u o'z odatiga ko'ra yig'loqi ovozda gapirardi. U kelganidanoq kolxozda rais Shutixin vafot etganidan so'ng tartib butunlay yo'qolganini, oxirgi yillarda xo'jalik shamolga sovurilganini, «agar qo'rg'oncha bo'lmaganda», unga, uning kasal-

liklari bilan bu qiyinchilik kunlarida bir kun ham yashay olmagan bo'lishi haqida xabar berdi...

Rodnev birinchi marta Stepan Razin nomidagi Lobovishe kolxoziga kelganida, uni shivir-shivirlar va xush kayfiyat bilan kutib olishdi. Baland bo'yli malla yigit, sal kam devorga yetadigan darajada uzun qo'llarini keng yozib, qizlarning to'piga yuzlandi va ahmoqona qo'shig'ini boshladi:

Mevalarim mening,
Pishib yetilgan qulupnaylarim...

Qizlar esa bu yigitning jingalak sochidan tortib, kulgidan nafaslari tiqilgancha, dedilar:

– Ket, Dmitriy, ket!.. Qichitqi o'tdan!..

Begona odamni ko'rib, ular yoyilishdi va qizarib ketgan yuzlarini yashirib, turtinishgancha, idoradan otilib chiqishdi.

Yigit bu xijolatbozlikni quvnoqlik bilan yashirishga harakat qilib, shunday dedi:

– Eski hisob-kitoblar bor edi...

– Men raisni ko'rishim kerak.

Yigit o'zini u yoq-bu yoqqa tashladi, yelka qisdi, so'ng birdan to'g'rilandi, kamarini tortdi, yengil qadamlar bilan stol yoniga keldi.

– Eshitaman sizni, – dedi u sovuqqonlik bilan. – Stepan Razin nomidagi kolxoz raisi Spevkin... Marhamat, o'tiring. Nima xizmat bor?

– Nima ham derdik. Unda tanishamiz. Rodnev.

– Nastasya Petrovnaga qarindosh bo'lsangiz kerak?

Biroq Rodnev, xuddi eshitmaganday, so'zini davom ettirdi:

– Iltimos bilan keldim: kolxozga ishga oling.

Spevkin kelgan odamga diqqat bilan qaradi – kalta botinkasidan bo'yinbog'igacha shaharlik qiyofasini berib turibdi – va chuqur nafas oldi:

– Uzr, bizda sizga munosib ish topilmaydi, deb qo'rqaman. Siz yaxshisi tumanga borganingiz ma'qul.

– Men sizga keldim...

– Agar hisobchi deydigan bo'lsak, hisobchimiz bor.

Rodnev cho'ntagidan institut ma'lumotnomasini chiqardi (garchi davlat gerbi tushirilgan diplom bo'lmasa ham, obro'li hujjat edi), Spevkinga uzatdi. U esa, jiddiy qiyofada qoshlarini uygancha, Vasiliy Matveyevich Rodnev zootexnik fakultetning to'rtinchi bosqichini tugatganligi haqidagi yozuvni o'qiy boshladi.

– Sizga to'g'risini aytishim kerak – bizdagi ish sizga yoqmaydi... Bu shunday kolxozki, bizga boshqa bermaydi, ammo bizdan ketadi... Ehtimol mening o'rnimni istayotgandirsiz? Bajonidil. Mening hisoblashimcha, mening tanlanishim xato bo'lgan.

– Qanday xato bo'lgan?

– Juda oddiy. Armiyadan keldim, boshqa joyga ishga joylashmoqchi edim, bu yerda esa onam bor... Yig'laydi, qo'yib yubormaydi: «Seni besh yil ko'rmadim. meni kimga tashlab ketmoqchisan? Endi uylanasan – alohida yashaymiz...», deydi. Shunday qilib kolxozda ishlay boshladim, avval zveno boshlig'i bo'ldim, keyin brigadir, brigadam esa – faqat qizlardan iborat, nimani aytma, xursand qilish uchun jon-jahdlari bilan bajarishadi. Xullas, kelib chiqdiki, mening brigadam eng yaxshisi ekan, men esa – eng yaxshi brigadir, demak, Spevkin rais bo'lishi kerak. Bu yerda odat shunaqa – bir yil o'tmay, yangi brigadir. Kasalmand lo'liday almashtirishadi. Hademay meni ham almashtirishadi, siz to'g'ri kelsangiz – sizni qo'yishadi... Ish bu yerda qiyin emas: umumiy yig'ilish va marhamat ko'rsatishlarini so'raymiz...

– Sen urushda bo'ldingmi?

– Hm! Butun Ukrainani, Yevropaning yarmini mashinada bosib o'tdim. Mutaxassisligim bo'yicha harbiy haydovchiman, raislikda esa anglashilmovchilik tufayli shu yerdaman ...

– Sen frontda ekaningda onangdan xat oldingmi?

– Ha, oldim, – Spevkin bu kutilmagan savolga sal tutilibroq javob berdi.

– Senga nima deb yozishardi?

– Nima yozishardi? Sog'-salomat yurishganini yozishadi, salomlar jo'natishadi.

– Qanday yashashganini so'zlab berishmadimi?

– Ha, ko'p maqtaydigan emas.

– Sen o‘qiganingda: agar tirik qolsam, pogonimni olib, qishlog‘imga qaytaman, frontdagi boshqalar ham qaytishadi – urushdan so‘ng ularning ham yuragi uyga talpinadi, Lobovisheni harakatga keltiramiz, qishloqni yashnatamiz, deb o‘ylamadingmi? O‘ylamagansan… Men esa o‘yladim va mana shu daqiqalarni butun urush davomida kutdim. Urush tugagandan so‘ng ham mana shu daqiqalar uchun o‘qishga bordim. Mana, shu vaqt keldi: qarshimda sobiq jangchi o‘tiribdi va quvnoqlik bilan hazil qo‘shig‘ini aytyapti: «Bizda yomon, bizda yaxshi emas, raislarni almashtiramiz, men tasodifiy odamman…» Ha-a!.. Yaxshisi ayt: Medvejiy Kanitel atrofidagi yerlarda o‘rim changal bo‘lib, cho‘zilib ketmadimi?

– O‘ryapmiz. To‘g‘ri, ish paysallayapti, allaqachon tozalab olishimiz kerak edi, – shoshilib javob berdi Spevkin. U xursand bo‘ldi, chunki qaltis suhbatlar tugab, gap xo‘jalik tomon burilgandi, bu osonroq edi.

– Fomin jarligidagi-chi?

– U yerda ham o‘rim ketyapti…

– Qari qayin – bo‘ydan baland kovagi bor – haliyam turibdimi?

– Men e’tibor qilmabman, u daraxt qulagan bo‘lishi kerak.

– Tatarskaya Lobishadan Ignatovskiyniki bilan birga dalalarnichi, birvarakayiga haydashdimi? Eslashimcha, u yerda na’mataklar o‘sardi – o‘tib bo‘lmasdi, qaysi bir yozda har bir butoq pushti rang gulga kirgandi.

– Dalalarni allaqachon haydab bo‘lishgan, na’mataklar esa boshqa joyda ham tiqilib yotibdi, bunday butalar – yer ustidagi chiqindi.

Rodnev uzoq vaqt so‘radi, Spevkinning nazarida, u behuda narsalarni so‘radi, hatto Pashkov bulog‘i yonidagi eski quduqni ham eslab o‘tdi.

– Ancha bo‘ldi bu yerda bo‘lmaganimga, – nafas rostladi Rodnev. – Har bir ta’til vaqti ajralib chiqib, Lobovisheni ko‘rgani kelmoqchi bo‘laman, ammo iloji bo‘lmadi – qishda o‘qidim, yozda esa ishladim. Ko‘p narsalar o‘tib ketdi, gohida mutlaqo ishdan chiqib qolasan… Seni esa, Spevkin, negadir tanimadim, sen bizning qishlog‘imizda yashamaganmisan?

– Nega endi… Sizni darrov tanidim. Faqat bir qo‘l siqish bilan tanishib, bog‘lanmaysan. Mitka Spevkin, Dmitriy Yegorovichning

o‘g‘li... Biz lobovishelik emasmiz, Pochinokdanmiz. Meni bolalar Quyoshcha deb masxara qilishardi, mallaligim uchun ...

– A-a, Quyoshcha... Shoshma-chi, shoshma-chi, Ignat Voronenkovning to‘yida pereplyas[1]ga raqsga tushgan senmiding?

– Bo‘lgandi... ko‘pchilik raqsga tushgandi.

– Yana esimda – Fedot Nespanov seni muz o‘yig‘ida sotib olgandi; sen uning oldida baliqlarni tekshirgansan.

– Esimda yo‘q... baliqchilarda har narsa bo‘ladi...

Yolg‘iz qolgach, Spevkin stol qutisini tortib chiqardi, sochilib ketgan moxorkani hovuchiga oldi, derazadan boqqancha, o‘y surib, chekishga tutindi.

Ozg‘in qayin daraxti chang yo‘l bo‘yida qad rostlagan, tomlari to‘q zangori rangga bo‘yalgan uylar ortida yashil o‘rmon namoyon bo‘lib turardi. U Donda bo‘lgandi, Ukrainada bo‘lgandi, Vengriya, Karpatda ham bo‘lib, u yerlarning hammasida ham go‘zal o‘rmonlarni ko‘rgandi u, lekin ularning hech birini Lobovishening bu o‘rmoniga qiyoslab bo‘lmasdi ...

Uzoq yillar o‘tib qaytib kelgan Rodnev haqida qishloqda darrov gap-so‘z o‘rmalab qoldi. Uning xolajonisi Nastasya Petrovnaning xo‘jalik bilan shug‘ullanishga umuman qo‘li tegmay qoldi, kuni bo‘yi qo‘shnilarini kutishga to‘g‘ri keldi. Kimning bo‘y yetgan qizi bo‘lsa, ularga jiyanining katta odamlar bilan yaxshi munosabatda ekanini, o‘qigan va bir chamadon kitob bilan kelganini, kolxozda qolish uning qo‘lida emasligini va unga katta boshliqlar tomonidan o‘rin hozirlanib qo‘yilganligini aytib maqtanardi. Bo‘y qizlari yo‘qlarga esa Nastasya Petrovna shunday deb nolirdi:

– Oh, onaxonlarim mening, axir u begona uyga kelgani yo‘q, o‘z xolajonisining uyiga kelgan... Eshik oldidagi zinapoya butunlay chirib bitgan, hammom yonidagi chetan devor qulab yotibdi; aytadilar-ku, erkaksiz uy tashlandiq joy bilan teng. U esa aqalli bitta mix ham qoqqani yo‘q. Ertalab chiqib ketadi – domiyam, daragi ham bo‘lmaydi... Eh, xo‘jalikbopmas-da u, onaxonlarim, xo‘jalikbopmas!

---

[1] *Pereplyas* – rus xalq raqsi.

Vasiliy haqiqatan kuni bo‘yi uyga kelmasdi, dalalar bo‘ylab kezar, tanigan-bilganlari bilan uchrashar edi. Uning tengdoshlaridan kimdir urushda halok bo‘lgan, yana kimdir esa jang qilgach, begona yurtda yashab qolib ketgandilar. Hozir unga og‘aynilik qilayotgan Spevkinga o‘xshagan yoshlar esa u armiyaga ketgan vaqti lanka tepib yurishgan, Vajenkadan tangabaliqlarni ovlab yurishgandi.

Spevkin esa kechqurun o‘z do‘sti, sut fermasi mudiri Stepan Gruzdevga Rodnev bilan bo‘lgan uchrashuvini gapirib berdi:

– U Lobovisheni bir kunda bir necha bor eslagan, – qayinlarni besh qo‘lday biladi. Vijdonan aytganda. men unga o‘rinsiz gapirdim. Ahmoqona desa ham bo‘ladi. Endi u – Dmitriy Spevkin uchun o‘zining qishlog‘i o‘gay onasidan ham battar ekan, deb o‘ylaydi. Bilasanmi, Styopa, meni emas, uni rais qilib qo‘yish kerak. Bo‘lmasa, yuqoridan, tumandan niqtayverib jonga tegishadi, pastdayam kolxozchilar ming‘irlab yeb qo‘yishadi. Bu esa eplaydi va hammaning ko‘ngli to‘ladi. Nima deb o‘ylaysan? Shu haftada umumiy yig‘in bo‘larmikan?

Gruzdev, har galgidek, burchakka nigohini qadagancha, mo‘ylovini silab uzoq o‘yga cho‘mdi. Ko‘rinishidan, bunday chuqur mulohazadan so‘ng u, albatta, qandaydir muhim narsani aniq va qat’iyat bilan aytishi lozim edi, ammo u ehtiyotkorlik bilan sekingina ping‘illab qo‘ydi:

– Omon bo‘lsak – ko‘ramiz…

2

Kuzovki tuman qo‘mitasi partiyasining kotibi Panikratov frontda bo‘lmagan, lekin gimnastyorkasi ustidan harbiy ordenini taqib yuradi. Kuzovki tumani urush vaqtida davlat majburiyatlarini bajarish bo‘yicha hisobotlarda birinchi o‘rinda turgan.

Bir kuni mana shu ordenni deb ko‘ngilsizlik sodir bo‘lgandi. Panikratov oldiga harbiy xizmatdan bo‘shagan leytenant keldi va tuman qo‘mitasidan «suvli yerlardan shaxsan foydalanish uchun» kolxozga qog‘oz yozib berishni talab qildi.

Panikratov esa uni rad etdi, u boshqacha yo‘l tuta olmagan ham bo‘lardi. Shunda leytenant ko‘ksidagi orden va medallarini mushti

bilan jaranglatib urgancha, qon to‘kkanini, mana bunaqangi amaldorlar esa urush ortida pisib yurishganini aytib, baqira boshladi…

– Yo‘qoling bu yerdan! – dedi Panikratov.

Biroq leytenant haddidan oshib ketdi:

– Kabinetda o‘tirvolib, orden bilan taqdirlashga buyruq berasiz! Bilamiz, keyin shu orden bilan maqtanib yurasiz: biz ham qon kechganmiz, deb!.. Jangarilar!

Panikratov chidab turolmadi, leytenantning yoqasidan oldi va eshikdan itarib chiqarib yubordi.

O‘shandan beri tuman qo‘mitasi kotibi yangi odamlarni, ayniqsa, harbiy xizmatdan qaytganlarni rasmiy tarzda, sovuqqonlik bilan qabul qiladigan bo‘ldi. Garchi fuqarolik kiyimida, bo‘yinbog‘ taqqan, qaddini g‘oz tutgan holda eshik oldida o‘ralashmasdan, poshnasini taqillatgancha oldinga shaxdam yurib kelgan, o‘qitilganini unutmagan tarzda, mulozamat bilan taklif qilinmaguncha tik turgan bo‘lsada, zaxiradagi kapitan Rodnev dastavval unga unchalik yoqinqiramadi. Panikratov stulni ko‘rsatdi:

– Marhamat qiling.

Ammo suhbat asta-sekin bir-biriga qovusha boshladi va Rodnevning institutni tamomlay deb turgan bir paytda, shunday qoloq kolxozda ishlashni ixtiyor etgani tuman qo‘mitasi kotibini ajablantirdi.

– Bizning tumanga mutaxassislar kerak. Mana shunday kerak ular! – Panikratov qo‘li bilan tomog‘i tagidan chizib ko‘rsatdi.

– Ishonaman. Lekin men kolxozda tajriba orttirib, institutni ham avval tamomlab olmoqchiman. Shundan keyin tumanga olsangiz bo‘ladi.

Panikratov qoshining ostidan Rodnevga sinovchan boqdi: uning samimiy gapirayotgani yoki nimanidir mo‘ljallayotganini aniqlamoqchi bo‘ldi. Ehtimol, kolxozda unga tajriba kerak emasdir; tumanda ishlash tinchroq – doimiy xizmat safarlari, tuman qo‘mitasi va tuman ijroqo‘mining doimiy qo‘ltig‘i ostida bo‘lasan, sal qoqilsang – darrov javob berasan. Kolxozga esa uning bilimi yetadi, otasidan ona-onasidan uy qolgan bo‘lish kerak, kolxoz raisi zootexnikdan hayiqib turadi, qo‘rg‘onchani ajratib olgin-da, asalari inini o‘rnat, tovuq boq, xohlaganingday yasha, cho‘miching esa moy ustida bo‘ladi…

– Tajriba?.. Hamma narsa bo‘lishi mumkin, ammo bu emas, «Stepan Razin»da hayvonlardan hammasi bo‘lib o‘nta ozg‘in cho‘chqa bolasi va ikki dyujina[1] qiltiriq sigir bor. Bu yerdan institutdan diplom olay deb turgan zootexnik katta tajriba ola olmaydi. Agar siz qo‘shni bo‘lgan Chapayev nomidagi kolxozni so‘raganingizda, bu yerda nimagadir erishsa bo‘ladi.

– U yerga yomon bo‘lgani uchun ham boryapman. Agar yaxshilay olsam, demak, imtihonni topshira olgan bo‘laman.

– Zimmangizga ko‘p narsa olvormayapsizmi? «Stepan Razin»da qaysi tarafga boshingni suqma, hammasi yomon ahvolda, bitta zootexnika bilan uni botqoqdan chiqarib bo‘lmaydi.

– Men esa bu yerda zootexnika – hamma narsa deb hisoblayman! Biz – shimolda, daryoning quyilish joyida, o‘tloqlari suvli joyda yashaymiz. Har bir joyning o‘ziga xos xususiyati, o‘zining, agar aytish joiz bo‘lsa, iqtidori bor. O‘rta Osiyoda – paxta, Kubanda – non, bizda esa – nasldor chorvachilik! Zootexniya bu yerda asoslarning asosi, mohiyat! Afsuski, bu haqda ko‘pincha unutib qo‘yishadi…

Panikratov zootexnika asoslarning asosi, joyning mohiyati, degan fikrga qo‘shilmadi. Biroq Rodnev shunday hisoblar ekan, demak, u o‘z ishini sevadi, bu esa qadrlanishga loyiq fazilat.

– Yaxshi, razinliklarga borishingizga ruxsat beraman, – qaror qildi u.

Chorak soatdan so‘ng ular divanda o‘tirvolib, eski og‘aynilarday suhbatlasha boshlashgandi.

– O‘zing bilasan, – dedi Panikratov, – bizda yerlarning ayrimlari dunyoning narigi betida, ayrimlari esa alohida ajralib qolgan. Ayrim joylarni haydash u yoqda tursin, u yerlarga traktorda ham borib bo‘lmaydi. Bizning hayotimizda asosiy rolni o‘ynaydigan narsa – ot bo‘lib qoldi! «Stepan Razin»da esa otlarning ahvoli qanday ekanligi bilan qiziqmadingmi?.. Hozir yozda hammasi yaylovda yoyilib yuribdi. Qishda kelishing kerak edi, otlarning oyog‘idagi kuchini ko‘rarding. Toylarning chiqindisi bo‘yicha tumanda sal kam birinchi o‘rinni oldi. Yig‘im-terim payti kelib qoldi. U yerda davlatga don ham topshirish kerak, sen otlarga e’tibor qil, Spevkinni ham, Gruzdevni ham joyidan qo‘zg‘at. Gruzdevni bilasan-

[1] *Dyujina* – o‘n ikki dona.

mi? U qo'mita raisi, to'g'riso'z odam, ammo uzoqni ko'rolmaydi, chunki savodini so'raydigan bo'lsang, bor-yo'g'i to'rtinchi sinfni tugatgan.

Rodnev uning so'zini ma'qullab ham turmadi, bosh siltab xayrixohlik ham bildirmadi, faqat diqqat va xotirjamlik bilan Panikratovning yuziga qaradi, u esa asta-sekin topshiriqdan shikoyatga o'ta boshladi, oshkora so'zlay boshladi: kadrlar masalasi ham yomon edi, kolxozda ishchi kuchi ham yetishmasdi, hamma yoqda muvaffaqiyatsizliklar – bahordayam, o'tgan yili ham, kuzgi ekinlar muzlab qoldi...

– Bunga qarshi bir ish qilolmaysan – tabiiy ofat!.. O'sgan hamma narsani yig'ib olish kerak edi, ammo iloji bo'lmadi. Ko'pmi, kammi, ikki yuz gektardan ko'proq yer qor tagida bo'sh qolib ketdi. Viloyat qo'mitasida esa osongina muhokama qilishadi: «Urush vaqti uddaladingizmi?» – «Uddaladingiz». – «Aholi kammidi?» – «Kam edi». – «Nima uchun urushdan so'ng hech qanday o'sish yo'q? Yengni tushirdingizmi?» Qanday rad eta olasan? O'rtoqlar, odamlar holdan toyib qoldi axir, – deb aytolmaysan… – Axir charchashdi-ku! Tasavvur qilyapsanmi – besh yil urush vaqti, na dam olish kuni bor, na tunda dam oladi, dalada ayollar va chollar; mashinalar – temirtersakka aylangan, frontga yaramaganlari bor edi, ular ham kam. Boz ustiga, yana bir falokat – hosil yili bo'lmadi, kunlik haq tushib ketdi, xoh yig'la, xoh kul, bu kunlik ish haqi bilan tovuqniyam boqolmaysan… Tinkayam qurib bo'ldi. O'shandan beri, uch yildan oshdi hamki, o'zimizni tiklab ololmaymiz!

Panikratov jim bo'lib qoldi va endi o'ychan qiyofada so'zlay boshladi:

– Bu yil hosil yomon bo'lmadi, ammo qanday yig'ib olamiz, nima qilish kerak? Kuz, bu kuz yomon kelmasa bo'ldi!

U Rodnevga shunday qaradiki, go'yo xalq emas, uning o'zi, Panikratov charchagan edi, u har kuni xayolida aholining holdan toygani to'g'risidagi olib yurgan fikrning zalvari o'zining ham tinkasini quritgan edi.

– Ochig'ini aytganda, bularning hammasi eski qo'shiq, Fyodor Alekseyevich. Hamma yerda endi bu haqda unuta boshlashgan, – ehtiyotkorlik bilan rad etdi Rodnev.

– Kimga og‘ir bo‘lmagan bo‘lsa, o‘shalar unutishyapti bu qo‘shiqni! – keskin javob berdi Panikratov.

Rodnev indamadi – u hali tuman qo‘mitasi haqida ham, tuman haqida ham, Panikratov haqida ham juda kam narsani bilgani uchun bahslashmoqqa botinmadi.

Keyingi kuni tongda Rodnev yo‘lovchi mashinada «Lobovishe burilishi»gacha yetib oldi, bu yerdan chag‘ir tosh to‘shalgan katta yo‘l qishloq tomon burilib ketardi.

Rodnev qishloq yo‘li bilan ketdi, to‘g‘ri yo‘l esa dala so‘qmog‘i bo‘ylab borardi. So‘qmoq esa yoppasiga dorixonada sotiladigan dala moychechagi bilan qoplangandi. So‘qmoqning u yonida ham, bu yonida ham oqish yashil bo‘lib javdar unib yotardi, ammo u har xil edi. Chapda – siyrak, bo‘tako‘zlarning moviy rang gullari bilan qorishgan, yengil va har tomonga egilik turgan nozik boshoqlar tovlanib turardi; o‘ngda esa javdar shu qadar qalin o‘sgan ediki, nigohing yerga tushmasdi, u zangori poyalar ichra cho‘kib ketardi, dalaning o‘zi ham aftidan zo‘rg‘a nafas olar edi va bironta ham bo‘tako‘z ko‘zga tashlanmasdi.

Bir qadam kenglikdagi bu so‘qmoq ikkita kolxoz o‘rtasidagi chegarani belgilardi, bir tarafdagi yerlar Stepan Razin nomidagi kolxozniki, ikkinchisi – Chapayev nomidagi kolxozning dalalari edi.

Soat taxminan yettilar bo‘lib qolgan, bu vaqtda maysalar ustidan shudring ko‘tarilayotgan bo‘lib, ayniqsa, havo juda sof va tiniqlashgan vaqt bo‘lardi, osmon esa bo‘tako‘z rangini olgan edi – u bu holatda uzoq turmasdi, quyosh ko‘tarila boshlashi bilan go‘yoki u issiqdan bug‘lanib ketardi.

Rodnevning yonog‘ini yengil shabada silab o‘tdi, birdan namiqib turgan dorivor moychechaklar o‘zgacha bo‘y tarata boshlashdi, bu hid quruq un changi hidiga ham o‘xshab ketardi. Tiniq havo biroz quyuqlashdi, javdar dalalari ustida kumush-tillarang bulutchalar paydo bo‘ldi.

Javdar gulladi!

Vasiliy to‘xtadi. Uning ota-bobolaridan unga ham dehqonning qoni oqib o‘tgandi, bu qon omoch ostida haydalgan yer hididan, kuz bo‘y cho‘zgan yashil poyalardan, gulga kirgan javdardan jun-

bishga kelishga qodir edi. Na armiya, na o'qish undagi bu hissiyotni so'ndiroldi. Rodnev gulga kirgan javdar bo'yini to'yib hidladi, xayoliga hech bir zalvar yuklamay, jilmaydi, qo'llari esa uzun va paxmoq javdar poyalarini siypalab saraladi, bu poyalar Lobovishening emas, qo'shni qishloq javdarlariniki edi.

Dala tugagan joydan esa qirg'oqoldi o'tloqzorlari boshlanardi, u yerda esa qari va qurib qolgan qoraqarag'ay turardi. Qachonlardir u – ona daraxt bo'lib, hayot bilan yashnab turardi – uning chor atrofi quyuq qarag'ay niholchalar bilan o'ralgan, bu niholchalar uning ildizlarini quyosh nurlaridan panalab turardi. Ammo bu navnihollar o'rimga xalaqit qilgani tufayli ularni kesib tashlashdi. Quyosh ildiz atrofini quritib qo'ydi va daraxt ham qurib qoldi; uning shoxlarida esa xushbo'y ignabarglar o'rnida tutamlab quruq moxlar osilib turar, oqish soqolga aylangandi.

Razin yerlarini Chapayev yerlaridan ajratib turuvchi so'qmoq qari qarag'ayning yonidan ikkiga ajralgan edi. Bittasi bu yerdan ko'rinib turgan Lobovishe tomlariga qadar cho'zilib ketgan, ikkinchisi esa Chapayev yerlarida o'rim ketayotgan joylarni oralab o'tib ketgandi.

Qishloqqa yaqinlashib kelar ekan, Rodnev otxona yonida to'xtadi. U Panikratov bilan bo'lib o'tgan kechagi suhbatni esladi. Og'ir zulfinni surib, Vasiliy yarim qorong'i, salqin otxonaga kirdi, bu yerda ot teri hididan bo'lak, beda hidi ham anqib turardi. Rodnev otxona bo'lmalarida ifloslikni, otlar yollariga laxta-laxta bo'lib yopishib qolgan go'ngni ko'rishni kutgan edi, ammo otxona o'rtasida o'tgan yo'lakchaga qum sepilgan, yarim qorong'i bo'lmalarda esa belkurakning yangi izlari ko'rinib turardi, har bir ustundagi yog'och qoziqchalarda egar-jabduqlar osilib turgan bo'lib, hech bir karnchiliksiz, binoyidek turgandi. Otxona bo'sh edi, bu tushunarli, albatta: yozning bunday issiq kunlarida otlarni kamdan kam hollarda tom ostida ushlashardi, ko'proq ularni yaylovlarga, o'tloqzorga qo'yib yuborishardi.

Faqatgina otxona to'rida malla to'riq beda chaynab turardi (Rodnev tushundi: bu rais shoshilinchda haydab chiqib ketishi uchun mo'ljallangan maxsus ot edi) va u ko'rimsizgina, do'ngpeshana ot bo'lib, «har ehtimolga qarshi» qoldirilgan edi. Hatto mana shu

do‘ngpeshana otning ham yollari taralgan, dumi qirqilgan edi... Rodnev butun otxonani oralab chiqdi va pichanxona orqali ikkinchisining oxiridan chiqdi.

Taqir boshini quyosh nuri ostida tutganicha, pastgina to‘ngak ustida bir qariya o‘tirardi. Uning tizzasida malla dog‘li oppoqqina mushuk bolasi yastanib yotgandi. O‘ynoqlagancha, mushukcha qariyaning g‘adir-budur barmoqlarini tishlashga harakat qilar, cholning serajin va malla yuziga samimiy tabassum yoyilgandi.

– Salom, Fedot Nikitich! – ovoz berdi unga Rodnev.

– A-a, Vasiliy! – chiroyli tabassumini o‘zgartirmagan holda unga o‘girildi qariya. – Mehmonga keldingmi? Allaqachon kelishing kerak edi, men ko‘ryapmanki, hech yoqqa o‘girilmay, faqat qishloqni kezib yuribsan.

– Kuzovdan kelyapman, bir qarab o‘tay, dedim.

– Anavi yopqichni solgin-da, o‘tir.

Fedot Nespanovning quyosh yoritib turgan yuzida oq emas, qo‘ng‘ir tusdagi, ammo rangi o‘chgan soqol o‘sgandi. Ular bundan o‘n besh yil oldin ham xuddi shunday edi, u paytda Vasiliy Rodnevning lablari ustida endigina tuklar sabza ura boshlagandi. O‘shanda Fedot otboqar bo‘lib xizmat qilardi. Vasiliy ulg‘aydi, atofdagilarni hayratga solgan holda, ikki marta o‘lib tirildi, bu qariyada esa vaqt ko‘ldagi ko‘k rang olgan suvga o‘xshab turardi.

– Tumanda menga bizning kolxoz otxonasida tartib yo‘qligidan shikoyat qilishgandi, – gap boshladi Rodnev.

Qariya mushukchani tizzasidan tushirdi.

– Bu to‘g‘ri, tartib rostdan ham past.

– Qanday? – ajablandi Rodnev.

– Oddiy, shunday, tartib yo‘q va hammasi shu yerda.

– Unda nima uchun tartibga solmaysiz, axir siz yetakchi otboqarlardansiz-ku?

– Menga tartibga solishga hojat yo‘q, men allaqachon bu ishni qilib qo‘yibman. Bizning kolxozda uchta brigada bor, har bir brigada esa o‘z otxonasiga ega. Mening brigadamda hammasi o‘z o‘rnida, narigi ikkitasida mutlaqo tartib yo‘q...

– Shunday deng! U holda bunga sabab nima, bu tartibsizliklarda kim aybdor? – so‘radi Rodnev, u hozir Fedotning hamma aybni

kolxoz raisiga to'nkab turishiga ishonchi komil edi, ya'ni u boshqarishni eplolmayapti, deyishi kerak edi.

Ammo u boshqa mulohazani eshitdi:

– Bunda inson qiyofasi bilan bog'liq turli sabablar mavjud. Xo'sh... Mana, masalan, ikkinchi brigada otboqari Yurka Levashovni olaylik, yosh yigit, sog'lom va o'z-o'zidan tushunarliki, miya ham qiyalab ketgan.

– Hm... Qiyalab?

– Meniki bilan solishtir: men – qariyaman, menda, aytish mumkinki, boshqa hech narsa haqida o'ylashga bu kalla qodir emas, boshqa narsaga uning qiziqishi yo'q. Yurka-chi? U o'yin-kulgiga chiqishi kerak, baliq ovlashga, hayvon oviga borishi kerak... Uning xayoli sulini asrash uchun qancha pichan tashlash kerakligi haqida bo'lmaydi, masalan, aytaylik, Klashka haqida bo'lishi mumkin, yoki Katyushka Morozova haqidami...

– Eh, siz, otaxon, oshirib yubordingiz-ov! Bundan kelib chiqyaptiki, otboqar bo'lgandan so'ng o'yin-kulgi haqidayam, ov haqidayam o'ylamaslik lozim. Me'yorida hamma narsa mumkin.

– Uyam, buyam me'yorida bo'lishi lozim... Yosh yigitda qanday me'yor bo'lishi mumkin? Yosh yigit me'yorni bilishi uchun o'z ustida turgan qo'lni his qilishi lozim. Yurkaning ustida qanaqa qo'l bor? Brigadirmi? Uning o'zi Yurkadan qo'rqadi. Rais esa – Yurkaning o'rtog'i, o'yin-kulgilarga ham birga borishadi. Mityuxa Spevkinning o'zining ustidan qo'l kerak... Endi, bu yoshlarning ustiga chiqadigan qo'l qani? Ilgari bu masalada kamchilik yo'q edi: ko'ryapsanmi, yigit yo'nalishni xo'jalikdan oladi – jabduq bilan o'rgatasan. Ziyofat ziyofat bilan, xo'jalik esa xo'jalik bilan. Ko'rasanki, uning xayollari ham kerakli tomonga o'giriladi, vijdon ham ayni o'z me'yorini ushlab turadi. Hozir esa... Eslolmayman, Yurkani nima uchun jilovlamoqchi bo'lganimni... Xudoga shukurki, men uning otasi emas, bobosi qatoriman. Nimani o'ylama, u mushtini ko'rsatishdan ham toymaydi. «Tag'in lat yeb qolmagin, otaxon», deydi. Uning mushtumi esa, o'zing kechir, Xudo, u odamning mushti emas. Agar o'lchaydigan bo'lsang, to'rvani cho'zib ham bunday mushtumga yetkazolmaysan. Xo'sh, keyin nima qilasan? Tupurasan va ketasan.

TOSHKENT SHAHAR YASHNOBOD TUMANI
№ 2922/N2-48

Fedot uvadasi chiqib ketgan tamaki xaltachasini chiqardi, undan taxlangan gazeta varag'ini oldi.

– Menga nima, ishim arzimagan – tartibni yaxshi ko'raman va u menda bor. Boshqalarning betartibliklariga esa burnimni suqmayman. Qanchadan qancha raislar almashib ketdi, hammasi mening ishimdan ko'ngli to'lgan. Kolxozga boshliqlar keladi, otlarni ko'rgisi kelib qoladi. Pochinokka borish uzoq. Bizning otxonamiz esa tumshuqning tagida. «Marhamat qiling, kiring, Fedot Nespanovni yerdan kovlab olmaysan!» Yo'l otlarini ol – bu otlar ham itoatkor, to'polon qilmaydi... Ko'rasanki, men bilan birga rahbarlarni, raisni maqtashadi. Mendan hamma rozi bo'ladi... To'g'ri, bahor oldidan toylarimizni yo'qotdik, rahbarlar bizdagi hamma tartibsizliklani ko'rib chiqdi. Fedor Alekseyichning o'zi keldi, Panikratov. Juda qattiq urishdi... Juda zardasi qattiq odam... Eh-he-he, bizning ayblarimiz... Xo'sh, o'zing bu yerda nima qilyapsan? Aytishlariga qaraganda, bizda qolmoqchi emishsan? Axir, sen, qara, qandaydir rahbar o'rnini olishing kerak. Axir bekorga shuncha narsani o'qib, olim bo'ldingmi? Yoki nimadir xalaqit qilyaptimi?..

3

Agar kichkinagina tepalikni oshib o'tsangiz, kichik qayinzor oralab borsangiz, kichkinagina qishloqcha ustidan chiqasiz, uylar o'ntadan oshmaydi, – bu Pochinok, Lobovishe qishlog'ining bir qismchasi. Tuman bo'yicha bunaqa kichkina qishloqchalar ko'p, bunisi esa, boshqalardan farqlangan holda – Lobovishe kichik qishloqchasi, Pochinok deb nomlanadi.

Bu yerda Stepan Razin kolxozining ikkinchi brigadasi joylashgan.

Rodnev yaqinlashib kelavergan ham ediki, otxona eshigi yonida to'planib turgan go'ngning ko'pligidan chivinlar galasi to'zg'ib ketdi. Rodnev halqasi ilinib turgan ochiq eshikdan kirishi bilan burniga eskirib ketgan ot go'ngining hidi urdi. Ha, zootexniya, fan, raqamlar ustuni faqat jadvallarda: oqsillar, uglevodlar, to'qimalar... Bu yerda fan emas, faqat katta belkurak kerak edi, xolos!

– Kimdir bormi?

Hech kim javob bermadi. Nihoyat, qarama-qarshi eshikdan basavlat bir yigit sekin chiqib kela boshladi, uning yelkasi yag'rindor, ko'zlari esa uyqusirab turardi.

– Sen otboqarmisan?

– Ha.

Rodnev uzoq vaqt unga qarab turdi: «Mana sening o'quvching. O'rgat!..»

Cho'chqaxona bundan ham battar go'ngga belanib yotardi, faqatgina molxona binosida, garchi g'aribgina bo'lsa ham, oxurlar to'zg'ib ketgan arqon bilan tortib bog'langan bo'lib, bu yerda biroz nafas olsa bo'lardi, go'ng tozalanib turishi uchun suv oqib turadigan kichkina ariqcha kovlangandi...

Boshqaruv a'zolari Rodnevga yozg'irgancha, xo'rsinib qo'yishgandi: «Sizning xalqingiz shunaqangi odamlarki, qancha gapirma, foydasi yo'q, hammasi shamolga uchib ketadi». Vasiliy kolxozdagi barcha chorvadorlarni yig'ib, ularga molning umumiy gegiyenasi, binoning umumiy tozaligi haqida ma'ruza qilishga harakat qilib ko'rdi... Ma'ruzaga xalq orasidan ko'pchilik tashrif buyurishdi. Ularning aksariyati yoshlar – yigitlar va qizlar bo'lib, kechqurunlari qilarga ishlari yo'qligi tufayli kelishgandi. O'tirishdi, o'zaro shivirlashishdi, yigitlar qizlarni chimchilashdi, ular esa bo'g'iq ovozda chinqirib yuborishdi, lekin molxona binolari atrofida to'planib qolgan hayvon chiqindilari to'plami qanday zarar keltirishi mumkinligi bilan hech kim qiziqmadi.

...Vasiliy Rodnev qachonlardir siyosiy o'quv bo'yicha komandir o'rinbosari bo'lib ishlagan o'sha batalyonda Andrey Dorofeyev degan snayper bo'lar edi. Dorofeyev hammani o'z sabri bilan lol qoldirgandi. Butun kun mobaynida qimirlamasdan qarama-qarshi tarafdagi xandaq to'silgan do'nglik orqasidan dushman askarining boshi cho'qqisi ko'rinadigan o'sha soniyani kuta olardi. Mana shu soniya kelardi, Dorofeyev, xuddi istamaganday, shoshmasdan qo'ndoqning ustiga engashardi va otardi. Aytish mumkinki, uning deyarli birorta o'qi xato ketmagandi.

Dorofeyev batalyonda yuzlab snayperlar bo'lishi lozim bo'lgan joyda ishni bitta o'zi uddalardi. O'shanda Rodnev eng zo'r merganlar maktabini tashkil qilishga qaror qildi. Ammo Andrey Dorofeyev

maqolda aytilganidek, «Qo'li oltin, ammo tili yo'q»lardan edi. Unga vazifani bajarish osonroq, ammo uni aytib berish uning uchun bajargan ishidan o'n marta qiyinroq edi.

Shunda Rodnev Dorofeyevga yordamga beshinchi rota kotibi Maksimovni qo'ydi, bu odam esa o'qimishli va mulohazakorligi bilan ajrab turardi. Dorofeyev Maksimovga snayperlik mahoratini o'rgatdi, Maksimov Dorofeyevga – hammasidan oz-ozdan va ikkalasi birgalikda o'n besh nafar yosh askarlani o'qitishdi. Bir oy o'tdi, bu o'n besh nafar askar Dorofeyevdan qolishmaydigan snayper bo'lishdi...

Rodnev o'ylanib qoldi, endi bu kolxozdan o'z Dorofeyev va Maksimovini topishi va ularni o'z o'quvchilari bilan ta'minlashi lozim edi, shunda ishlar siljib ketishi mumkin edi.

Rodnevning iltimosiga binoan ochiq yig'ilishni chaqirishdi. Partiyasizlar ichidan esa eng yaxshi otboqar Fedot Nespanov taklif qilindi. Burchakda o'tirib olgancha, ikkinchi brigada otboqari Yuriy Levashovning orqasiga yashirinib olib, chekib o'tirardi va shu holatda tinglardi. Qariya butun kolxoz otboqarlari undan ta'lim olishini eshitgandan so'ng, qo'l ko'tarib, so'z so'radi.

– Men, o'rtoqlar, o'rgatishim mumkin. Jonim bilan bu ishni qilaman. Otlarning dumini tarash, kurakcha bilan tozalash yoki aytaylik, go'ngni chiqarib tashlash. Sen, Yura, agar mana shu ishlarni qila olmasang, kel, uyalma, – murojaat qildi u baland bo'yli, shu paytgacha uning panasida chekib o'tirgan yigitga. – Buni o'rgataman. Ammo, boshqalarini, kechirasan, o'rgatolmayman... Men qarib qolganman, fanni o'qimaganman, o'zimning familiyamni, Fedot Nespanov, deb yozishni soqolim o'sib, ko'ksimga tushganda o'rgandim...

Fedot so'zlar ekan, Levashov unga jahl bilan qarab turardi. Fedot tugatishi bilan, u shovqin-suron bilan, qo'polligi tufayli stullarni bir-biriga urib, prezidiumga chiqib bordi. Og'ir va keng yelkasini to'g'riladi, gulduratib yo'talib oldi va avvaliga uzoq vaqt jim turdi, keyin esa tushunarsiz qilib, o'quv haqida, otlar haqida, chirib ketgan pol taxtalari va Spevkin bermayotgan qandaydir taxta haqida nimalarnidir g'o'ldiradi...

Qancha uzoq gapirgan sari uning yuzida shuncha ko'p zo'riqish aks etardi. Nihoyat havoni yutib, Yurka shiftga alanglab boqqancha,

jim bo‘ldi. Tushunarsiz kulgi yangradi va bu Yurkaga kuch berdi. U kutilmaganda Fedot Nespanov tomonga o‘girildi va deyarli tahdid bilan aynan nima uchun bu yerga, prezidium stoli yoniga chiqqani va aniq ifoda etolmayotgan gapini aytdi:

– Yomon maqtanding lekin... Musobaqaga chaqiraman!

Fedot qo‘lini qovushtirdi.

– Men tayyorman.

Aftidan yig‘ilish yaxshi o‘tdi: musobaqalashishga qaror qilishdi, bu esa o‘qishning boshlanishi edi, ammo Rodnev «Razin Dorofeyevi» o‘z o‘quvchisiga ko‘p narsani o‘rgata olishi amrimahol ekanini his qilib turardi.

Bir hafta o‘tib Spevkin, Gruzdev va Rodnev Yurka Levashovning otxonasini borib ko‘rishdi: go‘ng chiqarib tashlangan, chalmilar tozalangan, oxurlaning chiriy boshlagan taxtalari yangilari bilan almashtirilgan, otlar esa tuyog‘idan tumshug‘igacha yuvilgan, taralgan edi... Endi Levashovning otxonasi hech narsasi bilan Nespanov otxonasidan farq qilmasdi.

Ular qishloqqa kech tushganda kirib kelishdi. Javdar orasidagi so‘qmoqdan yurib kelishdi. Minglab ko‘zga ko‘rinmas chigirtkalar – biri uzoqdan, biri esa shundoqqina yondan, har biri o‘ziga xos ohangda, jo‘rovozlik bilan nafas olmay chirillashardi. Gohida keng dalani qamrab olgan javdarning har bir poyasi o‘z qo‘ng‘irog‘ini chalayotganday tuyulardi. Biroq bu sukunatga xalaqit qilmasdi – uzoq maysazorlarda, qiyoq bosgan ko‘llarda yovvoyi o‘rdaklarning qichqirig‘i kelib turardi...

Ikkinchi brigadada ishlar joyiga tushgani tufayli Spevkinning ko‘ngli to‘q edi.

– Yurka yon bermaydi, yo‘-o‘q! Fedot uni tirigicha ilintirdi!

– Barishnya yana bola tashlab qo‘yadi, – gap tashladi indamay kelayotgan Rodnev.

Barishnya, Levashov otxonasidagi baytal ikki marta bolaladi, ammo ikki safar ham o‘lik tug‘di.

– Barishnyaga nima bo‘pti? U Fedotning qo‘liga tushganda ham, Fedot unga yordam berolmagan bo‘lardi. Tabiatning hukmiga qarshi borib bo‘lmaydi!

– Nima bo‘lganda ham, tabiatning ishiga aralashish Fedotga emas.

Spevkin jim bo‘lib qoldi.

Oldinda qarshi olish uchun paxmoq soqolchalari bilan biroz chayqalib turgan qarag‘ay ko‘rindi. Uning oldida, o‘sha, so‘qmoq ikkiga bo‘lingan joyda Rodnev to‘xtadi.

– Mana, – Lobovishe tomonga yo‘rmalab ketgan so‘qmoqni ko‘rsatib, dedi u, – mana shu yo‘lchadan o‘qishga qatnaymiz.

– Chapayevliklargami? – so‘radi Gruzdev.

– Ularga.

Spevkin Chapayevkaga ketgan so‘qmoq tomon qadam tashladi, qattiq tepkilab ko‘rdi, go‘yoki, etik bilan bosiladigan yerni sinab ko‘rmoqchi bo‘lganday va uncha baland bo‘lmagan ovozda kulib qo‘ydi:

– Buni qara-ya... Bilim sari yo‘l.

4

Ayg‘ir ot Sezar Dmitriy Spevkinning faxri edi. U mana shu ayg‘irni Chapayev nomidagi kolxozda foydasi uchun ko‘rimsiz, qaysar va o‘ynoqi baytal Tyoshaga almashtirdi. Sezarning bo‘yni asabiy, kichkina quruq boshli, yoli quyoshda tovlanardi, yorqin tillarangdan eskirgan to‘q misranggacha turlanardi; oldingi oyoqlari xuddi boshmoq kiyib olganga o‘xshardi, ikkita tuyog‘i ham oq rang toj ostida edi... Otga minishdan oldin Rodnev uzoq vaqt uni mehr bilan shapatiladi va siladi.

Kun jazirama bo‘lib, qizdirayotgandi. Osmon-u falakda, juda balandda qirg‘iy qo‘zg‘almasdan, go‘yo osilib turardi. Vasiliy dastavval otni qistadi, keyin esa uni o‘z holiga qo‘ydi, egarda uyqusiragancha chayqalib ketaverdi. Ammo osmonga bulut chiqib keldi. Bu bulut shu qadar zaif ediki, hatto quyoshning yuzini ham yopolmasdi. Tizginni ushlab borayotgan terlagan qo‘liga bitta og‘ir ho‘l tomchi urildi. Ikkinchi tomchi uning yuzida yorildi, keyin uchinchisi, to‘rtinchisi... va otning tuyoqlari ostidagi chang qoplamiga o‘ralgancha tomchi halqalari behuda sirg‘alardi. Ko‘ylak esa bir pasda yelkaga yopishib qoldi.

Quyosh chiqib turganida yog'adigan bu yomg'irni yo «qo'ziqorin yomg'iri» deb atashadi – chunki mana shu yomg'irdan so'ng qo'ziqorinlar yaxshi o'sadi deb hisoblashadi, yoki «ko'r yomg'ir» deb, ya'ni u quyosh charaqlab turganini va uning yog'ish vaqti emasligini ko'rmagani uchun yog'adi.

Ot boshini siltaganicha, endi katta-katta qadamlar bilan yo'rg'alay boshladi. Bir yuvinib olgan o'tloqlar, dalalar, o'rmonlar ustida nafisgina kamalak ko'tarildi, hatto uni kamalak ham deb bo'lmasdi, go'yo u kamalakka bo'lgan quyuq ishora edi.

Yomg'ir to'satdan to'xtab qoldi. Kechikkan tomchilar shoshgancha yerga sho'ng'idi. Havoda esa tetiklashtiruvchi musaffolik qoldi, bu insonda qandaydir ko'tarinki tuyg'ularni uyg'otardi.

Yomg'ir o'tib ketdi, kamalak esa osmonda uzoq vaqt qoldi, yaxshilab o'rnashib oldi va so'ng bug'lanib ketdi.

Rodnev Sezarni molxona hovlisi yonidan, cho'chqaxona hamda otxona yonidan Chapayevka qishlog'iga olib o'tdi.

Otxonaning ochiq turgan eshigi oldida uchta yigit yarim yoshli hurkak toyni har tomonidan qarardilar.

Ular boshlarini kelgan odam tomonga o'girdilar. Birdan yigitlardan birining yumaloq yuziga tabassum yoyildi, xuddi eski og'aynisini ko'rib qolganday, qo'lini yozib, qarshi olishga chiqdi.

Rodnev otni ushlab turgancha, qaradi: oddiygina, sepkil bosgan yuz, quyoshda qizargan burun – aftidan bunaqasini ko'rmagandi, yanayam kim biladi deysiz?.. Sezar, qo'ldagi tizgindan yulqinib chiqib, uning oldiga talpindi va quvonch bilan yigitning yuziga, ko'ksiga, qo'liga suykalana boshladi.

– Sezar! Eh, sen, misrang po'stin! Taniding-a… Seni parvarish qilganimni unutmaysan, – hayajonlanib so'zladi yigit va keng kafti ila biroz dag'allik bilan otning bo'yniga, yag'riniga shapatilab, erkaladi. – Siz kimga keldingiz? – so'radi u Rodnevdan.

– Trubetskoyga.

– O'zida bo'lishi kerak. Yuring, kuzatib qo'yaman. Otni qo'yavering, uni joyiga olib borishadi. – Va Rodnevning hamma yoqqa qiziquvchanlik bilan alanglayotganini ko'rib, so'radi: – Siz bizning Chapayevkaga birinchi marta kelishingizmi?

– Yo'q, bo'lganman... Yigirma yil oldin.

Yigit kulganday hushtak chalib qo'ydi:

– Demak, birinchi marta. Hozir u Chapayevkadan asar ham qolmagan.

Ammo Vasiliyning nazarida Chapayevka ko'p ham o'zgarmagandi. O'sha baland uylar, xushbo'y shumurt bog'lari bilan yo'l oldidan ikki yonga keng yoyilgan; xuddi avvalgiday, oftobda, darvoza oldida o'rindiqlar o'rnatilgan, ko'cha eshik halqasidagi o'sha og'ir lo'kidon, o'yma chaspak. Ammo Chapayevkada nimadir yetishmasdi, eski, odatiy, qishloqqa xos nimadir yo'q edi bu yerda. Va birdan Rodnev tushundi...

O'n-o'n ikki yosh atrofidagi, kaltagina ko'ylak kiyib olishgan, oyoqlari quyoshda toblangan ikki nafar qizaloq ikkalasi bir bo'lib bitta katta paqirni ko'targancha, ustuncha yoniga kelishdi, uning cho'yan burniga paqirlarini ilishdi va kranni ochishdi. Suv oqimi paqirning bo'sh tubiga urilib, chuldirab kuylay boshladi.

Mana, Chapayevkada nima yetishmayotgandi – osmonga qarab turadigan suv chiqaruvchi moslamalar!

Va faqat, qishloq etagidan markaziga kirib borgandagina, Vasiliy Chapayevka haqiqatan ham o'zgarganini tushundi.

Markazda bir-biriga qarama-qarshi bo'lib ikkita baland bino, klub va kolxoz idorasi turardi. Lobovisheda kolxoz idorasi qishloq uylaridan faqat tepasidagi yozuvi va tomidagi antennasi bilan farq qilardi, shu antenna ham ko'rgazmaga turardi, xolos. Idoradagi arzongina radiopriyomnik ishlamasdi, uning tok manbayi allaqachon «o'tirib qolgan», yangisini esa sotib olishmagandi... Bu yerda esa – baland derazalar, kichkinagina kirish joyi emas, balki keng ayvon; tunuka tomga uchta machta o'rnatilgan, telefon simlari esa hamma tarafga qarab uzatilgan.

Aleksey Trubetskoyni yigirma yildan ko'p vaqt bo'ldiki, har yili ketma-ket raislikka saylab kelishadi, bunday hollar kamdan kam uchraydi. Vasiliy uni uddaburon, baroq mo'ylovli, har qanday qiz havas qilsa arziydigan yorqin ko'k ko'zli odam sifatida eslaydi. Qishda Trubetskoy paxtali kiyimini oldini ochib, kiyvolardi, yozda esa yondirvoradigan harbiy gimnastyorkada yurardi.

Hozir arpa, suli, javdar, bug'doyning hosili poyasi tutamlari ilib qo'yilgan keng kabinetida telefonda gaplashgancha, to'lagina, chor-

poyadan kelgan odam kalta ko'ylakda, yengini tirsagidan yuqoriga shimarib olgancha, bo'yinbog' taqib o'tirardi. U xonaga kirgan odamni ko'rish uchun o'girilgandagina Rodnev o'tloqlarni suvi ostida qoldirgan bahorgi ko'l kabi ko'm-ko'k, tanish ko'zlarni ko'rdi.

Trubetskoy go'shakda kimgadir qandaydir uch bochka yonilg'i to'g'risida baqirardi. Nihoyat u go'shakni qo'ydi va kabinet o'rtasida turgan Rodnevga e'tibor ham bermay, baland ovozda chaqirdi:

– Gavrila Timofeyich!

Eshik ochilib, qandaydir qovog'i soliq odam mo'raladi.

– Nikitani Mariyaning oldiga jo'nat, – buyurdi Trubetskoy.

– Nikita yo'q, to'rtinchi brigadaga ketgan.

– Unda o'zing borib kel. Hoziroq mashinani olsin va yoqilg'iga borsin... Aytib qo'y: yanagi gal uning ishini qilish uchun barmog'imniyam qimirlatmayman.

Rodnev bu orada stulga o'tirdi.

– Menga qanday xizmat? – o'girildi Trubetskoy, Gavrila Timofeyevich ortidan eshik yopilganidan so'ng.

– Xizmat qilish emas, yordam berish kerak.

Rodnev shoshilmasdan, Trubetskoy stoli yaqiniga o'tirdi.

«Yordam» Chapayev kolxozi raisi uchun eng tanish so'z edi. Atrofidagi hamma kolxozlar Trubetskoyga egilib kelib, yo'ng'ichqa urug'ini, zotdor cho'chqalarning bolalarini, nasl olish uchun zotdor buqalarini so'rashardi. Lozim bo'lsa, shikoyat qilib, zorlanib so'rashardi. Va u sergak tortdi.

– Men Razin nomidagi kolxozdanman, – Trubetskoyga boqqancha so'z boshladi Vasiliy.

Va rasmiy munosabat boshlandi: «Qanday yordam berishim mumkin?», bo'yinbog' ham, kalta ko'ylak ham, kabinet eshigiga osilgan, qora rang ustiga kumush rangda «Kolxoz raisi A.S. Trubetskoy» deb yozilgan taxtacha ham samimiyat va oddiylikni yo'qotardi.

– Sizlardan o'rganishga qaror qildik. Birdan bostirib kelib o'qimaymiz, kelamiz, ko'ramiz, keyin qaytib ketamiz, doimiy ravishda, kunda kelamiz.

Trubetskoy jiddiy tortdi, hatto qaddini rostladi, lekin hali ham jiddiylik bilan gapirdi:

– Nimani o'rganasiz? O'rganadigan narsa yo'q-ku!

U Rodnevdan: «Nimalar deyapsiz, Aleksey Semyonovich! Sizning shunday ilg'or kolxozingizda o'rganadigan narsa bo'lmaydimi...» – degan e'tirozni kutdi. Lekin Rodnev davom etdi:

– Keling, kelishib olamiz: siz o'zingizning eng yaxshi kolxozchilaringiz orasidan yaxshi gapira oladigan va ko'rsata oladiganlarini ajratib berasiz. Bir so'z bilan aytganda, bizga o'rgatishadi.

– Nima, siz «Razin»ning yangi raisimisiz?

– Yo'q, men zootexnik bo'lib ishlayman, sizning oldingizga tashkilot topshirig'i bilan keldim.

– Zootexnik?.. Kursni tugallaganmisiz yoki institutni?

– Tugatyapman. Institutning oxirgi bosqichidaman.

– Institut, demak... Qanday bo'ldi bu, – ayyorona va nosamimiy jiddiylik bilan ajablanib qaradi Trubetskoy, – siz, aytish mumkinki, ilm yetakchisisiz va bizga bosh egib keldingizmi? Bizning Pelageya va Ivanlarimiz sizga nimani o'rgatishi mumkin?

– O'rgatadigan narsa bor. Birinchidan, mening o'zimga amaliyot kerak. Ikkinchidan, bizning kolxozchilarimiz zootexnik donishmandlikdan emas, oddiyidan boshlashlari kerak. Bu masalada kolxozchini eng yaxshi o'qitadigan kolxozchidir.

– A-a... Xo'sh, xo'sh... Tushunarli. Nima ham derdim, bu bizga ham qo'l keladi. Nima, qoloq kolxozlar qurshovida yashash yaxshi, deb o'ylaysizmi? Mana, Vajenkada elektr stansiyasi qurishni boshladilar. U yoqqa nazar solmadingizmi? Borib, qiziqib ko'ring: belkurak bilan kovlanadigan kotlovan[1] bo'lishi kerak bo'lgan joyga chag'irtoshni uyumlab tashlashgan. Uchinchi yil, uchinchi yil-a, ish to'xtab qolgan! Nima uchun ish to'xtab qolgan? Mana shu «Stepan Razin»ga o'xshaganlar tufayli. Ular har tomonga tortishni boshlashdi: ko'tarisholmaydi, ssudalarni to'lolmas emish, qarzga botib, ishchi kuchini ushlab qoldik, o'zlari ishlashmadi, ko'proq bizga qarab turishibdi... Uchinchi yil! Hammaning ishini bittasi o'z bo'yniga olishi, e, bunga tupurish kerak, axir yarim ming kilovattlik GESga kuchimiz yetmaydi, bir o'zimiz uddalolmaymiz. Ba'zan o'ylab qolasan: jin ursin, GES bo'lmasa, ikkita eski generatorni lokomobilga qo'yish uchun sotib olish kerakmikan...

---

[1] *Kotlovan* – poydevor yotqizish uchun qazilgan chuqur.

Trubetskoyning ta'bi tirriq bo'ldi, unga birdan bo'yinbog' ortiqchalik qilib qoldi, barmoqlari bilan tugunini pastga tortdi (bu bo'yinbog' bir marta va doimiy xilidan edi, ya'ni do'konning o'zida tugiladi va keyin har tongda boshdan kiyilib, taqilaveradi).

– Nima ham derdim, – xo'rsindi Trubetskoy, – agar istak bo'lsa, demak, o'qitamiz. Ammo kelishib olaylik: siz foyda ko'radigan, biz esa ziyon ko'radigan bo'lib qolmaylik. Biz sizga yordam beramiz, siz esa bizga. Shaxsan siz chorvachilik bo'yicha ma'ruzalaringizni bizda o'qiysiz. Qo'l tashlang. A?..

– Qo'limdan kelganini bajonidil o'rgataman.

– Unda, keling, yaqindan tanishib olamiz.

Vasiliy kuldi.

– Men sizni salkam go'dakligimdan bilaman. Kim okrugda Aleksey Trubetskoyni tanimaydi? Rodnev mening familiyam. Vasiliy Rodnev.

– Matvey Rodnevning o'g'limi? Qani, menga qara-chi!.. Axir biz sening otang bilan birga fuqarolik urushida jang qilganmiz.

Trubetskoy va Vasiliyning otasi o'sha vaqtda turli armiyalarda jang qilishgan, hatto turli frontlarda, ammo Ikkinchi jahon urushidan so'ng shunday hisoblanadi: agar oq gvardiyaga qarshi kurashgan ikki odam uchrashib qolsa, ular birga jang qilishgan, deb bilishadi o'zlarini.

– Ha-a, bolalar ulg'aymoqda. Mening qizim talaba. Qariyapmiz. – Trubetskoy buni quvnoqlik bilan, deyarli shod bo'lib gapirdi. – Xo'sh, nima qilamiz, ehtimol borib ko'rarmiz, odamlardan qaysi birini uchratar ekanmiz? – taklif qildi u.

5

Chapayev nomidagi kolxoz va qishloqning o'zi – Chapayevka, ilgari bu o'rmonzor qishloqcha Xristaradevka, deb nomlanardi. Yer kam, bo'lgani ham kulrang tuproq va qumdan iborat edi, – har yili ham yaxshi hosil beravermasdi. Bu qishloqdan butun uyezd bo'ylab qashshoqlar borishardi, ular oilasi bilan borishar, derazalarni chertishar va zorlanib qo'shiq kuylashardi: «Mahamat qiling, o'tinaman, Xudo haqi, bir burda nonga pul bering». Va o'z farzandlariga, na-

biralariga qotgan non bo‘laklari bilan birga qishloqlariga sharmandali nom – Xristaradevka nomini olib kelishdi.

Sakkiz yoshlarida mana shu yo‘ldan Lyosha Trubetskoy onasining etagidan tutib, begona oynalarni chertgani borgan edi:

– Xudo haqi, nonga pul bering…

Bir kuni bahorda onasi shamollab qoldi, to‘shakka yotdi va qaytib turmadi. Shundan so‘ng Lyoshka yo‘qolib qoldi, o‘n to‘rt yil uning na o‘ligi, na tirigi haqida xabar bo‘ldi… Chiroyli yigit qaytib keldi: zig‘irrang telpagini chakkasiga qo‘ndirgan, yelkasida o‘ldirilgan ofitserning shineli, ko‘m-ko‘k nigohlarini tashlasa, har qanday qiz qizarib ketardi.

Lyoshka Vasiliy Ivanovich Chapayev bilan birga jang qildi. Xristaradevka nomini Chapayevka deb o‘zgartirishni ham u taklif qildi. Erkaklarni birinchi bo‘lib Chapayev nomidagi kolxozga haydab chiqqan ham u bo‘ldi.

Tor ko‘cha bo‘ylab Trubetskoy Vasiliyni qishloq etagiga olib o‘tdi. Shoxdevor orqali kesib o‘tishdi.

– Mana, hech bo‘lmasa… – Rais to‘xtadi. – Mana shuni o‘rgatish mumkin, bu agronomni ham o‘qitadi.

Ammo chor atrofda bir zog‘ ham ko‘rinmasdi. Hech bir yelpinsiz, kichik qismidagi bug‘doylari sarg‘ayib, boshoqlar boshoqlar bilan xuddi qirqilgan soch kabi teng darajada turgan keng dala mudrab yotardi.

– Bug‘doy yaxshi-a?

– Yaxshi!

– Agniya Belozyorovaning dalasi. Juda tajribali odamimiz u. Bug‘doy janubdan. Avvaliga juda tarang qildi, o‘smadi, chunki bizning yerlar sovuq, nam va quyoshli emas. Endi, qara, hammasi joyiga tushib ketdi… Hozircha, to‘g‘ri, bu tajriba maydoni hisoblanadi, tajriba maydonida esa, bilasan, darvozayam katta ochiq bo‘ladi. Yanagi bahorda, ko‘rasan, o‘n gektarga shunaqa urug‘ ekamiz. Agniyaning boshi – oltin, bir kirib ko‘ring, u haqda yaxshi so‘zni bir marta aytmaysiz. Xo‘sh, ketdikmi? Bunday don oldida mehr bilan kuni bo‘yi qarab tursang ham to‘ymaysanam, charchamaysanam.

Ular qishloq yoqalab, uylarning ortidan yo‘l solishdi.

– Bizda ikki nafar mana shunday mohir dala mudiri bor – Stepan Knyajin va Agniya, – davom etdi Trubetskoy. – Stepan kenglikni yaxshi ko'radi, unga ikki yuz gektar yer ber, uch yuz ber, haydaydi, qayta ishlaydi, shunday ekadiki, birorta o't ko'rmaysan, faqat g'alla o'sadi. Ko'rdingmi, javdar sizlarning dalangizga o'xshaydimi? Uniki knyajinya navi... Agniya – butunlay boshqacha tabiat. Ko'pi bilan ikki gektar, uning ko'lami shu. Biroq Stepan tekshirilgan urug'ni ekadi, ya'ni uyaltirib qo'ymaydiganini. U javdarni yaxshi ko'radi va shunday deydi: «Javdar – donlarning sardori». Agniya esa ajoyib, bizning iqlimimizga qaysi to'g'ri kelmasa, o'sha uni maftun etadi. Kitoblarni atrofiga yoyib oladi, hududida bir, ikki, uch yil yer haydaydi, kovlaydi, biror ayyorlikni baribir topadi va yangi navni o'sishga majbur qiladi.. Stepan – serg'ayrat yigit, bu esa ehtiyotkorlik bilan, u yoq-bu yoqqa qarab ekinga yondashadi…

Tovuq fermasi tomon burildilar. U yerda ish qizg'in palla edi. Indagi tuxum qo'yar tuzoqda tovuqlar besabrlik bilan navbatda turardilar. Tuxum tug'adigan tovuqlar – biri biridan ovozini balandlatib, besabrlik bilan qaqag'lashar, olamni buzuvchi tovushlari bilan oldinga tiqilishar, itarishar, bozor rastalaridagi shallaqi sotuvchilarga o'xshab, na olishga, na berishga qo'yardilar. Kaltagina xalat kiyib olgan qiz u tuxumdondan bu tuxumdonga yugurar, tuxum qo'ygan tovuqni bo'shatib, ularning panjasiga kiydirilgan halqasidagi raqamni ko'rardi. Tuxumuyadan chiqqan tovuq qizning qo'lida jimgina o'tirar, ko'zlarini javdiratgancha, alanglar, ammo yerga qo'yib yuborilishi bilan birdan qanotini qoqib, silkinardida, o'sha zahoti qo'shig'ini boshlardi. Bu galgi qo'shig'i boyagi shoshqaloqlik va sabrsizlik ohangida emas, balki tantanavor ohangda bo'lardi. Hali issiq tuxumga qiz qalam bilan tovuqning raqamini yozib qo'yardi.

– Tanishing – mening qizim. Lena, sen Lobovishedagi Rodnev Matvey Ivanovichni eslaysanmi? Ha, qayerdan ham eslarding! Bu yigit uning o'g'li bo'ladi.

Trubetskoy bemalol, erkin gapirdi, namoyishkorona e'tibor bilan tuxum qo'yayotgan tovuqlarga nazar solsa ham, ammo qiyalab Vasiliyning yuziga boqqan mug'ambirona nigohida otalik faxri aks etib turardi.

Tovuq fermasidan chiqayotib, Trubetskoy avvaliga indamay ketdi, ammo keyin chidab turolmadi va maqtay boshladi:

– Ta'tilga kelgan. Timiryazevkada o'qiydi. Uni agronom qilishni istadim. Ammo hammaning o'z yoqtirgan narsasi bor: aytadilarku, kimga muz bilan kvas, kimga asal bilan may, deb. Tovuqlarga qiziqdi u. Tabiati qattiq. Har bir tovuqni alohida nazoratga olgan. Bir yilda yuz elliktadan kam tuxum qo'ygan tovuqni pichoq tagiga yuboradi! Bu yilda u normani saqlab qoldi – yuz elliktadan tushyapti, yanagi yilga esa yuz yetmishtaga yetkazish haqida o'ylayapti, u yerda esa, ko'rasanki, bir boshga ikki yuzta qo'yadiganlar bor. Bu ish chatishtirish yo'li bilan qilinadigan ish, ukam. Ketdik, otxonani ko'ramiz. Bir yigit bilan tanishtiraman. Ehtimol eshitgandirsan – Sergey Gavrilov? Tuman bo'yicha, aytish mumkinki, eng yaxshi otboqar. Gohida, to'g'ri, haddan ortiq jahldor bo'lib qoladi. Agar uning ixtiyoriga qo'yib bersang, kolxozimizni ot zavodiga aylantiradi. Xuddi yosh toy singari, oyog'idan ushlab turishga to'g'ri keladi.

– Yuzida sepkili bormi? – so'radi Rodnev.

– Ha, o'sha, sepkilli malla. U bilan tanishmisan?

– Bo'lmasam-chi, mening otim bilan o'pishmadi, xolos…

Ammo otxona bo'sh edi – deyarli hamma otlar yoyishga olib chiqilgan va Sergey Gavrilov, mudrab o'tirgan navbatchining gapiga qaragandi, u yoqqa ot minib chiqib ketgandi.

Trubetskoy unga o'rma kuzovni hozirlashni buyurdi.

– Eh-he! – dedi u Rodnev bilan yonma-yon o'tirib. – Gohida faqat yengil mashina sotib olishni o'ylab qolaman, lekin qo'rqaman: pul sovurilmasmikan? Hamma vaqt ham tekis yo'lda yurilmaydi, gohida dalalar bo'ylab, yaylovlarda yurishga to'g'ri keladi. Bizning do'ngliklar esa eski, baland va ot boshini burib ketaverasan... Biz bu o'nqir-cho'nqirlarni qachon tekislab ulguramiz?..

Ular yaylovga kelganida, Vasiliy nima uchun Trubetskoy erinmasdan o'rma kuzovga mindirib, mehmonni besh yuz kilometrga olib kelganini tushundi.

Odatda, Kuzovki tumanidagi bunaqangi yaylovlar naridan beri o'rab qo'yilgan bo'lib, kichik daraxtlar o'sib yotardi; ularda asosan yertut, qo'ziqorinlar o'sib, o't kam bo'lardi.

– Taniyapsanmi? – so'radi Trubetskoy.

– Tanib olish qiyin. O‘rmon edi.

Kuzov hali u yonga, hali bu yonga egilib, mustahkam to‘siqlar bo‘ylab chayqalib borardi. To‘siqning ortida tekis joy, butalar, to‘ngaklar bo‘lib, birorta ham daraxt ko‘rinmasdi.

– Kesib tashladik – achinmaymiz ham, befoyda o‘rmoncha edi; o‘tlarga quyosh nurini ochdik; keyin esa yaylovlarni o‘rab ajratdik, hammasini birdaniga toptab tashlamasligi uchun. Avval bitta yaylovga yoyamiz, keyin ikkinchisiga, so‘ng uchinchisiga, mana shunday qilib, oxiriga borgunga qadar birinchi yaylovda o‘t yana bosh ko‘tarib turadi… A-a, ana, otlarimiz ham ko‘rindi. Seryojka ham shu yerda… Serge-ey!..

Ayg‘ir boshini ko‘tarib, quloqlarini ding qildi va kishnab yubordi. To‘ngaklar oralab, chivinlarni dumlari bilan yelpib haydagancha o‘tlab yurgan otlar Razin kolxozining baxtiqaro otlariga o‘xshamasdi, ulaning yungi uzun, qorin solgan, daroz, yag‘rinlari quyosh nurida tovlanib turardi.

– Yaylovlar – yaxshi. Ammo bo‘lingan yaylovlarda o‘tlatish yomon, – dedi Rodnev. – Qarang, qanday tarqalib ketishgan – biri u yoqda, ikkinchi bu yoqda, yana biri oldimizda, oyog‘i ostiga olib toptaganchalik o‘t yemaydi. Oyoqda yurib o‘tlatish kerak. Frontdagidek qilish kerak, oldidan va orqadan cho‘ponni qo‘yish lozim, ular qolib ketganlarni haydab yuradilar va oldinga ham sakrab o‘tishiga yo‘l qo‘ymaydilar…

– Frontdagidek!.. Seni qara-yu, frontchi, – kulib qo‘ydi Trubetskoy.

Ularning oldiga jilmaygancha, ammo jiddiyatni ushlagan holda Sergey Gavrilov keldi.

Rodnev unga «oyoq ostida» o‘t bilan qanday o‘tlatish lozimligini tushuntira boshladi.

– Bu ishga cho‘ponlarimiz yetishmaydi, – e’tiroz bildirdi Sergey.

– Yetadi. Bolalarni yig‘sa bo‘ladi. Ular otda jon deb yuradilar, – javob berdi Trubetskoy.

Rodnev havas qildi: «Bunday kolxozda ishlash judayam oson bo‘lgan bo‘lardi. Darrov ilvolishadi!»

6

Oqshom oldidan Trubetskoy va Rodnev charchagan holda kolxoz idorasi yonidagi o'rindiqda o'tirishardi.

Kunlari Chapayevkada ko'chalar tinch – butun xalq ish bilan band bo'ladi. Hozir qo'shni hovlida o't olishni istamayotgan mototsiklni tarillatib, ishlamayotgan motorni qiynashyapti. Klub eshigi tepasida ilingan radiokarnayning keng og'zidan ko'cha bo'ylab ovoz yangradi: «Tosh ungurda hisobsiz olmos...» Qizlar to'p-to'p bo'lib o'tishardi: ustlarida shaharga kiyadigan libos – guldor o'mol, oyoqlarida poshnasi ingichka va baland tuflilarda shunday yurib kelishadiki, go'yo chang yo'l emas, mo'rt muzning ustida qadam tashlayotganday. Oraliq masofani me'yorda ushlab (judayam uzoq ham emas, judayam yaqin ham emas), keyingi to'pda yigitlar kelishardi: furajkalarini qayirib olishgan, yelkalari tik tutilgan, oldinda garmonchi bormoqda edi. Shirin ovozli hind qo'shiqchisi ovozini bosib, gulduragancha kuylashardi:

E-eh, og'riydi yurak,
Yurak osti titraydi!
Mening go'zal mahbubam
Haydovchi bo'lib ishlaydi!..

Suhbatlashayotganlarning oldiga holdan toygan Gavrila Timofeyevich keldi.

– Yonilg'i nima bo'ldi? – so'radi undan Trubetskoy.

– Haydab ketishlari uchun yetkazdi.

– Tekshirdingmi, qaytib kelishmadimi?

– Ulgurmadim, Aleksey Semyonovich.

– Bu nima deganing? Hoziroq borib, tekshir.

Gavrila Timofeyevich itoat bilan boshini siltadi: «Yaxshi», dedi va uzoqlashdi.

– Shunaqa odamlar ham bor, miyasiga quymaganingcha, o'z bilgisidan qilmaydi, – yozg'irdi Trubetskoy.

– Sizlardagi tashkilot kotibi qayerda? Nima uchun uni men bilan tanishtirmayapsiz? – so'radi Rodnev.

– Miyadan chiqib ketibdi! Axir bizning kotibimiz Gavrila Timofeyevichning o'zi. Bo'shroq... Faqat qiladigan ishi – a'zolik badalini yig'adi, boshqa – hech qanday yordami tegmaydi, ko'proq yuk o'zimga tushadi... Bizda Gavrila Timofeyevichga o'xshaganlar bilan ish olib borishmaydi, ularni unutishgan. Sizlarda Gruzdev ham tilla kotib emasdir. Panikratov tuman qo'mitasida faqat portfelchalarni tarqatadi. Uning qo'l ostidagilar xuddi askarga o'xshaydi – u buyuradi, ular kolxozda qadam tashlaydilar...

Vasiliy hushyor tortdi: Trubetskoy yana nima deyishini kutdi, ammo u boshqa indamadi.

Quyosh daryo ortidagi uzoq o'rmonga botdi – kun olovrang oqshom bilan tugadi. Qizib turgan bulutlar vahima bilan yerdan ko'tarildilar.

Yerda esa javdar dalasida, daryo qirg'og'i butalarida, yo'l bo'yidagi na'matakning chang butalarida o'ziga xos sokinlik bilan asta-sekin kun rangi o'cha boshladi.

Rodnev shoshmasdan uyi tomon borardi. Hozir unga hamma narsa oson, hamma narsa kuchining ostidadek tuyuldi. Ha, u Stepan Razin kolxozidan Chapayev kolxoziga yo'l soldi, razinchilarga esa yo'l to'ppa-to'g'ri yo'l – ilm sari yo'l solingandi!

U otni otxona qorovuliga berganida qorong'i tushib qolgandi, u idoraga keldi. Rodnev, uning Gruzdev va Spevkin bilan suhbati yarim kechagacha cho'ziladi, deb o'ylagandi. Ammo Spevkin idorada yo'q edi. Uning o'rnida, stol atofida bir qiz o'tirgandi. Qiz qandaydir qayg'u ichra, dunyodan ajralib, qorong'i derazaga termilgancha, mushti bilan g'ijimlab olgan ro'molchasida ko'zini artayotgandi. U burchakdan bu burchakka jahl bilan mo'ylovini silagancha Gruzdev polni g'ijirlatib, borib kelayotgandi.

– Nimadir sodir bo'ldimi? – so'radi Rodnev.

Gruzdev to'xtadi.

– Mana, mashina-traktor stansiyasining hududiy agronomi, – boshi bilan qizni ko'rsatdi u, – aytishicha, boshqa biz tomonga qadamini bosmas emish.

– Nega?

– Shuning uchunki, bizning yigitlarimiz boshida shamol uchadi. Bu qiz Kuzovkidan kelishuvga asosan soat sakkizda suhbat o'tkazish uchun piyoda kelgan, biznikilar esa – garmonini olib, bitta qolmay hammasi Pochinokka ketgan. U yerda, ko'rmaysanmi, Mishka Buchnevnikida bazm qilishyapti. Biz Spevkin ikkimiz yo'q edik, dala aylangani ketgandik.

Qiz o'sha holatda o'girilib, bosim bilan dedi:

– Spevkin qayerda hozir?

– Mana shu masalada, ish pachava bo'lgani uchun, Mishka Buchnevnikiga yoshlarni qaytarish uchun ketdi. – Gruzdev birdan notinchlanib qoldi. – Menga qara, Vasiliy, men ham o'sha yoqqa boraman, bo'lmasa Dmitriydan umid kutib bo'lmaydi. Uni bilasan-ku, raqsga tushmasdan Mishkadan qutulolmaydi...

7

Qiyshayib qolgan qari qarag'ay yonidan Chapayevkaga olib boradigan so'qmoq bo'ylab, bir-birlariga tiqilib olgancha lobovisheliklar kelishayotgandi. Oldinda – bayramona qora kastumida – Gruzdev, uning ortidan Spevkin borayotgandi. Katya Morozova, birinchi dalachilik brigadasi brigadiri tuflisini qo'liga olgancha, maysa ustida oyoq yalang yurib kelardi; u Ishim daryosi irmog'igacha shunday yurib boradi, oyog'ini yuvadi va shundan so'ng poshnali tuflisini kiyib olib, Chapayevkaga boradi. Ozg'ingina, qirraburun cho'chqaboqar Somova katta-katta qadam tashlab borardi; uning qadami sokin edi, xuddi nimadandir jahli chiqayotganga o'xshardi. Hammaning ortida esa lapanglagancha Yurka Levashov kelardi. Aga hozir kimningdir yelkasida garmon osilgan bo'lganida, odamlar ularni yo to'yga, yo biror tantanaga ketishyapti, deb o'ylagan bo'lishardi.

Uch kun oldin Trubetskoy oldida Spevkin, Gruzdev va Rodnevlar to'planishib, birinchi yakshanba kuni lobovishelik kolxozchilarni bu yerga olib kelish haqida kelishib olishgandi.

Bugun o'sha yakshanba edi...

Chapayevkaga kimlar borishi saylab olingan yig'ilishda kichik bahs kelib chiqdi: Fedot Nespanovni yuborish kerakmi yoki yo'qmi? Eng yaxshilarni yuborishmoqchi bo'lishdi, Nespanov bugungi kunga

qadar eng yaxshi otboqar hisoblanib kelardi. Ammo Nespanov rad etdi:

– Mening boshim qariyaning boshi bo‘lsa, undan esa bolalar, xuddi teshik to‘rvaga o‘xshab, nima solma, hammasi to‘kilib ketadi... Siz boshqa bir miyasi butunrog‘ini jo‘nating...

Shundan so‘ng Yurka Levashovni jo‘natishga qaror qilishdi.

Yurkani «tor-tanqis» deb atashardi. U qayerda paydo bo‘lmasin – idoradami, mehmonxonadami, qo‘shni xonadami, keng, burilmaydigan, og‘ir kelbatli va haybatli yelkasi bilan – hamma yerda hamma narsa uning oldida tor-tanqis ko‘rinardi: shift ham past ko‘rinardi, deraza ham polga cho‘kib qolganday tuyulardi, agar yozishga o‘tirsa, odatdagiday stol birdan o‘yinchoq stolchaga aylanib, Yurkaning tirsagi uchun torlik qilib qolardi.

Uning kuchi haqida esa yon atrofdagi hamma qishloqlar va qo‘rg‘onlar bo‘ylab sharafli so‘zlar yurardi. Aytishlariga qaraganda, unga qor otib tegishishibdi. Qor borib Yurkaning yuziga tegibdi. Yurkaning jahli chiqib ketibdi, bolani quvib yetibdi, uning shapkasini olib, Yakov Gorshkovning eski hammomiga olib boribdi, kuchini to‘plab, devor yog‘ochini burchakka ko‘taribdi, shapkasini u yerga qistirib, qo‘yib yuboribdi... Malla quloqlar shalpayib turgan bilan ularni ololmaysan. Yigitcha shapkasini Yurkadan ololmay yig‘labdi, cho‘zib olibdi-da, g‘ijimlangan shapkasini olib, Yurkaning bemisl kuchi haqida aytib berish uchun qishloqqa yugurib ketibdi.

Chapayevkada, idoraning yonboshida lobovisheliklar Trubetskoyni uchratishdi. U shoshib qoldi, negaki razinliklar bayramga kelganday yasan-tusan qilib olishgan, u esa xo‘jayin bo‘la turib, soqoli olinmagan, kundalik kastumini yelkasiga ilib kelgandi.

– O‘rtoqlar, mana bu auditoriyalarda dars olamiz! – Rais mag‘rurona turib, qo‘li bilan butun Chapayevkani, dalalarni ko‘rsatdi. – Mana shu auditoriyada, – dedi u o‘ziga yoqib qolgan so‘zni takrorlab.

Gavrila Timofeyevich, Chapayev nomli kolxoz tashkilotining kotibi, mehmonlar bilan kim shug‘ullanishini aytib o‘tdi. Va Yurka Levashov uning o‘qituvchisi Sergey Gavrilov bo‘lishini eshitdi.

Yurka beliga qandaydir yoqimsiz sovuqlik yugurganini his etdi.

Qishda u kolxoz tomonidan yog'och tayyorlashga ularni olib kelish bo'yicha brigadir bo'lib jo'natilgandi. Otlar, to'g'ri, ko'rimsizroq edi, ammo brigadadagi bolalar ishonchli va ishgir edilar. Yondagi uchastkada chapayevchilar ishlashgandi. Seryojka Gavrilov brigadir, butun brigada – barchasi qizlardan iborat edi.

Bir kuni o'rmonga borishganda, kun shunday bo'ldiki, omadsizlik ustiga omadsizlik kela boshladi: Vanyushka Maslakovning oti oyog'ini sindirib oldi, Jenka Polozov ertalab hammadan ortda qolib ketdi va – buning uchun ahmoq bo'lishi kerak – adashib qoldi, yarim kun boshqa uchastkalarda izg'ib yurdi. Hisoblab ko'ring, shu kuni belgilangan ishning arang yarmini uddalashdi! Qaytishga yuz uyalardi... Shu yerda, xuddi atay qilgandek, chapayevliklar yetib olishdi: bu kun oshirib ishlashdi va quvnoq kayfiyatda borishardi; qizlar yuzlari qip-qizil bo'lgancha, xandon otib kulishardi. Seryojka ham o'sha vaqti oshiqcha gap qildi: «Otlarni qiynashni bas qilsangiz bo'lardi, bolalar, qaranglar, axir o'lay deb turishibdi, qarang, yurganda oyoqlari chalishib ketyapti. Ularning o'rniga brigadiringizni qo'shing, u sizlarning yog'och ortilgan aravangizni sudrab chiqa oladi». Yurka esa, albatta, uni boshi bilan qorga tiqdi – keraksiz vaqti kulma!.. Shundan so'ng uchrashib qolishsa Seryojka unga qaramasdi. Endi bo'lsa uni o'qitarmish. U o'rgatarmish!

Sut fermasining mudiri Pelageya Savatyeva, to'la, qizil yuzli ayol Gruzdev yoniga suzganday keldi, tirsagini tutdi va taklif qildi:

– Ushlab ol, xo'jalikka ketdik. U yerda aql bo'lishamiz. Qilgan ishimiz suhbatlashishga arziydi.

Hamma tarqab ketdi, Yurka esa tund holda etigining uchi bilan yer kovlardi; Sergey Gavrilov o'n qadamlar narida turgancha, qayergadir ko'chaning oxiriga nigohini qaratgandi. Birdan u shart etib burildi, Yurkaning oldiga keldi va uning ko'zlariga emas, furajkasining soyaboniga qarab quruqqina qilib dedi:

– Ketdik.

Sergey oldinda borardi, qo'llarini cho'ntagining to'riga suqib olgandi. Yurka esa yetakchisining ortidan ketayotgan aybdor ayiqqa o'xshab lapanglab borardi. Ular otxonaning yonidan o'tishdi, uning yonidagi kichik bino yonida to'xtashdi.

– Bu yerda bizning yem bo‘yicha laboratoriyamizga o‘xshagan narsa, – tanishtirdi Sergey, avvalgiday, uning ko‘zigamas, shapkasi soyaboniga qarab. – Hozir bunda vaqtimizni yo‘qotmaymiz, avval hammasini bir martada ko‘rib olamiz…

Yurka, oyog‘ini keng ochib olgancha, yerga qaradi va indamadi. Shunda Seryojka birdan qo‘rqib ketdi: «Ketib qolsa-ya! O‘rgatolmadi, deb aytishadi…»

Bu vaqtda Yurkaning dumaloq yuzi qizil rangga bo‘yalib ketgandi.

– Sen… buni… bilasan, kechir! Nima, endi kek saqlab yuramizmi? To‘g‘ri, o‘shanda juda xafa bo‘lgandim. Har holda quvonchli emas edi… buning ustiga...

– Qo‘ysang-chi! Men allaqachon unutganman, – shoshib dedi Gavrilov.

– Bilasanmi, so‘zim bilan... men aybdorman… U yerda nima bor, shunday, ketdik. Sizlarning otlaringizni ko‘rdim, laboratoriya haqida esa eshitmadim. Bu nimasi?

Uncha katta bo‘lmagan yorug‘ xonada o‘tlarning o‘tkir hidi turardi, devorda keng qog‘oz varaqlar osilgan, ularga o‘simlik tuplari yopishtirilgandi.

– Yaylov o‘tlari, – ko‘rsatdi Sergey devordagilarni, – zararlisiyam bor, foydalisiyam, har turdagisi. Mana, manavi o‘tni taniyapsanmi?

Sarg‘ayib qolgan bu qog‘ozda qurib qolgan o‘tlar mustahkam poyasi bilan yopishtirilgandi.

– E-e, otning nordon o‘tini quritishibdi... Bunaqasidan bizda to‘lib yotibdi. U nimasi bilan sharaf topdiki, uni ko‘rgazmaga qo‘yibsizlar?

– Nordon o‘t emas, ot shovuli, – to‘g‘riladi Sergey. – Agar u sizlarda ko‘p bo‘lsa, bu yomon. Biz, hisoblaginki, uni tomiri bilan quritganmiz. O‘tloqzorlarda kamdan kam uchrab qolishi mumkin. Zararli o‘simlik, ot ham, sigir ham undan aylanib o‘tadi. Otquloq! Kimdir unga otquloq, deb nom bergan!..

Yurka quruq poyani tirnog‘i bilan tilib ko‘rdi.

– Qiziq. Bizning o‘tlog‘imiz uzoqmikan – qo‘l bilan yulish, bizda ayrim joylarda qip-qizil, agar ko‘rsang.

– Bizda ham bir vaqtlar shunday edi – qip-qizil edi... Qara, bu o'tloqlarimizning rejasi. Mana bu Privajen o'tlog'i, Medvejya Kanitel, bu sizlarning atrofingizda – hamma o'tloq va yaylovlar shu yerda. To'q dog'lar – mana shu otquloq hammadan ko'ra ko'proq o'sgan joylar... Biz o'tloqlarni haydadik, boshqacha o'tlar ekdik. Aldayotganim yo'q, mana shu otquloqni butun o'tloqzordan poyasi bilan yo'q qildik.

– Poyasi bilan?

– Bo'lmasam-chi... Maxsus belkuraklar, o'tkir pichoqlar bilan tozaladik. Otquloqni ko'rdikmi, tomiri bilan kovlab, sug'urib oldik... Yur, o'tloqlarimizni ko'r, agar bitta bo'lsa ham shu o'tdan topsang, mukofotdan voz kechaman... Trubetskoy o'tgan yili bir tup otquloq uchun besh stakan qulupnay berishni buyurdi. Yigitchalar ayyorlikka o'tishdi – sizning o'tloqlaringizga borib, otquloq yulib kela boshladilar.

Yurka, bu kulgiga javob bermadi, boshini chayqab qo'ydi, xolos.

– Mana ishlar! Biz esa yonginada yashaymiz...

– Sizning o'tloqlaringiz biznikidan yaxshi, daryodan suv boradi, ammo pichanni biz sizdan ikki barobar ko'p yig'volamiz, yana shunday pichanlarki! – Sergey shkafdan qog'oz bilan o'ralgan bir tutam pichan oldi. – G'aramdan o'zim uzib olganman, ko'rgazma uchun emas, o'zim uchun. Hidlab ko'r...

– Choy!

– Choy, – rozi bo'ldi Sergey. – Bo'pti, ketdik otxonaga, bo'lmasa bu yerda butun hafta cho'zilib yurish mumkin, hammasini birdaniga aytib berib bo'lmaydi.

Yurka Chapayevkada tez-tez bo'lib turardi, haftada bir yoki ikki marta klubda kino ko'rardi, o'zining Pochinkasidan kelib, Chapayev qizlari bilan uchrashuvga chiqardi, ammo chapayevliklarning otxonasiga birrov nazar solib qo'yishni xayoliga ham keltirmagan ekan. Ularning otxonasi hammaniki qatori emasligini kim ham o'ylabdi, deysiz... Otxona bo'lmalari salkam shiftgacha yopilgan: xuddi har bir otning o'z xonasi borga o'xshaydi. Yem berish uchun ichkariga kirish shart emas – oynani ochasan («marka sotadigan pochtaga o'xshash»), oynaning tagida esa oxur, bir quchoq xashak solasan va bo'ldi.

Yurka taxtadan bo‘lgan yo‘lakda bo‘ylamasiga yurarkan, biroz hasad bilan o‘yladi: «Bizning kemtigimiz faqat go‘ng emas. Eh-he!»

Sergey to‘xtadi, ayyorona nazar tashladi.

– Senga bir narsani ko‘rsataman, og‘zing ochilib qoladi!

U bo‘lmalardan birining eshigini ochdi, uning ichiga kirib berkindi va ovoz eshitildi:

– Qani, azizam, kel-chi! Voy, ahmog‘-ey!.. O‘z bilganingdan qolmaysan-a!.. Suykalan!

Yurka yo‘lakda turib, Sergey hozir taniqli baytal Muravushkani erkalatyapti, u hozir ana shu ot bilan chiqib keladi, deb o‘yladi. Ammo ot bo‘lmasidan tirnog‘igacha tanish bo‘lgan tumshuqdor Tyosha ko‘rindi.

– Tyosha!

Chiroyli ot bo‘lmasidan qachonlardır Yurkaning otxonasida yashagan baytal ot Tyosha chiqib keldi. Tyosha aqlli va qari tulkiga xos tabiati bor edi. Agar uni otxonadan chiqarishsa, suli yoki kichik o‘rmonga berkinib olardi va uni topish juda qiyin bo‘lardi. Tyosha hamma otlar qatori o‘tlamasdi, yonboshlab yotib olardi va suli orasida berkinib, bo‘ynini cho‘zgancha, labi bilan suli poyalarini saralab, boshoqlarni o‘ziga tortib, oziqlanardi. U mana shunday yonbosh yotib ovqatlanardi. Qani, qarab topib ko‘r-chi uni, ammo, ajablanarlisi, Tyoshaning qadamini yarim kilometr naridan bilish mumkin edi. Oldiga borasan – sakrab maydonning boshqa burchagiga o‘tardi, u yerda javdar poyalari orasiga kirib ketardi, qayerda va qaysi joyga yashiringanini yana izlashingga to‘g‘ri kelardi… Rais Ignat Korshunov, u Spevkindan oldin ishlagandi, aytishlariga qaraganda, bu «oltin»ni arzonga sotib olgan. Yurka esa Tyoshadan qutulish uchun o‘zi pul berishga tayyor edi.

Va ajoyib narsa ro‘y berdi: Spevkin Tyoshani boshqa otga, ko‘rgazmaga qo‘yish mumkin bo‘lgan Sezar kabi otga almashtirdi! Garchi hozir Tyosha silliq, qorni to‘q, yungi hurpaygan bo‘lsayam, baribir u Sezardan judayam olisda edi!

Tyosha muloyim lablari bilan Gavrilovning kastumi cho‘ntaklarini hidlay boshladi.

– Qani, shirinlikni top-chi… – Sergey cho‘ntagidan qand chiqardi va otning lablariga tutdi. – Siz bir vaqtlar qanday xazinaga ega bo‘lganingizni bilmaysiz!

«Xazina emish… Xudoga shukur, o‘zingiz egalik qilavering, bizga u boshqa kerakmas», – o‘yladi Yurka.

– Oyoqlari kalta va quruq. Tuyog‘i chaqmoqtoshga o‘xshaydi! Yoliga e’tibor qil. Tusi samanniki, bog‘ich belida turadi, – Tyoshani maqtay boshladi Sergey. – U haqiqiy Vyatka zotidan. Ular yugurishda poygachi otlardan qolishmaydi, chidamlilikda ham – tengi yo‘q… Hech narsasiga qaramaganda ham, belini ko‘r, qanday xipcha… – Sergey kuldi. – Eshitishimcha, sizning Spevkiningiz qirchang‘ini Sezarga almashtirib, chapayevliklarni kiydirdim, deb maqtanib yurganmish. Sezar – aqlli, kuchli ot, gap yo‘q, u chiroyli ham. Tuyog‘i esa, tan olish kerak, zaifroq. Ammo undan nasl ololmaysan, har qanday qirchang‘i baytal butun naslni buzadi. Biz esa yangi, chapayevliklarniki bo‘lgan naslni olamiz – chiroyli bo‘lmasa ham ishgir va yugurik otlar.

Yurka, xuddi Tyoshani birinchi marta ko‘rayotganday, kafti bilan uning belini ohista siladi, Tyosha esa uning harakatini o‘zining qisiq va aqlli nigohlari bilan kuzatardi: «Xo‘sh, og‘ayni, tilingni tishlab qoldingmi? Men esa bu yerda yaxshi o‘rnashib oldim, shikoyatim yo‘q».

– Sen otlarni farqlay olasan, – xo‘rsindi Yurka.

– Men ham hech narsa emas, sen vetvrachimiz Shelkanovni bilganingda edi! Unga hech narsa deyolmaysan – yaxshi farqlaydi. Urush vaqtida otlarni armiyaga yetkazib berishgan. «Shuhrat» kolxozi raisi Krivsov Yegor ayg‘irni ko‘radi; u oqqushday suzadi, hayron qolasan. Shelkanov qo‘li bilan ko‘rsatadi: «Orqaga qaytar, bo‘lmaydi, chap ko‘zida oqi bor». Yigirma qadamdan biladi! O‘ylab ko‘r!.. Krivsov – indamaydi, boshqalar esa so‘rashadi: u qanday dog‘ ekan? Sen qayerdan bilasan? U esa qulog‘idan bilibdi…

– Qulog‘idan?

– Bir ko‘zi ko‘rmaydigan ot yon atrofni ko‘rmaydi, u qulog‘i bilan ilg‘ab qolishni istaydi, qulog‘ini esa alohida idora qiladi, uni ding qilib, eshitishga harakat qiladi. Shelkanov aqli bilan yer ostidagini ham ko‘ra oladi. Endi men ham asta-sekin farqlay boshlayapman… Siqilma, sen ham o‘rganib olasan.

Yurka uyiga Lobovishe orqali qaytdi. Nespanovning otxonasi yonidan o‘tayotib, u oyog‘ini tarvaqaylaganicha, ma’yus turgan qirg‘iy

tumshuqli, kajava qorin otni ko'rdi. Sergeyning gapi yodiga tushdi: qirg'iytumshuqlilar afrika zoti qoni bilan farq qilarkan: andalus zoti, arab poygachi otlari ham qirg'iytumshuq bo'larkan.

«Jin ursin, kim bilibdi deysiz! Tyosha haqiqiy, nasldor zotdan ekan, ehtimol mana bu qirg'iytumshuqli ham asl zotdor bo'lsa kerak?»

Bu ot o'zining meshday qorni va «afrika qirg'iyburunlilari»ga xos tumshug'i bilan shotiga suyab qo'yilgan xomutga ma'yus qarab turgancha, xirapashshalarini haydab turardi.

Yurka g'ashlik bilan his etdiki, endi uning uchun har bir ot – tilsim bo'lib, bu tilsimni yechishga sabri yetmayotgandi.

«Seryojka Gavrilov... Bu yigitlaning yigiti ekanini o'ylab ham ko'rmabdi. O'yin-kulgilarga hamma qatori garmon bilan boradi, hamma qatori o'ynaydi, ammo qara, u otlarni qay darajada farqlay oladi... Axir uyam bilimlarini osmondan olmagan, Shelkanovdan o'rgangan...»

8

Jaziramada, tunda shudring qoplamaydigan mahal o'tloqda maysalar rangini yo'qota boshlaydi. U xasta insonning yuzi kabi ko'kimtir, nosog'lom tusga kiradi. Yomg'ir yerni yuvishi bilan maysalar xira qizarib ketadi. Hech narsa o'zgarmaydi, hammasi avvalgidek o'saveradi, biroq har bir maysadan soflik hidi keladi...

Lobovisheda hayot bir zaylda, zerikarli o'tmoqda, ammo qurg'oqchilikdagi yomg'ir kabi, Chapayev kolxozida o'tgan kun hayotni bir qadar yangiladi. Hammasi oldingidek edi: mol hovli tomining tirqishlari orasidan quyosh yoritib turardi, cho'chqaxonada chayir cho'chqachalar yelib-yugurar, o'sha-o'sha javdarlar bo'tako'zlar bilan yonma-yon dalalarda turardi – va shunday bo'lsa-da, qishloqda nimadir o'zgargan, arang seziluvchi jonlanish paydo bo'lgandi.

Spevkin oldin chapayevliklarning cho'chqaxonasini ham, zotli, semiz, yalqov buqalarni ham, Chapayevkadagi parrandachilik fermasini-yu asalari xo'jaligini ham ko'rgan edi. Qo'shnilarning xo'jaligi qanchalik xilma-xil ekanligini bilardi... Hamma kabi, u «Stepan Razin»dagi ahvol yomon, chapayevliklarnikida – yax-

shi ekanligiga o‘rgangan edi. Lekin Trubetskoyning so‘zlari uni o‘ylanishga majbur qildi.

– Tentaklar! Bizga-ku muqaddas ruh yordam bermagan, biz o‘zimiz yelkamiz bilan topganmiz.

Biroq nimadan boshlash kerak? Hamma bu borada o‘zicha bosh qotirardi. Somovning cho‘chqaboqar ayollari nasldor urg‘ochilarni sotib olishni talab qilardi; Yurka Levashov bo‘g‘oz biyalar uchun yopiq bo‘lma qilish uchun qandaydir yupqa taxta bilan xiralik qilardi – hammasi kerak! Va Spevkin Chapayev kolxozida bo‘lganlarning hammasini xo‘jalik majlisiga yig‘ib maslahatlashishga qaror qiladi.

Gruzdev va Rodnev bu majlisda chetda jim o‘tirishardi.

Cho‘chqachilik fermasi haqida qizg‘in tortishuv boshlandi. Somova inontirishga urinardi:

– Cho‘chqachilik fermasi orqali hammasini oyoqqa turg‘izish mumkin. Uch-to‘rtta nasldor urg‘ochini, bitta erkak cho‘chqani sotib olamiz, binoni jihozlaymiz. Cho‘chqalar qanchalik serpushtligini o‘zingiz yaxshi bilasiz. Qarabsizki, uch yildan so‘ng – toza pul bilan ellik ming atrofida; mol hovlisini ta’mirla, tuyoqlar sonini ko‘paytir... Axir bu kolxozni tortib chiqarish mumkin bo‘lgan arqonku, – labi-labiga tegmay so‘zlardi u.

Spevkin vaqti-vaqti bilan Rodnev va Gruzdev o‘tirgan burchakka qarab qo‘yardi. Nihoyat u chidab turolmadi va so‘radi:

– Stepan, sen nima deb o‘ylaysan?

Gruzdev Rodnevga ko‘z qirini tashlab o‘rnidan turdi.

– Men cho‘chqachilik masalalarini u qadar yaxshi tushunmayman. Bu borada chuqur bilimga ega emasman, – sekin gapini boshladi u. – Menga shunday tuyulyapti: esingizdami, musobaqa rejalashtirilayotgan edi? Hammasi jimib ketdi, esdan chiqdi! Keling shu haqda gaplashamiz.

Musobaqa haqidagi suhbat Yurka Levashovda vahima uyg‘otmadi. U Fedot Nespanov bilan musobaqalashgan edi va endi cholni quvib o‘tishini bilardi. Sergeyning maslahatiga binoan Yurka o‘z otxonasining otlarini uch guruhga bo‘ldi: yoshlari, har qanday ishga yaroqli kuchliroqlari, hamma yoqda ham ishlatib bo‘lmaydigan kuchsizroqlari va juda ham nimjon, qarilari – biror kor-hol ro‘y berganda qayergadir borib kelish uchun. O‘tlatishni ham guruhlarga

bo‘lgandi. Fedotda esa qanday bo‘lsa, shunday qolgandi. Fedotning yordamchisi, o‘n to‘rt yoshlardagi bolakay Petka Chijik har kecha otlarni podasi bilan o‘tloqqa haydar, gulxan yonida o‘tirib kartoshka pishirardi. Yurka Fedot undan o‘zib ketishidan xavotirlansinmi?..

Lekin Yurkani bir necha kundan so‘ng idoraga chaqirishdi, o‘z tajribasini boshqa brigadalar bilan baham ko‘rmayotgani uchun qattiq tanbeh berishdi.

– Men axir qanday qilib Fedotga o‘rgataman? – yelkasini qisardi Yurka. – U nima deyishini bilaman: «Tur, yo‘qol, o‘rgatishga hali yoshlik qilasan». U bilan osh-qatiq bo‘lishni xohlamayman.

Gruzdev achchiqlanib qaradi, Spevkin ta’na bilan boshini chayqadi, Rodnev esa beparvolik bilan:

– Ha, xatolik bo‘lgan ko‘rinadi. Chapayevkaga boshqa odamni jo‘natishga to‘g‘ri keladi, – dedi.

– Men... bo‘yin tovlamayapman-ku. Nega unday deb o‘ylaysiz! Urinib ko‘raman, biroq foydasi bo‘lmasligini oldindan bilaman.

Yurka qanday o‘ylagan bo‘lsa, shunday bo‘lib chiqdi: Nespanov Seryoga Gavrilovning otxona haqidagi hikoyalarini uzoq eshitdi, ko‘zlarini ayyorona qisdi va hammasida «ha-ha» deb ma’qullab turdi:

– Xo‘sh, xo‘sh, qara-ya... Vay-vay!

Yurka bo‘lsa ko‘rib turardi: uni hech narsa hayron qoldirmayapti, chol shunchaki mazax qilyapti.

– Sen, Nikitich, o‘zingdan masxaraboz yasash uchun qarigansan. Ish haqida gapiryapman, diqqat qilsang bo‘lardi!

– Haqiqatda shunday, yigitcha. Men keksa xo‘rozman, jo‘janing aqli bilan yasholmayman.

Yurka yerga tupurdi va ketib qoldi.

Ko‘chada Petka Chijikni uchratdi. U oyoq uchida turib, Sezarning peshana yolidan ilashib qolgan chakamug‘ni olib tashlashga urinardi. Sezar boshini yuqoriga irg‘itar, Chijik esa Fedotga taqlid qilib, chiyillagan ovoz bilan:

– Qanaqangi ahmoq jonivor-a! – deya baqirardi.

Yurka darhol ochilib ketdi: «Hechqisi yo‘q, men sendan o‘zib ketaman, qari to‘nka. Otxonangda mening qoidam o‘rnatilganini bilmay ham qolasan». U darrov Petkaga:

– Chapayevning Jargonini ko‘rishni xohlaysanmi? Ketdik. Balki uni minarmiz, – deya taklif qildi.

Chijik ikkilanib javob berdi:

– Hozir fursati emas. Kechqurun bo‘lsa...

– Mayli, kechqurun ham mumkin.

Shundan so‘ng Yurka Sergey Gavrilovnikiga borayotganda Chijikni o‘zi bilan tez-tez oladigan bo‘ldi. Ular birinchi brigadadagi hamma mollar yoyiladigan maydonni bir nechta yaylovga bo‘lishdi, otlarni yaylovga belgilashdi.

Qariya Nespanov esa hamon Chijikdan mamnun, bo‘sh vaqtida oftobda o‘tirar, mol saroyga kelgan sigir sog‘uvchilar bilan hazillashar edi. Uning hayotida hech narsa o‘zgarmadi – u o‘zidan, odatiy ishidan, yozning qaynoq quyoshidan mamnun edi – cholga yana nima kerak?

9

Stepan Gruzdev Rodnevga partiya tashkilotida kotib bo‘lib ishlash qiyin ekanligidan tez-tez shikoyat qilardi.

– Ma’lumotim – bor-yo‘g‘i to‘rt yil, – xo‘rsinardi u.

Gruzdev partiyaga frontda a’zo bo‘lgandi. Hozir partiya tashkiloti kolxozida – besh kishi, Gruzdev urushdan qaytib kelganida esa uchta qolgandi: cho‘chqaboqar Somova, temirchi Prutov va Spevkindan oldin rais bo‘lgan Korshunov. Kotib qilib Gruzdevni saylashdi.

Gruzdevning partiyadagi ishi hamon yengil o‘tardi. Uning nomiga tuman qo‘mitasidan qog‘ozlar olib kelishardi... Tuman qo‘mitasidan va boz ustiga, birinchi kotib Panikratovning imzosi bilan kelgan qog‘oz Gruzdevda har safar konvertni ochganida sovuq hurmat uyg‘otardi. U qog‘ozni diqqat bilan o‘qir va seyfning o‘rnini bosuvchi tunuka qoplangan sandiqdagi a’zolik badallarini to‘lash haqidagi vedomostlar bilan birga saqlangan «Partiya ishlari» papkasiga puxtalik bilan yashirardi.

Qulay fursat tug‘ilganida Gruzdev kolxoz raisini xabardor qilishni unutmasdi:

– Tuman qo‘mitasidan xabar bor.

– Qanday xabar? – bezovta bo‘lib so‘rardi Spevkin, chunki u «tuman qo‘mitasi» degan so‘zlarni eshitganda ketidan darrov «tanbeh» so‘zini ham kutardi.

– Ba’zi kolxozlarda chorvachilik past rivojlanish ko‘rsatkichini namoyish etishmoqda, – ma’lum qildi Gruzdev.

– Kimga ko‘rsatishibdi? Mabodo bizga emasmi?

– Yo‘q, bizni tilga olishmadi, «Zavetov»dagi Kupsov va «Niva»dagi Solodovnikovlar esa dakki yeydigan bo‘lishdi.

Bunday «xabar»dan Spevkin mamnun edi va tez orada uning mavjudligini unutardi.

Gruzdev esa tez esdan chiqarmasdi – kolxoz yig‘ilishlarida, boshqarma majlislarida u: «Do‘stlar, tuman qo‘mitasi bizni bir necha bor xabardor qilgan...», deyishni unutmasdi va shu bilan birga oxirgi xatning mazmunini so‘zlab berardi.

Zarur bo‘lganda bu xatlar partiya yig‘ilishlarida muhokama qilingan. Yig‘ilish quyidagicha qaror qabul qilgan: «Stepan Razin nomli kolxoz partiya yig‘ilishi falonchi masala bo‘yicha falonchi sanadagi tuman qo‘mitasi byurosi (yoki plenumi) qarorini to‘g‘ri deb hisoblaydi...» Qarorning bir nusxasi tuman qo‘mitasiga jo‘natilgan, boshqasini Gruzdev tunuka qoplangan sandiqqa yashirgan.

Rodnevning kelishi bilan partiya majlislarida nafaqat tuman qo‘mitasidan kelgan «xabar»larni, balki chapayevliklarning o‘qishi va musobaqa kabi masalalarni muhokama qila boshlashdi.

Kechalari boshqarma idorasida olomon yig‘ilardi. Brigadirlar naryad olish, kimdir – ulfatlar bilan sigareta chekish, u-bu narsalar haqida gap sotish uchun kelishardi. Brigadirlar stol atrofida, Spevkinga yaqinroq o‘tirib olishardi; Gruzdev va Rodnev burchakdagi o‘rindiqqa, bunday kechalarning hozir-u noziri Fedot Nespanov esa pechka yonida, orqasi bilan devorga suyanib cho‘kkalab o‘tirardi.

Barcha suhbatdoshlar bir-birining fe’l-atvorini ham, odatlarini ham, zaif tomonlarini ham yaxshi bilishardi. Misol uchun, uchinchi brigada brigadiri Mitrofan Kozlov ishga oid suhbatlardan so‘ng sovet hukumatining birinchi yillarida yog‘ochlarni tashish bo‘yicha ishchi otryad boshlig‘i bo‘lganligini eslashni yaxshi ko‘rardi. Uning orqasidan savdogar Puziryovning do‘st va qarindoshlari poylab yurganini, mahalliy mushtumzo‘rlar quvganini, unga o‘q uzishganini,

ayri suqishganini, osmoqchi bo'lishganini, biroq u omon qolganini, hammani dog'da qoldirganini eshitishardi. Spevkin bo'lsa gap urush haqida ketishi bilanoq qizishib ketardi... Bu kechalarda qandaydir oilaviylik bor edi.

Rodnevgacha ham shunday bo'lgan, uning paytida ham shunday qoldi. Mitrofan Kozlov puziryovlik qorovul Foma Shestipaliy ustidan g'alabasi bilan maqtanishda davom etardi. Fedot Nespanov hikoyalarini odatiy kirish so'zi bilan boshlardi: «Yigitlar, sizga qanday ish bo'lganini aytsam...» Spevkin mushtumi bilan taqillatib, Batratskaya Dacha yonida nemislar o'n martalab hujum qilishganini eslardi... Biroq har bir kecha kimdir Rodnevga o'girilib:

– Qanday yangiliklar bor, Vasiliy Matveyevich? – deb so'rashi bilan o'tardi.

«Yangilik» – o'z tumanidan boshqa butun dunyoni anglatardi.

Va Rodnev gazeta yangiliklarini so'zlay boshlardi.

Asta-sekin, kechadan kechaga boshqarmada nafaqat qariyalar, balki yoshlar ham uzoq o'tirib qoladigan bo'ldi. Stullar yetishmay qolardi va endi faqat Fedot Nespanovgina emas, balki ko'pchilik yig'ilganlar devor yonida cho'kka tushib o'tirishardi.

Gruzdev, odatda, Rodnevning yonida o'tirib, yig'ilganlarga jiddiy nazar tashlardi: «Allaqachon shunday qilish, valaqlash emas, siyosiy ilm egallash kerak edi...» U soddaligi sabab gazetalar o'qish siyosiy ta'lim, bundan ortig'i kerak emas, deb o'ylardi.

Bir kuni Gruzdev, stoldan Spevkinning yo'qolgan ruchkasini izlayotib, qutini ochdi va u yerda Pushkinning kitobini ko'rib qoldi. Qo'liga olib biroz varaqladi va: «Bu Dmitriyga qayoqdan kelib qoldi?» deya hayron bo'ldi. Biroq shu zahoti o'n kunlar avval u va Spevkin o'rtasida ommaviy shanbalik va yakshanbaliklarda qilingan ishlar uchun qisman bo'lsa ham to'lov qilish kerak yoki yo'qligi haqida tortishuv bo'lganligini esladi. Rodnev unga Pushkinning kitobini o'qishni tavsiya qildi. Mana, Spevkin o'qiyapti, uning, Gruzdevning esa hech vaqti bo'lmayapti.

Shundan so'ng u Rodnevni topdi va bexosdan so'radi:

– Sen, Matveyich, kitobni menga bersang bo'larmidi?

– Qaysi kitobni? Kitoblar kam, tuman kutubxonasidan abonementga olaman, shu bilan yashayapmiz.

– Menga Pushkinni bersang... «Yevgeniy Onegin».

– Hozir menda yo‘q, Spevkin o‘qiyapti.

Ertasi kuni ertalab Spevkinni uchratib, Gruzdev to‘ng‘illay boshladi:

– Sen nega ikki haftadan beri kitobni ushlab turibsan?

– Qaysi kitobni? Ha... Hech qo‘lim tegmayapti. O‘qib tugatay, ozgina qoldi.

Ammo Gruzdev Spevkinning yonga lip etib qaragan ko‘zlaridan u kitobni hali o‘qishni boshlamaganini tushundi.

– O‘rgildim senday kitobxondan... Kolxozda bir o‘zing o‘qimayotgan bo‘lsang kerak, kitoblarni bizga vaqtinchaga berishadiku.

Yarim tunga yaqin mol hovlidan qaytib kelayotib, u boshqarma derazasida chiroq yonib turganini ko‘rdi, sekingina borib qaradi: Spevkin barmoqlarini malla qo‘ng‘iroq sochlarining ichiga suqib, kitob ustida o‘tirardi, kuldonning yonida – chekib tashlangan sigaretalar, lampa yorug‘ligi yengil tuman bilan qoplangan. Va yana ko‘ngil ichida nimadir yutib yubordi: «U o‘qiyapti, men bo‘lsa hozir uxlashga yotaman...»

Sut-mol fermasida ishlash, partiya ishlari va yana kitoblar... Stepan Rodnev bilan u kotiblik vazifalarini qabul qilishi uchun tez-tez gap ochardi – aynan uning qo‘lidan keladi. Biroq Rodnev bunga javoban:

– Qanday qilib qabul qilaman? Sut fermasini ham qo‘ldan qo‘lga berolmaysan, bu yerda esa – partiya tashkiloti. Hisobot-saylov majlisi kelsin-chi, shunda ko‘ramiz, – derdi.

Lekin hisobot majlisigacha hali ancha vaqt bor edi va Gruzdev tuman qo‘mitasiga borib, ertaroq, hisobot-saylov kampaniyasigacha partiya tashkiloti kotibini saylash mumkin yoki mumkin emasligi haqida maslahatlashishga qaror qildi.

U Kuzovkidan allavaqtda qaytdi. Spevkinning oldiga bir piyola choy ustida suhbatlashib o‘tirish uchun kirdi.

– Seni Panikratovning o‘zi titib-tarab tayyorlamadimi mabodo? – so‘radi Dmitriy, Stepanning qovog‘i solinganini, mo‘ylovi esa osilib qolganini ko‘rib.

– Yo‘q... – dedi Gruzdev. – Qayoqdan ham shunday dedim... Men bizning Vasiliy Panikratovimizni maqtadim, u bo‘lsa: «Rodnevni sizlardan olib ketamiz. Bizga tuman qo‘mitasida yaxshi ishchilar kerak. U anchadan buyon ko‘z ostimizga olib qo‘yganmiz», deydi.

Spevkin lampa chirog‘iga katta ochilgan ko‘zlari bilan qarab, stolni barmoqlari bilan taqillatardi.

– Jim tursam bo‘larkan, – chuqur xo‘rsindi Gruzdev.

– Odam igna emas, baribir sezishardi! Ketamiz, o‘tirib nima ham qilardik – soat bir bo‘lgan bo‘lsa kerak.

Ular boshqarmadan chiqishdi. Iliq, qorong‘i avgust kechasi edi. Eski yarim so‘ligan qayinning qora shoxlari bilan chigallashib yirik yulduzlar miltillardi. Daraxtlar uyquda edi. Ularning atrofida yonboshlab, past uylar, yaproqlar uxlardi. Nam, xushbo‘y havoda qisqa shimol yozi sezilardi, qayerdadir yaqin atrofda – kuz va ehtimol keyingi tun bu qadar iliq bo‘lmas.

Spevkin Gruzdevning yoniga qaytdi va yarim ovozda gapirdi:

– Lobovisheda qanday sokinlik, sezyapsanmi?.. Qishlog‘imizdan ketsang – butun umr tushingga kiradi. Rodnev esa buni bizdan o‘n marta yaxshiroq tushunadi. Uni bu yerdan yulib ololmaysan, u biz bilan bitta bo‘lib qo‘shilib ketdi, qurib yopishib qoldi. Hech qayerga ketmaydi. Uni Trubetskoy o‘ziga olmaydi, deb o‘ylaysanmi? Yo‘q, do‘stim, u bizniki, Lobovisheniki.

10

Tuman qo‘mitasi yo‘riqchisi Yevdokiya Leshevani – to‘ladan kelgan, oq yuzli, qirq uch yoshda ham go‘zal bo‘lgan ayolni ko‘zlari uchun «jang-xotin» deyishardi. U past ovozda, qat’iy, hukmini o‘tkazadigan ohangda gapirardi va agar kulsa, erkaklarcha qattiq, boshini orqaga tashlab qahqaha otardi.

Lobovishe kolxoziga kelib, u darhol yig‘im-terimga tayyorgarlikni tekshirishga tushdi. Rodnev Leshevaning qachon bo‘shashini kutardi, u bilan ishdan xoli vaqtda, shoshmasdan gaplashib olmoqchi edi. Biroq Lesheva dalalarni aylanib, omborlarga, quritish apparatiga kirib chiqdi va temirchilik sexi yonida to‘xtab, yupqa planshet[1] bilan

[1] *Planshet* – bu yerda: ustiga karta yoki chiziqli qog‘ozlar tortiladigan taxtacha.

silkitib Spevkin va temirchi Prutovni hanuz ta'mirlanmagan aravalar uchun koyidi. So'ngra yo'riqchi yengil o'rma qamchiga o'tirib, xayrlashish oldidan dedi:

– Sizlarda siljish bor. Qalingiz kirgani ko'rinib turibdi, chapayevliklardan tajriba o'rganyapsiz. Allaqachon qilish kerak edi...

Va boshqa kolxozga ketib qoldi.

Bundan xabar topgan Rodnev achchiqlandi. U Panikratovga qo'ng'iroq qildi va tuman qo'mitasi yo'riqchisi kolxozga kelib, tashkilotga kirib o'tishni xayoliga keltirmagani haqida ma'lum qildi.

Panikratov shu hafta ichida biznikiga kirib o'tishga va'da berdi.

Bir kuni Kuzovki orqali chapayevlik qora ayg'ir Jargon uchib o'tayotgan edi. Bo'ynini yoy kabi egib, pishqirib va so'lagini chang yo'lga to'kib, u tuman qo'mitasi eshigi oldida to'xtadi.

Trubetskoy, yengil polotno kastumda, yigitlardek yerga sakrab tushdi va yoniga dastani siqib, ikki zinapoyani sakrab, ikkinchi qavatga, Panikratovning oldiga yugurib kirdi. Salomlashib bo'lgach, u stolning alvon gilamiga birinchi bog'ni tashladi.

– Birinchi bog'... Marhamat va iltifot ko'rsatgaysiz...

Deyarli har yili shunday bo'lardi.

Ilgari Chapayev nomidagi kolxoz hududida «Qarg'a nonlari» deb nomlangan qumli obod qilinmagan yer yotardi. Urush oldidan yerni haydashdi, ekib-sepishdi, non o'sishiga majburlashdi. Bu nihoyatda og'ir mehnat talab qildi, biroq yil qanday kelishidan qat'i nazar, Qarg'a nonlarida don tumanning boshqa yerlariga qaraganda ertaroq yetilardi.

Qarg'a nonlarida yetilgan boshoqlar paydo bo'lishi bilanoq hamma chapayevliklar yasanib, rais boshchiligida birinchi bog'ni yechish uchun dalaga yo'l olishardi.

Yilning birinchi bog'ini o'rib olish – mukofot, u tasodifiy odamga berilmaydi, unga sazovor bo'lish kerak. Bunday inson nafaqat dala mudiri, balki sog'im bilan lol qoldirgan sigir sog'uvchi ham, dongdor qulunlarni katta qilgan otboqar ham, cho'chqaboqar-u parrandachi ham bo'lishi mumkin. Bu kun Chapayev nomli kolxozda – bayram. Shu yerning o'zida dalada qo'shiq kuylashadi, raqsga tushishadi, ro'mol yozishadi, gazak qo'yishadi... Rais Aleksey Tru-

betskoy esa birinchi bog'ni ushlab, kolxozdagi eng yaxshi yo'rtoqi ot Jargonga o'tiradi va yig'im-terimni boshlaganini ko'rsatish, yangi hosil bilan maqtanish uchun Kuzovkiga chopadi.

Tumanda bu odat tusiga kirgan: birinchi bog' Chapayev kolxozidan – bu ishora, shundan so'ng: «Oralatib o'rim-yig'imni boshlash...» haqida shoshilinch telefonogramma uzatiladi.

Yig'im-terim... Kuzda ang'izga ishlov berishadimi – yig'im-terim haqida o'ylashadi; qishda traktorlarni ta'mirlashadimi – bor diqqat yig'im-terimga qaratilgan; bahorda dalaga chiqishadimi – xayol yig'im-terimda; yozning qoq jaziramasida donning to'lishishini kuzatishadimi – butun fikr-o'y faqat yig'im-terimda! Yig'im-terim – har bir kolxozchi, har bir kolxoz, butun tuman uchun bir yillik imtihon!

Ertalab, qishloq xuddi xalqi qirilib huvillab qolgandek jimjit bo'lganda, ko'chada tovuq va bolalar, butun xalq dalaga chiqqanda – gazetalar bilan ikkinchi brigadaga shaylangan Rodnev Lobovishega uchib ketayotgan yengil mashinani payqadi. U olisdan tuman qo'mitasining «gazik» avtomobilini tanidi va Panikratov kelayotganini fahmladi.

«Gazik» boshqarma maysazoriga kirib keldi-yu to'xtadi. Haydovchi mashinadan chiqdi va paxtali kiyimni qo'liga olib, soyada maysaga xotirjam joylasha boshladi. Mashinada undan boshqa hech kim yo'q edi.

Rodnev haydovchining yoniga keldi.

– Xo'jayin qani?

U iltifot bilan miyig'ida kulib qo'ydi.

– Yo'lda yo'qotib qo'ydim.

– Aniqrog'i...

– Odatdagidek muyulishda tushib qoldi, sizlarnikiga boraverishimni aytdi, o'zi esa piyoda dalalarni aylanishga ketdi. Fyodor Alekseyevich – kabinet kishisi emasligini bilish payti keldi.

Rodnev dalaga ketdi. U yerda unga:

– Keldi... Spevkin bilan Klyuchi yaqinidagi arpaga ketdi, – deyishdi.

Klyuchida unga Panikratov uchinchi brigadaga yo'l olganini aytishdi.

Kechga yaqin Vasiliy tuman qo'mitasi kotibi va Spevkinni uchratdi. Panikratovning yuzi quyoshda qorayib, kipriklari changda oqarib ketgandi. Rodnevni ko'rib, u og'zini katta ochib kuldi:

– Ha-a, Vasiliy, qayoqqa g'oyib bo'lding? Kolxozning yarmini aylanib chiqdik, hech qayerdan topmadik. Xo'sh, salom, salom. Lobovishe joningga tegmadimi? Biz esa sulini ko'rishga ketyapmiz, yo'l-yo'lakay zig'irgayam kirib o'tamiz.

– Biz zig'irni ko'rdik-ku, Fyodor Alekseyevich, – ta'kidladi Spevkin.

– Qanaqa zig'ir? Yo'lning yonidagimi? E-e, oshna, bilaman – yo'lning yonida o'sayotgani rahbariyat ko'zi uchun. Biz esa Sugorga, ichkariroqqa, ovloq joyga burilamiz, o'sha yerda sizlarda qanday zig'ir o'sayotganini ko'ramiz.

Sulini ko'zdan kechirishdi, zig'irga burilishdi. Boshqarmaga holdan toyib, changga belanib, ochiqqan holda qaytib kelishdi. Rodnev tuman qo'mitasida qoloq kolxozlarga o'rgatish bo'yicha jiddiy maslahatlashib olish yomon bo'lmasligi haqida aytmoqchi edi, biroq Panikratov uning gapini bo'ldi:

– Qara, senga taklifim bor: uch-to'rt kundan keyin tuman qo'mitasiga kel, u vaqtgacha men komandirovkadan qaytib kelaman. O'shanda gaplashib olamiz.

Panikratovning orqasida turgan Gruzdev Spevkinga ma'noli qarab qo'ydi.

11

Quyosh ko'tarildi.

Yo'l yosh tog'terak o'rmoni orqali o'tardi. U yerda qalin soya yo'q edi, quyosh nurlari tog'terak butazoriga tushib, suv shaffof daryo qo'ltig'iga tarqagandek burchaklarga yoyilib ketardi.

Rodnev qadamini tezlatdi. Yo'li bir bo'lgan mashinalar yo'q edi. Bu barvaqtda faqat qarshidan, qishloqdan stansiyaga kelayotgan mashinalar uchrardi. Egri-bugri yo'lning muyulishida traktor ko'rindi. U yo'l chetida turardi: bo'ychan traktorchi ayol pachaq-

langan, yonlari yaltirayotgan chelaklardan radiatorga suv quyardi. Traktorchi ayol burildi, Rodnevga boqdi va birdan uni kutilmagan go'zalligi bilan dovdiratib qo'ydi: u moylangan kombinezon kiygan, yuzi esa oppoq, toza, qizil yugurgan, kipriklari momiqday, ko'zlari qora va har qanday erkak havas qilsa arziydigan keng yelkali.

Yonidan o'tib ketayotib, Rodnev bir daqiqaga – kuragi bilan, gardani bilan, orqasi bilan uning o'ziga qaratilgan nigohini sezardi.

Motor bo'g'iqroq gurilladi. Bir daqiqa o'tib traktor Rodnev bilan tenglashdi va tezligini pasaytirib, to'xtadi. Kabina oynasidan traktorchi ayol qaradi.

– Hoy, yo'lovchi! – murojaat qildi u kulimsirab. – Kuzovkigami?

– Ha.

– O'tir, olib borib qo'yaman.

Rodnev chiqdi, moylangan o'rindiqqa o'tirdi. Traktor yengil siltov bilan qo'zg'aldi. Traktorchi ayol indamay oldinga qarardi. Rodnev ko'z qiri bilan unga boqdi: past do'ng peshana, qalin kokil. Xotirada nimadir qo'zg'aldi – unutilgan, allaqachongi...

– Eslamadingizmi? – Traktorchi ayol kipriklari ostidan kulimsirab qaradi. – Faromushxotir ekansiz, o'rtoq Rodnev.

– To'xtang, to'xtang...

– Demak, xotirangiz qizlarnikidan-da qisqa ekan. Makarova Mashutkani eslaysizmi?

– Sen! Ha...

– O'xshamaymanmi?

– Sen ilgari o'g'il bolaga o'xsharding-ku! Sochlaring hurpayib turardi, mushtlashganda bolalarga bas kelmasding.

– Sizni urmaganman-ku, – kulib qo'ydi u.

– Men sendan kattaroq edim-ku, Yevlampiyga esa havas qilib bo'lmasdi. U hozir qayerda?

U biroz jim turdi, keyin jiddiy ovoz bilan:

– O'ldirishdi, – dedi.

– Afsus.

– Men bo'lsam afsuslanib bo'ldim... U yaxshi turmush o'rtoq edi.

Traktorchi ayol Ramenskdagi yetti yillik maktabda o'qidi. Bu maktab hamon Lobovishedan ikki kilometr uzoqlikda turibdi. O'sha qayinlar keng oynalarning oldida o'syapti, ustida o'sha qarg'a inlari turibdi. Ushbu inlarga Vaska Rodnev boshqa bolakaylar bilan tanaffusda kelishuvga shapkasini otishardi – kimning shapkasi inga tezroq qadalib qoladi. Vasiliyning shapkasining usti qattiq mo'ynali edi – yaxshi uchardi, shu sababli unga boshqalardan ko'proq daraxtga chiqishga to'g'ri kelardi.

O'sha qayinlar, o'sha maktab, biroq endi boshqa bolalar shapkalarini otishmoqda, o'zga o'quvchilar partada o'tirishibdi, boshqa o'qituvchilar ularga dars berishyapti. U yerda Mitrofan Alekseyevichning ovozi eshitilmayapti. U matematikadan dars berardi, o'zi esa astronomiyaga qiziqardi... Rodnev, uning o'quvchisi hozir ham har xil qiziqarli kitoblar orasida yulduzlar, sayyoralar haqida o'qishni yaxshi ko'radi. Mitrofan Alekseyevich «tilla baliq» burjidagi qandaydir noma'lum yulduzcha haqida gapirishni boshlaganda bu bolalar uchun bayram edi... O'quvchilar dunyodagi hamma narsani unutib, quyosh o'rniga tursa yerdagi hayotni yondirib yuborishi, okeanlarni bug'larga aylantirishi, oppoq devorga ko'z tashlagan inson butun umrga ko'r bo'lib qolishi mumkin bo'lgan yulduz haqida eshitishardi. Bunday vaqtlarda tanaffus uchun chalingan qo'ng'iroq jazoday tuyuladi. Mitrofan Alekseyevich bolalarning yuzidagi o'kinchni ko'rib kulgidan o'zini arang to'xtatardi. U biladi: uning so'zlari – oddiy so'zlar emas, ular afsun kuchiga ega, eng toqatsiz, tinib-tinchimaslari partaga mixlanib, butun kun eshitishga tayyorlar. Hozirgidek, Vasiliy unga qarayapti – sinfda kichkina, ozg'in folbin past, bo'g'iqroq ovoz bilan yuribdi.

Rodnev yettinchi sinfda o'qigan vaqtda maktabda chang'ilarda jamoa bo'lib Tatar Lbishesiga chiqish bo'lishi haqida xabar tarqaldi. Mitrofan Alekseyevich ham rozilik bildirdi. Butun maktab chang'iga turdi. Vasiliy uchun jamoaviy chiqish ikki hissa qiziq edi: birinchidan, Mitrofan Alekseyevich; ikkinchidan, u yerda, albatta, qizlar orasida eng jo'shqini, doim tishining oqini ko'rsatib kuluvchi Mashutka Makarova bo'ladi. Uzib oladigan, urishqoq qiz, xafa qildingmi – baqirish ham gapmi, uyalib o'tirmaydi, sochingdan tortadi. Biroq Vasiliy uni uzoq vaqt ko'rmaganida hayot zerikarlidek tuyulardi.

Qayishmaydigan momiq palto kiyib olgan, chang'ida o'zini eplay olmaydigan, biroq quvnoq, sho'xlik qilayotgan bolalarga yosh xo'rozning ovozi bilan baqirayotgan Mitrofan Alekseyevich Pashka Yarsev va Ivan Sheglovning o'rtasiga turdi. Ularning ikkisi ham daroz yettinchi sinf o'quvchilari bo'lib, bo'ylari o'qituvchinikidan baland, yelkalari ham keng. Ular o'z ixtiyorlariga ko'ra Mitrofan Alekseyevichning tansoqchilariga aylanishdi.

Mashutka qora kalta po'stin kiygan, qo'llarida – xomaki to'qilgan, hali yangi, g'ijimlanmagan qizil qo'lqoplar. Ular chang'ini ko'pchilik bolalardan yaxshiroq uchishardi va shu bois oldinga o'tib ketishdi. Vasiliy uning orqasidan oshiqdi. U qizga yetib olishni, qorga yiqitishni xohlardi, u yerda bo'lsa – quvnoq to's-to'polon boshlanadi, bunga Masha Makarova juda ham ishqiboz. Biroq Vasiliyni bir qulog'iga kubank[1]ni qo'ndirgan, tor kastumdagi Yevlampiy Podyakov bilan quvib o'tdi. Uning kalta yenglari va jun qo'lqoplari orasida sovuqdan qizarib ketgan qo'llari ko'rinardi. U ikkita irg'ish bilan Vasiliydan o'zib ketdi, Mashutkaga urildi va uni qor uyumiga ag'darib yubordi. Mashutka chinqirib yubordi, tipirchiladi, qorga belanib o'rnidan turdi va Yevlampiyga otildi.

– Ha, senimi, shoshmay tur! Qorga cho'miltiraman – salqinlanasan!

Va Vasiliyni o'rab turgan dunyo birdan nursizlandi, qizig'ini yo'qotdi, bulut bilan qoplandi.

Uning atrofidagi kulgi qanchalik ko'proq eshitilsa, uning ko'ngli shu qadar ma'yuslashardi. U qorga tayog'ini g'azab bilan tiqib, xohlamay oldinga yurardi.

Baland tog'ga ko'tarilishdi – Tatar Lbishesi. Undan o'n kilometr atrof ko'rinadi: qordan oqargan o'rmonlar, keng dalalar, uylarning qora uyumi – qishloqlar. Yosh qoraqarag'aylar, qandag'och va qayinzorlar bilan oralatib qoplangan yonbag'ir Vajenka qirg'og'iga ulanardi. Bu yerda o'spirinlarning hech qaysinising chang'ida tushishga yuragi dov bermaydi – qirg'oqdagi muz qatqalog'iga uloqtirib yuboradi, jonidan ayrilish hech gapmas. Biroq boshqa yonbag'ir ham bor, undan to'shak kabi yumshoq qiyalikdan chang'ida shoshilmasdan, ancha vaqtgacha, Lobovishe qishlog'iga tushish mumkin.

---

[1] *Kubanka* – tepasi yassi qalpoq.

Lobovishe bo'lsa tog'dan uch kilometr uzoqlikda turibdi. Mana shunday xursandchilik uchun ham o'quvchilar bu yerga chiqishgan.

Mitrofan Alekseyevich o'zining mulozimlari bilan keldi. Pavel va Ivan shijoat bilan tansoqchilik vazifalarini bajarishardi.

– Mitrofan Alekseyevich, ehtiyot bo'ling – bu yerda cho'nqir...

– Mitrofan Alekseyevich, chang'ingizni menga o'xshatib qo'ying...

– Mitrofan Alekseyevich, menga tayoqni uzating, sizni olib chiqaman, – va barvasta Ivan Sheglov qizarib ketgan ustozini tayoqda tepaga olib chiqyapti.

Ularning urinishiga qaramay, Mitrofan Alekseyevichning paltosidan uning bir necha marta qor uyumiga tag-tubi bilan o'tirgani ko'rinib turardi.

Yevlampiy va Masha chetda turishardi. Oq tivit ro'moldan Mashaning yonoqlari yonib turar, ko'zlari baxt ila chaqnardi.

Vasiliyni birdan Masha yonidagi g'ayrioddiy insonni sezmayotganini isbotlash istagi qamradi. «Eh, nima bo'ladi!..» U tayoqqa suyandi va chang'ini Vajenkadagi tik tushuvchi qiyalikka itarib yubordi. Qor shitirladi, yuzga qattiq shamol urildi. Shamol chalg'itib quloqda guvilladimi yoki chindan ham shunday bo'ldimi, biroq unga orqasida qo'rqimsiragan ovozda:

– Vasya! – degan ovoz eshitildi.

Biroq taxmin qilishning mavridi emasdi. Ilgari jimjit turgan yer harakatga keldi, aylana boshladi... Havo yetishmasdi. Oldindagi archalar qordan to'ppa-to'g'ri o'sib chiqar, qo'rqinchli tezlik bilan yaqinlashar, kattalashar va guvillab yondan o'tib ketardi. Shamol tujurka[1]ning ichini yirtardi. Daryoning silliq yuzasi kengayar, muz qatqalog'ining yashil suvlari tobora ravshan ko'rinardi. «O'ngga! U yerda qirg'oqdan esa – tilga».

Archagulzor tupi uchramaganda buning nima bilan tugashi noma'lum edi. Chang'i ostidagi qor ko'chib tushardi va Vasiliy qanday qilib havoga yengil ko'tarilganini sezdi.

U qoraqarag'ayzor atrofida belgilangan yumshoq qor uyumiga quladi. U qimirlagisi kelmasdi, xafalik juda kichkina tuyulardi. Va birdan sovuqdan zirqiragan qo'l bilaklariga issiqlik yugurdi, peshana

---

[1] *Tujurka* – tugmasi ikki tomonga qadaladigan kalta kamzul.

ter bilan qoplandi: Vasiliy quruq, sochiluvchan qorda chang'ilarning shitirlashini eshitdi - kimdir ilonizi bo'lib, ehtiyotlik bilan tog'dan uning yoniga tushayotgan edi. Chang'ining guvillovchi tovushi yaqinlashyapti, mana, notekis, betoqat nafas olish eshitilyapti.

– Vaska... Vasya... Eshityapsanmi, Vasya?

Uning qizil lablaridan nafas pag'asi ko'tarilib, qora qoshlariga, kipriklariga, ro'moldan chiqib turgan soch kokillariga qo'nardi.

– Men yiqilib o'lding deb o'ylabman... Uni qara-ya, ag'anab tushganini. – U qizil qo'lqopchalari bilan Vasiliyning yuziga yopishib qolgan qorni ehtiyot qilib qoqib yubordi.

Olamdagi hamma narsa go'zal ekanligi haqidagi quvonchli xabar bu kun Vasiliyni tark etmadi.

12

Baland bo'yli, yelkador, qop-qora sochli, jarangdor ovozli Panikratov kishida beixtiyor hurmat uyg'otardi.

Insonlarga bo'lgan munosabatda u o'rtasini bilmasdi: ba'zilardan nafratlanardi va buni yashirmasdi, boshqalarni yaxshi ko'rar va buni berkitardi.

...Panikratov tuman qo'mitasida yo'q edi.

– Faqat kechqurun, byuroga keladi, – aytishdi Rodnevga. – Agar ishingiz bo'lsa, uyiga boring.

«Orqaga, Lobovishega burilmayman-ku». – Rodnev Panikratovning uyiga yo'l oldi.

Tuman qo'mitasi kotibi yoqasidan tugmasi yechilgan ko'ylakda bir varaq qog'oz ustida o'tirib unda mo'yqalamni yurgizardi. Yonida stakanda xiralashgan suv turar va bolalarning akvarel bo'yog'i yotardi. Panikratovning och malla sochli, ko'k ko'zli, otasiga o'xshamaydigan kenja qizi, o'sha bo'yoqlardan, biroq katakdan emas, barmog'idan foydalanib, eski gazetaga chizayotgan edi.

Panikratov sarosima va yashirin norozilik bilan Rodnevga peshvoz chiqdi. Varaqda Rodnev deyarli yakunlangan yozuvni ko'rdi:

«Bo'lajak a'lochi Vitya Panikratovga salom!»

– Ota bo'lish qanaqaligini ko'ryapsanmi? – dedi u jiddiy ohangda, xijolat tortganini yashirib. – Bugun birinchi sentabr, bu kun ota-

lar uchun barcha kunlardan yaxshiroq... Shoshmay tur, uylansang, mana bunday Natashkalar paydo bo'ladi, – u katta qo'li bilan qizining yumshoq sochlarini erkalatib siladi, – taniyapsanmi? O'tir. Hozir o'g'lim maktabdan qaytishi kerak. Menda bayram...

– Eh, juda bemavrid-ku, – ranjidi Rodnev. – Mayli, Fyodor Alekseyevich, o'g'lingni kutib ol, men ketay.

– Yo'q. Qo'ziqorin bo'lsang, savatga tushaver... Mehmonim bo'l va rad qilma, qo'yib yubormayman... Faqat sharti shuki, seni ishlashga majbur qilaman. Gaplashishga ulguramiz.

Va ular jiddiy qiyofa bilan plakat qayerdan ko'zga tezroq tashlanishini muhokama qila boshlashdi.

Panikratovning onasi, bo'yi o'g'lining kindigigacha keladigan, yetmish yoshlardagi, biroq serharakat kampir stolga dasturxon yozishga tushdi.

Nihoyat opasi, o'n ikki yoshli Katyusha qo'riqchiligi ostida birinchi sinfda o'qiydigan Vitaliy ham keldi. Natasha va Katyusha otasiga mutlaqo o'xshamasdi, ikkalasi ham och malla soch va chag'ir ko'zli bo'lsa, o'g'li – Fyodor Panikratovning nusxasi edi: peshanasida qora gajagi, otasining mag'rurona qoshlari shiddati, keskin, qat'iy harakatlar. U bor-yo'g'i birinchi kun maktabga borgan bo'lsa-da, biroq alifbe kitobini xuddi bu ishni ilgari ham ko'p marta qilgandek divanga otdi.

Panikratov kanop bilan bog'langan qutini oldi va sertakalluflik bilan cho'zilib, gulduraydigan ovoz bilan so'zlay boshladi:

– Birinchi sinf o'quvchisiga...

– «A», – pichirladi o'g'il, boshini orqaga tashlab va jiddiy qiyofa bilan otasining yuziga qarab.

– To'g'ri! Birinchi «A» sinf o'quvchisi Vitaliy Panikratovga o'qishining boshlanishi munosabati bilan qishga chang'i sovg'a qilaman! «A'lo» bahoga o'qishni tilayman!

Xonada qovurilgan karamli pirog hidi taraldi.

– Stolga marhamat, aziz mehmonlar, sto-olga, – ashulaga o'xshatib cho'zdi kampir.

Panikratov o'tirdi, Rodnevga qora shishani ko'zi bilan ko'rsatib imladi:

– Qorag'atli... Bolalar bayramida kattalar uchun yoqimli ovunchoq.

Ish haqida Panikratov birinchi bo'lib og'iz ochdi. U sanchqini bir chetga surib qo'ydi va rahbarlarga xos qattiqqo'llikning odatiy ohanglari darhol tarala boshlagan ishbilarmon ovoz bilan tuman qo'mitasi Rodnevga kasaba uyushmasi tashkilotlari mudiri vazifasini taklif qilmoqchi ekanligini ma'lum qildi.

– Yo'q, Fyodor Alekseyevich, rozi emasman.

– Unday bo'lsa, – Panikratov mehmonga sovuqqina qarab qo'ydi, – kuch bilan majburlolmaymiz. Biroq shaxsan o'zim sen yaxshiroq joyni qidiradigan odamlardansan deb hisoblayveraman. Lobovisheda sokin joyda o'rnashib olding... Uyat!

– Kuchli gap. Biroq noto'g'ri! Men institutni tugatdim. Mening hayot yo'lim boshqa. Yo'q, Fyodor Alekseyevich, rozi emasman. Buning ustiga Lobovishedan uzilishni xohlamayman, endi-endi kolxozga ko'nika boshladim.

– Sen bo'lsa ko'zingni uzma. Sen tuman qo'mitasida bo'lasan, ko'zing esa – «Stepan Razin» va o'nga yaqin boshqa kolxozda. Mana qanday qilish kerak! Institutga kelsak – tugat! Bilim senga bu yerda ham asqatadi. Bugun sen bo'lim boshlig'isan, ertaga bo'lmasa, indinga tuman qo'mitasi kotibi bo'lasan. Men shunday institutni tugatganimda edi, biroq afsuski, kech, yillar o'tib ketdi...

– Mayli, o'ylab ko'raman...

– O'ylashga ham bermayman. Ha yoki yo'q?

– Darrov bo'g'izdan olish kerakmas-ku, Fyodor Alekseyevich.

– Mening ham bo'g'zimdan olishyapti: nima uchun hanuz bo'lim boshlig'i yo'q? Nega qaysarlik qilayotganingni ham tushunmayapman? Tuman qo'mitasida ishlaysan, institutni tugatganingda ma'lum bo'ladi: ehtimol, seni chindan ham zootexnik qilib qoldirish kerakdir. Hal qil – ha yoki yo'q?

Rodnev o'jarlik qilib turib oldi, Panikratov Rodnev jimib qolmaguncha talab qilaverdi.

Nihoyat Vasiliy boshini ko'tardi.

– Nimayam derdim, ko'ndirding.

Panikratov shodon ko'zini qisdi.

– Mana, bo'ldi. Sendan faqat shuni eshitishni xohlayotgan edim.

Ular stol atrofida yana uzoq o'tirib suhbatlashishdi. Rodnev Yurka Levashov, Somova, Gruzdev haqida so'zlab berdi, Panikratov sigareta chekib, «Yaxshi, yaxshi» deya boshini chayqardi.

Spevkin va Gruzdev mash'um xabarni sezgandek, Rodnevni anchadan beri boshqarmada kutishardi.

– Sen ham ko'ndingmi? – so'radi Spevkin.

– Ko'ndim.

Spevkinning ko'zlari qorong'ilashdi, u o'girildi, Gruzdev bo'lsa og'ir yo'taldi va:

– Xo'sh... Biz bo'lsa, Vasya, sen bizning kolxozimizga qalbing bilan kirgansan, seni tortib olib bo'lmaydi, deb soddalarcha o'ylabmiz. Ha-a-a! – dedi.

– Nima, sizlardan umrbod ketyapmanmi? – achchig'i chiqdi Rodnevning. – Birga ishlashga to'g'ri keladi-ku.

– Yo'q, bilamiz: oiladan bo'lak bo'lib chiqqan bola... – e'tiroz bildirdi Gruzdev.

Spevkin bo'lsa derazaga burilib, jo'rttaga qilingan beparvolik ila barmoqlari bilan deraza tokchasini taqillatardi: «Sa'vajon, sa'va, qayerda eding?..»

13

Panikratov, Mariya mashina-traktor stansiyasidan agregatni olib ketish uchun kolxozdan kelishi kerakligini bilardi.

Kechqurun byuro majlisidan so'ng, tamaki tutuni va uzun suhbatlardan og'irlashgan boshi bilan u qishloqning narigi burchagiga qarab ketdi.

Qorong'i derazalaridan dunyoga ikkita katta qarag'ay orqali qaragan pastak uyning oldida u eshikni odatdagidek itardi, pillapoyaga chiqdi va kirish eshigining qarshisida lo'kidonni jiringlatdi. Uzoq vaqt javob bo'lmadi, nihoyat silliq qadamlar eshitildi.

– Fyodor Alekseyevich, bu sizmi, lochin? Mariya yo'q. Hozirgina chiqib ketdi. Kirib keldim, qarasam – yo'q. Hatto miq demadi. Bir og'iz so'z ham... Nega turibsiz? Xonaga kiring. Siz ham menga, men ham sizga xalaqit bermaymiz...

Mariyaning uy bekasi Anfisa Kuzminichna shoshib-pishib kiyilgan ko'ylakda yoqilgan lampani olib kirdi. Bu lampa devordagi rasmlarni, saranjom-sarishta yig'ishtirilgan karavotni, Panikratovning ilgarigi tashrifi paytida papiros bilan kuydirib ochilgan, hali berkitilmagan teshikdagi stolni yoritib turardi.

Anfisa Kuzminichna eshik oldida esnadi va ketayotib, ming'illab qo'ydi.

– E Xudo, o'zing kechir... O'tiravering, na men sizga, na siz menga xalaqit bermayapmiz...

Kuzovkida bahordanoq Mariya va Panikratovni kelin-kuyov deb hisoblay boshlashgan edi.

Ikki yil oldin, kech kuzda baxtsizlik ro'y berdi. Qulay fursat tug'ilishi bilan u haqda Kuzovkida hamon eslashadi. Tormozi ishdan chiqqan yuk avtomobili Sholgovo qishlog'i yaqinidagi tik tushib boradigan qiyalikda yelday uchirib qirg'oqdan daryoga uchib tushadi, qattiq muzni teshib o'tadi va cho'kib ketadi. Yuk mashinasida yetti kishi bor edi, uch nafari sakrashga ulguradi... Cho'kib ketganlar orasida komandirovkaga ketayotgan Aleksandra Nikolayevna Panikratova ham bor edi.

Panikratov musibat ko'z yoshlar bilan chiqadigan va bu qayg'uni qalbida tosh kabi olib yuradigan odamlardan emasdi. U, shuningdek, falokatni vino bilan yuvib, o'zini aldaydiganlardan ham emasdi... Xotinining o'limidan so'ng Panikratov jon-jahdi bilan ishlay boshladi. U tumanning bir boshidan ikkinchisiga liqildoq «gazik»da uchar, dalalarni keng qadamlari bilan o'lchar, mayda narsalardan ayb topishga urinar va o'sha kunlari hamma yoqda uning ichiga chuqur kirgan ko'zlaridan qo'rqishardi.

Kampirsho, Panikratovning onasi qo'shnilarnikiga yugurib kelib, yig'lardi:

– Qorayib ketdi, cho'p-ustuxon bo'ldi. Uch oy o'tdi, u-chi, u bo'lsa, azizlarim, bir daqiqaga, bir soniyaga bo'lsin uni unutolmaydi. Uyga kirmaydi ham, tuman qo'mitasidagi majlislarda o'tiradi va yana kolxozga olg'a. Uyda bo'lsa, vahima bosadi. Bir vaqt qarasam: ust-boshi loy kirib keldi, oyog'ida botqoq etigi-yu ustida ho'l plash, Sashenkaning xonasiga o'tdi, u yerda uning stoliga o'tirdi, bir, ikki soat o'tirdi... Xo'sh, qanday qilib qo'rqmaysan?.. Yana – choy

ichdik, nimadir qarsillaganini eshitdim. Yo tavba, u bo'lsa Katyushkaga, to'ng'ichiga tikilib turibdi, Katya bo'lsa – onasining xuddi o'zi... Qarab, uni esladi, qo'lida esa finjon ushlab turgandi, sindirib yubordi. Qarsilladi, dastasi mushtamida... Oh, balo bo'ldi! Uni ba'zida urishaman: yig'la, yengillashasan, deyman. Yo'q, bir tomchi yosh ko'rmadim, ko'myapmiz – yig'lamaydi deng...

Bir safar Panikratov Chapayev nomli kolxozda shudgor qilingan yerni ko'zdan kechirayotgan edi va traktorchi ayollar bilan tushlik qilish uchun qoldi. Brigadir xotin tushlikni ayollarcha, qo'lidan kelgancha, saranjom-sarishtalik bilan joylashtirdi. Omochlar bilan ag'dar-to'ntar qilingan dalaning qirg'og'idagi yangi chiqqan maysa ustiga oppoq dasturxon yozdi, burdalari qalin kesilgan nonni, qoshiqlarni yoyib qo'ydi... Indamay, odatiy bekorchi gaplarsiz yeyishar, tuman qo'mitasining kamgap kotibidan uyalishardi. Birdan Mariya, uning nigohini ilib, so'radi:

– Hali ham kuyinyapsizmi, Fyodor Alekseyevich?

U Mariyaning ovozida ayollarga xos mehribonlik, samimiy hamdamlikni sezdi. Fyodor Alekseyevich traktorchi ayollar ham unga xayrixoh, lekin biroz cho'chigan nazar bilan qarashayotganini ko'rdi. Unga kasal insonga achinayotgandek hamdardlik bildirishayotganini tushundi va javoban kulib qo'ydi. Biroq so'nggi vaqtlarda u kulishni unutishga ulgurgandi va tabassum beo'xshov chiqdi.

– Nima ham qilardik, – dedi u deyarli aybdorlardek.

– Ha, nima ham qilardingiz, – takrorladi Mariya. – Men erimni urushda yo'qotganman... Qaytarolmaysan!

Shundan so'ng Fyodor Alekseyevichning onasi qo'shnilarga aytardi:

– Xudoga shukur, o'ziga kela boshladi. Odamlardan o'zini olib qochmayapti, kulyapti, bolalar bilan o'ynayapti. Katyushkani qattiq erkalaydi. O'tgan safar yangi botinka sotib oldi, tunov kuni bo'lsa shaharga borib, velosiped olib keldi... Men bo'lsam sekingina nasihat qilyapman: «Uylansang bo'lardi, uyga beka kerak». Mashina-traktor stansiyasidagi Marinaga nazar solganini eshitdim, nimasi yomon? Munosib ayol, u beva, buyam so'qqabosh. Yaxshi juftlik.

Hozir, tun mahalida Panikratov «Bilim – kuch» eski jurnaliga tirsaklari bilan tayanib stolda o'tirardi. Yopiq oyna orqali, qo'shni uy-

dan emas, ertakdagi kabi – tog‘lar va vodiylar ortida – uzoq Moskvadan Kreml kurantlarining zangi eshitilardi. Bir soat bo‘ldi, Mariya esa hamon yo‘q. Chindan ham, u‘hech narsa demasdan, ogohlantirmasdan kolxozga ketib qolmadimikin?..

Panikratov shu yili bahorda ekish kampaniyasi oldidan u o‘zining «echkicha»sida kolxozlarni aylanganini esladi. Haydovchi Ignat Naumov ta’tilda edi va Panikratov mashinani o‘zi haydardi. Yo‘llar pilchillab ketgan, loy ba’zida g‘ildirak o‘qigacha yetardi, gohida «echkicha» shu qadar mustahkam o‘tirib qolardiki, tasodifiy yo‘lovchilar yordam berishini kutishga to‘g‘ri kelardi.

U, ayniqsa, Afanasyev to‘sig‘ida qattiq tiqilib qoldi. Panikratov g‘ildirakning ostiga shox-shabbalar tashladi, biroq g‘ildiraklar butoqlarni chaynab, yana loyga botardi. Bir g‘ildirak o‘qini tormozlagan holda mashinani loydan burab chiqarishga urinib ko‘rdi, gaz berdi, biroq motor o‘chib qoldi. So‘nggi chora – o‘rindiqqa yotib kimdir yordamga kelishini kutish.

Mariya boshyalang, katta qo‘pol etikda, erkaklarning kamar bilan zich bog‘langan, eskirgan charm paltosida keldi, uning ikkita yo‘g‘on kokillari pastga osilib turar, ko‘zlari quvnoq charaqlardi.

Fyodor o‘rindiqdan ko‘tarilib, tasodifiy yordamchini kutayotganini esidan chiqardi.

– Ha, Fyodor Andreyevich, bahorgi quyosh oftobida toblanib yotibsizmi? – dimog‘i chog‘ so‘radi u va quyosh paytini topib uning tishlaridan yugurib o‘tdi.

– Qarqur tuzoqqa tushgandek o‘tiribman, – javob berdi u Mariyaning kutilmagan savoliga xijolatomuz javob berib.

Mariya mashina atrofini aylanib, vaziyatni baholadi:

– Chiqsa bo‘ladi.

Etiklari bilan asta suvga tushib, u shoxlarning biridan o‘tdi, Panikratov tepa qismlardan biri biroz silkinib daraxtlar orasida cho‘kib ketganini ko‘rdi. Bir daqiqa o‘tib Mariya yosh qayin shoxi bilan qaytib keldi. Panikratov esa uning beqiyos, dadil harakatlarini mamnuniyat bilan kuzatardi.

Kokilini orqasiga tashlab, Mariya orqadan yelkasi bilan kuzovga yotdi va:

– Gaz! – deb baqirdi.

«Echkicha» zirillay boshladi va asta-sekin oldinga harakatlandi.

– Gaz!

Mashinaning oldingi g'ildiraklari bilan qo'zg'aldi va quruqlikka chiqib yurib ketdi. Panikratov uni to'xtatdi.

Mariya keldi. U kula turib yuzidagi loy tomchilarini artdi, loy charm paltosining sariq etagini ola-bula qilib tashlagandi.

– Kuching bor bo'lsin! Hatto men, erkak bo'la turib havas qildim.

– Hammaga har xil kuch ato qilingan, – javob berdi u xursand bo'lib.

«Seni hech narsa bilan xafa qilmagan», – o'yladi Panikratov.

U yonma-yon o'tirishdi, biroq Panikratov yuz metr ham yurmagan edi, Mariya:

– Keling, men haydayman. Siz yo'lni kuzatmayapsiz. Bu ko'lmakdan arang o'tib ketdik, – dedi.

Ular o'rinlarini alishishdi. Kuchli qo'lni sezgandek, «echkicha» chekkaga suyuq loyni sachratib, oldinga g'izilladi...

Endi o'rmondan ketishayotgan edi. Loy sachragan shamol to'sadigan oynaga qarama-qarshi quyuq qora daryo bo'lib yo'q oqib kelar, yon tomonda, daraxtlar ostida qor to'planib yotardi.

Shu joyda yomg'ir, bir necha soat ichida yerdan hamma qor qoldiqlarini yuvib ketishga qodir saxiy va barakali jala quya boshladi.

Mariya shosha-pisha charm kurtkasi ostiga kokilini yashira boshladi. Silliq taralgan sochlari darhol qoraydi, yuzlari birdan lov etib yondi, ho'l kipriklari ostidagi ko'zlari yomg'ir yuvgandek yanada yaraqladi.

Mashina u yoqdan bu yoqqa tashlardi. Panikratov g'ayriixtiyoriy ravishda tarang yelkaga yopishishga majbur bo'lardi. Va u yaqindan Mariyaning yuzi salqin bahor namligi ila ifor taratayotganini sezardi.

– Jon saqlash kerak. Yaxshiroq qoraqarag'ayni top va mashinani to'xtat, berkinamiz, – dedi Panikratov.

– Cho'ponning kulbasi ko'rinishi kerak, – javob qildi Mariya.

Chindan ham, bir-ikki daqiqa o'tib yo'l yarmi bahor ko'lmagi bilan to'lgan, ko'l kabi keng yalanglikka chiqdi. Yalanglikning eng chekkasida, kattagina qayin ostida nam yerga qora eski yog'och bilan kirib ketgan pastakkina, yassi tomli kulba ko'rindi. Mariya sil-

tash bilan mashinani to‘xtatdi. Panikratov shamol to‘sadigan oynaga boshi bilan urilmaslik uchun uning ushlab oldi.

Mariya yugurib kulbaga kirib ketdi. U yerda uzoq turib qolgan, o‘tgan yilgi chang pichan hidi kelardi. Shift past edi, shu sababli egilishga to‘g‘ri keldi. Mariya paltoning etagini ushlab, to‘ppa-to‘g‘ri yerga o‘tirib oldi; Panikratov ham mashinadan tushdi, kulbaga kirib, Mariyani bag‘riga bosdi va o‘z yaqinida kechki vaqtdagi daryo girdobi kabi katta ko‘zlarni ko‘rdi.

Mariya chiqib ketdi. Panikratov esa qop-qorong‘i kulbadan chiqib, yomg‘ir tinganini, osmon musaffo bo‘lganini ko‘rdi. U sog‘lom, kuchli va go‘zal ayolning tanasi taratgan issiqlikni o‘ylab lovullayotgan, yarqirayotgan, uchqunlayotgan olam o‘rtasida uzoq vaqt turdi.

O‘rmon atrofda yomg‘irdan so‘ng jaranglayotgandek edi. Tomdan, qayinning yalang‘och shoxlaridan ko‘lmakka tomchilar shoshilib urilib, quyoshda chaqnab yuzning yonidan o‘tib ketardi. Quyosh tomonidan silab-siypalangan, uning iliqligidan bo‘shashgan yer chirigan barglar va bug‘langan ignabargning o‘tkir hidi bilan boshni aylantirardi.

O‘rmonda, shu o‘rtada, daraxtlar ildizi orasidan tutqunlikda tobiga kelgan jilg‘a otilib chiqdi va qisqa hayotining kichik quvonchlari haqida kuylay ketdi.

O‘rmon bo‘ylab to‘kilayotgan tomchilar shitiri davom etar, ko‘lmakda quyosh yonar, havoda uchib o‘tayotgan tomchilarda yarqirar, o‘tgan yilgi quruq maysa orasida yerda yilt-yilt yonardi – hamma yoqda quyosh!

Shimolda har bir cho‘pon kulbasining yonida oddiy qilib qurilgan imorat: ko‘ndalang tasmalari bilan to‘singa bog‘langan taxta – «taqillatgich» bor. Uning yordamida o‘rmondan podani chaqirishadi.

Fyodor ikkita og‘ir tayoqni ko‘tarib oldi va bahoriy hayajonga burkangan o‘rmon shovqini o‘rtasida zarbalardan jarangdor taxta qichqira boshladi. U urardi va har bir zarbadan so‘ng shiddatli quvonch tobora qaynab borardi. «Oh! Nafas ol! Harakat qil! Jazavaga tush! Borliqni sev», – hayajonlanib kuylardi taxta kuchli zarbalardan raqsga tushib. Fyodor bo‘lsa tasmalar yorilmaguncha va taxta yerga uchmaguncha uraverardi.

Bularning hammasi yaqindagina, bahorda ro‘y berdi. Butun yoz u Mariya bilan uchrashdi.

– Ajoyib, – derdi ba’zan Mariya, – hamma senga qarab, sening fe’ling bilan temir qayirishing kerak deb o‘ylaydi, yaqinroqdan qaraganda esa sen bola ekansan, haqiqiy bola!..

Panikratov, Mariyani kuta-kuta boshini ochiq jurnalga qo‘yib stolda uxlab qoldi.

U kun yorisha boshlagandagina uyg‘ondi. Uy bekasini uyg‘otmaslik uchun, qulfni jaranglatmaslikka intilib, ehtiyotlik bilan eshikni ochdi va chiqib ketdi.

14

Kuz. Sovuq, xira quyosh nurida ertalabdan kechgacha siyrak qayin o‘rmonzori sof, shaffof, mayin yorug‘lik taratardi. Ularning rangpar zahilligi orasida qarag‘ay va qoraqarag‘aylar kuygandek ko‘rinadi, ularning yashilligi shu qadar to‘qki, tog‘teraklar yozda faqatgina uyalchang go‘zalligi bilan nigohni jalb qilardi – jilosiz-kumushsimon daraxt poyasi, barglarning qo‘rquv-asabiylik aralash qaltirashi... Endi bo‘lsa – ularning shiddatli kuchi qayerdan paydo bo‘ldi – yorqin qizil rang bilan lovullab yona boshladi. Yo‘q, bu itoatkor qayg‘uli qayinlar emas – tog‘terak o‘rmonzorlari tashvishli olov bilan yonmoqda. Va faqat chetanlar ularga bas kelmayapti – ular yo‘l chetida arg‘uvon shu’la bilan ko‘tarilmoqda.

Biroq bu kunlarda odamlarning qayinlarning qayg‘uli go‘zalligi bilan ishi yo‘q: yig‘im-terim nihoyasiga yetmagan, kunlar hozircha quruq, quyoshli, kim biladi: bugun-erta ehtimol osmonni bulut qoplab, jonga teguvchi yomg‘ir maydalab tomchilay boshlar. Kuzgi yomg‘irda esa qandaydir mungli kuch bor, u haftalab, oylab maydalab yog‘adi va oxiri ko‘rinmaydi... Shunda g‘allalar yerga yotadi, donlar ildizi bilan o‘sa boshlaydi.

Ravshan kuz kunlarining birida Rodnev Lobovishedan Kuzovkiga ko‘chib o‘tayotgandi. Vasiliyning es-hushini yig‘ib olishiga oxirigacha umid qilgan Spevkin unga eng yaxshi ot – Sezarni bergan bo‘lsa-da, kuzatish uchun kelmadi. Gruzdev bo‘lsa kuzatib qo‘yuvchining atrofida yurar, og‘ir xo‘rsinar va so‘rardi:

– Sen, Vasiliy, biznikiga tez-tez kelib tur. Seni ko'rishdan doim xursand bo'lamiz.

Rodnev ko'ngli ochilmay kulardi:

– Meni bunday uf tortishlar bilan armiyaga kuzatishmagan.

Yurka Levashov keldi. Gruzdev uni achchiqlanib jerkib berdi:

– Sen nega g'alla yanchishda emassan?

Yurka keng qo'l kaftidagi qadoqlariga xijolat tortib tikilib qarab, javob berdi:

– Balki Vasiliy Matveyevichga, deylik, nimanidir tashib berish kerakdir? Qisqasi, yordam berish...

Gruzdev faqatgina qo'l siltadi; hamma yuk – ikki chamadon, kitoblar tuguni va ikki stvolli miltiq – aravada yotgan edi.

Bir hafta burun Rodnevni tuman qo'mitasiga chaqirishdi. Tuman qo'mitasi tashkilotlari mudiri Vorobyov «Stepan Razin» kolxozchilari chapayevliklardan o'rganishni boshlagani haqidagi hikoyani eshitib, qiziqib qoldi: «Bu tashabbusni boshqa kolxozlar ham o'zlashtiryaptimi? Tuman qo'mitasi raisi qanday yordam berdi? Bunga Panikratovning o'zi qanday qaraydi?» Rodnev hozircha bu tashabbus o'zlashtirilmagan, bunga Panikratovning qanday qarashi hozircha noma'lum, degan javobni berishiga to'g'ri keldi...

G'ildiraklar yo'l izini tepasigacha to'ldirgan to'kilgan barglarni bosib shitirlardi. Rudnev Sezarni shoshiltirmasdi. Agar yetimlardek yalang'ochlangan dalalar, qoraygan, buralgan bargli olxa tupi (olxa – kuzda chiroyli bezana olmaydigan yagona daraxt) bo'lmaganda, ehtimol, Vasiliy umuman g'amginlikni sezmasdi.

Balki kolxozchilar devor oldidagi skameykada batartib o'tirgan, chekaverib tutun bostirilgan boshqarmadagi kechalar, Spevkin bo'lsa, ko'zlari chaqnab, Italiyadagi yangi ish tashlash borasida qizishyapganini eslab afsuslanar? Axir bunday kechalar hali takrorlanadi. Ehtimol, u ertalab derazasida Gruzdevning tashvishli mo'ylovli yuzi paydo bo'lib: «Uxlamayapsanmi, Matveyich? Yur, ish bor», – degan so'zlarini endi eshitmasligidan afsuslanar. Biroq Vasiliyga ham bu tashvishli yuzni ham hali ko'p marta ko'rishiga to'g'ri keladi. Afsuslanadigan joyi yo'q, biroq shunday bo'lsa ham Lobovishe orqada qolgani achinarli. Yo'q, shunchaki o't-o'lansiz dalalar, olxaning

ma'yus tuplari-yu quti yo'q rangsiz kuzgi osmon aybdor. Ko'ngil g'ash tortdi, bor-yo'g'i shu...

– Vasil Matveyich, to'xtab tur!

Rodnev o'girilib qaradi. Uni harsillayotgan, yuzi qizil Mariya quvib yetayotgandi. U aravaning chetiga qo'lini qo'ydi.

– O'tgan safar – men seni! Endi – sen. Kuzovkigacha... olib borib qo'y! Ah, nafasimni rostlab olay! Uzoqdan ko'rib qoldim...

– Olmoqning bermog'i bor.

U yoniga o'tirib oldi.

– Demak, sen ko'chib ketyapsan?

– Ko'chib ketyapman.

– Trubetskoy norozi, aytishicha, portfelchi bo'lib qolarkansan. – Uning yonayotgan yuzi birdan jiddiylashdi. – Bizda bo'lsa hozir bir kor-hol ro'y berdi...

– Qanday kor-hol?

– Mening qizlarim ertalab arpa terishayotgan edi. Birdan Lesheva uchib keldi. Uni bilasanmi – tuman qo'mitasidan?

– Albatta. Birga ishlashga to'g'ri keladi.

– Uchib keldi va baqira ketdi: «Arpa o'ryapsizmi, u yoqda bo'lsa bug'doy yanchilmay yotibdi, uni jo'natish kerak!» Va ketdi-i... Bizni kombaynni ajratishga, yo'lda qoldirishga majbur qildi. Traktor – qishloqqa. Arpa esa to'kilyapti!.. Trubetskoy bu haqda bilib qolganida urush boshlanib ketdi: bir-birini davlat jinoyatchilari deb atashyapti. Trubetskoy yana uni – «portfelchi» deb.

– Lesheva raisning boshida turib boshqarishni yaxshi ko'radi, – norozi ohangda dedi Rodnev.

– Hamma balo aql bilan boshqarmasligida-da.

Ular jimib qolishdi. Yo'lning yonida kuzgi yaproqlarda butazor bilan qoplangan, qadimiy podshohlarning qalpog'i kabi tillarang katta do'nglik – Tatar Lbishesi paydo bo'ldi. Mariya u tarafga o'ychan qaradi, so'ng nigohini qiyinchilik bilan boshqa yoqqa burib, uni Vasiliyning norozi yuziga ko'chirdi.

– Yonishini qara, – dedi Mariya. – Sen anavi yerdan ketganing esingdami? Kulgili eding... Turibsan yerga qarab, xo'rozdek hurpayib turibsan va mana senga! Qarasam, sharfni tozalayapsan!

Va to‘satdan u Mariyaning ko‘zlarida kichkina, eski sirning yechimini ko‘rdi. O‘shanda u Mariya uning orqasidan: «Vasya!» deb baqirdimi yoki shamol shunday hushtak chaldimi tushuna olmadi. Hozir bo‘lsa, bir necha yildan so‘ng u tushundi: «Ha, qichqirdi».

Kutilmaganda Rodnev o‘zini o‘ng‘aysiz sezdi, otni qamchiladi va jo‘rttaga beparvolik bilan javob berdi:

– Boshda ahmoqona fikrlar kezardi, hammaga oddiy inson emasligimni isbotlamoqchi bo‘lardim.

Mariya ko‘zlarini yonga qaratdi.

15

Mariya Chapayevkadan barvaqt ketdi, u Trubetskoy va Leshevaning janjali nima bilan tugashini bilmasdi. Yakun esa bunday edi: Trubetskoy Leshevani kolxozdan haydab yubordi.

Kechqurun, ko‘z yoshlarini arang tutib, Lesheva qanday qilib Trubetskoy unga eshikni ko‘rsatganini Panikratovga so‘zlab berdi.

Panikratov qovog‘ini solib eshitdi va u g‘allani maydalash va tashish bo‘yicha kampaniyani birga qo‘shib olib bora bilishini, Trubetskoyning o‘rnida bo‘lganida, u ham traktorni daladan xirmonga tashishga qarshilik qilishini aytdi.

– Zamon shunday, sustkashlik qilish mumkin emas, g‘alla to‘kiladi, boshqa vositalarni izlamoq lozim.

– Deylik, u haq bo‘lsin! Mayli! Biroq nima uchun haqoratlash kerak? «Portfelchi» kabi ko‘ngilni og‘ritadigan so‘zlar nega zarur?

– Mayli, men u bilan gaplashib olaman, – va’da berdi Panikratov.

Lesheva ketdi, Panikratov bo‘lsa Chapayevkaga qo‘ng‘iroq qildi va Trubetskoydan ertaga soat o‘n ikkilarda kelishini so‘radi.

Trubetskoy o‘n ikkida kelmadi. Faqat qosh qorayganda u kolxoz mashinasida tuman qo‘mitasiga keldi va umumiy bo‘lim ishchilari yonidan o‘tib ketib, yuzidagi begona sovuqlik bilan Panikratov xonasining eshigini ochdi.

– Qanday vaqtligini bilasanmi, oxirgilarini terib olyapmiz. Ikki kundan keyin chaqirsang ham bo‘lardi, – noroziligini yashirmadi u.

– Yo‘q, – quruqqina gapini bo‘ldi Panikratov, – hozir gaplashib olish kerak! O‘tir, so‘zla.

Trubetskoyning ko‘k ko‘zlari Panikratovga dushmanona tikildi.

– Nimani so‘zlay? Lesheva hammasini... rasmlari bilan tasvirlab bergan ko‘rinadi!

– Demak, sen uni kolxozdan haydagansan?

– Tan olaman, haydadim. Yana kelsa, yana haydayman. U bilan dahmaza ketayotganda traktor butun kun ishsiz turdi. Kolxoz necha sentner g‘alla yo‘qotganini hisobla. Buning uchun sudlash kerak.

– «Portfelchi», «vositachi» va yana nimalar deb uni haqorat qilding?

– Haqorat qilmadim, nomini aytdim. Portfelchi ham, vositachi ham dedim. Hozir ham tuman qo‘mitasi kotibining ko‘zlariga qarab aytishim mumkin: tuman qo‘mitasi raisi yaxshi ishlamayapti, xalqni tarbiyalamayapti. Bizning tumanda tuman qo‘mitasidan vakil – vositachi. Bundan ortiq emas! Leshevaga o‘xshaganlar kelib, kolxoz raisini turtib chiqarib o‘zicha xo‘jayinlik qiladi. U bo‘lsa kolxozda – mehmon, hujum qiladi, baqiradi, komandirlar sumkasi bilan o‘qtaladi va ketib qoladi. Agar bilmasdan foyda bo‘lib qolsa – unga shon-sharaflar, yordam berdi deyishadi! O‘xshamasa – kolxoz boshliqlarining aybi, tashabbusni o‘zlashtirisholmadi. Tashabbus bo‘lsa besh daqiqalik! Kolxozga hovliqmalik bilan tashlansang qanday tashabbus bo‘lishi mumkin? Kolxozda o‘tirasan, kolxozda yashaysan, Lesheva bo‘lsa birrovga kirib o‘tadi va o‘rgata boshlaydi: traktorni noto‘g‘ri qo‘yibsan, maydalashga ulgurmapsan. Men bo‘lsa bularni usiz ham bilaman.

– Demak, tuman qo‘mitasi ishidan ko‘ngling to‘lmayapti?

– Sen, tuman qo‘mitasi ishchisi, menga siyosiy yo‘nalish ber, oyoq-qo‘limni bog‘lashning o‘rniga meni nazorat qil. Leshevaga o‘xshaganlar esa – to‘siq. Leshevayam gapmi! Fyodor Alekseyevich, ochiqchasiga aytaman: bunday Leshevalarni sen bolalading. Onasi qanday bo‘lsa, bolasi ham shunday. Sen kolxozga kelib, birinchi navbatda omborlar-u yem-xashak sexlariga e’tibor berasan.

Panikratovning allaqachon ichi qaynab yurgan edi, u sakrab turib, zarb bilan stolni urib: «O‘zingga bino qo‘yib yuboribsanmi? Kolxozingning nomi chiqqan deb, tuman qo‘mitasi kotibi bezbetli-

gingni eshitishga majbur deb o'ylaysanmi?» deya baqirgisi kelardi. Ammo Panikratovning harbiy xizmatdan bo'shatilgan leytenant haqidagi voqea hamon yodida edi va shu bois o'zini ushlab turdi.

– Yaxshi, bir maromda javob berdi u, – hozir aytganlaringni faqat tuman qo'mitasini haqoratlash deb atash mumkin. Bugunga suhbat tamom, ketaverishing mumkin. Byuroda gaplashamiz, – va chidab turolmay, o'dag'ayladi, Trubetskoyning orqasidan:

– Tuman qo'mitasi raisini haqoratlash – buning uchun partiyadan haydalasan hali! – deb baqirdi.

– Partiyadan? – Trubetskoy yuqoriga irg'itilgandek bo'ldi, u tutqichini endi ushlagan eshikdan bir qadam orqaga tashladi. – Yo'q, Fyodor Alekseyevich, noto'g'ri gapiryapsan! Hammasini Trubetskoyga ag'daraman, og'zimni yopsam, boshqara olmaslik qobiliyatimni hech kim sezmaydi, deb o'ylayapsanmi? Bo'lmagan gap!

Ular bir-biriga ro'para turishardi: biri – baland bo'yli, yelkador, xrom etiklari bo'yalgan pol taxtasini og'ir bosib turibdi, boshqasi – past bo'yli, to'lachadan kelgan, peshanasini o'jarlik bilan ko'z-ko'z qilgan.

– Nima deding? Sen orqali o'z gunohlarini yashirishadimi?

– Shunday bo'lyapti...

Va Trubetskoy o'sha-o'sha begona sovuq chehra bilan kotiba va mashinistkaning yonidan o'tib ketdi.

Derazadan Panikratov uning ko'chaga uchib chiqqanini, Rodnev bilan to'qnashganini va g'azab bilan imo-ishora qilib gapira boshlaganini ko'rdi.

Rodnev uni jiddiy va og'ir-bosiqlik bilan tinglardi.

Panikratov mushtini siqdi. «Hozir hamma yoqqa qo'ng'iroq qila boshlaydi. Chugunkov Matveyni unutgan ko'rinadi?»

«Iskra» kolxozi raisi Matvey Chugunkovni qirq to'rtinchi yili, Panikratov endi-endi birinchi kotib bo'lib ishlay boshlagan paytda partiyadan chiqarib yuborishgan edi. Chugunkovning kolxozi qattiq edi, qattiqlardan qattiq talab qilishardi. Urush ketayotganda ehtiyojdan ortiqchalik yaramaydi. Lekin Chugunkov majlislarda baqirar, kolxozchilarni oyoqqa turg'izardi: biz hamma uchun javob bermaymiz, boshqalar topshirsin; rejani bajardik, bas. Tuman qo'mitasi raisi, kotibiga ta'na-malomatsiz bo'lmadi. Panikratov oyoq tirab turib

oldi: Chugunkovni partiyadan chetlatish. Uni qo'llab-quvvatlashdi, Trubetskoy ham o'shanda qo'llab-quvvatladi, endi bo'lsa unutdi, dimog'i shishdi! Mayli, eslasin...

Keyingi hafta Chapayev nomli kolxoz raisi tuman qo'mitasi byurosiga chaqirtirildi.

16

Har doimgidek, xo'jayinlarga xos dadil qattiqqo'llik bilan Panikratov byuro yig'ilishini o'tkazardi.

Tuman qo'mitasining ikkinchi kotibi Nikolay Sochnev ochiq, qip-qizil yuzini Trubetskoyga o'girib, havoni qo'l kaftining yoni bilan chopgandek gapirardi:

– Sen tuman qo'mitasini haqoratlading, sen Panikratovni tahqirlading. Tuman qo'mitasi kotibi Panikratovni esa hamma biladi. Nafaqat tumanda – hukumat urush yillarida uning xizmatlarini e'tiborga oldi! Ordenlarni bekordan bekorga berishmaydi, Aleksey Semyonovich!

Trubetskoy zo'r berib cho'zilib, sapchib turishga urinardi. Nihoyat, chiday olmay, baqirdi:

– Sen uchun Panikratov – erka! Uning qanoti ostida o'sgansan!

– Ha, men Panikratovni o'rmon sanoati xo'jaligida tashkilotchi, tuman qo'mitasi kotibi bo'lgan vaqtidan bilaman! Uning qanoti ostida emas, uning yo'lboshchiligi ostida o'sganman va bundan faxrlanaman!

Trubetskoy har safar g'azab bilan sakrab turganda alamli bujmayardi.

– So'z bering. – Baland bo'yli, to'ladan kelgan, ko'kragi oldinga turtib chiqqan tuman qishloq xo'jaligi bo'limi mudiri Murashev kresloda qimirladi. – Meni Trubetskoyning muomalasi bu yerda ham g'azablantiryapti... Aytmoqchimanki – byuroga va umuman. – Murashev tushunarsiz qo'l harakati bilan «umuman» nimani bildirishini tushuntirmoqchi bo'ldi. – Bosar-tusarini bilmay qoldi, o'zini sal qolsa vazir deb hisoblayapti. Sen, hurmatli o'rtoq Trubetskoy, oraga buzg'unchilik soluvchiga aylanib qolding. Ha, do'stim. Menga bunday nafrat bilan qarama, haqiqatni eshitishga o'zingda jur'at top...

Trubetskoy yana toqat qilolmadi, sakrab turdi.

– Jur'at! Nikolay Anisimovich, faqat sen jur'at haqida gapirma! O'zing Panikratovning oldida orqa oyoqlaringda turasan! Yana bo'lsa – «jur'at top»mish!

– O'rtoq Trubetskoy! Necha marta ogohlantirish kerak? – Panikratov turdi. – Kecha tuman qo'mitasi vakilini urishib kolxozdan haydading, kotibga qo'pollik qilding, bugun bo'lsa byuro a'zolarini haqoratlayapsan.

Trubetskoy qo'l siltadi:

– Hammang bir go'r!

Murashev, Trubetskoy tomonga qaramay, ko'rinishidan: «E'tibor bermang, o'rtoqlar» degandek, gapni asosli qilib yakunladi:

– Men Fyodor Alekseyevich va Sochnevning taklifini ma'qullayman. Trubetskoyga partiyada joy yo'q!

– Bunday emas-da. Qizishib, quyushqondan tashqari chiqib ketdi, shunga darrov chopish kerakmi? – mashina-traktor stansiyasi direktori Danila Grubov kalta sochli boshi bilan Panikratov tomonga darg'azab bo'lib qaradi. – Bunday insonlarning qadriga yetmayapsan, Fyodor. Tumanimizda Trubetskoyga o'xshaganlar ko'p emas. Buning ustiga, Trubetskoyning hamma gapi noto'g'rimi? Quloq solish kerak. Biz bo'lsa, bir qop unga hujum qilgan sichqonlardek, unga har tomondan tashlandik...

Allaqachon kursiga yalpayib yotib olgan Murashev yana g'imirlay boshladi.

– Danila Stepanovich, tushun, Trubetskoy bundaylar ko'p bo'lmagani uchun ham xavfli. Undan o'rnak olishadi. Bo'sh qo'yib berilsa nima bo'ladi? – Murashev yumshoq gapirardi, unga Panikratov har doim Grubovning fikriga quloq tutishi ma'lum edi. Ular – eski do'stlar, ikkisi tumandagi ilg'or traktorchilardan, qachonlardir beo'xshov «fordzona»larda yakkaxo'jalik mintaqalarini kolxoz dalalariga aylantirishgan.

– Baribir – qo'shilmayman. Chiqarib yuborishga qarshiman! – dedi Grubov.

– Sen nima deysan, Pavel Sidorovich? – murojaat qildi Panikratov tuman ijroqo'm raisi Murginga.

Imillagan, og'ir odam darhol javob bermadi, u stolning malinali dasturxoniga xo'mrayib razm solib turgan edi.

– Chiqarib yuborish? Bu haddan tashqari... Jazolash esa kerak!

– Xo'-o'sh, – cho'zdi Panikratov. – Sen-chi, Usachyov?

Uchinchi kotib – Usachyov qo'rqa-pisa, Panikratovning ko'zlariga qaramaslikka intilib, e'tiroz bildirdi:

– Men ham, Fyodor Alekseyevich, chiqarib yuborishga qarshiman. Juda ham keskin.

Rodnev aralashmasdi. U Panikratovning o'zi ham taklifi ustida jiddiy turib olganiga ishonmasdi. «Qo'rqitib qo'yish, balki hayfsan berish, eng anig'i tanbeh berish. Tanbeh berishga esa – arziydi, bu Trubetskoyga foydali bo'ladi».

Uning yonida ikki kishi o'tirardi – yuzida: «Men fikrimni aytdim, endi o'zlari kelishib olishsin», degan ifodani o'qish mumkin bo'lgan haqoratlangan Lesheva va Chapayev nomli kolxoz tashkiloti kotibi Gavrila Timofeyevich Kryajin. Uning ko'rinishi jafokashlarnikini eslatadi: ertalab, Panikratov bilan yolg'iz gaplashayotib, u hammasiga ko'nardi, hozir esa, g'ujanak bo'lib, odamlarning orqasiga yashirinardi...

Biroq byuroning uchta a'zosi chiqarib yuborish, uchtasi – qoldirish fikrini bildirdi. Oxirgi odam, Kuzovkidagi yagona sanoat korxonasi – zig'ir kombinati direktori Kochkin qolgandi. Biroq Panikratov uning fikrini so'rashdan oldin, o'rnidan turib zardasi qaynab Trubetskoyning aybini isbotlashni boshladi. U yig'ilish boshida aytganlarini qaytarardi: Trubetskoy tuman qo'mitasining nufuzini tan olmaydi, Trubetskoy intizomga bo'ysunmaydi. Keyin o'tirib, qaramasdan murojaat qildi:

– Sening galing, o'rtoq Kochkin.

Kochkin polga uzoq qaradi, nihoyat qat'iyatsizlik bilan dedi:

– Baribir qattiqqo'lroq-da, Fyodor Alekseyevich... Mayli, tuman qo'mitasini haqoratlagan bo'lsin, lekin uning xizmatlari bor. Men – jiddiy tanbeh tarafdoriman... Hattoki ogohlantirish bilan!

Bu Panikratovning ochiqdan ochiq noroziligiga qaramay, ishni uzil-kesil hal qildi. Shu bilan kelishildi.

Trubetskoy ko'tarildi, oqarib ketgan yuzidagi ko'zlari yonardi.

– Xo‘sh... – xirilloq ovozda aytdi va chor-nochor atrofga qaradi. – Demak, qaror qabul qilindi?

U stulni itarib, eshik tomonga yurdi va Rodnevga yuzma-yuz keldi, xuddi qoqilgandek to‘xtab qoldi.

– Sen hammi... Men bo‘lsa boshqacha deb o‘ylagan edim. E-eh!

O‘ng‘aysiz jimlik yuzaga keldi. Kochkin kuch bilan papirosini tortardi. Sochnev kabinet o‘rtasida turib, atrofga qarar, hozir bo‘lganlarning yuzidan ular nima haqida o‘ylayotganini o‘qishga intilardi – Trubetskoyga hamdardlik bildirishyaptimi, uni qoralashyaptimi? Panikratov, zarda bilan tersayib, stoldagi qog‘ozlarni titardi.

Shu payt burchakdan kabinet o‘rtasiga hech kim tomonidan esga olinmayotgan Chapayev nomli kolxoz byurosi kotibi Gavrila Timofeyevich Kryajin chiqdi. U qo‘lida bukilgan kartuz[1]ni ushlab, goh stul uchiga hadiksirab o‘tirar, goh shoshib sakrab turar, sarosimaga tushib atrofga qarardi. Vasiliy darhol fahmladi: Kryajin kolxozga, uyiga ketishi kerak. Hozir tun, Kuzovkigacha o‘n besh kilometr, ot bo‘lsa bitta, Trubetskoyda; u ketdi, bu qoldi; ketib qolmagunicha tezroq yetib olish kerak, biroq Xudo saqlasin, kelganlar u Trubetskoyning maslakdoshi deb o‘ylasalar-chi?

Yo‘lda Sochnev plashini shitirlatib Rodnevga yetib oldi, qotib ketgan yuzini yoritib shoshib cheka boshladi. So‘ng gapira ketdi:

– Shunday... Foydali inson, aqlli, yo‘lda esa biqini bilan turib oldi. Hammasi mayda izzattalablik tufayli.

– Siz tuman qo‘mitasi raisining o‘zi to‘g‘ri yo‘ldan ketayotganiga aminmisiz?

– Siz Trubetskoyga qo‘shilasizmi?

– Men shunday deb hisoblayman: Leshevaning ish uslubi – noto‘g‘ri. Agar tuman qo‘mitasi raisi umuman Leshevaga o‘xshab harakat qilsa, unda men o‘ylab o‘tirmasdan Trubetskoy tarafini olaman.

– Eshiting... – Sochnev Rodnevni tirsagidan ushladi. – Men Panikratovni yetti yildan buyon bilaman. Uni tuman qo‘mitasi raisi bo‘lgan paytidan taniyman. Bu odam urush davrida tuman qo‘mitasi kotibigacha o‘sdi, urushda o‘sish esa – oh-ho-ho qanday maktabni

[1] *Kartuz* – erkaklarning soyabonli bosh kiyimi.

bitirish degani! Tasavvur qiling: odamlar frontga ketishdi, eng yaxshi odamlar – raislar, brigadirlar, ekish, yig'ib terish esa oldingidek bo'lmog'i kerak. Tuman qo'mitasi raisining ahvolini tasavvur qilyapsizmi? Kolxozga kelasan, uni esa qandaydir Karp Kondratyich boshqaryapti. U urushga qadar eng ko'zga tashlanmaydigan oddiy kolxozchi edi, bu yerda bo'lsa – rais, buning ustiga uning kasalligi bor – oshqozon yarasi yoki churra. Bu sababli uni frontga olishmagan. Qani, boshqarib ko'r-chi! Boshqardiyam. Bizning tumanimiz viloyatdagi eng yaxshilaridan bo'lgan. Bizdan sizga eshelonlab non, go'sht, yog' olib ketishgan. Urushdan keyin esa ishlash osonlashdi, deb o'ylaysizmi? Qirq oltinchi yili ko'rsangiz edi... Panikratovga o'xshagan tuman qo'mitasi kotibi olov va suvdan o'tdi. Na men, na siz Panikratov bilan bellasha olmaysiz.

– To'g'ri, og'ir maktab, katta tajriba, urushdan keyin esa yillar o'tib ketdi, nima uchun tuman qoloqlar safida?

– Nega qoloqlar safida? Hm! Nazarimda, biz traktorni talabdagidek ishlata olmaganimiz uchun. Tabiiy sharoitlar bunga imkon bermaydi: o'rmonlar, past-balandliklar, traktor dalaga chiqadi va burila olmaydi. Urushda traktorlar kam edi, hamma yoqda – o'roq. Biz o'rmon dalalarida bu o'roq bilan o'sha vaqtlarda dalalar keng va tekis bo'lgan tumanlarni haydardik. Endi bo'lsa traktorlar keldi va hammasi teskari aylanib ketdi: ular – yuqoriga ko'tarildi, biz – pastga tushdik.

– Qanday qilib ko'tarilish kerak?

Sochnev biroz vaqt jim ketdi.

– Bilmayman, – ro'yirost tan oldi u. – Siz-chi, bilasizmi? – Birdan u to'xtab qah-qah urib kula boshladi: – Jin ursin! Men siz bilan gaplashaverib uyimdan o'tib ketibman!

Sochnev shunchaki o'zi uchun kula bilmasdi, u, albatta, boshqalarni ham kulgisiga sherik qilardi va Rodnev qorong'ida unga tabassum bilan javob berdi.

Hamma yoq qorong'i edi – yuzingning oldiga olib kelgan qo'ling ko'rinmasdi. Yomg'ir tomchilay boshlagandi. Bu keyinchalik kuzning oxiriga qadar, birinchi qorgacha davom etgan yomg'ir boshlangandi. U Kuzovki tumani cho'zilib ketgan yig'im-terimning oxirini izdan chiqardi.

17

Yer yuzida kech kuzda yomg‘irda ivigan daladagi g‘alladan-da qayg‘uli manzara bo‘lmasa kerak.

Quruq ob-havoda shamol esadi va butun dala bo‘ylab to‘lqin ko‘tariladi. U oxirigacha suzib boradi va chetdagi boshoqlar yo‘l bo‘yidagi maysaga chuqur ta’zim qiladi, ta’zim qilib bo‘lgach yana bosh ko‘taradi. Dala yashaydi, ko‘zni quvontiradi. Endi ho‘l poyalar hattoki bo‘sh, doni to‘kilgan boshoqni ham ushlab qola olmaydi. Ular kuchsizgina har tarafga cho‘ziladi, sovuq yerga itoatkorona yotadi. Bu – o‘lim, biroq sur’ati past, azobli o‘lim, bu – tiriklayin chirish...

«Ahil ekinlar» kolxozi raisi Kasyan Filatovich Ogarkov uzoqdan kuzgi yomg‘irda ivigan boshoqni eslatardi. U novcha, qotma, boshi uzun tanasiga yarashmas darajada kichkina, yuzi ham katta emas, yumshoq, so‘lg‘in va bu shaklsiz yumshoq yuzda qirraburun dikkayib, burnining uchida ba’zida yomg‘ir tomchisi osilib turadi.

Dastlabki vaqtlarda Ogarkovga qarab, Rodnev qanday qilib bu shalviragan, imkoniyati cheklangan odam kolxoz raisiga aylanganini tushunmasdi. Va u bilan bir necha kun birga bo‘lgachgina Rodnev tushundi: Kasyan Ogarkovning «qulayligi» aynan shunda. U, Xudo asrasin, so‘z qaytarmaydi, bahslashmaydi. «Qanday xohlasang, shunday qil, aziz do‘stim, sizlarga tepadan yaxshiroq ko‘rinadi, biz kichkina odamlarmiz», – aks etgan uning odobli sukunatida. Leshevaga o‘xshaganlar uchun Ogarkov juda ham qulay rais.

Kuzgi yog‘ingarchilik tuman qo‘mitasini shoshilinch choralar ko‘rishga majbur qildi. Va quyidagi qarorga kelindi: «Yig‘imterimdagi qoloqlikni bartaraf qilish uchun «Ahil ekinlar» kolxoziga Rodnevni bo‘lim boshlig‘i qilib komandirovkaga yuborish».

Ildizidan chiriyotgan sakson gektar g‘alla; buyruqsiz barmog‘ini ham qimirlata olmaydigan rais; kuchsiz – bor-yo‘g‘i uchta tashkilot. Nima qilmoq kerak?.. Odamlarni topish, saralash, tarbiyalashga vaqt yo‘q, bu yerda o‘pirilish, zudlik bilan harakat qilish kerak! Va mana, Lesheva singari «vositachi»larga nafrat bilan munosabatda bo‘lgan Rodnevning o‘ziga Leshevaga xos harakat qilishga to‘g‘ri keldi. Boshqa chorasi yo‘q edi. Kasyan Ogarkovni

u bironta juft qo'l ishsiz qolib ketmasligi uchun eng olis brigadaga eng jiddiy buyruq bilan jo'natdi; farroshdan tortib buxgaltergacha idoraning barcha xodimlarining qo'liga o'roq berib dalaga haydadi; hamma otlarni o'rimga taqsimladi, tunda gulxan yoqib o'rishga majbur qilmoqchi bo'ldi, biroq yotib qolgan g'allani kunduzi ham terish qiyin edi – ho'l poxol pichoqqa tiqilib qolardi. Lekin ish shunday yo'lga qo'yildiki, o'rimdan charchagan otlar darhol yangilari bilan almashtirildi. Shunday bo'lsa-da yig'im-terim sekin, juda ham sekin ketardi.

Yomg'ir ostida ivigan ma'yus dalalar, Kasyan Ogarkovning g'amgin jussasi, kolxozchilarning umidsiz chehralari, xo'jalik bo'yicha mayda, aksariyat befoyda ishlar – bularning baridan Rodnev uch kun ichida shu qadar charchadiki, umrida bunday charchamagandi.

Uchinchi kun mashina-traktor stansiyasidan qo'ng'iroq qilishdi va kolxozga kombayn bilan yana ikkita traktor yordamga kelayotganini ma'lum qilishdi. Bu traktorlarni Mariya olib keldi. Uning brigadasi ishlayotgan Chapayev nomli kolxoz yomg'irgacha daladan hamma narsani terib oldi va donning katta qismini yanchidi.

Mariya har doimgidek yuzi qizil, xursand holda paydo bo'ldi. Uni Rodnev bilan birga kutib olgan Kasyan Ogarkov hayron bo'lib do'ng'illadi:

– Nega «Chapayev»dan bizga jo'natishdi? O'tgan yili «Parij komunnasi»dan yuborishdi, chapayevliklar esa «Stepan Razin» kolxoziga yordam berishdi. Mariya istehzoli qarab qo'ydi.

– E-e, razinliklar bu yili bizsiz uddalashdi. – U Rodnevga o'girildi. – Faqat sulini yomg'irgacha terishga ulgurmadi, shunda ham oz qismini. Endi bo'lsa yanchishyapti. Men ketishimdan avval Gruzdevni uchratdim, u sizga salom deb yubordi.

– Rahmat... Bu yerda bir o'zim qiynalib ketdim.

Mariya unga diqqat bilan razm soldi va past ovozda:

– Ha... Ozib ketibsan, yoki, balki soqolingni olmaganing uchunmi? – dedi.

Vasiliyning esiga tushdi – u so'nggi vaqtlarda ish bilan bo'lib nafaqat soqol olishni unutardi, balki o'zini parvarishlashga mutlaqo vaqt topolmasdi. «Xudo biladi, – o'yladi u, – soqol olinmagan... Bu

yerda yana biroz yashasam anavi Kasyan Filatovichning o‘zginasi bo‘laman-qolaman».

Kasyan Filatovich esa, uning yqnida turib, yuzida hamdardlikni ifoda etishga urinardi: ha, bizning kolxozda og‘ir.

Oqshom oxirida, Mariya bilan dalalarni ko‘zdan kechirib, Rodnev uni xonadongacha kuzatib qo‘ydi. Gaplashilmagan mavzu qolmadi – yotib qolgan javdar haqida, terilmagan zig‘ir to‘g‘risida, yopilmagan xirmon borasida — va qishloq bo‘ylab indamay ketishdi. Yomg‘ir esa maydalab yog‘ardi, u shu qadar mayda ediki, osmondan uchib kelayotgan emas, shunchaki havoning o‘zi namlikka to‘yingandek taassurot uyg‘onardi.

Traktorchilar tunayotgan uygacha yetib kelishdi.

– Ko‘rishguncha, Vasiliy Matveyevich.

– Ertagacha, Mariya.

Biroq Mariya issiq kafti bilan uning qo‘lini ushlagancha turardi.

– G‘alati odam ekansan. Nafaqat zig‘ir va yo‘qotishlar haqida gaplasha olasan, balki nima uchundir men bilan jim turibsan. – Mariya xo‘rsinib, qo‘lini tushirdi, o‘girildi va hazilomuz: – Xayrli tun, Vasiliy Matveyevich, – deya pillapoyaga ko‘tarildi.

Namlikdan ishib ketgan eshik taraqlab yopildi. Vasiliy esa yana biroz turib, loy yo‘ldan sekingina yurib ketdi.

Ertasi kuni Rodnevni Kuzovkiga chaqirishdi. Tuman qo‘mitasida aftidan, u endi boshqa joyda kerak, degan qarorga kelishdi.

Vasiliy otlarni ishdan uzgisi kelmadi. O‘n yetti kilometr loy kechishga to‘g‘ri keldi. Zerikarli, yap-yalang o‘rmonlar, bo‘kkan dalalar, har bir kulba tuxum bosgan tovuq kabi yomg‘ir ostida hurpayib turgan jim bo‘lib qolgan qishloqlar orasidan yurdi.

«Rejalarim katta. Ularni deb zootexniklik ishini tashladi, tuman qo‘mitasiga o‘tdim. Biroq bu rejalarni hayotga tatbiq qilish uchun dastavval butun ishni tag-tomiri bilan o‘zgartirish kerak. O‘zgartirish – aytish oson! O‘zgartirish, buzish, qandaydir burilishlar qilish uchun o‘z ortingdan odamlarni ergashtirishing kerak. Aks holda o‘zingni surishtirmay vakil qilib qo‘yishadi va kolxozdan kolxozga yurib raislarga baqirasan va hamma narsada Leshevaga o‘xshab qolasan».

Kechqurun o'zining xonadonida, hammomdan qaytib kelib Rodnev o'zining oxirgi paytlarda unutilgan institut darsliklari va dasturlarini oldi, karavotning bosh tomoniga chiroqni surib qo'ydi va talabalik odaticha yotib, o'qishga kirishdi. O'qish kerak, u zootexnik, bu uning hayotidagi asosiy mashg'uloti.

Eshik taqilladi. Dastlab sevinib kulayotgan Spevkin, uning orqasidan ho'l plash kiygan Gruzdev kirib kelishdi. Gruzdev eshikning oldida to'xtadi va iflos etiklariga aybdor bo'lgan kabi qarab:

– Seni ko'rgani keldik, Matveyich. Qabul qilasanmi? – deb so'radi.

Rodnev sakrab o'rnidan turdi, ularning qo'lini uzoq silkidi.

– Mana, ko'ryapsanmi, Vasiliy, – mo'ylovini vazminlik bilan silab, kichkina, chuqur kirgan ko'zlarini yarqiratib dedi Gruzdev, – agar biznikiga kelishga fursat bo'lmayotgan bo'lsa, o'zimiz seni ko'rishga keldik.

Spevkin xafagarchilikni allaqachon unutgan ko'rinadi. U cho'ntagidan shishani oldi, uni stolga qo'ydi, kitobni sekingina surib qo'ydi.

– Bu bo'lsa nimaga?

– Bayram, Matveyich. Hosilni terdik, nishonlamaslik gunoh. O'z vaqtida terish katta ishmas-u, shunday bo'lsa ham oxirgilardan bo'lib biz uddaladik. Boshqa kolxozlarda hali qanchadan qancha g'alla bo'kib yotibdi. Biz esa tugatdik!

Gruzdev brezent sumkadan piroglarni olishga kirishdi va Spevkinga hamohang tarzda o'zicha gapirib qo'ydi:

– Yangi hosildan. Seni mehmon qilish uchun ataylab un qildik. Bug'doycha. Biroq un shoshilinch tortildi, qoraroq chiqdi.

Yeb-ichib bo'lganlaridan so'ng, Spevkin joyidan qo'zg'aldi:

– Otlarni ko'rib kelay.

Gruzdev, Spevkinning ketishini kutib turdi, sal surildi va shivirlay boshladi:

– Menga qara, Matveyich, tuman qo'mitasida Trubetskoyga nega tashlanishdi? Bizga ham achinarli: u bizga ko'p narsalarni o'rgatgani kammi? A? Talabchanlikda ayblashgani yaxshimi! O'ng'aysiz bo'ldida. Hozir Chapayevkada, qoidaga ko'ra, hosil bayramini nishonlash kerak, ular esa bayramona kayfiyatdami, o'ylab ko'r! U yerda shun-

day o‘ylashadi: bizning Semyonich Panikratovga ma’qul kelmadi. Sen yaxshisi tuman qo‘mitasida o‘z so‘zingni aytsang bo‘lardi, qo‘lingdan keladi-ku.

Bir stakan araqdan yuzi qizara boshlagan Gruzdevni tashvish va keskinlik bosdi.

– Byuro qaror qabul qildi, Stepan. Bu yerda qarshi chiqish qiyin. Panikratov bilan gaplashib ko‘rishga harakat qilaman.

Spevkin qaytib keldi. Rodnev ichida kulib qo‘ydi, chunki Spevkin Gruzdevga ishlar haqida suhbatlashishga imkoniyat berish uchun chiqib ketganligini tushungan edi.

Gruzdev Lobovishedagi yangiliklar haqida so‘zlay boshladi.

– Somovada ola-chipor cho‘chqa o‘nta tug‘di. Chapayevlik cho‘chqa bilan qo‘shtirishdi. Cho‘chqachalar otasiga o‘xshaydi – shalpangquloq, qizg‘ish rangda. Nasl yaxshi bo‘ladi.

– Qish kelyapti... Saqlab qola olasizlarmi?

– Somova hammani oyoqqa turg‘izishga, qandaydir vitaminlar bilan boqishga va’da beryapti; katta bo‘lishi bilan soatma-soat aylantirishni mo‘ljallayapti, o‘zi har kecha Chapayevkaga, maslahatga yuguryapti...

– Levashov qalay?

– To‘polon qilyapti. Otlarga eng yaxshi pichan so‘rayapti, biz esa ularni sig‘irlar uchun asrayapmiz. Qishda axir otlar turadi-ku.

– Seryojka Gavrilovning poxoli ham ishlatilyapti shekilli, – dedi Spevkin. – Amallaydi...

– To‘garakdagi ishlar qalay ketyapti?

– «Qisqa kurs» bo‘yicha yangi muallim topdik, Anton Pavlovich Sigankov – tanisang kerak? Ramenskoyedagi yetti yillik maktabda tarixdan dars beradi. Miyali odam! Biroq bizning tumanda yashamaydi, qishda uni olib kelish uchun ot jo‘natamiz.

Rodnev ilgarigi, uning yuragiga qadrdon bo‘lgan xotiralarga cho‘mdi.

18

Panikratov ko‘nglida Trubetskoyning partiyadan chetlatilishini mutlaqo xohlamasdi. Kimga-kimga, biroq tuman qo‘mitasi raisiga ish chetlatishgacha borib yetmasligi ma’lum. Kolxoz o‘zinikilarning

tarafini oladi, hech bo'lmaganda partiya maslahat organi o'z roziligini bermaydi. Biroq shovqin ko'tariladi, muhokamalar, gaplar bo'ladi, ish bir yoqlama bo'lguncha Trubetskoyga tashvish tushadi. Shafqatsiz dars, ammo shundan so'ng ipakdek muloyim bo'lib qolar. Bilib qo'yishi uchun yaxshilab ta'zirini berish – mana Panikratov nimani xohlagan. Byuro a'zolari esa tushunishmadi. Ularga: «Qo'llab-quvvatlang, mening tomonimga o'ting: Trubetskoydan mahrum bo'lmaymiz-u, jilovini tortib qo'yamiz», deb tushuntirmaysan-ku. Tushunishmadi, afsus.

Panikratov Trubetskoy va Rodnev do'stlar ekanligini bilardi. Shu sababli kolxozdan kelgan Rodnev bilan uchrashib, u bir burchakka taqab so'radi:

– Nega jimsan? Trubetskoy haqida o'z fikring bo'lishi kerak.

Panikratov komandirovkachasiga, gimnastyorka va qo'pol rus etigini kiyinib olgandi, pillapoyada uni egarlangan ot kutib turgan edi.

– Byuroda ikkilangan edim, endi esa aniq bilaman – Trubetskoy tuman qo'mitasining ishiga norozilik bildirishga haqqi bor, – javob berdi Rodnev.

Ular divanda yonma-yon o'tirishgandi. Panikratov surildi va Rodnevning yuziga tikildi.

– Aniqroq gapir, – rasmiy ovozda so'radi u.

– Men Sochnev bilan gaplashgandim, u bizning tuman qo'mitasi raisimiz sening boshqaruving ostida, Fyodor Alekseyevich, qiyin yo'lni bosib o'tdi, degan fikrda; go'yoki urushda o'sib toblanding, seni tanqid qilish bizga emas emish. Men esa aynan o'sha «harbiy» maktab hozirda tuman qo'mitasi raisiga to'g'ri ishlashga xalaqit beryapti, deb hisoblayman. Yangi davr – yangi usullar!

– Shunday de?

Panikratov har doim urush paytida, odamlar, mashinalar yetishmagan, yer haydashda ba'zida otlarning o'rniga sigirlardan foydalanishga to'g'ri kelgan vaqtda Kuzovki tumani mamlakatga urushdan avvalgiga qaraganda ikki, uch hissa ko'p yordam berishda davom etganidan g'ururlanardi. Bu Fyodor Panikratov hayotining eng qiyin, eng qizg'in, eng mardonavor davri edi. U xotirada muqaddas va sof bo'lib qolishi kerak, bu yerda bo'lsa qandaydir kechagi talaba, o'zi

frontda yegan non va go'sht qanday mashaqqatlar bilan qo'lga kiritilganidan bexabar sobiq ofitser: urush maktabi... ishlashga xalaqit beryapti, deb fikr yuritsa.

Hayron bo'lib aytilgan: «Shunday de?»dan, qorayib ketgan yuzdan Panikratov aytilmagan so'zlarni tushundi.

– Bilaman, tasavvur qil, Lobovisheda urush paytida butun qishloqda bor-yo'g'i beshta chol bo'lganini bilaman; ayollarga gohida o'z tomorqalarini sigirlar bilan haydashga to'g'ri kelganini bilaman; Danila Grubov o'zining mashina-traktor stansiyasida tashlandiq va chiqindilardan yarim xaroba «inter»ni tergan va dalada ishlatganini bilaman. Men u yerda bo'lmaganman, lekin men bilaman, Fyodor...

– Mayli, – gapini bo'ldi Panikratov, – ishga o'tsak. Nimadan norozisan?

– Hozir ishga gal keladi. Fyodor Alekseyevich, qandaydir Kasyan Ogarkovni rais qilib tayinlashga to'g'ri kelganini bilaman. Eng yaxshilari frontga ketganini bilaman. Bunday Kasyanlar mustaqil, enagasiz kolxozni boshqarisha olmasligini bilaman. Va o'sha enagalar tuman qo'mitasining vakillari bo'lishgan. Lektor-targ'ibotchilar, yo'riqchilar, bo'lim boshliqlari – birinchi kotibgacha hammasi vakilga aylanishganidan xabarim bor, Fyodor Alekseyevich. Talab qil, buyur, qandaydir Kasyan Ogarkovni almashtir, hammasiga ruxsat, faqat qil! Front uchun non top! O'sha yillarda boshqa chora yo'q edi.

Panikratov papiros tutunidan ko'zini qisib, Rodnevni eshitardi.

– Xo'sh. Qo'shilaman, bilasanmi... Keyin-chi?

– Sen bularning barini qayerdan bilishimni payqadingmi? Yo'q? Bizning tuman qo'mitasi raisimiz urush yillarida ishlagan bo'lsa, hozir ham ishlagani uchun ishlaydi. Tuman qo'mitasi raisining ish uslubi o'zgarmagan. Avvalgiday vakil-enagalar, ilgarigiday buyruq va «tanbeh» – kolxozlarni boshqarishda asosiy usul! Kasyan Ogarkovda yig'im-terimda qoloqlik, Rodnevni komandirovka qilishdi – mayli, barham bersin. Mutaxassis kerak. Bizning barcha agronomlarimiz «Zagotzerno» va tuman qishloq xo'jaligi qo'mitasi bo'limida nakladnoylarga imzo chekishyapti, uzoqdan turib buyruq berishyapti. Kadrlarni tarbiyalash bilan shug'ullanish vaqti keldi. Allaqachon keldi!

Panikratov papirosini yerga tashladi, o'rnidan turdi, masxaraomuz kalaka qildi:

– Tarbiya, tarbiya – chiroyli so'zlar, ularni aytishni do'ndiramiz.

– Chiroyli so'zlar? Chapayevliklar razinliklar uchun qilgan narsalar – chiroyli so'zlarmi? Men, misol uchun, bu ommaviy tarbiya deb hisoblayman. Sen, men va Trubetskoy bir narsani xohlaymiz: tumanimizni qoloqlar safidan chiqarish. Trubetskoyni qo'rqitish o'rniga yig'ilishib tuman qo'mitasi ishini yangidan qurish haqida suhbatlashaylik.

– To'planamiz, gaplashamiz, qayta quramiz, lekin ko'r-yapsanmi?.. – Panikratov tomchilar bilan qoplangan derazani ko'rsatdi. – Deyarli ming gektarga yaqin terilmagan maydon ivib yotibdi. Gaplashamiz!. Bunday vaqtda Trubetskoy tuman qo'mitasining nufuziga putur yetkazyapti...

Vasiliy yelkasini siqdi, o'girildi, biroq shu zahoti to'xtadi.

– Esingdami, xalqning charchog'i haqida gapirganding? Xalq charchamagan, sen charchagansan... Ko'p ishlab yubording. Mana gap nimada!

Va Rodnev javobini kutib o'tirmay, chiqib ketdi.

O'sha kuni Panikratov beshta kolxozda bo'ldi va hamma yoqda bitta manzarani kuzatdi. Yotib qolgan g'alla yonida yomg'irda cho'kkan bog'kapalar turardi!

Har kuni yomg'ir – bu yuz sentnerlab to'kilgan don degani. Bu tuman gazetasida yana: «Tuman qo'mitasi kotibi o'rtoq Panikratov bo'lgan Kuzovki tumanida yig'im-terim o'z vaqtida bajarilmadi, buning natijasida katta yo'qotishlar bo'ldi...» degani.

«Buning natijasida» emas, mana bunday «mayda» narsalar natijasida – yomg'ir yog'a boshladi, nimayam qila olarding? – viloyat qo'mitasiga chaqirishlar bo'ladi, tanbehlar bo'ladi.

Yomg'ir ham, Trubetskoy ham, Rodnev ham, chapayevliklar ham, hattoki byuro a'zolari ham – hamma unga qarshi. Hamma!.. Va Fyodor har qachongidan ko'ra Mariyani ko'rishni, yarim soatga, o'n daqiqaga bo'lsa-da uchrashishni, ikki-uch og'iz so'z aytishni, uning ovozini eshitishni, yer yuzida yaqin insoni borligini bilishni xohlardi. Mana bu yomg'ir sababli, Trubetskoy bilan bo'lib o'tgan voqea

tufayli u Mariyani bir oy ko'rmadi. Bir oy!.. Panikratov o'zidan turli xil xayollarni haydardi: hech ham ajablanadigan joyi yo'q – u band, Mariya ham band.

Fyodor qorong'ida otni burdi.

Ot sekin yurardi. Shunday ham quyuq, qatronday qora zulmat oldinda o'zidan-da qora narsaga tiralayotgandek edi. U yoqda o'rmon, uning atrofida kichkina olov lip-lip yonib turibdi. U bir o'zi sovuq, zaxkash zim-ziyoni yorib o'tayotgandek edi – xuddi tovuq oyoqda turgan ertaknamo kulbaning derazasi nur sochib turibdi.

Panikratov yaqinlashdi. Yolg'iz «kulba» «tovuq oyog'ida» emas, kombaynning katta g'ildiragida turardi – bu traktorchilar uchun dala vagonchasi edi. Ho'l plashining qattiq etaklarini gulduratib, Panikratov egardan tushdi, jilovni vagonchaning eshiklariga olib boruvchi tik zinaning panjaralariga bog'ladi va diqqat bilan eshitdi. Taxta devor ortida qizlarning ovozi, kulgi eshitilardi. «Yolg'iz emas», – o'kinch bilan o'yladi Panikratov. U eshikni yengilgina uch marta taqillatdi. Suhbat tindi, kimningdir kallasi derazani to'sdi, keyin eshik ochildi va katta qora ayol tasviri ortidan eshikni yopib, eshikda paydo bo'ldi. Oyoqlari ostida zinapoyalar g'ichirladi, eshik yopildi va qorong'ilik yanada quyuqlashdi.

– Kim u? – so'radi past ovoz.

– Mariya, senmisan?

– Fyodor Alekseyevich! – hayron bo'ldi Mariya va sekin qo'shib qo'ydi: – Salom.

– Bunday havoda joy topa olmayapman. Xudo biladi nima... Sen bilan gaplashmoqchi edim.

Mariya jim turardi.

– Senga nima bo'ldi? Bir oy ko'rishmadik, bir so'z demaysan. Chiq, gaplashamiz, keyin ketaman. Ichkariga kirmayman. Buni tugatish kerak, davlatga g'alla topshirish rejasini bajaraylik... Vaqti keldi!

– Tugatishga tugatamiz-u, biroq sen o'ylagandek emas, Fyodor Alekseyevich.

– Nima?

Mariya xo'rsindi.

– To'xta-chi. Tushunmayapman... Nima deding?

– Men siz bilan boshqa uchrasholmayman, Fyodor Alekseyevich.

Atrof shu qadar sukunatga cho‘mdiki, Panikratov tomchilayotgan yomg‘ir plashning qaytarma qalpog‘iga urilayotgani eshitilardi.

– Seni xafa qildimmi?

– Yo‘q, Fyodor Alekseyevich, xafa qilmadingiz. O‘zim xohlamayman. Tushuntirib ham o‘tirmayman.

Panikratov qimirlamasdi.

– Bilaman – sizni ranjitdim, – dedi Mariya.

– Agar hazillashayotgan bo‘lsang... – bo‘g‘iq ovozda dedi Panikratov. – Qara – haziling yomon.

– Qanaqa hazil! Bir insonni uchratdim...

– Kimni?

– Agar baxtim chopsa – bilib olasiz... Aks holda – nima qilasiz bilib? Yoshlikdan bir-birimizni bilardik, endi bo‘lsa izlari bilindi. O‘zim ham bilmagandim... Sizni uchratdim, yaxshirog‘ini topolmayman deb o‘ylagandim, topdim. Afsus, mendan ranjishingiz aniq. Mayli, dilsiyohliksiz bo‘lmaydi. Xayr.

U o‘girildi. Zinapoyalar g‘ichirladi, yomg‘ir changi nurda raqs tusha boshladi. Eshik yopildi.

Panikratov birinchi qadamini qo‘yganida plashning shitirlashi butun dalaga taralgandek tuyuldi, bu rutubatli kuzgi tun tinch edi. Ivigan jilovni yechgan qo‘l barmoqlari bo‘ysunmasdi. Faqat egarga o‘tirgachgina u uyg‘ondi va alamdan, og‘riqdan baqirib yuboray dedi.

Otning omadi kelmadi – Fyodor Alekseyevich yig‘lay olmasdi. U otni fahmlamay choptirardi, yopishqoq dalalar, o‘tzorning bo‘kkan maysasi, loy yo‘l uzra haydardi.

Tuyoqlarning uzoqlashib borayotgan ovoziga quloq solgan Mariya bahri-dili ochilmay qizlarga buyurdi:

– Kelinglar, qizlar, uxlaymiz...

Mariya chiroqni o‘chirdi, nafasini yutib, yog‘och karavotga yotdi. «Shunisi yaxshi. Darrov», – o‘yladi u.

Panikratov ko'pdan beri nikohdan o'tishni taklif qilardi, biroq Mariya cho'zib kelardi. Mariya dunyoda hech kimdan qo'rqmasdi, Panikratovdan esa ilgari biroz hadiksirardi. U qat'iy odam, bir so'z aytdimi, e'tiroz bildirolmaysan... Va Panikratovga tortardi ham, qattiq tortardi, buni o'ziga o'zi tan olishdan qo'rqardi. Yaqinlashgach, uning hamma qatori odam ekanligini, hasrat qilishini, xo'rsinishini, qo'rqishini bilib oldi. U tuman qo'mitasidan qilinuvchi qo'ng'iroqlardan qo'rqardi, yig'im-terim vaqtida yomon ob-havo ma'lumotlaridan qo'rqardi va ba'zi paytlarda kolxoz raisi Trubetskoy undan kamroq qo'rqoq ekandek tuyulardi.

Mariyani yana bir narsa to'xtatardi – farzandlar. Fyodorning uch nafar bolasi bor. Bolalar juda yoqimli, hech narsa deyolmaysan, balki ularni ona kabi yaxshi ko'rib qolishi mumkin edi. Biroq yaxshi ko'rish boshqa, ona bo'lish – boshqa. Mariyaning hayoti – mashina-traktor stansiyasi, kolxozlar, bularni hech bo'lmasa vaqtinchalik tashlashga hech kim va hech nima majbur qila olmaydi. U vaqti-vaqti bilan uyga kelsa, qanday ona bo'lishi mumkin? Bu yerda yana qaynana: «Bolalarni yaxshi ko'rmaysan, yomon uy bekasisan, yomon rafiqasan», deya ta'na qiladi (anıq qiladi). Mariyaning fe'li gina-kuduratlarni eshitish uchun mos kelmaydi.

Shunday bo'lsa ham u Panikratov bilan uchrashardi, shunday bo'lsa ham u Panikratovni boshqalardan ko'proq qadrlardi. Biroq mana Rodnev keldi, oldingi Vaska emas – balog'atga yetgan, biroz begona, lekin – u! Ko'p yil u haqda eslamadi, buning ustiga nimani ham eslardi – ketib qoldi, yorug' dunyo esa keng, o'zidan-da yaxshiroqlarini uchratishi mumkin...

Hozir noqulay, og'ir, xuddi kimningdir narsasini o'g'irlagandek tuyg'u uyg'ongan bo'lsa ham, biroq aytib to'g'ri qildi. Bu yashirish, aldash, ikkiyuzlamalik qilgandan ko'ra yaxshi – cho'rt javob berdi va tugadi!

19

Kuzovki atrofidagi dalalar tashlab ketildi, bo'shab qoldi. Daryolar shir-yalang'och tuplararo oqmoqda va qora suvga birgina nigoh tashlagan hamonoq vujudingdan sovuq titroq yugurib o'tadi. Past

bulutli osmon Kuzovki uylarining tomlarida yotgandek go‘yo. Kuz, haddan tashqari cho‘zilib ketgan kuz!

Bunday seryog‘in kunlarda zerikarli, so‘na boshlagan yerni yopishi uchun birinchi qorni shaxsiy baxtni kutgandek kutishadi.

Biroq oxirgi kunlarda kuz birdan ochila boshladi. Ayoz zarba bera boshladi. Ot taqasining ostidagi yo‘l cho‘yandek jaranglayapti, har bir shox, har bir o‘t qirovning momiq po‘stinini kiymoqda. Tashqaridan qaraganda g‘aribona dag‘al tukli tuplar emas, ochiq o‘rmonlar emas, ularning o‘rniga bir tunning o‘zida jimjimador ertaknamo kungiralar o‘sib chiqadi. Daryolar shaffof yupqa muz bilan qoplanmoqda. Uzoqdan sezmaysan – suv suvdek, biroq qirg‘oqda shoshilib, bir yigit oqsab-to‘qsab ketmoqda. Uning kallasi kundadagi kabi, shapkaning ustidan onaning sholro‘moli bilan zich bog‘langan – na chapga qaray olasan, na o‘ngga. Mana, yigitcha qirg‘oqdan tushdi, zarb bilan tepinib ko‘tarildi, o‘sha muzga tashlandi va g‘olibona chiyillab, g‘izillab ketdi. Muz qayishmoqda, uning ostida zarda bilan g‘ingshimoqda, u bo‘lsa alpon-talpon qadam tashlab, o‘rtasida to‘xtadi, konkisi bilan muzni tekshirib ko‘rdi va qirg‘oqdagi o‘rtoqlariga baqirdi:

– Qani, kelinglar! Temirdek qattiq! Tesholmaysiz!

Kuz uch kun, balki bir haftadan beri mana shunday savlat to‘kmoqda...

O‘n beshta kolxozda sakkiz yuz gektardan ortiq don sovuq ostida qolib ketdi. Ushbu terilmay qolib ketgan dalalarga qo‘shni maktablardan o‘quvchilar «ekskursiya» uyushtirishmoqda. Ular savat va qaychilar bilan qurollanib, muzda sinuvchan poxol ustida yurishibdi va omon qolgan boshoqlarni qirqishyapti – nimaning imkoni bo‘lsa, o‘shani qutqarishyapti. Bunday kolxozlarning xursandchilik qilishga holi yo‘q.

Biroq yig‘im-terim vaqtida bajarilgan joylarda xirmondan sovuq havoda yanchish mashinalarining quvnoq taqillashi eshitilyapti, u yerlarda qoldiqlarni endi shoshmay, zaxiraga yanchishyapti. Kolxoz omborlarining oldi gavjum; chekishyapti, suhbatlashishyapti, sovuqdan tomoq qirishyapti, zo‘r ishtiyoq bilan bir-biriga aravaga don

qoplarini ortishga yordam beryapti – mehnat kuniga qarab don bilan to'lov qilinyapti.

Tuman qo'mitasida, xuddi momaqaldiroq oldidan bo'lgandek jimjitlik. Hech kim Trubetskoy' ishi haqida eslamayapti. Soqoli o'sgan Panikratov so'ppayib, endi «vaziyatni o'nglash» uchun emas, balki vijdon toza bo'lsin uchun bir qoloq kolxozdan ikkinchisiga o'zining «echkicha»sida uchardi va har bir boshqarmada siqilish bilan kutardi: hademay telefon qo'ng'irog'i jaranglaydi – viloyat qo'mitasiga chaqirishadi.

Rodnev boshqalar kabi so'nggi kunga qadar qoloq kolxozlarga borar, yig'im-terimga chorlar, donni qutqarish imkoniyatini izlar va kuchsizligini his qilardi – yo'q, bunday ishlash kerak emas, bunday-mas!..

Kuzning qishga o'zgarishi kunlarining birida Rodnevga tuman qo'mitasiga Trubetskoy qo'ng'iroq qildi.

– Matveyich, anchadan buyon sen bilan uchrashmoqchi edim. Men bılan ovga borib kelishga va'da berganing esingdami? Ertaga yakshanba, muzda baliqlarni karaxt qilib ovlashga boramiz. Men o'zimiznikilarga tayinladim, yo'l-yo'lakay kirib o'tishadi.

Rodnev rozi bo'ldi.

Ertasi kuni ertalab ular eski po'stinlarini kiyib, bolta va og'ir yog'och bolg'alar – «buxalo»lar bilan qurollanib, Vajenkaning tik qirg'oqlari bo'ylab ketishardi. Sovuq quyosh horg'in muzda yarqirardi. Muz shu qadar shaffof ediki, oyoqning ostida qum sarg'aygan mayda-chuyda joylarda o'pqonning qora chuqurliklaridan o'tilganda, beixtiyor et jimirlashib ketardi.

Muz ba'zi joylarda oyoq ostida darz ketar va hattoki yorilardi – baralla yangroq aks sado berdingmi, daryoning yarmi darz ketdi.

– Qayerga ketyapmiz? – so'radi Rodnev.

Zavozinskning yoyilib oqadigan joylarini bilasanmi? O'sha yoqqa.

Ahyon-ahyonda Trubetskoy yelkasidan «buxalo»sini yechib muzni yengilgina taqillatardi. Muz guvillab va qo'rqinchli javob berardi.

– Shoir, – ko'zida andak quvlik bilan aytardi Trubetskoy.

Bahaybat, uzunligi ellik metrlik muzliklar, butun boshli ko'llar uchrardi. Bu yerda ularni «lyag» deb atashadi. Ko'mirdek qop-qora suv ustida imillagan tugunchak bo'lib sovuq bug' ko'tariladi. Ba'zi lyaglar qattiq qahratonda suv qa'riga tortilmaydi. Shunda ular olisdan ko'rinadi – og'ir ayozli bulut qaysar suv ustida yotadi. Bu yerlarda yozda cho'milish xavfli – buloq otilib chiqadi, bu yerda tabiatga xilof ravishda yozda suv zirqirar darajada sovuq, qishda esa boshqa joylarga qaraganda ancha iliq.

Shuga[1]lar to'p-to'p bo'lib uchrardi. Qachonlardir bir-biri bilan jazavaga tushib kurashgan yemirilgan, maydalangan muzliklar matashib, bir-biriga suyanib bellashuv paytidagidek qotib qolgan.

Uzoq vaqt indamay ketishdi. Nihoyat, Trubetskoy «buxalo» zarbasi bilan ko'ndalang qotib qolgan muzlikni chilparchin qildi va daryo yuziga jilvalangan parchalarni tarqatib yuborib, so'radi:

– Eshitishimcha, meni nimadadir ayblading, men nimadadir nohaq emishman?

– Aybladim, – javob berdi Rodnev. – Yaxshi ish qilmading.

– Buni qanday tushunish kerak? Men yaxshi kishining birinchi fazilati – to'g'riso'zlik va vijdonlilik. Men Panikratovga yaltoqlanmasdan, uning ishi haqida nimalarni o'ylashimni yuziga aytdim, vijdonsizlik qilmadim. Mening so'zlarim unga ta'sir qilmagan bo'lsa, nima qilay?

– Sen Panikratovga aytishdan oldin hammaning ko'z o'ngida tuman qo'mitasi ishchisini kolxozdan haydab solibsan va har bir duch kelgan odamga: tuman qo'mitasidagilar – «portfelchilar», ular – «vositachilar» deb baqiribsan.

Trubetskoy har qadamda achchiqlanib muzga «buxalo»ning og'ir to'nkasini tushirardi.

– Unday bo'lsa, o'rgating... Tanqid qilishning sirini ko'rsating. Men, misol uchun, soddadilligim sabab chin haqiqatni ko'zga aytish – eng yaxshi tanqid deb o'ylayman. Laganbardorlar hali ham ko'p ekanligi bizning musibatimiz, ularning boshliqlar oldida haqiqatni so'zlash uchun tillari aylanmay qoladi, faqat burchaklarda pichirlashadi.

---

[1] *Shuga* – qish boshlarida yoki erta bahorda suv yuzida oqadigan mayda muz parchalari.

– Chin haqiqat, – masxaralaganday kulimsiradi Rodnev. – Mana, deylik, sen kimnidir xafa qilsang – jamoat xirmoniga jo'natsang, u bo'lsa donni tegirmonga olib borishi lozim bo'lsa, u, turgan gapki: «Nega sen, rais, o'zing yanchish uchun bormayapsan?» deb baqira boshlaydi. O'zingcha – ko'zimga qarab chin haqiqatni gapiryapti deb hisoblaysan. Ko'zga qarab qo'rqmasdan tor shaxsiy manfaatlarni ham himoya qilish mumkin.

– Bundan chiqdi, men shaxsiy manfaatlarimni himoya qilgan ekanman-da? – tepa sochi tikka bo'ldi Trubetskoyning.

– Unchalik emas... Sen – eng yaxshi kolxozlardan birining raisisan, yashirib o'tirishning hojati yo'q, sen boshqalardan ustunligingni sezasan. Tuman qo'mitasi raisiga esa yordam berishni xohlamaysan. O'z kolxozingning qiziqishlariga boshing bilan sho'ng'iding, shundan mamnunsan, huzur qilyapsan. Bu qiziqishlarga tuman qo'mitasi raisi tegib ketdi, sen o'ylab o'tirmay chin haqiqatni dangal aytding. Bu tuman qo'mitasi raisiga yordam beradimi yoki ziyon yetkazadimi - seni qiziqtirmaydi. Seni faqat o'z kolxozingning manfaatlari qiziqtiradi.

Oldinda Zavozinskning yoyilib oqadigan joylari ko'rindi va suhbat uzilib qoldi.

Zavozinsk daryosining yoyilib oquvchi nuqtasi hozir ulug'vor sokin ko'l bo'lib tuyulib, uning aksida goh u yerda, goh bu yerda muzda toshday qattiqlashgan qumli serqirra orolchalar ora-sira joylashgan. Bu joyda butun chuqurlik to'piqdan sal balandroq, ikki-uch tarmoqda esa – tizzadan chuqur emas.

– Yozda bu yerlarda xarius[1]lar yaxshi ovlansa kerak, – dedi Rodnev atrofga qarab. – Kuchli baliq, bosimni yaxshi ko'radi va kuchsiz oqimda yashay olmaydi, o'ladi. Fe'liga mos emas.

Ular biroz turishdi va tarqalishdi. Trubetskoy – indamas, damduz, Rodnev – bo'lajak ovdan to'lqinlangan edi.

Har bir ov o'zicha maftun qiladi... Oradan o'n besh yil o'tgan bo'lsa-da, Rodnev endi yoqqan qorda ayiqning teskari ag'darilgan izini ko'rganida ter bosganini eslaydi, hech qachon unuta olmasa

[1] *Xarius* – lososlar oilasiga mansub baliq.

ham kerak. Ayiqni baxtsizlik inidan chiqishga va o‘rmonda daydib yurishga majbur qilgandi. O‘shanda shirin qo‘rquvdan Rodnevning yuragi muzlab qolishiga bir bahya qolgandi.

Itning horg‘in, uzuq-uzuq uvillashini eshitganingda yurak umuman boshqacha muzlaydi va qurolni mahkam siqib, yozda orqasida juni tullab ulgurmagan belgisi bo‘lgan oq quyonning tupdan sakrab chiqishini kutasan. Tutun pag‘asi orasidan quyonning pitra o‘q tegmay yonga sakrab o‘tganini ko‘rganingda qanday alam yondiradi.

Boshqa har qanday ov bilan solishtirganda kuzda baliqni garang qilish – shunchaki yoqimli mashg‘ulot. Bu yerda o‘tkir kechinmalar yo‘q, bu yerda muvaffaqiyat mast qilmaydi va muvaffaqiyatsizlik o‘zingni ham, butun dunyoni ham ranjitmaydi. Bu yerda hammasi osonroq va hammasi g‘ayrioddiyroq.

Quruq g‘ira-shirada yer ustida xira yoyilgan quyosh suzadi. Uning nurlari nafaqat isitmaydi, sovuq bilan kuydiradi go‘yo. Atrofda – noodatiy tabiat: momiqday oppoq tuplar, ohangjamador naqshli daraxtlar, pastda esa silliq, tiniq (faqat ertakda bundayi haqida o‘qishing mumkin) yer va sen undan ehtiyotingni o‘ylamay yurasan, hatto ko‘ngil ochish uchun uni buzasan – ilmoq bilan urasan, timdalaysan; ayashning hojati yo‘q – tabiat boy va saxiy, unda bunday boylikdan serob.

Tiniq yer va qumli tub o‘rtasida suv oqadi, u ko‘zga ko‘rinmaydi va faqatgina tasodifiy oqib o‘tgan zarra cho‘p tagda to‘xtovsiz shoshilinch harakat bo‘layotgani sirini ochadi.

Biroq sen nafaqat qarab zavqlanasan, sen izlaysan, sening ko‘zlaring qumli tubning har bir parchasini diqqat bilan paypaslaydi. Va mana u! Muz ostida baliqning qora orqasi ko‘rindi. U katta boshidan tortib istar-istamas qimirlayotgan dumigacha butunlay ko‘rindi. Shoshilish kerakmas, sovuq suvda baliq bo‘shashgan va beparvo, u ketib qolmaydi... U – seniki! U olmos qopqoq ostida, suyuq tizillab oquvchi kahraboda yotibdi, faqat olish kerak.

Shoshilmasdan boshing uzra bolg‘ani ko‘tar. Ur! Biroq o‘rtasiga emas, baliqning boshiga yaqinroq joyda ur... Zarba! Muzda likopcha kabi tekis aylana qoladi. Uning yuzi shakar donachalari kabi miltillaydi, yoriq har tomonga tarqaldi, muzning shaffofligini loyqalatdi. Baliq noiloj oppoq qorni bilan tepaga ag‘darilayotgani ko‘rinyapti,

uni oqim ilib olyapti va goh tubga, goh muzga urib olib ketyapti. Endi boltani qo'lga olib, qochib ketayotgan baliqqa yetib ol va oqim bo'yrab pastroqda muz o'yig'ini chop, tezroq chop, kuchingni ayama.

Ilmoq bilan baliqni ilib olasan, u – terchiragan, buruqsagan, qo'ling yoqimli og'irligini sezyapti. U urinmayapti, uxlayapti, shundayligicha muzlab qoladi, g'o'la kabi qattiq bo'ladi, biroq uni xomligicha muzga tashlama, aks holda sovuq qisib oladi, muzga yopishtirib qo'yadi – tortib olomay qolasan...

– U-u-uh! – yangradi ko'l bo'ylab. Rodnev boshini burdi. Trubetskoy muzga «buxalo»sini tashlab, belidagi boltani oldi. Rodnevga hech narsa tutilmasdi. U yumshoq piymasini asta bosib quruq, sovuqdan jilosini biroz yo'qotgan muzda ehtiyotlik bilan ketardi va «cho'ntak»larni, ya'ni ko'l tubigacha muzlab qolib, oqimni yopib qo'ygan joylarni sinchiklab axtarardi: shunday joylarning atrofida imillagan qishki baliqlar xotirjam yotib dam oladi.

Muzdan kulrang tusga kirgan qumli orolcha yonida Rodnev birdan mus ostida sukunatda qora jismni ko'rdi... Ha! U oshiqdi, Trubetskoy zafarli zarbani tezroq eshitishini xohlardi. Og'ir to'nka bosh ustida bir zum qotdi va urildi – muz norozi bo'lgandek do'ng'illadi... Rodnev muzdagi oppoq dog'ga termilib qarab tezda boltani sug'urib oldi. Biroq baliq qornini osmonga qilib to'nkarilmasdi.

Rodnev hatto alam aralash tomog'ini qirib yubordi: «To'nka qisilib qoldi».

U olg'a bosdi. Qum orasida tubda shag'al uchray boshladi, keyin mayda tosh keldi, tub bejamalashib, chuqurlashdi. Har bir qadamdan so'ng chuqurlik ortib borardi – bu tomonga borishning foydasi yo'q. Rodnev orqaga burilmoqchi bo'ldi-yu, ko'm-ko'k tovlanuvchi muz ostida, suvdan otilib chiqib turuvchi toshlar orasidan katta soyani payqadi. Kalta, tikka sergo'sht orqali, to'mtoq kallali kattagina zog'orabaliq turardi, hattoki tebranuvchi qizil suzgichlari ham ko'rinardi. To'mtoq kallani mo'ljallab, Rodnev «buxalo» to'nkasini astagina ko'tarib qo'ydi. Shu payt Trubetskoy tomondan zarba gumburladi, zog'orabaliq biroz qimirladi va Rodnev kuch bilan bolg'ani tushirdi. U muzni teshdi, suv shaloplanib otilib chiqdi. Zog'orabaliq asta sariq qornini ko'rsatdi va oqim bo'ylab suza ketdi. Rodnev

boltani oldi va yugurib o‘tib ketib, shuvoq bilan ura boshladi. Suv pilchillardi, u siniqlar ostidan otilib chiqib, tizzada turgan Rodnevga yaqinlasha boshladi. Rodnev chopardi, zog‘orabaliqning sariq qorni ilinib, sapchib, o‘yiqqa yaqinroq sirpanib bordi. Ilmoq bilan emas, qo‘lqopni irg‘itib tashlab va muz tubga yap-yalang qo‘lni tushirib, Rodnev kattagina, tangachalari sariq tovlanuvchi zog‘orabaliqni tortib oldi. «Kamida ikki kilo», – o‘yladi u o‘zi o‘ziga beparvo mug‘ambirlik qilib va sovuqdan zirqiragan ho‘l qo‘lini mo‘yna qo‘lqopga solishga shoshildi.

Bu boshlanishi edi. Zog‘orabaliqdan so‘ng u tanasi ataladay yumshoq yelimbaliqni tutdi, lekin yelimbaliqqa jon kirib qo‘lida prujinaga o‘xshab dukillay boshladi.

Rodnevning qopi og‘irlasha boshladi. Quyosh botdi, ojiz qishki yog‘du charaqladi. Tuplarning oppoq jimjimasi yorug‘da pushti, soyada esa mayin ko‘k rangga kirdi.

Trubetskoy Rodnevning yoniga yaqinlashdi. U olisdanoq, xursand bo‘lib, quvonib ilmoqqa ilingan cho‘rtanni ko‘rsatardi.

– Qara, qanaqa yalmog‘izni gandiranglatdim!

– Ajoyi-ib, – ko‘zi bilan boshidan dumigacha razm solib, biroz hasad bilan bosh silkidi Rodnev.

Va ular qoplarini ochib, cho‘kka tushib, bolalar kabi bir-biriga ovi bilan maqtana boshlashdi.

Turishdi. Trubetskoy aybdor tabassum bilan olisga, qirg‘oqqa qarab, gapirdi:

– Bilasanmi, Vasiliy, men doim bir narsani o‘ylayman... «Stepan Razin» kabi «Ahil ekinlar»ni o‘zimizga yaqinlashtirsak? Faqat bir sharti, – Rodnev gapini bo‘lmasligi uchun shoshilib gapirardi Trubetskoy, – anavi Kasyan Ogarkov raislikdan haydalsa. U odam emas, ikki oyoqli qandaydir polyuvgich. U Spevkin emas, unga o‘rgata olmaysan.

– Gaping to‘g‘ri. Kasyanni brigadir qilib qoldirish ham xavfli.

– Ana, – xursand bo‘ldi Trubetskoy. – Yosh yigitni, mayli tajribasiz bo‘lsin... Tajriba – orttirsa bo‘ladigan narsa, yordam beramiz. Shunday ekan, menikiga boramiz! Mening kampirim yelimbaliqni tovada adabini beradi, shishani esa topamiz. Sovuqda yaxshi ketadi.

Biroq ular ushlanib qolishdi.

Sovuq havoda allaqachon motorlarning bo‘g‘iq taqillashi tarala boshlagandi. U yaqinlashardi... Nihoyat, sohildagi tuplarning pushti rang-moviy ko‘pik orasidan traktor ko‘rindi. Vazminlik bilan po‘ng‘illab, traktor qotib qolgan qirg‘oqqa sudralib keldi. Orqasidan ikkinchisi ham ko‘rindi.

Birinchi traktorning kabinasidan traktorchining yonida pochapo‘stinda, paxtali ishtonda, quloqchinli telpakda o‘tirgan odam sakrab tushdi. U oyoqlarining ostiga qarab muzda yura boshladi. Traktor qirg‘oq yonbag‘rida, muzning eng chetida turar va sovuq havoga moviy rang gazini chiqarib irillardi. Odam o‘girildi va qo‘lqopini siltab, baqirdi:

– Ortimdan yur!

Rodnev Mariyani tanidi.

Traktorning gusenitsa[1]si ostidagi muz qasirlay boshladi. Birinchi traktor asta-sekin, sovuq suvga tushayotgan qo‘rqoq cho‘miluvchi kabi daryoga tushardi. Egiluvchan muz bukildi, yorildi. Traktor muzga o‘rnashib oldi. Uning ortidan xuddi shunday ehtiyotlik bilan, izma-iz muzga ikkinchi traktor ham tushdi. Qirg‘oqda uchinchi traktor ko‘rindi.

Mariya boshini egib, ko‘zlari bilan muzga tikilib, nimanidir chuqur o‘ylagandek bo‘lib va daryo o‘rtasida, ikki yuz metr narida turgan Rodnevni sezmay, qarama-qarshi qirg‘oqqa shoshilmasdan ketardi, uning ortidan esa, xiylagina masofada, g‘achir-g‘uchur qilib, tekis muzlikni qiymalab, o‘zidan so‘ng muz parchalari bilan to‘lgan keng yo‘l-yo‘l chiziq qoldirib, birinchi traktor, uning ortidan – ikkinchisi ochilgan yo‘ldan, ortidan – uchinchisi ketardi.

Muz qarsillardi, motorlar gurillardi, suv qirg‘oqdan otilib chiqar va muz yuzasidan yugurardi, ko‘l ustida gaz har yoqqa taralardi, moy tekka pochapo‘stin va paxtali beso‘naqay shim kiygan ayol esa orqasida nima bo‘layotganiga zarracha qiziqmay asta ketib borardi. U yonga burilar, traktorlar itoatkorona ortidan ergashardi; u to‘xtardi, oldidagi tubga o‘ychan razm solar, orqadagilar ham tezlikni pasaytirardi; u oldinga siljir, traktorlar motorlarni birgalikda chinqirtirib, tezlikni oshirardi...

---

[1] *Gusenitsa* – traktorlarda g‘ildirak vazifasini o‘tovchi keng zanjir tasma.

Qirg‘oq guvillar, jaranglar, chiyillardi. Traktorlar yo‘ldagi qumli orolchani maydalab, oxirgi tarmoqdagi muzni yorib qirg‘oqqa chiqishdi. Mariya kabinaga chirmashib chiqdi. U Rodnev tomonga bir marta bo‘lsin qaramadi.

Qirg‘oqning tik do‘ngsasini yengib o‘tib, mashinalar tantanali gurillash bilan g‘oyib bo‘lishdi. Atrof yana jimjitlikka cho‘mdi, faqat muz parchalari bir-biriga mungli ovoz chiqarib urilardi.

20

Ertasi kuni tongda, arang ko‘zini ochib, Rodnev o‘zini boshi osmonda kabi his qildi. Faqat bolalikda va faqat o‘zining tug‘ilgan kunida u xuddi shunday hayotidagi qandaydir yaxshilik umidi ila uyg‘onardi.

O‘sha vaqtlarda kutishga arzirli narsalar ko‘p edi: onasi kulchali pirog pishirar, har bir kulcha – harf edi, harflar esa yettita – «V-a-s-i-l-i-y»; otasi ro‘molchani ochib qattiq muqovali, tillarang harflar bilan yozilgan suratli kitobni olardi; bobosi qo‘lda yasalgan qafasda sa’va yoki yozda tutib olingan tirik quyonchani olib kelardi; akasi Aleksey yog‘och odamchali alomat pirpirak sovg‘a qilardi – bordiyu uni tomning uchiga qoqib qo‘yilsa, shamol esgan mahal yog‘och odamcha xuddi pashshalarni quvgandek qo‘l va oyoqlarini qimirlatar, raqsga tushardi.

Biroq bugun Rodnevning tug‘ilgan kuni emas, buning ustiga anchadan beri hech kim unga sovg‘alar hadya qilmaydi.

Unday bo‘lsa bu nima? Nima uchun u o‘zini bunday yaxshi his qilyapti? Ha! Kecha – daryo, muz, traktorlar, Mariya!.. Bugun u Mariyani ko‘radi.

Rodnev issiq adyolidan qo‘lini chiqardi va kuch bilan, tanasidagi har bir suyagi qisirlab ketar darajada cho‘zildi.

Xona qandaydir mayin, bag‘ayrat nur bilan to‘lgan edi, shu sababli atrof odatdan ko‘ra tozaroq va sofroq tuyulardi.

U karavotdan sakrab turdi va g‘oyat zavqlanib hushtak chaldi. Ko‘zni qamashtirar darajada oppoq hovlining o‘rtasida, pidjakda, shoshilib orqasini oldinga qilib kiyilgan qalpoqda qo‘shni bolakay Nikitka sevinib tegilmagan qorda yangi etigi bilan raqs tushardi. Birinchi qor!

O‘sha Nikitka uchun bo‘lgani kabi Rodnev uchun birinchi qor – bolalikdan beri bayram. Birinchi qor – o‘zining bardam qiluvchi sovug‘i, zarang yo‘l bo‘ylab etiklarning g‘ijirlashi bilan, izg‘irin, beo‘xshov po‘stin, yapaloq chanasi bilan foydali rus qishining boshlanishi!

Kun o‘zining odatiy ishlari bilan o‘tishi barobarida Rodnevning quvonchi vahimaga aylana boshladi. Uyg‘ongach, u ikkisi uchrashishiga amin edi, lekin qachon, qayerda, tasodifan yoki ataylab – bu haqda u o‘ylamasdi. Biroq kun o‘tardi...

«Balki kechqurun unikiga borsammikin? Noqulay bo‘lmaydimi? Yo‘q, uchrashuv tasodifiy bo‘lishi kerak». Shunday bo‘lsa-da, bo‘limda hech kim bo‘lmagan daqiqani poylab, Rodnev mashina-traktor stansiyasiga qo‘ng‘iroq qildi.

– Kim gapiryapti?

– Sizga baribir emasmi? – achchig‘i kelib javob berdi Rodnev.

– Agar menga «baribir» bo‘lsa, brigadirlarni izlab yugurib yuradigan bolakay emasman. – Va trubkani qo‘yib qo‘ydi.

U kechqurun uyiga qaytdi, stolda har doimgi kitoblarini, daftarlarini, maktab o‘quvchilarining binafsharang siyoh tekkan plastmassa stakanini ko‘rdi va nafasi qisilib qolar darajada g‘amga botdi. U yechinmadi, balki begona kabi xonaning o‘rtasida stolga qarab biroz turdi va o‘ziga o‘zi: «Aylanib kelaman», dedi.

U aylanma, chigal yo‘l bilan Anfisa Kuzminichnaning uyiga yaqinlashdi. «Nima, men yosh bolamanmi yashirinib derazadan kirish uchun?» Shundan so‘ng ikki yo‘l qolgandi: orqaga, o‘zining kitoblari-yu siyohli idishi tomon burilish yoki – kirish. Va u qat’iyat bilan eshik pillapoyasiga ko‘tarildi.

Uy bekasi eshikni ochdi. Eshikni Mariya ochmagani Rodnevning o‘zidan o‘zi ranjishini battar kuchaytirib yubordi. U achchiqlanib so‘radi:

– Mariyani ko‘rishim kerak.

U uy bekasi: «Uyda yo‘q», deyishini kutgandi, shu sababli asta uyiga ketishga taraddulana boshlagandi. Biroq beka hovliqib qoldi:

– Marhamat, marhamat, o‘rtoq Rodnev. U uyda, uyda.

Uning hovliqma iltifoti ortidan qiziqsinish ham, qandaydir qiziqarli holat ilinjida quvonchli kutish ham, o‘sha «qiziq narsa» barbod bo‘lishi borasidagi qo‘rquv ham sezilardi.

Mariya endigina sochini yuvgan edi, uning boshi atrofiga yig'ishtirilgan og'ir kokillari odatdagidan qoraroq tuyulardi. Toza pushti rang yuz, to'liq sog'lom bo'yin, ola-bula chitli ko'ylak – u yana yangi, oldingidek emas.

– Keldingmi? – so'radi u qaltiroq ovozda.

– Balki, bemavrid? Xalaqit berdimmi?

Mariya eshikni zichlab yopdi va uni tirsagidan ushlab, stolning oldiga olib keldi.

– O'tir. – O'zi ham o'tirdi.

U Rodnevning yuziga bir daqiqacha tikilib turdi, Rodnev bu og'ir qarashga toqat qilolmadi, biroz qimirladi, xijolatomuz kulib qo'ydi va shusiz ham aniq bo'lgan narsani tan oldi:

– Mana, keldim.

– Men esa kutgandim... Bilgandim kelishingni, kelishing kerakligini.

Mariya ijarada turgan xonadon egasi Anfisa Kuzminichna uchrashgan paytda salomlashishning o'rniga: «Eshitdingizmi?» deydigan kampirlardan edi. U bahorda Panikratov ijarada turuvchi ayol bilan uchrashayotganini xabar qilgan birinchi odam edi. Biroq bu yangilik katta ajablanish uyg'otmadi – unisi yolg'iz, bunisi ham beva, yigit kelishgan, ayol ham undan qolishmaydi, to'y bo'lishini taqdirning o'zi xohlayotgandek. Ammo Mariyaning Panikratov bilan emas, boshqa, buning ustiga Panikratovga yaqin odam bilan uchrashayotgani – mana «yangilik»!

Aholisining teng yarmi o'zaro oshna-og'ayni yoki quda-anda bo'lgan Kuzovkida bunday yangiliklar tez tarqalardi. Biroq Anfisa Kuzminichnaning «yangiligi»dan Fyodor Panikratov bexabar qoldi. Uni tuman qo'mitasiga chaqirishgan edi.

21

Tuman qo'mitasi yo'lagida Panikratovning og'ir qadamlari eshitilganda, umumiy bo'limdagi yozuv mashinasida ishlovchi ayollar junjikib ro'mollariga o'rala boshlashdi. Tuman qo'mitasi kotibi har doim qovog'i soliq va jizzaki edi. Rodnev bilan ketishidan bir kun avval qisqa kelishmovchilik bo'lgandi.

– Fyodor Alekseyevich, boshlang'ich tashkilotlar kotiblarining seminari bo'ladi, razinliklar va chapayevliklar nomidan qatnashsangiz yaxshi bo'lardi.

– Bu nima? O'zini ko'z-ko'z qilishmi?

– Yo'q! – keskin javob berdi Rodnev. Panikratov uni bundan ortiq haqoratlay olmasdi. – Kelajak hosil to'g'risida qayg'urish!

Panikratovning esa kelajak bilan ishi yo'q edi. Hozir tuman musibatni boshidan o'tkazayotgan bo'lsa, kelajak haqida qanday gapso'z bo'lishi mumkin! Hammasi o'tadi, unutiladi, shundagina kelajak haqida o'ylasa bo'ladi.

Biroq Panikratov ketdi, uning o'rniga Sochnev qoldi, u bilan esa Rodnevga kelishib olish qiyin emasdi.

Quruq qor qoplagan yo'lda Rodnev Lobovishega keldi.

Gruzdev boshqarmada yo'q edi. U yerda Spevkin Lobovishega kamdan kam keluvchi mehmon – Aleksey Trubetskoy bilan o'tirgandi.

– Mana, aql o'rgatyapman. Razinliklar yog'och tayyorlashda xatoga yo'l qo'ymasalar, deb qo'rqaman. Bu yerda raislik yig'ilishi o'tkazish kerak. Kech bo'lmasdan shuni aytishga keldim, – salomlashayotib izohladi Trubetskoy.

– Qanaqa «raislik yig'ilishi»? – hayron bo'ldi Rodnev. U bilardi – kolxozlar qo'shni o'rmon sanoati xo'jaligiga ishlash uchun ma'lum miqdorda odamlar va otlarni ajratishi kerak, ularni tayinlamoq lozim, bor gap shu; yana qanaqa «raislik yig'ilishlari»?

– Mulohazalar shunday, – tushuntirishga chog'landi Trubetskoy, – davlatga ham, kolxozga ham foyda bo'lsin, qisqasi, sigirlar ham kuymasin, buzoqlar ham to'q bo'lsin. Bu yerda ilgari qanday qilishgan? Ularga raznaryadka[1] kelgan, qoloqroqlar orasidan ishchilar ajratilgan. Yaxshilari kolxozga ham kerak. Qarabsanki, o'rmonga borib kelishdi – ust-boshi xarob bo'lib keldi, otlarning tinkasini quritishdi, ishlashga esa ishlashmadi. Kolxozga holdan toygan otlardan zarar, ishchilar norozi, davlatga ham, o'z-o'zidan, nokas ishchilardan foyda yo'q. Shunday bo'lgan-ku, Dmitriy?

---

[1] *Raznaryadka* – biror ishni bajarish, biror narsani berish yoki jo'natish uchun hujjat.

Spevkin tayyor turgandek jingalak sochini silkitdi: «Shunday, shunday».

– Biz esa eng yaxshi ishchilarni ajratyapmiz. Qizg'anchiqlik qilmaymiz, chunki qishda kolxozda ish ko'p. Ularga eng sara otlarni beramiz va: «Boringlar, do'stlar, kolxozni uyaltirmanglar, ko'proq ishlanglar», deymiz. Bir kvartalga emas, butun qishga, butun mavsumga jo'natamiz. Yigitlar baquvvat, bir oy ichida ular butun qishki me'yorni bajarishadi, qarabsanki, orasida ilg'orlari ham bo'lishadi; bir kub metr uchun bir yarim yoki hattoki ikki baravar to'lashadi. Qishning oxirida bizning yigitlar shuncha ishlab topishadiki, har bir muhandis ham bunday moyana ololmaydi. Pyotr Korpachyov, misol uchun, o'tgan qishda o'n besh ming olib keldi, Rogulin esa – o'n sakkiz. Rogulinning o'rmonda dongi taralgan.

– O'n sakkiz ming! – bo'g'iq ovozda takrorladi Spevkin.

– U ishlagan ot uchun kolxozga o'n sakkiz ming o'tkazishdi. Biz esa o'nta ot jo'natganmiz, salkam tozasi bilan yuz ming ishlab topdik.

– Eh, onajon! – tizzasiga bir tushirdi Spevkin. – Yuz ming, tupdan olingandek!

– Tupdan emas, o'rmondan. Qarabsanki, kolxozchilar ham qo'shimcha pul ishlab topishdi, kolxoz ham foydada, davlat ham ziyon ko'rmagan. Bizning yigitlar qancha yog'och eshelonini chopib, olib chiqishdi? Axir bu tabarruk ish emasmi? A?

– Biroq otlarni horitgan bo'lsalaring kerak, albatta? Sizga yaxshi – otxonangiz boy, bizda esa kuchli otlarni jo'nat, bahorda baybaylab qolasan, ekish ishlarini o'tkazish uchun hech narsa qolmaydi.

– Biz esa o'rmonga ishchilar bilan otlar nazoratchisini, katta otboqar Gavrilovni yuboramiz. U otlarning qiynalishiga yo'l qo'ymaydi.

– Aha. Biz Yurka Levashovni jo'natamiz.

Rodnevning kolxozda ishlari ko'p edi va u gapni bo'ldi:

– Uzr so'rayman, Aleksey Semyonovich... Mening Dmitriyga anchadan buyon bir savolim bor.

Spevkin sergaklandi.

– Sen hali uzoq vaqt shunday yurmoqchimisan? Partiyaga ariza topshirsang bo'lardi.

Spevkinning xijolatdan qo'li o'z-o'zidan sochiga ketib qoldi.

– Anchadan beri o'ylayapman, Vasiliy Matveyevich. Biroz qo'rqyapman. Sen bilan uchrashganimni eslayman.

– Hammasi ortda qoldi.

– Men tavsiyanoma berishim mumkin, – salobat bilan dedi Trubetskoy. – Arzirli odam, nima desang – darrov ilg'aydi.

Rodnev ketdi.

Hammasi haqida gaplashib va Trubetskoyni kuzatib qo'yib, Spevkin Gruzdevnikiga yo'l oldi. U uyida o'tirgan edi va boshini qashlab, stoldagi qandaydir qog'ozlarni ko'rib chiqardi. Yaqinda Gruzdev ko'zoynak taqa boshladi. Spevkinning o'zi unga shahar dorixonasidan eng katta, qora gardishli ko'zoynak tanlab berdi. «Mo'yloving bo'lmaganida, ko'rinishing, akademiklarga o'xshar ekan, Styopa, – mayna qilganday kuldi Spevkin. – Mo'ylovlaring yefreytorlarnikidek, qirib tashlasang bo'lardi, ko'zoynak turganda ularning nima keragi bor».

Biroq, Stepanni ko'zoynakda, qovoq-tumshug'ini osiltirib kitob o'qiyotganini ko'rganida beixtiyor hurmati oshardi.

– Rodnev senikiga keldimi?

– Keldi. Hozirgina ketdi.

– Senga aytdimi?

Gruzdev g'amgin ravishda ufladi, ko'zoynagini yechdi va uning yuzidan butun jiddiylik yuvilib ketgandek bo'ldi.

– Aytdi, Mitya, aytdi... Mening boshim aylanyapti. O'ylab ko'rchi – ma'ruza bilan chiqishni!

– Qanday ma'ruza bilan?

– Qanday bo'lardi, butun tuman tashkilotlari kotiblarining oldida tashabbusimiz haqida so'zlashimga to'g'ri keladi. Mendan bo'lsa, Xudo asrasin, qanday ma'ruzachi chiqardi!

– Shunday de. Ha – jiddiy masala! Biroq men sendan boshqa narsani so'ragan edim: Vasiliy senga mening nomzodlikka hujjatlarni rasmiylashtirishim lozimligi haqida gapirmagan edimi? Sendan tavsiyanoma so'ramoqchiman.

Gruzdevning yuzi darrov qattiqlashdi.

– Ha... Senga tavsiyanoma berolmasam kerak. Kutib turaman.

Kutilmagan javobdan Spevkinning tomog'i qurib qoldi.

– Qanaqasiga?

– Rodnev biznikida yashaganida sen o‘qishga kirishganding, keyin qarasam, tashlab yubording. Kitoblaring stolda jo‘n tamaki orasida sochilib yotibdi, faqat xalaqit beryapti.

– O‘zing bilasan, kolxozda ishlar boshdan oshib yotibdi, hamma yoqqa ulgurmayapman.

– Menda esa boshdan oshib yotmayaptimi? Har holda, ishsiz o‘tirmayapman – sut-mol fermasi ham, tashkilot ham yelkamda, biroq tishimni tishimga qo‘yib ishlayapman. Ziyofatlarga borish, raqsga tushishga vaqt topayotgan bo‘lsang kerak?

Spevkinning achchig‘i keldi.

– Rodnev tavsiyanoma beryapti, Trubetskoy beryapti, sen bo‘lsa – «berolmasam kerak». Kerak ham emas! Tuman qo‘mitasiga boraman yoki Churayevga, berishadi, rad qilishmaydi!

– Kim orqali a’zo bo‘lasan? Biz orqali, biz qabul qilamiz-ku. Men bo‘lsa, oshna, majlisda borini aytaman.

Suhbat tugaganining belgisi sifatida Gruzdev yana ko‘zoynagini taqdi. U ko‘zoynagini boshqachasiga, boshini ko‘zoynakka yaqinlashtirib taqar, cho‘qqisini burunga kiydirmas, balki burnini cho‘qqisiga olib borardi. Gruzdevning shamoldan qovjiragan basharasidagi oynalarning jiddiy yaltirashi Spevkinni sovitdi, u darhol tushundi: urushish va so‘rash befoyda.

Ko‘chaga chiqqachgina unga hayron bo‘lish qobiliyati qaytib keldi: «Mana senga Styopa Gruzdev! Ilgari Rodnev qanday bo‘lsa, buyam shunday, endi bo‘lsa qara-ya! Tortishib ko‘rchi. Bermayman – tamom! Aftidan, chindan ham tumanda chiqish qiladi. Qachon bunchalik o‘zgarishga ulgurdi?..»

22

Panikratov viloyatdan yarim tunga yaqin qaytib keldi. Bolalar uxlashayotgan edi. O‘g‘lini hamma komandirovkalardan kutib olishga o‘rganib qolgan keksa ona so‘radi:

– Natashkaga kigiz etik sotib oldingmi?

– Yo‘q, olmadim, – javob berdi g‘amgin Panikratov. – Vaqtim bo‘lmadi.

– Vaqting bo‘lmadi! Qiz hali ham botinkada yuribdi. – Va kampir, kechki ovqatni odatiy yig‘ishtirayotib, ming‘irlay boshladi. – Otalar! Bolalarni tug‘dirib tashlaydi, g‘amxo‘rlik esa mutlaqo yo‘q, mutlaqo! Aytgandim-a senga uylan deb, aytgandim...

Shu yerda kampir Fyodor Kuzovkida hamma xabar topgan yangilikni bilmasligini esladi.

– Mashkaning nimasi yomon edi – chiroyli va ishchan? Bunday ayol erini uyaltirib qo‘ymaydi. Yo‘q! Mariyaga, haligi, oti nima edi... biznikiga Vityushkani maktabdan kutib olganimizda mehmonga kelgan yigit suykala boshladi. Rodnevmidi? Endi senikida ishlaydi. U senga o‘xshab anqayib yurmasa kerak. U senga tezda yo‘lakdan javobingni berib yuboradi.

Odatda, onasining vaysashini jim eshitadigan Panikratov o‘shqirdi:

– Qo‘ysangiz-chi endi! Menga xotinlarning g‘iybati kerakmas!

– G‘iybat? Mana senga g‘iybat! Sho‘rim-ey, kimga o‘xshading-a? Otang, joyi jannatda bo‘lsin, senga o‘xshagan galvars bo‘lmagan. Meni boy xonadondan o‘g‘irlab ketgan.

Ertalab Panikratov tuman qo‘mitasida Sochnevni uchratdi.

– Ha-a, mana sen! Qachon kelding? Nega mashinani chaqirmading?

Sochnev endi-endi tuman qo‘mitasida paydo bo‘lgan edi. Yuzlaridan qaynoq qizili ketmagandi.

– Nega xursand bo‘lasan? Xursand bo‘ladigan gap yo‘q, – Panikratov og‘ir bo‘lib stulga o‘tirdi.

Sochnev labini burishtirdi.

– Nima deyishdi?

– «Yashab tur, Panikratov, anjumangacha, o‘sha yerda ko‘ramiz», – mana nima deyishdi.

– Ha-a, – cho‘zdi Sochnev, – anjumanga yaqin qoldi.

Panikratov turdi, stoliga o‘tdi, biroq Sochnev xafa bo‘lishni yaxshi ko‘rmasdi va bilmasdi, uning ko‘zlari yana charaqladi va u jonlanib so‘zlay boshladi:

– Seminarga tayyorlanyapmiz. Bilasanmi, «Stepan Razin»dan Gruzdevning chiqishini seminarda berishga qaror qildik, chapa-

yevliklardan tajriba o'rganganini so'zlab bersin. U yerdagi tashkilot kichkina, biroq ishlari joyida. Savollar, tortishuvlar bo'ladi... O'ylashimizcha, seminar jonli chiqadi.

– Rodnev o'ylab topdimi buni?

– Ha, Rodnev... U Gruzdevga ham chiqish qilishga yordam beryapti.

Panikratov jirkanib qo'ydi.

– Rodnev tuman qo'mitasida xo'jayinlik qilyapti, sen ham uning surnayiga raqsga tushyapsan.

Sochnevning ko'zlari hayron bo'lib yiriklashdi.

– Eshit, Fyodor, «raqsga tushyapsan» nima deganing? Kerakli yumush-ku.

Panikratov sakrab turib, qo'l kafti bilan stolga urdi.

– Byuroda seminar rejasi bormidi? Bor edi! Sen uni tasdiqladingmi? Tasdiqlading! O'sha Rodnev bo'lsa endi tumanda paydo bo'ldi, kolxozga sal-pal yordam berdi va endi hamma teshikka kirib-chiqyapti... Sening Rodneving amalparast! Yuqoriga chiqmoqchi! Sezmayapsanmi? Men esa sezyapman!

Sochnev oqarib ketdi.

– Sen bekorga unday deyapsan. Bekorga! U qanday qilib amalparst bo'lsin?

Panikratov baqirganidan biroz afsuslandi.

– Mayli, – so'niq ovozda dedi u. – Amalparast bo'lmasa-da, shunga yaqin. Materialni tayyorladimi, Gruzdev chiqish qilsin. Nikolay, odamlarni ajratishni, har tomondan paypaslab ko'rishni bilish kerak.

Biroq bu safar Sochnev uning gapini katta ishtiyoqsiz ma'qulladi.

23

Noyabr o'rtalarida sovuq kunlar boshlandi.

Quruq g'ira-shirada xira quyosh suzardi. Zarang yo'l quyosh nurida sovuq po'latrang yaltirardi. Odamlar yog'ochdan qilingan, qirov bog'lagan devorlarga yashirinishardi, issiq pechlar yonida o'tirishardi, borib turgan zaruratdagina ko'chaga chiqishardi.

Daraxtlarni ham qirov qoplagan – bu birinchi kuzgi sovuqning yengil, mayin qirovi emas, balki og'ir, qalin, shoxlarni devorlarga

yopishtirib qo'ygan qirov edi. Na qirovga berkingan novdalardan, na qor qoplagan tomlardan qor zarralari endi tushmaydi, havoda uchmaydi – shamolsizlik hukmron! O'z kuchidan cho'chigan tabiat tinchlandi.

Bu kunlarda tuman qo'mitasiga kolxozlardan paketlar kelmoqda. Qishloqlarda, odatdagidek kolxoz klublarida emas, balki tor bo'lsada, ammo issiqroq bo'lgan boshqarmalarda hisobot-saylovoldi yig'ilishlari bo'lib o'tmoqda. Stepan Razin nomli kolxozda tashkilot kotibi qilib yana Gruzdevni saylashdi, Chapayev kolxozida esa Gavrila Timofeyevich Kryajinni bo'shatishdi, yangi kotib – yoshi katta bo'lsa-da, ish tajribasi kam Savatyevani saylashdi.

Panikratovning xonasida yorug'lik xira yonib turibdi – tashqi derazalarni qalin qirov qavati qoplagan. Pechka shinam charsillamoqda. Vaqti-vaqti bilan Konstantin Akimovich kirib, so'xta hassasini aylantirmoqda va olov shu'lasi uning kal boshida raqsga tushmoqda. Konstantin Akimovich – tuman qo'mitasida ham go'lax, ham tungi qorovul, ham otboqar. U o'zining hamma ishlarini «yuklama» deb ataydi va ularning ko'pligidan mutlaqo qiynalmaydi. Kunduzi Akimich goh otxona oldida otlarga va ikkinchi otboqar, o'n yetti yoshli Alyoshkaga ahyon-ahyonda baqirib qo'yadi, goh xonalarda o'tinlarni gursillatadi, tunda esa umumiy bo'limdagi divanda navbatchilik qiladi. Bu divandan u faqat eng noiloj telefon qo'ng'iroqlariga turadi, shu bilan birga uning ovozi norozilikning eng yuqori cho'qqisini ifodalaydi: «Kim kerak? Yo'q! Odamlarga hech bo'lmasa tunda dam olishga beringlar».

Pechkadagi o'tinlarni to'nkarib, Konstantin Akimovich bir daqiqacha temir kosovni ushlab turadi, Panikratovning egilgan boshiga qaraydi. Ko'pincha, tuman qo'mitasi kotibining bo'sh vaqti bo'lganida, chol u bilan, albatta, suhbatga kirishadi, Akimichning falsafiy mulohazalari mutlaqo kutilmagan mavzulardan boshlanardi. Misol uchun, tog'terak o'tinlari haqida suhbatlashib turib, u yer yuzidagi hayot yomon tomonga o'zgarayotgani haqidagi qayg'uli xulosaga kelishi mumkin edi.

– Tog'terak qanday daraxt? Tuf! O'tingayam yaramaydi. Ilgari yer yuzida qarag'ay o'sgan, o'zim eslayman: Kuzovkining atrofi qarag'ay bilan o'ralgandi. Daraxtlar shamday edi – marhamat qi-

ling, ham kulbangga va yupqa taxtaga yaraydi. Kema machtalariga ham ishlatilgan deyishadi. Xaridorlar chopib tashlashdi. O‘rniga nima o‘sib chiqdi? Qayin. Foydalikda qarag‘ayga past keladi. Qayindan kulba yasolmaysan, faqat yondorlar qilish mumkin. Qayinni chopsang, o‘rniga butunlay jirkanch narsalar o‘sib chiqadi – olxa, tog‘terak, befoyda daraxtlar. Yer yildan yilga kambag‘allashib boryapti.

Panikratov Akimichning «falsafasi»ga tegajog‘lik qilishni yaxshi ko‘rardi. Qariya mulohazaga berilar, goh talashib-tortishar, goh rozi bo‘lar va mag‘rurlikka to‘lib xonadan chiqib ketardi – axir u kotibning o‘zi bilan suhbatlashdi!

Biroq hozir Panikratov qog‘ozga muk tushgan. Konstantin Akimovich oyoq uchida, oldida dud bosgan temir kosovni ehtirom bilan ko‘tarib olib, chiqib ketdi va o‘tib ketayotib umumiy bo‘limda chaqchaqlashib gap sotib o‘tirgan yozuv mashinasida ishlovchi ayollarni tinchlantirdi:

– Sekinroq, o‘ynoqilar! Yoningdagi odam butun tuman haqida o‘ylayotgani senlarga kammi?

Panikratov anjumanga hisobot ma’ruzasini tayyorlayotgan edi. U bo‘limlardan tushgan ma’lumotlarni dastalarga ajratayotgan edi. Uning oldida stolda bir yil uchun tuman hayoti haqidagi yilnoma yotgandi. Tuman hayoti! Bu yili uning bor turli-tumanligi Panikratov uchun birgina hal qiluvchi raqam – «800»da aks etgandi. Yig‘ib-terilmagan, qor ostida olgan sakkiz yuz gektar don! Tuman qo‘mitasi raisi tashkilotlarni yaxshi boshqarmayotgani, kolxoz kadrlarini yaxshi yetishtirmayotganini tan olishga to‘g‘ri kelyapti – hammasini tan olish kerak. Panikratov bilardi: stolda sochilib yotgan mana bu yilnoma bir necha haftadan so‘ng uning uchun ayblov hujjatiga aylanadi. Uni o‘zining odamlari ayblashadi, unda esa o‘zini oqlash uchun birgina sabab – baroridan kelmagan kuz!

Panikratov peroni siyohdonga botirdi va davom etdi:

«...Shu bilan bir qatorda partiyaning eski a’zolari, kolxoz boshliqlari tomonidan tuman qo‘mitasi raisiga yordam o‘rniga tuman qo‘mitasini haqoratlovchi harakatlar kuzatildi. Jumladan, Chapayev nomli kolxoz raisi o‘rtoq Trubetskoy tuman qo‘mitasi kotibi bilan shaxsiy suhbatda tuman qo‘mitasi vakili o‘rtoq Leshevani eng

qo'pol so'zlar bilan haqoratladi va tuman qo'mitasi byurosiga tahqiromuz hujumlarini davom ettirdi. Trubetskoyning harakatini uning do'sti – partiya va kasaba uyushmalari tashkilotlari bo'limi mudiri o'rtoq Rodnev yashirishga urindi...»

Ma'ruzada beixtiyor qilishga majbur bo'lgan barcha iqrorlik va pushaymonlardan so'ng oxirgi jumla Panikratovga birdan muvaffaqiyatsiz kuzni bahona qilish kabi nochor urinishdek tuyuldi.

Orqasida pechka eshigi shaqirladi, tumir kosov bir necha marta taqilladi. Panikratov o'girildi. Akimichning rangi o'chgan ko'zlari unga poylovchan qarardi.

– Eh! Ishlayverib charchadingiz shekilli, Fyodor Alekseyevich, – achinib gapirdi chol.

– Charchadim, Konstantin Akimovich. Qayerda rost, qayerda yolg'on ekanining farqiga bormayapman.

Tuman qo'mitasi kotibi suhbatga moyil ekanligini ko'rgan qariya tayyorgarlik bilan kosovni burchakka qo'ydi.

– Haqiqat – bu kuch. Qayerdadir allaqachon yozilgandi: bo'ri kuchli bo'lgani uchun qo'yni o'ldirgan. Demak, bo'ri haq – qo'y uning ko'ziga ko'rinmasligi kerak edi!

Lekin Panikratov qo'l siltadi: «Boraver!» Konstantin Akimovich dili siyoh bo'lib uning toliqqan yuziga qaradi va boshini chayqab, chiqib ketdi.

Panikratov yana stolga borib o'tirdi va omadsiz kuz haqidagi yozgan jumlasini o'chirib tashladi. Trubetskoy va Rodnev haqida o'yladi. «Dalil bor-ku: Trubetskoy tuman qo'mitasini haqoratladi, Rodnev do'stining yonini oldi. Ularni himoya qilishim kerakmi?» – xulosaga keldi u.

24

Konferensiyaning ochilishiga bir necha kun qolganda tuman qo'mitasiga yengil avtomobil yaqinlashdi. Panikratov yarmi muzlagan derazadan mashinadan biroz bukchaygan, qishloq o'qituvchisiga o'xshash, mo'ynali yarimpalto kiygan odam chiqqanini ko'rdi.

– Xo'sh, xo'sh, – dedi Panikratov, – demak, Vorobyov!

Va mehmonni kutib olishga ketdi. Panikratovning viloyat qo'mitasida unga ishongan ko'plab do'stlari bor edi. Biroq dush-

manlari ham yo‘q emasdi. Shu sababli u faqat tashqaridan qaraganda o‘zini beparvo tutardi – viloyat qo‘mitasi raisi konferensiyaga kimni yuborishi baribir emasmi?

Partiya va kasaba uyushmalari tashkilotlari mudiri Vorobyov kelgani ma’lum bo‘ldi. U bir vaqtning o‘zida Panikratovning ham do‘sti, ham dushmani edi.

Chamasi yigirma yillar avval tuman markazidan qirq kilometr narida joylashgan Kotashixa qishlog‘ida yong‘in sodir bo‘ldi. Kolxoz boshqarmasi, mushtumzo‘r Obuxovning sobiq uyi yondi. O‘sha vaqtlarda yigirma yoshli yigit bo‘lgan Panikratov otxonaga tashlandi, otning ipini yechdi va qanday bo‘lsa shunday yalang oyoq, ichki ko‘ylakda Kuzovkiga ot choptirib ketdi. Qishloq orqasida kimdir unga qarata o‘q uzdi, biroq tegmadi... Kuzovkida, tuman qo‘mitasida Fyodorni navbatchi – yumaloqboshli, shalpangquloq yigit Ilya Vorobyov kutib oldi. Ularning tanishuvi shundan boshlandi.

Ilya Vorobyov Panikratovni traktorchilar kursiga jo‘natishi uchun katta yordam berdi. Panikratov mashina-traktor stansiyalari ustaxonalaridan tuman qo‘mitasining birinchi kotibigacha, Vorobyov esa viloyat qo‘mitasi bo‘lim boshlig‘igacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tishdi. Ular ko‘p ham uchrashishmasdi, biroq uchrashganlarida o‘tmishni xotirlardilar va bir-biriga oddiy tanishlardek munosabatda bo‘lmasdilar.

Urush vaqtida ularning qarashlari bir marta bir-biriga to‘g‘ri kelmay qoldi. Panikratov Matvey Chugunkovni partiyada chetlatish masalasini qo‘ydi. Viloyat qo‘mitasida Vorobyov chetlatishga qarshi chiqdi. «Tarbiyalash, xatolarga ko‘z yumish kerak, bu yerda bo‘lsa – chetlatish, eng oliy jazo; Panikratov haddan oshirib yuboryapti!» – derdi u. Biroq byuro boshqacha qarorga keldi: Panikratov haq – kurash ketyapti, davlatga g‘alla kerak, kolxoz raisi Chugunkov esa g‘allani kechiktiryapti – bunga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi!

Viloyat qo‘mitasi yo‘lagida birga bir duch kelgach, Panikratov o‘shanda yarim hazil-yarim chin Vorobyovga:

– Miyali odamsan, Ilya, biroq qalbing yumshoq, – degan edi.

Vorobyov bu so‘zlarni jiddiy qabul qildi, biroq xafa bo‘lmadi, javob berdi:

– Balki sen haqdirsan... – va o‘ylab ko‘rib, qo‘shib qo‘ydi: – Ma’lum vaqtgacha.

Biroq endi Ilya Vorobyov qanday harakat qiladi? O‘tgan yili tuman hosilni yig‘ish mavsumini barbod qildi, g‘allaning bir qismi qor ostida qoldi. Joriy yilda esa – sakkiz yuz gektarini qor qopladi! Bir yil ulgurishmadi – buni kechirishlari mumkindir: hisoblay olmadik, xato qildik, biroq bunday xato ikkinchi yil ham takrorlansa – uchinchisi qachon qaytarilishini kutib o‘tirishmaydi-ku! Buning ustiga Panikratov Trubetskoyning chetlashtirilishini qattiq turib ma’qullayapti. Bu Panikratovning qo‘l uchida ishlayotgani, tadbirkorsizligining isboti emasmi?..

Shunday bo‘lsa-da, ular – do‘stlar... Ilya Fyodorning ish uchun hamma narsaga tayyorligiga shubha qilmaydi.

Panikratov Fyodorni kutib olish uchun zinadan tushib kelayotganida, uning himoyachisi keldimi yoki ayblovchisi – bilmasdi...

25

Vasiliy Rodnev Stepan Razin nomli kolxozning chapayevliklar bilan do‘stligi viloyat qo‘mitasida qanday qiziqish uyg‘otganidan bexabar edi.

Viloyatda qirq ikkita qishloq xo‘jalik tumani bor va barcha tumanlarda bir hodisa kuzatilmoqda – kolxozlarning xilma-xilligi! Elektr stansiyalari qurayotgan, suv quvurlari o‘tkazayotgan, butun boshli chorvachilik shaharchalari bunyod etayotgan millioner-kolxozlarning yonida xo‘jalik binolarining tomi puturidan ketib qulayotgan, juda ham serhosil, omadli yilgina bekam-ko‘st ish kunini bera oladigan kolxozlar yonma-yon turibdi. Bu yerlarda ko‘pchilik kolxozlardan ketishga harakat qiladi – kim shaharga ishlab chiqarishga, kim tuman markaziga, ishlab chiqarish kombinatiga yaqinroq.

Har bir tumanning o‘z chapayevliklari va o‘z razinliklari bor, ular hamma yoqda bir-biri bilan tajriba almashishlari mumkin edi.

Vorobyov joyida Rodnevni ko‘rish, u bilan bafurja suhbatlashib olish uchun Kuzovkiga konferensiyadan bir necha kun oldin keldi.

Kelganining ertasi kuni u taklif qildi:

– Biz, o‘rtoq Rodnev, Razin nomli kolxozga borib kelishimiz kerak.

– U yerda hozircha ko‘radigan narsaning o‘zi yo‘q, – e’tiroz bildirdi Rodnev. – Eng o‘rtacha kolxoz.

– Biroq yaxshi bo‘lishga va’da beryapti, buning ustiga yaqin orada...

– Yaqin orada emas-u, ikki yildan so‘ng ko‘tariladi.

– Aynan shunga amin bo‘lmoqchiman-da.

Vasiliy Vorobyovni Lobovishega olib bordi, biroq aylanma yo‘ldan yurishni va dastavval «Ahil ekinlar»ga mo‘ralab o‘tishni so‘radi.

Ularning mashinasi qishloqqa kirmay, otxonaga burildi va qor bosgan aravalar-u qaqqayib turgan shotilar o‘rtasida to‘xtadi. Yopishib qolgan muz qatlamlari sababli otxonaning eshik ostonasi zich yopilmasdi. Ichkarida tashqaridagidek sovuq edi, faqat havosi boshqacha – og‘ir, bo‘g‘uvchi. O‘tish joyining ikki tomonida serqirra, tarvaqaylagan, qirovdan kumushrangga kirgan ot yormalari serrayib turardi. Vorobyov indamasdan ketardi. Bir necha marta ko‘zoynagini yechdi va tishlarini qisib, ko‘zoynagining oynalarini qo‘lqopi bilan artardi.

Navbatchi otboqar, haybatli quruq suyak amaki kelgindi, boshga qor kabi tushgan tumandan bo‘lmagan rahbarlar oldida shu qadar esankirab qoldiki, barcha e’tiroz va savollarga kigiz etigiga tikilib tang qolib javob berardi:

– Men bu yerda Kuzma Penkinning o‘rniga navbatchilik qilyapman. Kuzma hammomini sotyapti, qishloqqa ketdi.

Ular mashinaga o‘tirishganda, Rodnev:

– Razinliklarda ham bir yil oldin ahvol xuddi shunday edi, – dedi.

Javob o‘rniga Vorobyov mashina eshigini taraqlatib yopdi va haydovchiga:

– Ketdik, – dedi.

Yo‘lni yumshoq qor uyumida bo‘ynigacha cho‘kib ketgan yosh qarag‘aylar qurshab oldi. Kutilmaganda qarag‘aylar orasida, uchqunlovchi tutun ko‘tarib katta mo‘ynali shapka kiygan chavandoz yorib chiqdi va yo‘lni to‘sdi. U oti bilan birga qorga belangan

edi – ertakdagi qaroqchi bulbulning o'zginasi. Vorobyov o'zi shu zahoti uni tanidi:

– Trubetskoy! To'xtaylik-chi.

Trubetskoy egardan yengil sakrab tushdi, salomlashish belgisi sifatida qo'lqopi bilan shapkasini ushladi va istehzoli so'radi:

– Salom, Ilya Anatolyevich. Siz «Ahil ekinlar»ga qiziqib qoldingizmi? Bizning dalaga burilsangiz bo'lardi. Bugun men ularni ipidan ignasigacha aylanib chiqdim. Eh, ularda bahorda ahilgina ekinlar bo'lishi aniq!

– Qanday qilib?

– Shunday qilib... Sokinlik shamolga aylandi. Kuzgi ekin dalalaridan qorni uchirib ketyapti. Hozirda do'ngliklarda qup-quruq bug'doylar bor. Bunday joylarda kuzgi ekinlar muzlab qoladi. «Ahil ekinlar»! To'siq qo'yishga erinishadi, arzimagan ish-ku. Qarashni istashmaydi...

Uchalovi sovuqdan yer tepinib mashinaning yonida biroz turishdi, gaplashishdi. Vorobyov Trubetskoydan uning kolxozi to'g'risida so'radi, unikiga ham kirib o'tishga va'da berdi. Yo'lda esa so'radi:

– Qanday sabab bilan Trubetskoy «Ahil ekinlar»ning dalalarini aylanib yuribdi? Nima uchundir ularning omadsizligini yuragiga juda yaqin olyapti.

– U «Ahil ekinlar»ni «Stepan Razin» kabi o'ziga yaqinlashtirmoqchi. «Ahil ekinlar»da esa na tashkilot, na ishbilarmon rais yo'q. Kolxoz ichida ishonchli tayanch yo'q.

– Bunday raisga nima uchun hayfsan berishgan?

Rodnevning ko'z oldida ishigan yonboshida qirovning oqish dog'i bo'lgan mungli otlar, qandaydir Kuma Penkinni telva-teskari eslagan otboqar turardi va u sekinlatib, jahl bilan javob berdi:

– Men hayfsan bermaganman.

Vorobyov surishtirib o'tirmadi.

Lobovishe oldida u Rodnevga o'girildi:

– Xo'sh, ularning otxonasi qani?

Otxona eshigida Fedot Nespanov har doimgidek bir zamonlar och sariq bo'lgan, endi qoraygan, moy tekkan va yaltiraguncha taqiri chiqqan eski pochapo'stinda turardi.

– Levashov qayerdaligini bilmaysanmi? – so'radi Rodnev.

Fedot otxonaga kelganlar uni emas, Levashovni so'raganlarini yoqtirmasdi, shu sababli qo'lidan kelgan bor beparvolik bilan javob berdi:

– Yurkami? U qayerda bo'lishi kerak bo'lsa, o'sha yerda. Uni o'rmonga jo'natishdi, – va chol qoida bo'yicha vazminlik bilan qo'lini cho'zdi – avval Vorobyovga, keyin Rodnevga. – Bordi-yu sizni bizning otlarimiz qiziqtirayotgan bo'lsa, marhamat qilib kiring. Agar Levashov bo'lsa, mashinani buring va to'ppa-to'g'ri Grebeshkovo yo'li bo'ylab – o'ttiz kilometr, ertaga uchratasiz.

Fedot, yuzida muhimlikni aks ettirib, Vorobyovni otxonaga olib bordi.

U qanday salomlashgan bo'lsa, shunday xayrlashdi – Vorobyovning qo'lini ushlab turdi, Rodnevning qo'lini ushlab turdi, keyin vazminlik bilan so'zlandi:

– Marhamat qilib kelib turing. Lobovishega kelishingiz bilan darhol kirib o'ting, qadrli o'rtoq... Fedot Nikitichni so'rang.

Ular mashinaga yaqinlashgan ham edilarki, birdan ularning oldida tor palto kiygan, bo'yniga jun sharf o'ragan nimjon qiyofa paydo bo'ldi.

– Mana yordamchi, Pyotr Chijov, tanishing, – kuldi Rodnev.

Petka Chij oldinga bir necha qadam bosdi, levashovchasiga ingichka yelkasini qisdi, biroq qo'lini Fyodot Nespanovga o'xshab sipo uzatdi.

– Otxonamizga tegishli laboratoriyamizni ko'rmaysizmi? – so'radi u bo'g'iq ovozi bilan.

Mehmonlar bir-birlariga boqishdi. Rodnevning o'zi bunday «laboratoriya»ning mavjudligini birinchi marta eshitayotgan edi.

– Albatta, ko'ramiz, boshla, – birinchi bo'lib gapirdi Vorobyov.

Qortepadan bosib-bosib ochilgan so'qmoq ularni ikki derazali kichkina xaroba uychaga olib bordi. Qurum qoplagan quvur qor bosgan tomni tutun bilan to'shagandi.

– Bu vaqtinchalik, – shoshilib tushuntirdi Chij, uni laboratoriyaning ko'rimsizligi juda xijolatga solgandi. – Boyisak, maxsus agro- va zoouy quramiz. Shunday deb ataymiz – Ilm-fan uyi.

Laboratoriya bir-biridan yupqa taxtali pardevor bilan ajratilgan ikkita kichkina xonadan iborat edi. Birinchisida kanopdan to'qilgan

mato bilan yopilgan stol turardi. Petka matoni ko'tarib uloqtirib yubordi, uning ostidan iliq pivo hidi kelar, butun stol bo'ylab sariq donador modda yotardi.

– Bu nima? – so'radi Vorobyov ko'zoynagini to'g'rilab va stolga egilib.

– Biz suli undiryapmiz. – Petka hovliqib tushuntirishga kirishdi: – Qishda yashil ozuqa bo'lmaydi, yashil ozuqa esa o'sishga ham, rivojlanishga ham ta'sir qiladi. Shunga ko'kat o'rniga beryapmiz. Suli o'stiryapmiz. Atrofda qor, bizda esa otlar yashil ozuqani qo'msashmayapti. Jon deb yeyishyapti, bu otlar uchun bug'doyli pirog kabidir.

Pardevor orqasida eshik qarsilladi va Spevkin yengilgina qishlik nimchada, kubankada kirib keldi. Qizarib ketgan quloqlarini qo'lqopi bilan ishqalab, baland ovozda salomlashdi:

– Salom, do'stlar! – va Vorobyovga qo'lini uzatib, o'zini tanitdi: – Kolxoz raisi Dmitriy Spevkin.

U paydo bo'lganda Pyotrning yuzi o'zgardi, zo'r berib cho'zildi, burnini tepaga ko'tardi va yupqa ovoz bilan Vorobyovga murojaat qildi:

– Kolxoz raisiga shikoyat qilishga ruxsat bering. Yilqichilikka oid kitoblarga pul bermayapti. Bizda kitoblar umuman yo'q.

Spevkin jahl bilan Petkaga qaradi va diplomatik muloyimlik bilan Vorobyovga javob berdi:

– Tushunishni xohlamaydi – pul yo'q, biz g'arra-sharra sarf qilmayapmiz.

– Ha-a, Gruzdev bo'lsa kitoblar sotib oladi – siyosiy adabiyotni ham, yirik shoxli molga oidini ham...

– Bu tashkilotimiz kotibi, – o'sha-o'sha muloyimlik bilan davom ettirardi Spevkin, – unga, to'g'risi, oz-moz mablag' ajrataman. Gruzdevning o'zi sizlarga hammasini so'zlab beradi.

Rodnev va Vorobyov ketishayotganda o'tin olib kirayotgan ayol bir quchoq o'tini bilan eshikda qisilib qoldi va ularni to'xtatib qo'ydi. U pardevor orqasidan Spevkinning bo'g'iq darg'azab ovozini eshitdi:

– Sen, Chij, ahmoq qushsan. Qayerdan paydo bo'lding! Viloyat boshliqlari kelishdi. Sen bo'lsa: «Shikoyat qilishga ruxsat eting».

Xo'sh, nima bo'pti? Shikoyat qildingmi? So'rash kerak edi, so'rash. Kitoblar kam, fondlar yo'q, juda ham kerak, deb shama qilish lozim edi. Rahbarlardan so'rash uyat emas, tabarruk ish!..

Vorobyov va Rodnev sekingina ko'chaga chiqishdi va eshik ortida bir-biriga qarab, kulib yuborishdi.

26

Har doimgidek, konferensiyaning ochilishi arafasida kechqurun tuman qo'mitasi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishdan so'ng Panikratov va Vorobyov tepaga, Panikratovning xonasiga chiqishdi.

Panikratov anchadan beri Vorobyov bilan eski do'stidek, ochiqchasiga, norasmiy gaplashish uchun imkoniyat qidirayotgandi. Shu kunga qadar ular o'rtasida faqat ishga oid suhbatlar ketardi – Vorobyov so'rardi, Panikratov javob berardi.

Ular kirishdi, chiroqni yoqishdi.

Xona eshigining orqasida navbatchining kelishini kutayotgan Konstantin Akimovich u yoqdan bu yoqqa yurardi. Cholni rahbariyatning kechqurun kelganligi betinch qilardi – divanda erkin yotishning iloji yo'q edi.

– Viloyat qo'mitasi sen bilan birga mening o'rnimga odam jo'natmaganiga qiziqaman, – sergakligini sovuqqonligi ostiga yashirib gap boshladi Panikratov. – Axir ish Panikratovni haydab yuborishlariga qarab ketayotgani kundek ravshan.

U Vorobyov qizargan ko'zlaridan ko'zoynagini yechib, sariq, uzun barmoqlari bilan oynasini artishini qotib qolgan kulimsirash bilan kuzatardi. Vorobyovning yuzi quruq va qattiq ajinli edi, faqat ko'zlari – ko'k, bexavotir, buning ustiga hozir charchagan – chehrasini yumshatardi. Panikratov Vorobyov ko'zoynagini kiyishini, unga qarab jiddiy ohangda: «Bunga hojat yo'q. Ishlash kerak, Fyodor, bunday ahmoqona savollar – irodasizlik» deyishini kutardi.

Va Vorobyov chindan ham shunday dedi.

– Bunga zarurat yo'q, – dedi u. – Begona kotibni sizga yuklashga hech qanday ehtiyoj yo'q. Kuzovki yaxshi insonlarga boy. Tanlaysiz.

Qiyshiq tabassum Panikratovning yuziga yopishib qolgandek edi. U chamasi bir daqiqaga uning yuziga qaradi va nihoyat so'radi:

– Kimni? Rodnevnimi?

– Konferensiya ko'rsatadi.

– Shaxsan o'zing kimni o'ylaganding?

– Shaxsan o'zim emas, viloyat qo'mitasi. Unutma – men bu yerda viloyat qo'mitasi vakiliman.

– Afsus! Axir butun yuragimni...

– Bilaman, – gapini bo'ldi Vorobyov, – bilaman, Fyodor, yuragingni ayamaysan...

– Xo'sh, xo'sh...

– Kech bo'ldi. Ertaga ish boshdan oshib yotibdi.

Sovuq ko'chada Panikratov dabdurustdan tarang tortilgan tabassum hali ham labida turganini sezdi. O'zini yuzidagi ushbu ahmoqona tabassum bilan Vorobyovning oldida tasavvur qildi va nafratdan tuflab yubordi:

– Tfu, jin ursin!

Uyida u uzoq vaqt uxlay olmadi, u yondan bu yonga ag'darildi, nihoyat turdi, xonasidagi papirosini topib, chekdi, oyoqlarini etikka tiqdi va yelkasiga pidjagini osib, sovuq deraza yoniga o'tirib oldi.

Ertaga konferensiya ochiladi, ertaga undan sakkiz yuz gektardan o'rib olinmagani haqida ham, qishloqlarda hamon kerosin lampalarda o'tirishganini ham, xalq yomon o'qiyotganini, to'garaklarga istar-istamay borayotganini ham so'rashadi – barcha muvaffaqiyatsizliklar, barcha xatoliklar uchun undan, tuman qo'mitasining birinchi kotibidan so'rashadi! Ertangi og'ir kun bo'ladi.

Panikratov esa hayotida og'ir kunlarni ko'rgan... Qirq birinchi yilning kech kuzini esladi. U o'sha vaqtlarda tuman qo'mitasi raisining yo'riqchisi bo'lib ishlayotgandi. Yomg'irli tong, hazin telegraf simyog'ochlari hamrohlik qilayotgan sersuv loyli qoraygan yo'l loyqa, ho'l olisga ketmoqda. Bu yo'l bo'ylab traktorlar, otlar, odamlar – mashina-traktor stansiyasining eng yaxshilari, kolxoz otxonalarining eng sara otlari, tumanning eng zo'r odamlari yurishadi. Fyodor ularni kuzatadi, u hozirgina serg'ayrat nutqni oddiy nasihat bilan gapirdi: «Dushmanni qattiqroq uring, tezroq g'alaba bilan qayting!» U Golovlyov tog'igacha kuzatib qo'ydi, u yerda yig'layotgan ayollar bilan birga to'xtadi va tepadan qaradi: traktorlar, ot-aravalar,

piyoda ketayotgan odamlarning tasvirlari... Qora yo'l unga o'shanda qo'rqinchli jarohatdek tuyuldi, undan qon, kuch, tumanning hayoti oqib chiqardi.

Biroq jarohat o'ldiradigan darajada bo'lib chiqmadi.

U uyqusiz o'tkazgan tunlarini sanamadi, mayda dilsiyohliklarga, norozi mish-mishlarga, zaif odamlarning fig'onlariga parvo qilmadi, u talab qilardi – eking, tering, frontga non kerak, «qiyin» degan so'zni tan olmayman! Va odamlar mehnat qilishardi, bor kuchlari bilan ishlashardi, tuman yashardi, tuman mamlakatga yordam berardi... Fyodor Panikratov tez o'sdi: yo'riqchidan bo'lim boshlig'i, ikkinchi, nihoyat, birinchi kotib bo'ldi.

Uning baxtli kunlari ham bo'lgan...

May tongidagi G'alaba. Radiokarnaylardan qishloq bo'ylab xursandchilikdan oyoqqa turgan Moskvaning shovqini taralyapti. Panikratov minbarda – minbar bayramona emas, alvon plakatlar bilan bezatilmagan (ulgurishmadi, vaqtlari yo'q, xalqning o'zi hamma yoqdan, taklifsiz yugurib keldi). U hamma bilan baxtli va – agar imkoni bo'lganda – hammadan ko'ra baxtli. Shamol ko'lning musaffo hidini olib kelar, sochni chigallashtirardi, Panikratov olomonga quvonchli so'zlarni tashlamoqda:

– Mehnatkashlar, sizlarga shon-sharaflar bo'lsin! Bu sizning g'alabangiz! Sizning! Faxrlaning!

O'sha kunlari u bu yog'iga kunlar yengillashadi deb o'ylardi – frontdan odamlar qaytib kelishadi, yangi traktorlar paydo bo'ladi. Odamlar qaytib keldi, traktorlar paydo bo'ldi, tumanni boshqarish esa qiyinlashdi.

...Uzun qish tuni. Panikratov uzoq o'tirdi, biroq barvaqt uyg'ondi. Boshi biroz og'riyotgan edi, butun tanasida qaqshoq sezilardi, tunda deraza yonida shamollab qolmadimikin?

Konferensiya – tantanali kun. Panikratov puxtalik bilan soqolini oldi, kundalik gimnastyorkasi o'rniga ipak ko'ylagini kiydi va oynaning oldida bo'yinbog'ini uzoq boyladi, pidjagini kiydi va o'ylanib qoldi: ordenni taqsammikin? Ilgari u bu haqda o'ylamasdi – xizmat qilib erishilgan, osib yurish kerak. Hozir u o'ylab ko'rib qandaydir Natashka olib ketib qolmasligi uchun ordenini stolga yashirdi.

Soqoli toza olingan, yaxshi kiyingan, biroq uyqusizlikdan og‘ir boshi bilan u tuman qo‘mitasiga yo‘l oldi.

U yerda kelgan vakillar itarib kirishga urinishardi. Ular qo‘y terisidan tikilgan pochapo‘stin va bardam sovuq havoning hidini xonalar bo‘ylab tarqatishga ulgurishgandi.

27

Konferensiyaning ikkinchi kuni ketayotgandi. Kolxoz vakillari birinma-ketin chiqish qilishdi.

Yig‘im-terimni qishgacha cho‘zgan kolxozlardan biri bo‘lmish «Tong»dan Ivan Simakov o‘z nutqini bahonalar bilan ko‘mdirib, Panikratovdan, tuman qo‘mitasidan ranjigan holda shikoyat qilmadi, yo‘q – u o‘z qo‘shnisi, «Erkinlik» kolxozi raisi Makar Voznitsin ustidan zorlandi.

– Mana, do‘stlar, Chapayev nomli kolxoz razinliklarni shatakka oldi. U yerda Trubetskoy ochiq ko‘ngil bilan xizmatda, marhamat, barcha sharoitlar bor. Voznitsinga borib: «Makar Makarich, keling, ishlarni qanday qilib yo‘lga qo‘yishni birgalikda o‘ylaymiz, tajribangiz bilan yordam bering», deb so‘rab ko‘r-chi. Faqat qiyshayadi: «Kelaverasizlar, so‘rayverasizlar, bu qachon tugaydi? Odam o‘z aqli, o‘z miyasi bilan yashashi kerak».

Voznitsin so‘z oldi. Uning ovozi tekis, biroq ba’zida vazmin jahl ohanglari seziladi. Voznitsinning qo‘rqishga va nolishga sababi yo‘q, uning kolxozi yig‘im-terimni birinchilardan bo‘lib tugatdi. Va Voznitsin Simakovni u tajriba emas, aksincha, kuzgi ekinlarni ekishga urug‘ («O‘zimizda ham unuvchanligi kam») yonilg‘i, ko‘chat so‘ragani uchun ishonch bilan koyiydi. Ko‘p narsa so‘radi, hammasini eslay olmaydi. Albatta, u, Voznitsin rais sifatida iltimoslarni kutib o‘tirmay o‘zi qo‘shnilarining hayotiga qiziqsinib ko‘rishi kerak edi, lekin hammasini eslab tura olmaysan-ku, o‘z kolxozingda ham hammasini nazorat qilishing qiyin. Tuman qo‘mitasi raisi esiga solishi kerak edi, unga tepadan «Erkinlik» kolxozining tajribasidan qanday foydalanish yaxshiroq ko‘rinadi.

Makar Voznitsin ta’na bilan prezidiumga, Panikratovga mo‘ralaydi va Voznitsinning ortidan Panikratovga yuzlab ko‘zlar qa-

raydi, ularning orasida Simakovning yarim cho'chigan, yarim aybdor va shunday bo'lsa-da, ayblovchi ko'zlari aralashib ketadi.

Panikratovga ochiq-oydin qarshi chiqqan, tuman qo'mitasini tanqid qilgan vakillar ham bo'lgan. Bundaylarni Panikratov ichida «rodnevchilar» derdi. Rodnev kecha, birinchilardan bo'lib chiqish qilgan edi. U nutq so'zlaganda, Panikratov prezidiumda, undan to'rt qadam narida o'tirgan edi va uni yoqtirmasligidan o'zi ham hayron bo'lardi. Unga Rodnevda hech narsa yoqmasdi: oppoq, ingichka qo'l bilaklari ham («zaif ziyoli!»), peshanasidagi yengil ter ham («ter chiqquncha urinyapti»). Gohida Rodnev Panikratov tomonga o'girilardi, shunda Panikratov ko'zlaridagi zidlikni ko'rsatmaslik uchun nigohini burardi.

Sochnev so'z oldi. Panikratov Sochnev har doimgidek uzuqyuluq, jarangdor, shodlanib gapirishini kutayotgandi. Bunday yigit uchun hayotda hamma narsa oson ekanligi sezilardi: chalkashtirish, oxirini qidirish emas, chopish – bir tomonga yarmini, ikkinchi tomonga – ikkinchi yarmini va hammasi tushunarli, hech qiyin joyi yo'q.

Biroq bu safar Sochnevni almashtirib qo'yishgandek edi. Na Panikratovga, na yig'ilishda stolning oxirida o'tirgan Rodnevga, stolda xuddi o'zining xonasida o'tirgandek joylashib olgan Vorobyovga qaramay, Sochnev sust, hafsalasizlik bilan o'zini oqlay boshladi.

Panikratov tushundi: Sochnev yuragida Rodnevning so'zlarini bo'yniga oldi, undan oqlanishni kutganlari uchungina, odat bo'yicha o'zini oqladi.

Nihoyat, Vorobyov o'rnidan turdi. Yashirincha foyeda chekish uchun chiqib ketganlar hozir oyoq uchida joylariga qaytib kelishardi.

Vorobyov tashvishli ko'rinish bilan minbarga qog'ozlarni taxladi, Panikratov esa uni kuzatib: «Boshida sitata bilan zarba bersa kerak», deya o'yladi. U Vorobyovning odatlarini yaxshi bilardi. Va Vorobyov past ovozda, aniq-ravshan: «Buyuk faylasuflardan birining so'zlarini eslatishga ruxsat bering», deganda Panikratov: «Bilgandim», deb o'yladi.

Vorobyov qog'ozlariga engashdi.

– Sharqning buyuk faylasuflaridan biri haqiqiy rahbar nafaqat ishchilarni o'rgatadi, balki ulardan ham o'rganadi degan... Chindan

ham, millionlab mehnatkashlar, ishchilar yashaydilar, kurashadilar. Kim ham bu insonlar bekorchi umr kechirmayotganiga, katta amaliy tajriba to'playotganiga shubha qilishi mumkin? Bunday tajribaga beparvo qaraydigan rahbarlar haqiqiy rahbar deb hisoblanmasligiga shubha qilish mumkinmi? Bunga shubha qilish mumkinmi? – takrorladi Vorobyov Panikratovga burilib...

Biroz vaqt jimjitlik hukm surdi. Yig'ilishdagi kimdir stulni g'ichirlatdi va shovqinidan o'zi ham cho'chib tushdi. So'ngra yana Vorobyovning past va quruq ovozi eshitildi. U hech qanday yangi narsani so'zlamadi, u shunchaki tumanda sakkiz yuz gektar yer ostida g'alla qolib ketganini, kolxozlarga gidroelektr stansiyasining qurilishi to'xtab qolganini, kolxozlarda siyosiy, agronomiya, zootexnika to'garaklari yomon ishlayotganini takrorladi... Vorobyov ovozini balandlatmasdi. Va Panikratovni vahima bosdi: endi birga ishlashga to'g'ri kelmaydiganlar haqida shunday gapiriladi.

Panikratovning o'ng va chap tomonida o'tirgan qo'shnilari – Grubov va Sochnev boshlarini quyi solib, stolning malinarang movutiga sinchiklab qarashardi. Hamma tomondan tuman qo'mitasi kotibiga qaratilgan nigohlardan hatto ular ham o'ng'aysizlanishdi.

...Konferensiya allavaqtda tugadi. Zal bo'shayotgan edi. Vakillar baland ovozda gaplashib, bir-birini chaqirib chiqishardi. Panikratov yildan yilga konferensiyalar o'tkazar, yildan yilga odatiy manzarani tomosha qilardi – zal bo'shaydi, odamlar tarqalishadi...

Odamlar tarqalishardi, u esa qolardi – byuro yig'ilishini o'tkazar, odatiy ishini davom ettirardi.

Panikratov bo'sh zalning o'rtasida turardi. Sochnev boshini aybdorlardek egib, uning yonidan o'tib ketdi – uni plenum tarkibida qoldirishdi, Panikratovni esa – yo'q. Panikratov – ortiqcha, u uyiga ketishi kerak...

U chiqdi.

Mayda qor quyuq bo'lib yog'ar, yuzga sanchilardi, shundan havo quruqshagan, qishki tun esa dushmanona tuyulardi.

Butun qishloq uyquda edi – bironta ham miltillab ko'ringan olov yo'q, faqat tuman qo'mitasida birinchi va ikkinchi qavat derazalari ravshan yonib turibdi. Tuman qo'mitasi binosi yilning eng

mas'uliyatli vaqtining tantanasi – konferensiya shukuhini saqlab turishda davom etardi.

Panikratov u ertaga yoki indinga tuman qo'mitasiga kelishini, hisobdan olinishini, hamma bilan xayrlashishini tasavvur qildi. Keyin-chi? Tuman qo'mitasisiz, Kuzovkisiz endi qanday bo'ladi?

Qorong'ida ovozlar eshitila boshladi:

– Kozlov, meni ham olib ket! O'zimiznikilardan qolib ketdim.

– Chiq! Tr-r-r, qara buni, uzoq turib qoldi, shayton!

Xalq kolxozlariga tarqaldi. Panikratov esa ularga tashlanishni, «Do'stlar! Nohaqlik! Men sizlar uchun yuragimni yulib olishga, jonimni berishga tayyorman! Nohaqlik!» deya baqirishni xohlar edi.

Biroq u baqirmadi, bukchayib, qor qoplagan yo'lak bo'ylab yurib ketdi.

28

O'sha kuni kechasi byuro tarkibi tuman qo'mitasining birinchi kotibi qilib Rodnevni sayladi.

Rodnev uyga Sochnev bilan qaytardi.

Sochnev butun yo'l davomida indamadi va o'z uyining yoniga kelganida birdan burildi, Rodnev uning qattiq qisilgan lablari qaltirayotganini ko'rdi.

– Bir narsa noto'g'ri, Vasiliy Matveyevich, – zo'rma-zo'raki dedi Sochnev, qandaydir boshlangan suhbatni davom ettirayotganday. – Eh, qanchalik noto'g'ri!

– Aynan nima noto'g'ri?

– Nima? Hayron bo'laman-da: sen dunyoga anoyi ko'zlaring bilan qaraysan, nima demoqchiligimni tushunmagandek.

– Tushunmayapman. Panikratovga achinyapsanmi? Men ham achinyapman. Shafqatsizlik bo'ldi, biroq boshqa yo'li yo'q.

– Qo'ysang-chi! Oydan tushmagansan! Butun Kuzovki, ta'bir joiz bo'lsa, Rodnev Panikratovning suyuklisini tortib olganini gapirmoqda. Sendan avval ular nikohdan o'tishmoqchi edi, sen pashshaxo'rda bo'lding! – U qorong'ida Rodnevning yuzi oqarib ketganini ko'rdi. – Axir odamning hayotida ikkita quvonchi bor – ishi va oilasi. Biz undan ishini tortib olgan bo'lsak, sen – ayolini. Eh!

qadamini tezlatdi. «Qani, ko'ramiz!» Bo'ri bukchayganday tuyuldi – yag'rinidagi jun dikkaydi, u lablarini qisdi, ovoz chiqarmay sariq qoziqtishlarini ko'rsatdi. «Hechqisi yo'q, o'rtoq, tushasan... tushasan!..» – o'sha-o'sha badjahl qaysarlik bilan takrorladi Panikratov.

Taxminan besh qadamcha – bir irg'ish qolgandi. Panikratov hayvon irjayganda uning burun teshigidagi qirov bosgan kalta tuklarini ko'rardi – va shu payt bo'ri tarang bo'ldi va yo'ldan yo'qoldi. Faqat yo'l chetidagi tupning quruq shoxi yengil qimirlab, qurigan bargini tashlab yuborishga harakat qilardi. Panikratov orqasidan so'kindi:

– U-u, battol pusht, odamga bas kelmoqchi bo'ldingmi!

Shundan so'ng u xuddi yelkasidan og'ir yukni tashlab yuborgandek, yengil qadamlar bilan, qoraqarag'aylarning qor po'stinlariga qarab ketdi.

O'rmon so'qmog'iga burilib, to'xtadi. Atrofdagi qor bosib tashlangan, yangi kesilgan to'nkalar chiqib turar va hamma yoqda, ignabarg bilan qorayib, chopilgan shoxlar yotardi. Kimdir bu yerda o'tin chopgan, shoxlarni esa uyumga yig'ishga eringan edi, yozda bu yerda mollarning o'tlashi qiyin bo'ladi.

«Mollarni aynitishyapti. Bu araratlik yosh vinochilar bo'lsa kerak, pala-partish xalq». Panikratov o'rmon bazasi direktori Oganyanni qanday qilib kutib olishini va hayfsan berishni tasavvur qila boshladi, biroq shu zahoti Oganyan to'la huquq bilan unga: «Begona ishga burningni suqma, o'rtoq», deyishga haqqi borligini esladi.

Kishini ranjitadigan fikr o't olishga ulgurmay, tupdan qor changi bulutini urib, quyon yugurib chiqdi va o'rmon so'qmog'i bo'ylab oppoq koptokka o'xshab dumalab ketdi. Panikratov shoshilib qo'lqopini tashladi va ikki barmog'ini og'ziga tiqib, qorda uxlayotgan butun boshli o'rmonga qarab hushtak chaldi. Quyon qo'rqqanidan sakrab tushdi va qoraqarag'ay shoxiga boshi bilan urildi. Quyon bir soniyaga esankirab o'tirib qoldi, keyin o'ziga keldi va tupning ichiga otildi.

Panikratov o'zi uchun kutilmaganda past ovozda, yoqimli kulib yubordi, biroq darrov ma'yuslandi.

Biroz turib, olg'a bosdi.

IKKINCHI QISM

1

Shumurt gulladi. Kuzovkida taxtadan qilingan yo‘laklar mayda barglar bilan qoplangan. Shoxlar yo‘laklar ustida osilib qolgan joylarda yaproqlar yoppasiga oppoq ko‘rpa bo‘lib yotibdi. Bunday joyda erta tongda, hali bosilmagan yerdan odam birinchi qordan yurgandek o‘tsa, taxtada uning izlari aniq-ravshan muhrlanib qoladi.

Shumurt gullayapti – bu bahor tugaganidan, yoz boshlanganidan darak.

O‘tloqlarda hozircha baland bo‘y ko‘tarmagan, hali yumshoq maysa o‘sgan, bargizub yaylov so‘qmoqlarini qaysarlik ila o‘ziga tortyapti, ayiqtovon gullari quyosh yulduzchalari bilan yonmoqda.

Tol tupi bargaklaridan tashlab yuborilgan momig‘i daryoda suzib ketmoqda.

Qoraqarag‘ayzor yoshardi. Uning yoshligining siri oddiy: qoraqarag‘ay shoxlaridagi ko‘plab novdalarning har birida – ushbu bahor paytida o‘sib chiqqan yangi uch; u och yashil, uning ignabargi hali qattiq-puxta bo‘lmagan, bahor maysasi yanglig‘ yumshoq, u qo‘lingga kirmaydi. Yoz bo‘yi bu yumshoq ignabarg qorayadi, qattiq tikanga aylanadi, kelasi yili esa yangi yashil uchlar o‘sib chiqadi – qoraqarag‘ay yildan yilga mana shunday bo‘yiga va eniga o‘sadi.

Qarag‘ay boshqacha o‘sadi. Uning shoxlarining uchida «shamlar» paydo bo‘ldi. Ular ba’zi joylarida qo‘rg‘oshin rangli, yumshoq, siyrak tikanlar bilan qoplangan. Bu go‘zal manzara kasb etadi, deyish mushkul, shu bois hattoki bunday quvonchli vaqtda ham qarag‘ay jiddiy va badqovoq ko‘rinadi. Biroq bu unga o‘z vazifalarini sidqidildan bajarishga xalaqit bermaydi. Qo‘l bilan pastki shoxga tegish kifoya, jimjit havoda xira-sariq bulutcha o‘sib chiqadi – qarag‘ay gullayapti.

Dalalarda kuzgi ekinlar naycha bo'lib chiqyapti, lalmikorlar turishdi, hattoki tomorqalardagi kartoshka ham yerni birinchi ko'kimtir barglar bilan qoplagan.

Hayot gullayapti, kuchga kiryapti, bo'y cho'zyapti. Yilning uchdan ikki qismi qor, sovuq va izg'irin bo'lgan Kuzovkida yoz o'ziga xos hovliqib, shiddatli rivojlanyapti.

2

Tuman qo'mitasi kotibi Rodnevning kabinetiga ikki kishi – Gruzdev va Chapayev nomli kolxoz byurosi kotibi Pelageya Savatyeva ko'tarilishdi.

Kabinetga kirishdan oldin Savatyeva ro'molchani oldi, qoshlari biroz kuygan qip-qizil yuzini artdi va umumiy bo'limda o'tirganlarning hammasi bilan baland ovozda so'rashdi.

– Salomat bo'ling, o'rtoqlar! Zinapoyalaringiz tik ekan, bazo'r chiqdim.

Otxonadan birrovga kirgan Konstantin Akimovich (u bunday kirishlarni «odamlar orasida o'tirish» deb nomlardi) o'zini tutib turolmadi, ostonadan gapirdi:

– Kimga qanaqa, yosh bo'lmasam-da, bu zinada sa'vadek uchaman.

Pelageya uning oriq jussasiga kichkina, biroq o'tkir ko'zlarini yugurtirdi:

– Senday sa'valarning o'ntasidan bitta mendayini bichsa bo'ladi!

Hamma baland ovozda kulib yubordi.

Gruzdev va Savatyeva kabinetga kirib ketishganda, esankirab qolgan Konstantin Akimovich payqadi:

– Buni qara-ya, topishib olishibdi, ularni endi alohida-alohida ko'rmaysan ham.

Savatyeva sut fermasini mohirlik bilan va ishonchli boshqarardi, Gruzdevga yaylovlarni qanday taqsimlashni, yem-xashak miqdorini qanday qilib belgilashni o'rgatardi. Biroq gap qo'mita ishiga kelganda, u har qanday vazifadan vahimaga tushardi.

– Men bor-yo'g'i oddiy ayolman. Menga azaldan sigirlarni boshqarish qismat qilingan. Tashviqotchi ishini ijtimoiy musobaqa

bilan bog‘la, deyishadi. Bu yo‘lda sochilib ketmasligi uchun bir arava xashak bog‘lashdek gap emas, – zorlanardi u Gruzdevga.

Gruzdev dastlabki vaqtlarda o‘zining ustoziga maslahatlar berishga uyalardi, biroq asta-sekin, boshida xijolat bo‘lib, keyin tortinmasdan maslahat bera boshladi. Ammo Gruzdevning o‘zi har doim ham vaziyatni to‘liq tushunmaganligi uchun, murakkab holatlarda ular birgalikda harakat qilishardi: biluvchi odamlarni izlashardi, kitoblarni titkilashardi va uchrashib, ba’zida do‘stona maslahatlashishardi, ba’zida esa... Trubetskoy ustidan qaynoq suv quyilganday o‘z kabinetidan yugurib chiqarib, byuro xonasiga bosh suqib, baqirardi:

– Sekinroq! Telefonda gaplashib bo‘lmayapti. Urishyapsizlarmi? Ovozlaringizdan devorlar qimirlayapti! Bir kami mushtlashish qoldi.

Hammasi binoyidek edi – Savatyeva Gruzdevni sigirlarni yelinida sut keltirishga o‘rgatardi, Gruzdev esa qo‘lidan kelganicha yordam berardi. Tortishuvlar ularga ertasi kuniyoq do‘st bo‘lib uchrashishga xalaqit bermasdi, biroq yaxshilik bor joyda yomonlik ham bo‘ladi...

Pelageya Savatyevaning eri, kolxozning katta sarroji muloyim fe’l-atvorga ega bo‘lsa ham, Gruzdevning xotini Yevdokiya Grigoryevna umuman boshqacha fe’lga ega edi. Stepan uni Pelageya bilan munosabatlari toza ish yuzasidan ekanligiga har qancha ishontirishga urinmasin, foydasi bo‘lmasdi. Gruzdevning og‘zidan bir so‘z chiqishi hamono Yevdokiya Grigoryevna uni quloqni teshar darajadagi, Pelageyaga atalgan «maqtov»lardan iborat dod-faryod bilan batang qilardi.

3

Tuman qo‘mitasi kotibining kabinetida derazalar lang ochilgan, yengil shabada esib, qog‘ozlarni silkitmoqda. Shumurt rang gilam poyandozga yotyapti, yozuv stolining yashil maydonini bosyapti; shumurtning bir dona tangachasi Gruzdevning yefreytorlarnikiga o‘xshagan mo‘ylovida qo‘ndi.

Ekish kampaniyasi tugadi, barcha kolxozlarda kuzgi musobaqaning yakunlari chiqarilyapti. Gruzdev va Savatyeva «butun chapayevliklar» oilasi (Chapayev, Stepan Razin nomli va «Ahil ekinlar»

kolxozlari) nomidan hozirgina «Erkinlik» kolxoziga ekish natijalarini tekshirish uchun borib kelishdi.

Panikratov davrida ham Kuzovkida musobaqani unutishmagan edi. Endi esa musobaqaga boshqacha qaray boshlashdi: eng yaxshilariga yetib olish uchun ular qanday ishlashini bilish, ulardan o'rganish kerak. Musobaqa – bu o'qib-o'rganish!

– Demak, Vasiliy Matveyevich, biz Voznitsinnikida, «Erkinlik» kolxozida bo'ldik, «Tong» va «Qo'shchi»ga ham kirib o'tdik, – shoshmasdan so'zlab berardi Savatyeva. – Chetdan qarasang – ularning ekish mavsumi yomon o'tmagandek ko'rinadi. Shunday bo'lsa ham u yoqlarda ahvol ayanchli, juda-juda ayanchli, Vasiliy Matveyevich. – Pelageya ayollarga xos do'mboq yuziga qo'lini qo'yib, boshini chayqadi va qayg'urib cho'zdi: – Ayanchli-i...

– Nimasi ayanchli?

– Aldam-qaldamcha yordam, – qisqa dedi Gruzdev.

– O'zing o'yla, Vasiliy Matveyevich, – shoshib gapira boshladi Savatyeva, – «Tong» ekishni cho'zishni boshlagan edi, Makar Voznitsin qarasa – nojo'ya ish va yashirincha – gap! – u yerga odamlar va yigirmata otni jo'natadi. Yordam tamg'asi ostida, tajriba ulashish o'rniga, o'z yonidan yordam beryapti. Jo'natilgan yigitlarga: «Ishlanglar, ish kuniga qarab to'lanadi», dedi. Kuchini sezyaptimi, mayli, yordam bersin, buning nimasi yomon deysanmi? Yomon-da.

– Sifatsiz ishlashdimi? – topishga harakat qildi Vasiliy. – Ko'zni shamg'alat qilish uchunmi?

– Yo'q, unday deb bo'lmaydi. Yigitlar begona kolxozni ham yurgizib yuborishdi, – e'tiroz bildirdi Gruzdev. – O'ylab ko'r, Vasiliy Matveyevich, bu nimasi – «Erkinlik» kolxozchilari «Tong»ning dalalarida ishlashyapti, xo'jayinlar – «tongchilar» qo'llarini kissalariga tiqib yurishibdi.

– Yana sekingina kulib ham qo'yishyapti. – Savatyeva Rodnevning stoliga mushtini qo'ydi. – Anig'ini bildik – Voznitsinning ustidan kulishgan: ishlab, chiranib nima qilamiz, hammasini «Erkinlik» o'rnimizga qilib beradi. Buni qanday atash mumkin?

– Sizningcha, qanday? – so'radi Rodnev.

– Ishyoqmaslarni tarbiyalash – mana shunday! – javob berdi Savatyeva.

Rodnev unga sinchiklab qaradi.

– Hozir ham, – ayyorona ko'zini qisdi u, – yangilik ustidan yangilik... Kolxozlararo gidrostansiya qurish uchun muhandislar kelishdi. Biri, institutdan to'ppa-to'g'ri kelganligi ko'rinib turibdi, yosh bo'lsa ham trubka chekyapti, o'zini katta tutib mulohaza qilyapti, mo'ylov ham qo'yib olgan. Ikkinchisi – ko'pni ko'rgan, Ryazan, Sverdlovsk va Kalinin viloyatlarida kolxoz stansiyalarini qurgan. Ivan Anisimovich Jurba.

– Ha-a, – darhol tashvishlandi Gruzdev, – muhandislar kelishdi, biz bo'lsa endi-endi kesish uchun o'rmon uchastkasi ajratyapmiz.

Kolxozlararo gidroelektr stansiyasining qurilishi Rodnevning Lobovishega kelishidan ancha ilgari boshlangan. Biroq u nima uchundir jimib, to'xtab qolgan. Bu yili Vajenka daryosida boshlanganini qurib bitirishga va Bilina qishloq kengashi yonidagi Bilina daryosida ikkinchisini yangidan qurishga qaror qilindi. Qaror qishdayoq qabul qilingandi, biroq kreditlar haqida muhokamalar ketayotganda tuman tashkilotlarida ishlar joy-joyiga qo'yildi. Va mana, nihoyat muhandislar kelishdi

Gruzdev va Savatyevani eshikkacha kuzatib qo'yib, Rodnev bir o'zi qoldi. Kattagina qovog'ari derazadan kirib keldi. Do'rillagan badjahl g'o'ng'illash bilan birga u kabinetga iliqlik va quyosh kuydirmagan o'tzor maysasining hidini olib kirgandek bo'ldi. Vasiliy gazeta sahifasi bilan uni sekingina tashqariga kuzatib qo'ydi.

– O'yna, oshna, o'yna, manzilda adashding.

Tashqarida esa quyosh nuri bilan to'lib, rangi o'chgan shumurt barglarini shitirlatardi. Mana, ekish kampaniyasi ham tugadi. Mana, qurilishda ishlar boshlanadi, u yerda esa o'toq qilish, pichan o'rish vaqti keladi – ish boshdan oshib yotibdi. Davlatimiz hamma narsaga boy – g'allaga ham, ko'mirga ham, qimmatbaho metallarga ham, nimani xohlasang, hammasi bor, faqat bir narsa kam – vaqt! Hamma yoqda ishlar shu qadar ko'pki, kunning yigirma to'rt soati yetmaydi. Dalalar va zavodlarda – soatbay jadval, eng ilg'or ishchilar soat uchun, daqiqalar uchun emas, soniyalar uchun kurashmoqdalar. Vaqt – bu pul deyishadi. Yo'q, vaqt puldan-da qimmatroq! Vaqt – bu hayot!

Ko'chada oldinma-ketin ikkita traktor gumburladi. Vasiliy uzoq vaqt ularning orqasidan tikilib turdi: Mariyaning brigadasidan emas-

mikin? Biroq traktorlar bir rusumda edi – egizakdek, ularni bir-biridan farqlay olmaysan.

Va Vasiliy derazadan o'girildi. So'nggi vaqtlarda traktorlarga qaraganda uning kayfiyati buziladigan bo'lib qolgan...

4

Qayerdadir o'rmonning botqoqlashgan ovloq joyida Bilina daryochasi tug'iladi. Keyin u o'rmondan chiqib kolxoz o'tzorlari-yu dalalari orasini aylanib o'ta boshlaydi. Bu yerda uning sovuq, qoraqizg'ish botqoq zangini chiqaruvchi suvi o'z yo'li davomida birinchi marta to'yinguncha quyosh nurlari bilan isinadi. Bilina qirg'oqlarida bir-biriga o'xshash qishloqlar yoyib tashlangan: Pashkovo-Osichye, Makarovo-Osichye, Tyatino-Osichye, Kasayanovo-Osichye, Danila Grach Osichyesi (boshqachasiga Danilovo yoki Grachyovo Osichye). Qachonlardir, qadim zamonlarda o'z avlodlari uchun faqat nomini qoldirgan qandaydir Kasyan va Danila Grachlar tomonidan asos solingan, bir-ikkita dehqon xo'jaligidan tashkil topgan qo'rg'onchalar bo'lgan. Endi bu Osichyelar qirqtadan, yetmishtadan xonadonli qishloqqa aylandi. Faqat ikkita qishloq Osichyelar safida emas – Kotashixa va Bilina qishlog'ining o'zi.

U yerda Fyodor Panikratov raisiga aylangan Bilina qishloq kengashi joylashgan.

Viloyatda unga darhol ish berishdi – o'yinchoqlar fabrikasi direktori qilib tayinlashdi. U yerda, sokin daryo qo'ltig'ida lok va bo'yoqlarni talon-toroj qilgan qalloblar oilasi in qurgandi... Ular bilan urush olib borgan paytda zerikishga vaqt yo'q edi.

Biroq bir oy o'tdi va Panikratov Vorobyov uning oldidagi stolga o'yinchoq – olachipor bo'yalgan o'rdakchani qo'ydi, keng qo'l kafti bilan bir necha marta uni ezdi, o'rdakcha g'aq-g'aq qilib yubordi.

– Mahsulot! – tin oldi Panikratov va birdan sobiq do'stiga ma'yusona qaradi. – Men bo'lsam odamlarni, o'zimnikilarni, kuzovkiliklarni yaxshi ko'raman. Eshityapsanmi, boshqa chiday olmayman, toqatim toq bo'ldi. Kuzovkidan yozishyapti – Bilina qishloq kengashida rais yo'q deb. U yerga, jonli ishga borishni xohlayman. O'yinchoqlardan haqiqiy hayotga qochishga yordam ber!..

Vorobyov yordam berdi va olachipor o‘rdakcha uning ochiq javonida qalin jiddiy kitoblar o‘rtasida qoldi. Bu tashrif buyuruvchilarning taajjubiga sabab bo‘lardi, ular qanday qilib bu bolalarning ovunchog‘i tashkilot bo‘limlari boshlig‘ining javoniga tushib qolganidan hayron bo‘lishardi.

Panikratov Kotashixa qishlog‘idan edi. Bu yerga, qadrdon joylarga endigina traktorchilar kursini tamomlagan Fyodor bir necha yil avval birinchi traktorni olib kelgandi. Qishloqdagi barcha – bolalardan tortib chollargacha uning traktori ortidan yurishardi. U esa hayajonini yashirib o‘zicha muhim, mag‘rur o‘tirardi. Qanday qilib hayajonlanmasin!

Fyodor inqilobdan yetti yil oldin tug‘ilgan. Har qanday odam uchun eng esda qolarli bo‘lgan bolalikning ilk taassurotlarini u Kotashixa ahlida eng oliy huzur-halovat – bu es-hushini yo‘qotar darajada ichib olish, bayram sayr-tomoshasi – bu yarim o‘lar darajagacha mushtlashish, buyuk donishmandlik – omborlarda bekinib psaltir[1] o‘qish hisoblangan vaqtlarda oldi.

Sening osmonga kulrang tutun bilan otayotgan traktoring: eski Kotashixa poyoniga yetdi, boshqacha, yangi Kotashixa bo‘ladi degan ma’noni bildirganda qanday qilib hayajonlanmasin.

Va mana u yana shu yerda, uyida.

Tuman qo‘mitasi kotibi bo‘lib ishlayotganda Panikratov har qanday hayotiy vaziyat uchun oldindan tayyorlab qo‘yilgan, bir necha bor tajribada sinab ko‘rilgan usulga ega edi. Hayot rang-barang, unda vaziyat va hodisalar juda ko‘p, Panikratovning usuli esa bir nechta va eng foydalisi: «Ularni qimirlatish uchun tanbeh berish!»

Qishloq kengashi raisi bo‘lgach, Panikratov odatiy usullaridan foydalanishni davom ettirdi: erta turar, tong sahardan kolxozma-kolxoz dalalarni aylanar, xalq o‘z vaqtida ishga chiqayotganini, ekish o‘z vaqtida olib borilayotganini tekshirardi. U, avvalgidek, maslahat berar, to‘g‘rilar, talab qilar, koyirdi. Qishloq kegashi tuman emas – bor-yo‘g‘i beshta kolxoz, Panikratov tez orada bo‘sh vaqti ko‘p ekanligini, kechqurunlari zerikayotganini sezib qoldi, u esa bilardi: zerikish – dahshatli narsa, barcha ruhiy kasalliklar shundan kelib chiqadi. Va Fyodor kitob o‘qish uchun o‘tirdi.

---

[1] *Psaltir* – Injilning to‘rt kitobidan biri.

Shu vaqtda eski, sinovdan o‘tgan usullarni hech qanaqasiga qo‘llab bo‘lmaydigan voqea sodir bo‘ldi. Makar Voznitsin ekin ekish paytida qo‘shni «Tong» kolxozining dalalariga odamlar va otlarni jo‘natdi. Buni qanday tushunish mumkin: u yaxshi ish qildimi yoki yomon? Bir tomondan, yaxshidek tuyulmoqda. Voznitsinning kolxozi mustahkam, ekish oxirlab qolgandi, asosan ko‘chatlarni issiqxonalardan dalalarga o‘tkazish ishlari ketayotgandi. Otlar shundoq ham ishsiz turishardi. Qo‘shnilarga yordam qildi – ofarin! Biroq, boshqa tomondan, bu «Erkinlik» kolxozidagi odamlarning kayfiyatiga, ish unumiga ta’sir qilsa-chi? Biroq tez orada har ikkala kolxozda ekish ishlari yakunlandi va Panikratov tin oldi – Voznitsin to‘g‘ri ish qildi!

Shu payt Gruzdev va Savatyeva kelishdi. Ular bir ovozdan ma’lum qilishdi: «Makar Voznitsin noto‘g‘ri ish qildi». Panikratovning g‘azabi qaynadi, Voznitsinning tarafini oldi, keyin, yolg‘iz qolib, birdan tushundi – kolxozchilar haq.

Fyodor hech qachon alamdan to‘yib ichmagandi. Biroq Gruzdev va Savatyevalarning ketishidan so‘ng u kechqurun qishloq kengashi kotibi, lapashang yigit, oysimon yuzida doim sust tabassum aks etgan Kostya Myakonkiy bilan ichib mast bo‘ldi. Hayotni tushunmagani, ojiz, notavon ekanligi uchun ichib oldi; nimadir qilishi kerakligi uchun, hammaga va birinchi navbatda o‘ziga – quvvati borligini, kuchi borligini, ishda hamon o‘z tizimi borligini isbotlash uchun ichdi. Va buni isbotlay olmasdi.

Ertasi kuni ertalab uning boshi nafaqat ichilgan araqdan, balki o‘ziga bo‘lgan nafratdan og‘rirdi. Kecha shalpayib, stol ostida uxlab qolgan Kostya Myakonkiy hech narsa bo‘lmagandek telefon orqali qo‘shni qishloq kengashini chaqirardi.

Fyodor kolxozga borishni xohlamasdi, buning ustiga sabab ham yo‘q edi – ekish ishlari tugadi, cho‘yan kabi og‘ir boshi bilan o‘qish, shug‘ullanish mumkin emas. Va Panikratov g‘amgin so‘zlay boshladi:

– Shunday bo‘ladi, o‘rtoq Kostya, odam toqqa chiqadi, tobora balandlaydi, cho‘qqida uni hayotning oxiri kutib turibdi deb o‘ylaydi, ammo qarasa – cho‘qqi baland emas, u yerda yana nishab bor – pastga dumala...

Fyodor qanday qilib xalqni hayron qoldirib qishloqlar orqali traktorni o'zining Kotashixasiga olib borayotganini esladi. Baxtli onlar edi, hayot o'sha kezlari ochiq havodagi kundek tuyulardi – bironta ham bulut yo'q, hamma yoq quyosh.

Insonning hasad bilan ortga, o'tmishga qarashi yomon alomat!

Panikratovni kechagi uchun vijdoni qiynayotganini ko'rgan Kostya erinchoq tabassumi bilan tinchlantira boshladi:

– Hechqisi yo'q, bo'lib turadi, Fyodor Alekseyevich. Ba'zida qo'zg'alib turish foydali.

Uning himoyaviy ohangi Fyodorni ranjitdi.

– Qo'zg'alib! – kalaka qildi u. – Sen, sezyapman, tez-tez qo'zg'alib turasan shekilli. Nega telefonga yopishib qolding? Ish vaqtida yana Kapitolina Fominichnaga qo'ng'iroq qilyapsanmi?

– Qanaqa Kapitolina Fominichna? – beozor javob berdi Kostya. – Kecha kechqurun Kuzovkidan Nikita Kozlov keldi, mish-mish tarqaldi – muhandislar gidroelektr stansiyasi qurish uchun kelishdi deydi. Aniqlashtirmoqchiman.

Fyodor o'rnidan turdi.

– Menga trubkani ber-chi.

Hayot oldinga qadamlardi, yaxshimisan, yomonmisan, u baribir majbur qiladi – harakat qil, qo'lingni qovushtirib o'tirma.

Tuman qo'mitasida bo'lgani kabi o'zining kabinetidan Fyodor telefonchilardan tuman ijroqo'mi bilan gaplashish uchun zudlik bilan liniyani band qilmasliklarini so'radi!

Ammo bu paytda deraza tashqarisida avtomobil signali jarangladi.

Kostya Myakonkiy qaddini biroz ko'tarib qo'ydi va:

– Rodnev keldi, – deya xabar qildi.

Panikratov trubkani qo'ydi.

5

«Uni qanday shamol uchirdi?»

Panikratov olis Bilina qishloq kengashida Rodnevda uzoqroq yashash va ishlash uchun o'rnashib olgandi, u bo'lsa Panikratovni o'z holiga qo'yishni o'ylamasdi. Mana, hozir ham, kim biladi qan-

day xabarlar bilan kelgan, Kostya bilan kecha bo'lib o'tgan voqeadan xabar topmadimikin?

Rodnev kirib keldi. Panikratov stuldan turdi va shu zahoti o'zidan achchiqlandi: «Qaddingni rostlading... Haddan tashqari ko'p izzat!»

Ular bir-birining qo'lini siqishdi. Panikratov o'tirib olib, qo'shni stulni gursillatdi:

– Marhamat.

– O'tirishga vaqt yo'q, – javob qildi Rodnev. – Men senga keldim, Fyodor Alekseyevich. Yur, bir joyni aylanib kelamiz, gaplashib ham olamiz.

Shu daqiqada Panikratov o'zini mustaqil tutib: «Bandman. Kutib tur, tugatay, keyin sening xizmatingdaman» degisi keldi. Biroq uning hech qanday ishi yo'q edi va u istar-istamay so'radi:

– Uzoqmi? Aylanib kelsak ham bo'ladi, boshim yorilib ketay deyapti. – Rodnevning ko'zlariga qarab, u tan oldi: – Kecha ichgandim, nazarimda me'yoridan ortib ketdi.

Burchakda qog'ozlarni kamtarona shitirlatayotgan Kostya Myakonkiy darrov yashirinib oldi, stolga egildi. Lekin Rodnev hayron bo'lmadi, jahli chiqmadi. U hech qanday g'araz niyatsiz kulib qo'ydi:

– Qanday bayram munosabati bilan? – Va eshikka burilib, shoshiltirdi: – Ketdik, ketdik, Alekseyich, men soat o'n ikkida tuman qo'mitasida bo'lishim kerak.

Panikratovni negadir bunday e'tiborsizlik ranjitdi. «Menga achinmayaptimikan? Buyam yetmay turuvdi». Va u Rodnev bilan chiqayotib, qaysarlik bilan takrorladi:

– Ha-a, gunoh bo'ldi.

– Maqtanib nima qilasan?

– Maqtanmayapman, gunohni yashirish odatim yo'q!

– Aytib nima qilarding, agar pushaymon bo'lsang.

– Bilinyaptimi?

– Ha, bilinyapti, – Rodnev masxaraomuz ko'zini qisib, Panikratovga ko'z tashladi. – Bunday suhbatlarni bekordan bekorga boshlashmaydi.

Panikratov yanada qattiqroq burishdi va jim bo'lib qoldi.

Ular tuman qo'mitasi mashinasiga yaqinlashishdi. Panikratovning yo'lda pitig'i chiqqan, sobiq urushda qatnashgan «echkicha»si bor edi; Rodnevga lok bilan jilvalanib turgan «Pobeda» jo'natishgan edi.

– Salom, Ignat, – Panikratov haydovchi bilan so'rashdi.

– Salom berdik, Fyodor Alekseyevich.

Ilgari Panikratov odatda «xo'jayinlar» joyiga, Ignatning yoniga o'tirib olardi, hozir esa mehmon kabi, kamtargina orqaga o'tirdi. Rodnev Panikratovning yoniga o'tirdi va «xo'jayinlarning» o'rni bo'sh qoldi. Ignat qoraygan qo'llari bilan tezlik tutqichining yaltirab turgan boshchasini hurmat bilan ushlab, mashinani burdi va ular qishloq bo'ylab sekin ham emas, tez ham emas aylanishdi. Ignat Naumov mashinani doim shunday boshqarardi. Ilgari Panikratovning doim achchig'i chiqardi: «Xuddi tuxumlarni inkubatorga olib ketayotgandek haydaysan».

«Tong» kolxoziga yetmasdan, Rodnev mashinani to'xtatdi.

– Endi piyoda ketamiz.

Ular daryoga yo'l olishdi. Panikratov, bu safar so'rab o'tirmay, Rodnev uni qayerga olib ketayotganini tushundi. Bilina qirg'og'ida «Erkinlik» va «Tong» kolxozlarining dalalari yastanib yotardi. «Erkinlik»ning bu yerda katta tomorqa xo'jaligi bor edi – karam, sabzi, sholg'om, turp. «Tong» esa avval javdar, suli, zig'ir ekardi. Shu bahorda Makar Voznitsin tongliklarning dalalarini haydab berdi va bu yerga zig'ir emas, karam ekishni tavsiya qildi. Tomorqa xo'jaligiga ega bo'lish kerak-ku, Bilina sohili esa – eng qulay joy: sug'orish uchun yonginasida suv ham bor, yer ham serunum. Makar tongchilarga hattoki ko'chat bilan yordam berdi. Hammasi yaxshiku, biroq «Tong»ning yeri karamni qabul qilmasdi, «Erkinlik» dalasida esa, har doimgidek, ekilgan ko'chat darhol kuchga kira boshladi.

«Gruzdev Savatyeva bilan men Voznitsinni himoya qilganimni aytib yomonlagan ko'rinadi, – taxmin qilardi Panikratov. – Menga ko'rsatishga, sha'ma qilishga olib kelyapti: qara, yordamingdan nima unib chiqdi, deb. Panikratov uzoqni ko'ra olmaydigan bo'lib chiqqanidan xursand shekilli. Hozircha yaxshi qilib ko'rsatyapti,

hattoki mashinadagi xo'jayinlar o'rindig'ini egallamadi, yonimga o'tirdi, sen bilan baravarmiz degandek».

«Erkinlik»ning tomorqa xo'jaligi daryodan baland, balog'atga yetgan tolzor bilan ajralib turardi. Tashqaridan qaraganda o'sha tuplar odam o'tib bo'lmaydigandek qalin ko'rinardi. Aslini olganda esa ular keng so'qmoq va hattoki yo'l bilan kesilgan. U yerdan sug'orish uchun bochka va chelakda daryodan suv tashishadi.

Biroq Rodnev va Panikratov o'sha tolzorgacha yetib borishmadi. Ular qirg'oqda turgan kichkina yolg'iz uyga ham burishmadi. Uning yonida butun tumanga mashhur «Voznitsin shisha dalasi» yaslanib yotardi. U bu yerda butun yarim gektarni issiqxonalar egallagani uchun shunday nomlanadi. Va o'sha issiqxonalar yopilganda chindan ham, yer shisha kiygandek tuyulardi.

Ular karam dalasining chetidan o'tishdi va Rodnev yo'l-yo'lakay bosh irg'atdi:

– Karam yaxshi o'syapti! Nima deding?

Panikratov indamadi. Nima ham deyish mumkin – yaxshi o'syapti.

Qora zaxkash chuqurchalarda, yashil kaftlarini quyoshga cho'zib, o'simliklar tikka turardi.

Butazor va qalin gazanda o'tlar bosib ketgan kichkina jarlikdan o'tib, ular «Tong» kolxozining dalasida yetib olishdi.

– Mana, keldik, – dedi Rodnev oyoqlarining ostiga qarab.

Uning oyoqlari ostida mayda quruq chuqurcha bo'lib, unda latta parchasi kabi karam ko'chati tupi yotardi; burishgan barglari yashil rangini yo'qotgandi.

Rodnev etigining uchi bilan chuqurchani turtdi va:

– Xo'sh, Fyodor Alekseyevich, bu yerda o'rgatish foyda bermapti, – deb qo'ydi.

– Sen yaxshiroq bilasan. Men bu borada mutaxassis emasman.

– Hamma ko'rib turibdi: Makar karam ekishni o'rgata olmapti.

– Makarni ayblab bo'lmaydi, odam chin dildan yordam bermoqchi bo'ldi.

– Men uni ayblamayman ham. Men o'zimni, tuman qo'mitasini ayblayapman.

Panikratov shubhali ko'z qirini tashladi.

– Bizning aybimiz esa, – davom etardi Rodnev, – biz qog'ozga ortiqcha ishonib yuborganmiz. Ularga har qaysi burchakka jo'natyapmiz: «Eng ilg'orlaridan o'rganing», «Tajriba almashing» va hokazo... Devonxona qog'ozlari bilan yuraklarni yoqib bo'lmaydi. Hayot kutilmagan vazifalar qo'ymoqda, sen uni joyida hal qilishing kerak. Kim yonsa, o'sha qiladi, kim sovuqqonlik qilsa – yaxshilik kutma. Yashirmayman, Fyodor Alekseyevich, yonishingni, boshqalarni yondirishingni kutgandim...

– Bundan chiqdi tuman qo'mitasi raisi emas, men aybdor ekanman-da, yonmadim, yondirmadim, – miyig'ida kulib qo'ydi Panikratov.

– Yo'q. tuman qo'mitasi ko'proq aybdor. Seni yoqa olmayapmiz.

Panikratov yelkasini qisdi: «Manavi aqllini qaranglar. Tepaga chiqib olib endi: yondirolmayapmiz deb valdirashini».

– Muhandislar kelganini eshitdingmi? Vajenka va Bilinada GES qurishni boshlayapmiz.

– Chala-chulpa eshitdim.

– Menimcha, GESlaringniyam poyintar-soyintar qursalaring kerak.

– Nega unday deb o'ylayapsan?

– Chunki GES – kolxozlararo, sizlarda esa kolxozlar o'rtasida ahillik sezilmayapti. Voznitsinning yordamini olaylik. Yerni shudgor qildi, ko'chat bilan yordam berdi – do'stlik qilgandek bo'ldi, lekin birodarlik o'xshamadi. Ehtimol hozir «Tong» kolxozida Voznitsinga javrashayotgandir: bizni karamga avrading, suli ekkanimiz yaxshi edi, yer bekorga xarob bo'lyapti, deb.

Ular bir daqiqacha jim turishdi, ikkisi ham ba'zi joylarida hamon hayot uchun kurashayotgan holsiz tuplar o'sayotgan, qumoq-qumoq guvalacha bo'lib qolgan ma'yus dalaga razm solishdi.

«Nega menga bu haqda sayraysan? – o'ylardi Panikratov. – Boshqacha harakat qilish kerakligini o'zim ham bilib turibman».

– O'ylab ko'r va Makarni ham o'ylashga majbur qil. U o'zini aybdor his qilmayotgan bo'lsa kerak. Yana bir narsani so'rayman, Fyodor: qiyin bo'lsa – qo'ng'iroq qil, kel, meni bezovta qil. Birgalashib hal qilish osonroq-ku.

Panikratov xo'mrayib bosh irg'adi. U qachondir Rodnevni «bezovta qilish» istagi bo'lishiga ishonchi komil emasdi.

6

Ertasi kuni Panikratov «Erkinlik» kolxozi raisi Makar Voznitsinning «tong karami»ni zavq bilan tomosha qilish uchun olib keldi.

Fyodor Alekseyevich so'ligan ko'chat tupini yotgan chuqurchaga etik uchi bilan tepib qo'yib dedi:

– Dala jonsiz-ku. O'qituvchi! Karam ekishni o'rgata olmading... Qo'shnilar o'rniga ishlash emas, o'qitib-o'rgatish kerak edi! Endi uyat emasmi?

Qizil yuzli, bag'baqali Voznitsin semiz oyoqlarini ochib olib, dalani birinchi marta ko'rayotgandek bir daqiqacha aylanib yurdi.

– Bunday qo'lsizlardan hamma narsa kutish mumkin, – nihoyat xirillab dedi u. – Sen ular ko'chatni nima qilganlarini ko'rdingmi? – Makarning shundoq ham qizargan yuzi g'azabdan birdan qo'ng'ir tusga kirdi. – Mana uyatim qayerda! – U do'mboq qo'lida buklangan gazetani siqib, uni Panikratovning burni oldida silkiy boshladi. – Boshqalarning aybi uchun qizarishga to'g'ri kelyapti. O'zing ham o'qib, keng qalbli tentak Makar Voznitsinning ustidan kulgan bo'lsang kerak.

«Kolxoz bayrog'i» tuman gazetasida «Keng qalb» nomli maqolacha chop etilgan bo'lib, unda ekish paytida Voznitsinning «Tong» kolxoziga «yordami» to'g'risida batafsil, kinoya bilan yozilgandi.

– Mayli, turtma, esdalik uchun saqlab qo'y, – gazetani yuzining oldidan chetga burdi Panikratov. – Nima, «davomi bor» demoqchimisan?

– Qanday qilib?

– Shunday qilib. Yana gazetada chiqishni xohlaysanmi – bir iltifot qil, men birinchi bo'lib yozaman. Xohlamasang, hozir Ivan Simakovnikiga boramiz va kelishib olamiz. Qaror qildingmi – o'rgatish kerak!

Makar kepkasini yechdi, tamaki hidi urib ketgan dastro'molchasini oldi va kichkina, pishiq, deyarli bolalarnikiga o'xshash qulog'i yopishib turgan katta, tap-taqir boshini yaxshilab artdi.

– Kaltak bilan o‘rgatish kerak o‘sha tongchilarni, kaltak bilan, – po‘ng‘illadi u.

Bu Makar rozi ekanligini bildirardi.

«Tong» kolxozi raisi Simakovni ular Tyatino-Osichye qishlog‘i chetidan, temirchilik ishxonasi yonidan topishdi. Shu yerning o‘zida, ishxona yonida Simakovga o‘xshagan dumaloq va past bo‘yli oti ham turardi. Temirchi, ko‘kragi qalin brezent fartuk bilan yopilgan ko‘ylaksiz yosh yigit va raisning o‘zi otning oyoqlariga tashvishli qarab, nima haqidadir maslahatlashishardi.

Panikratov va Voznitsinlarning paydo bo‘lishi ushbu maslahatni uzib qo‘ydi. Temirchi darhol cho‘ntagiga qo‘lini tiqib, obakining ichidan shilingan bankani va garmon kabi yig‘ilgan gazetani oldi. U bu gazetani ochdi va Makar Voznitsinga qarab, soxta afsus bilan uf tortdi.

– Chekmoqchi edim-u, gazetaga hayf. Mana bu yerda hatto maqolacha bor. Uning atrofidagi joylarini chekib tashladim, uni esa asrab turibman. Makar Makarovich, o‘rashga qog‘ozing yo‘qmi?

Voznitsinning yuzi yana qo‘ng‘ir tusga kira boshladi.

– Senga topiladi, – norozi ohangda ming‘irladi Simakov.

Simakovning mehribon va keng yuzida hamisha sarosimali ko‘zlari yugurardi. Va hozir u o‘sha ko‘zlari bilan Makarning g‘azabga to‘lgan yuziga qo‘rqib, alanglab qarardi. Biroq Makar haqorat qilmadi, u faqat Panikratovga burildi va so‘radi:

– Yaxshimi? A? Yaxshi! Ekin-tikin bilan yordam bergani uchun minnatdorchilik o‘rniga mazax qiladi.

– Mayli-da, chindan ham... – yana yarashtiruvchi ohangda boshladi Simakov.

Ammo temirchi tinchlanmadi:

– Biz sendan minnatdormiz, Makar Makarich, biroq hammasi uchun emas. Shudgor qilding – rahmat, biroq, misol uchun, ko‘chatni – ma deb tashlab ketganing, o‘zingga keraksiz bo‘lgani uchun bizga tashlab ketganing...

– Ha, bo‘ladi, chindan ham...

– Qiziq. Ko‘chat yoqmayaptimi? Rahmat deng! Fyodor Alekseyevich, eshityapsizmi? – sarosimaga tushib takrorlardi Makar, ni-

gohi bilan Fyodor Alekseyevichni ushbu ko'rnamaklikning guvohi bo'lishga chaqirib.

Panikratov jim turardi. U kim'haqligini bilmasdi: albatta, tongliklar yaxshilikning qadriga yetmayapti, biroq ularga so'ligan, tomirlari «bezovta qilingan» ko'chatni tashlab ketishgani ehtimol – bo'laveradi, pulga emas-ku, «uzumini ye, bog'ini surishtirma», deganlaridek.

«Balki Rodnev haqdir: hozircha kolxozlar o'rtasida do'stlik yo'q».

7

Panikratov Rodnevning chaqirig'iga ko'ra tuman qo'mitasiga keldi.

– Kiraver, kiraver! – salomlashdi Rodnev stoldan turayotib. – Yo'q bo'lib ketding, bekinib oldingmi, qo'ng'iroq qilmaysan. Gapir, ishlaring qalay?

Panikratov o'tirdi va nosamimiy beparvolik bilan javob berdi:

– Yomon.

U hammasiga tayyor edi: byuroni koyishadimi – ularning haqqi, ishdan bo'shatishadimi – undan-da yaxshi, ketadi.

– Xo'sh, keyin-chi?

– Keyini yo'q. Yomon.

– Tushunarli qilib gapir.

Panikratov na yolg'on so'zlashni, na qizarishni bilmasdi. U nigohini ko'tardi va tovushsiz, tartib bilan boshladi:

– Kel, ochiqchasiga gaplashib olamiz. Senga murojaat qila olmasdim. Yuragim betlamadi. Biz birga ishlay olmaymiz. Sen meni, bilaman, tinch qo'ymaysan. Demak, men yana ketishim kerak.

Panikratov qizarishni bilmasa-da, Rodnevning yuziga qip-qizil dog'lar yugurdi. Uni Panikratovning gapi emas, balki nigohi – yovvoyi, dushmanona, yashirinmay, sir saqlamay qaragan ko'zlari – hayron qoldirdi va xafa qildi.

Rodnev sakrab turdi, kichkina mushti bilan stolni urdi. Stankan tushib ketdi, yashil movut ustidagi qizil, ko'k, sariq qalamlar sochilib ketdi. Panikratov qoshlarini hayron bo'lib ko'tardi – u Rodnevni

birinchi marta bunday holatda ko‘rayotgan edi: uning qutirgan yuzida dog‘lar lovullardi.

– Ketish! Yo‘q, sen ishlaysan! Bu qanday shaxsiy hisob-kitob bo‘ldi, o‘rtoq Pa-nik-ra-tov!

U papkadan bir varaqni olib, Panikratovga suqdi:

– O‘qi!

Bu tuman qo‘mitasi byurosining qarori bo‘lib, unda qishloq kengashi raisi Panikratovga Bilina GESidagi qurilishda jamoat mehnatini tashkil qilish zimmasi yuklatilayotgani haqida yozilgandi.

– Qarorni bekor qilishga to‘g‘ri keladi, – Rodnevdan ko‘zlarini yashirib, biroq hamon qaysarlik bilan dedi Panikratov va stolga qog‘ozni qo‘ydi. – Uddalay olmayman.

– Bekor qilish? Agar sening dimog‘dorliging bo‘lmaganda... «Uddalay olmayman!» Marhamat qiling! Biz uddalashga majburlaymiz! Majburlaymiz! Va so‘raymiz! Qattiq so‘raymiz! Muruvvat kutma!

Rodnev Panikratovning oldida qirra yelkali, ozg‘in, to‘zg‘igan, badjahl bo‘lib turardi, Rodnevning deyarli har bir so‘zi g‘azablantirgan Panikratov bu safar nima uchun na ranj-alam, na g‘azab sezmayotganidan hayron bo‘lardi.

Va qachonki Rodnev quruqqina qilib: «Bo‘ldi! Ketaverishing mumkin, o‘rtoq Panikratov...» – deganida Panikratov turdi va hamon xafalik sezmayotganiga ajablanib itoatkorona chiqib ketdi.

Rodnevnikidan Panikratov tuman ijroqo‘miga, ijroqo‘m raisi Murginning yoniga yo‘l oldi. Panikratov u bilan ko‘p yillar davomida yelkama-yelka turib ishlagan.

Endilikda Murgin Panikratovga har qachongidan do‘stona munosabatda edi. Murgin o‘zini uning oldida aybdordek his qilardi: birga ishlashgan, bir xil aybdor deyavering – u, Murgin qoldi, Panikratovni esa chetlatishdi.

– Byuro qarorini eshitdingmi o‘zi? – so‘radi Murgin, ular bir-biriga qarama-qarshi o‘tirishganda.

– Eshitdim, – istar-istamay javob berdi Panikratov.

– Senga qiyin bo‘ladi, oshna.

– Menga achinyapsanmi?

– Achinaman-da. Bilina – Vajenka emas. Vajenkada Chapayev kolxozi atrofida butun boshli kolxozlar oilasi vujudga keldi. Bu – mayoqcha. Unga qarab yo'l tutishadi. Bilinada esa senda bunday mayoq bo'lmaydi.

– Mayli, Pavel, – Murginning gapini bo'ldi Panikratov, – menga achinma. Bir amallab uddalarman.

Faqat endi, Murginni tinglab, Panikratov nima uchun Rodnevdan ranjimaganini tushundi. Rodnev: «Muruvvat kutma» dedi. Demak, begona hisoblaganda, bunday demasdi. Panikratov tuman qo'mitasi kotibiga begona emas. Shunisiga ham rahmat.

8

Bor-yo'g'i bir hafta oldin Bilina daryosida eski tegirmon turgan edi. Puturi ketgan un tortish uychasi tolzorning kumushrang-yashil ko'pigida cho'kib borar, maysa va butaning yosh novdalari o'sib ketgan yo'sinning barxit yamoqli tomlarigina ko'rinib turardi.

Eski, yangi tillarang taxta qoqilgan qorayib ketgan to'g'on orqali suv belo'roqning charxlangan tig'i kabi yaltirab oqib turardi. To'g'ondan teparoqda – sokin daryo qo'ltig'i, tim-qora suvda – xira sariq gullar bilan bezatilgan ko'zachasimon barglarning yashil sollari suzib yuribdi. Tepadan tushayotgan suv shovqini, daryoda barglarni cho'miltirayotgan tuplar, yo'sinning qoramtir pechagida qadimiy tom – xaroba tegirmonlar va o'pqonlarning eski dunyosi, adadiy xotirjamlik olami – bir hafta oldin hamma yoq shunday edi...

Hozir na tegirmon, na to'g'on yo'q. Ularning o'rniga qirg'oqda suvda chirigan bir uyum yog'och-taxtalar yotibdi. Ochib yuborilgan mayda suvda oq nilfiyalarning uzun poya bo'lib chigallashgan barglari ko'rinyapti – daryoning avvalgi bezagi emas, balki ayanchli, keraksiz lash-lush. Serhasham tuplar sindirilgan, ezilgan, bu yerdan o'tgan traktor tomonidan bosib-yanchib yerga qorilgan. Bu traktor o'zidan so'ng qirg'oqda qalin, yaqinda ishlov berilgan xodalardan iborat baland bo'lmagan g'aramini qoldirib ketgan. Bu xodalardan shudring tomchilari kabi shaffof qatron katta-katta tomchilab ochib turibdi.

Puturdan ketgan tegirmon o'rniga odamlar bu yerga elektr stansiyasi qurishga qaror qilishdi.

Kecha ular tegirmonni xodalarga ajratib tashlashdi, to‘g‘onni buzishdi, tuplarni payhon qilishdi, tez orada butun qirg‘oqni qiyqimlab tashlashadi, uni sariq qumli tepaliklar bilan ko‘mishadi, daryoni yangi, keng, mustahkam, qatron surtilgan xodalar qatori bilan bog‘langan to‘g‘on yordamida bekitishga kirishadi. Ular uning o‘rniga eski tegirmon o‘rniga yangi, baland derazali imorat qurishadi. Undan yangi beton simyog‘ochlar qatorning har tomoniga kolxozga shamolda guvillovchi simlar o‘tkazishadi.

Buni odamlar qilishadi, vaqtincha jur’atsiz jimib qolgan tabiat esa ko‘zini ochadi va shoshilmasdan o‘z ishini davom ettiradi: odamlar tomonidan loyqalangan suvni yana tiniqlashtiradi, o‘ydim-chuqur qilingan, kavlab, bosib tashlangan qirg‘oqlarni yana tuplar kungurasi qoplaydi, yangi to‘g‘onning teparog‘ida esa oldingisidan kengroq qilib daryo qo‘ltig‘i o‘z didiga ko‘ra gullar va oq nilfiya barglari bilan bezaydi.

Tabiatning qadimgi, jonkuyar bezaklarini betakalluf buzib tashlagan odamlar bu joyni yana chiroyli deb topishadi, uning yangi, oldingiga o‘xshamagan go‘zalligiga moslashishadi. Bilmasdan adabiy huzur-halovat tuyg‘usini uyg‘otgan eski tegirmon to‘g‘risidagi tasavvur odamlar xotirasidan g‘oyib bo‘ladi.

Balchiq hidi keluvchi qanchadan qancha mana shunday o‘rmon soylari to‘g‘onlar tomonidan to‘silgan! Viloyatda har bir kulbada ko‘plab avlodlarning tirsaklari artilgan oilaviy dasturxon atrofida elektr chirog‘i yoqig‘liq butun boshli tumanlar bor.

Jimjit, yovvoyi malina va qorag‘at o‘sadigan Bilina daryosi! Sening ham yamab-yasqalgan yanchish g‘ildiragingni gidrostansiya turbinasiga almashtirish vaqti keldi. Hozir hech kim sening yangi qismatingga hayron bo‘lmaydi. Hattoki Kasyanov-Osichyeda istiqomat qiluvchi, hayotining to‘rtdan uch qismini moychiroqda yashab o‘tgan qari kampir Marfida ham chiroq yonganda:

– Xudoga shukur, bizga ham chiroq keldi, – deydi...

9

Tunda yomg‘ir yog‘ib o‘tdi, tongda esa quyosh charaqlab turgandi. Vajenkaning o‘ng sohili jonlana boshladi. Xalqni ishga chiqarish-

ga tayyorlay boshlashganida, olis kolxozlarning qurilish brigadalari kech qolishidan xavfsirashgan edi. Va har doim bunday holatlarda bo'lganidek, o'sha kolxozlarda ortiqcha g'ayrat qilib yuborishdi: u yerdan quruvchilar ancha barvaqt kelishdi. Qirg'oq bo'ylab to'p-to'p bo'lib o'tirib olishdi, chekishdi, suhbatlashishdi.

Namoyishni boshlash vaqti kelgandi. Biroq shu payt qurilish joyiga hech qanday rejalar tomonidan ko'zda tutilmagan ulkan – kengligi to'rtta xoda, uzunligi esa yetmish metr keladigan sol yaqinlashdi. Bu sol daryodan, biroq har doimgidek oqim bo'ylab pastga emas, aksincha, tepaga, oqimga qarshi suzib kelardi. Ikkita traktor: biri bir qirg'oqdan, ikkinchisi – ikkinchi qirg'oqdan guvillashgancha qalin po'lat zanjirlarni tarang qilib, solni tortishardi.

Mariyaga vazifa yuklatildi – «Yo'l» kolxozi tomonidan tayyorlangan yog'och-taxtani olib borish. Yog'och-taxtalar g'aramini, ular qirg'oqning yonida yotgan bo'lsa-da, oqizib tashishning iloji yo'q edi. Bu g'aramlar bo'lajak stansiyadan to'rt kilometr pastroqda joylashgan edi. Yo'lda olib borishmi? Har bir qatnovda Ostanov jarligini kesib o'tib, yetti kilometrlik aylanma yo'ldan yurishga to'g'ri kelardi.

Mariya qirg'oqlarni tekshirdi, ularga sinchiklab qaradi va ikkita traktor bilan yog'och-taxtalarni bir reysning o'zida olib borishga qaror qildi.

Tunda uning traktorchilari ilyichyovlik qizlar bilan yog'och-taxtalarni suvga tushirishdi, yigirma uchta solga mahkamlashdi va ularning barchasini qalin po'lat zanjir bilan ikki marta o'rashdi, uchlarini esa tashqariga chiqarib, traktorlarga mahkam qilib qotirishdi.

Tuplarni sindirib, hayqirib, traktorlar – biri chap, ikkinchisi o'ng qirg'oqdan asta-sekin yurishdi. Jimjit daryo bo'ylab, o'ng qirg'oqqa yaqinroq turib, ulkan kapalak qurtiga o'xshash yetmish metrlik bahaybat maxluqlar sekingina oqimga qarshi suza boshladi.

Qirg'oqdan jahd-jadal bilan bo'kiruvchi traktorlar, daryo qonuniga zid ravishda pastga emas, tepaga suzib borayotgan ensiz sollarning uzun zanjiri, soldagi qizlarning jarangdor ovozi, suvga to'kilayotgan tuplar – qo'shiq, garmon, bayroq bilan ketayotgan chapayevliklar mana shunday manzaraning guvohi bo'lishdi. Ko'rishdi va qo'shiq to'xtab qoldi; garmonchilar shoshilib garmonlarining

qoplamasini kiydira boshlashdi – bo'ldi, hamma bilan birga Rodnev, Murgin, Trubetskoy ham qirg'oqqa otilishdi. Daryo yonida bir necha daqiqa davomida shovqin-suron ko'tarildi, yuzlab ovozlar baqirar, yuzlab qo'llar havoda silkitilar edi.

Bir yigit kiyimini yechib, ko'k kalta ishtonda, junjikib yelkasini ko'tarib, suvga o'zini tashladi va sollarga suzib bordi. Bu o'ziga xos buyruq edi.

– Yigitlar, sollarni ajrating!

Yuzlab odamlar etiklarini yechishdi, shimlarini shimarishdi, yechinishdi, suvga otilishdi, sollarga yopishib olishdi.

– Qirg'oqqa silji-i-it!

– Turtishma!

– Traktorchilarga ayting: qirg'oqqa yaqinroq tortishsin!

– Hoy, traktordagi, sohilga hayda!

Qurilishning qat'iy rejalashtirilgan boshlanishi barbod bo'ldi. Namoyish bilan hech kimning ishi yo'q. Kecha tabrik nutqini tayyorlab qo'ygan Murgin hozir yugurib, daryodan tortib olingan xodalarni qayerga qo'yish to'g'risida buyruq berardi.

Va sollar bitta-bittalab olib bo'lingandan keyin, yog'och-taxtalar ho'l g'aram bo'lib tik jarlik yoniga yotqizilgandan so'nggina brigadirlar qirg'oqqa yugurib kelib baland ovozda odamlarni to'play boshlashdi:

– Ma-a-zunov!

– Fyodorov! Ho-o-oy!

– Sushkov qani?.. Sushkovni ko'rmadingmi? Qayerga g'oyib bo'ldi?

Brigadalar o'z o'rinlarini egallashdi.

10

Yurka Levashovning zvenosi tarmoqni kovlash ishlari bilan shug'ullandi. Ishonchli yigitlar – qumni o'ynab-o'ynab tashlashadi. Yurka bir narsani kutardi – Sergey Gavrilovning zvenosi bilan yuzma-yuz turib o'z do'sti va ustoziga hamma ishda ham razinliklar chapayevliklardan kuchsiz emasligini ko'rsatish. Biroq unga Sergeyning zvenosi emas, raisning qizi Yelena Trubetskaya boshchiligidagi qizlar zvenosi ro'para keldi.

Yurka belkurakni tashlab, rahbariyatni izlashga ketdi. Tarmoqning oxirida Savatyevaga duch keldi.

– Pelageya Nikitichna, – imladi Yurka, – bir daqiqaga chiq.

– Nima deysan, zveno boshlig'i?

– Pelageya Nikitichna, – ehtiyotlik bilan so'z boshladi Yurka, – xato bo'ldi, nazarimda. Kuchlar teng emasdek. Bizlarga qarshi qizlarni qo'yishdi.

– Xato? Menimcha esa – to'g'ri.

– Biz axir yigitlarmiz-ku, har bir yigitimizga beshtadan qiz to'g'ri keladi, – e'tiroz bildirdi Yurka.

Pelageya achchiqlandi.

– Birga bir, shubhasiz, kuchliroqdirsizlar, lekin zvenoga zveno – yutishingiz dargumon. Isbotlang!

Yurka nari ketdi va darg'azab bo'lib tufladi: «Yo tavba! Bu chapayevliklar namuncha baland parvoz qilishmasa, ulardan boshqa yer yuzida hech kim ucha olmaydigandek. «Isbotlang!» Kimga isbotlash kerak, qizlargami? Tuf-e!»

U o'z zvenosiga qaytib kelganida, uning yoniga Yelena yaqinlashdi.

– O'rtoq zveno boshlig'i!

– Xo'sh, – xo'mrayib to'ng'illadi Yurka va chetga qaradi: chapayevliklarning zveno boshlig'ining ko'zlari katta va jiddiy, ularga qarasang – jaziramada ham titroq bosadi.

– Sizning yigitlaringiz bizning tomonga oshib o'tishyapti. Bu nimasi? Agar yordam bo'lsa, unda rahmat – sizsiz ham uddalaymiz.

– Yigitlar, – qo'l siltadi Yurka, – bu yoqqa chiqmanglar.

Ikki smena bo'lib, oltita belkurakda ishlashdi – olti kishi dam oladi, chekadi, olti kishi kovlaydi. Yurka pastga sakradi, smenachidan belkurakni olib qo'ydi, g'azab bilan uni qalin tuproqqa sanchib qo'ydi, tig'ini to'ldirdi va tashlash uchun quloch otdi. Biroq tashlamadi – belkurakdagi tuproq orqaga sochilib ketdi.

– Sen qattiq silkitma! – Lyoshka Grebeshkov g'amgin bujmayib, Yurkaning yelkasini qoqib qo'ydi.

Zveno boshlig'i uning yigitlari narigi tarafga yordam berish istagida o'tib olishmaganini tushundi – oltovlon uchastkada siqilib qo-

lishgandi. Hamma yigitlar gavdali, har biri quloch yozishni xohlaydi, Yurkaning bir o‘ziga yarim uchastka kamlik qiladi.

Tiqilinchda turtishib, belkurakning oxiri bilan kimnidir urib yubormaslik uchun orqasiga qarab, Yurka dam olish uchun tepaga chiqdi.

Faqat endigina, chetdan turib Trubetskaya zvenosining ishiga razm solib, Yurka uchastkasidagi ish qanchalik ahmoqona ketayotganini tushundi. Qizlarning ikkitasi borib o‘z uchastkasini ariq kengligida kovlashyapti: ularning orqasidan ikkinchi juftlik harakatlanyapti, ular uchli belkuraklar bilan emas, balki yapaloq belkuraklar yordamida kovlangan tuproqni tepaga otishyapti. Qizlar uzluksiz konveyer bo‘lib ishlashyapti – bir maromda, uchma-uch qatlamni olishyapti.

Yigitlarning terlagan orqalarida mushaklari yarqirayapti, tuproq tulki dumidek tepaga irg‘itilyapti, qizlar esa istehzoli ko‘z qiri bilan qarashyapti. Agar yigitlar, deylik, Sergeyning zvenosidan o‘rgansalar ham alam qilmaydi, bu yerda esa – qizlarning aqli bilan ishlash... Va Yurka o‘zini tinchlantirardi: «Hechqisi yo‘q, bunday brigadani chapayevcha usullarsiz ham dog‘da qoldiramiz».

U beso‘naqay bo‘lib tarmoqqa tushdi, o‘z smenachisini haydab yubordi:

– Bor, damingni ol. Eh! – va belkurakni oxirigacha sanchib, ehtiyotlik bilan, orqasiga qaramay tuproqni otdi. Yigitlarning yuzlariga ko‘z yugurtirdi – hammasining kayfi nochog‘, jahd-jadalsiz ishlashyapti. «Ha-a, qizlar bizni quvib o‘tishsa g‘alati ish bo‘ladi, – o‘yladi Yurka. – Keyin kolxozdan qochsang ham, tinchlik berishmaydi!» Va u belkurakni tuproqqa jon-jahd bilan suqdi.

Spevkin qutqarib qoldi. U Yurkaning yoniga sakrab tushdi va yuziga qarab pishillab gapirdi:

– Nima qilyapsan? Yoki ko‘rmayapsanmi? Hoziroq borib, nayzali belkurakni topshir, oltita yapaloq belkurakni ol.

Yurkaning yelkasidan tog‘ ag‘darilganday bo‘ldi – buyurishyapti, buyurishyaptimi – demak, qilish kerak. Va u kovlash uchun oltita belkurakni yigitlarning qo‘llaridan yulib olib, yer qazuvchi belkuraklarga almashtirish uchun yugurib ketdi, Spevkin esa uning orqasida baqirardi:

– Otish uchun kuchliroqlarini ol, kuchsizroqlarini – kavlattir!

Va mana ikkita yigit shoshib, yerda yotgan qumni bo'lakma-bo'lak belkurakka solib, yer ostiga pastlay boshlashdi. Yurka ochko'zlik bilan keng belkurakka haydab yumshatilgan tuproqni solib, prujinaga o'xshab egildi, tepaga otdi, yana bir uyum otdi, yana! Uning qo'shnisi, yelkador, yupqa, biroq yumshoq rezina kabi mustahkam mushaklariga Yurkaning ochko'zlarcha ushlab olishidan hech narsa qolmasdi. Kovlovchilar ham ulgurishmasdi.

– Uchinchi bo'lib kovlash uchun tur! – buyurdi Yurka Roslovga. – Bir o'zim uchovingizning ortingizdan boraman.

Kovlovchilar tiqilishdi, Roslovga joy berishdi va Yurka yelkasi ustidan o'tkazib silkitishga tushdi.

– Qani! – baqirardi u. – E-eh! – Kurakcha qotib qolgan tubda shitirlab, tuproqqa urildi. – Qa-a-ani! – Ho'l tuproq tepaga uchar va yumshoq og'irlik bilan uyib yasalgan balandlikka tushardi. – E-eh!

Yurka qizlar to'xtab, unga kulib qarashayotganini sezmadi.

– Nihoyat o'ng'ay yo'lini topdi.

– Buni qara-ya, bo'shab ketdi!

– Qarashga qo'rqasan!

Butun uchastkani boshidan oxirigacha o'tib, Yurka uyib yasalgan tepalikka ko'tarildi. Uning yelkalari va ko'kragi terdan yaltirardi. Shamol qizib ketgan terini sovitardi.

– Mana buni ish desa bo'ladi! – o'girildi u Roslovga.

U bo'lsa peshanasiga tuproq aralashgan terni chaplab, toliqqan holda tan oldi:

– Surobimizni to'g'rilab qo'yding.

Yurkaning yoniga Gavrilov yaqinlashdi. U Yurkaning og'ir yelkalarini hurmat bilan ko'zdan kechirdi, bosh chayqadi.

– Bor bo'l, g'o'labir! Men bo'lsam o'zimiznikilardan salom olib keldim.

– Katta rahmat, – javob berdi Yurka.

Sergey kurakchani olib qo'ydi.

– Qanday ishlayotganingni ko'rdim. Kuchingni ayamayotganing yaxshi emas. Sog'lom bo'lsang-da, tushlikka borib tinkang quriydi. Qara: kurakchani shunday ishlatki, belkurakning dastasi tizzang baravar ketsin. Tizza richag kabi qo'llarga yordam berayot-

ganiga ahamiyat ber. – Sergey do'nglikdan Yurka solganidan aslo kam bo'lmagan bir uyum tuproqni soldi va yengilgina narigi tomonga tashladi. – Buni bizga Savatyeva ko'rsatdi. U bir vaqtlar, yosh bo'lgan paytlari savdogarning uyida yerto'lalar qazigan ekan...

Yigitlarga Savatyevaning usuli yoqdi, biroq Yurkaning o'ziga ma'qul kelmadi. U kovlovchilarni chopilgan yerni tekis qatlam qilib emas, ag'natilgan holda, bir siltashda belkurakka ko'proq solish uchun uchta ariq qilib qoldirishni buyurdi. Belkurakning katta kurakchasi Yurkaga shundoq ham yengil tuyulardi, «Savatyevaning usuli» bilan esa u belkurak kichkinaligini, o'ziga ikki baravar kattarog'i kerakligini his qildi.

Qizlar ortda qolishar, Yurkaning brigadasi yer ostiga tobora pastlab borardi.

Belkuraklarning jaranglashi, zambilg'altak g'ildiraklarining g'ijirlashi, boltalarning taqillashi, yirik toshlarni tashuvchi yuk mashinalarining hayqirishi, tushirilayotgan toshlarning gumburlashi, xodalarni ko'taruvchi duradgorlarning baqirishi: «Bir, ikki, qani! Olish kerak! Bir! Ikki!» – butun shovqin-suronga jarangdor gumburlashlar bostirib kirdi: «Dun! Dun! Dun!» Bir ayol qum do'nglikning uchiga chiqib olib, jiddiy qiyofa bilan bo'sh chelakni taqillatardi.

– Nima bo'ldi? U nima qilyapti? – deya yerkovlovchilar qiziqdi.

– Tushlik! Ishni tuga-a-at! Tushlik!

Yurka belkuragini yerga tashladi va:

– Tanaffus, yigitlar! Belkuraklarni taxla! – dedi.

U o'zining kolxozi ishlayotgan tarmoq bo'ylab ketdi va yo'l-yo'lakay yer qazuvchilarning yuzlariga tikildi. Yo'lda terga botgan, usti iflos, quvnoq Spevkinni uchratdi.

– Ha, birodar, – baqirdi u uzoqdan, – bizniki bas kelmayapti! Boshqalardan kam ishlamayapmiz!

– Dmitriy Dmitrich, men Nikita Prutovni ko'rishim kerak, – dedi xavotirli ohangda Yurka.

– Prutovnimi? U temirchilik ustaxonasida.

Yurka bir daqiqacha o'ylanib turdi, so'ngra burildi va olomon orasidan itarib-turtib o'tib, daryodan uzoqlashdi. Uning ortida esa ulkan lager baland ovoz chiqarardi.

11

Agar bunday GESni urush vaqtida ‚qurishga to‘g‘ri kelganida, odamlar kun-u tun, holdan toyguncha ishlashardi, to‘yib yeyishmasdi, to‘yib uxlashmasdi va shunday bo‘lishi kerak deb hisoblashardi.

Xalq Panikratovni tushunardi, u esa xalqqa qanday muomala qilishni bilardi.

Hozir kuchdan ketguncha ishlashga majburlab bo‘lmaydi, butun kuch bilan ishlashga majburlash kerak! Oddiy arifmetikadek tuyuladi – butun kuch bilan kuchidan ketgunchadan biroz kamroq, sur’atni biroz pasaytirish kerak va mana sizga – kerakli natija. Biroq hayot murakkab va soddalashtirishlarni yoqtirmaydi...

Bilina GESi qurilishida yer qazish ishlarining boshlanishini ochib berishga bag‘ishlangan namoyishda Panikratov «Erkinlik» kolxozi quruvchilarini «qurilishimiz gvardiyasi» deb atadi.

Hozir ushbu «gvardiya» boshlig‘i Makar Voznitsin orqada ketardi va Panikratovning naq qulog‘i ostida chiyillovchi ovoz bilan shang‘illardi:

– «Tong»dan to‘qqiz kishi chiqmadi, «Qo‘shchi»dan – besh kishi. O‘toq qilishlari kerakmish. Biz esa, Xudo tomonidan la’natlangandek, hammasini yelkamizda ko‘tarib yurishimiz kerak. Menda ham ishchilar yetishmayapti. Kunni qara – quruq, jazirama, sabzavotlarni sug‘orishga ulgurmayapmiz.

– Makar, sen kimga qarab tenglashyapsan, «Tong»ga qarabmi yoki «Qo‘shchi»ga qarabmi? Ular senga qarab tenglashishlari kerak.

Panikratov bu so‘zlarni o‘ninchi marta aytishi, Makar esa o‘ninchi marta eshitishi edi va shu sababli o‘zini eshitmaganlikka olib, davom etdi:

– Kecha, sen yo‘qligingda «Qo‘shchi»ning yigitlari sambit olib kelishdi va baliq qaynatishdi.

– Eshitdim... Senikilar esa, aytishlaricha, belo‘roqlarini tashlab uch soat qirg‘oqdan tomosha qilib, qaysi tomondan kirish bo‘yicha maslahatlar bergan emish. Ular ham o‘zlarini ko‘rsatibdi-da. Gvardiya!

– Eh, Fyodor Alekseyevich, undaylar bilan yonma-yon ishlab ko‘r, kimning ham istagi so‘nmaydi!

– Unda nima uchun Vajenkada hech kimning xohishi so‘n-mayapti? – darg‘azab bo‘lib burildi Panikratov Makarga. – Nima uchun u yerda Trubetskoy obro‘-e’tibor qozondi? Biz «Erkinlik» kolxozimiz! Ish kuniga besh rubldan beramiz! deb jar solganingni esla...

Makar suhbat yoqimsiz ko‘rinish olayotganini tushundi, g‘ijimlandi, bir nimalarni javradi:

– Chapayevliklarning ko‘ngliga qarashyapti. Tuman qo‘mitasi ham, tuman ijroqo‘mi ham. Biz bilan ham shunday bo‘lganda edi, – va u Panikratovdan ajralib ketdi.

Panikratov ichkariroqqa yurib ketdi. Yurilaverib tekis bo‘lib qolgan yo‘ldan yuk mashinalari ko‘tarmani to‘ldirish uchun qirg‘oqqa tosh va qum tashishardi. Belkuraklar yaltillardi. Nam tuproq uyumida besh kishi o‘tirardi: biri etiklarini yechib, o‘sha etiklariga tirsagigacha qo‘lini kirgizib, jiddiy qiyofa bilan kapagidagi mixni paypaslardi; qolganlar chekishardi va bekorchilikdan do‘stini tomosha qilishardi. Ularning bari «Erkinlik» kolxozidan ekanliklarini Panikratov tanib qoldi. U yigitlarga yaqinlashdi va atayin bardam ovoz bilan (bu ovoz: «Hamma yoqda yaxshi, sizlarda esa «to‘xtalish», degan ma’noni bildirardi) so‘radi:

– Nima bo‘ldi, yigitlar?

Yo‘l-yo‘l mayka kiygan sobiq matros Yakov Shumnoy o‘rnidan turdi. Panikratov uni yaxshi bilardi – yigit kolxozdagi eng ilg‘or ishchilardan biri edi.

– Oldinlab ketib nima qilamiz? Biz, Fyodor Alekseyevich, o‘sha imillaganlarni shundayligicha dog‘da qoldiramiz. Ana, qarang, belkurakni qanday suqyapganini – chalg‘itish uchun. Bu nimasi – men zo‘r beraman, u paysalga soladimi? Keyin biz chiroqdan bir xil foydalanamiz-ku – u ham, men ham. Men xonamga o‘nta lampa osib qo‘ymayman-ku.

Fyodor g‘azab bilan Yakov Shumnoy bunday «imillaganlar»dan o‘rnak olishi emas, o‘rgatishi kerakligini tushuntira boshladi. «O‘rgatish! – Bu so‘zni eshitgan Yakov takabburona kulib qo‘ydi. – O‘rgatasan, albatta».

Shunday bo‘ldi ham: brigada va zvenolarni joy-joyiga qo‘yishdi, bir zveno ikkinchisidan o‘rganishini mo‘ljallashdi, musobaqa

bo'lishiga umid qilishdi, musobaqa esa boshqacha tus oldi: kim kimdan yomonroq qiladi.

– Nega sen o'zingni har xil ishyoqmaslar bilan solishtirasan? Uyat! – xo'p koyidi Panikratov Shumniyni.

Biroq shu payt qo'liga etik kiyib olgan yigit birdan oyog'iga paytavasini o'rashga kirishdi. Yakov Shumniyning ko'z qorachig'i sarosimada aylana boshladi. Qolganlar turishdi va Panikratovning yakuniy: «Qani, tez ishga kirishinglar!»ini kutib o'tirmasdan belkuraklarni cho'zilishdi.

Panikratov atrofga qaradi: ofitser kamari taqilgan oddiy ko'ylakda, galife[1] va parusina[2]li etikda yengil qadamlar bilan Rodnev yaqinlashib kelardi.

– O'ho', qanday ishlashyapti! – salomlashib bo'lgach, istehzoli kulib qo'ydi u.

Belkuraklar tupning yerga chuqur kirgan tomirlarini qasir-qusur qilib uzishardi.

– Ishlashadi, agar har birining ustiga tuman qo'mitasi kotibini qo'yishsa, – javob berdi Panikratov.

Rodnev qurilishga tez-tez kelib turardi. Panikratovga: «Odamlarni shunday joylashtirish kerakki, har bir brigadada kuchli negiz bo'lsin», deb maslahat berardi. Va darhol qanday muvaffaqiyatlarga erishilgani, ishchilar qanday ishlashayotgani haqida so'radi.

G'amginlashgan Panikratov:

– Muvaffaqiyatlar qo'l kaftidagidek – mana ular. Ishchilar ishlashyapti, lekin ular mashina emas. Hamma uchun qilib berisholmaydi, – deya javob berdi.

– Sen qanday choralar ko'rding?

Panikratovning qoshlari chimirildi. U qanday chora ko'rdi? Uchastkama-uchastka yurib, ko'ndirdi, koyidi.

– Nega jimsan? O'zingning tepangda tuman qo'mitasi kotibi turishi kerakka o'xshaydi.

Panikratov birdan unga qaradi.

– Yetar, Vasiliy! Tinch qo'y!

---

[1] *Galife* – yoni chiqqan shim.

[2] *Parusina* – kanopdan to'qilgan qalin, puxta mato.

– Buni qanday tushunish mumkin? – Rodnev biroz oldinga siljidi.

– Shunday. Ketaman. Meni tartib-intizom quliga aylantirish shart emas...

– Xo'-o'sh... O'zing, hech kimdan so'ramasdan ketolmaysan. Sen viloyat qo'mitasining intizomiga bo'ysunasan.

Qo'mita intizomi! Panikratovning o'zi odamlarning o'jarligini shu so'zlar bilan necha marta yakson qilgan. Ko'ngilga yaqin so'zlar, kuchli so'zlar – ularga qarshi borib bo'lmaydi. Aynan o'sha kuchli so'zlar hozir unga ham kelib tekkandi. Shunday bo'lsa ham, boshini o'jarlik bilan egib olib, e'tiroz bildirdi:

– Nima bo'lsa bo'lar! Shunday ham bo'larim bo'ldi: butun boshli tumanni epladim, endi beshta kolxozni eplay olmayapman...

– Yaxshi. – Rodnev o'zini bosdi. – Ishchilardan so'raymiz. Tushlikda ularni bir soatga yiqqin-chi.

Ishchilar daryoning yonida, siyrak qayinzor yoqasida yig'ilishdi. Uning ichkarisidan sovuq qo'ziqorin bo'yi taralar, biroq qo'ziqorin mavsumi hali kirib kelmagandi – qo'ziqorinlar javdar boshoqni supurib chiqargandagina chinakamiga o'sa boshlaydi. Muhandisning oldida ushlanib qolgan Rodnevni kutishardi. Qari qayinning qiyshiq tanasiga suyanib olgan Panikratov o'tirib oldi va suhbatlarni tinglay boshladi:

– Buni qara, usti ochiq dalada, tup ostida.

– Qadimda bahor saylidagi kabi.

– Qanday masala ekan, qiziq?

– Yaxshi sabab bilan bo'lmasa kerak... Qilaymi-qilmaymi deb ishlayapmiz.

– Rodnev o'ninchi sanada, juma kuni ustimizdan yozib bersa kerak.

Nihoyat Rodnev keldi. Maysaga yotib olgan odamlar qimirlab qolishdi, kimga qanday qulay bo'lsa, shunday o'tirib olishdi: kimdir turkchasiga – oyoqlarini kalava qilib, kimdir – tizzasini sertomir, bezillab qolgan qo'llari bilan quchoqlab. Majlis boshlandi.

– So'z Panikratovga. Gapir, Fyodor Alekseyevich, – e'lon qildi Rodnev.

Panikratov o'rnidan turdi. U o'z vaqtida ko'plab majlislar o'tkazgan, xalq oldida o'zini vazmin va ishbilarmon odamlardek tutish odati unda allaqachon shakllangan edi. Ammo hozir u o'zini noqulay sezardi. Ehtimol, yig'ilganlar yerda, uning oyoqlari ostida o'tirgani uchundir – bunday gapirish noqulay, balki hamma undan qurilish haqida, ularning umumiy ishi to'g'risidagi yangiliklarni kutayotgani uchundir, u bo'lsa o'zi haqida, o'zining ojizligi haqida gapirmoqchi.

– Bu haqda so'zlash qiyin, do'stlar, biroq aytishga to'g'ri keladi. Tuman qo'mitasi zimmamga ijtimoiy musobaqa o'tkazishni yukladi, mening esa qo'limdan kelmadi... Uddalay olmadim... Qurilishdagi holatimizni o'zingiz ko'rib turibsiz. Kim aybdor? Menga yuklatilgan, men uddalay olmadim, demak, men aybdorman!.. – Panikratov boshini quyi solib, oyoqlari ostiga qarab zo'r berib gapirardi.

Birinchi bo'lib «Erkinlik» kolxozi brigadiri Yevdokim Sapunov so'z oldi. Past bo'yli, soch-soqoli oqargan, yigitlardek orasta keksa qayinning oldiga chiqdi (abjirligi va qaynoq fe'li uchun uni qishloqda yoshligidanoq «kazak» deb atashardi). Sapunov Panikratovni darrov ajablantirdi:

– Do'stlar, Fyodor Alekseyevich hozirgina aytdi: chidab bo'lmaydi! To'g'ri – bo'lmaydi! Musobaqa haqida baqiramiz, chaqiramiz – biroq joyimizdan siljimaymiz!..

Rodnevga o'girilib, Sapunov brigadalarda yomon gaplar yurganini aytdi: chiroqdan faqat «Erkinlik» kolxozi foydalanarmish.

– O'zim o'z quloqlarim bilan eshitdim. Uchtasi turibdi – «Qizil qo'shchi»dan Ugarov Matvey va «Tong»dan Kozlovlar – va gaplashishyapti: Makarning aytishicha, Voznitsin elektr motorlar sotib oladi, issiqxonalar qurib tashlaydi, sigirlarga elektr pechkalar o'rnatadi. Bizning kolxozlar esa rivojlanolmaydi, daromadlar «Erkinlik»niki kabi emas. Hamma energiya ularga ketadi. O'zimizni qiynab nima qilamiz, o'zlari ishlayverishsin. Qanday gaplar, eshityapsizmi? Ular bilan kurashish kerak, bizning boshliqlar esa kurashmayapti. Hamma Fyodor Alekseyevichning bir o'zi tartibga soladi deb o'ylaydi.

So'zga chiqqanlar brigadalarda tashviqot ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmaganini tasdiqlashdi. Kimdir Vajenkaga borib, u yerda qan-

day mehnat qilishayotganini ko'rib kelsa xalaqit bermasdi. Va faqat yosh yigit Timofey Kucherov:

– Nimagadir siz, Fyodor Alekseyevich, yig'lab yubordingiz: «Qiyin...» Ishni to'g'rilab bo'lmaydigandek, – dedi dadillanib.

Kimdir o'tirgan joyida baqirdi:

– Tepadan bosishsa, o'zing ham yig'lab yuborasan!

Hamma Rodnevga o'girilib qaradi. U o't poyasini xotirjam tishlab-tishlab qo'yardi.

Hech kimning miyasiga Panikratov o'zining zaifligi haqida jiddiy gap ochishi mumkinligi kelmasdi. Uni tushunishmadi! Va Panikratov hayotida birinchi marta odamlar uni tushunishmaganiga xursand bo'ldi. U qo'rqib Rodnevga ko'z qirini tashladi, u: «Masala yuzasidan chiqish qilmadingiz, o'rtoqlar!..» deyishini kutdi.

Biroq Rodnev turdi va bamaylixotir ravishda Vajenkaga borib o'rganib kelishni taklif qilgan odam haq ekanligini aytdi. Majlis rozi bo'ldi.

Quyosh botardi, zaxlik cho'zildi, qo'ziqorinlarning hidi o'tkirlashdi.

– Nima uchun bo'shatishlarini talab qilib turib olmading? – hazilomuz so'radi Rodnev.

Hamon sarosimaga tushgan, g'amgin Panikratov yelkasini qisdi:

– Tushunishmadi...

– Sening bunday shalpayishingni kim o'ylabdi deysan...

12

Ular ertalab qurilish maydoniga kelishdi, ish avjida.

Baland qirg'oqdan qiya, hali yuraverib tekislanmagan yo'ldan chag'irtoshlar ortilgan uch tonnalik avtomashina tushib kelyapti. O'nlab yerkovlar pastda g'imirlashyapti. Ular qirg'oqning bir qismini tanlashdi va tarmoqning tor kamgagini yotqizishdi. Daryoning ko'ndalangiga suvda ulkan yog'och chorpoyalar – bo'lajak ko'tarmaning skeletini o'rnatishardi.

– Ularning ishi biznikidan qiziqroq ketyapti, – darrov tan oldi Yakov Shumnoy.

Ular pastga tushishdi va qurilish shovqiniga cho'kishdi – o'ng tomondan duradgor boltalarining quvnoq, har qaysisi o'z holicha taraq-turug'i eshitilar, chapda gumbur-gumbur bilan mashinani yukdan bo'shatishardi.

– Ehtiyot bo'-o'l!

Panikratov yonga sapchib sakradi. Yog'och ko'priklar bo'ylab qum ortilgan zambilg'altak yurib o'tdi.

Panikratov tanishini uchratish, muhandisni qayerdan izlash uchun so'roqqa tutish umidida o'girilib qaraguncha uning hamrohlari g'oyib bo'ldi. Katta tepalikni qum bilan to'ldirgan odamlar orasida yo'qolib qolishdi. Bu do'nglikka yigitlar bo'sh zambilg'altaklari bilan kelishardi.

– Ehtiyot bo'l!

– A, jin ursin! – Panikratov yana taxtadan qilingan zambilg'altak yo'lga turib qolganini sezmadi.

Panikratovning oldidan, yo'l-yo'l maykali ko'kragini oldinga chiqarib, zambilg'altakni itarib Yakov Shumnoy o'tib ketdi. U o'tib ketayotib, o'girilib, ko'zini qisdi:

– Biz ham ishlayapmiz!

Shumnoyning orqasidan yugurib ketayotgan o'n besh yoshlardagi yigit og'ir zambilg'altakni tutib qola olmadi va uning g'ildiragi taxtadan yerga sakrab ketdi. Yigitcha g'ildirakni joyiga o'rnatmoqchi bo'ldi. Panikratov sakrab tushdi.

– Ber-chi...

U zambilg'altakni yengilgina o'rnatdi va qo'lidagi og'irlikni mamnuniyat bilan his qilib oldinga yurgan ham edi, birdan yigitcha sakrab yo'lini to'sib, ranjigan holda baqirdi:

– Nima qilyapsiz? O'zingizga zambilg'altak olib uchirib yuravering... Mening ish jadvalim bor!

Orqadan g'azab bilan va astoydil baqirishardi:

– Ehtiyot bo'l! Nimani bahslashyapsizlar?

Panikratov o'zini chetga oldi va shu zahoti yoniga tartibsiz, terlagan, quvnoq Spevkin uchib keldi.

– Ha, Fyodor Alekseyevich, salom berdik! Bu nima bekorchilik?

– Qayerga joylashishni bilmayapman, – yelkasini qisdi Panikratov.

– Eh-he! Fyodor Alekseyevich, ish boshdan oshib yotibdi! Ana, tarmoqqa boring, u yerda belkurak berishadi. Yelena Trubetskayaning zvenosini izlang, bu chapayevliklar orqada qolishyapti, Fyodor Alekseyevich! Kastumingizni yeching, kastumda terlab ketasiz!

Oxirgi so'zlarni Spevkin Panikratovning orqasiga, yugurib o'tayotgan zambilg'altakchilar boshi ustidan baqirdi.

Yelena Trubetskayaning zvenosida Panikratovning kelishiga aslo hayron bo'lishmadi.

– Siz bittaga uchta bora olasizmi? Anavilarga o'xshab, – ko'rsatdi zveno boshlig'i ro'parada ishlayotgan yigitlarni ko'rsatib.

U yerda, beligacha yalang'och, eshikday keng orqali yigit mashina kuchi va bir maromdaligi bilan birato'la uch kishi tomonidan chopilgan yerni belkurakda uloqtirardi.

– Urinib ko'ray-chi, – javob berdi Panikratov va kastumini bir chetga tashladi.

Tushlik uchun berilgan tanaffusda Spevkin, Gruzdev, Panikratov – hammasi jiqqa terga botgan, usti kir, to'lqinlanib cho'milishga ketishdi.

Chetda, qurilish ketayotgan joydan qandaydir ikki yuz metr narida, tuplar ortida jimjit edi. Bu yerda ninachilar harir qanotlari bilan dirillab, ko'zacha barglarining yashil orolchalariga dam olish uchun o'tirishadi.

– Chuqur bo'lsa kerak, – dedi Gruzdev, u o'zining tan olishicha, uncha yaxshi suza olmasdi.

– Qo'rqma, – tinchlantirdi Spevkin tuproqda oqargan, og'irlashgan etigini yechib, – cho'kishni boshlasang qutqaramiz.

Ninachilar va ko'zacha barglari podsholigini qo'zg'atib, Panikratov birinchi bo'lib yoni bilan daryo qo'ltig'icha o'zini otdi, yaltirovchi suv tomchilari uzoq tuplarga uchib ketdi. Uning ortida Spevkin sap-sariq boshi bilan suvga kalla tashladi.

Gruzdev esa qirg'oqdan asta-sekin, junjikib va ko'zlarini katta ochib tushardi. Uning tanasi quyosh ko'rmagandek oppoq, boshi esa qandaydir afrikalikning boshini uzib olib qo'yilgandek quyoshdan qoraygan, dag'allashgan, shamolda qovjiragan, hurpaygan mo'ylovli edi. Spevkin sho'ng'ib va suvni sachratib sevinib g'aqillatardi.

– Jim bo‘l! Hoy qobon! Qobon! – goh g‘azab bilan, goh o‘pkalab derdi Gruzdev, unga uchib kelayotgan suv tomchilaridan seskanib.

Nihoyat u jur’at qildi – suvga qulog‘igacha cho‘kdi – va shu joyda orom olib ingradi:

– Mazza-a-a!

Ular ho‘l sochlari bilan – Panikratovda ko‘kish-yelimdor qasmoqli, Spevkinda birinj-jigarrang gardishli, Gruzdevda kal peshanasida ko‘rimsiz sumalaklar yopishib qolgan – ustlaridan charchoqni tashlab, qurilish maydoniga qaytishdi va doshqozonlarda bo‘tqa soviyotganini ko‘rishdi; kosalar, chashkalar, likopchalar, qozonchalar o‘tda dumalab yotibdi – tushlik keyinga surildi. Butun xalq kattagina zich to‘daga to‘plandi, uning qoq o‘rtasidan tezlikdan hovliqib, garmon tovushi taralardi.

– Raqsga tushishyapti, – dedi Spevkin va uning cho‘milishdan so‘ng jonlangan, quvonchga to‘lgan yuzi birdan jiddiylashdi.

– Charchoq hammani holdan toydiradi, – ming‘illadi Gruzdev, biroq shunday bo‘lsa-da, Spevkinning orqasidan qadamini tezlatdi.

Spevkinni esa oyoqlari o‘zidan o‘zi garmon tovushi olib ketayotgandek edi.

Olomon yelkama-yelka turar, orqada turganlar sakrab-sakrab qo‘yar, tiqilib-suqilib kirish umidisiz, oyoq uchida cho‘zilishardi. Spevkin yelkasi bilan kimgadir turtildi, unga zarda bilan qarashdi, ammo o‘girilib, tiqilishib, yo‘l bo‘shatishni boshlashdi: Dmitriy Spevkin butun boshli tumanda raqqos sifatida dong taratgandi, bundaylarning joyi oldinda. Gruzdev, Panikratovga boqib, bosh irg‘adi: «Yuring, qiziq bo‘ladi». U Spevkinning orqasidan suqilib kira boshladi.

Bosimdan silkinayotgan aylananing markazida, to‘nkarilgan zambilg‘altakka joylashib olib, lablarini siqib Sergey Gavrilov o‘tirardi. Uning barmoq harakatlarini takrorlab, traktorchi, kirlab ketgan uddaburon bolakay og‘ir botinkalarining poshnalari bilan o‘tni bosib, kuzatuvchilarni qora ko‘zlarining quruq yarqirashi bilan kuydirgancha yengilgina uchardi. Gruzdev Spevkinning orqasidan aylanada turganlarga shoshilib ko‘z tashlay boshladi, u Dmitriyga munosib raqibni izlardi. Va u matroslarning yo‘l-yo‘l maykasida, qo‘llarini ko‘ksida chalishtirib, yelkasiga kastumini tashlab olgan,

och malla peshana gajagining ostidan raqsga tushayotganlarni kuzatib turgan Yakov Shumniyni ko'rdi.

U musobaqalasha oladi – Shumniy Bilinada mashhur raqqos.

«O'n yillik» kolxozilik to'ladan kelgan Nastya Kvacheva aylanada viqor bilan suzar va jussasiga mos bo'lmagan ingichka ovozi bilan kuylardi:

Ana, traktor kelyapti,
Traktorchi haydayapti.
U sevishim bilmaydi,
Yurak-qalbim ingraydi.

Uning atrofida traktorchi pirildoqqa o'xshab aylanib, oyoqlari bilan yerni tepardi.

Biroq endi Spevkinga hammaning ko'zi tushib bo'lgandi, pinagini buzmay turgan Yakov Shumniyning qulog'iga qo'shnilarning lablari cho'zilmoqda, nimanidir pichirlashmoqda, balki unga manzur bo'ladigan va Spevkin haqida yoqimsiz so'zlarni aytishmoqda. Yakov Shumnoyning peshanasi tirishdi. Tomoshabinlar haqiqiy raqqoslarni uchrashtirish vaqti kelganini tushunishdi. Qichqiriqlar yangradi:

– Yetar!

– Sergey, boshqasini boshla!

Sergey garmoni bilan hayqirdi va to'xtab qoldi.

Traktorchi, yerni asta-sekin bosib, tanishlariga ko'zi bilan imlab aylana ichidan yurib chiqdi.

Yozilmagan qonunga ko'ra tan olingan raqqoslar o'zlari talabgor bo'lmasliklari kerak, ularni qizlar davraga chaqirishadi. Agar qiz raqqosga yoqmasa, u chiqmasligi mumkin, buning xafa bo'ladigan joyi yo'q.

Sergey Gavrilov kirish kuyini bu safar sekin, qunt bilan chaldi. Nastya Kvacheva, qaddini rostlab, yonlamasiga Yakov Shumnoyga yaqinlashdi. Shu vaqt olomonning ichidan yengilgina, xushqad Lena Trubetskaya mayda qadamlar bilan sakrab chiqdi. U to'g'ri emas, aylananing bo'ylamasiga yurdi va asta-sekin Spevkinga yaqinlashdi. Chetdagilardan biri chidab turolmadi va baqirdi:

– Eh, qanday qiz chiqdi! Rad etolmaysan!

Lena yaqinlashdi, oyoqlari bilan depsindi va shodlikka to'lgan ko'zlari bilan Dmitriyning ko'zlariga qarab, yengil ta'zim qildi-yu, xushovozlik bilan dedi:

– Rad qilmang, Dmitriy Dmitrich.

Spevkinning yuzi oqarib ketdi, u ko'zlari bilan qisqa va minnatdorchilik belgisini namoyon qilib javob berdi: «Mayli!» Bu paytda esa Yakov Shumnoy yelkasidagi kastumini kimningdir xizmatga tayyor cho'zilgan qo'llariga tashlab yubordi.

Sergey Gavrilov tajribali garmonchi edi, u davraga raqqoslar o'zlarini ko'rsatishi uchun shoshilmay aylana bo'ylab o'tishi, bir-biriga razm solishi uchun kifoya bo'lgan olovni qo'shdi.

Poshnalarini shiqillatib, jim bo'lib qolgan tomoshabinlarning boshlari uzra beparvo nigoh tashlab, o'rtaga Spevkin chiqdi.

Shumnoyning o'z «uslubi» bor edi. Va bu «uslubni» birinchi qadamdanoq Gavrilov tutib oldi va sur'atni biroz tezlashtirdi. Yakov prujinaga o'xshab, o'ynab-o'ynab, aylana bo'ylab yurdi; uning yurishida, harakatlarida, yuzida yaxshi raqqosga zarur bo'lgan sovuqqonlik va beparvolik aks etgandi, lekin bu xususiyat Spevkindan farqli ravishda unga yarashardi.

Ular bir-birining va muxlislarning oldida savlat to'kib birinchi aylanani bosib o'tishganda, Sergey Gavrilov sur'atni jadallashtirdi.

Spevkinning oyoqlari tezlashdi, biroq tanasi yog'ochdek bukilmas, qo'llari qamchidan osilib turar, yuzi hamon loqayd edi; faqat oyoqlari garmonning tirik joyidan ushlovchi tovushlariga bo'ysunib, Spevkinning o'zidan alohida, jazavali hayot kechirayotgandek edi.

Yakov Shumnoy Spevkinga qaraganda to'laroq, miqtiroq edi. Uning yelkalari ozgina «raqsga tushar», qo'llarini orqaga qilib yurar, boshini tikka engashtirar, qo'pol botinkalari Spevkinning etiklaridan kam bo'lmagan epchillik bilan yerni og'ir do'pirlatardi.

Spevkin va Shumnoy yaqinlashib uzoqlashardi va birdan Sergeyning qo'lidagi garmon buyruq ohangida hayqirdi-yu, raqqoslar galma-gal tizlarini bukib raqsga tushib ketishdi. Spevkin ermak qilib oyoqlarini yerga urayotgandek tuyulardi, Yakov yumshoq koptok bo'lib davrada sakrardi.

Tomoshabinlar davrasi g'ovur-g'uvur ko'tardi, tebrana boshladi; orqada turganlar oldindagilarning ustiga yog'ildi.

– Dmitriy! Qani-qani! Bizniki yengyapti shekilli!
– Dmitriyni! Spevkinni! Hech qachon yutolmaysizlar!
– Yakov, bos, bos! Bo'sh kelma!
– Zo'r be-e-er!

Panikratov olomonning o'rtasida tiqilib qoldi. To'satdan u o'ng tomonda, yuzining shundoqqina yonida yumshoq, oftobda tekis qoraygan yuzning ustidagi soch gajagini payqadi. Olomonga tig'iz taqalib, Mariya turardi va hozircha uni sezmasdi. Kutilmaganda Mariya o'girildi va ko'zlar to'qnash kelishdi. Mariyaning yuzidan ko'zlarining qoq ostigacha qizil yugurdi, og'ir kiprikli ko'z qovoqlari sekingina tushdi. Biroq u teskari burilmadi, siljishga urinmadi. Kulgi, hayqiriqlar, qarsaklar kimningdir g'olib bo'lganidan darak berdi. Shundagina Mariya qiziqqandek, boshini burdi, ammo Fyodor unda o'sha yon beruvchanlikni, sinashtalikni his qildi... Xalq tarqalib ketmaguncha ular shunday, bir-biriga qaramay, orqa o'girib turaverishdi.

Spevkin g'olib bo'ldi.

Yakov Shumnoy kutilmaganda qoqilib ketdi, tiz cho'kdi va harsillab, aybdorlardek, xijolat bo'lib shundayligicha qoldi.

– Raqsga tushish yetar. Bas, – takrorlardi u so'lg'in tabassum bilan.

Spevkin esa qizarib, terlab, quyoshdek porlab garmonchiga bosh silkidi, yana tizzaladi, etiklarining chang bosgan qo'njiga jarangli shapatiladi va oldinda turgan Lena Trubetskayaning oldiga uchib kelib, nafasini rostlamay yerni tepindi, xirillab kuyladi:

Tiralib, tepalikka
Chiqmaydi qora otlar.
Tanishishga ruxsat et.
Isming nedir, ey dilbar?

Davra buzildi, hamma Spevkinni o'rab oldi. Yoshi ulug'roqlar uzoqlashib, boshlarini chayqatishardi:

– Razinliklarning raisi balo, balo.

– Shuncha o'ynab yana qo'shiq kuylash... Gap bo'lishi mumkin emas.

– Hamma ham bunday qila olmaydi.

Ixlosmandlaridan qutulib, Spevkiņ Yelena Trubetskayaning katta ko'k ko'zlaridagi nigohni hamon unutmay charchab daryoga ketardi. U qirg'oqqa tushdi va yuvinishdan oldin egilib, suvda aks etgan quyoshda kuygan yuzga, paxmaygan sochlarga uzoq tikildi.

Baliq quvlar baliqni,
Ajoyib ekan anhor.
Qizlar har xil, lek mening
Tabassumli yorim bor.

«Ha, jo'ra, «tabassumli». Bunday tabassumli ko'zlarga ishonishga ham qo'rqasan...»

13

Kun bo'yi xalq uning atrofida shovqin qilar, belkuraklar yerga urilib jiringlar, yoshlar jarangdor ovozlari bilan bir-birini chaqirar, ko'prikchalar uchun qoziqoyoqlarni yerga qoqayotgan og'ir yog'och to'qmoqlar taqillar, bu ko'prikchalar ustidan zambilg'altaklar yurishi kerak edi; qirg'oqda, ko'tarma tushuvchi joyda tuproqli tog' o'sib chiqqandi.

Yuzlab odamlar! Ularning hammasi Panikratov nimani xohlasa, o'shani xohlaydi, ularning barchasi Panikratovga nima kerak bo'lsa, o'shani qiladi, Panikratov qanchalik xursand bo'lsa, ular ham shunchalik shod, barchani yagona baxt, umumiy ish birlashtirdi. U hammaga va hamma unga shu soatlarda – qarindosh, ish bo'yicha akauka. Fyodor ko'pdan beri odamlarga bunday yaqinlikni tuymagandi. Ko'pdan beri. Ehtimol hayotida birinchi marta u insonlarni shunday bag'rikenglik ila sevardi.

Kun yaxshi, ajoyib kayfiyatda o'tdi!

Kechqurun qurilish maydonchasiga Rodnev keldi va uning tashrifi Panikratovga xursand bo'lishga asos yo'qligini eslatdi. Panikratov bu yerdan Bilina daryosiga nimani olib ketadi: qaynoq ishdan so'ng tanasidagi yoqimli charchoqnimi? Bor-yo'g'i shumi? U bu yerga buning uchun kelmagandi.

Panikratov daryoning zax hidi kelayotgan taxta g'arami ostida dam olardi. U yerda uni Yakov Shumnoy topib oldi. Toliqqan holda yoniga o'tirdi.

– Uch nafar yigitimiz yana bir kunga qolmoqchi, – dedi u.

– Qanday qilib?

– Oddiy, kvartiralarga tunash uchun ketishdi. Bu yerda qolishni istashyapti – ishlash ham zavqli, qorinlari ham to'q... Shu zaylda bir asr ham ishlash mumkin, uyga tortmayapti. Eh, Fyodor Alekseyevich, biznikilarning hammasini olib kelsam edi. Bu yerda o'likni ham tiriltirishadi.

– Bu yergami? – Panikratovning ovozi arang sezilarli darajada qaltiradi. – Hammasini bo'lmasa ham, bir qismini. Yalqovroqlaridan brigada tanlash... Sen haq gapni aytding – bu yerda o'likka ham jon kiradi.

– Bundan chiqdi, ular – ish qilishadi, biz esa ularni tomosha qilamiz yoki yordam beramizmi, vaqt esa ketyapti. O'zimiznikilar uchun achinyapman, deb o'ylaysizmi? Ishlaganimda hammasini unutdim, xursand bo'ldim, endi esa Bilinaga qaytish kerakligi haqida o'ylasam... Bu yerda o'zingga qayliq izla, biroq o'zingnikiga olib ketma, unikiga o'zing ko'chib kel.

– Gap shundaki, faqat tomosha qilish va yordam berish uchun kelmaymiz. Men shunday deb o'ylayman: ularga brigada jo'natamiz, ular esa evaziga o'zlarinikidan brigada tanlashsin va biznikiga kelishsin. Biznikilar bu yerda kuch-quvvatga to'ladi, ularniki esa u yoqda o'rganadi. Ajoyib g'oya, Yakov, nima deding?

Ammo Yakov bu g'oyani ma'qullamadi:

– Ular o'zgarishadi, albatta! Ular bizga qo'shilishdan foyda ko'rmaydilar. Ular shoshilishadi – maysa o'sdi, pichan burunga yetdi, pichan uchun esa mana shuncha odamni chaqira olmaysan. Bunday almashinuv ular uchun – to'sqinlik.

Biroq Panikratovni charchoq tark etgandi, u o'rnidan turdi, yerda yotgan kastumini olib so'radi:

– Rodnev shu yerdami?

– Ketdi shekilli. Uning mashinasi ketdi, muhandis ham ketdi.

– Trubetskoy-chi?

– Ko‘rmadim. Uyiga ketgan bo‘lsa kerak, tun bo‘ldi. Spevkinni ko‘rdim, u shu yerda. Qidiring, aks holda u ham yashirinib oladi – chaqqon yigit.

Osmonda tun shu’lasi asta-sekin so‘nardi. Kun botar tomondagi daryo olovli-qizil rangda edi, unga qo‘lingni tushirsang tirsaginggacha qatronday qop-qora qilib tortib oladigandek tasavvur uyg‘onardi. Atrof noodatiy jimjit. Uchta traktor bir-birining yonida faralari bilan kun botishini akslantirib, uxlardi. G‘ildiraklarini baland ko‘tarib, to‘nkarilgan zambilg‘altaklar dumalab yotardi. Kunduzi bu yerda tiqilinch, hozir bo‘m-bo‘sh edi. Tungi navbatchilar gulxanni yoyishdi, tutun erinib qirg‘oq bo‘ylab yoyilar, yo‘l-yo‘lakay nam tuproq bilan quchoqlashardi. Hamma tarqaldi.

Qirg‘oq yonidan o‘tuvchi so‘qmoq yonida Panikratov Spevkinni uchratdi.

Og‘ir Yurka Levashov hurmat bilan orqada qolib, ozg‘in, yengil Yelena Trubetskayaning ortidan yurar va indamay gapini tinglardi. Spevkin tuplardan sakrab chiqdi va so‘qmoqda turib oldi.

– Levashov, sening uchastkangda uchta belkurak yerda yotibdi. Kim buni nazorat qilishi kerak?

Yurka sarosimalanib to‘xtab qoldi.

– Kim ham tegardi. Yigitlar qoldirishdi, yotaversin.

– «Yotaversin». Yo‘qolib qolsa-chi, navbatchi javob beradimi?

Yurka nima deyishini bilmay junjikdi, Spevkin esa oyoqlarini butun so‘qmoq kengligida ochib olib, chapdast jussasi bilan boshliqlarga xos talabchanligini ko‘rsatib kutardi. Yurka norozi ohangda ming‘irladi:

– Tashlab ketaverishadi, men bo‘lsa javob berishim kerak, – burildi va tuplarga teginib, shoshib orqaga ketdi.

Spevkin yengil qadamlar bilan so‘qmoqdan chekindi.

– Uzr... Boshqacha yo‘l tuta olmasdim. Nahotki siz uygacha yolg‘iz o‘zingiz ketsangiz? Bilganimda, Yuriyni jo‘natmasdan, o‘sha belkuraklarni topshirardim. Bunday holatda sizni kuzatishga ijozat bering.

Lenaning past kulgisini eshitib, Panikratov o‘girilib qaradi – Spevkinni ayni damda Bilina GESi quruvchilarining taqdiri mutlaqo bezovta qilmayotgani kundek ravshan.

«Mayli, Chapayevkaga, Trubetskoynikiga boraman», – qaror qildi Panikratov. U ertaga ertalabdan brigadalarni tashkillashtirishni boshlash uchun tunda, hoziroq kelishib olmoqchi edi.

Sukunatda etiklarining poshnalari so'qmoqning quruq yeriga yangroq tovush bilan urilardi. Havo quyuq bo'lib, tup gullarining hidi kelardi. Daryo ortidan Golchanovka tomlari ko'rinardi. Qishloq hozir Fyodor ketayotgan so'qmoqdan bir yarim kilometr narida turardi, biroq tun shu qadar jimjit ediki, qishloqda yarim ovozda aytilgan so'zlar shu yergacha yetib kelardi. Kishanlangan oq ot maysa o'rtasida turib mudrardi. U hozir ko'k tusli bo'lib tuyulardi. Va nafaqat ot, tuplar, daryo ustidagi tuman, osmon – hammasi kulrang-moviy edi: yerda oppoq tun yotardi.

Oldinda, so'qmoq buriluvchi tuplarning orqasida maysaning shitirlashi eshitildi, kimdir shoshilmay, xotirjam, yoz oqshomining mayin salqinligidan bahra olib ketardi. Boshqa vaqt Fyodor bunday tun bilan yolg'iz qolish uchun qadamini sekinlatishi ham mumkin edi, ammo butun kun davomida boshidan kechirgan odamlarga o'sha yaqinlikdan so'ng, u mehribon insonni uchratishni, u bilan chin ko'ngildan suhbatlashishni, o'zining tashvish va quvonchlari haqida unga so'zlab berishni xohlab qoldi.

Fyodor qadamini tezlatdi va bir daqiqadan so'ng tuplarning ustida moviy rang qiyiq ro'molni ko'rdi va Mariyani tanidi! U Fyodorning qadamlarini eshitib qayrildi.

14

Yakov Shumnoy yanglishdi: Rodnev ushbu kecha qurilish maydonchasidan hech qayerga ketmagan edi. Faqat uning mashinasi ketdi, mashinada tasmali koveyerni qurilish ketayotgan joyga yetkazib berishga taraddud ko'rish uchun muhandis ham bor edi.

Kunduzi traktorlarning yonida Rodnev tasodifan Mariya bilan yuzma-yuz to'qnashdi. Rodnev traktorchilar bilan suhbatlashayotgan edi, o'girildi va hozirgina kelib, orqasida to'xtagan Mariyani ko'rdi.

– Salom, – dedi Vasiliy va biroz qizardi.

– Salom, Vasiliy Matveyevich, – dedi Mariya ko'zlarini yerdan uzmay.

Chetda traktorchilar turardi va Vasiliy sarosimalanib, ishchan ovozda so'radi:

– Xo'sh, ishlar qalay? Yonilg'ining keragidan ortiqcha sarflanishidan nolishyapti.

Mariya yelkasini qisdi:

– Hech nima, ishlayapman.

Suhbat shu bilan yakunlandi.

Axir o'tgan vaqt davomida Vasiliy u bilan uchrashish uchun sabab qidirar, kirishga, gaplashishga jur'at topolmayotgandi. Bir kuni erta bahorda u Mariya yashaydigan uyning pillapoyasiga ko'tarildi, uning dahlizga chiqqanini eshitdi, Mariya buni payqab yashirinib oldi. Vasiliy esa ko'nglida og'ir alam bilan qat'iy qaror qildi: «Albatta, unutish kerak!»

Har qanday inson kabi, Vasiliy kelajagi haqida ko'p o'ylardi. Butun mamlakat, butun xalq, hatto butun dunyo kelajagi bilan tutashib ketuvchi o'sha katta kelajak haqida emas, balki kichkina, o'zining shaxsiy kelajagi haqida xayol qilardi. U o'g'li tirishib-tortishib uning barmog'iga yopishib, yerda birinchi qadamini qo'yishini orzu qilardi. U ota, ona – turgan gapki, Mariya.

Ular uchrashib turishardi. Mana o'sha uchrashuvlardan biri. Tonggi daryodagi uzun sol, qaysarlik bilan bo'kiruvchi traktorlar, qaltirovchi zanjirlar, ko'tariluvchi tuplar – tuplar olovda qolgandek zo'r ishtiyoq bilan qirsillardi – shovqin-suron ko'taruvchi olomon. Olomonning o'rtasida – Mariya. Vasiliy Mariya qanday qilib traktordan sakrab tushganini, kombinezonining yengi bilan peshanasidagi terni artganini, qiyiq ro'molidan soch tutami chiqib ketib ho'l peshanasiga yopishib qolganini ko'rdi. Vasiliy chetda turib unga boqar va yodida qolgan boshqa vaziyatni o'ylardi: muzda yaxlatib qo'yilgan daryo temir gusenitsalar ostida ingrardi; moy tekkan pochapo'stinda, guppi shimda viqorli, xotirjam Mariya ortidan traktorlarni ergashtirib kelyapti.

U o'shanda Mariyaning yoniga bormadi. Oldiga borish – o'zining mag'lub bo'lganini, uning esa ustun kelganini tan olish bilan barobar. Achinarli g'urur!

Bugun esa Mariya oldiga keldi, biroq Rodnev o'zini yo'qotib qo'ydi, puch, hech narsani anglatmaydigan so'zlarni gapirdi. Bir-

biridan bunday qochish, ikkiyuzlamalik qilish kerak emas. Uni topib, to‘ppa-to‘g‘ri aytish kerak: «Baxtli bo‘lishni xohlayman va bu senga bog‘liq».

Vasiliy ishdan so‘ng Mariya Chapayevkaga tunash uchun ketishini bilardi. U o‘zining mashinasida muhandisni stansiyaga jo‘natdi, o‘zi esa piyoda Chapayevka tomonga ketdi. Yarim yo‘lda to‘xtadi va yetishi bilan maysadagi shudringni tepib so‘qmoq bo‘ylab joylashgan tuplarning orqasida izg‘iy boshladi.

Shovqin-suron, gulduros kulgi bilan chapayevlik quruvchilarning katta guruhi o‘tib ketdi. Ularning orasida Mariya yo‘q edi. U kim bilan ketmasin, Rodnev qat’iy qaror qildi: uni chaqirib, unga... hammasini aytadi.

Yerni jimjitlik qopladi. Oq tun sir saqlamaydi. Qishloqlar, o‘rmonlar, dalalar, tuplar, o‘tzorlar, ulardagi tushovlangan otlar – hammasi kunduzgidagi kabi bo‘lmasa-da, ko‘zga ko‘rinadi. Kunduzi tabiat o‘z chiroyi bilan maqtanadi: daryo ko‘zni qamashtiradi, quyosh akslanadi, yorqin ranglar tovlanadi, daraxtlarning soyasi yerda yoyiladi. Oq tunda ko‘z hech narsani ilg‘amaydi – hech qanday yorqinlik, keskinlik yo‘q, hammasi tekis, xotirjam, dastavval zerikarlidek tuyuladi. Harakatsizlik – osudalik, osudalik – harakatsizlik. Oddiy tun – hayotdagi tanaffus, oq tun – faqat yengil nafas rostlash, bu hattoki tun emas, deyarli tong. Bunday tunda seni g‘amgin fikr qamrab olishi mumkin emas, yangi, bardam tonggi xayollar miyangni band etadi.

Vasiliyni xotirjam ishonch chulg‘ab oldi – hammasi eson-omon tugaydi. Odamlar qandaydir ahamiyatsiz narsalar bilan hayotlarini murakkablashtirib tashlashlari g‘oyat hayratlanarli. Odamlarga ochiq munosabatda bo‘lish, boshqalarning istagini o‘zingnikidek hurmat qilish, o‘zingga ortig‘ini istamaslik kerak, shunda hayot quvonchlarga to‘ladi.

Vasiliy to‘xtadi, quloq tutdi: olisdan kelayotgan ikkita ovoz tungi sokinlikni buzdi, bular erkak va ayol ovozi edi. Ovozlar yaqinlashardi. Mariya? U kim bilandir kelyapti, shunday bo‘lsa-da, Rodnev unga aytadi...

Yelkasiga kastumini tashlab olgan baland bo‘yli odam Mariyaga nimalarnidir so‘zlab berardi. Vasiliy oldinga qadam tashlamoqchi

bo'ldi-yu, istar-istamas orqaga tisarildi – Mariyaning yonida Panikratov ketardi.

Ular to'xtamay o'tib ketishdi, tungi jimjitlik asta-sekin ularning ovozlari va qadamlarning shovqinini bo'ldirdi.

15

Panikratov Mariya bilan hech qanday noqulaylik sezmayotganidan hayron bo'lardi. Ular o'tmishdan boshqa hamma narsa to'g'risida so'zlashishardi.

Traktorchi ayollar tunaydigan uyning eshigiga yaqinlashganlarida hammasi aytib bo'lingandi, ular jim turishardi va Fyodor o'kinchini bekitib:

– Uchrashguncha, – dedi.

Mariyaning uzun kipriklari ostida noodatiy, o'ziga tanish bo'lmagan, tortinchoq, aybsiz tabassum paydo bo'ldi.

– Ko'rishguncha, Fyodor Alekseyevich. – U Fyodorning yuzidan ko'zini uzmay, jim turardi va nogahon o'ylagan narsasini aytishga jur'at qildi: – Siz mendan xafasiz, gaplashishni xohlamaysiz deb o'ylayotgan edim.

– Yashirib nima qilaman, shunday edi, ranjigandim, endi buning uchun uyalaman, – tan oldi u.

– Hammasi unutilgani yaxshi bo'ldi.

– Yo'q, nega unutilarkan?

Ular eshik oldidagi tungi zaxlikdan nam bo'lgan o'rindiqqa o'tirishdi.

– Unutilmadi, – davom etardi u. – Qanday bo'lsa, shunday qoldi... va qoladi.

Tabassum asta-sekin Mariyaning yuzini tark etdi, u boshini quyi solib o'yga cho'mdi. Shu onda Fyodor ushbu kechada birinchi marta qandaydir noqulaylik sezdi.

Oq tunda tong bildirmay keladi. Buning ustiga, tun qachon tamom bo'lib tong qachon otganini qanday farqlay olasan. Bu vaqtda shafaq osmonni tark etmaydi, odatda, «jimjit tun» deb nomlanuvchi o'sha soatlar shu qadar yorug'ki, birorta ham yulduz ko'rinmaydi.

Tunni tongdan ajratuvchi sirli daqiqa faqat qushlarga ma'lum.

Qayerdadir olisda, qishloqning oxirida xo'roz qichqirdi, yana bittasi bor kuchi bilan yonidan unga jo'r bo'ldi. Mariya hattoki seskanib ketdi: «Eh, senimi!..» Hammadan keyin chumchuqlar jo'rovoz bo'lishdi, biroq shu qadar ahil chiriqlashdiki, barcha tomlardan suv jarangdor va shoshilinch toma boshlagandek bo'ldi.

Ro'paradagi uylarning devorlari alvon tusga kirdi. Derazalardagi oynalar gur etib yondi. Cho'yan ustunchaning qo'lda silliqlangan dastasi qizigandek yaltirab ketdi. Tungi xira havo tobora ochilib, pushti rangga kirdi. Faqat panjara yonida uyum bo'lib yotgan qayin to'nkalari o'z po'stloqlarida tunning sirli moviyligini saqlashda davom etardi.

Xilvat ko'chada, boshini zerikarli chayqab ot o'tdi, bir uyning derazasi ostida to'xtadi va mudrab qoldi. Ikkinchi – to'riq ot yaqinlashib, u ham birinchisining yoniga yotib oldi, orqadan uchinchisi ham kelardi. Ularning hammasi bir derazaning ostida to'planishdi. Panikratovning ajablangan nigohini ko'rgan Mariya izoh berdi:

– Har kuni mana shunday podadan kelishadi. Bu Seryoja Gavrilovning uyi. O'tirib, uning uyg'onishini kutishadi. Sepkil bashara Seryojani qizlar ham shunday yaxshi ko'rishganda edi.

U o'rnidan turdi.

– Ko'rishguncha, Fyodor Alekseyevich.

– Ko'rishguncha, Mariya.

Mariya asta-sekin ayvonga ketdi. U yerda, burchakda, to'ppa-to'g'ri taxtaning o'zida ichi poxol bilan zich to'ldirilgan to'shak tashlangan edi. Mariya o'zini to'shakka tashladi, qiyiq ro'molini yechdi va ro'mol bilan birga qo'llarini ham yerga tushirib, burchakka tikilgancha uzoq o'tirdi.

«Yaxshi inson... Yaxshi...»

Va birdan yig'lab yubordi. Ayollarga o'xshab, hiqillab, ro'moli bilan ko'z yoshini artib yig'ladi.

16

O'sha qish kechasidan boshlab Mariya har kuni kutardi – nimadir ro'y berishi kerak. Bunday ahmoqona, bunday oddiy tugashi mumkin emasdi: yaxshilikmi, yomonlikmi, baxtmi yoki musibatmi, nimadir ushbu bo'shliqni to'ldirishi kerak edi.

Bir safar o'sha «nimadir»ning sodir bo'lishiga bir bahya qoldi va o'sha narsaning ro'y bermagani uchun u o'zini ayblardi.

Bahor sovuq, bo'ralovchi edi, daraxtlar shiddatli shamolda muzlagan shoxlari bilan taqillatardi, qortepalar toshday qattiq bo'lib yotardi. Va birdan pilchillab ketdi – qor dona-dona bo'lib og'irlashdi, yo'l shilta bo'ldi, yashil ko'lmaklar qoraygan qor uyumlari yonida yuzaga kela boshladi. Tunga borib yer muzlamadi. O'sha kecha nam, iliq, qulayotgan sumalaklarning jarangi bilan, qarag'ayzordagi zog'chalarning qag'illashi bilan o'tdi. O'sha kechada Mariya mashina-traktor stansiyasidagi ekish oldidan bo'ladigan majlisga hozirlanayotgan edi. Bu ekishdan oldingi so'nggi yig'ilish bo'lib, u nafaqat ishlab chiqarish jarayoniga oid, balki tantanali bo'lishi kerak edi – ekishga tayyorgarlikning yakunlari, muvaffaqiyat tilab aytilgan so'zlar, yana majburiyatlar... Mariya unda so'zga chiqishi kerak. Bu majlisga Rodnev ham kelishi mumkin edi. U kiyim-kechak turadigan qutili javondan yengil etiklarini oldi, oddiy ishchi pochapo'stinining o'rniga kalta, olmaxon mo'ynali shubasini kiydi, uning ustidan tivit ro'molli shokilani yoydi. Oynaga o'girildi va ichidan xursand bo'ldi: oppoq momiq ro'mol ostidan qora ko'zlari mungli boqardi – nimasini aytasan – maftunkor. Ustun orqasida uyqudan so'ng inqillab-sinqillab, samovar trubasini taqillatib uy bekasi Anfisa Kuzminichna u yoqdan bu yoqqa yurardi. U kasalxonaga tungi navbatchilikka taraddudlanayotgan edi. Mariya taxmin qildi: agar u o'z eshigini yopayotganida Anfisa ko'rinish berib: «Qayerga ketyapsan, ey go'zal?» deya so'rasa, demak, Vasiliy mashina-traktor stansiyasi majlisiga kelmaydi, Mariya uni bu kecha ko'rmaydi; agar uy bekasi qaramasa, so'ramasa – keladi.

Mariya odatdagidek eshikni qattiq yopdi, kalitni ham qattiq qarsillatdi, ishonch hosil qilish uchun biroz turib tingladi. Anfisa Kuzminichnaning biqini yana og'rigan bo'lsa kerak, u yengil ohlardi.

Mariya ichkaridan qorong'i dahlizga chiqdi. Dahlizdan eshikning yonidan pillapoyaga deraza chiqardi, u yerda, chang derazatokchada bir to'p bo'sh dorixona shisha idishlari yotardi. Mariya eshikni itarmoqchi bo'ldi, birdan derazadan pillapoyada kimdir turganini ko'rdi. U egilib qaradi.

Past bo'yli, keng plashda... Mariyaning yuragi dastlab muzlab qoldi, keyin yuziga, bo'yniga qon yugurdi, tivit ro'molda isib ketdi. U! Kutyapti.

Eshikni biroz ochib, chiqib, hayratdan baqirsinmi? Yo'q, u sezib bo'ldi va alday olmasdi.

U ozgina turdi, kutdi va o'girildi... Oyoqlari ostidan birin-ketin uchta zinapoya taqilladi, keyin erigan qorni bosayotgan qadamlar eshitila boshladi, panjara eshigi yengilgina g'ichirladi...

Mariya orqasidan yugurib chiqmadi, chaqirmadi, es-hushini yig'ib olib, asta, uni qo'rqitib yuborishdan qo'rqqanday bo'lib eshikni ochdi. Tepada qarag'ay o'zining ho'l ignabarglari bilan guvillardi, kimdir uyining yonidagi ko'chadan katta qadam bosib, og'ir nafas olib o'tib ketdi. Bir daqiqa oldin bu joyda u turganiga ishonish qiyin edi... Tuyuldimikan?

Mariya olovli lunji bilan eshikning nam, sovuq yondoriga suykaldi va o'ziga achinib ketdi, majlisga borgisi kelmay qoldi. Orqaga qaytib, karavotga yotib, yuzini yumshoq yostiqqa bossamikin?

Orqasidan eshik ochildi va Anfisa Kuzminichna cho'chigan ovoz bilan so'radi:

– Voy! Kim bu yerda?

Mariya qo'zg'aldi.

– Senmisan, Mashenka? Qo'rqib ketdim-ku. Tushib qarasam, kimdir turibdi. Men undan: «Kim bu?» deb so'radim. U bo'lsa burilib ketib qoldi. Lom-mim demadi. Sen qayerga ketyapsan, jonim?

Mariya javob bermay, pillapoyadan shoshilib tushdi.

Ertasi kuni ertalab, har doimgidan kechroq uyg'onib, Mariya kechagi voqeani eslashga tushdi. Quyosh xonaning derazalariga urardi, ochiq darchaga otning kishnashi yorib kirdi, undan so'ng xonada ustiga go'ng sochilgan yo'lning hidi taraldi. Va bu o'y Mariyada o'ziga nisbatan kechagi rahmdillikni uyg'otmadi. Aksincha, endi u shunday o'ylay boshladi: u keldi va bu tashrif birinchisi bo'lmaganga o'xshaydi, demak, eslayapti, demak, yana keladi, faqat yurakni keng qilish va kutish kerak.

Tongda Mariya umid bilan uyg'ondi: oldinda butun kun, kim biladi – balki aynan ushbu bahor kuni ularni uchrashtirar, mustahkam, umrbod jipslashtirar.

Kunduz kuni, odamlar orasida dilida saqlagan umidini o'zi bilan olib yurdi: «Balki u hozir paydo bo'lsa-chi?»

Oqshom – eng g'amgin vaqt: uchrashishmadi... Biroq uxlashga yotganida, yana umid uchqunlari paydo bo'lardi: balki «ertaga» «bugun»dan yaxshiroq bo'lar.

U kutardi, lekin o'zi borib qidirish, uchrashish fikrini xayoliga ham keltirmasdi.

Shunday bo'lsa-da, ular uchrashishdi, bir qishloqda yashab uchrashmasliklari ham mumkin emasdi. Majlislarda, mashina-traktor stansiyasida yoki tuman qo'mitasida uchrashishardi, ammo bu uchrashuvlar har doim odamlar orasida bo'lib o'tardi. Bunday uchrashuvlarda Mariya ham, Vasiliy ham bir-biriga qaramaslikka intilishardi.

GES qurilishi ishlarining boshlanishi kunida shunday uchrashuvlardan biri bo'lib o'tdi. Mariya sollarni tortib kelayotgan traktorlardan birini boshqarayotgandi. Uning traktori orqasidan bir to'da kolxozchilar kelishardi. Mariyani kuch, baxt, ishonch tuyg'ulari qamrab olgandi. Bunday baxt tuyg'usi u tepadan, kabinadan turib, Vasiliyning quvonchli yuzini ko'rganda ikki hissa ortdi. Vasiliy yon tomondan ketayotgan edi.

Mariya traktorini haydab borayotgan qirg'oq chetidan nigohini uzib, orqaga o'girilar, izlar va yana uning yuzini topardi. Biroq qancha ko'p qarasa, shuncha kuchliroq amin bo'lardi – Vasiliy Mariya solni daryo oqimiga qarama-qarshi suzishga majbur qilganini, u traktorni xavfli, o'tish murakkab bo'lgan joydan haydab ketayotganini unutgandi, eslashni ham xohlamasdi. Unutdi!..

Va Mariya his qilgan baxt oz-ozdan g'oyib bo'la boshladi, ma'yus beparvolikka almashdi: baqirishyapti, xursand bo'lishyapti, ehtimol maqtashar – baribir emasmi!

Vasiliy u bilan uchrashmay qurilish bo'layotgan joydan ketib qoldi.

Vajenka qirg'og'ida esa hayot kundan kunga qaynay boshlayotgan edi: to'nkalarni ruxlangan arqon bilan boylab, traktorlar ularni yerdan qasir-qusur qilib uzib olishar, tarvaqaylagan ildizlar ayiqqa o'xshab tikka turardi; duradgorlar brigadasi quvnoq taqillatishar, arralar g'ijirlardi – odamlar ahil, jon-jahd bilan ishlashar, har biri quvnoq edi.

Hamma baxtli edi; faqat Mariya baxtsiz. Hech kim buni payqamasdi. Kimgadir hasrat qilsa... Biroq kimga va qanday qilib? Hech bo'lmasa Panikratov, u ehtimol tushunardi, lekin unga ayta oladimi?

Tun esa bu safar favqulodda yoqimli edi. Tongotar payti ham favqulodda quvonchli bo'ldi.

Bunday oqshom o'zi nima uchun kerak? Insonning baxtli bo'lishi uchun!

Bunday tongotar nima uchun kerak? Insonning baxtli bo'lishi uchun!

Kun qanday bo'ldi – to'la-to'kis quvonchga to'la!

Va hech biri unga atalmagan... Hamma uchun, bir unga emas. Axir achinarli emasmi, bundan ko'zingga yosh kelmaydimi?

Va Mariya yig'lardi, traktorchi qizlar esa uning yig'layotganini ko'rmadi. Ko'rishsa, ajablanishlari turgan gap edi!

17

Mariya bilan xayrlashib, Panikratov tun o'tganini, tong esa hali kelmaganini tushundi, bir-ikki soatlardan keyin Trubetskoyning o'zi ham uyg'onadi.

Hech kimni bezovta qilmaslik uchun Panikratov Trubetskoy hovlisidagi o'rindiqqa tushdi va shundagina qattiq charchoqni sezdi. Qishloqning o'rtasidagi bo'm-bo'sh yo'lda bozordagi kabi zog'chalar tiqilishar, behalovat qichqirishardi. Panikratov orqasi bilan shox devorga suyandi.

...Rodnev Chapayevka atrofida butun tun o'tzor va dalalar bo'ylab aylandi va kun yorug'lashganda Trubetskoynikida bir-ikki soat uxlab olish ilinjida qishloqqa burildi. Raisning uyi yonida u o'rindiqda uxlab yotgan Panikratovga ko'zi tushdi – uning boshi orqaga tashlangan, furajkasi ko'zida, baquvvat iyagi yuqori ko'tarilgan. Dastavval Rodnevning miyasiga g'alati fikr keldi: biror baxtsizlik ro'y bermadimikan, ammo yaqinroq kelganida Panikratov shunchaki uxlab yotganini tushundi. Rodnev burilib, eshik oldiga ko'tarildi, sekingina taqillatdi, biroq uyda hech kim uyg'onmagandi, buning o'rniga taqillashdan Panikratov uyg'onib ketdi. U qimirlab, qiyinchilik bilan turdi, cho'zildi va Rodnevga qarab shundayligicha, qo'llarini ko'targan holatda qotib qoldi.

– Vasiliy Matveyevich! Dard arigisi kelsa, tabib o‘z oyog‘i bilan keladi. Kechadan beri seni izlayman. Gaplashib olish uchun.

Vasiliy sarosimalanib qoldi; Panikratov va Mariya bilan tungi uchrashuvdan keyin, ho‘l o‘tzor so‘qmoqlari bo‘ylab adashib yurgandan so‘ng u negadir Panikratov u bilan shubhasiz Mariya haqida suhbatlashishiga ishonchi komil edi.

– Mana bu yerga o‘tir-chi, Vasiliy Matveyevich, – Panikratovning ovozi quvnoq va (Rodnev bilan suhbatda anchadan beri bunday bo‘lmayotgandi) samimiy edi.

Rodnev o‘tirdi.

– Men vajenkalik quruvchilar orasidan ellik kishini tanlab olib, ularni Bilinaga, biznikilarga jo‘natishdi o‘ylayapman, – gap boshladi Panikratov. – Vajenka GESida odamlar qanday ishlashayotganini ko‘rsatib qo‘yishsin. Bizdan, ya’ni Bilinadan esa xuddi shunday brigada tuzamiz va ularni bu yerga xuddi shu muhlatga olib kelamiz. Kelishsin, ko‘rishsin, bu yerda ishlashsin, qaytib borishgach – Vajenkada ish qanday ketayotganini so‘zlab berishadi. Vajenkaliklar brigadasi Bilinadagi xalqqa o‘rgatadi, bilinalik quruvchilar brigadasi esa bu yerda o‘rganadi. Odamlar birvarakayiga ikkita joyda o‘rganishadi – u yerda ham, bu yerda ham, asosiysi esa, ishchi kuchi hech qayerda kamaymaydi, hech kim xafa bo‘lmaydi, zarar ham bo‘lmasligi aniq. Agar Bilinadan ham bu yerga qoloq ishchilarni olib kelsak, bu yerda o‘likka ham jon kiritishadi, biznikilar yomon ishlashga jur’at qilolmaydilar, uyaladilar.

Dastlab Rodnev e’tiborsizlik bilan yo‘lda sakrayotgan zog‘chalarga qarardi, keyin Panikratovga yuzlandi.

– Qiziq, juda qiziq. Sinab ko‘rish kerak.

– Cho‘zib o‘tirishga hojat yo‘q, Vasiliy Matveyevich, pichan o‘rish vaqti yaqinlashyapti. Bugun harakat qilmoq kerak.

– Yaxshi. – Rodnev o‘rnidan turdi, Panikratovning yoniga chiqdi. – Fyodor Alekseyevich, hoziroq Bilinaga jo‘na. Men bu yerda xalq bilan gaplashib ko‘raman.

– Ketyapman, – shoshilinch rozi bo‘ldi Panikratov qo‘lini cho‘zib. – Ertagayoq brigada tayyor bo‘ladi.

– Yo‘q, ertaga emas, bugun kechqurun shu yerda bo‘lsin. Kechga borib Bilinada ham vajenkaliklar brigadasi bo‘ladi.

– Bo‘pti! – Panikratov burildi va yo‘lda keng qadam tashlab keta boshladi.

– To‘xta! Qayoqqa uchib ketyapsan? Trubetskoyning otini ol.

Panikratov o‘girilib, qo‘l siltadi.

– Kerakmas. Mashina to‘xtatarman. Tezroq yetib olaman.

Ertalab Vajenka qirg‘og‘ida, uch tonnalik «ZIS» atrofida quruvchilar namoyish uchun yig‘ilishdi.

Spevkin minbarning o‘rnini bosgan kuzovda turib, baqirardi:

– Va biz Bilinaga eng yaxshilarini jo‘natamiz, eng yaxshilarini. Vajenkaliklarni bilib qo‘yishsin!

– Qo‘shilmayman!

Olomonni yelkasi bilan qiyinchiliksiz yorib o‘tib, haqoratlar va yengil zarbalarga javob bermay, mashinaga Levashov yaqinlashdi.

– Qo‘shilmayman, foydasi yo‘q! – dedi u yaqin kelib.

– Bu yoqqa chiq va nima uchun qo‘shilmasligingni ayt.

Yurka Levashov kuzovga chiqdi, xalqqa yuzini burdi va nima uchundir boshidagi kepkasini yechdi.

– Qo‘shilmayman, – qaytardi u, biroq bu safar u qadar qizg‘in emas. – Bu qanday bo‘ldi – bizning, deylik, ellikta ishchimizni ularning elliktasiga almashtirish... Axir bizning ishchimiz ikkita, ehtimol uchta bilinalikni dog‘da qoldiradi... Bu yerda boshma-bosh ayirboshlash muqarrar mag‘lubiyatga teng.

Birinchi qatorda turgan Stepan Gruzdev mushtini mo‘yloviga yopishtirib, ma’noli yo‘talar va Yurkaga ta’na bilan qarar, «Sakrab chiqdingmi? Buni sening kallangdan aqlliroq kallalar o‘ylab bo‘lishgan» demoqchidek bo‘lardi.

Hamma uchun kutilmaganda Levashovni Rodnev qo‘llab-quvvatladi:

– Men Levashovning gaplariga qo‘shilaman.

Xalq hayratda guvillay boshladi.

– Ha, qo‘shilaman. Bittaga bitta – bunday almashuv meni qoniqtirmaydi. Hammaga ma’lumki, Bilinadagi quruvchilar ayni vaqtda bizdan yomon ishlashyapti. Men Bilinaga ellikta emas, ikki baravar kam odam jo‘natishni taklif qilaman, Bilina GESidan esa elliktasini

talab qilamiz. Biroq unday bo'lsa – sizning yigirma beshtangiz ellikta ishchiday ishlashi kerak. Brigadalar o'rtasida ijtimoiy musobaqalarni yo'lga qo'yamiz. Ko'ramiz: kim – kimni. Bu bilinaliklarning qaltis yeridan ushlashi aniq, turgan gapki, ularning ikkita ishchisi Vajenkaning bitta quruvchisiga teng ekanligi yoqmaydi.

– Bo'sh kelmaymiz!

– Kim – kimni!

– Yigirma beshta!

– Biroq, keling, avval vijdonan yordam berishga kelishib olamiz. Nimani bilsangiz, nimani qila olsangiz, hammasini ko'rsating, o'rgating!

– Rozimiz!

– Bir kishi ikki kishi uchun!

– Sekinroq, o'rtoqlar! Men tugatmadim! Yuriy Levashov birga bir almashish adolatsiz ekanligini birinchi bo'lib aytgan ekan, uni brigadir qilib Bilinaga jo'natamiz!

– Bo'ladi!

– Levashovni brigadir qilib!

– Nega burilasan?

– U, yigitlar, qizday, gulday ochildi!

– Demak, brigadir Levashovga Bilinaga brigadani shakllantirishni topshiramiz!

– Yashasin brigadir!

Rodnevning yonida turgan Yurka shoshilib mashinadan tushdi; uni yigitlar – bo'lajak brigadaning o'zagi darrov o'rab oldi.

Yigitlarni chetga surib, Yurkaning yoniga matroslar maykasida, yenglarini tirsagidan yuqoriga shimargan Yakov Shumnoy yaqinlashdi. U kulimsirab, Yurkaga quyoshda qoraygan, poshnaday qattiq kaftli qo'llarini uzatdi.

– Buni ko'ryapsanmi? – so'radi u.

– Nimani?

– Qo'llarni. Bu qo'llar sening yigitlaringnikidek, kam emas. Bilinaliklar brigadasida har bir ishchining mana shunday qo'llari bor – brigadada yuzta qo'l, sizlarda esa – ellikta. Birodar, havolanib ketibsan – ikkitasiga bittamush! Biz hali brigadangizning popugini pasaytirib qo'yamiz.

– Sen kim bo'lding? – tashlangudek Yakov Shumnoy nafratlanib ko'zini qisdi.

– Men esa bilinalik brigadirman. Yaqinda hamma odamlarim kelishadi. Ellikta yigit, yuzta qo'l – e'tiborga ol va oldindan gerdayma. Bizniki sizga!.. – Shumnoy yapaloqlangan michmanka[1]sini boshi uzra ko'tardi va matroslarcha qadamlar bilan nari ketdi.

Yurka Shumnoy tomonga qarab jirkanib «hm» dedi. Biroq o'zining brigadasiga yigirma beshta emas, o'ttizta odam tanlab oldi. «Beshtasi, – dedi u, – har ehtimolga qarshi».

Ko'p o'tmay ishchilarga to'lgan ikkita yuk mashinasi bortlarida shoshilib: «Bilinalik ishchilarga salom!» – deb yozilgan plakatlari bilan Vajenka qirg'og'idan jo'nab ketdi. Ularni turli-tuman baqiriqlar bilan kuzatishdi:

– Omad, yigitlar!

– Pand bermanglar!

Oldingi mashinada tashvishli Yurka Levashov o'tirardi. U chindan ham ulkan hajmli, ko'kimtir metall zakida tuslanuvchi yer qazuvchi belkuragini qurol kabi tizzasi bilan siqardi.

18

Yurka o'z brigadasini uchta zvenoga bo'ldi. O'z uchastkasiga qizil bayroqni osib qo'ydi. Qurilish maydonchasi uzra: «Bu bayroq Vajenkadagi eng yaxshi zvenoga – Yuriy Levashovning zvenosiga tegishli. Yengishga, bayroqni olib qo'yishga urinib ko'ring», deya e'lon qilishdi.

O'z odamlarini Yurka «harbiy tartib»da joylashtirib chiqdi – birinchilari chopishadi, ikkinchilari – uloqtirishadi, uchinchilari dam olishadi – va ishni boshlashdi, o'zi oldingi to'rtlikka bordi, bilinaliklarni ajablantirib, o'zining katta belkuragi bilan uyumdagi tuproqni siltay boshladi.

Yurkaning brigadasidan faqat bir kishi ishlardan ozod etilgan edi – serharakat, tili achchiq Andryusha Roslov. Uni «bilinalik yer qazuvchilarning mehnatini tashkillashtirish bo'yicha yo'riqchi» qilib

---

[1] *Michmanka* – harbiy bosh kiyim turi.

tayinlashdi. Andreyning baland ovozi qurilish maydonining goh u, goh bu burchagi uzra taralardi.

– Eh siz, do'st-og'aynilar, – jaranglardi u, – yolg'iz qaziyapsiz! Faqat yerqazar hayvonlar inlarini yolg'iz kovlashadi. Levashovning zvenosiga qarang: birinchi juft kovlayapti, ikkinchisi – tashlaydi.

Vajenkaliklar uchastkasi ustida yoyilgan bayroq, o'zlarini mehmon emas, mezbondek his qilayotgan kelgindilarning mustaqil yurish-turishi dastlab bilinaliklarda noxayrixohlik keltirib chiqardi.

– Bularni qara, xo'jayinlik qilishini!

– Bayroqni olib qo'y deyishadi!

– Bizga bu bayroq takaga garmon qancha kerak bo'lsa, shuncha kerak.

Biroq Roslovning hazilomuz ohangi, uning ochiqdan ochiq yordam berish istagi, asta-sekin o'rgatishga bo'lgan urinishi sergaklikni tarqatib yubordi, kinoyali gaplar ham tugadi. Yoshi kattaroqlari kulib, o'zaro muhokama qilishardi:

– Yerni qazishini qara – bu yerda ham jamoaviy uyushganlik. Yigit haq, ish yaxshi ketyapti.

Yoshlar qichqirishardi:

– Andrey, kel, biznikini qara!

Biroq ichi qoralar ham qolgan edi. Levashov beligacha yalang'och, terdan yaltirab, ishtiyoq bilan (yaqinlashishga qo'rqasan) tuproqni otardi. Birdan Roslov uning salkam belkuragiga sakrab tushay dedi.

– Ko'ngilsiz xabar, Yurka. Beshinchi zveno bo'ysunmayapti, eshitishni xohlamayapti. U yerda Yegorka Lojkin bor, u g'ulg'ula solyapti. Borib u bilan o'zing gaplash.

– Gaplash... – norozi ohangda to'ng'illadi Yurka. – Sen kelisha olmading, mening tilim esa senikidek burro emas. Yur, birgalashib boramiz!

Yurka belkuragini tashladi va tepaga chiqdi.

Har bir qishloqda o'zining hamma qo'rqadigan yigiti, raqs va kechalar qahramoni, hamma orqavoratdan yomonlovchi, yuzma-yuz kelganda qo'rquvchi tan olingan chapanisi bor. Bilina daryosi bo'yida shunday qahramon Yegor Lojkin edi.

Issiqqa qaramay, u kastumda, qaytarmali og'ir etikda ishlardi; kepkasining ostidan kemirchakli buruniga qo'y gajakli chiyralgan bir tutam soch tushib turardi. U yaqinlashgan Yurka tomonga boshini burmadi.

– Sen zveno boshlig'imisan? – jiddiy so'radi Yurka

– Biz hammamiz zveno boshlig'imiz, – istar-istamay javob berdi Yegor. – Senga nima?

– Bu yerda, aytishlaricha, qandaydir Yegor botir tartib-intizomni buzayotgan, hech qanday maslahatlarga quloq solmayotgan va boshqalarga ham maslahat bermayotgan emish. Bu sen emasmi?

Yegor kerildi, peshana gajagini qoqib tashladi, Yurkaga noxush qaradi.

– Yo'-qol... Nega yopishib olding? Ishlashga bermayapsan.

– Shu joyida ish haqida ham eslab qolding, – zaharxandalik bilan dedi Andrey Roslov, Yurkaning orqasiga berkinib, – bungacha sigaret chekib, masxara qilib o'tirganding. «Bolalar, urinib nima qilasizlar, o'rnimizga mehmonlar ishlaydi», deb mayna qilayotganding. Shundaymi?

– Qani, bu yoqqa kel-chi, – oldinga o'zini urdi Yegor, – men bu gap tarqatuvchining bo'yniga belkurak bilan...

Biroq Yurka uni yengilgina turtib yubordi.

– Belkurak bo'yinga urish uchun emas, yer qazish uchun kerak. Buni bilib ol.

Yegorning o'rtoqlari qiziqsinish bilan qarashardi. «Nima bo'lishi qiziq. Yegor bo'sh kelishi mumkin emas». Belkuraklarni qoldirib, boshqa uchastkalardan olomon yig'ila boshladi.

– Nega to'planib oldinglar? – jahl bilan atrofga qaradi Yegor.

– Sen ahmoqni tomosha qilish uchun. Eshit: ishlashni xohlamasang – ket! Sensiz uddalaymiz. Yomon o'tni daladan olib tashlash kerak. – Yurka unga yaqinlashdi.

– Qani, qani! – Yegor orqaga qadam tashladi. – Sen bu yerdan ket. Yaxshilikcha so'rayman – tirmashma.

– O'zing ketmasang, qo'lingdan olib chiqarib qo'yamiz. – Yurka qo'lini cho'zdi.

– O'ldiraman! – Belkurak Yurkaning boshi uzra ko'tarildi.

Biroq Yurka uning tirsagidan ushladi. Yegor og'riqdan bujmaydi. Uning qo'lidan belkurakni sug'urib olib chetga tashlab, Yurka yig'ilganlarga o'girilib qaradi.

Hamma xijolat bo'lib joyidan jila boshladi.

– Zirapchani ko'ryapsizmi? Xalaqit beryapti. Uni nima qilish kerak? – so'radi Yurka.

Roslov Yurkaning orqasidan pismiqlik bilan pichirladi:

– Bola qizishib ketdi. Daryoga tashlash kerak... Biroz sovib olsin.

– Daryoga? To'g'ri! Qani, boshidagi ahmoqona fikrlarini yuvib yuboraylik-chi.

Qip-qizil tirishgan yuzi bilan Yegor qo'lini burab chiqarmoqchi bo'ldi, lekin Yurka uni boladek o'ziga tortib, quchoqlab oldi; Yegorning peshana gajagi tizzasiga qadaldi, singan qo'njli etiklari esa kapagi bilan osmonga ko'tarildi.

Olomonda kimdir hayron bo'lib tomoq qirdi, qizlardan kimdir oh deb yubordi, mardroqlari – ochiqchasiga kuldi, Yurka esa o'zini orqaga tashlab, Yegorni daryoga sudrab ketdi. Suvning oldiga kelganda Yegor baqirib yubordi:

– Qo'yvo-or!..

– To'xtab tur, o'rtoq, to'xtab tur.

Yurka botinka va shimda suvga tushdi va Yegorni suvga botirdi.

– Xalqdan kechirim so'ra. O'z ahmoqliging uchun kechirim so'ra. So'ra!

Bir daqiqadan so'ng ho'l bo'lib osilib qolgan kiyimda, boshi va yuziga tushgan sochi bilan Yegor tuflab va burnini qoqib qirg'oqda o'tirardi.

– Yordam berdi, gapga kiradigan bo'lib qoldi! – soddalarcha hayron bo'ldi bir yigit.

Va bu so'zlar keskinlikni yumshatdi, olomon chayqaldi, daryo uzra qahqaha ko'tarildi.

– Qarab tur, – burnini tortib, ming'irladi Yegor, – biz hali uchrashamiz... Hali qasdimni olaman.

– Biz sen bilan endi xayrlashmaymiz ham. Hoy! Kimdir unga quruq paytava bering va belkurakni ham unutmang. Mening zvenomga kelasan, men bilan birga ishlaysan.

Shu payt shoshilinch qadamlar bilan yosh muhandis keldi, to'xtadi, yig'ilganlarga ko'z yugurtirdi va og'zidagi sigaretasini oldi.

– Bu yerda nima bo'lyapti?

– Issiq, cho'mildik, – zo'rg'a javob berdi Yurka.

Muhandis ishonqiramay shilta-shalabbo bo'lgan, etigidagi suvni qoqib tozalayotgan Yegorga ko'z qirini tashladi va shu yerda yurgan ishboshiga o'girildi:

– Bu yerda nima bo'ldi?

Ishboshi, keksa odam jiddiy ohangda tasdiqladi:

– Cho'milishdi. Yigitlar yosh, biroz sho'xlik qilishdi.

Yarim soatdan so'ng belidan tepasi yalang'och Yegor Yurkaning zvenosi bilan birga belkurak bilan yerni kovlayotgan edi. Yurka, odatdagidek bukilib-yozilib, belkurakni zo'r berib silkitardi.

– Xo'sh, ishlar qalay? – baqirdi Yurka to'xtamay yugurib o'tib ketayotgan Roslovga.

– Odamlar harakat qilishyapti, – javob berdi u Yegorga ayyorona imlab.

19

Kechqurun stol atrofida Panikratovning onasi o'g'liga vaysar edi:

– Yana ter hidi anqiyapti. Belkurakka yopishdingmi? Nima keragi bor? Sensiz ishchilar kammi?

Biroq Fyodor yordam berish istagida ishlamasdi. Kastumini tashlab, yenglarini shimarib, ko'ylak beldan bo'yingacha tanaga yopishib qolmaguncha belkurakni silkitish, boshqalarni ham terlatish, ajablanarli maqtovlarga ega bo'lish: «Qanday qilib sen, Fyodor Alekseyevich, kabinetlarda bunday kuch to'plading?», keyin och-ko'zlarcha daryoga tashlanish, iliq suvni ichish – bularning barchasi butun kun davomida ko'ngilda to'kis baxt tuyg'usini qoldiradi, sen har bir duch kelganning, tanishmi u yoki notanish, ko'zlariga qarab: «Do'stim, hayot naqadar go'zal!» deya o'sha baxt bilan baham ko'rishging keladi.

Shu haftaning o'zida Fyodor Yakov Shumnoyning brigadasida ishlar qanday ketayotganini ko'rish uchun Vajenkaga keldi va odat-

ga ko‘ra unikida tushlikkacha ishladi. Tushlikka tanaffus oldidan esa Yakov uni chetga chaqirdi va yerga katta alvon plakatni to‘shadi. Unda to‘rtta so‘z yozilgan edi: «Levashov brigadasini ortda qoldiramiz!»

– Osib qo‘ymoqchimiz, Fyodor Alekseyevich.

– Hm... Maqtanib oxirida izza bo‘lib qolmaymizmi?

– Bizni quvib o‘tguncha Levashov puturidan ketadi.

– Osaver!

Va mana Yakov Shumnoy brigadasining uchastkasida yerga qoqilgan ikkita uzun tayoqda goh yengil shabadadan ishib, goh tushib, «Levashovning brigadasini ortda qoldiramiz!» degan plakat paydo bo‘ldi.

Panikratov zambilg‘altak ko‘prikchasiga chiqib oldi, boshidagi kepkasini yechdi va atrofida to‘plangan bilinaliklarga baqirdi:

– O‘rtoqlar!

Va o‘sha «o‘rtoqlar» qurilish maydonchasi bo‘ylab taralib, hammani qayrilib qarashga majbur qildi.

– Bilinaliklar miting qilishmoqda!..

Bilinaliklar nima sababdan miting qilishayotganini bilib bo‘lmasdi, hamma Panikratovning ovoziga tashlanishdi. Va plakat atrofida bir necha soniyalar ichida zich olomon yig‘ildi.

...Rodnev ertalabdanoq qurilish maydoniga chiqib ketgandi, ammo har doimgidek, bir kolxozda dalalarga kirib chiqdi, boshqasida maktabning ta’mirlashini so‘rab-surishtirdi va faqat tush paytida Vajenka qirg‘og‘iga yaqinlashdi.

Quyosh qizdirayotgan edi. Ignat Naumov hattoki eng dabdalasi chiqqan yo‘llarda ham yengil silkinib mashinani haydardi. Rodnev boshini osiltirib mudrardi. Biroq to‘satdan silkinish kuchaydi, bir, ikki marta tebrandi, Rodnev boshini ko‘tardi. Ignat gaz tepkisini bosdi (bunday holat u bilan kamdan kam ro‘y berardi).

– Nima bo‘ldi? – so‘radi Rodnev.

– Shovqinlanishyapti, – qisqa javob berdi Ignat.

Mashina qirg‘oq qirrasiga chiqib, burilib to‘xtadi. Rodnev yonbag‘irlab tusha boshlaganida hayqiriqlar bosildi va odamlar, suv, qazilgan qirg‘oqlar, uyqusiragan yuk mashinalari va traktorlarning

boshi uzra baland ovoz jarangladi. Rodnev faqat shu yerda uni tanidi – bu Panikratovning ovozi edi.

Hech kim tomonidan sezilmay, Rodnev yaqinlashib orqada joylashib oldi. Uning yonida sertomir bo'ynini cho'zib Stepan Gruzdev turar, boshlar ustidan Panikratovga boqar va hayratlanib o'zicha gapirib qo'yardi:

– Eh, onajonim-ey! Eshityapsanmi, Dmitriy? Xalqni belkurak bilan yig'gandek to'pladi va ushlab turibdi.

Biroq uning yonida turgan Spevkin uni eshitmasdi.

Boshyalang, qizil yuzli, ko'kragidan ochilgan ichko'ylakning o'zida turar va ochiq-oydin, kayfi chog', ishonuvchanlik bilan xalqqa boqar, jimlikni kutar, lekin odamlarning ovozi tinchimasdi. Shunda u sabrsizlik bilan yelkasini qisdi va bu umumiy g'ovur-g'uvur alohida hayqiriqlarga bo'linib ketishi uchun kifoya edi. Panikratov qo'lini ko'tardi va hamma tinchidi.

– Men aytdim-ku o'rtoqlar: bilinaliklar va'da beryapti deb! Biroq va'da berish – bajarish degani emas. Levashovliklar o'zib ketishlari mumkin!..

– To'g'ri! Ehtiyot bo'l! – masrur ovoz bilan baqirdi Spevkin.

– Levashov hali adabini berib qo'yadi!

– Levashovingiz quyushqonidan chiqib ketdi!

– Ko'rsatib qo'yadi!

Va ovozlar yana aralashib ketdi. Panikratov ushbu jo'shqin qiychuvni xursand bo'lib, zavq bilan tinglayotgani sezilardi.

Kechqurun gulxanning yonida Gruzdev, Spevkin va Savatyeva o'tirishgandi. Spevkin kartoshkani ustalik bilan pishira olardi, shu sababli kartoshkadan yupqa burushgan po'stini butunlay yechish mumkin edi. Hozir u tutundan yoshlangan ko'zlari bilan qo'lidagi shox yordamida kulni titkilar va Gruzdev Levashovning brigadasini g'ayratga mindirish uchun Bilinaga kimni jo'natish ustida ovoz chiqarib bosh qotirayotganini eshitardi.

– Panikratov mard ekan – o'zinikilarni ruhlantirdi. Yurkaning odamlari o'sha yoqda, Bilinada uzoq qolib ketmasa bo'lgani...

– Stepan, – qat'iy gapirdi Savatyeva, – o'zing borib kel. Yaqindagina kolxozda ma'ruza qilganding-ku.

Spevkin burchakdan kartoshkani dumalatib keldi, uni u kaftidan bu kaftiga otar, puflar va Gruzdevga qarab-qarab qo'yardi: «Rozi bo'ladimi yoki bo'lmaydimi?.. Yo'q, menimcha tavakkal qilmasa kerak. O'zining kolxozida-ku bo'laveradi, lekin bu yerda – begonalarning orasida...»

Lekin Gruzdev yana bir marta xo'rsinib, rozi bo'ldi:

– Qilish kerakka o'xshaydi, hech kim zimmasiga olmaydi-ku.

20

O'tzorlarda qishloqlarda «asalcha» deb nomlanuvchi kamtarona o'simlik gullay boshladi. Uning mayin soyabonga to'plangan mayda oppoq gulchalari ko'ngilni aynitadigan, sokin iliq kechalarda esa boshni og'ritadigan asal hidini taratardi. Azaldan shunday: asalcha gullasa, maysa pishib yetildi deb hisoblayver, xo'jayin, belo'rog'ingni ol-u shoshil – na ekish, na yig'ib terish pichan o'rish kabi ob-havoga bog'liq emas. Tasodifan yoqqan yomg'irlar o'rilgan o'tni bus-butkul chiritib yuborishi mumkin, bu – chorva mollari uchun qishning och kelishi, bu – nimjon buzoqlar, bu – oriq otlar, bu – o'z vaqtida ekmaslik degani.

Chapayev nomli kolxoz tumanda birinchi bo'lib o'tzorni o'rib, xashakni supurib oldi va bu bilan chapayevliklar qandaydir o'ziga xos ish qilishmadi – ularning o'tzori nisbatan kichkina edi.

Hozir Trubetskoy o'rmonga, Bilina daryosiga borishga hozirlanayotgan edi. Bu Bilina qishloq kengashi dalalariga va keng o'tloqlariga chiquvchi, ikki qirg'og'i tog'terak bilan qoplangan obod qilingan Bilina emas, balki qalin o'rmon ichidagi, yovvoyi daryo yuqorisidagi Bilina edi. Bu pichanzorlar kolxozga tegishli emasdi, ular davlat o'rmonlarining ichkarisida yotardi, davlat yeri hisoblanardi, hech kim Trubetskoyga u yerda o'rishga ruxsat bermagan yoki taqiqlamagan edi. U yerga olib boruvchi yo'l yo'q edi, botqoqlik va changalzorlar orqali so'qmoq o'tgandi – faqat piyoda o'ta olishi mumkin edi. U yerda pichanzorlar boy, o't belgacha emas, tomoqqacha o'sgan – qancha xohlasang, shuncha o'raver. O'nta o'ruvchi bu joylarga qiynalmay o'tadi, undan-da oson o'radi va supuradi, biroq pichanni qanday qilib olib chiqib ketadi? Faqat qishda Trubets-

koy uni sudrab yetkaza olardi va bu tumandagi eng yaxshi otlarga ega bo'lgan Chapayev kolxozining ham qo'lidan kelardi. Shunda ham ko'pincha qor juda ko'p yoqqan yoki aksincha, iliq kelgan qishda Bilinada qo'yilgan «kurtak»larga yetib olishning imkoniyati yo'q edi, pichan chirib ketardi. Shunda Trubetskoy sochini yulib, o'zini la'natlab, keyingi yozda Bilinaga birorta ham odamni jo'natmaslikka va'da berardi, biroq yoz kelar, rejali, xo'jayincha qizg'anchiqlik ustun kelar va Trubetskoy «Bilinada belo'roqlar bilan chigal yozish» uchun ko'ngillilar brigadasini to'plardi.

Biroq bu yili Trubetskoy Bilinaga nafaqat o'zining, balki lobovishelik o'ruvchilarni ham olib ketdi. Razinliklar chapayevliklarning odatlariga o'rgansin.

Trubetskoy va Spevkin boshchiligidagi odamlar Chapayevkadan tunda chiqishdi va o'riladigan yerlarga choshgohda yetib kelishdi. Arang ko'rinuvchi so'qmoq orqali, changalzor oralab otlarni jilovlab zo'rg'a o'tishdi.

Qachonlardir bu yerlarda, ikki tomondan do'nglik bilan siqilgan joyda botqoqlik bo'lgan, vaqt o'tib u qurib qolgan, baland o'tlar, qayin va olxa bilan qoplangan. O'tmishdagi balchiqzor haqida xotira sifatida ushbu yovvoyi, odamzod qo'li bilan obod qilinmagan o'tzorlar orasida Bilina daryosi qolgan. Hozir, yozning issiq davrida uni daryo deb atash ham noto'g'ri, u ko'proq chuqur, qora suv bilan to'ldirilgan jarliklar zanjiri. Yiliga bir marta, bahorgi qor erishi vaqtida va vaqti-vaqti bilan yozgi jalada Bilina daryosining yuqorisida tup va yaylovlarni suv bosadi, orqasida qari qarag'aylarning sug'urib olingan tanalarini tashiydi.

Spevkin bu joylarda birinchi marta bo'lishi edi, u hayron bo'lib atrofga nazar soldi.

Ikki tomondan qarag'ay bilan qoplangan do'ngliklar ko'tarilgan. Har biri to'rt, beshta bir-biriga ulangan telegraf simyog'ochlaricha keluvchi qarag'aylarning uchida ignabarglarning tutamlari ko'rinib turibdi.

– Eh, manavi joylarni! – nafasini rostladi Spevkin. – Bunday xilvatda bo'g'ilib ketasan.

– Betakror joy, – javob berdi Trubetskoy.

U bo‘yi teng o‘tlarning oldida turib, hidi ko‘ngilga tegadigan gullarning uchini qo‘liga yig‘ardi. Maysalarning poyasi mustahkam bo‘lib, ostidan, tomiridan nam, chirigan hid taratardi.

– Dmitriy, bu joylarga anchadan beri ko‘zim tushgan... Maysani ko‘ryapsanmi? Uni o‘roq bilan emas, bolta bilan chopish kerak! Yerning kuchi qandayligini bir tasavvur qil! Bu yerda torf qatlami Xudo biladi necha metr qalinlikda yotibdi. Shu joyni o‘zlashtirsangda. Mol hovli, buzoqxona, odamlar uchun uylar qursang. Bu yerga madaniyat olib kelsang. Qancha xohlasang, shuncha yem bor, yoningda suv, poda boq. Sutli daryolar oqa boshlaydi! Millionlarning hidi kelyapti!

Spevkinning burun kovagi qaltirab ketdi, biroq u asta e’tiroz bildirdi:

– Yer davlatniki-ku.

– Davlat men bilan sendan aqlli. Bu yerdan qancha go‘sht, qancha moy berishimiz mumkin. Berishadi! Bir narsani – o‘rmonlarni bezovta qilmaslikni tayinlashadi.

– Unday bo‘lsa... Kel birga qilamiz – sizlarning kolxozingiz, bizning kolxozimiz va «Ahil ekinlar». Bu yerga jamoa xo‘jaligi kuchini yubor!

Trubetskoy jilmayib qo‘ydi.

– Bolasan-da... Bunday xilvatga bas kelish uchun ikki martalab birlashish kerak. Bu yerga yo‘l o‘tkazishning o‘ziga qancha kuch ketadi!

Kolxozchilar baland joyga chayla qurishdi, o‘tin tashishdi. Gulxan yondi. Bir nechta odam baliq tutish uchun bormoqchi edi, Trubetskoy ularni yo‘ldan qaytardi:

– Kurortga kelmadingiz. Tushlik tayyorlang... Biroz dam olib, o‘roqlarni ishga tushiramiz.

Maysa butazorga o‘xshab qattiq edi, o‘roqlar tezda o‘tmaslashib qolardi, tez-tez to‘xtab, qayroqtoshda charhlashga to‘g‘ri kelardi. Spevkin oldindagi chakalakzorga yorib borar, Trubetskoy uning orqasidan arang ulgurardi. U terlab ketar, og‘ir nafas olar, o‘roqni charxlashga kirishib, zorlanardi:

– Eh, yoshlik ham o‘tib ketdi! Ortingdan quvib yetolmayapman, Dmitriy. Sen bunchalik tez chopma, qariyaga rahm qil.

Kechqurun, bosh uzra bulutdek osilib turgan chivinlarni haydab, gulxan yonida kechki ovqatga o'tirishdi. Chapayevlik yigitlardan biri podadan qochgan otlardan birini izlab choptirib keldi, gulxan qarshisiga o'tirdi va ma'lum qildi:

– Mehmonlarni ko'rdim, xo'jayinning o'zi ular bilan.

– Axiyri kelibdi-da. Pichan o'rimini o'z vaqtida tugatgan ko'rinadi.

– Shunda ham ob-havo yaxshi kelgani uchun.

– Ular qanday mehmonlar bo'ldi ekan? – so'radi Spevkin.

– Bilinadan, – javob berdi Trubetskoy qoshig'ini bo'tqaga botirib. – Voznitsin o'zining kolxozi bilan. Ba'zi-ba'zida bu yoqlarga kelib turadi, lekin har yili emas. Shuning uchun ham ularni mehmonlar deymiz.

Kechki ovqatni tanovul qilishdi, uxlash uchun tayyorgarlik ko'ra boshlashdi. Kunduzi Trubetskoy to'xtatgan baliqchilar baribir «cho'rtanbaliqlarni chelaklab tutsa bo'ladigan» soyga ketishdi.

Trubetskoy turib, Spevkinga murojaat qilishdi:

– Dmitriy, tadorigingni ko'r.

– Qayoqqa?

– Voznitsinning oldiga mehmonga.

– Tun bo'ldi-ku.

– Hechqisi yo'q, tunda ham adashib qolmaymiz. Ish bor. Kunduz kuni bizning ham, ularning ham vaqti yo'q.

Otlar qalin maysani ko'kraklari bilan yorib borardi. Spevkin o'girildi va uh tortdi:

– Eh, shuncha boylik bekorga yo'q bo'lib ketyapti! Har yili maysa o'roq mashinasining ta'mini ham tatib ko'rmay bekordan bekorga chirib ketadi.

Trubetskoy indamas, peshanasini burishtirar, chivinlarni ham hafsalasiz haydardi – u nimanidir o'ylayotgani ko'rinib turgandi.

Tunda ular Voznitsinning lageriga yetib borishdi.

Nihoyat Trubetskoy uxlayotganlar orasidan Voznitsinni topdi.

Olov gur etib yondi, Voznitsinning qishki quloqchinli shapkali semiz yuzini yoritdi. Gulxan yondi va ularni butun dunyodan ajratdi. O'rmon g'oyib bo'ldi – hammasini olov atrofida quyuqlashgan qorong'ilik yashirdi. To'rtovlon qolishdi – quvnoq gulxan va uchta rais.

– Demak, Makar, – gapni boshladi Trubetskoy, gulxanning yoniga qulay yonboshlab, – darrov maqsadga o'taman. Ayt: bu joylar senga yoqadimi?

– Chiroyli joylar, so'rab o'tirasanmi? Ko'rmoq bor-u, yemoq yo'q.

– Men ham shuni aytaman-da. Hozir sizda beshta kolxozdan iborat oila bor, bizda ham shunday. Sizlar bu joylarga bir tomondan yaqin yashaysiz, biz – boshqa tomondan. Kel, ulushni qanday qilib bo'lishishni o'ylaymiz. Ulush qalin, biroq qattiq, bir o'zing yeyolmaysan.

– Bo'sh, Aleksey.

– Yo'q, bo'sh emas. Bizga ikkita oilaga mashina-traktor stansiyasi nechta traktorni ajratishini bilasanmi? Traktorlar bilan esa biz ikkovlon yo'l ocha olmaymizmi? Ocha olamiz! Yo'l – bu hamma narsa. Shunda bu yerga mashinalarni olib kelamiz, o'roqlarni yo'qotamiz. Yog'-moy zavodini ikkalamizga bitta qilsak bo'ladi.

Ehtimol, tungi sokinlik Trubetskoyni sekin va samimiyat bilan gapirishga majbur qilgandir. Spevkin jim o'tirib tinglardi: «Agar bunday ikkita kit – Trubetskoy va Voznitsin Bilinaga kirishsa, undan sutli daryolar oqadi, albatta oqadi!» – o'yladi u.

– Millionlar, Makar, millionlar!.. – takrorladi Trubetskoy.

Voznitsin indamasdi. U gulxan ichiga maftun bo'lib qarardi. Bunday daqiqalarda odamni tushunish qiyin: ulkan narsalar haqida o'ylayaptimi yoki hech narsa haqida bosh qotirmay, shunchaki fikrlardan dam olyaptimi?

– Batafsil fikrlashib olamiz, nima kerak bo'lsa, hisoblaymiz va erishini boshlaymiz. Tuman qo'mitasiga, tuman ijroqo'miga, viloyat qo'mitasigacha boramiz – hammani oyoqqa turg'izamiz. Yordam berishadi! Ish har holda ulkan. Nega jimsan?

Voznitsin ko'zini gulxandan qiyinchilik bilan uzdi.

– Birlashish... eshitdim, eshitdim, aytishyapti... Sen unga umid bog'layapsanmi? Bunday birlashishdan katta quvonch keladimi? Razinliklar bilan birlashishdan ma'no bor – boy-badaviat kolxozlar qatoriga kiradi. «Ahil ekinlar» bo'lsa... Eh, Aleksey, ular bilan adabingni yeysan. Mana, oldimga «Tong» kiradi, u yerda esa hamon rais ertalab yugurib, derazalarni taqillatadi: «Hoy, yigitlar, ishga chi-

qinglar!» Bunday «Tong» bizning boyligimizga qo'shilib olishi aniq. Bizga esa bundan qanday naf? Biz, oshna, bunday birlashishdan orqaga ketishimiz muqarrar.

Sovuq xayrlashishdi. Ortga indamay qaytishdi. Atrofda shunday sokinlik turardiki, qo'rqib ketasan. Bu Lobovishe qishlog'i yonidagi uxlayotgan dalalarning sukunati emasdi. U yoqda – jonli jimjitlik, bu yerda – o'lik sokinlik.

Gohida, balanddan shamol uchib o'tar va havo mayin g'ovurg'uvurga to'lardi. Bu minglab uyg'otilgan qarag'aylar norozi ohangda guvillashi edi.

– Hammasini qo'lga olaman! – Trubetskoy mushtini shunday silkitdiki, ot kishnab yubordi. – Makar esa – munosib rais emas! Munosib emas! Mayda kolxozdan yirigiga chiqyapti, fikrlash doirasi esa o'sha-o'sha, tor! Yiriklashganda uni tanlashsa xato qilgan bo'lishadi.

– Ularning munosib raislari bor-ku, – dedi Spevkin.

– Kim?

– Panikratov?

– Hm... Ehtimol. U Makarday emas, u qo'rqib ketmasdi. Tuman qo'mitasiga borib, aytaman: Voznitsin suyuqroq, Panikratov bilan esa biz katta ishlarga qo'l urgan bo'lardik...

– Senga, Semyonovich, raislarni taklif qilish sening ishing emas, joyida, umumiy yig'ilishda hal qilamiz, deyishmasmikin?

– Qanday qilib mening ishim bo'lmas ekan? Mamlakatimizda qilinayotgan har bir ish – mening ishim! Aytaman ham! Eh, Makar, Makar, shunday rejadan qochding-a! Bu ish millionlar olib kelishi mumkin-ku.

Ularning ko'z o'ngidan boyqush lip etib uchib o'tib ketdi va g'oyib bo'ldi. Yana oraga jimjitlik cho'kdi, faqat furajkalarning ostida chivinlar jiringlar va otlar maysani yorib o'tardi.

21

Har kuni Rodnev tonggi oltida uyg'onib, tuman qo'mitasiga borardi. U yerda qorong'i yo'laklarda odatdan tashqari jimjit, bo'sh, hech kim yo'q. Rodnev o'z kabinetidagi o'rindig'iga joylashib olib,

tuman qo'mitasi kotibidan sirtdan o'quvchi talabaga aylanardi. O'tgan qishda birorta ham imtihon topshirishning uddasidan chiqilmadi. Vaqt yo'q! Ish yangi, tuman ilg'orlardan hisoblanmaydi, buning ustiga Rodnevga yaxshi tanish emas – o'qishga vaqt qayoqda, bir daqiqa bo'sh vaqt yo'q! Hozir ham shunday. Kunduzi darsliklarga qarashga imkon topa olmaydi – tashrif buyuruvchilar bo'lmasa, telefon qo'ng'iroqlari bezovta qiladi. Kechqurunlari, tun oqqanda qandaydir majlis bo'lmasa, kimdir, albatta, birrov kirib o'tadi. «Bir daqiqaga, Vasiliy Matveyevich, bir savol bilan murojaat qilishga ruxsat eting».

Bir daqiqa qayerda deysiz, o'tirib olib, chekishni, gap sotishni boshlashadi – bu mahal qishloqda ikkinchi xo'rozlar qichqirayotgan bo'ladi.

...Eshikning orqasida qo'shni xonada farrosh chelagini taqillata boshladi. Bu darsliklarni yopib nonushta qilishga borish vaqti kelganini bildirardi. Biroq shu vaqt kimningdir qadamlari eshitildi.

– Xonangdamisan, Matveyich?

Trubetskoy kirib keldi.

– Ko'rib turganingdek. Namuncha tunni tongga ulab kelmasang?

– Yuzma-yuz gaplashib olmoqchiman. Ish paytida bezovta qilishganini yoqtirmasligingni bilsam-da, ataylab ertaroq keldim. Kunduz kuni bir o'zingni tutib bo'lmasa. Makar Voznitsin haqida gaplashib olmoqchiman.

– Seni xafa qildimi?

– Meni emas.

Trubetskoy o'tirdi va Voznitsindan shikoyat qilish o'rniga Rodnevga qanday qilib bir necha yillardan buyon Bilina daryosining yuqorisiga ko'z olaytirayotgani, u yerdagi maysa qandayligi, yerining boyligi, u yoqlarda qanday podalarni boqish mumkinligi haqida so'zlay ketdi.

– Millionlar, Vasiliy Matveyevich, dumalab yotibdi!

– Xo'sh, unda Voznitsinning bunga nima aloqasi bor?

– Aloqasi bor! Bilinada yiriklashtirilgan kolxozning raisi qilib kimni tanlashmoqchi?

– Uni mo'ljallashyapti.

– Mo'ljallashyapti... O'sha «mo'ljaldagi» yiriklashtirishdan qo'rqadi. Uchrashdik, gaplashdik, u menga shunday dedi: bizni

yomon kolxozlar bilan yiriklashtirmoqchi bo'layotganlarida millionlarga yo'l bo'lsin. Bu bizni besh, olti yil orqaga tashlab yuborarmish! Eshityapsanmi, Matveyich: Makar oldinga emas, orqaga qarayapti. Yo'q, u keng ko'lam bilan fikrlay olmaydi, ha, fikrlay olmaydi!

– Unda kimni rais qilib qo'yish kerak?

– O'zingni bilmaslikka olasan. Panikratovni!

– Panikratov rais bo'la olmaydi.

– Nega?

Rodnev indamasdi va uning bunday jim turishidan Trubetskoy u nima demoqchiligini tushundi.

– Xo'sh, xo'sh, xo'sh, – boshini chayqadi u. – Afsus... Biz Fyodor Alekseyevich bilan har doim ham ahil yashamaganmiz, bu yerda esa qo'shnilarcha kelishib olsa bo'ladi-ku. Afsus...

Rodnev hamon lom-mim demasdi.

– Demak, Voznitsin rais bo'ladi?

– Ha.

– Nima uchun? Agar u bunday fikr yuritsa, foyda bo'lmaydi.

– Nima ham qilardik. Sen Spevkinga o'rgatgansan, endi Voznitsinga o'rgatasan.

– Nima, yiriklashgan kolxozni ham o'rgatamanmi?

– Sen nima deb o'ylaganding? Yirik kolxozlar davri kelyapti. Yangi davr. Ishni ham yangicha yo'lga qo'yishga to'g'ri keladi, qiyinroq bo'ladi.

Trubetskoy jim bo'lib chiqib ketdi. Rodnev stoldan darsliklarni yig'ishtirishga tushdi. Va birdan oynalar zirillab ketdi. Rodnev derazani ochdi. Shumurt bog'lari bo'ylab, katta rezina g'ildiraklar bilan chang ko'tarib bu yerda hali uchramagan qizil rangga bo'yalgan mashinalar kelardi. Har bir mashinaning oldida qurol kabi kuragi bor edi.

Kuzovki ko'chasida stansiyadan o'ziyurar kombaynlar kelardi.

Rodnev derazadan Trubetskoyni payqadi. U sakrab-sakrab, bosh kombaynning yonida shoshilib qadam tashlardi. Uning yuzi tashvishli, jiddiy edi. Rodnev Trubetskoy nima haqida o'ylayotganini bilardi: u kolxozining dalalari tor, bir-biridan uzoq joylashgan, bunday mashinalar uchun mayda ekanligi haqida fikr yuritardi.

22

Yangi mashinalar kelishdi – tuman uchun yangi hodisa, tuman qo'mitasi uchun yangi ish. Byuro'majlisi, faollar yig'ilishi, qarorlar, muvofiqlashtirishlar, bog'lashlar, uzluksiz telefon qo'ng'iroqlari. Kadrlarni to'ldirishdi, mexanizatorlar brigadasini kolxozlarga biriktirishdi, musobaqa belgilashdi... Kulib, har bir kombaynning o'rnini nechta odam bosishi mumkinligini hisoblashdi – tumanga kuch keldi; raqamlardan kelib chiqilsa Kuzovki tumani bir-ikki yilda yerdagi jannatga aylanishi kerak edi!..

Va mana, bo'ynini egib, og'zidagi ko'pigini chang yo'lga to'kib, to'rt g'ildirakli aravaga qo'shilgan ayg'ir ot tuman qo'mitasi pillapoyasining yoniga kelib to'xtadi. Trubetskoy qo'ltig'ining ostidagi bog'i bilan zinapoyalardan sakrab chiqib, Rodnevning xonasiga kirdi.

– Birinchi bog'! Marhamat qilsinlar!

Yig'im-terim mavsumi boshlandi.

Bu voqeadan uch kun o'tib Panikratov dalalarni aylanib yurardi.

Ang'iz quyoshda tovlanar, dalada u yer-bu yerda poxol g'arami yoyilib tashlangandi. Dala keng emas, uni qarag'aylar zich halqa qilib o'rab olgan. Hovuzning yonidagi ikkita jilg'a kabi, dalaning bir tomonidan qarag'aylar orasidan chambarak bo'lib tor yo'l kirgan, boshqa tomonidan esa xuddi shunday tor, ilonizi yo'l chiqqan

Shu yo'l orqali kombayn kirib, aylandi, shamolda egilgan g'allalar ostida poxol uyumini qoldirdi va boshqa dalaga o'tib ketdi.

Panikratov kombaynning og'ir nishabi qoldirgan izdan yurardi. U dalalar o'rtasidagi yarim yo'lda to'xtadi.

Qarag'ayzor qishloqning yonginasida joylashgan bo'lsa ham, har doim ovloq va yovvoyi tuyuladi. Poyalar bir zaylda quruqlashgan; yer birorta maysasiz, butaning birorta yosh novdasisiz, so'talar bilan qoplangan. Yuqorida quyoshni yopib, ignabarg yengil shabadada guvillayapti. Bunday o'rmon orasida ayiqni, bug'uni emas, fara chiroqlarini chaqnatayotgan, yorqin qizil rangga bo'yalgan, brezent soyabon ostidagi ko'prikchali, ulkan rezina g'ildirakli bahaybat qurilmani uchratish g'alati tuyuladi. Kombayn bir yonga cho'kib qolib yo'lning o'rtasida turardi. Uning atrofida odamlar ko'rinmasdi.

Eng yaqin qarag'ayda, o'rmonning ichkarisida g'aroyib maxluqning turganidan aslo xijolat tortmay, olachipor qizilishton ishlardi. U tikuv mashinasi kabi daraxt tanasini tezlik bilan taqillatar, mashg'ulotidan to'xtab, yaqinlashib kelayotgan Panikratovga jiddiy ko'z olaytirar va yana ishga kirishar, sokin o'rmon bo'ylab ketmaket taqir-tuqur taralardi.

«Eh, mahkam tiqilib qoldi shekilli». Panikratov yaqinlashdi.

Sovuqda, yo'l yoqasida, yumshoq ignabargning ustida, boshining ostiga kastumini qo'yib bir yigit uxlardi. Panikratov uni yelkasidan qoqdi.

– Anchadan beri turibsizlarmi?

– Nima?.. – Yigit boshini ko'tarib, qo'lining tashqi tomoni bilan labidagi so'lakni artdi. Uning chalkash-chulkash sochlaridan ignabarglar dikkayib chiqib turardi.

– Anchadan beri shunday tiqilib turibsizlarmi, deb so'rayapman?

– Ha-a... Kecha kechqurun kirib qoldik. Yigitlar traktorni chaqirishga ketishdi. O'zimiz endi chiqolmaymiz.

– Bir kundan beri turibsizlarmi? Durustmas.

Yigit batamom o'ziga keldi, turdi, kastumidan yopishib qolgan ignabarglarni qoqib tashladi.

– Qochib ketaman! Majolim qolmadi! Bunday ishni jin ursin! – gapira boshladi u.

– Kimni jin ursin?

– Hech kimni. Hammasi bezor qildi! Daladan kelayotganga o'xshaysiz, ko'ryapsizmi: bu dalaning u burchagidan bu burchagiga yurayotganingizda chekishga ham ulgurmaysiz. Biz bu dalada bor-yo'g'i uch soat ishladik, bir kun o'tirdik, ehtimol yana ikki kun o'tirishga to'g'ri kelar. Oqibatda uch soat ishlaysan va uch kun u daladan bu dalaga o'tasan. Kombayn – dasht kemasi! Bunday kemada bizning yo'lda suzolmaysan. Qilgan ishing uni qazib chiqarish, tashish, kuzatish... Qiynalyapmiz, adoyi tamom bo'lyapmiz, qarabsizki, qishga borib bitta ishtonga yetadigan pul ham ishlab topolmaysan... Qochib ketaman!

– Qayoqqa qochmoqchisan?

– Janubga. Kombaynchilar hamma yoqda kerak.

– Joylar obod qilinmaganmi?.. Bu yerda kim ham obod qilsin? Qo'shnimi? Ahmoqlik qilma. Yigitlaring traktorni chaqirish uchun ketganiga ancha bo'ldimi?

– Darhol ketishdi... Va mana ulardan dom-darak yo'q. Ularni ayblab ham bo'lmaydi. Bunday vaqtda traktorni chaqirib kelish qiyin.

Shamoldan qarag'aylarning uchi shovqinlanardi. Ularning suhbatidan cho'chigan qizilishton boshqa tomonda taqillatardi. Panikratov mashinani aylanib chiqdi. Ulkan, og'ir kombaynning oldingi g'ildiraklari chuqur o'yiqqa tiqilib qolgandi – sokin, uyqusiragan o'rmon asiri! Axir Kuzovkida yashovchi insonlarning baxti, umidi unda, mana shunday bahaybat mashinalarda!

Panikratov o'zi traktorni olib kelish uchun ketdi.

U faollarning barcha majlislarida qatnashgan, hamma bilan qancha mexanizm kelganini, ular nechta odamning o'rnini bosishini hisob-kitob qilgan edi. U, boshqalar kabi xursand bo'lgandi – kuch keldi deb, yerni ostin-ustun qilamiz deb!

Biroq hammasi u o'ylaganchalik oson emas ekan. Qog'ozda chizilgan jadvallardan hayotgacha katta yo'l bor. Bu yerda ham ter, ham qo'lning qonli qadoqlari kerak.

Shuncha mashinalar kelmaguncha o'rmonlarda unda-bunda sochilgan dalalar juda ham mayda ekanligi, ular o'rtasidagi yo'llar tor va dabdala, murakkab kombayn shotisida ot bo'lgan ota-bobo meros g'ildiraksiz sudratma arava emasligi haqida hech kim bosh qotirmagan.

Panikratov bir o'zi o'rmon bo'ylab qadamlab, hayot o'tib ketayotganini, u bilan qiyinchiliklar ham kelayotganini o'ylardi. Xursand bo'lishga hali erta, yerdagi jannatga ancha bor!..

23

Ularni kutilmaganda viloyat qo'mitasiga chaqirishdi. Panikratov bu chaqiruv tasodifiy emasligini sezdi – ehtimol uning hayoti yana keskin o'zgarar.

Kuzovkidan tuman qo'mitasi mashinasida chiqib ketdi.

Hattoki stansiyaga, poyezdga tuman qo'mitasi kotibi hech qachon to'g'ri bormaydi, yo'lda bir kolxozga kirib o'tish, qo'shnilarning da-

lalariga burilish, uchinchi kolxozdagi kerakli insonni topish lozim. Shu sababli, poyezd kechqurun yo'lga chiqishiga qaramay «zaxira» bilan, ertalabdan otlanishdi.

Ignat Naumov mashinani salga ag'naydigan qishloq yo'lidan ehtiyotkorlik bilan boshqarib borardi. Yo'ldan qiyalab daryoga siyrak yosh qayinlar batartib tushardi, ammo narigi tarafdan daryoni baland o'rmon o'rab olgandi. Ichkarida, daryoning ortida – o'rmon, o'rmon va yana o'rmon. U yaqindan qaraganda qoramtir, uzoqdan qaraganda esa ko'kish rangda. Ignabargli okean! U qayerdan boshlanib, qayerda tugaydi? Agar Lobovishe qishlog'idan so'rasangiz, o'ylab o'tirmay: «Shu yerning o'zida, daryoning ortidan boshlanadi», deya javob berishadi. Chapayevkada esa: «Qarg'a noni»dagi dalalar orqasida», deyishlari tayin. Bilinada, Danila Osichyesida Tik tepalikni ko'rsatishadi: uning orqasida katta o'rmon bor. Hamma o'rmon ularning qishlog'idan boshlanadi, deb hisoblashga o'rganib qolgan, biroq oxiri qayerda – faqat taxmin qilishadi. Bir tomonga u Arxangelskkacha, boshqa tomonga – Ural orqali, butun boshli Sibir orqali – Vladivostokkacha cho'zilgan, u yerda ignabargli o'rmon Tinch okean bilan uchrashadi. O'rmon butun mamlakat bo'ylab cho'zilgan, dunyoda boshqa bunday o'rmon yo'q!.. Uni temir yo'llar kesib o'tadi, unda shaharlar qurilgan, ko'mir konlarining kopyorlari[1], neft minoralari, domna pechlari ko'tarilgan. O'rmon okeani yovvoyi emas, u inson tomonidan obod qilingan! Va unda – kichkina, ko'zga tashlanmaydigan Kuzovki tumani, bepoyon davlatning mitti zarrasi bor.

Ignat mashinani tepalikdan asta tushirdi. Yashil javdari bug'doy o'rtasidan Lobovishening olisdan ko'rinayotgan tomlari tomon ketishdi. Birdan Ignat koyindi:

– Eh, qoq yo'l o'rtasida yalpayib yotib olibdi! – U to'xtadi.

Ot kattakon, hali ishlov berilmagan qing'ir-qiyshiq yog'ochni imillab tortardi. Aylanib o'tishning iloji yo'q edi, to'xtashga to'g'ri keldi.

– Bu Nespanov! – tanidi Rodnev. – U nimani tortyapti? Hoy, Fedot! Qayoqqa olib ketyapsan?

---

[1] *Kopyor* – konlar ustidagi ko'tarish qurilmasi.

Fedot otni «chu-chu»lab haydashni to‘xtatdi, mashinaga yaqinlashdi, martabasiga qarab qo‘lini uzatdi – dastlab Rodnevga, keyin Panikratovga, o‘ylab turdi va norozi haydovchiga ham qo‘l cho‘zdi.

– Qayoqqa deb so‘rayapsanmi? Hech qayoqqa. Kerak bo‘lsa sizlarga ham sovg‘a qilib yuborishim mumkin. Ortiqcha narsa. O‘tinga ishlatsam kerak. Bizning va chapayevliklarning yeri o‘rtasida qoraqarag‘ay turardi, esingdami? O‘sha vaqtlarda u hech kimga xalaqit bermasdi, bizda ham uzoqroqda, ularda ham chetroqda. Endi esa Spevkin: «Uni chop, Fedot, birlashsak, yerning o‘rtasida bo‘lib qolsa, xalaqit beradi», deydi. Shuning uchun olib tashlayapman.

– Sen tezroq olib tashlasang bo‘lardi, yo‘lni to‘sib qo‘yding, – po‘ng‘illadi Ignat.

– Ko‘z ochib yumguncha. Papiros bilan mehmon qilmaysizmi, o‘rtoqlar? U bilan ovora bo‘lgunimcha tamakimni tugatib qo‘ydim.

Rodnev jilmayib dedi:

– Bir yil oldin uchalamiz – Gruzdev, Spevkin va men – mana shu qoraqarag‘ayning ostida chapayevliklarnikiga malaka oshirish uchun yo‘l olishga qaror qildik. Bor-yo‘g‘i bir yil, lekin o‘n yil o‘tgandek tuyuladi. Bir yil ichida nimalar bo‘lganini eslay olmaysan ham. Bizning ayiqnikiga o‘xshagan burchagimizda hayot haddan tashqari tez o‘tadi...

Panikratov uzoq jim turdi. U ovloq qishloq yo‘lida tiqilib qolgan kombaynni, mayda dalalarni – o‘rmonlar orasidagi g‘alla maydonchalarini esladi. Kuzovki atrofida ular yana qanchadan qancha!.. Kolxozlar-ku yiriklashyapti, dalalar esa avvalgidek, mashinalar uchun noqulay holatda qolib ketyapti. O‘rmonlarni kundakov qilish, bo‘z yerlarni qaytadan haydash kerak... Hali ko‘p kurashishga to‘g‘ri keladi. Uni viloyat qo‘mitasi endi qayoqqa, qaysi ishga tashlar ekan? U shu yerda qolishni juda xohlardi.

– Ha, otashin, qizg‘in hayot kechiryapmiz, – nihoyat qo‘shildi u.

Mashina aravani quvib o‘tdi va kombayn tig‘ini kutib turgan, og‘ir egilgan javdari bug‘doy dalasi o‘rtasidan g‘izillab ketdi.

YECHILMAS TUGUN

Roman

BIRINCHI QISM

1

Iyunning dim tunlarining birida Komelev Stashinsk qishloq kengashidan chiqib keldi. U yerda Komelev faollar yig'ilishini o'tkazgan edi. U mashinaga o'tirdi, boshini egib, pinakka ketdi...

Shora daryosi ko'prigiga yetmasdan burilishda haydovchi, Stepan Petrovichning butun gavdasi bilan unga suyanib qolganini sezib, ko'prik ustida mashinani to'xtatdi va qo'rqqancha Komelevni yelkasidan turtib, past ovozda chaqirdi. Komelev javob bermadi...

Shifokorlar uning yurak xurujiga uchraganini qayd qilishdi.

Tuman qo'mitasi kotibi Komelevni ikki kundan keyin ko'mishdi.

Baland bo'lmagan qarag'ay daraxtlari orasida fanerdan yasalgan, bo'yog'i o'chgan yulduzchali yodgorliklar ko'rinadi. Odamlar kelmasdan avval bu qishloq qabristonida faqat qizilishton xo'jayinlik qilib, quyosh nurida qizigan yertutning hidi taralardi.

Korshunovo tumanida orkestr yo'q edi – odamlar nam tuproq hidi kelayotgan qabr atrofiga ovoz chiqarmay yig'ilishdi. Qizilishton bekindi va jimib qoldi. Yertutning o'tkir hidi o'z-o'zidan tarqalib ketdi.

Boshqalar qatori tobutni ko'tarib kelayotgan «Mehnatkash» kolxozining raisi Ignat Gmizin yelkasidan sochiqni sekin tushirib, g'ijimlangan kepkasi bilan peshanasini, sochi olingan boshini artdi.

Tobut qabr yoniga cho'kdi. Semiz, keng peshanasi sarg'aygan, ko'kragigacha yopib qo'yilgan, hayotligida kiyib yuradigan qora gimnastyorkasi kiydirilgan Komelev tobutda yotardi.

Nam tuproqni bosgancha ikkinchi kotib Bayev tepalikka ko'tarildi. Uning yuzi toliqqan, issiqdan betini ter bosgan, soqolmo'ylovi olinmagan edi.

Ignat Gmizin chetga o‘tib, yig‘ilganlarga ko‘z yugurtira boshladi. Ignat vafot etgan Komelev bilan ham, yig‘ilganlar bilan ham ko‘p yil birga ishlagan edi.

Tobut boshida Ignatning qaynag‘asi, keng yelkali, hamisha oliftalarga xos kiyinib yuradigan, polotno kurtkasi dazmollangan, yengil etigining yuzini biroz chang bosgan tuman qo‘mitasining targ‘ibot va tashviqot bo‘limi boshlig‘i Pavel Mansurov turardi. U jingalak boshini quyi solib, kelishgan qaddida dabdabani saqlardi.

Uning orqasida sarg‘ish sochi tipratikannikiday tuman qo‘mitasi yo‘riqchisi Serafim Surepkin quyoshda bukchayib turardi. Uning bukilib turishi, chehrasidagi ma’yus charchaganlik, hatto ko‘zga tashlanib turgan shalpang quloqlari ham musibatdan dalolat berib turardi. Biroq Ignat Serafim Surepkinning so‘zlamoqchi bo‘lib, o‘zini taraddudlayotganini sezardi. Birorta namoyish, birorta majlis usiz o‘tmasdi. Marhum Komelev uni: «Serafim notiq» deb atardi.

Chollarga xos uzun, jiddiy kastum kiygan, xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi Arkadiy Maksimovich Zelensov hazin sukut saqlab, yerga qarab turardi. U hozir nima haqida o‘ylayapti? Ehtimol chol bo‘lib qolgani, navbati kelib u ham ana shunday osmonga qarab yotishi, g‘amgin nutqlarni sovuqqonlik bilan eshitishini o‘ylayotgandir, balki koinot miqyosida inson hayoti qanchalik qisqaligi haqida falsafiy fikrlayotgandir.

Shu yerda, bo‘yi choldan bir qarich baland chiroyli nabirasi Katya Zelensova ham turibdi. Qizning sochlari tekis taralgan, qoshlari qalin, boshi quyi egilgan, yuzi esa jiddiy – u o‘limni bu qadar yaqindan ko‘rmagan, o‘lim uni qo‘rqitardi.

Tobutning oyoq tomonida – vafot etganning oilasi.

Qizlari onasining yubkasidan ushlab olishgan. Olti yoshlardagi kenja qizi otasiga qaramaydi, u atrofga alanglayapti. Yig‘layverib kir bo‘lib ketgan yuzida qayg‘u ko‘rinmaydi, u faqat qo‘rquvni aks ettirgan. Katta qizi esa onasining pinjiga tiqilib olib, o‘zini to‘xtata olmay yig‘lardi.

Komelevning shu yil maktabni tugatadigan katta o‘g‘li esa yig‘lamayapti, u o‘zini ushlab turar, bu bilan onasiga madad berayotgandi. Ammo uning qizargan ko‘zlaridan uyda yig‘lagani, rangi

o‘chgan yuzidan, tishini tishiga qo‘yib arang turishidan hali yig‘lab, ko‘nglini bo‘shatib olmaganini anglash mumkin.

Biroq oq ro‘molini qishloqchasiga o‘rab olgan ona o‘g‘liga tayanib turardi. Uning yuzlari ko‘z yoshlaridan shishib ketgan edi.

Ayol Stepan Komelevga hali u oddiy qishloqi yigit bo‘lgan paytida turmushga chiqqan edi. Stepan o‘sdi, xotini esa eri komandirovkaga po‘stinini olmay ketib qolishidan qo‘rqadigan oldingidek sergap qishloqi ayol bo‘lib qolaverdi. Ayol erining yuksak orzulari bilan yashamadi, biroq uning o‘zi uchun yashadi – u o‘zgacha hayotni orzu qilolmasdi. Ayolning bor ovozicha baqirib, qishloq xotinlariga o‘xshab o‘z dardini so‘zlab yig‘lagisi, ko‘nglini bo‘shatib olgisi kelardi, lekin hamma odob saqlab jimgina turganda bunday qilish mumkinmi.

Ignat adashgandi: Bayevdan keyin qabr oldiga Serafim Surepkin emas, Arkadiy Maksimovich chiqdi-da, odamlarga o‘girildi.

Keksa o‘qituvchi bo‘g‘iq, sekin ovozda, xotirjam gap boshladi:

– Men Stepan Petrovichning bolalarni qanchalik sevishini bilardim. Kimki bolalarni sevsa, odamlardagi kelajakni ham sevadi. Insonlar kelajagini sevish – bu oddiy sevgi emas. U sizlarni sevardi, do‘stlar...

Arkadiy Maksimovichning gapi Ignatni uyg‘otganday bo‘ldi.

«Sevarmidi?.. Chindan ham!» Ignat imillagan, bo‘shashgan odamni esladi. Komelev kolxozga kelganida mashinani yo‘l chetida qoldirib, o‘zi chayqalib, mayda qadam tashlab, dalalarni aylanib yurardi. Hech kim uning yuragi yoki oyog‘i og‘riyapganini eshitmagan. Odamlar uchun – chol haq – ularning kelajagi uchun Komelev o‘zini ayamasdi.

U sevardi!.. – Lekin faqat Komelevning oilasi – xotini, o‘g‘li, qizlarigina bu yo‘qotishni oila musibati deb bilishlari kerakmas-ku axir. G‘oyib bo‘lgan sevgi – baxtsizlik. Va ushbu yo‘qotish uchun eng kamtarona to‘lov – bu ko‘z yoshlari. Ko‘z yoshi esa yo‘q. Hammaning yuzida alam, hamma g‘amgin, biroq dafn marosimida kim ham xushchaqchaq bo‘lardi?

Ignatning o‘zi-chi?.. Uning ham ko‘z yoshlari qolmagan, faqat Arkadiy Maksimovichning so‘zlaridan keyingina, uni vijdon azobi biroz qiynay boshladi.

Komelev ishda o'zini ayamasdi, sog'lig'i haqida o'ylamasdi, shifokorlarga murojaat qilmasdi... Hozir yig'ilganlar Arkadiy Maksimovichni tinglab, qayg'uli sukutlari ila: «Ha, u bizni sevardi...» derdi. Faqat Komelevning bevasigina boshini o'g'lining yelkasiga qo'yib, qattiq yig'lay boshladi.

Tobutni tushirishga tayyorlanishdi.

Tetik tuman harbiy komissari negadir yuzida po'pisa bilan yengining zarhal jiyagini yaltiratib qo'lini ko'tardi-da, keskin tushirib buyurdi:

– Ot!

Armiya, aviatsiya va flotga ko'maklashuvchi ko'ngillilar jamiyatidan kelgan o'n nafar yigit miltiqdan osmonga qarata o'q uzishdi. Qabriston ichkarisidagi daraxtlarga qo'ngan qarg'alar cho'chib uchib ketishdi.

Komelevning xotini qarag'ay g'uddalari to'kilib yotgan yerga bo'shashib o'tirib qoldi va o'zini tutolmay yig'lay boshladi. O'g'li ham chiday olmadi: u onasining tepasida, qabrga qaragancha turar, bo'zargan yuzidan ko'z yoshi duv-duv oqardi.

Hozir bo'lganlar birin-ketin kelib, bir siqimdan tuproq olib qabrga tashlashardi. Ignat bilan birga Pavel Mansurov keldi. Ular tashlagan tuproq tobut qopqog'iga bir vaqtda shap etib tushdi. Xalq astasekin tarqala boshladi, erkaklar furajkalarini kiyishdi.

Yerda yotgan Komelevning bevasini xotinlar o'rab olishdi. Uning ovozi har xil moychechak va o't-o'lanlar bosib ketgan sokin qabrlar uzra yoyildi.

– Styo-push-ka-a! A-zi-zim!

Ro'molini qoshigacha tushirib olgan, qabristonga har doim kelib turadigan, eskilikka berilgan munkillagan kampir Ignatga tikilib:

– Bolam, kimni ko'mishyapti? – deb so'radi.

– Tuman qo'mitasi kotibi Komelevni, – javob berdi Ignat.

– Boshliqlardan shekilli. Miltiq ham otishdi. – Kampir qabrga o'girilib cho'qinib oldi. – Joying jannatda bo'lsin.

U duoni juda diqqati ziq, zarurat yuzasidan o'qigan kabi bir maromda o'qidi.

Marhumlar haqida faqat yaxshi gap gapirishadi yoki umuman gapirishmaydi, lekin ular haqida hamma o'zicha o'ylaydi.

Ignat qabristondan Pavel Mansurov bilan birga kelardi. Ikkalasi ham sukut saqlab borardi.

Komelev xalqni sevardi, tumanda mustahkam kolxozlar ko'p emas, mashina-traktor stansiyasida mutaxassislarni tayyorlay olishmasdi. Buzilgan traktorlar dalalarning yonida yarim yillab qolib ketardi...

Faqat sevish sevgini isbotlashdan qiyin.

2

Ignat har doim o'zining kolxozidan tuman markaziga kelganda Pavel Mansurovning uyidan to'xtar edi.

U tuksiz terlagan boshini yaltiratib, go'yo tushki issiqdan yanada kengayib ketgan yo'g'on yelkalarini qoqib, uy egasining orqasidan kirib kelib, divanga o'tirdi. Uning vaznidan divanning eskirgan prujinalari hasratlanib g'ichirladi.

Xonaga Pavelning xotini, Ignatning singlisi Anna bosh suqib, bilimdonlik bilan: «Qayttingizmi? Ikkingiz hammi?» – dedi-da, oshxonaga chiqib ketdi, u yoqdan idish-tovoqning taqirlashi eshitildi. Tezda primusning kuylagan ovozi taraldi. Tiriklar o'z tirikchiligi bilan mashg'ul bo'la boshlashdi – tushlik vaqti kelib qolgandi.

Pavel esa kurtkasini yechib, xonada u yoqdan bu yoqqa maykada, qo'lini orqasiga qilib yurardi. Otasi avlodida tatar qoni aralashgani bois Pavelning yuzi keng, qoraroq, yonog'i keng, sochlari jingalak, qomati barvasta edi. Ayni daqiqada uning yurishi asabiy bo'lsa-da, qadamlarini mo'ljallab, yumshoq tashlayotganidan tartibsiz turgan stullarga biron marta ham tegib ketmadi – uning qaddi yengil bukchaygan, kichkina kulrang ko'zlari xiralashib, chaqnashini yo'qotgandi.

Ignat terga botgan yumshoq yuzlarini artib, tushunuvchan nazar tashladi: Pavelni yana jin chalipti...

– Nega bezovta bo'lasan? – so'radi u nihoyat. – O'limi ta'sir qildimi? Komelevga achinyapsanmi?

– Komelevga emas, o'zimga achinyapman. – Pavel to'xtab Ignat tomon prujinaga o'xshab o'girildi-da, xonaning u burchagidan qadamba-qadam bosib kelarkan, so'zladi: – Men Komelevning taq-

dirida o‘z taqdirimni ko‘ryapman! U ho‘kizday ishladi, tinmadi. Komandirovkalar, stolda ertalabgacha o‘tirib ishlash, miyani aynituvchi majlislar, hosil, yog‘och mahsulotini o‘z vaqtida yetkazib berish borasidagi doimiy xavotirlar.

– E-he! Ish qo‘rqityapti seni. Bu, og‘ayni, keksalarga xos kasallik. Bu to‘g‘risida o‘ttiz besh yoshda o‘ylash ertalik qiladi.

– Yo‘q, men boshqa narsadan qo‘rqyapman! Har qanday ishga tayyorman, Komelevning ishidan besh karra og‘ir bo‘lsin! Ammo bundan qanday foyda bor, Ignat! Komelevning esa hamma komandirovkalari, majlislari, xavotirlarida qandaydir bema’nilik bor edi. Haddan ortiq urinardi, uni ish yondirib tashladi, xo‘sh, nima uchun? Uning qaysi qilgan ishini eslasa bo‘ladi?.. «Sevardi», «sofdil edi» – dafn marosimidagi odatiy so‘zlar. Bunday so‘zlardan hayotligimda ham, o‘lganimdan so‘ng ham Xudoning o‘zi saqlasin. Har bir odam o‘zidan so‘ng bola-chaqa va qabristondagi bir uyum tuproqdan bo‘lak foydali narsa ham qoldirishi lozim. Gap foyda bo‘lishida, Ignat! Foydada! Xo‘sh, Komelev qanday foydali ish qildi? Uning qaysi ishini eslaymiz? Nahotki men ham oldinda shunday mazmunsiz hayot kutib turgan bo‘lsa? Meni mana nima qo‘rqityapti!

– Sen o‘zingga o‘zing xo‘jayinsan. Hayotingni mazmunsiz qilmaslik sening qo‘lingda!

– Xo‘jayin?.. Eh! Aytish oson! Haddingdan sal oshdingmi, darrov shishani tiqin bilan yopgandek yopib qo‘yishadi. O‘zimga o‘zim xo‘jayin bo‘laman, deb necha marta urinib ko‘rganman, o‘n yetti yoshimdan taqdirimni sinayman, ulkan ishlar qilishni istayman, keng quloch yozay deyman, biroq taqdir men bilan nimalar qilmadi. Ovloq qishloqni tashlab ketdim, yosh bo‘lsam-da, bir yarim yil devonxona stulida chayqalib o‘tirdim, baxtimni topib ketarman, deb o‘yladim. Va mana yangi institut. Oldinda muhandis-geofizik diplomi, ekspeditsiyalar, odam oyog‘i yetmagan joylardagi palatkalar, so‘ngra sokin kabinetda o‘tirib, dissertatsiya yozish... Go‘zal! O‘qidim, ilmga sho‘ng‘idim, vodoprovod suvi bilan non yegan kunlarim ham bo‘ldi. Birdan urush boshlandi! Uchinchi kursdan «Qahramon, jangovar razvedka sari olg‘a!» degan qo‘shiq bilan frontga ketdim. Front orqasida bekinmadim, to‘rt yilda mayorlikkacha ko‘tarildim. Saf bo‘yicha polk komandiri o‘rinbosari edim. Yashirishning hojati yo‘q, general

Mansurov qo'mondonligi ostida bo'lajak janglar menga dunyo inqilobi kabi tuyuldi... Urush tamom bo'lgandan so'ng: «Kadr ofitseri emasmisiz?» deb so'rashdi. – «Yo'q». – «Marhamat, zaxiraga chiqing». Institutni o'qib tugatish uchun yoshim o'tib qoldi, buning ustiga ilmga ham havasim yo'qolgan edi. Mana, tuman qo'mitasida targ'ibot va tashviqot bo'limining mudiriman. Boshqa joyda balki o'z hayotimga o'zim xo'jayin bo'larmidim. Bu yerda esa yo'riqnomalar bilan ko'mib tashlashadi, har tomondan ko'rsatmalar berishadi: unday qil, bunday qil, deb aql o'rgatishadi. Bu yo'riqnomalarni kim yozadi? Kim ko'rsatma beradi? Komelevga o'xshaganlar-da. O'z mustaqilligingni ularga isbotlab ko'r.

Pavelning qorachadan kelgan yonog'i qizardi, xira tortgan ko'zlari, osilgan qovoqlari ostida behol o'ynardi. Ignat do'ppaygan qorni ustiga og'ir qo'llarini qo'yib, Pavelning har bir harakatini kuzatardi.

– Komelev o'z taqdiridan rozi edi, – o'sha qiziqqonlik bilan davom qildi Pavel. – Uning uchun tuman qo'mitasi kotibining o'rni eng yuqori mansab edi. Men o'z kuchimni sezyapman, o'sgim keladi, lekin sovuqda muzlagan qo'ziqorinday qotib qolganman. Mening o'sishim, harakatim o'zimga bog'liq emas. Istasalar – siljitishadi, istamasalar – o'sha joyda ziq bo'lib o'tiraveraman.

Ignat ishonchsizlik bilan kulib, bosh chayqadi:

– Sen, oshna, juda izattalab odamsan. Ichingga shayton kirib, senga tinchlik bermayapti. Sen unga tupur – shunchaki yashayver, ishla, foydang tegsin...

– Yashayver, ishla, foydang tegsin?.. Qayerda? Targ'ibot va tashviqot mudirligidami? Ignat, sen go'dak emassan, mening ishimdan qanday foyda tegishini mendan yaxshiroq bilasan!.. Kolxozchilarga ma'ruza qilasan, biroq ularni ko'proq g'alla qiziqtiradi. Ular mehnat kuniga olgan pullariga yilda bir dona ishton ham olisholmaydi... Foyda bo'lishini istayman! Xohlayman! Biroq qanday qilib? Kuch-quvvatim, aqlim yetarli, ammo nochorman...

Mansurov stulga o'tirdi, tirsagini tizzalariga qo'yib, bukchaydi, ter bosgan qoramtir qovoqlarini yumdi. Shu daqiqada u hamma narsadan voz kechib, oshxonadagi primusning bir maromda vizillashiga quloq tutayotganday ko'rindi.

Uni kuzatishda davom etayotgan Ignat alam bilan dedi:

– Nega jahl qilasan? Yoqmasa, ishingni o'zgartir.

Primus ovozi uzilib, oshxonada likopchalarning taqillashi eshitildi. Mansurov boshini ko'tarib, qorong'ilashgan ko'zlarini Ignatga qaratdi.

– O'zgartir emish... Axir men yigit emasmanki, u ishdan bu ishga o'tsam. Qayerga boray? Kasbim bo'lmasa, yangisiga ega bo'lishga kech... O'z bo'lim mudirilik stulimga bog'lanib qolganman.

Anna kirib, jiddiy ohangda:

– Dasturxon yozyapman, – dedi.

U cho'rtkesar, qo'pol, ammo nozik didli bo'lib, akasiga o'xshamasdi. Istarasi issiq, oppoq yuzini sochlari tutib ketgandi. Beliga toza fartuk bog'lab olgan Anna shu payt xonada yengil harakat qilib yurardi, tirsaklarini ikki biqiniga qo'yib, hozirgina yuvib, endi artmoqchi bo'lganday qo'llarini oldinga cho'zgandi.

– Pavel gapga tushib ketsa bormi, yarim tungacha to'xtata olmaysan. Nima istashini tushunib bo'lmaydi. Sen Ignat, bekorga vaqtingni ketkazib, u bilan bahslashib o'tirma. Ertaga imtihoning bor. Sen-ku bundan qo'rqmaysan, ammo men o'rningga qizaraman.

Ignat o'rnidan turdi:

– To'g'ri aytasan, Annushka! – U Pavelga o'girildi. – Men o'z taqdirimga oddiy qarayman: institutga kirolmay qolsam, chol bo'lib bolalar bilan tuproq qo'rg'onda o'yinchoq yasayman. Bordi-yu ertaga Komelevning o'g'li bilan imtihon topshirolsam, o'zimni baxtli his qilaman.

Pavel g'azablanib chetga tupurdi.

3

Ignat yoshlik yillarida dehqon yoshlar maktabida sakkiz sinfni bitirdi. Har qalay, o'qidi, faqat kasrnigina o'rganmay, balki algebra va geometriyani ham egalladi. Aksariyat qishloq yigitlari kabi u ham qishloqda qolib, yer haydash va go'ngni «yashirish» bilan ovora bo'lishni xohlamadi. Avval Ostanovo matlubot jamiyatiga qarashli do'konga sotuvchi bo'lib ishga kirdi, tuz, novvot, kerosin sotdi. O'sha Ostanovoda valsovkali katta tegirmon o'rnatishdi, Ignat esa

shu tegirmonga boshliq qilib tayinlandi. Tegirmondan keyin u tuman oziq-ovqat qo'mitasiga boshliq bo'ldi, so'ng g'alla qabul qilinadigan punktga boshliq, keyin tuman g'alla tayyorlash idorasining boshlig'i bo'lib ishladi. Shunday qilib Ignat rahbar, kichkina boshliq bo'lib qoldi-yu, bironta kasbni egallamadi. Har bir tuman markazida ham negadir hammaga rahbarlikka qobiliyati bordek tuyuluvchi odamlar uchrab turadi.

Gmizin ham boshliq edi. Tumanga tegishli Korshunovo qishlog'ining chetiga yog'och olib kelib uy qurdi, ekinzor qildi, qoramol, asalari boqdi. Har kuni ertalab idoraga borar, vaqti-vaqti bilan komandirovkalarda bo'lar, bo'sh vaqtlarida ekin-tikin bilan shug'ullanardi. O'z uyi, sigiri, o'zi yetishtirgan kartoshkasi, o'z asali bor edi.

Urush bu hayotni silkitdi-yu, ammo o'zgartirmadi.

Ignat frontda bo'ldi, starshina unvoni, ikkita medal va yengil jarohatlar bilan qaytib keldi. Qishlog'iga qaytishi bilan tuman ijro-qo'midagilar: axir bu Ignat Gmizin-ku, uni yana «G'alla tayyorlash idorasi» boshlig'i qilib tayinlash kerak, deyishdi.

Yiriklashtirish boshlandi. Har bir kolxozda bir-ikkita qishlog'i bo'lgan tumanlar o'rniga kolxozida yettitadan, o'ntadan qishlog'i bo'lgan yirik tumanlar vujudga kela boshladi. Tuman qo'mitasi kolxozlarga tuman xodimlarini jo'nata boshladi. Ular orasida Ignat Gmizin ham bor edi.

Ignatga o'xshab tuman ishchisi bo'lgan Miron Suxotinni yarim yildan so'ng yaxshilikcha ketishini so'rashdi. Uning brigadirlari araqxo'rlik qilishar, cho'chqaboqar ayollarning cho'chqalari ham o'lib qolaverardi, bahorgi ekishni iyun oyida tugatishdi. Suxotinni yangidan «Qoramol tayyorlash» idorasiga ishga qo'yishga majbur bo'lishdi.

Selpo do'konida sotuvchi yoki «G'alla tayyorlash» idorasida boshliq bo'lib ishlarkan, Ignat, o'rim-yig'im paytida yomg'ir yog'sa ich-ichidan qayg'urar, havo ochiq bo'lsa suyunardi. Mashina-traktor stansiyasiga yangi traktorlar kelib qolsa ko'rish uchun yugurardi. Otasi, bobosi, katta bobosi – hammasi dehqon bo'lishgan va Ignat garchi anketada «ijtimoiy chiqishi» degan joyga «xizmatchi» deb yozsa ham, aslida dehqonligicha qolgandi.

Uni rais qilib saylagan dastlabki kunlarda Ignat o‘zini yangi joyga tayinlangan hamma boshliqlarday tutdi. Yordamchisi Antip Koshkaryovni to‘xtamay ichgani uchun ishdan bo‘shatib yubordi. Silos kesadigan mashinaga dvijok olib kelaman, deb uch marta shaharga borib kelgan Stepan Lojkin har borganida ikki minglab sarflar, lekin bunday dvijok hech qayerda yo‘q ekan, deb zorlanardi. Ignat o‘zi shaharga bordi, bir yarim mingdan sal ortiq sarf qilib, dvijok topib keldi, Stepan Lojkinni esa o‘g‘rilik qilgani uchun sudga berdi.

Ignat yoshligidanoq qishloq do‘konida novvot tortib, kerosin quyib orttirgan halolligi va aqlliligi tumanda eng yirik «Mehnatkash» kolxoziga rais bo‘lganda asqatdi. Biroq bu kamlik qilardi...

Kolxozda to‘rt ming gektardan ortiq ekiladigan yer bor, ammo hosil kam. Nega? Aniqlashtirish kerak.

Kolxozda to‘qqiz yuz gektar sug‘oriladigan maysazor bor, lekin yildan yilga o‘t yomonlashib ketyapti. Nega? Aniqlashtirish kerak.

Kolxozning yuzta sigiri bor, lekin o‘sish kam. Nega? Aniqlashtirish kerak. Hammasini aniqlashtirish kerak!

Kollektivlashtirish davridan beri raislik qilib kelayotgan qariya Fedosiy Murgin kolxoziga yosh agronom Alyoshinni yuborishdi. U Fedosiyning o‘rinbosariga aylandi. Murgin oldingidek o‘zining bir necha yillar davomida orttirgan obro‘siga ishonib, yengil aravasida viqor bilan dalama-dala turli topshiriqlar berib yurardi. Alyoshin raisning qaynoq izidan piyoda yugurib: «Fedosiy Savelyich to‘g‘ri aytyapti, faqat mana bunday qilsa yaxshiroq bo‘lardi», deb raisning gapini tuzatib turardi. Dastlab kolxozchilar hayron bo‘lib bosh chayqardilar: «Buning olovligini qarang, Savelyichning gapini to‘g‘rilayapti...» Rais buva yumshoq tabiatli bo‘lgani bois yosh agronomga e’tiroz bildirmas, shu tufayli hamma uning gapiga ko‘nardi.

Ignat chetdan kuzatib yurarkan, o‘zining kolxozga bir-ikki, uzog‘i bilan besh yil foydasi tegishi mumkinligini, vaqti kelib hamma uning rostgo‘yligini, aql-farosatini, bora-bora uning yo‘l-yo‘lakay olingan ilmidan boshqa hech narsasi yo‘qligini bilib olishlarini tushunib yetdi. Vaqti kelib o‘z o‘rnini ana shunday «olov kalla»ga bo‘shatib berishga to‘g‘ri keladi. Ilm egallamoq kerak.

Viloyat kolxoz kadrlari maktabiga yuborishlarini so‘rash yoxud qishloq xo‘jalik texnikumiga sirtdan o‘qishga kirishi ham mumkin.

Biroq viloyat maktabi va texnikumida to‘rt yil o‘qish kerak. Bu yerda to‘rt yil, yana institutda besh yil sarflanadi, Ignatning esa yoshi qirqdan oshgan, buning ustiga yelkasida oila yuki ham bor.

Kattalar uchun Korshunovo qishlog‘ida faqat sakkiz yillik kechki maktab bor. Ignat tayyorgarlik ko‘rib, o‘n yillikni o‘zicha tayyorlanib bitirishga qaror qildi.

4

Imtihonning ilk kuniyoq daladan olib kelingan katta guldasta allaqachon so‘lib, to‘kila boshlagan edi. Alvon rangli dasturxon ustiga yelpig‘ichday yoyib qo‘yilgan biletlar, komissiya a’zolarining o‘zgacha jiddiy qiyofalari – bularning hammasi ko‘p martalab takrorlangan. Hatto hayajonlanish ham odatiy bo‘lib qolgan edi.

O‘ninchi sinfni bitiruvchilar yetuklik attestatini olish uchun so‘nggi imtihonlarini topshirishayotgan edi.

Bugun Sasha Komelev ham imtihon topshiryapti. Otasining vafoti, dafn marosimi – bundan ham uzrli sabablar bo‘lmaydi, lekin ushbu sabablar imtihondan ozod etilish uchun sabab bo‘lolmaydi. Direktor imtihonni kelasi yilga qoldirishni taklif etdi, biroq Sasha bu taklifni rad etdi.

Hamma yashirinib olib, Sashaning formula yozayotganini kuzatib turardi. Hech bir o‘quvchi bu daqiqalarda qaysi chipta olingan-u, qaysi biri chetga qo‘yilgan va qaysi chipta o‘ziga tushishi haqida aslo o‘ylamasdi. Hamma vaqtincha o‘z taqdirini unutgandi. Hamdardlik bilan kuzatayotgan ko‘zlarda: O‘zini qanday tutarkin-a? – degan bolalarcha qiziqish alomati ham bor edi.

Biroq bu qiziqish sekin-asta so‘ndi. Sasha o‘zini har doimgiday tutardi, faqat ovozi har doimgidan pastroq edi. U bir-ikkita xato qildi – buning ajablanarli yeri yo‘q, chunki Sasha geometriyadan hech qachon a‘lochi bo‘lmagan edi.

Ignat Gmizinning opasi bo‘lgan, imtihon qabul qilayotgan Anna Yegorovna Sashani eshitib, oynadan tushib turgan quyosh nurida jilvalanayotgan sochlarini sababsiz tez-tez tartibga solardi.

– Shoshilma, Sasha... Shoshilma, o‘ylab ko‘r. – Uning ovozida iltimos ohangi eshitilardi.

Ignat sinfda o'tirib, hamma qatori diqqat va achinish bilan bolaning javobini kuzatar edi. Ignatni o'quvchilar qatorida ko'rish g'alati edi: qirilgan oppoq kalla, go'shtdor beso'naqay yuz, parta ustidagi og'ir qo'l – hammasi ajoyib manzara kashf qilgan edi.

– Qo'shimcha savollaringiz bormi? – murojaat qildi Anna komissiya a'zolariga.

Ular bosh chayqashdi: yo'q, yo'q...

Sinf uzra yengil g'ala-g'ovur taraldi – Sasha topshirdi. Yaqinda qolipdan chiqqan yangi etiklarini g'ichirlatib, kutilmaganda qizarib ketgan yuzini yashirgancha Sasha sinfdan chiqib ketdi.

– Gmizin.

Tor partadan oyoqlarini beo'xshov chiqarib, qizlarning silliq taralgan, bolalarning chalkash-chulkash sochlari uzra Ignat katta, og'ir, biroz bukchaygan gavdasini ko'tardi. U yoshlar orasida o'zining beso'naqayligidan xijolat chekardi. Biroq stol oldiga kelib qo'lina biletga uzatganida, uning peshanasida o'quvchilarga xos hayajonli ajin paydo bo'ldi. Peshanasi va burnining ustini bir daqiqalik ter qopladi. U chipta olishi bilan ajinlari g'oyib bo'ldi.

U doska oldiga keldi, bo'rni olib, doskada diqqat bilan to'nkaning bir tekis aylanasiga o'xshash katta aylanani chiza boshladi. Anna navbatdagi o'quvchining javobini tinglarkan, vaqt-vaqti bilan doskadagi chiziqlar, har xil aylanalar, lotin harflari bilan to'la borib, to'nkaga o'xshashligini yo'qotayotgan, haqiqiy geometrik shaklga o'xshab borayotgan rasmga qarab qo'yardi.

– Eshitamiz, – deya nihoyat doskaga to'liq burildi Anna.

Ignat majlislardagi tajribasiz notiqlarday, go'yo hozir odatdagidek «O'rtoqlar!» deb yuboradiganday, og'zini qo'li bilan bekitib bo'g'iq yo'taldi-yu, to'satdan o'zini oqlayotgan aybdor kishilarday, labi-labiga tegmay gapira ketdi...

– Uchi kesilgan konusning yon sirti aylanalar uzunligi yarim yig'indisining ko'paytmasiga teng.

Sinf eshigi oldida Ignat Gmizinni maktab direktori uchratib, qo'lini uzoq silkitdi.

– Sizni yetuklik attestati bilan tabriklayman. Chin yurakdan...

– Rahmat, rahmat, – xushmuomalalik ila kulib javob berdi Ignat. – Biroz kechikibroq yetildim, chamasi, har bir meva vaqt-soati kelib yetilar ekan.

Bu yerda, koridorda, direktor oldida Ignat o'zini o'quvchilarday emas, balki tengdoshlarday tutardi.

Ularning gaplashadigan gaplari yo'q edi, biroq direktor yaltiroq bosh, oqarib ketgan gimnastyorkali barvasta odamni qo'yib yuborgisi kelmasdi. Bu basavlat gavdadan xuddi quyoshda qizigan tosh kabi dimoqqa issiq hovur urilar, so'ligan o't-o'lanning hidi kelib turardi.

– Balki tadrijiyligingizni saqlab, kechamizda ham qatnasharsiz? Yoshlar bilan bayram qilarsiz?

– To'g'ri kelmaydi-da... Men odatdagicha... – Ignat ko'zini qisib, tomog'iga chertib qo'ydi.

Direktor kulib yubordi, biroq shu bilan birga atrofga bir nazar tashlab qo'ydi – u maktabda bunday erkin ishorani hech kim ko'rib qolmaganligidan xavotirda edi.

Nihoyat ular xayrlashishdi va zinapoya Ignatning og'ir qadamlaridan g'ichirlab ketdi.

Pastda Sasha Komelev panjaraga suyangancha turar edi. U Ignatga yuzlandi.

– Ignat Yegorich, bir daqiqaga... Gap bor.

– Qanaqa gap? – hayron bo'ldi Ignat. – Eshitaman, oshna.

Bo'zargan chehrasi jiddiy tus olgan, bolalarga xos do'ng peshanasidagi kalta qirqilgan, ho'llab taralgan sochlari dikkaygan Sasha ko'kimtir shaffof ko'zlarini Ignatga qaratdi.

«Seni bu kunlarda tashvish yeb qo'yibdi-ku», – deya ichida o'yladi Ignat.

– Ignat Yegorovich, – nigohini chetga olib, do'rilladi Sasha, – meni kolxozingizga qabul qiling.

– Kolxozga?

– Ha, ishga.

– Seni institutda o'qimoqchisan, deb eshitgan edim.

Sashaning ko'zlariga yosh qalqidi.

– Keyin, balki institutga ham kirarman... Hozir oyim yolg'iz, singillarim...

Ignat uning so'zini bo'lishga shoshildi:

– Mayli. Bu haqida hali gaplasharmiz. Bo‘shmisan?.. Istasang, hozir ketdik. Meni arava kutib turibdi.

5

Ular qishloqdan chiqib ketishdi.

Ignat aravada indamay ko‘tarilib o‘tirardi. Sasha Ignatning yo‘g‘on gavdasi yonida qisilib o‘tirar, raisga, uning katta kallasidagi yumshoq kepkasiga, gimnastyorkasining yoqasidan chiqib ketgan to‘q qizil, qat-qat bo‘yniga zimdan boqardi.

Ignat bir necha bor atrofga alanglab qaradi, xavotirlanib bosh chayqab, xo‘rsindi.

– Bevaqt keldik-da...

Yo‘l yaqinidagi shundoq ham egilgan majnuntol shoxlari yanada yer bag‘irladi – har bir bargi horg‘in pastga qarardi. Yo‘l yoqasidagi bedazorda asalarilar mehnat qilishmasdi. Qushlarning kuylashi ham eshitilmasdi. Atrofda tirik jon ko‘rinmaydi. Huvillab yotgan ko‘m-ko‘k dalada sukunat hukmron. Havo musaffo va sokin edi. Ko‘kda muloyim bulut parchalari ko‘rinadi, lekin yomg‘ir yog‘ishi aniq.

– Oyimga yordam berishim kerak deysanmi? – sukunatni buzdi Ignat.

– Mendan boshqa kim ham yordam berardi?

– Nega kolxozga kirishga qaror qilding? Birorta tashkilotga kirmaysanmi? Madaniy-oqartuv idorasiga ishchi kerak emish...

– Kolxozda ishlashni xohlayman. – Sashaning ovozida qaysarlik ohangi sezildi.

Ignat yelkasi osha Sashaga sinchkovlik ila boqdi, so‘ng o‘girilib, to‘satdan yo‘g‘on ovozda:

– Hoy, tepsa-tebranmas, chu! Namuncha imillaysan? Hozir seni!.. – dedi.

Ot oyog‘ini ildam tashladi, arava chayqala boshladi.

Sasha bir paytlar kitobda shunday so‘zlarni o‘qigandi: «Uy yonsa ham, undagi soat baribir to‘xtamaydi». O‘qigandi-yu, unutgandi. Bu so‘zlar serko‘pik girdobda yo‘qolib ketgan xasday uning xayolidan ko‘tarilib ketgandi.

Otasini dafn qilish kunida Sashaning xayoliga dabdurustdan shu so'zlar keldi.

O'sha kuni u bu olamda otasidan yaqin odami yo'qligini tushungan edi. Onasidan-da yaqin... ilgari buni bilmas, gohi-gohida otasi bilan samimiy, chin yurakday qilgan suhbatlarining qadriga yetmasdi.

Bolalikdagi yarim unutilgan xotiralari xayolidan o'ta boshladi.

Sasha olti yoshda edi. Otasi uni qo'lidan yetaklab haydalgan daladan o'tib borardi. Sasha dam-badam qoqilar, haydalgan yerdan yurishga qiynalardi. Sayr qilib yurgan so'nggi qaldirg'ochlar o'rmon ortiga botib borayotgan qizil shafaqni u yoq-bu yoqdan kesib uchishmoqda. Traktor motori bir tekis tirillab, yer haydar, vaqt-vaqti bilan yo'talib, quvuridan xira binafsharang tutun otilardi. Ba'zida omoch tishi tuproq ostida yotgan toshlarga urilib tiqilardi. Omochning panjalari orasidan qora tuproq buralib oqardi. Ag'darib tashlangan tuproq kunbotar nurida xira yiltirardi.

Otasi to'xtadi, engashib, hovuchini tuproqqa to'ldirdi-da, yuziga yaqinlashtirdi. Traktor juda ishga berilib ketgan mehnatkashdek, buruqsitib uzoqlashdi.

– Hidini sezyapsanmi? – dedi otasi.

Sasha ham bir siqim tuproqni olib burniga yaqinlashtirdi. Lekin tuproqdan tuproq hidi kelardi.

– Yoshsan, hali tushunmaysan. Men sening yoshingda tushunar edim. Toza nonni faqat bayram kunlarigina yer edim, boshqa vaqt qotgan nondan boshim chiqmasdi... Non ham havodek mo'l bo'lishi, odamlar u haqida tashvishlanmasligi kerak.

Olti yoshlik Sasha otasining so'zlaridan emas – u bu so'zlarga haqiqatan ham tushunmasdi – mayinlashgan ovozidan, favqulodda muloyimlashgan chehrasidan tuproqqa bo'lgan minnatdorchiligini sezdi. Otasi bir siqim nam tuproqni qimmatbaho buyumday qo'lida ushlab turar, otalarga xos ehtiyotkorlik bilan g'ijimlar, hidlardi. Tuproqdan tuproqning hidi kelardi.

Yana bir xotira... Torroq kastumda, toza ko'ylakda Sasha aravada, poxol ustida otasining issiqqina biqiniga suyanib o'tiribdi. Otasi komandirovkaga ketyapti, yo'l-yo'lakay Sashani Shora daryosi bo'yidagi Kayemkovo qishlog'ida joylashgan lagerga tashlab o'tmoqchi.

Butalardan o‘tib, daryodan ko‘tarilgan tuman, tog‘ora chetidan oqib tushayotgan xamirday, ho‘l pichanzorga tarqalmoqda. Sutdek oppoq tumanda, endi ko‘tarilib kelayotgan quyoshning qiya nurida yemirilgan kamalak ko‘zga tashlanadi. Tuman ichidan oqchorloq otilib chiqdi-yu, ko‘kka tikka ko‘tarildi, ko‘zdan yo‘qolguncha osmonda nuqtadek ko‘rinib turdi.

Keyingi paytlarda uyiga yarim tunda, ko‘zlari ich-ichiga tushib ketgan, qovog‘i osig‘liq keladigan otasi ham quvnab, atrofga qaradida:

– Go‘zallik, – dedi.

Qishloqqa kirib kelishdi. Xo‘rozlar qichqirishar, quduqning moylanmagan chig‘irining tartar qushga o‘xshab g‘alati g‘ichirlashi quloqqa chalinardi. Bir uyning derazasi oldida xom-xatala o‘rilgan arpaning bog‘kapasi yotardi. Sasha ularni otasiga ko‘rsatib:

– Qarang! Yashilligicha o‘rishyapti, – dedi.

Otasi unga o‘tkir nigohi ila qarab qo‘ydi-da, sekin:

– Musibat ustidan kulmaydilar, – dedi.

Tongning nam tuprog‘i ot tuyoqlari ostida yoqimli shapillarkan, ota jahl bilan bu uylardagi odamlar ko‘pdan beri non yemaganliklari uchun arpani yashilligicha o‘ryaptilar, dedi.

Yaxshilikning umri uzoq, yomonlik esa tezda unutiladi. Korshunovo tumanida urushdan keyin xalq boshiga tushgan qirq oltinchi yilni hafsalasizlik bilan eslashadi.

Ota hikoya qilar, arava qishloqni yurib o‘tgan atrofda esa jozibali kun yorisha boshlagandi. Qaysar sabo o‘jarlik bilan tumanni daryo sohilidan qorong‘i archazorga haydamoqda. Har tomonidan egri-bugri so‘qmoq kesib o‘tgan o‘tloqning ba’zi yerlari shudringdan oppoq, ba’zi joylari esa yarqirovchi yashil rangda ko‘rinardi. Bu safar Sashaga birinchi marta shunday degan edi:

– Zaminimiz go‘zal. Ana shunday go‘zal yerda go‘zal hayot barpo etish kerak. Men ulgurmasam – sen davom ettirasan. Sasha, ulg‘aygach, pulning ketidan quvib yurma.

Sashaning yonida uning eng yaqin odami yashar, hayotga tashvishli nigoh bilan boqar, samimiy daqiqalarda esa o‘zining eng buyuk orzusi – go‘zal zaminda go‘zal hayot qurish haqida so‘zlar,

kechqurunlari horg'in, xohlamay ovqatlanar, kenja qizi Lenani tizzasiga olib tebratar va xirillagan ovoz bilan qo'shiq aytardi:

Tog' va o'rmonlar osha,
Yegor tog'a kelmoqda.
Kovushlari zarangli,
Paytavasi yap-yangi.

Sashaga otasining tashvishlari yaqin.

Uning odatlari ham tanish.

Uning orzulari Sashaning ham orzusiga aylangan.

Otasi Sashaning dunyoda eng yaqin kishisi edi.

Mana endi tuproqning nam hidi-yu, hali chim bosmagan yangi qabr...

Sasha quyosh taftidan qizigan chag'irtosh uzra oyisini uyga olib ketardi. Onasi butun alamini qabristonda olib bo'lgan, hozir yig'lamas, vaqt-vaqti bilan uning yelkasida og'ir seskanib qo'yardi. Sasha onasini suyab, o'ziga bo'ysunmayotgan oyoqlarini arang bosib borar va atrofga alanglardi. Og'riq, qayg'u g'oyib bo'ldi, taajjub, og'ir va ma'nosiz kayfiyat qoldi! Otasi endi yo'q! Komandirovkada ham emas, boshqa joyda ham emas, umuman yo'q. Kelmaydi, qaytib kelmaydi, kutib olinadigan odam yo'q... Tushunarsizlik, bema'nilik!

Shu daqiqa atrofga nazar tashlarkan, Sasha hamma narsani qandaydir o'zgacha his-tuyg'u bilan payqardi. Har bir mayda-chuyda narsa ham uning ko'ngliga og'ir botardi.

Bir laycha dumini chiyirib, chiyillagancha yugurib chiqdi-da, cho'chqaning bolasiga tashlandi. U bo'lsa beparvolik bilan laychaga orqasini o'girib oldi.

Sashaga tanish bo'lgan kinomexanik Slavka Kalachyov o'z uyidagi chetan devorini ta'mirlab, beparvogina «Lyubushka»ni hushtak chalib xirgoyi qilardi.

Orqada Katya Zelensova jarangdor, parvosiz kulib yubordi. U dafn marosimidan qaytyapti...

Laycha xursand bo'lib akillamoqda. Slavka «Lyuba, Lyubushka»ni hushtak chalib xirgoyi qilyapti. Katya kulyapti... Hammasi avval qanday bo'lsa, shundayligicha davom etyapti. Otasi esa

yo‘q. Bu nima degan gap? Nahotki ko‘nikish, unutish kerak bo‘lsa? Yo‘q! Mumkin emas! Bu yog‘iga qanday yashash kerak?

Uyda Sashani oyisi hayratga soldi.

Sasha onasini avaylab karavotga o‘tqazdi. Onaning yuzlari shishib ketgan, ojiz, bo‘shashib, Sashaning ko‘kragiga bir daqiqaga ma’nosiz tikilib turdi-yu, nigohini ko‘tarib, o‘tinish bilan boqib Sashani qiynayotgan o‘sha savolni yana takrorladi:

– Sashenka, endi qanday yashaymiz? – Biroz jim turib, xo‘rsindida, gapini tugatdi: – Nafaqamiz kam. Mana, Mashenkaga palto olish kerak.

Slavkaning «Lyubushka»si, Katyaning baxtli kulgisi kabi onasining gaplari ham Sashaning qalbini kesdi: «Nafaqa, palto... Otam endi yo‘q-ku! Hozir palto bilan ishi bormi?» Onasining «endi qanday yashaymiz»i Sashaning o‘yiga to‘g‘ri kelmasdi.

Kuni bilan uni o‘rab turgan hayot, har kungi: «Non sotib olmapsan... Ovqat pishirmapsan...» kabi gaplar uni hayron qoldirar, azoblardi. Shu vaqtda Sasha: «Uy yonsa ham undagi soat to‘xtamaydi» degan so‘zlarni esladi. Qanday dahshatli va shu bilan birga mazmunli so‘zlar! Uning qalbi yonyapti, dunyo ag‘dar-to‘ntar bo‘lgan – tirik jonning ortiq yashashga haqqi yo‘qday edi. Lekin tomirdagi qon qaynar, odatiy hayot o‘z yo‘lida hech og‘ishmay davom etardi. Uy yonardi – soat esa yurishdan to‘xtamasdi.

Biroq bir kungina shunday o‘tdi.

Erta saharlab Sasha uyg‘onib, eshik oldiga chiqdi. Nam taxta yalang oyog‘ini muzlatdi. Har bir payrahasi, chetan devorining har bir yog‘ochigacha tanish bo‘lgan hovli Sashaning ko‘ziga birdan boshqacha ko‘rina boshladi. Qo‘shni uyning soyasi hovlining yarmigacha tushib turardi. Sahargi quyoshning mayin nurlari bilan hovlining ikkinchi yarmini qamragan edi. Yuzga tushib turgan ana shu nurlar yoqimli edi. Chumchuqlarning daraxt shoxlarida turib tinimsiz g‘imir-g‘imirini eshitish qanday yaxshi. Sasha quyosh nuridan ko‘zini qisib turar, otasini o‘ylardi...

Nonushta oldidan u oyisi bilan endi qanday yashash kerakligi haqida jiddiy maslahatlashayotgandi. U hozircha institutga kirmay turadi, ishlaydi, lekin idora yoki tashkilotda emas, kolxozda ishlaydi... Faqat kolxozda. Yog‘-moy ishlab chiqarish sanoatidan buxgalter

yordamchisining oyligi qancha deb surishtirishning hojati yo'q. Axir otasi: «Katta pul ketidan quvma», deb aytgan-ku.

Tushlik paytida oyisi hamon ba'zi-ba'zida ko'z yoshi qilib turardi – erining bo'shab qolgan stuliga hech ko'nika olmasdi. Sasha oyisidan ko'ra tezroq ko'nikdi.

Lekin otasining bir vaqtlar aytgan har bir so'zi Sasha uchun muqaddas qonun bo'lib qolgan edi.

Mana, hozir Ignat Yegorovich: «Nega kolxozga ishga kirmoqchisan, institutda o'qish niyating yo'qmi?» deb so'rardi. Unga qanday qilib tushuntirasan? Tushunarmidi?

Katta yo'ldan burilishdi. Aravadan osiltirib olgan oyoqlari yo'l ustidagi o't-o'langa tegib ketarkan, Sasha yana o'sha mavzuni boshlamasin deb, Ignatning yonida miq etmay borardi. Lekin rais indamas, otni qamchilar va osmonga tashvish ila qarab qo'yardi.

O'rmon ortidan imillab chiqib kelayotgan bulut sekin-asta osmonni qoplay boshladi. Kechki quyosh uni ostidan yoritar, shu bois bulut ayrim joylarda qizg'ish tusga kirgani uchun yanada dahshatliroq ko'rinardi.

– Eh! Yomg'irgacha ulgurmadik, – dedi achinish bilan Ignat.

– Ehtimol ulgurarmiz...

– Yo'q... – Ignat jilovni qo'yib yubordi.

Yomg'irda yarimyopilgan o'rmon tarafdan bo'g'iq yashin ovozi eshitildi. Ot quloqlarini ding qilib, shoshmay qadam tashlab borardi. Maysazor shitirlay boshladi. Boshida butalardagi barglar asta shivirladi, so'ngra shamol bor kuchi bilan o'zini shoxlarga urdi-da, hammasini quchoqlab oldi.

Otning orqasi qorayib ketdi. Yomg'ir bir-ikki daqiqa bir tekis shivirlab turdi-da, sekin-asta zo'rayib, shiddat bilan yog'a boshladi, so'ngra sharros quay boshladi.

Ignat xavotirlanib gimnastyorkasining ko'kragini paypasladi. Daf'atan boshidan kepkasini yechdi-da, yuragiga bosdi, shu zaylda bir qo'lida jilovni, ikkinchi qo'lidagi shapkasi bilan ko'kragini ushlagancha o'tirib, qora bulutlar pastlab suzayotgan osmonga xavotirli qarab qo'ya boshladi.

– Sizga nima bo'ldi? – bezovta bo'lib so'radi Sasha. – Yuragingiz og'riyaptimi?

– Yo‘q, yuragim joyida... Gimnastyorkada chiqqan edim, cho‘ntagimda esa chipta qolibdi. Ho‘l bo‘lmasin, deb qo‘rqaman. Undan ko‘ra boshim ho‘l bo‘lsin.

Sasha qo‘lini beixtiyor kastumining cho‘ntagiga soldi – u yerda ham chiptasi bor edi. Shu daqiqa bu odamga nisbatan yaqinlik va iliq minnatdorchilik paydo bo‘lganini sezdi: Ignat nimasi bilandir Sashaga otasini eslatar edi.

Yomg‘ir sharros quymoqda edi. Ot serjilo sag‘risini silkitib, bardam qadam tashlardi. Ignat bilan Sasha ho‘l bo‘lgan kiyimlari badanlariga yopishib, biri g‘ijimlangan kepkasini qo‘lida, boshqasi ko‘ksiga tutganicha ketib borishardi.

6

Ignatning o‘ziga o‘xshagan to‘lagina, baland bo‘yli, yuzlari qip-qizil xotini Sashani xijolat qildi.

– Mehmonimiz yosh yigitcha ekan-a, – dedi u xushchaqchaqlik bilan qo‘llarini bir-biriga urib. – Ignat doim o‘zi kabilarni – yaltiroq boshlilar-u mo‘ylovdorlarni, xullas, qariyalarni boshlab kelardi. Kuyov ham bo‘lib olarsan hali. Bizda qizlar juda mo‘l. Kech bo‘lmasdan istaganingni tanla, – dedi.

Sasha qizarib, stulga o‘ng‘aysiz o‘tirarkan, Ignatning qizlariga ko‘z tashlab qo‘ydi. Ular hali kelin bo‘lish uchun juda yosh edilar. To‘ng‘ichi – o‘n uch yoshlar chamasi, onasiga yelib-yugurib yordamlasharkan, Sashaga ko‘z qirini tashladi-yu, yerto‘laga kirib ketdi; o‘rtancha qiz endi maktabga qadam qo‘ygandi, u uyalib, bir burchakka bekinib, orqasiga qo‘g‘irchog‘ini bekitib olgandi; eng kichigi esa to‘rt yoshlar chamasi bo‘lib, qovoqlarini solib, jiddiy ravishda «kuyov»ni o‘rganmoqda edi. Stolga semiz, yuzlari qip-qizil, keng peshanali, ko‘rinishdan ikkinchi Ignat Yegorovichning o‘zginasi, faqat undan olti marta kichikroq o‘g‘li mehmondan oldin o‘tirib olgan edi.

– Marhamat, – deya taklif etdi Ignat taraq-turuqlatib stolga o‘tirar ekan, – va eshit. Bir masala ustida gaplashamiz.

Sashaning oldiga kartoshkali kosa, tuzlangan bodringni surib qo‘yarkan, jiddiy gap boshladi:

– Men uchun sen qanday bo‘sang, shundaysan. Ikki qo‘ling bor, ular ham hali ojiz, epsiz. Menga qo‘llaring emas, boshing muhimroq. Maktabda seni bekorga o‘n yil o‘qitishmagandir? Ye... Bir vaqtning o‘zida ham yeb, ham eshitish mumkin... Seni kolxozga jon deb olaman, biroq bir shartim bor. Bu yil sen institutga kirishing kerak. Biz endi sen bilan bir bog‘ning mevalarimiz. Sen ham o‘ninchi sinfni tugatding, men ham. Kel, ikkimiz ham sirtdan o‘qishga kiramiz-u, o‘zimizni ilmda sinab ko‘ramiz. Nima deding?..

Sasha boshini kosadan ko‘tarib, nigohini Ignatga qaratdi. Albatta! U aynan shuni istaydi, faqat boshqacharoq o‘ylab qo‘ygandi – darrov institutga kirmay biror yil ishlasa, o‘rgansa, keyin sirtdan bo‘lsa ham o‘qish mumkin... Hozir esa! Vaqtni o‘tkazmay, to‘g‘ri institutga kirsa yomonmi... Ignatga javoban u indamaygina bosh silkib qo‘ydi.

Ammo Ignat Yegorovich hammasini tushundi shekilli, muloyimgina kulimsirab qo‘ydi.

– Ol, kartoshka sovib qoladi... Ertaga boshqarma a’zolari bilan gaplashib ko‘raman, senga joy tayyorlaymiz. Bizga ishbilarmon o‘tzorchi-agronom kerak. O‘t tekin boylik, Xudoning o‘zi beradi, deb o‘ylashga o‘rganib qolishgan. Mehnatsiz rohat bo‘lmas deganlaridek...

– Darhol va shunday o‘ringa-ya?

– Darhol emas. Hozircha mutaxassislardek emas, kamroq to‘laymiz. Sendan ko‘p narsa talab qilmaymiz. Avval tanishib ol, shu ilmga oid kitoblarni o‘qi, institutga tayyorlan. Bordi-yu brigadir yuborsa, borib ishlab kelasan. Xijolat tortma, senga rahmim kelib ishga joylayotganim yo‘q, o‘z foydamni ham ko‘zlayapman. Ishlaysan, o‘qiysan – to‘rt yoki besh yildan keyin ham nazariyotchi, ham amaliyotchi bo‘lib yetishasan. Dastlab ba’zi narsalarda xato qilarmiz, biroq kelajakda o‘rnini qoplab ketamiz. Xo‘sh, rozimisan?

– Roziman.

– Endi bo‘lsa ye... Onasi, samovaring qaynadimi?

Sashaga o‘rinni parda orqasidagi bo‘yiga mos bo‘lmagan kichkina, tor karavotga solib berishdi. Shuning uchun u uxlay olmadi.

Qo'llarini boshi ostiga qo'yib, o'ziga notanish yangi xonadonda hayotning tinchiyotganiga quloq tutib yotdi.

Qayerdadir bir burchakda Ignat Yegorovichning to'ng'ich qizi ukasini past ovozda tebratib uxlatardi:

...Uchib keldi zag'chalar,
Gurillashib o'ynashar...

Biroz xirgoyi qildi-da, jimib qoldi.

Ignatning xotini pol taxtalarini g'ichirlatib, xonada yurar, kosaqoshiqlarni avaylab yig'ishtirarkan, eridan yarimovozda so'radi:

– Poxol yomg'ir ostida qolganmikin?

– Oz qismi qoldi.

– Ko'p qolib ketma. Shunday ham uyquga to'ymayapsan.

Ayol esnadi-da, nari ketdi. Xonaning u burchidan, hozirgina qizining ashulasi eshitilgan tomondan karavotning og'ir g'ichirlashi eshitildi.

Sukunat cho'kdi, faqat vaqt-vaqti bilan ochilayotgan varaqning shitirlashi eshitilardi – Ignat Yegorovich mutolaa bilan band edi.

Sasha bir vaqtlar yoshligida harbiy bo'lishni, yelkasidan oshirib kamar taqishni, yon kamarida to'pponcha, ko'kragida ordenlar bo'lishini orzu qilardi. Keyinroq, sarguzashtlarga oid kitoblar o'qiy boshlagach, uzoqlarga suzuvchi kema kapitani bo'lib, ertalablari ko'prikchada turib, bepoyon dengizga qarab notanish sohilni kutishni, ajoyib shaharga, begona odamlarga, notanish nutqqa duch kelishni orzu qildi.

U uyda o'tirib matematika masalalarini yechar, darsda o'tirar, maktab yo'lag'i bo'ylab sho'xliklar qilar – hamma bolalar kabi hayot kechirar va hamma kabi hayotdan «Kim bo'laman?» degan savolning javobini kutar edi.

Mana shu ikkala qisqa so'z sirli kuchga ega edi. Axir u o'n sakkiz yilni shu so'zlar deb yashadi.

Kim bo'laman?.. Nahotki bugun, hozir, mana shu kechaning o'zida ushbu masala oddiygina hal qilingan bo'lsa? Ko'kragi ordenga to'la harbiy ham emas, jazirama quyoshda kuygan kapitan ham emas, shunchaki oddiy agronom.

«Mayli... Otam buni eshitib xursand bo'lgan bo'lardi».

Sasha hali uxlagani ham yo‘q ediki, kimdir derazani sekin taqillatdi. Og‘ir qadam ta’sirida pol taxtalari g‘ichirlab ketdi. Ignat Yegorovich tashqariga chiqdi. Dahlizdan bo‘g‘iq ovozlar eshitildi:

– Sekin, sekin, uyg‘otib yuborma... O‘rindiqqa bir nima tashlab qo‘y. Tunayman-u, tongda qishloqqa...

Kulbaga kirgan tungi mehmonning ovozi Sashaga tanish edi.

– Qayerdan kelyapsan, Pavel? – so‘radi Ignat.

Sasha bu odam tuman qo‘mitasidagi Mansurov ekanini payqadi, u otasi tirikligida uylariga tez-tez kirib turardi.

– Qayerdan?.. Qayerdan bo‘lardi, o‘sha yerdan-da. Byuro topshirig‘iga ko‘ra Stashinskiy qishloq kengashiga borib kelishga to‘g‘ri keldi. Poxol o‘rimiga tayyorgarlikni tekshirdim. Yomg‘irda ro‘baro‘ keldim, shalabbo bo‘ldim va qurishga ham ulgurdim. – Mehmon norozi bo‘lib vaysashda davom etarkan, etigi bilan depsindi: – Davlat bankida ishlovchi keksa buxgalter Fomichyovni vositachilikka o‘tkazib qo‘ydik. Komelev o‘ylab topgan tartiblarni yo‘q qilolmayapmiz...

Sasha sergaklandi. Ushbu so‘zlar aytilgan ohang yaxshi emasdi. Sasha Ignat Yegorovich otasining sha’niga aytilgan bu so‘zlar uchun xafa bo‘ladi, u halol odam edi, deb e’tiroz bildirishini kutgandi, biroq Ignat e’tiroz bildirmadi.

– Bayevdan nimaniyam kutish mumkin? – dedi Ignat Yegorovich past ovozda. – Faqat ilm. Komelevning esa har holda irodasi mustahkam edi. Uni Komelev bilan solishtirib bo‘lmaydi – Bayevga o‘xshaganlar uning oldida hech vaqo emas.

– Vositachilarni eski joylariga jo‘natyapmiz. Malol kelgani sababligina viveskalarini o‘zgartiryapmiz. Komelevgacha vakolatli deyilsa, Komelev paytida oddiygina vakil deyilgan, hozir undan ham chiroyliroq – siyosiy axborotchilar deyiladi. Eski ishtonni ming ag‘darib tikma, baribir teshikligicha qolaverar ekan. Har bir rais ustida bittadan vositachi o‘tiribdi, deb hisoblayver. Shoshiltirishyapti... Meni qayerga yotqizmoqchisan?

– Lampani olib menga yoritib tur. Dahlizdan ko‘rpa-yostiq olay.

Parda orqasidagi yorug‘lik g‘oyib bo‘ldi. Sasha qimirlashdan cho‘chib yotar edi. Qayerdadir pechka ostida sichqonning asta qi-

tirlatgani eshitildi. Zina oldidagi bet-qo'l yuvgichdan paqirga suv tomchilar, har tomchining tovushi eshitilardi.

Sasha oldin ham otasidan tumanda hayot murakkab, tartibsizlik bisyor deganini eshitgandi, lekin ana shu tartibsizliklarning sababchisi o'zining otasi ekanini u xayoliga ham keltirmagandi!

Omoch ostidan olingan bir siqim tuproqni, otasining yuzidagi biroz jiddiy ifodani unutish mumkinmi?

Qattiqqo'llik ila qarab: «Baxtsizlik ustidan kulmaydilar...» deya titrab chiqqan ovoz-chi?

«Go'zal tuproqda go'zal hayot!» – degani-chi!

Otasi ana shunday odam edi! Ularning qanday haqqi bor? Otasini undan ham yaxshi bilisharmidi? Chetdan qarab yuzaki hukm chiqarish juda oson.

Sasha mushtini qisib, butun tanasi bilan jahldan toshqotardi.

Sichqon qo'rqib qitirlatar, suv bir me'yorda tomchilar, uy uyquda – hammayoq sukutga cho'mgandi... Bularning bari tushi emasmikan-a? Biri charchagan odamning titragan ovozi, ikkinchisi – sokin, ishchan. Bo'lishi mumkin emas, bunday deyishlari mumkin emas!

Tashqaridan itarib ochilgan eshik quloqni batang qildi. Sichqon darrov jimib qoldi, kiruvchilarning ovozidan tomchi tovushi eshitilmay qoldi.

Parda ortidan sharpalar o'tib ketdi. O'rindiqqa solingan ko'rpa-to'shakning shitirlashi eshitildi.

Sasha hayajondan nafasi bo'g'ilib, eshitishga tayyorlandi.

Bu safar Ignat Yegorovich dahlizdagi gapni sekinlik bilan davom ettirdi va u Sashaning otasini himoya qila boshladi.

– Insoniy xislatlarimi?.. Gap shundaymikin? Xudoga shukur, Komelev bunday xislatga ega edi. Sofdil, rostgo'y... Odamlarga yaxshilik qilish uchun hamma narsaga tayyor edi, hatto o'zini tomdan tashlashga ham... Rahbar odam ana shunday xislatga ega bo'lmasa yomon, birodar, ammo buning o'zi kam.

– Umumiy gaplar.

– Eshit... Moskvaning o'zidan, vazirlikdan reja yuborishadi. Deylik, faloncha kuzgi bug'doy ekilsin deb. Viloyat tumanlarga taqsimlaydi. Tuman esa – kolxozlarga. Nihoyat ana shu reja bizga,

ya'ni bug'doy ekuvchilarning qo'liga keladi. Biz esa ob-havo, yerimiz to'g'ri kelmayotganini ko'ramiz, bunday bug'doy bizda umuman o'smaydi. Xo'sh, men nima qilishim kerak? Darhol xabar qilishim lozim: voqea mana bunday, rejaga o'zgartish kiritishga ruxsat bering. Yaxshi rahbar bunday o'zgartirishni darhol tushunadi, ilg'ab oladi, chalkashlik yuzaga kelmasin deb yuqoriga uzatadi. Yomon rahbar bo'lsa qaysar, u kattalarga e'tiroz bildirib bo'lmaydi, deydi. Yaxshi rahbar ikki tomonga ham quloq tutadi. Yomon rahbarning bir qulog'i og'ir bo'ladi. Yuqoridan aytilgan gapni darrov ilib oladiyu, pastdagilar maslahatini eshitmaydi. Mana, qanday sifatli odamlar bo'ladi... Komelev bahor sharsharasi kabi yuqoridan pastga qarab oqishi bilan yomon-da. Odamlarni sevardi, ularga yaxshilik tilardiyu, lekin ularga ishonmasdi. Ko'pincha shunday bo'ladi – kimni sevsalar, o'shanga ishonishmaydi.

To'shak shitirladi – mehmon yotishga hozirlanyapti shekilli.

– Ayt-chi, – eshitildi Mansurovning ovozi, – sendan, tumanning ko'tarilishiga nima xalaqit beryapti, deb so'rab qolishsa-chi? Juda og'ir savol, haddan tashqari umumiy... Sen biron-bir maslahat bera olarmiding?

Bir daqiqacha jim qolishdi. Xonaning narigi tomonida yosh bolaning uyqusirab yig'lagani eshitildi.

– Ha, – dedi Ignat Yegorovich, – nimadir deyishim mumkin edi. Ana shu nimadirni o'z kolxozimda qo'llab ko'ryapman.

– Qiziq. – To'shakning shitirlashi to'xtadi, mehmon diqqat bilan quloq soldi.

– Men bizga viloyatdan kelayotgan rejalarni qaytadan ko'rib chiqqan bo'lardim.

– Aniqrog'i...

– Bizning joylarimiz sut bizdan daryo bo'lib oqishi uchun yaratilgan. Suv quyiladigan qanday o'tloqlar bor! Vodiylarimiz-chi? Bizning vodiylarimiz janubdagi sug'oriladigan o'tloqlardan qolishmaydi. O't-pichan bilan sut beruvchi mollarimiz, kartoshka bilan cho'chqachilig-u zig'ir rivojlangan bo'lardi! Mana bizning iqtidorimiz! Tumanimizni esa don yetkazuvchi deb hisoblaydilar, don eking, don eking, deb reja bilan ko'madilar. Don esa unmaydi, kuzda yomg'ir ostida qolib nobud bo'ladi... Shunday bo'lsa ham mol boqa-

miz, kamroq bo'lishi kerak edi, lekin bundan kam bo'lmaydi, borini ham arang boqyapmiz. O'rilgandan keyin qolgan o'tni aytmaysanmi – qanaqangi boylik – qor ostida qolib, chirib ketadi. Xohlasak ikki, hatto uch barobar ko'p mol boqishimiz mumkin edi. Yerdan unumli foydalanmayapmiz. O'z ko'zimizga, kolxozchining maslahatlariga emas, tepadan kelgan qog'ozlarga ishonamiz. Rejalarni qayta ko'rib chiqish kerak – mening rahbarlarga maslahatim shu. Komelevga ham yo'l ko'rsatganman. U quloq solar, goho indamas, goho: «Shundaylikka shundayku-ya, biroq rejani o'zgartirib bo'lmaydi», – deb e'tiroz bildirardi.

– Buning uchun urishish kerak, – xayolchan dedi Pavel Mansurov.

– Ha, kerak... Lekin kim bilan urishishni bilmaysan. Goho majlislarda quloch otasan – gup! Qarabsanki, havoga urding. Raqib yo'q. Hech kim aybdor emas.

– Urishmoq kerak... Shu bilan suhbat tugadi.

Pol taxtalarini g'ichirlatib, Ignat o'zi yotadigan tomonga ketdi. Karavot ikkinchi marta g'ichirladi – Ignat xotinining yoniga borib yotdi.

Sasha juda horib, bo'shashib, qora shiftga tikilib yotardi.

«Bahorgi anhor kabi bir tomonga oqardi... Odamlarga ishonmasdi... Unga aytib turardilar... Nahotki shu gaplar rost bo'lsa?.. Yolg'on! Bo'lishi mumkin emas!.. Ularning yolg'on gapirishidan nima foyda? Balki otam ularni ranjitgandir? Ularning gaplarida xafalik alomati yo'q edi... Urishish kerak... Kim bilan? Otam hayot bo'lganda, u bilan urishishar edi! Bu qanday gap bo'ldi?!»

Qimirlashdan, uxlamay yotganimni bilib qolishlaridan qo'rqib, Sasha yig'lab yubordi. Quloqlarini qitiqlab ko'z yoshlari oqib tusha boshladi. Piqirlab yig'lab yubormaslik, ingramaslik uchun tishini tishiga qattiq bosdi. Chekkasiga qon urdi: «Ota! Ota! Ota!..»

Hatto otasini ko'mishayotganida ham Sasha o'zini bunchalik og'ir sezmagandi. Otasi qazo qildi, ketdi, lekin undan eng yaxshi xotiralar qoldi. Endi bo'lsa o'sha, oxirgi muqaddas xotiralarni ham ko'mib tashlash kerak! Hech narsa qolmadi! Bor edi, endi esa yo'q, eslaydigan hech narsa yo'q! Mumkin emas! Ishonib bo'lmaydi! Dahshat! Bundan yomoni bo'lmaydi!

Qon gupillab urar, Sasha ko'z yoshini yutardi.

Parda orqasidagi somon to'ldirilgan to'shakda Pavel Mansurov g'imirlar edi. Bir necha marta pardani yoritib gugurt chaqib, papirosini chekdi. Uning ham uyqusi kelmas, u ham nimadandir betinch edi.

Faqat xonaning narigi burchagidan uy egasining xurrak otayotgani eshitildi. Ignat darrov uyquga ketibdi, u xotirjam.

Bu xurrak Sasha qalbida zidlik, hatto nafrat qo'zg'atdi. «Uxlayapti... Unga nima... U bilan ishlamayman... Ketaman...»

7

Qarilikning ilk belgisi sochning oqida, peshanadagi ortiqcha ajinda yoki aylanma zinadan chiqayotganingdagi hansirashda emas, balki odamning o'z o'tmishini yodga olishidadir. Ba'zi odamlar vaqti bekor ketganini o'ksinib, alam bilan, ikkinchilari hamma qatori yashadim, uyaladigan ish qilmadim deb eslasalar, uchinchilari tuproqni bekorga bosib yurmadim, orqamda izim qoldi, deb eslaydilar.

Pavel Mansurov o'ttiz besh yoshda, qora jingalak sochlariga bitta ham oq tushmagan va qachon oq paydo bo'lishi ham noma'lum, shunday bo'lsa-da bug'doyrang peshanasiga bir-ikkita ajin tushgan, erkak kishi uchun buning nima yomon joyi bor. Mansurov chidamli, bardoshli odam, pahlavonlardek gavdasi bilan devonxona stolida o'tirarkan, goho o'ksinib qo'yadi... Qarilikka hali uzoq!

So'nggi paytlarda Pavel o'z o'tmishini tez-tez, tashvish bilan eslaydigan bo'lib qoldi. O'ttiz besh yosh! Umrning yarmi o'tdi, agar undan-da ko'pi bo'lmasa! U nimalar qildi, odamlarga nima qoldirdi?..

Ignat bilan tungi tasodifiy suhbat Pavelni sarosimaga solib qo'ydi.

Bu suhbat boshqa suhbatni yodiga soldi.

Pavel yaqinda mashina-traktor stansiyasining bosh agronomi Trofim Chistotelov bilan o'rmon va siyrak o'rmonzorlar orasida bo'linib ketgan bir kolxozning brigadalarini aylanayotgan edi.

Kun bulutli, nam edi. Lekin changalzor va daraxtlarda qushlar tinmay sakrardi. Qushlar bekinishmagan, demak, yomg'ir yog'maydi.

Chistotelov, baquvvat, oshlangan burushiq yuzini ajin bosgan, kalta qirqilgan oq sochli, savlatli qariya og'ir hamroh edi. Darroz, tik gavdali, xuddi mashina kabi qadam tashlardi. Pavel ham nimjon emas, buning ustiga armiyada yurib o'rgangan bo'lsa ham cholning orqasidan yosh bolalardek sakrab-sakrab, arang yetib olardi. Chol katta-katta qadam tashlar, gohida og'ir pishillab qo'yar, tikandek, qoshlarini chimirardi (kuldi deb hisoblayvering), «o»ga urg'u berib:

– Charchadingmi, yigitcha?.. Ko'nikmagansan-da. Agronom uchun eng muhimi nima? Bosh deb o'ylaysanmi? Yo'q, oyoqlar, – derdi.

U yana uzoq jim borar, tag'in orqasidan yetib ulgurishing kerak.

Taxminan o'n besh kilometr yurib, dalalarni aylanib chiqishdi, hamma ishlarni tugatishdi-yu, kun botishiga hali biroz bor, ular esa orqaga qaytishyapti.

G'ildirak izi bazo'r sezilib turgan o'rmon yo'li, qarag'ayzordan chiqib, yovvoyi malina o'sib yotgan changalzor orasidan egri-bugri yo'l bo'ylab ketgandi. Mana, yerda yotgan archa – qurib qolgan zangsimon shoxlarini o't bosib yotibdi, chirigan o'zagida iflos, kechagi yomg'irdan keyin hali qurimagan suv. Anavi yerda esa qiyalik, so'ngra daladan o'tilsa, besh kilometrlar chamasi uzoqda qishloq – hordiq chiqarish mumkin.

Ular nishab tepasiga chiqib to'xtashdi... Pavel hayron bo'lib agronomga qayrildi.

– O'sha yo'lmi? Mabodo adashib qolmadikmi, Trofim Savvich?

Chistotelov ham to'xtab, bir narsa deb g'uldiradi, oldinga tikildi: ko'l ko'rindi!

Ertalab shu yerdan o'tib ketishayotganda na ko'l, na daryo va hattoki ariq ham yo'q edi. Endi esa qarshilarida nursiz-moviy rang suv bulutli osmon ostida osoyishta yotardi.

– O'tdik!.. Qayerdamiz o'zi! – dedi Pavel toliqqanidan g'ijinib.

Lekin Chistotelov qoshini ko'tardi-da, dadil qadam tashlab ko'l tomon ketdi.

G'alati ko'l... Pavel diqqat bilan tikilib borardi. Uning sohili yassi, tekis va to'g'ri, bir burchida tikkayib turgan butaning aksi suvda ko'rinmasdi...

Faqat yaqinroq kelibgina Pavel o‘zini tutib turolmadi va «ah» den taajjubga tushdi. Qanaqa ko‘l! Hech qanday ko‘l yo‘q! Suv ham yo‘q. Bu zig‘irpoya edi... Zig‘ir ekilgan oddiy dala, ular ertalab ham uning yonidan o‘tishgandi.

– Jin ursin! – hayron bo‘ldi Pavel. – Bir o‘zim bo‘lsam shotini orqaga burgan bo‘lardim. Xuddi ko‘lning o‘zginasi!

– Zig‘irpoya! – deya Chistotelov astalik bilan bir necha shoxchalarini uzib oldi. – Ularniki juda qalin o‘sibdi-yu, lekin sal pastroq ekan-da...

Indamas chol to‘satdan gapga tushib ketdi.

– Bizda qayoqdan ham yaxshi zig‘ir bo‘lsin? – deb po‘ng‘illadi u. – Qanday qilib shu paytgacha qurib qolmaganiga hayron bo‘lasan. Mana, bug‘doyni olaylik, bizda u kam unumli, lekin biz qanday navligini bilamiz, qo‘rqmay ekaveramiz. Dalalarga hatto bu yerda bundayi, bu yerda mana bundayi ekilgan deb taxtachalar ham qoqib qo‘yganmiz. Bizning yerimizda zig‘ir na nomsiz, na vatansiz. Faqat uzun tolali zig‘ir borligini bilamiz, xolos. Uzun tolali zig‘irning esa o‘nlab navlari bor. Bu qanday nav deb so‘rasang ham bilmayman. Qandaydir nasl-nasabi yo‘q nav. Uzun tolali zig‘ir ham emas... Oldinlari zig‘ir poyasini panjaraga ilsang, uchi yerga tegar edi. Korshunovo bo‘zlari mashhur edi, Moskvadan savdogarlar kelishardi. Zig‘ir uchun bizni davlat tillaga ko‘mib tashlasa bo‘ladi. Zig‘ir uchun bizga don ham, pul ham berishadi. Biz bo‘lsak zig‘irdan yuz o‘giramiz. O‘z baxtimizdan yuz o‘giryapmiz...

Pavel cholning orqasidan arang yetib borar ekan, uning so‘zlarida qanchalik achinish va alam borligiga hayron bo‘lardi.

– Nega indamaysan? Masalani o‘rtaga qo‘y.

– Indamayman?.. Gapiraverib-gapiraverib ovozim bo‘g‘ildi. Behudaga vaqt sarf qilganim qoldi. Stolimda ikkita hujjat yotibdi: biri – «Birinchi may» kolxoziga zig‘ir rejasini oshig‘i bilan bajarganligi uchun rahmatnoma, ikkinchisi – xuddi o‘sha tuman ijro-qo‘mining shu kolxoz raisi Kostya Zaysev bilan birga ekish rejasini buzgani to‘g‘risidagi qarori, qarorda arpa va bug‘doyni kam ekib, zig‘irni ortiqcha ekkani uchun kulini ko‘kka sovurgan. Bir qo‘llarini zig‘irga uzatsalar, ikkinchi qo‘llari bilan itarib yuboradilar. Bizda mana shunday, sen bo‘lsang indamaysan deysan.

O‘sha suhbatni eslar ekan, Pavel Ignatning uyida dag‘al to‘shakda anchagacha uxlolmay, u yoqdan bu yoqqa ag‘darilib yotardi.

Gap zig‘irda emas – undan-da kattasida.

Mashina motoridan goh-goh bo‘g‘iq ovozni eshitish mumkin. Tajribasiz odam uchun bu taqillash hech narsani anglatmaydi. Mexanik esa bundan tashvishga tushadi: tirsakli val podshipnigi taqillayapti! Vaqtida motor to‘xtatilmasa, mashina ishdan chiqadi, unda to‘liq ta’mirlashga topshirish kerak bo‘ladi. Jarangsiz taqillash – yaqinlashib kelayotgan falokatdan darak.

So‘liy boshlagan zig‘ir esa zig‘ir xo‘jaliklar uchun ana shunday signal sanaladi. Korshunovo tumanida hayot noto‘g‘ri yo‘ldan bormoqda.

Bu signalga quloq solishmaydi, uni sezishmaydi, indashmaydi. Nima uchun?

Vazirlik viloyatlarga, viloyatlar esa tumanlarga, tumanlar – kolxozlarga reja tushiradi, g‘ildirak aylanaveradi, yo‘lga qo‘yilgan mashina ishlayveradi, uning harakatini o‘zgartirib ko‘r-chi – xavfli, qo‘lingni uzib olishi mumkin!

Pavel Ignat bilan baravar turdi. Nonushta ham qilmay, ketib qoldi. Uyga ketayotib aylanma yo‘ldan mashina-traktor stansiyasiga kirdi, Chistotelov bilan uchrashdi, undan agronom aytgan o‘sha ikkita hujjatni so‘radi. Tuman ijroqo‘mi raisi Sutolokov imzo chekkan ikki hujjat chindan ham bir-biriga qarama-qarshi, bir-birini rad etardi.

Mashina-traktor stansiyasining machinist-kotibi, keng yuzli Petya Silin Pavelga hujjatlarning nusxasini olib berdi.

Pavel uyida birinchi duch kelgan bo‘sh papkani qo‘liga oldi. Bu oddiy papka edi – bundaylarni mahalliy nogironlar arteli yuztalab chiqarardi – papkaning ustiga: «...-raqamli ish» deb yozilgandi. Papka juda eskirgan bo‘lib, siyohrang bog‘ichlari aynib ketgan va qo‘lni deyarli bulg‘amasdi. Pavel nusxalarni ana shu papkaga soldi.

8

Sasha mudrab qolibdi, bor-yo‘g‘i bir necha soat uxlabdi va bu uyqusi uni uyiga olib ketibdi. Tushiga tizzasida Lenani o‘ynatayotgan

jonli, sog'lom otasi kiribdi. Lekin u nima uchundir o'zining Yegor amaki haqidagi odatiy qo'shig'ini aytmay, xona burchagiga ilingan radiokarnay singari jarangli ovoz bilan: «Men endi kazakmas, endi men turkman...» deb qo'shiq aytardi.

Uyg'onib qarasa – haqiqatan ham radio kuylayapti. Hayron bo'lib atrofga alangladi – qayoqqa kelib qoldim? Sarg'aygan taxtali shift, eskiligidan xiralashib ketgan chit parda, bo'yiga mos bo'lmagan tor karavot: uyda emas! O'sha soniyadayoq tundagi ikki kishining sekin, bamaylixotir suhbatlari esiga tushib qoldi... Sasha o'rnidan sakrab turdi, kimdir ta'qib qilayotganday atrofga alangladi, kiyina boshladi: «Ketaman! Ketaman! Hoziroq! Bir daqiqa ham qolmayman...»

Kulbada hech kim yo'q – na mehmon, na uy egasi, faqat to'siq orqasida Ignat Yegorovichning qizlaridan biri ukasiga dakki bermoqda:

– Nega mushukka tupugingni artasan? O'zi yuvinib oladi.

Deraza oldidagi kichkina stolda arzon priyomnik turibdi. Aynan shu priyomnik kuylayapti... Uy egalari bir daqiqaga chiqib ketgan bo'lsalar kerak, hozir qaytib kelib qolishadi.

Kim bilandir uchrashib qolmay, deb Sasha tezda eshik oldiga chiqdi.

Quyosh osmonga ko'tarilib ulgurgan, tonggi nurlarga o'xshamay isitardi, Holdan toygan tovuqlar ko'cha o'rtasida tuproqqa ko'milib yotishardi. Qo'shni molxonada sigir mo'rardi.

Qishloqda odam zoti ko'rinmaydi. Dalaga olib boruvchi yo'l bo'm-bo'sh. Hozir ana shu yo'l bilan tosh yo'lgacha piyoda chiqadida, u yog'iga mashina to'xtatib, haydovchidan olib borib qo'yishni iltimos qiladi va... qaytib kelmaydi. Tamom! Hammasi tugadi!

Lekin bir fikr Sashani to'xtashga majbur qildi: «Ko'ngildagini aytmay ketaveramanmi?.. Qochib ketamanmi?.. Yo'q, Ignat Yegorovich bilan gaplashib olish kerak. Ochiq-oydin aytaman: eshitdim, bilaman, siz bilan ishlolmayman, yordamingiz ham kerakmas... Ro'yi-rostini, to'g'risini aytaman. Ana o'shanda qo'rqoqlarcha qochib ketdi, desin».

Sasha eshik oldidagi zinapoyaga o'tirdi – Ignat Yegorovich uyiga kirmay o'tmaydi, ertami-kech keladi.

Qo‘shni hovlidan sariq sigir savlat to‘kib asta chiqib keldi – bir daqiqa avval shu sigirni nolib, o‘tinib mo‘ragan deb aytmaysan kishi. Sigir ortidan xipchin ushlab olgan bir kampir ko‘rindi. Kampir norozi bo‘lib po‘ng‘illadi:

– Boshqa dardimiz yo‘qday... Qornini qappaytirib olibdi... Qayoqqa, harom o‘lgur! Hozir yana bog‘lab qo‘yaman!

U zinada o‘tirgan Sashani payqab, qo‘lini peshanasiga qo‘yib, ko‘zlarini quyoshdan to‘sib, beandisha qarab, beparvolik bilan o‘girilib to‘ng‘illay ketdi:

– Kuchi oshib-toshib yotibdi, har bir mayda narsaga: qaynanajon, qaynanajonimmish... Hamma ishni qaynana qilishi kerak. Ertalab barvaqt turib ro‘zg‘or ishlariga qarasang bo‘lmadimi, molga o‘xshamay ket...

Kampir qarilikdan qorayib, tomirlari bo‘rtib chiqqan oyoqlari bilan tuproqni sidirib, sekin-asta uzoqlashdi.

Ko‘rinishdan hech gap bo‘lmagandek: kampir sigirni haydab, Sashaga bir qarab qo‘yib, o‘z qarilik qismatidan nolib o‘tib ketdi, ammo Sasha birdan bo‘g‘ilganday bo‘ldi.

Mana, u begona uyning oldidagi zinada o‘tiribdi, ro‘parasidan begona odam o‘tib, nimalarnidir aytib nolishmoqda... Dunyoda Sasha Komelev bormi yoki yo‘qmi, uning boshiga kulfat tushdimi, yo‘qmi, bu bilan mutlaqo ishi yo‘q. Mana shu usti mog‘or bosib qorayib qolgan taxta bilan yopilgan har bir tom ostida odamlarning o‘z quvonchlari, o‘z ranj-alamlari bor... Bu qishloqning orqasida boshqa qishloqlar bor, olisda shaharlar ko‘rinadi. Dunyo keng, hamma yoqda odamlar yashaydi, lekin butun dunyoda Sashaga yordam bera oladigan odam yo‘q. Onasimi? Singillarimi? Ularning o‘zlari Sashadan yordam kutishyapti-ku. Dunyo keng, sen esa yolg‘iz! Nima qilsang qil.

– Ko‘p uxlar ekansan. Bizda bunday emas! – Sasha seskanib tushdi.

Ignat eshikni oyog‘i bilan tepib ochib hovliga, keng, dazmoldan keyin hali g‘ijimlanmagan oppoq ko‘ylakda, yelkador, yuzlari qipqizil, xushchaqchaq holda kirib keldi. Yo‘lkaga sepilgan qumni etigi bilan g‘ijirlatib bosib keldi-yu, qo‘lini uzatdi:

– Yur, choy ichamiz, keyin o‘tloqqa ketamiz. Bugun hamma burchaklarni aylanib chiqamiz.

Sasha burilib, istar-istamas Ignatning qadoqli kaftini qisib qo‘ydi.

– Gaplashib olmoqchiman...

– Choy ustida hammasini gaplashib olamiz.

– Yo‘q, shu yerda... Siznikida ishlamayman. Ketaman.

Ignat ochiqko‘ngil qiziqish bilan tikilib qoldi.

– Bunday o‘ynoqilik qayerdan paydo bo‘ldi – kecha so‘raganding, bugun ketaman deysan? Keskin sakrapaysan, yigit.

– Hammasini eshitdim... tunda... otam haqida... gapirganingizni.

Ignatning kalta, siyrak kipriklaridan xushmuomalalik darrov uchdi; busiz ham kichkina, lekin o‘tkir, tik boquvchi ko‘z qorachiqlari yanada torayib ketdi. Sashaning ko‘zlari yoshga to‘ldi – ko‘zlarini olib qochgisi kelmasdi, shu bilan birga Ignatning ko‘zlariga tik qarashdan tortinardi.

– Demak, uxlamagansan... – dedi Ignat o‘ylanib. – Ha, bilganimda seni ham taklif qilardim. Erkaklar suhbati bo‘ldi. – U keng, qaynoq kaftini Sashaning torgina yelkasiga qo‘ydi. – Xafa bo‘ladigan joyi yo‘q...

Lekin Sasha jahl bilan yelkasini silkitdi.

– Ketsang ketaver – zo‘rlab olib qolmayman. Faqat shuni bil: hayotingda birinchi qadamingni qo‘yyapsan, eng birinchi – va darrov haqiqatdan qochyapsan. Ehtiyot bo‘l! Haqiqiy inson bo‘lolmaysan. Shunday ekan, ketaver. Zorim bor-u, zo‘rim yo‘q, qo‘limdan nima ham kelardi?

Uni ushlab turishmadi, ketaver, deyishdi. Teskari burilib yelkasi osha: «Xayr!..» deb ketish kerak edi, lekin Sasha qimirlamay, boshini egib, Ignatning etigiga tikilganicha qoldi.

«Haqiqatdan qochyapsan...» Bunday so‘zlardan keyin indamay ketib bo‘lmaydi. E’tiroz bildirish kerak! Lekin qanday qilib?..

Qolish kerak. Umrbod emas – vaqtincha. O‘rganish, isbotlash, so‘ngra ketsa ham bo‘laveradi...

Daroz, devqomat Ignat yengil, yirik qadamlar tashlab, erkin borardi. Kolxoz raisi kunning asosiy qismini oyoqda o‘tkazadi. Kun bo‘lsa endi boshlandi, hamma charchoq hali oldinda, hozircha pi-

yoda yurish huzur beryapti. Sasha rais bilan teng qadam tashlay boshladi-yu, beixtiyor o'zida raisning g'ayratini seza boshladi.

Tushga yaqin quyosh yaxshigina qizdirayotgan bo'lsa ham, havoda ertalabki salqin ta'siri qolgani bois issiq odamni unchalik holdan toydirmasdi. Mayin shabada esib turibdi. Hali yetilmagan boshoqlarning uyqudagi odam nafasi singari chayqalishiga bedanalarning yo'rg'alab shitirlashi qo'shilib ketardi. Yo'l chetidagi o't-o'lan ustida arilar g'ing'illashib uchib yurishibdi. Ular norozi bo'lgandek nola qilishar, avjiga chiqqanda birdan to'xtab, gul ustiga qo'nishar, unga yopishib olishardi. Chamasi ular yegulik izlashni la'nat deb bilsalar kerakki, alamlarini gullardan olishyapti.

Arilarning g'o'ng'illashi-yu boshoqlarning bir-biriga tegib shitirlashi, bedanalarning bug'doyzor ichida yo'rg'alab, cho'chib o'tkazgan hayoti alohida sezilmaydi. Ammo hammasi bir bo'lib, hayotning tartibga solinganligini, tevarak-atrofning aslligini bildiradi.

Agar sen shunchaki tinch bo'lsang, bunday daqiqalarda ichichingdan noaniq, sokin sevinch paydo bo'ladi. Bu dunyoda yashash qanday yaxshi! – buni faqat ana shunday tushunish kerak.

Agar ichingni kimdir kemirayotgan bo'lsa, atrofingga beparvo nazar solsang, qiziqsang, ancha yengil tortasan.

Sasha qadam tashlar va har bir qadamidan so'ng otasi uchun chekayotgan g'am-tashvishi kamaya borardi. U qadam-baqadam tundagi suhbatdan uzoqlashib borayotganday tuyulardi.

Qora terga botgan, kayfi chog' Ignat o'girildi-yu, bosh irg'ab tepalikka ishora qildi. Tepalik yon bag'rini archa bosgan, undan balandroqda tog' teraklari, undan teparoqda esa bir-biriga kirishib ketgan butazor ko'rindi. Eng tepada bo'lsa tep-tekis yalanglik.

– Tepaga chiqishni xohlaysanmi? Dastavval kolxozni tepadan turib ko'rasan. Qayerda nima borligini bilib olasan. So'ngra to'g'ri Rjavino o'tlog'iga tushib boramiz.

Tepalik Gorodishche deb atalardi. Tepalik haqidagi qishloqlarda rivoyatlar kezib yuradi. Bir paytlar (qachonligini hech kim aniq bilmaydi, juda qadim zamonlarda deb ta'kidlashadi) Korshunovoning o'rmonzor qishlog'iga dushmanlar bostirib kelishdi. Tatarlarmi yoki boshqa bosqinchilarmi – bu ham ma'lum emas. Atrofdagi qishloqlardan to'plangan dehqonlar eng baland joyni tanlab olib, atrofini

xodalar bilan o'rab olishib, shu yerda dushmanni tosh, qatron, yonib turgan xodalar bilan kutib olishdi. Hatto uzun sopli nayzalar ham ishlatilgan, deyishadi. Dushman chekindi, ular qaytib ketgan joyga qal'a qurishdi.

Hozir bu yerda to'nkalar, sarg'aygan butalar, quyosh nuri ostida kuyib ketgan o'tdan boshqa hech narsa yo'q. Qal'adan asar ham qolmagan. Tepalik uning nomini va shuhratini saqlab qolgan, xolos.

Tumandagi eng serqatnov tosh yo'l tepalikning o'ng tarafidagi siyrak daraxtzordan o'tadi. Bu yo'l Korshunovoni stansiya bilan bog'lab turadi, o'rmon xo'jaligi binosigacha olib borib, qo'shni Shumakovo tumaniga ham yetib boradi. Qishloqning tig'izlangan chang dala yo'llari, o'tloqdan o'tuvchi va qoqio't hamda sariq gulli o'tlar bosib yotgan so'qmoq yo'llar – hammasi irmoqlar katta daryoga kelib qo'shilgani kabi egri-bugri bo'lib, buralib ikki cheti simyog'ochli ana shu katta yo'lga kelib ulanadi. Bu yo'lda kun-u tun motor gumburlashi tinmaydi. Uch tonnali ZISlar ketyapti, yog'och-taxta tashuvchi mashinalar oyna va loklarini yiltiratib, shoshilmay harakatlanayotgan yuk mashinalariga qarata hayqirishyapti, «Pobeda»lar g'izillab o'tib turibdi.

Katta yo'l – «Mehnatkash» kolxozining chegaralaridan biri.

So'lda oqara boshlagan javdari bug'doy dalalari, jigarrang tusdagi haydalgan maydonlar, Eski va Yangi Ramenye qishlog'i orqasida esa o'rmon ko'zga tashlanadi. Uning orasida, qorayib ko'rinuvchi ignabargli o'rmonda ochiq joy bazo'r ko'rinadi. U yerda ham dalalar va qishloq bor. U Katta o'rmon deb ataladi. Nariroqda, o'rmonning orqasidagi pichanzorlar uzoqligi uchun «Saxalin» deb ataladi. Qiyoq va yo'sin bilan qoplangan tepaliklar orasida atrofi kavlangan ustunlar qaqqayib turardi.

Va bu kolxoz chegarasi hisoblanadi.

«Mehnatkash» kolxozining yeri ulkan. Bir tarafidan elektr simlari tortilgan simyog'ochlar, kecha-kunduz mashina ovozi to'xtamaydi, boshqa tarafidan... Podaga haydalgan sigirni ko'karib ketgan va mog'or bosgan holda chakalakzordan topishgan paytlar ham bo'lgan, ayiq sigirni bo'g'izlab, biror haftaga, go'sht «obi-tobida» bo'lib tursin, deb tashlab ketardi.

Oq ko'ylagi shamolda hilpirayotgan Ignat baquvvat oyoqlari bilan quruq o'tni bosib, ko'kragini kerib turar, shamol esa uning og'zidagi so'zlarini yulib ketardi. U Sashaga shoshilmasdan o'zining keng yoyilgan xo'jaligi haqida gapirib berar edi.

Siyrak o'rmonzorlar, yakkam-dukkam qayinlar, to'p-to'p bo'lib qorayib turgan archa daraxtlari, ko'm-ko'k, tumanli, arang ko'zga tashlanuvchi bepoyon dalalar... Ular uchun hattoki ushbu shaffof havo haddan tashqari quyuq, ko'z uning orasidan qiyinchilik bilan yorib o'tadi.

Balandlik o'ziga mahliyo qiladi, cheksizlik doim hayajonga soladi, o'z xohishing bilanmi yoki itoatkoronami, asta yig'laging yoki to'polon qilib, shunday qichqirging keladiki, uqyuda yotgan sukunatni uyg'otib yuborsang...

Aftidan Ignat Yegorovich shunga odatlanib qolgan shekilli. U poshnasi bilan yerni ezdi-da:

– Mana bizning xo'jalik. Endi sen shu yerda ishlaysan, – dedi.

9

Bir vaqtlar Korshunovo qishlog'i «savdogarlar qal'a» deb nom chiqargan edi. Endilikda faqat chollargina beshta yuqori birlashmadagi familiyalar – Shubinlar, Ryapovlar, Baxvalovlar, Beznosovlar va Kostyukovlarni eslashadi. Ana shu besh oila yog'och, bo'z, teri, qatron sotishar va har biri boyigan sari o'rnatilgan tartibga bo'ysunardi. Avval bir qavatli og'ir qamoqxonalarga o'xshash omborxonalar qurishar, so'ngra egasining didiga qarab, old tarafiga uncha yorug' tushmaydigan kichik derazalar bilan bezatilgan jimjimador g'ishtli koshona qurishar va nihoyat Yaratganga shukronalar olib kelishar edi. Biroq shu yerda ham har qaysisi o'ziga xon, o'ziga sulton edi. «Ibodat qilish kerakmi? Qayerda? Mitka Ryapov qurgan cherkovdami? Yoki biz Baxvalovlarning ulardan kam yerimiz bormi? O'z cherkovimizni Mitkanikidan ham kattaroq qilib quramiz!» Shuning uchun birgina Korshunovo qishlog'ining o'zida bitta cherkov qoshidagi maktabi va beshta cherkov bor edi.

Korshunovo qishlog'i bir vaqtlar yo'qotgan shuhratiga hozircha qayta erishgani yo'q. Xuddi shunday volost qishlog'i Shumakovo

esa bu vaqt ichida o‘sdi, kichkina bo‘lsa ham shaharga aylandi. Qishloq oldida yog‘ochsozlik kombinati qurildi. Mutlaqo ko‘zga tashlanmaydigan Ptashinki qishlog‘i esa (Shumakovodan nariroqda) katta temiryo‘l stansiyasi bo‘lib qoldi. Korshunovo esa bor-yo‘g‘i viloyatdagi eng ko‘rimsiz qishloq xo‘jalik tumanining markazi edi, xolos.

Ertalab asfalt yotqizilgan yo‘lni changitib o‘tadigan birinchi yuk mashinasi bilan bir qatorda xo‘rozlar ham qichqirishadi. Bir ko‘zi g‘ilay qariya cho‘pon Yemelyan esa mol va uy bekalarini chaqirib, o‘z podasini to‘playdi. Kunduzlari esa tuman Madaniyat uyi oldidagi Korshunovo ahlini yangi kino kelganidan xabardor etuvchi afishalarni echki yeb ketardi. Kechqurunlari daraxtzor oralig‘idagi taxta qoqilgan maydonchada havaskor bayanchi bayan chalar, yoshlar raqsga tushishar yoki qorong‘i pana joy axtarib qolishardi. Yoshi kattaroqlari esa – buxgalterlar, ish yurituvchilar, tuman savdo-sotiq mudiri, boshqa mudirlar yenglarini shimarib, terga botib kartoshka chopiq qilishadi.

Qishloqda begonalar yo‘q. Hamma bir-birini yaxshi taniydi. Agar qishloqning janubiy chetida yashovchi Mariya Filippovnaning echkisi «tiyiqsiz fe’li» sabab o‘z oyog‘ini sindirib qo‘ysa yoki cho‘chqa bolasi sabzini payhon qilsa, bu haqda darrov qishloqning shimoliy burchagida yashovchi Avdotya Polikarpovna xabar topardi.

Umuman olganda, tinch-totuv, qo‘shnilar kabi yashashar, nazarlaridan uzoqda bo‘lgan narsa, masalan, vodorod bombasi yoki Musaddiq[1]ning iste’foga chiqqani to‘g‘risida suhbatlashishni yaxshi ko‘rishardi.

Pavel Mansurov hayotini betinch o‘tkazmoqda edi. Ofitser bo‘lib Yevropani aylanib chiqdi – Budapesht, Praga, Venaga bordi. O‘lim bilan ro‘para kelgan paytlari ham bo‘lgan. Biroq hozir bu bilan hech kimni hayron qoldirolmaysan.

Korshunovo tumani xotinining vatani edi. Pavel harbiy xizmatdan bo‘shaganidan keyin xotini bilan birga bu yerga kelgandi.

---

[1] *Muhammad Mosaddiq* – 1951–1953-yillarda Eron bosh vaziri. 1953-yil 19-avgustdagi Eronda bo‘lgan harbiy to‘ntarishdan keyin 3 yilga qamalgan. (*Tarj.*)

Tuman qo'mitasida hech kim qo'shimcha qiymat haqida undan yaxshiroq seminar o'tkaza olmasdi. Hatto marhum Komelev ham targ'ibot bo'limining o'qimishli mudiridan biroz hayiqardi.

Korshunovodagi sokin hayot Mansurov uchun og'ir edi: hatto juda katta gap-so'z, g'iybatga sabab bo'ladigan favqulodda hodisa ham odatdagi hodisadek qaraladi – tuman iste'molchilar birlashmasida kamomad fosh bo'ldi – besh kishining ishi sudda ko'rildi; Madaniyat uyini qayta qurish uchun taxminan yuz ming rubl ajratildi – yangi kinozal va bufet quriladi.

Pavelni ishi ham xursand qilmasdi. Tashviqot va targ'ibot ishlari – leksiya, siyosiy o'qish, havaskorlarning chiqishi – bular jonlidek tuyulardi-yu, biroq bularning barchasini qog'ozbozlik o'rab olgandi: mavzuga doir rejalar, madaniy-oqartuv ishlari bo'yicha ko'rsatmalar, seminar bo'yicha ko'rsatmalar – bularning nomini eshitiboq miyang quriydi. Qo'llanmalar-chi? Hamma tumanlarning targ'ibotchilari uchun umumiy shpargalka bo'lgan «Agitator bloknoti»dan zerikarli narsa yo'q.

Pavel o'z kabinetida, arzon yozuv anjomi oldida o'tirar ekan: «Qayerdadir odamlar kanallar, million-million kilovattli elektr stansiyalari qurishyapti... Yashashyapti! Bu yerda bo'lsa o'tgan oy – seminar ishlari bo'yicha hisobot, bu oy – leksiyachilar guruhi haqida hisobot. Hech qayoqqa ketolmaysan», – deya o'ylar edi.

Pavelning Zapolyaryega yoki bo'z yerlargami, ishqilib, Korshunovodan uzoqroqqa ketsagina hayoti o'zgarishi mumkinligiga ishonchi komil edi.

To'satdan kutilmagan voqea yuz berdi. Pavel Mansurov qishloqda yashashda davom etar, eski ishida xizmat qilardi-yu, biroq endi zerikishni his qilmasdi. Qishloqdagi jimjit hayot endi uni ranjitmay qo'ygandi.

Korshunovoda ishlayotgan uch yil mobaynida u har xil xatoliklarni, ba'zida o'ta qo'pol yanglishishlarni ko'rdi. Negadir o'zi emas, kimdir boshqa, kuch-qudrati yetadigan odam bu tartibsizliklarni sezishi va to'g'rilashi, korshunovoliklar hayotini o'zgartirishi kerakday tuyulardi. U shu kunni kutar, ba'zida: «U yerdagilar qayoqqa qarashyapti?» – deb to'ng'illab qo'yardi. Go'yoki u yerda oddiy odamlar emas, juda ziyrak, kamchiliklarni bir necha yuz kilometr

naridan ham ko'ra oluvchi va qalam bilan kamchiliklarni to'g'rilab yubora oladigan ziyrak odamlar borday edi.

O'sha tunda Ignat Pavelga: „men atrofda nima bo'layotganini yuqoridagilarga qaraganda yaxshiroq ko'raman, shu sababli ularga yordam beray deyapman, o'zim tuzataman deb harakat qilaman, faqat kuchim kamroq, ovozim ham pastroq, eshitiladigan darajada qichqira olmayman, dedi.

Pavel Mansurov: «Men eshitadigan darajada qichqiraman! Uddalayman! Kuchim yetadi!» deya ahd qildi.

Ignat Gmizin: kimni urishni ham bılmayman, quloch ochasan-u, qarabsanki, havoni mushtlagan bo'lasan, deb iqror bo'ldi.

Pavel aybdorlarni topadi.

Haqiqatni to'g'ri yuzga aytadi! Haqiqat uchun kurash – baxt uchun kurash demakdir! Bunda xato bo'lishi mumkin emas. Odamlarga baxtsizlik keltiruvchi haqiqat ham bo'lishi mumkin emas.

U avvalgidek kolxozlarga borar, mashina-traktor stansiyalariga kirar, suhbatlashar, ammo endi har bir suhbatdan o'ziga kerakligini saralab olardi. So'ngra hisobotlarni titib chiqar, surishtirib ma'lumot to'plar, yozib olardi...

Ba'zida o'z kashfiyotlaridan o'zi hayratga tushardi.

Bir safar u Korshunovo yo'llari uchun odat bo'lib qolgan manzaraga guvoh bo'ldi. Kichkina jarda ko'prik bilan birga balchiqqa botib, yomg'ir ostida qolib ketgan kombayn turardi. Kombayn atrofidagi yer qazib tashlangan, g'ildiraklari ostidan shundayligicha qolib ketgan xodachalar chiqib turardi: kombayn haydovchilar juda ko'p urinishgan, lekin og'ir mashina yomon botib qolgan shekilli. Shundan keyin kombaynchilar shatakchi traktor yuborishar, deya o'ylab jo'nab qolishgan.

Shu voqeadan keyin Pavel mashina-traktor stansiyasidan yo'l noqulayliklari sababli mashinalarning ishsiz turishi, ularning joriy va to'liq ta'miri, shataklarni yordamga yuborish kabi arzimas ishlar, yoqilg'ini ortiqcha sarflash kabi mayda-chuydalar qanchaga tushishini surishtira boshladi... Uchala mashina-traktor stansiyasi bo'yicha, keyingi uch yilda yo'l noqulayliklari sababli ko'rilgan zarar millionlab rublni tashkil etardi. Yuz minglab emas, millionlab! Sinchlarni bir kilometrga tashishning o'zi (material tekin, hamma yoqda o'sib

yotibdi) ikki mingga yaqin tushar ekan. Millionlab bekor sarflangan pulga esa tumandagi hamma yo'llarni ta'mirlab, kombaynlarning erkin yurishi uchun dalalarni kengaytirsa bo'ladi. Miyani o'z vaqtida ishlatmasa, mashina-traktor stansiyasi faqat uch yilgina emas, Xudo bilsin, yana necha yilgacha qiynalishi turgan gap. Bu yerda endi davlatning necha yuz millionlab rubli havoga sovurilishi mumkin. Rejalashtirishda kamchiliklar bor, bu haqda indamaslik zararkunandalikning g'irt o'zi!

Lekin Pavel Mansurov baqirishga shoshilmasdi. Vaqti keladi, tuman qo'mitasi kotibi stoliga hamma raqamlar, fakt va hujjatlarni qo'yadi. Ana shunda javob bermay, indamay yoki stol tortmasiga solib ko'rsin-chi! Pavel Mansurov kabilar bilan gaplashib qo'yadi. Kerak bo'lsa ularga ustavni ham eslatib qo'yadi: «Tanqidni bo'g'ish og'ir jinoyat hisoblanadi». Qonun, kuch – Pavel tomonida! U Ignat Gmizin emas, aytgani havoga uchmaydi, mo'ljalga tegadi.

Pavel Mansurov stolida yotgan, bog'ichlari avvalgi rangini yo'qotgan, eskirgan papka asta-sekin to'la boshladi. Oldinda kurash kutyapti! Qayerda kurash bo'lsa, hayot qiziqarli bo'ladi.

10

Sasha bir haftagacha uyiga kelmadi. Ikki kun ichida ikki otli chalg'ini boshqarishni o'rganib oldi. Beligacha yalang'och, kepkani qoshlarigacha bostirib kiyib olib, o'tloqlarni aylanib yurardi. Quyoshda qoraydi, qo'llarini qadoq bosdi (chalg'i ancha eskirganligi uchun uni tez-tez ta'mirlab turish kerak edi), ramensklik qizlar tushlik ovqatga yig'ilishar ekan, unga qarab:

– Sashenka! Quyoshim! Bu yoqqa kel, – deyishganda ham qizarmaydigan bo'lib qoldi.

Sasha Ignat Yegorovichlarnikida yashar va ovqatlanar edi. Raisning xotini Galina Anisimovna Sashani yangi sog'ilgan sut bilan boqar, baliq go'shtili pirog bilan mehmon qilardi. Sasha omborxonada yangi o'rilgan somon uyumi yonida, polga qattiq to'shak solib yotardi. Tongda uni tovuqlar uyg'otardi. Har doim bir daqiqa oldin uyquga yotganday tuyular, hech uyquga to'ymasdi. O'rnidan sakrab turib, yalang'och yelkasiga kastumini tashlab olib, yalang oyoqda

sovuq shudring tushgan o‘tni bosib, qishloq orqasidagi anhorga chopardi.

Qirg‘oqning sarg‘aygan jarligi qaldirg‘och ini bilan to‘la. Jarlik pastidan oqayotgan anhor katta suvga qo‘shiladi. Suv o‘simliklarini hilpiratib, qum uyumlarini u yoqdan bu yoqqa surib qo‘yuvchi shiddatli soy shu yerga kelib hordiq chiqaradi va yana tinmay yugurib oqib ketadi. Bu yer Alvasti girdobi deyiladi. Kunduz kunlari, quyosh to‘ppa-to‘g‘ri urganda ham bu yerdagi suv yorishmaydi. Shunday suvning labiga uch-to‘rt metrlik yog‘och tiqilsa-da, tubiga yetmaydi. Ertalablari bu yer doim tuman bilan qoplanadi. Yuqoridan qarasangiz, Alvasti girdobi chakalagining yarmigacha qaymog‘i olingan ko‘kimtir sut to‘ldirib qo‘yilganga o‘xshaydi. Kalla tashlab, avval tumanni kesib o‘tib, so‘ngra suvga tushasiz. Suvdan boshingizni chiqarsangiz, ertaklardagidek boshqa dunyoga tushib qolasiz: na sohil va na osmon ko‘rinadi, faqat tuman ustida quyoshning tarqoq nurlarigina sirli, begona quyiladi. Suv iliq, tunda sovib ulgurmagan bo‘ladi. Tizzalaring loyga belanib sohilga chiqqaningda, sovuqdan eting jimirlaydi, ho‘l badaningdan bug‘ chiqadi.

Ignat Yegorovich dasturxon atrofida, samovarning yonida Sashani kutib o‘tirgan edi. Choy tomoqni kuydirar, Ignat Yegorovich bo‘lsa Sasha bilan Ovchinnikovo o‘tzoridagi sug‘oriladigan bir bo‘lak yerda bu yil o‘t juda yomon o‘sgani haqida gapirar edi.

– Men shunday deb o‘ylayman: suv hamma ozuqa moddalarni yuvib ketyapti. Go‘ng solib turish kerak.

Choydan keyin Sasha qishloq oralab otxonaga yuguradi. U yerda Sashani pechka ustiga qo‘yiladigan qo‘zag‘onning qizigan qorniga o‘xshash qizg‘ish, sochi yo‘q otboqar Luka bilan faqat aravaga qo‘shilgandagina uyg‘onadigan, labi osilib ketgan Lyuska laqabli ot va shakarga o‘ch, axta qilingan past bo‘yli «Bir miri» degan ajib laqabli to‘riq ot kutib turardi.

Bunday yashash ajoyib. Ishla, charcha, uxla – mehnat kuning uchun to‘la haqingni olishga ishonching komil bo‘lsin, onangga bir qismini olib borib berishga ham yetadi.

Biroq bu hayotga Ignat Yegorovich xalaqit berdi.

– Yigitcha, institutga tayyorlanish vaqti keldi. Uyingga borib kel, bir-ikki kun tur, kitoblaringni ol-u, orqangga qayt. Kunduzi ish-

laymiz, kechalari birga shug'ullanamiz. To'g'ri, o'rganmagansan, boshida qiyin bo'ladi, lekin boshqa yo'li yo'q. Bolalik tamom bo'ldi, kattalardek yashash vaqti keldi.

Va Sasha uyiga jo'nab ketdi...

Lenka ostonadan uning bo'yniga tashlandi. «Sasha keldi!» «Osilma, o'ziga kelib olishga ham qo'ymaysanlar», – deya baqirdi qizlariga ona, dastro'moli bilan og'zini bekitar ekan, yig'idan o'zini bazo'r tutib turdi-da, idish-tovoqqa urinib ketdi. Katta singlisi Verka qo'shnilardan xamirturush so'ragani chiqib ketdi. Hatto otani ham komandirovkadan kelganida bunchalik xursand bo'lib kutib olishmas edi: uning kelib-ketishlari odat tusiga kirgandi. Hozir bo'lsa yangi xo'jayin, oila boshlig'i birinchi marta uyiga kelyapti.

Sasha ham o'zini munosib tutdi – Lenkaning sochlarini silab qo'ydi, yuvinar ekan, onasiga qarab vazminlik bilan: «Ortiqcha urinavermang», – dedi, onasining cho'chqa bolasi taxta devorni bo'shashtirib qo'ygani, qo'shnilar taxlab qo'ygan o'tin esa qulab devorni yiqitib yuborgani, ularning esa tuzatib qo'yishni xayollariga ham keltirmayotgani haqidagi nolishlariga xotirjam quloq tutardi. «Otam yo'q-da, kimga malol kelmasa, o'sha xafa qilaveribdi...» deya o'yladi.

Sasha bolta, arra va bolg'a olib hovliga chiqdi. Molxonadagi taxta devorni qoqdi, qo'shnisining o'tinini taxlab qo'yib, o'zlarinikini taxlashga kirishdi. Shu bilan birga Sasha ko'cha eshikdan kirib kelayotgan tanish xotinlarga qovog'ini solib, o'zini ko'rmaganga oldi. Oyisi xursand bo'lib tashqariga chiqdi-da, quvonib bosh irg'adi. Ularning nimalar deb pichirlashayotgani ma'lum: «Baxtli ekansan... O'g'ling uddaburon... Tadbirkor». Bu gaplar e'tibor berishga arziydimi?

Kechqurun Sashaning oldiga mehmon keldi.

– Salom, Sasha! Seni ko'rganimga ancha bo'ldi.

Katya Zelensova pastakkina taxta devor ustidan sakrab o'tdi-da, baland poshnali tuflisi bilan taxta qipiqlarini bosib Sashaga yaqinlashib, qo'lini cho'zdi.

– Gaplashib olishimiz kerak.

Sasha shoshilmay, qatron tekkan qo'lini shimiga artib, u bilan ko'rishdi.

Ular zinapoya oldidagi o'rindiqqa o'tirishdi.

Inqilobdan bir necha yil avval Korshunovo qishlog'iga yunonmi yoki armanmi surgun qilingan edi. Ayrim kishilar Turkiyadan movut olib kelib sotgani uchun, boshqalari taqiqlangan kitoblarni olib kelgani uchun badarg'a qilingan, deyishardi... Lekin har holda Korshunovoning yangi fuqarosi na siyosat bilan, na taqiqlangan ish bilan boshqa shug'ullanmay qo'ydi. U o'ziga sovuqda burchaklarini qirov bosib qoladigan yog'och kulba soldi va yaqin qishloqlik mehnatkash, kambag'al qizga uylandi (o'ziga to'q qaysi qiz ham badarg'a qilingan kambag'alga tegadi deysiz), yer haydadi, umrining oxirida piyma qilishga kirishib qoldi. Istagan o'lchamda, buyurganday taxlitda tayyorlab berardi. U bola-chaqa orttirdi, vafot etgandan keyin esa Korshunovodagi eski qabristonga ko'mildi, Katya ona tarafidan ana shu badarg'a qilingan kishining avlodi edi. Maktabdayoq, shimol quyoshi ostida o'sib-ungan odatdagi qizg'ish rang sochli, kulrang ko'zli, qanqaygan burunli qizlardan farqli o'laroq, u Korshunovoda o'zining yunon go'zallariga xos chiroyi bilan ajralib turar edi.

Qalin, qora sochlari orqaga taralgan bo'lib, silliq kichkina peshanasini ochib turardi, bir tekisdagi qoshlari qalin, jilolanib turar, qanshari ustidagi siyrak mo'yi qoshlarini tutashtirgan bo'lib, quyuq kipriklari orasidan chiroyli ko'zlari yiltirar, qirg'iy burunli edi. Bu qiz Sashani keyingi paytlarda biroq cho'chita boshlagan edi.

– Biz tuman qo'mitasida maslahatlashib, seni ishga taklif etishga qaror qildir. Hozircha hisob-kitob bo'limini boshqarasan, so'ngra boshqa ishlarga o'tkazishimiz ham mumkin...

Katya Sashaga homiylarcha nazar soldi, biroq Sasha beparvolik bilan tinglar, hatto biroz xo'mraygan edi.

Shu daqiqalarda Sasha bu suhbatni Ignat Yegorovich eshitib qolsa nima bo'lardi, deb tasavvur qildi. U shubhasiz: «Hali tuxumdan chiqmay turib, boshliq bo'lmoqchimisan», deyishi tayin.

– Istiqbolingni o'ylab ko'r, – shoshmay gapida davom etdi Katya. – Jenya Voloshina esingdami? Hozir viloyat qo'mitasida muhim bo'limni boshqaryapti... Nega jimsan, hech tushunolmayapman. Axir vatanga xizmat qilishdan olijanobroq, buyukroq ish yo'q-ku!

– Buyuk ish deysanmi? To‘g‘ri... – xohlamay dedi Sasha. – Biroq uni o‘zing buzyapsan.

– Seni tushunmayapman.

Katya Sashadan atigi bir yoshga katta edi, biroq tengdoshlaridan o‘zini ancha katta tutardi. Maktabda tashkilotning doimiy kotibi edi. Mabodo biron tantanali tadbirda yoshlar orasidan so‘zga chiqish kerak bo‘lib qolsa, albatta, Katyani tayinlar edilar. Maktabni bitirganidan so‘ng uni tuman qo‘mitasiga hisob-kitob bo‘limining boshlig‘i etib emas, balki yo‘riqchilikka taklif etishdi. Katya kotiblardan biri bo‘lishi aniq. Hammaga ham bunday ishonishmaydi... Sasha esa kechagina o‘quvchi edi. Mana, hozir qaysarlik bilan beparvolik kayfiyatiga tushib o‘tiribdi, bo‘ynidagi chuqurchasini sap-sariq tuk bosib ketgan.

– Senga tushunmay qoldim... – Katyaning gapida muloyim va muruvvatli ta’na ohangi sezilar, go‘yo: «Nega o‘jarlik qilyapsan?» demoqchi bo‘layotganday edi.

– Nimasi tushunarsiz ekan? Buyuk ish deyapsan-u, menga – tekshirilmagan odamga bunday ishni taklif qilyapsan.

Katya qah-qah urib kulib yubordi.

– Azizim Sashka! Qanday qilib sen tekshirilmagan bo‘lasan! Sening tekshiradigan joying yo‘q. Kaftdagiday ravshan: chet elda bo‘lmagansan, hatto qizlar bilan ham gaplashmagansan. Tekshirilmagan emish!

Sasha o‘zicha to‘ng‘illab qo‘ydi.

– Seni qara-yu!.. Anketa bilan o‘lchab o‘rgangansan-da: chet elga borganmanmi, kimlar bilan aloqada bo‘lganman?.. Men besh kun oldingina o‘roq mashinasiga ot qo‘shishni o‘rgandim. Meni tekshirilgan deb bo‘ladimi! Yana to‘g‘ridan to‘g‘ri boshliq qilib olmoqchisiz.

– Gajir ekansan-ku. Kutmagandim, – o‘sha-o‘sha iltifot bilan dedi Katya, lekin yarqirab turuvchi ko‘zlari bilan yashirincha Sashaga qarab qo‘ydi. G‘ijim bo‘lgan ko‘ylagining ochilib yotgan yoqasidan o‘mrovi ko‘rinib turar, biroq ingichka lablarini qattiq qisib olgan, katta, tiniq ko‘zlari tik boqar, xijolat qilardi... Sezmay qolibdi, Sasha juda o‘zgarib ketibdi-ya – jiddiy erkak bo‘lib o‘syapti.

Katyaning muruvvatli ohangi, tik qarashi Sashaga og'ir botdi. U keskin gap boshladi:

– Mana, sen tuman qo'mitasining kotibi bo'lasan, malakangni oshirib kelganingdan keyin tuman qo'mitasida bo'lim boshlig'i, balki qo'mita kotibi ham bo'lasan... Ammo Ignat Yegorovich Gmizinga o'xshagan rais, raisligicha qoladi... U har holda o'z kolxozini yaxshi biladi. Sen esa unga har xil maslahatlar berishing, aql o'rgatishing kerak bo'ladi. Sen bo'lsang hatto otni otga qo'shishni ham uddasidan chiqolmaysan, qanday qilib unga maslahat bera olasan?

– Xo'p, xohlamasang, o'zing bilasan, – dedi qat'iy ovozda Katya. – Xohishing. Kel, bu haqda gaplashmaylik.

– To'g'ri, gaplashmaymiz.

Lekin ularning gaplashadigan boshqa gaplari ham yo'q edi.

Asaldek toza ufq qoraya boshladi. Taxta uyumi, kunduzi taxlab qo'yilgan o'tin, ekin sug'orish uchun qo'yilgan bochkalar, panjaraga yoyilgan poyandozlar orasida ko'rinmay qoldi. Faqat oqshomning salqin havosida butun hovliga qatron hidini taratdi, xolos.

Sasha Katyani zimdan kuzatar ekan, bir voqea yodiga keldi.

Kunlardan bir kuni maktab oldida chillak o'ynayotgan edilar. Darsga chalingan qo'ng'iroq o'yinni uzib qo'ydi. Hamma eng yaqin yo'ldan – taxta to'siqning teshigi tomon yo'l olishdi, avval bolalar, ulardan keyin qizlar kulib va bidir-bidir qilib maktab tomon otilishdi. Sasha bolalardan keyin kelib, tuynukni gavdasi bilan to'sib oldi.

– O'tkazmayman! Aylanib o'tinglar.

Qizlar Sashani orqasidan bir-ikki turtishdi, yer depsinishib beozor «tentak» deyishdi-da, darvoza tomon yugurib ketishdi. Birdan Sasha orqasidan Katya kelganini sezib qoldi. Katya kelib to'xtadi, biroz jim turdi-da:

– Qo'yvor, – dedi buyruq ohangida.

Sasha yelkasi osha o'girildi: uzunchoq engagi ko'tarilgan, qovog'i amrona tushib turar, qalin kipriklari ostidagi ko'zlari esa sirli namlangan edi. Yo'l bersa – uyatga qoladi, qimirlamay turish – qiyin!..

– O'tkazib yubor!

– O'tkazmayman.

– O'tkazib yubor deyapman senga!

Va Sasha chidab turolmadi... Qiz o‘tib ketdi, Sasha bo‘lsa undan ancha keyin bo‘yin egib, orqasidan ketdi. Katya Sashaning unga razm solib kelayotganini sezib, atayin viqor ila borardi.

Katya yelkalarini silkib:

– Sovuq. Men boray, – dedi.

Sasha qaddini to‘g‘rilab, xayrlashishga hozirlandi. Biroq Katya joyidan qimirlamadi.

Ular taxtaning sof iforini tuyib biroz jim o‘tirishdi.

– Men ketishim kerak...

Qiz yana qimir etmadi.

– Agar mumkin bo‘lsa, kuzatib qo‘yay.

Qosh qoraygan payt Katyaning ko‘zlari sirli chaqnadi.

– Xayriyat! Fahming yetdi.

– Bir daqiqa kutib tur, men hozir qo‘limni yuvib, kiyimimni almashtirib chiqay, – deya Sasha uyiga kirib ketdi... Kiyimlarini alishtirar ekan, Sasha qizargan yuzini onasidan yashirardi.

Oy iyagi bilan qari jo‘ka daraxtining uchiga tegib turibdi. Uning nurlari parcha-parcha bo‘lib har yerda sochilib yotardi. Maysazor tarafdan goh-goh zaxkash shabada esar, shunda yerga sochilib yotgan nur sekin harakatga kelardi. Bir parcha oy nuri Katyaning ko‘ylagini yoritib turardi.

Katya jim turib, xayolga cho‘mdi.

– Ayt, – dedi u boshini ko‘tarib, – senga hozircha bu hayot haqiqiymasday tuyuladimi?

– Bolaligimda bir vaqtlar shunday tuyulardi, – deb javob berdi Sasha biroz o‘ylanib. – Bolalar bilan o‘ynab yurardim, cho‘milardim, nalim baliq ortidan suv ostidan to‘nka tagiga kirardim, tunlari esa bir o‘zim qolib o‘ylardim: shu hayot ostida yana boshqa bir hayot bormikin? Matryoshka bor-ku, birini ochsang, ostidan ikkinchisi chiqaveradi... Men uyqudan uyg‘onaman-u, atrofda boshqacha hayot bo‘ladi, deb kutgandim. Shora daryosi, nalim baliqlari, Prislonovo o‘rmonidagi qo‘ziqorinlar – hammasi haqiqiy emas, shunchaki tushimdagiday ko‘rinardi. Ba’zan dahshatga tushardim. Aytishlaricha, shunday ta’limot bor emish – idealistik ta’limot – unda yashaysan-u,

ammo atrofingdagi borliq tushingdagiday yoki shunga o'xshash bo'lar emish.

Ammo Katya bosh chayqadi.

– Men bu haqda emas.

– Bo'lmasa, nima haqda?

– Mana, sen kolxozga ketding... Sen buni haqiqiy hayotning boshlanishi deb o'ylayapsanmi?

– Bo'lmasam-chi? Endi men matryoshkalarga ishonmayman. Maktabni tugatdimmi, demak, men uchun yangi hayot boshlandi.

– Mana men bo'lsam, katta bir maxsus topshiriq kutyapman, balki biror ishga jo'natishadi, deb xayol qilayotgandirman. O'zimni o'zim aldayotganimni bilaman-u, kutaveraman...

– Qanaqa topshiriq?

Katya Sashaga yaqinlashdi: chimirilgan qoshlari, qop-qora ko'zlari qorong'ida ko'rinmasa ham, kipriklari ostida ular chaqnab turardi.

– Sen kulma, men qandaydir favqulodda ish qilish niyatidaman. Senga kulgili tuyulyaptimi? Bechora qiz, jasorat haqida o'ylayapti, hali bolaligi qolmapti, deb o'ylayotgandirsan?

– Kulgili emas, faqat...

– ...Faqat hammasi quruq gap, fantaziya. Yo'q narsani orzu qilish o'rniga yashash kerak, demoqchisan. To'g'ri, Sasha, ming marta to'g'ri! Biroq bunday gaplarni eshitganman... – Katya birdan bosilib, xo'rsindi. – Bo'z yerlarga ketgim kelyapti...

– Nega ketmading?

– O'ylab-o'ylab, shashtimdan qaytdim. Qo'limdan nima ham kelardi? Traktorchi ham, mexanik ham, kombaynchi ham emasman, hatto tirkamachilikni ham bilmayman.

– Biroq, ishchisan. U yerlarda sen kabi xodimlar ham kerakdir.

– Menga o'xshaganlarni yuborisharmidi. Tajribalilarni, shaharliklarni yuborishadi, men esa hali bir yil ham ishlaganim yo'q. Buning ustiga shunday olis joyga ishchi bo'lib borishdan qanday ma'no bor!

– Bo'lmasa traktorchilikka o'qishing kerak edi.

Derazalar, daraxtlari hurpayib turgan binolarga qarab ochiladigan uylar mudrashadi. Tomlarini esa oyning nurlari yoritmoqda. Telegraf

simyog‘ochi ham yolg‘izlik va bekorchilikdan zoriqib, yo‘g‘on tovushda xirgoyi qilardi.

– Senga havas qilaman, Sasha, – dedi Katya biroz sukutdan so‘ng. – Kolxozda ishlayman deding, so‘zingning ustidan chiqding, o‘roq mashinasiga ot qo‘shishni o‘rgana boshlading. Traktor, qoramoy, dud haqida o‘ylasam... Odatdagiday, katta emas... Balki irodasiz bo‘lsam kerak. Chin so‘zim, senga havasim keladi... Bugun seni ko‘rib, juda zo‘r-ku, – deb o‘zimcha hayron qoldim.

To‘satdan Katya so‘zini to‘xtatdi-da, qo‘lini uzatib:

– Xayr, kech bo‘lib qoldi, – dedi.

Katyaning ko‘kragiga tushib turgan oy nurining parchasi o‘t-o‘lan orasiga tushib g‘oyib bo‘ldi...

Eshik g‘ijirladi, quruq so‘qmoq yo‘lda poshnalarning taqillashi eshitildi. Katya qorong‘ilik qo‘ynidan, uyi eshigiga kiraverishdan mayna qilganday qichqirdi:

– Gerdayib ketma tag‘in! Balki, aytganlarim hammasi yolg‘ondir.

Lo‘kidon jarangladi, eshik yopildi.

Sasha oy nurining sonsiz yorug‘ tangachalari qo‘ynida qorong‘ilikka tikilib turardi... Sasha qo‘lini uzatib, kaftiga oy nuri tushgunga qadar havoni timirskiladi.

«Yolg‘on gapirdimi?.. Yo‘q. Aytilgan so‘z – otilgan o‘q...» Uyqudagi daraxt uyg‘onib, shoxlari qimirladi, shudring tushib namlangan yaproqlar asta shitirladi, so‘ngra yana asta uyquga cho‘mdi. Kaftiga tushib turgan oy nuri yo‘qoldi. Sasha xijil bo‘lib qo‘llarini cho‘ntagiga berkitdi.

Kimsasiz yo‘lda, mashina shinalari ostida sayqallangan yirik toshlar yiltillardi. Yo‘l o‘rtasida bochkaning zanglagan temir gardishi yotardi.

Tuman ijroqo‘mi farroshi Klavdiyaning o‘g‘li Vovka ertalab shu g‘ildirakni g‘ildiratib yurmaganmidi? U zo‘r berib pishillab, inqillab, nihoyat temir g‘ildirakni yo‘l uzra taqirlatib g‘ildiratib yuborishga muvaffaq bo‘ldi. Qora tovonlar yalt etdi, g‘olibona, zavqqa to‘la xitob yangradi.

Sasha bu xitobni, yugurib ketayotgan bolaning gulxanda qoraygan kartoshkaga o‘xshash tovonlarini eslab, kulib yubordi.

11

Ishlab chiqarish kombinatida, zog'chalarni cho'chitib, bo'g'iq gudok ovozi yangradi.

Mashina-traktor stansiyasi hovlisidagi yog'ochga osib qo'yilgan omoch tishiga to'qqiz marta bong urildi.

Pochtachi Kuzmich sumkasi gazetaga to'la, odatdagiday bukchayib, pochta zinasidan tushib keldi.

Tuman iste'molchilar birlashmasi do'konining eshigi ochildi, Prislon yoki Suxarevka qishlog'idan kelgan echki soqol chol bilan ko'zlari o'tkir kampir savlat to'kib do'konga kirib, do'kon peshtaxtasiga tashlab qo'yilgan qalin movutni qiziqish bilan paypaslab ko'ra boshladi.

«Maishiy xizmat» birlashmasiga qarashli sartaroshxonada g'iybatchilar odamlar orasida «O'tmas ustara» deb nom chiqargan Sudarsev kolxoz raisining soqolini olar ekan, Vashingtondagi senator Makkarti yana qanday qiliq qilar ekan, degan masalani muhokama qilardi.

Har doimgidek, Korshunovo qishlog'ida odatiy mehnat kuni soat to'qqizdan boshlanadi.

Pavel Mansurov oppoq ko'ylak, yaxshilab dazmollangan shimda, bayramdagiday kiyinib olib, hujjatli papkani qo'ltig'iga qistirib tuman qo'mitasiga ketyapti. Pochtachi Kuzmich Pavelni uchratar ekan, odatdagiday: «Gazetadan oling» dedi. O'qituvchi Arkadiy Maksimovich Zelensov eskiligidan yorilib ketgan yog'och hassasi bilan taxta yo'lakni taqillatib kelar ekan, poxol shlapasini yechib Pavel bilan ko'rishdi. Sartaroshxonadan iyagini yiltiratib chiqqan kolxoz raisi Pavelni to'xtatib, ob-havo haqida, mashina-traktor stansiyasidan hech undira olmayotgan barmoqsimon shesternya haqida gaplashdi.

Odatdagi tong! Odamlar Pavel bilan salomlashar, qandaydir barmoqsimon shesternalar haqida gapirishar, lekin o'n daqiqalardan so'ng Pavel Mansurov tuman qo'mitasi kotibining stoliga o'z papkasini qo'yishi kerakligini bilishmasdi. Bu ularning hayotida ham muhim voqea-ku! Mana shu papkada hujjatlar bor, ular ko'plab

kamchiliklar sababini ochib tashlaydi. Sabablar aniqmi, xatolar ochildimi, demak, ularni tuzatishdan boshqa iloj yo‘q.

Bortining shalog‘i chiqqan mashinalar yo‘ldan shovqin solib o‘tishardi. Idoralarning ochiq derazasidan mashinkalarning chiqillashi, telefon orqali uzoqdagi qishloq kengashlaridan odamlarning ovozi eshitiladi:

– Verxneshorye! Verxneshorye!.. Stashino nega suquladi? Yaxshi qiz, ayting, xalaqit berishmasin!

Yaqindan beri Korshunovodagi bunday dabdabali shovqin Pavel Mansurovga yoqadigan bo‘ldi. U to‘satdan o‘zini korshunovoliklarning vasiyidek sezdi, zerikishning sababchisi bo‘lgan ichi qoralikdan asar ham qolmadi.

Bir hafta burun Pavel o‘z papkasini Ignat Gmizinga olib kelib ko‘rsatgan edi. Ignat xona burchagiga o‘tirib olib hujjatlarni o‘qir ekan, bir-bir boshini chayqar edi.

Pavel kolxozni aylanishga ketdi. Bir soat o‘tib qaytib keldi.

Ignat joyida o‘tirganicha chekib, parishonxotirlik bilan Pavelni kutib oldi. Papka yopiq edi.

Pavel o‘tirdi, tashvishga tushib diqqat bilan Ignatning yuziga qaradi. Ignat atayin qilganday, uzoq vaqt indamay o‘tirdi. Papkani yana ochdi-da, katta, yarqiragan kallasini egib, xayolchan varaqlay boshladi.

Mana Ignat devonxona qisqichi bilan qistirilgan uchta g‘adir-budur sariq qog‘ozni varaqladi. Pavel bu qog‘oz o‘t bosgan pichanzorlar ro‘yxati ekanini biladi. Uchinchi varaq ostida Pavelning qo‘li bilan: «Ana shu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, agar yaqin besh yil ichida changalzorga qarshi kurash boshlanmasa, tuman chorvachiligi fojia yoqasida qoladi», deb yozilgandi.

Ignatning qo‘lidan polga o‘quv daftaridan yirtib olingan bir varaq havorang muqova sirg‘alib tushdi. Bu o‘tgan qishda yem-xashak yetishmaganligi sababli ayrim kolxozlarda so‘yilgan mollar haqidagi ma’lumotnoma edi. Ignat bukildi-da, yuziga qon quyilib, poldan qog‘ozni olib, avaylab o‘z joyiga solib qo‘ydi.

Undan so‘ng keyingi o‘n yil ichida sog‘imning kamayganligi haqidagi hujjatlar yotardi.

Varaqma-varaq bir-biri bilan bog‘langan tashvishli muvaffaqiyatsizliklar, kishini ranjituvchi faktlar qissasi ochilardi. Birini tuzatsang, ikkinchisi ochiladi... Pavelni keyingi vaqt na xotini, na ishi va na o‘z manfaati qiziqtirardi. Hozir u satrlab, bittalab, raqam-baraqam beparvo boshliqlarning halovatini buzadigan qissani to‘plash uchungina yashayotgandi... Mana, ishni tamomladi, hujjatlar yetarli. Ignat hozir nima der ekan? Yonida kimningdir yelkasi kerak, Ignatning yelkasi esa zaif emas.

– Ha-a, – dedi cho‘zib Ignat. – Hammasi oddiy, hech qanday hiyla-nayrangsiz yozilgan. Ma’lum narsalar bir joyga to‘plandi – qarabsizki, chinakam bombaga aylanibdi.

– Sen rozimisan?

– Albatta-da… Faqat, oshna, nega endi bir o‘zing bu ishga qo‘l uryapsan?

– Nega «bir o‘zim» bo‘larkan? Bu yerda Chistotelovning ham, marhum Komelevning va Sutolokovning ham, mashina-traktor stansiyasi direktorining ham hissasi bor, shu jumladan sening ham. Men bor-yo‘g‘i omborchiman, hammasini navlarga ajratib, bir joyga to‘playman, xolos.

– To‘g‘rirog‘i, eskifurushsan. Ko‘rganingni ko‘taravergansan. Boshqalar ham bilishganda, yordam berishardi.

– Kimdir yordam bersa, boshqa birovi, albatta, qo‘limdan ushlab qolishga harakat qilardi.

– Yoningni olishardi...

– Hali ham kech emas. Mana, endi yonimni olishsin.

– Qanday qilib?

– Muhokama qila boshlaymiz, ana o‘shanda mening tarafimni olishadi. Bu oddiy ish.

– Bayev Komelevning o‘ng qo‘li bo‘lgan. U muhokama qilishni ham istamasligi mumkin.

– Majbur qilsa bo‘ladi.

– Kim majbur qiladi? Senmi? Bu bo‘lmag‘ur gap, sening ishing emas deb stol tortmasiga solib qo‘ysa, nima qila olasan? Mushtumingni ko‘tarasanmi? Qo‘rqita olmaysan. Majlislarda so‘zga chiqib, xatolarni yashiryapti deb ayblaysanmi? Hayqirig‘ing kimga ta’sir qiladi? Maksim Pyaterskiygami? Fedosiy Murgingami yoki Kostya

Zaysevgami? Axir ular bu hujjatlardan mutlaqo bexabarlar-ku. Qanday qilib ular bilmagan narsalarini qo'llab-quvvatlaydilar? Bir ishga qo'l urdingmi, ishing idora qulfi ostida qolib ketmasligiga ishonching komil bo'lishi kerak!

Pavel do'mboq ko'ksi bilan stolda yotgan Ignatga qarab qo'qqisdan: «Sen, oshna, o'lguday pishiq ekansan...» deb o'yladi beixtiyor.

Albatta, papka hamma kolxoz raislarini aylanib chiqolmasdi, buning hojati ham yo'q edi. Ignatdan tashqari, papka bilan Kalinin nomli kolxozdan kamgap, ehtiyotkorlik bilan ish qiladigan Maksim Pyaterskiy, «Birinchi may» kolxozining yosh raisi Kostya Zaysev va tumanning eng keksa raisi Fedosiy Murginlar tanishib chiqishdi.

Pavel papkani qaytarib olishidan ikki kun avval Ignat Gmizin huzuriga «Birinchi besh yillik» kolxozining raisi Nikita Proxorov kirib keldi. U qayerdandir, qo'lma-qo'l bo'lib yurgan hujjatlar haqida eshitdi-yu, ana shu hujjatlar bilan tanishish maqsadida Ignatning oldiga kelgan ekan. Proxorov uzog'i bilan yarim soatcha hujjatlarni titkilab o'tirdi-da, nihoyat o'rnidan turib: «Lekin...» dedi-yu ketdi. Ertasi kuni Bayev Pavelni uchratib qolib:

– Hammaning og'zida qandaydir papka haqida gap yuribdi. Nimani topding? Nega bu ishlar tuman qo'mitasining orqasidan qilinyapti? – deb so'radi.

Pavel tuman qo'mitasining orqasidan hech qanday ish qilmayotganini, bugun bo'lmasa, ertaga uning stolida bo'lishini tushuntirdi.

Harakat qilish vaqti keldi!

...Va mana, Pavel Mansurov yasanib olib, biroz tantanavor tarzda papkani tuman qo'mitasiga olib ketyapti.

12

Bayevning kabinetida, stol ustidagi oyna ostida Korshunovo tuman qo'mitasi byuro a'zolarining mashinkada terilgan ro'yxati turardi.

Eng yuqoridagi familiya – Komelev Stepan Petrovich – ustidan chizib qo'yilgandi.

Ro'yxatda ikkinchi bo'lib Bayev turibdi.

So‘ng Korshunovo mashina-traktor stansiyasi zonasi bo‘yicha tuman kotibi, hozirgi ikkinchi kotib Agniya Pavlovna Zibina turardi. U har majlisda so‘zga chiqarkan,. avval o‘zini ayamay tanqid qila boshlardi: «Men aybning kattagina qismini o‘z bo‘ynimga olaman. Qilayotgan ishimdagi xatolarni bekitishni istamayman... Men hammasiga xolis qarayman va o‘z tomonimdan sharmandali ishtirokni ko‘ryapman...» Bunday paytlarda, hatto boshliq Bayev ham negadir g‘ingshib, o‘z xatosini seza boshlardi, beixtiyor so‘zga chiqib, qandaydir noma’lum ayblarga iqror bo‘lgisi, bo‘yniga allaqandaydir majburiyatlarni olgisi kelar edi. Zibina avval aybini tan olib, so‘ng Mansurovga yuzlanishi aniq.

Zibinadan keyin tuman ijroqo‘mining raisi Sutolokovning familiyasi turibdi. Tuman qo‘mitasi kotibining ishi bilan tuman ijroqo‘m raisining ishi o‘rtasida katta farq yo‘q. Har holda Komelev bunday farqni ko‘rmagan. U o‘z vazifasini ham, Sutolokovning ishini ham qilib ketaveradi. Faqat maktabga o‘tin keltirishni talab qilish, Madaniyat uyining tomini ta’mirlash, yo‘lakka qaytadan toshtaxta yotqizish haqida buyruq berish kabi mayda-chuyda masalalarnigina tuman qo‘mita kotibining roziligini olmasdan Sutolokovning o‘zi hal qilar edi. Bayev nima desa Sutolokov, albatta, qo‘llaydi.

Ro‘yxatda beshinchisi – Pavel Mansurov. Bu masalada uning fikri ma’lum.

Tuman gazetasining muharriri – Pervachyov. Yosh yigit byuro majlislarida qat’iylik ko‘rsatmas, tuman qo‘mitasidagilar bilan tortishib o‘tirishni xushlamas edi.

Chistotelov – yaqinda ko‘p yillik xizmatlari uchun orden bilan mukofotlangan keksa, obro‘li odam. U Pavel Mansurovning tarafini olsa kerak. Mansurov zig‘ir ekilishining tarafdori, Chistotelovga Mansurovni himoya qilish uchun shuning o‘zigina kifoya.

Ro‘yxat oxiriga tuman harbiy qo‘mitasi raisi Pugachyov Osip Osipovichning ismi qo‘l bilan yozib qo‘yilgan, navbatchi shaxs bo‘lgan bu kishi byuro a’zoligi uchun doimiy nomzod. O‘tgan yili mashina-traktor stansiyasi direktori Semyakinni byurodan chiqarib tashlashgandi, Pugachyov vaqtincha byuro a’zosi bo‘lib qoldi. Komelev dunyodan ko‘z yumdi. O‘rniga kimni a’zo qilib o‘tkazish kerak? Yana o‘sha nomzod Pugachyovni. Bayevning o‘zi uning fa-

miliyasini nomzodlikdan o'chirib, a'zolikka o'tkazib qo'ydi, albatta, birinchi konferensiyaga qadar. Bu hozircha «ko'pchilik» uchun.

Byuroning yetti nafar amaldagi a'zosi, ulardan faqat ikki kishigina Mansurov to'plagan materiallarni e'lon qilish tarafdori bo'ladi. Ikki kishi besh kishiga qarshi. Shuning uchun ham Bayev masala hal bo'ldi, deb hisoblardi.

Majlis boshlanmasdan, odatdagidek suhbat avjida edi, biroq hammalari bir necha daqiqadan so'ng muhokama qilinadigan masalani chetlab o'tayotganini sezish mumkin edi. Oppoq soch, shamoldan qotib ketgan, keng, muloyim yuzli tuman ijro qo'mitasi raisi Sutolokov juda otga ishqiboz edi, shuning uchun u o'tgan yili viloyatga mashhur «Shamarino kommunari» qishloq xo'jaligida ko'rgan otlari haqida gapirayotgan edi.

– Darvozani ochishdi-yu, ichkaridan sanam – ko'zlari chaqnagan, yoli hurpaygan bir ajoyib ot ikki azamat yigitni jilovida sudrab chiqib keldi...

Hatto Bayev ham qiziqib eshitardi.

Bu odam tuman qo'mitasi ishchisi bo'lgunga qadar hayotida bir-biridan uzoq ikki xil kasbda ishlagan, urushgacha botanikadan dars berdi, urushda piyoda razvedka vzvodini boshqardi. Tashqi ko'rinishdan ikkala kasb ham unga o'z ta'sirini ko'rsatgandek edi. Yuzi so'lg'in, iyagi uchli, ustki labi osilgan – yuzining bunday tuzilishi bilan u faqat changchi va urug'chi haqida gapirish uchun yaratilgandek edi. Lekin oftobda qoraygan kalta bo'yni baquvvat, tuk bosgan qo'llari uzun, kafti keng, barmoqlari yarim bukilgan edi – ushlagan joyini uzib oladigan bu panjalar Dnestr yoki Prut sohillarida angrayib qolgan dushman soqchilarining ta'zirini berganiga ishonsa bo'ladi.

Uning oldida Mansurovning papkasi yotardi. Papkaning usti yana ham eskirgan, byuro a'zolarining qo'lida aylanib yurgani uchun yanada siyqalangan edi.

Pavel haddan tashqari loqaydlik bilan – bir oyog'ini ikkinchisi ustiga qo'yib, yangi dazmollangan ko'ylagining yoqasidan kelishgan bug'doyrang kallasini yuqori ko'tarib o'tirardi. Sutolokov tavsifga juda berilib ketganidagina Pavelning ensasi qotib, aljirash yetar, degandek bo'lardi.

Familiyasi ro'yxatda eng keyin yozilgan Mayor Pugachyov paydo bo'ldi.

– Ushlanib qolganim uchun uzr, o'rtoqlar, – dedi viqor bilan, moylangan etigi bilan g'archillatib divanga borib o'tirdi-yu, ko'kragini kerib, boshini orqaga tashlab qo'ydi. U hovriqmaydigan, xushmuomala, ko'ngilchan odam bo'lib, havas qilgudek sog'lomligi va yoqasining torligidan yuzlari qip-qizargan edi.

Bayev stol ustidagi papkani qat'iyat bilan surib qo'ydi-da:

– Boshlaymiz, o'rtoqlar. Masala, turgan gapki, hammaga ma'lum. Mana... – deb papkani yana eski joyiga tortib qo'ydi. – Mana, tumanimiz kamchiliklari haqida hujjatlar, asosan... e-e... aytgancha, bizga hech bog'liq bo'lmagan rejalashtirish haqida. Mansurov ana shu hujjatlarni keng muhokama qilishni talab qilyapti.

Ikkinchi kotib Zibina qush uyasida o'tirgandek chuqur kresloda yelkasini ko'tarib, qo'llarini qorniga qo'yib o'tirarkan, silliqqina gap boshladi:

– Men birinchi so'zni bugungi yig'ilish sababchisi bo'lgan Mansurovga bersak, deb o'ylayman.

Bayev: «E'tirozim yo'q», – deb boshini egdi.

Pavel shuni kutgandi, u kelishgan qomatini bukib, o'rnidan turdi, hammaga birma-bir ko'z yugirtirdi.

– Men o'z so'zimni aytib bo'lganman. Mana u! – Uning baland ovozi xonani to'ldirdi. – Kichkinagina qo'shimcha qilsam bo'ldi. Agar tanqid va o'z-o'zini tanqid qilish bo'lmas ekan, agar xalq pastdan xatolarni sezmas ekan, u holda rejalashtirishimiz ko'r-ko'rona va albatta, xatoga duchor bo'ladi. Men bu holni, – deya Pavel qo'li bilan papkani ko'rsatdi, – faqat byuroning o'zida, tor doiradagina emas, balki oddiy insonlar o'rtasida muhokama qilishni talab qilaman!

Pavel hamon tarang bo'lib joyiga o'tirdi.

Agronom Chistotelov so'zga chiqdi. Suyakdor, beso'naqay Chistotelov mahalliy ishlab chiqarish kombinati chiqargan g'ichirlaydigan stulda o'zini noqulay sezardi.

– Bu yerda ko'p gapirishning hojati yo'q, qadrli do'stlar, – dedi yo'g'on ovozda u. – Mansurov hamma ayblarimizni yuzaga chiqardi. Bularni xalqdan yashirib bo'lmaydi. Xatolarni odamlar tuzatma-

sa, kim tuzatadi?.. – undan yana nima der ekan deb kutishayotganini sezib, shartta kesdi: – Bo'ldi!

«Kolxoz minbari» nomli tuman gazetasining muharriri Pervachyov sakrab o'rnidan turdi. Miqti, buqacha kabi kuchga to'la Pervachyov katta kallasini u yoq-bu yoqqa keskin burib, gap boshladi:

– Men ham Mansurovning aytganlariga qo'shilaman!..

Bayev Pervachyovga diqqat bilan tikildi.

– Mana, masalan, gazetamizni olaylik. U nimaga qarshi kurashyapti? Sut sog'uvchi Petuxovani beparvoligi uchun tanqid qilib chiqdik, brigadir Lovchukovning piyanista ekanligini fosh qildik, go'ng keltirilmagan yoki yonilg'i vaqtida olib kelinmagan. Hayotni jo'jalar kabi cho'qilaymiz, yirikrog'ini yoqasidan olishga esa jur'at qilolmaymiz. Xatolarimizni shu yo'l bilan to'g'rilay olamizmi? Yo'q, to'g'rilay olmaymiz! Tanqid va o'z-o'zini tanqid qilishdan jiddiy foydalanish payti keldi!

– Menga bunday g'ayrat yoqyapti... Kechirasiz, gapingizni tugatdingiz shekilli? – Zibina o'rnidan turmay, kresloga yanada o'rnashib o'tirib oldi, boshi bir yonga egik, chehrasida tabassum, ochiq ko'ngillik bilan hammaga bir-bir qarab chiqdi. – Hammangiz meni taniysiz. Men doim to'g'risini aytaman. Pavel Sergeyevich to'plagan ana shu kamchiliklar ichida mening ham aybim bor. Juda katta! Biroq, o'rtoqlar, Pervachyov bilan Mansurov kimning yoqasidan olmoqchi bo'layotganliklarini bilolmayapman? – yana ochiq-ko'ngillik bilan hammaga qarab chiqdi. – Viloyat qo'mitasinimi? Viloyat ijroqo'minimi? Balki qishloq xo'jalik vazirliginidir? Axir bizga rejalar ana o'shalardan kelyapti-ku. Qadrli do'stlar, yirigining yoqasidan olishdan avval (kechirasiz, sizning gapingizdan olib gapiryapman) o'zimizni yaxshilab tekshirib ko'rishimiz lozim. Men, misol uchun, bizning tuman qo'mitasi, shaxsan o'zim... Ha, o'zim!.. (Birovning orqasiga bekinmoqchi emasman) Shaxsan o'zim qoramol ozuqasi, silosga ko'pgina tuman rahbarlari singari kam e'tibor berganimni yashirmayman. Men yana bir marotaba takrorlayman, aybni dadil bo'ynimga olib aytamanki...

Zibina shunday mayin kulib gapirar, begunoh ko'zlari ila boqar, tumanning hamma og'ir kamchiliklarini shunday osonlik bilan o'z bo'yniga olardiki, Bayev va qolganlar ham yengil tortdilar. – Xudo

haqqi, shayton Pavel Mansurov tasvirlagandek darajada dahshatli emas! Ha, tuman qo'mitasi aybdor, viloyatdagi o'rtoqlar, hatto vazirlik ham aybdor, nima qilibdi, aybsiz odam bormi, yurakka shunchalik yaqin olishga arziymidi?..

– Buning ustiga shuni yodda tutish kerakki, o'rtoq Mansurov, – dedi qat'iy ohangda Bayev, – eng muhimi davlat intizomi. Sening mulohazalaring qiziq va dadil, biroq u yo'lga qo'yilgan tartibni, intizomni buzib yuborishi mumkin.

– To'g'ri, mutlaqo to'g'ri! – deya shoshib tasdiqladi Sutolokov.

Pavel yana o'rnidan turdi.

– Yo'q, to'g'ri emas!

Tortishuv qizib ketdi. Chistotelov do'rilladi, Pervachyov yon qo'shnisiga baland ovozda harbiy intizom bilan davlat intizomi o'rtasidagi farqni tushuntirishga kirishdi. Pavel Mansurov Zibinaning yuziga soldi:

– Sening tanqiding – tanqid emas, o'ziga xos bo'g'ish. Tilyog'lamalikning o'zi!

Zibina chehrasidagi xayrixohlik darhol yo'qoldi, ochiqko'ngillik bilan boqib turuvchi ko'zlari jilosini yo'qotdi.

Bayev og'ir qo'llarini stol ustiga tashladi.

– Bas, o'rtoqlar. Bunday yuksak g'oyali tortishuvlarni benihoya davom ettirish mumkin.

Uning stolidagi oyna ostida ro'yxatda yozilgan yetti byuro a'zosidan olti nafari so'zga chiqdi. Ovozlar ikkiga bo'lindi: uch kishi Mansurov tarafini oldi, uch kishi qarshi bo'ldi. Faqat divanda o'tirgan, kitelining hamma tugmalari qadalgan tuman harbiy qo'mitasi boshlig'i Pugachyovgina ma'noli jimlik saqlab o'tirardi.

– Sening fikring qanday, Osip Osipovich? – so'radi undan Bayev.

Osip Osipovich tor yoqadan chiqib turgan kallasini qimirlatganicha shoshmasdan, obro' saqlab javob berdi:

– Intizom hammasidan ustun... O'rtoq Bayev, men sizning fikringizga qo'shilaman.

Byuro yig'ilishi tugadi. Pugachyov moylangan etigi bilan g'archillatib, birinchi bo'lib tuman qo'mitasi kotibining xonasini tark etdi.

13

Korshunovoning chetida, katta yo'lga yaqin qum tepalikda qarag'ay turibdi. Kenglikda o'sgan bu qarag'ay bir zamonlar o'zining o'lchamlari bilan hammani lol qoldirardi. Hozir ham uning avvalgi mag'rurligini payqamaslik mumkin emas. Yo'g'on – ikki kishining quchog'i yetmaydigan tanasi yirik tugunchaklar bilan qoplanib ketgan bo'lib, ulkan qarag'ayning g'ayritabiiy tarang tortilgan, toshdek qotib ketgan mushaklarini uzish amrimahol edi. Yo'g'onligi yosh qarag'ay tanasiday keladigan pastki shoxlari har tomonga tarvaqaylab, butun tepalikni qoplab yotardi. Ammo bu shunchaki daraxt qoldig'i edi... Daraxtning qalin, chirigan po'stlog'i o'ydim-chuqur tog' qoyasini eslatuvchi g'udda-g'udda, ko'chib tushgan joylarida qarag'ayning qorayib ketgan o'zagi ko'rinib turardi. Shoxlari qurib qolgan, sirli iltijo bilan uzatilgan, joyida qotib qolgan ulkan sersuyak qo'llarga o'xshar edi. Endi daraxtga na quyosh, na yomg'ir quvonch baxsh etardi. Faqat eng uchidagi bitta butacha – so'nib borayotgan hayot darakchisi. Suyakdor, jonsiz shoxlar ana shu so'nggi umid belgisi bo'lmish shoxni ko'tarib turishardi. Ana shu kichik shoxdan ham hali mayda-chuyda qizg'ish urug'lar, g'uddalar yerga to'kilib turadi; rang-quti uchgan daraxt odatdanmi yoki sarkashlikdanmi, gullar, hosil berar, tabiat tomonidan yuklangan vazifasini sabot-matonat bilan bajarib kelmoqda edi.

Aytishlaricha, qaysidir bir xalqlarning muqaddas daraxtlari bo'lib, odamlar ana shu daraxtlar ostiga sovg'alar olib kelar ekanlar. Sasha uchun Korshunovo qishlog'ining chekkasidagi qadimiy qarag'ay ana shunday daraxt vazifasini o'tar edi.

Sashaning hayoti tashqaridan qaraganda bir zaylda o'tayotgandek edi. Ertalab – tumanli Alvasti girdobi, kunduzi – maysazordagi ishlar, kechqurun Ignat bilan darslik qarshisida shug'ullanish – institutga borib imtihon topshiradigan vaqt kelgandi. Kunlar birin-ketin o'tib borar, lekin har kunning o'ziga yarasha tashvishlari bor edi.

Sasha javdar dalasidan o'tib borayotib, bir boshoqni uzib oldida, uni sinchiklab tomosha qila boshladi – hali yam-yashil, yetilay deb qolgan, kaftini qitiqlar edi. Sasha bunday boshoqni ming marta ko'rgan, ming marta qo'lida ushlagan edi, ammo bugun negadir

hayratlanayotgan edi. Mana, tabiatning oddiy in'omi – non! Insoniyatning baxti va baxtsizliklari ana shu non bilan bog'liq edi. Ana shu boshoq deb zodagon makonlarining kuli ko'kka sovurilmaganmi? Ana shu boshoq deb bosh ko'targan dehqonlar kaltaklanib jon fido qilmaganlarmi, Vladimirkada zanjirlar jaranglamaganmi, butun qishloq ahli aravalarga o'tirib, qadrdon tuproqlaridan bosh olib ketib, yo'l-yo'lakay o'lik ko'mib sargardon bo'lishmaganmidi? Sasha Komelevning otasi ham shu boshoq deb sog'lig'ini yo'qotmaganmi? Mana u, asrlar osha inson teri, ko'z yoshi va qoni bilan yuvilib kelgan g'adir-budur javdari boshog'i. U mehr-muhabbat, g'am-anduh, boquvchi, qotil hamdir! Shamol esdi, maydon bir tekis va vahimali ayyuhannos soldi... Shovqin solaver, javdar! Boquvchi, sening shovqining va qadrli! Sening boshog'ing nimalarni yodga solmasin, uning shamolli shovqini baribir tinchlantiradi va quvontiradi.

Boshqa vaqtlarda oddiy boshoq oldidagi bunday hayrat tezda unutilardi – inson xayoliga nimalar kelmaydi!.. Biroq Sasha endi uni esidan chiqarmaydi, qalbining eng tubida saqlaydi: «Keyin aytib beraman...» degandek.

Sasha umrida birinchi marta o'zining olako'z sigirini terlab-pishib o'targa haydaganini, Katta O'rmon orqasidagi «Saxalin»da chivinlar orasida tunaganini, duradgor Funtikovning ziyrakligi ostida xodaning ko'zini qirqib olganini – xullas kalom, har bir kichkina quvonchlarini, kichkina g'alabalarini qalbida avaylab saqlar va «keyin aytib beraman...» deb o'ziga va'da berardi.

Har kuni kechki soat o'n birlarda Ignat Yegorovich xira kumushrang zanjirli soatining qopqog'ini yoparkan:

– Bugunga – tamom, – deb qo'yardi.

Pol taxtasini g'archillatib, parda orqasiga o'tar, oh-vohlab etigini yechar va xotini yoniga yotardi.

Ignat o'zicha «tamom» deb bergan buyrug'idan so'ng, Sasha yo'lakdagi eshikning zanjirini ilib qo'yib, o'rniga chiqib ertalabgacha adyolning tagida uxlar, deb ishonardi.

Biroq aksariyat hollarda bunday bo'lmasdi... Sasha lo'kidonni ilib qo'yar, o'rniga chiqib, kastumini olar va… darvozani g'ichirlatmaslikka urinib tashqariga otilardi. Kastumining yenglarini chalishtirib, ko'chada kiyib olardi.

U halloslab katta yo'lning burilishida to'xtab, mashina kutardi. Ba'zida u qo'lini ko'tarib haydovchi bilan do'stona kelishib olib, kuzovga chiqardi, gohida esa haydovchini bezovta qilib o'tirmay, yurib ketayotgan mashina kuzoviga o'zi sakrab chiqib olardi. Korshunovo qishlog'iga yetmasdan tik ko'tarilishda haydovchi bilan xayrlashmay va rahmat aytishni xohlamay, mashinadan tushib qolardi: haydovchilar – juda tarbiyali odamlar emas, odatda, minnatdorchilik so'zlarining yoniga besh qo'shasan, deb turib olishadi.

Oy nur sochib turgan tunda qari qarag'ayning ko'rimsizligi deyarli bilinmaydi. Yalang, bir-biriga chirmashib ketgan shoxlari go'yo jonlidek ko'rinadi. Ularning ayanch bilan tun osmoniga intilganlaricha qotib turishlari odamni bexosdan dahshat uyg'otadi. Daraxtning keng tanasidagi alohida ajralib turgan buramalari, ajin, g'adir-budurliklari qandaydir asriy donoligi bilan aqlni shoshiradi. Tunda qari daraxt ham chiroyli ko'rinadi...

Tunda Sasha ana shu daraxt oldiga o'zining yagona baxti, kundalik hayotidagi yakka-yu yolg'iz boyligi – yorqin xotiralarini olib keladi.

Katya dag'al ildizlar qoplagan yerda, ko'ylagining yengil etaklarini ko'tarib o'tirar va tinglardi...

Qo'shni botqoqlikda tartar qush qichqirar, tepada oy va yulduzlarni to'sib, qarag'ay hukmronlik qilardi. Butun dunyoda ikkisidan boshqa hech kim yo'q. Faqat ikkisi! Hamma baxt shunda.

Sasha oddiy boshoqdan hayratlangani, o'rimdan keyingi toliqqani, duradgorlik san'atini egallagani haqida Katyaga hayajonlanib gapirdi.

Hattoki Alvasti girdobi, uni isitgan quyosh, terlagan orqasini sovitgan shamol – orqasidagi barcha shodliklarini Katyaga aytib bergisi va buning bilan uni ham xursand qilgisi kelardi. Ammo tili zaif, kerakli so'zlar kam – butun hissiyotining yuzdan birini ham aytolmaydi!..

Hammasini aytishga kuchi yetmaydi, buning ustiga tun ham qisqa...

Shoxlar orasidan osmonning oqara boshlagani ko'rindi, zaif yorug'lik daraxtning butun go'zalligini bekitishga intiladi. Tekis yo'ldan birinchi mashinaning shovqini eshitildi.

Qorong'ida Katyaning yuzi toliqqandek va shu sababli ham qandaydir jiddiy tuyular edi, lekin ajablanarlisi – horg'in yuzida qora ko'zlari hayajonli yarqiraydi.

Katya o'rnidan turib, chiqib ketgan sochlarini qo'li bilan quloqlarining orqasiga o'tkazib, kipriklarini biroz uchirib: «Vaqt bo'ldi...» dedi.

Hatto erkalab shirin so'z ham demaydi, faqat kipriklarini sal uchirib qo'yadi, shuning o'zi uchun ham Sasha Katyaning oyog'iga yiqilishga tayyor – mayli, kun yorishaversin, vaqt o'taversin! Hammasini unutib, uning oyoqlari uzra yotaversa, ketmasa. Ajralish uchun istak yo'q!

...Uch soatlardan keyin Ignat Yegorovich Sashani yelkasidan turtib uyg'otar ekan, har galgidek hayron bo'lardi:

– Hali ham uxlayapsanmi, traktor bilan uyg'otolmaysan... Tezroq bo'l, oshna, tezroq – samovar stolda turibdi. Biz sen bilan kolxozchilardan keyin ishga chiqsak yaxshi ish bo'lmaydi, – derdi.

Sashaning adyol ostiga boshini yashirmayotganiga ishonch hosil qilib, Ignat Yegorovich orqasiga burildi va ketayotib dedi:

– Havo toza, shuning uchun uyqusi ham qattiq. – Liqillagan zinadan tushar ekan, o'z fikrini yanada chuqurlashtirar edi: – Toza havo va yoshlik...

14

Ular uch kun ko'rishishmadi.

Sasha brigadirlar bilan boshqarmada o'tirganda ham, pichan uyumi ustida turib Lyoshka Lyapunovning ayrisidan pichan olayotganida ham, kechqurunlari Ignat Yegorovich bilan o'tirib ishqoriy birikmalar to'g'risida tortishayotganida ham, oldinda uni kutayotgan quvonchli onlar haqida o'ylardi. U bilan suhbatlashayotganlar Sashaning xayol surib qolganini ko'rib jahllari chiqardi, maslahat so'rab kelishar, fikr olishardi, biroq hech kim Sasha o'zini hammadan ham baxtli sezayotganini bilmas edi. Uni oldinda quvonch, sovg'a kutyapti! Shu sababli ham Sasha odamlar bilan muloyim edi. Lyoshka-baqiroqqa temirchilik ustaxonasida bolg'alangan besh tishli panshaxasini sovg'a qilib yubordi, qaysarlik qilib darsliklarni o'qishga majbur etayotgan Ignat Yegorovichga ham gohida xayrixohlik qilar edi.

U hisoblardi: ikki kun qoldi – naq abadiylik, bir kun qoldi – demak, ertaga... Mana, tong otdi! Qandaydir o‘n ikki soat o‘tsa bas. Bu tunni kechagidek umidsizlik bilan o‘tkazmaydi, mo‘jiza bo‘lishi mumkin emas, oldinda qorong‘i tun!

Tong!.. Derazadan tanasi quyoshda tovlanib, yosh, ko‘kka intilayotgan, tuni bilan qirovda namlanib qolgan barglarini shamolda hilpiratayotgan, o‘ziga oro berayotgan qayin ko‘rindi.

Ignat Yegorovich oldidagi bo‘sh finjonni likopcha bilan nari surib qo‘ydi, ma’no ifodalamaydigan ko‘zlari bilan derazadan hovlidagi qayinga qaradi, parishonxotir kafti bilan soqoli qirilgan boshini ishqadi, nafasini rostladi-da, dedi:

– Tuman iste’molchilar birlashmasi omborida yupqa mix va’da qilishgan edi. Birodar, Korshunovoga borib kelishing kerak... Nega menga o‘qrayasan, peshanamga so‘lkavoyni yopishtirib qo‘yibdimi?.. Sendan boshqa kimni jo‘natay? Bir yo‘la onangni ham ko‘rib kelasan, ishni ham bitirasan.

Sasha, Ignat Yegorovich uning chehrasida paydo bo‘lgan hayrat, sarosima va quvonch alomatini sezib qolmasin, deb nigohini stakandagi ichib tugatilmagan choyga qaratdi. Korshunovoga boradi, u yerda Katya bor. Kutib o‘tirishga, kun sanashga hojat yo‘q, borib mixlarni oladi-yu, u bilan uchrashadi... Kechqurun esa doimgidek, yana uchrashishadi. Eh, Ignat Yegorovich qanday yaxshilik qilganini bilmaydi-da...

Ignat Yegorovich cho‘ntagidan eskirib ketgan sariq karmonini chiqardi-da, beshta ezilgan o‘n so‘mlikni birin-ketin stol ustiga tashladi.

– Mana. To‘lab hisob olishni ham unutma. Ombor mudiri Yegorka Klyuvsev tanqis mollar uchun qistirishlarini yaxshi ko‘radigan ablah odam. Bordi-yu shama qilsa, surobini to‘g‘rilab qo‘y. Biz qonuniy haqimizni olyapmiz, tanish-bilishchilik yo‘q...

Sasha tushgacha mixlarni olib aravaga ortishga va yumaloq yuzli, ayyor Yegorka Klyuvsev bilan apil-tapil bir krujkadan pivo ichishga ham ulgurdi. Aravani onasining hovlisiga olib kirib, otni aravadan chiqarib, oldiga xashak tashladi, ovqatlanishdan bosh tortdi, yangi ko‘ylagini kiyib, ko‘chaga chiqdi...

Kun jazirama edi. Qizib ketgan chang tekis yo'ldan benzin va mashina moyining hidi dimoqqa uriladi. Devorning tor soyasida lanj bo'lgan itlar cho'zilib yotishardi. Ba'zi echkilar po'stinga belangandek, yog'och panjara yonida o'jarlik bilan biron yegulik topish ilinjida zo'r berib boshlarini egardilar.

Toliqqan yuzlari ham qorayib ketgan, ustiga sitilib ketgan ro'mol tashlangan savatni ko'tarib olgan bir kampir ochiq deraza oldiga kelib to'xtab, cho'zib so'radi:

– Hoy, xo'jayin! Hoy! Nima deb chaqirishingni ham bilmaysan... Yangi uzilgan qulupnay sotib olmaysizmi?

Ochiq derazadan hech kim indamadi. Kampir biroz javobni kutdi-da, so'ng ochiq derazalarga qarab ketib qoldi.

Sasha bo'lsa qo'lini cho'ntagida solib, xavotirlanib oldinga ko'z tikib kelardi. Atayin Korshunovoga keladi-yu, Katyani uchratolmay ketadimi – borib turgan adolatsizlik. Ko'rishish kerak!

Ko'rishish kerak, lekin ishongisi kelmasdi!.. Issiqdan qiynalib, devor salqiniga bekinishgan echki-yu kuchuklar – chang, yurakni ezuvchi jimjitlik... Hu ana, tuman qo'mitasi ro'parasidagi bosilaverib ezilgan maysazorda uchta kolxozchi o'tiripti. Ular gazeta ustiga non, tuxum, bujmayib ketgan tuzlangan bodringlarni qo'yib, ishtahasiz chaynab o'tirishibdi, xuddi buyruq bo'lgandek baravariga Sashaga o'girilib, maroqsiz qarab qo'yishdi. Ikkita xotin tuman qo'mitasi zinasi oldida, naq jaziramada turib olib, sumkalarini silkitib gaplashishyapti. Biri gulli sarafanda, qoraygan oyoqlarida ezilgan oq bosonojka, ikkinchi ayol pastakkina, dumaloqqina bo'lib, jun kastum ichiga yashiringan – o'zini bunchalar qiynashning nima hojati bor.

Sasha oxirgi vaqtlarda Katyani faqat tunda, qarag'ay ostida, oy nuri ostida ko'rgandi: bo'zargan yuzi jiddiy, hayajon va tashvish bilan porlagan ko'zlari Sashaga qadalgan, tirsagigacha ochiq qo'llarini keng etaklariga tashlab olgan... Hozir, mana shu yurakni siquvchi jaziramada g'ayrioddiy qizni qanday tasavvur qilish mumkin. Agar hozir u paydo bo'lib qolgudek bo'lsa, kavshanib o'tirgan kolxozchilar ham qotib qolishsa kerak...

Biroq u boshqa joyda emas, mana shu yerda yashaydi, shu ko'chalarda yuradi, hech kimni hayron qoldirmaydi-ku... Qani u, Katyani qanday qilib uchratish mumkin?..

Kolxozchilardan biri o‘rnidan turib, kavshanishda davom etib Sashaning oldiga keldi:

– Sen, yigitcha, shu yerlikmisan?

– Nima edi?

– Bu yerda hech kimga go‘sht kerakmasmikan?.. Sigirimiz oyog‘ini sindirib qo‘ygan edi, so‘yishga to‘g‘ri keldi. Bozor kunigacha cho‘zsak, bunday issiqda sasib qoladi.

– Menga kerakmas.

Kolxozchi ter bosgan yuzini artdi, hafsalasizlik bilan, ovoz chiqarib:

– Xotinlarga taklif etsammikin? – deya erinchoqlik bilan ayollarning oldiga ketdi.

Sasha uning orqasidan kuzatib qoldi va kolxozchining gapiga o‘girilgan Katyani ko‘rib, seskanib tushdi. Qiz ham Sashani ko‘rib u tomon kela boshladi.

U qizni anchadan beri kunduz kuni ko‘rmagandi. Shu sabablimi yoki sochi tarang qilib taralgandanmi Katyaning yuzi oddiy, dumaloq va quyoshda qoraygandek ko‘rindi. Burun atrofida, ko‘zlarining ostida ter yaltirardi, egnida aynib ketgan chit sarafan, yalang oyoqlarida siyqasi chiqqan bosonojka. Ko‘zlari avvalgiday ma’noli va sirli bo‘lmasa ham, lekin u Katya edi.

– Salom.

– Salom.

Biroz jim turishdi, uch kun emas, go‘yo anchadan buyon ko‘rishmay yurgan odamlarday, bir-birlariga tikilib kulib qarab turishdi.

– Burning shilinibdi-ku, men bo‘lsam sezmabman, – dedi Katya kulib.

Mana shu oddiy so‘zlar Sashani o‘ziga kelishga majbur qildi. U bo‘lsa qarag‘ay ostidagiday, har bir aytilgan so‘z ostida qandaydir sirli ma’no yashiringan uchrashuv bo‘lishini kutgan edi. Hozir Katya ham boshqacha, qurib qolgan shoxlarini oyga uzatgan qarag‘ay o‘rniga – chang ko‘cha, kuygan benzin hidi kelib turgan tekis yo‘l, egasiz qolib, daydib yurgan echkilardan bo‘lak hech vaqo yo‘q. Aytilmay qolgan sirli so‘z qayda…

– Ish bilan keldingmi? – deb so‘radi Katya.

– Ha, ish bilan Hozir qaytib ketaman...

– Yangiliklar bormi?

Har safargidek yangiliklar bor edi, lekin shu yerda, ko'chaning o'rtasida oshiqib aytish mumkinmi?

– Aytarlik hech narsa. Sizlarda-chi?

– Esingdami, Mansurov papkasi haqida aytgan eding?

Eslamay bo'ladimi. Papka Ignatnikida yotgan vaqtda Sasha u bilan tanishib chiqishga ulgurgan va boshqa yangiliklar qatorida Katyaga ham aytib bergan edi. Hozir bu papka haqidagi gap kolxozchining go'sht sotishi haqidagi gapidan muhim emasdi.

– Esimda...

– Biz hozirgina Zibina bilan shu haqda gaplashgan edik. Sen ehtimol kecha tuman qo'mitasi byurosida ana shu papkani muhokama qilishganini bilmasang kerak.

– Eshitdim. Menga Ignat Yegorovich aytdi. Siyqasi chiqqan gap.

– Siyqasi chiqqan deysanmi?.. Sening Ignat Yegoroviching, Sashenka, masalaga tor qaraydi. U faqat o'ziga yaxshi bo'lishini istaydi.

– Katya, sen uni bilmaysan.

– Papkaning muhokama qilinishi o'zining manfaati uchun xizmat qilishini bilaman.

– O'zining emas – hammaning manfaati uchun. Fedosiy Murginga ham, Maksim Pyaterskiyga ham... Barcha raislarga, kolxozchilarga, butun tumanga foyda...

– Demak, tuman qo'mitasi tuman manfaatiga qarshi ekan-da? Kulgili. Kim bunga ishonadi!

– Shunday bo'lyapti...

– Sa-sha! – Katyaning issiqdan biroz horg'in yuzining quti o'chdi, ko'zlari ishonqiramay yiriklashdi va ehtiyotkorona shivirlab gapira boshladi. – Sen tuman qo'mitasi raisiga ishonmaysanmi? Qanday hadding sig'di? Nimalar deyotganingni o'ylab ko'r!

– Axir bu fakt-ku – aldadi.

– Tuman qo'mitasi raisi-ya?

– Nima, bunday bo'lishi mumkin emasmi?

Katya to'g'rilandi, lablari titrab, Sashaning qarshisiga turdi.

– Men uchun eng muqaddas narsa nimaligini bilasanmi? – deb so'radi Katya asta. – Tuman qo'mitasiga ishonch! Ishonchimni is-

botlab berolsam, eng baxtli inson bo'lardim. Jonimni berishga ham tayyorman!.. Ishonmagan odam – mening dushmanim. Shaxsiy, jiddiy dushmanim!

– Men ham sendan kam ishonmayman.

– Tuman qo'mitasi byurosi – tumanning partiya rahbari shunday qarorga kelibdi, sen bo'lsang qo'shilmaysan. «Siyqasi chiqqan» emish. Sening ishonching qani? U mutlaqo yo'q! Sen faqat Ignat Yegorovichingga ishonasan!

– Tuman qo'mitasi byurosi butun partiya emas hali. O'zing bilasan, Ignat Gmizin ham ularning orasida...

– Agar o'shalar byuroga ishonchlarini yo'qotsalar nima bo'ladi? Qo'llar miyaga quloq solishi kerak. Agar har bir Ignat Gmizinlar e'tiroz bildiraversa nima bo'ladi? Intizom buziladi, zaiflashib ketadi.

– Agar Ignat Gmizinga quloq solishsa aqllari ko'payadi. Ortiqcha aqldan hech kim shikoyat qilmagan.

– Nima qilsam bo'ladi seni? – dedi Katya alam bilan yerni tepib. Uning ta'bi xira bo'ldi, ortib qolgan yeguliklarini eski charm sumkaga solayotgan kolxozchilar tomon o'girilib, uzoq tikildi.

Katyani uchinchi sinfdayoq sinf boshlig'i qilib saylashdi. Undan tartib-intizomni kuzatishni, o'qituvchining obro'sini oshirishni talab qilishardi. Katya bu ishga qattiq kirishdi... Yoshligidanoq obro'-e'tibor, intizom uning uchun hayotning asosiy ustuni edi. Yana kim deng?.. Sasha ana shunga qarshi bo'lmoqda!

– Sasha, – dedi Katya sovuqqonlik bilan. – Xafa bo'lmagin-u, lekin senga shuni aytishim kerakki... Shu gaplaringni otang eshitganda xafa bo'lishi aniq edi – o'g'lim tuman qo'mitasiga qarshi chiqyapti, deb

– Men tuman qo'mitasiga qarshi emasman! – qizishib ketdi Sasha.

– Qanaqasiga qarshi emas ekansan? Ignat Yegorovich yoshi ulug', tajribali odam, senga o'xshaganlarni o'ziga og'dirib olish u uchun qiyin emas... Taslim bo'libsan-da. Uyat! Otang xotirasiga xiyonat qilibsan.

Sasha darhol javob bermadi. Qizarib, o'zini yo'qotgan holda indamay Katyaga qarab turdi-da, nihoyat bo'g'iq ovozda dedi:

– Qanday hadding sig'di?..

– Seni xafa qilgim kelmayapti, biroq boshqa iloj yo‘q...

– Xafa qilib bo‘lding! Bu noto‘g‘ri! Men, balki...

– Axir, tushun...

Biroq Sasha orqasini keskin o‘girib oldi: uzun gavdasi og‘ir cho‘zilgan, shapkasi ensasida hayratga tushganday g‘amgin osilib turardi... Sasha kimdir orqasidan turtib borayotganday, notekis qadam tashlab, nari ketdi.

– Sasha-a! – deya asta otini aytib chaqirdi Katya.

Sasha o‘girilmadi.

Sasha kunning qolgan qismida o‘zini baxtsiz his qilib yurdi. Uning o‘z quyoshi bo‘lib, uni isitar, oldinda seni baxt, tuhfa kutyapti, kut, quvon, yasha, deya undar edi. Endi nimani kutadi, qayoqqa boradi? Odamlar esa o‘z ishi bilan band, suhbat qilishadi, talashib-tortishishadi, oldingidek yashayverishadi. Sasha uchun dunyo qorong‘i bo‘lgani bilan ularning nima ishi bor?..

Shunday bo‘lsa-da, kechga borib chidab turolmadi.

...Mana, qarag‘ay, uning bir-biriga chalkashib ketgan quruq shoxlari orasidan yarim oy ko‘rinmoqda. Sasha nafasi qaytib, lekin yuzida damduzligini saqlab – ranjiganini unutdi, deb o‘ylamasliklari uchun qovog‘ini uyib, jiddiy qiyofada ko‘tarila boshladi. Shu yerdamikin? Kelganmikin?.. Qanday kutib olarkin? Balki ro‘moliga o‘ralib olib, daraxt orqasiga yashirinib turgandir. Bordi-yu shunday bo‘lsa, Sasha boradi-da: «Kel, gina-kuduratlarni unutib, katta odamlardek gaplashib olaylik...» deydi.

Biroq qarag‘ay osti bo‘m-bo‘sh edi, yo‘g‘on, qotib qolgan ilonga o‘xshash tarang ildizlar chirmashib, qora tuproqda yastanib yotardi. Sasha ildizga o‘tirdi, g‘adir-budur daraxt tanasiga suyandi.

Balki qiz kechikib qolgandir... Hozir tungi qishloq bo‘ylab, tuflisining poshnalari bilan quruq yerni taraqlatib yugurib kelayotgandir...

Avvalgi uchrashuvdagidek hozir ham botqoqlikda tartar qushning g‘ichirlashi eshitilib turibdi, boshi uzra daraxtning quruq shoxlari savlat ila tarvaqaylagan, yirikroq yulduzlar qalin shoxlar orasini teshib o‘tmoqda. Atrof oldingidek, hech narsa o‘zgarmagan. Katya esa yo‘q.

Oldingi gal Katya engagini tizzalari orasiga olib, tungi sovuqdan g'ujanak bo'lib, Sashaning qarshisida jimgina o'tirgan, yuzi, hatto ko'zlari bilan qoshlari ko'rinmasa-da, biroq Sashaning diqqatini o'ziga tortgan edi.

«Otangga, uning xotirasiga xiyonat qilding!»... Xiyonat? Hayot murakkab, birov uni unday o'ylasa, boshqasi bunday o'ylaydi, haqiqat esa har doim bir. Uni – yagona haqiqatni, hayotni yanada chiroyli qiladigan, haqiqiy yo'lni izlab topish kerak. Otasi bilan Ignat Yegorovich har xil lagerlardan emas, o'zinikidan! U buni tushunmaydi... Unga tushuntirib qo'yish kerak, qizishmay.

Sasha o'tirib quloq solardi. Uning yonida, fil qulog'iga o'xshash shalpang quloq bargli qariqiz ham tun sharpasini tinglayapti. Biroq tun og'ushida botqoqdan eshitilayotgan tartar qushning qayg'uli qag'illashidan boshqa tovush yo'q edi.

Vaqt o'tishi bilan Sasha asta-sekin Katyaning kelmasligiga amin bo'la bordi. Shunda ham u o'tiraverdi, nimagadir... umid bog'lab o'tirardi.

Sasha o'sha payt hozirga qadar xayoliga ham kelmagan oddiy haqiqatni anglab yetdi. Kelajakda Katya bilan qarag'ay ostida o'tkazadigan tunlarda, tartar qushning qag'illashi ostida ma'noli qarashlargina bo'lib qolmasdan, balki bahslar, tushunmovchiliklar, hatto xafachilik va tahqirlashlar ham bo'lishi mumkinligini tushundi. U yana bundan keyingi uchrashuvlar boshqacha bo'lishini angladi. Nima bo'lsa ham, Katya Katyaligacha qolaveradi, undan shunchaki yuz o'girib bo'lmaydi.

Ko'p narsalarni boshidan o'tkazgan mo'ysafid daraxtning hissiz shoxlari Sasha boshi uzra indamay osilib yotardi. Uni kichkina alam bilan hayratga sololmaysan.

Ertasi kuni ertalab Ignat Yegorovich institutning sirtqi bo'limiga qabul e'lon qilingani haqidagi xabarni yetkazdi, yo'lga chiqish kerak.

15

Bayev, Mansurovning papkasi haqida har qanday hodisa kabi, viloyat qo'mitasiga xabar berish kerak, deb hisoblardi. Buning us-

tiga papka haqidagi gaplar kolxozma-kolxoz kezib yuribdi. U haqda bo'rttirib, oshirib, chalkashtirib ko'rsatishayotgandir. Majlislarda Bayevdan ehtimol javob talab qilib qolishlari mumkin. Bunday vaziyatda bitta javob bo'lishi kerak – papka viloyat qo'mitasiga yuborilgan.

Bayev yo'riqchi Surepkinni xonasiga chaqirtirdi.

Agar bahor loygarchiligida Korshunovoning qoq chekkasida joylashgan Verxneshorskiy qishloq kengashiga kolxozlarning ekin ekishga tayyorgarliklarini tekshirish yoki majlisda so'zga chiqish kerak bo'lsa, eng itoatli Serafim Mironovich Surepkinni jo'natishar edi. U kasalligini yoki oilasini sabab qilib o'tirmaydi, unga loygarchilik ham, masofa ham bahona emas. Kolxozlarning otxonalariga kirib chiqadi, urug'lik donlarni paypaslab ko'radi, asbob-anjomlarni tekshirib chiqadi, raislarni koyiydi, yetkazaman! – deb qo'rqitadi va qaytib kelgach (yana o'sha tasodifan uchrab qolgan mashinadami, aravadami yoki piyoda), albatta, hammasini ipidan ignasigacha yetkazadi: nimadir tayyor, nimadir yetishmaydi, buyruqlar yetkazildi.

Agar undan:

– Mana, viloyat gazetasida Palchixin rayoni kolxozchilarining tashabbusi haqida maqola yozilibdi... Siz bu haqda kolxozchilarga yetkazdingizmi? – deb so'rashsa, u:

– Bu haqda ko'rsatma berilmagan. Aks holda hech qiyin joyi yo'q... – deb javob beradi.

Serafim Mironovich buyurilganini bajaradi, ortig'ini qilmaydi. Biroq jahli chiqqan boshliq uni iziga qaytargisi kelib: «Boring, bajaring! Bundan buyon e'tiborliroq bo'ling», deb qolishsa bormi, Serafim Mironovich miq etmay iziga qaytadi, piyodami, tasodifan uchragan aravadami, kamchiliklarni tuzatib keladi.

Sobiq batrak bo'lgan bu odam partiya safiga kirgan vaqtda hozirgi tuman qo'mitasi kotibi Bayev hali yosh bola edi. Shuncha yil partiya safida yurib Surepkin biron marta hayfsan olmadi, lekin o'ziga xos xizmatlari ham yo'q edi. Maqtanadigan hech vaqosi bo'lmagani uchun Serafim Mironovich shunisi bilan ham faxrlanar edi: «Men partiya oldida oynadek tozaman», – derdi u kamtarin izzattalablik bilan.

Yillar o'tib Surepkinning faqat birgina kamchiligi paydo bo'ldi, bu ham bo'lsa bezarar kamchilik – u majlislarda so'zga chiqishni yaxshi ko'rardi.

U egniga odatdagidek harbiy gimnastyorkasi ustidan sarg'ayib ketgan kastum kiyib yurar, dehqonlarnikidek uzun qo'llari yengidan osilib chiqib yotar, yuzlari ham kastumi kabi sarg'aygan, oftob nurlarida po'st tashlagan, uzun qoshlari ostida esa sovun rangiga o'xshash beozor ko'zlar, ajindor peshanasi tepasidagi sochlari tikandek mustahkam edi... Serafim Mironovich ba'zida xayolga cho'mganida, sochlari betartib orqaga-oldinga harakatlana boshlardi...

Surepkin Bayev huzuriga keldi.

– Nikolay Georgiyevich, chaqirdingizmi?

– Viloyat qo'mitasiga mana bu hujjatni olib borasan, – deb Bayev stol tortmasidan papkani oldi, – javobini kutib, viloyat qo'mitasi raisining fikrini bilib kel. Muhim topshiriq, shuning uchun jo'natyapmiz, aks holda pochta orqali yuborar edik.

– Qachon ketay?

– Hoziroq.

– Poyezd ertaga tonggi soat oltida jo'naydi.

– Ana shu poyezd bilan ketasan.

– Xo'p.

– Bu papkada nima borligini bilasanmi?

– Albatta, eshitganman.

– Shaxsan o'zing bilan gaplashishadi, byuro a'zolarining fikrini ayt. Darvoqe, byuro qarori ham papkaga ilova qilingan. Shaxsan men, bunday hujumlar zaruriy tanqid chegarasidan chiqib ketgan, ish intizomini buzishga olib keladi, deb hisoblayman. Qisqasi, mana!..

Surepkin avaylab papkani qo'liga oldi.

Institut yotoqxonasi sirtqi bo'lim talabalari bilan to'lgan edi. Ignat Sasha uchun faqatgina bir o'rin olishga muvaffaq bo'ldi, o'zi esa mehmonxonaga joylashdi. Ignat barvaqt uyg'onib etigini kiyayotib, to'satdan bir karavot naridagi yostiqdan ajralgan sariq tikanak sochni ko'rib qoldi.

– Ehhe! Serafim Mironich! Qanday shamol uchirdi?

– Salom, Ignat Yegorovich, – xursand bo'lib javob berdi Surepkin. – Tuman qo'mitasi komandirovkaga jo'natdi.

Yarim soat o'tib ular mehmonxonadan chiqishdi. Ignatning egnida keng kastum, galife shim, oyog'iga yumshoq etik kiyib olgandi. Viloyat markaziy shahriga kamdan kam kelib turadigan raislarga xos etiklari yaltirar, kiyimi dazmollangan, toza edi. Serafim Mironovich esa tor qora kastum-shimda bo'lib, qo'ltig'iga semiz portfelini qistirib olgan.

– Demak, sen ovoza bo'lgan qog'ozlarni viloyat qo'mitasiga topshirishga ketyapsan-da? – deb so'radi Ignat portfelga ko'z qirini tashlab.

– Birinchining qo'liga topshirish kerak.

– Bayev, Mansurov yiqqan qog'ozlarni viloyat qo'mitasi yo'qqa chiqaradi, deb o'ylayapti shekilli?

– Bilmayman. Mening ishim papkani topshirib, e'tirozlarini eshitish.

– Bordi-yu sening fikringni ham so'rab qolishsa-chi?

Quyoshda qizigan asfalt yo'lakda asta laylak yurish qilib borayotgan Serafim Mironovich bir daqiqa jim yurdi-da, so'ngra g'ururlanib javob berdi:

– Mening shaxsiy fikrim quyidagicha: Pavel Sergeyevichga o'xshab rejaga nisbatan ta'na qilish, tanqid chegarasidan chiqish, intizomni buzish degani... – So'ngra chuqur xo'rsinib qo'ydi.

– Bu ham to'g'ri, yangi fikr. «Kimning taomini yesam, o'shaning gapiga quloq tutaman» maqolidagi kabi.

Lekin Surepkinning tabiiy bag'rikengligi sababli uncha-muncha gap unga ta'sir qilmasdi, shuning uchun u Ignatning istehzosini tushunmadi.

Ignat viloyat qo'mitasidan sal nariroqdagi sartaroshxona oldida to'xtab, Surepkindan biroz kutib turishni so'radi. Sartaroshxonaga kirib, boshini yaltiratib, go'yo avvalgi bag'rikengligini sartaroshxonaga tashlab chiqqanday yuzi jiddiy tusga kirdi, bardam chiqib keldi.

U viloyat qo'mitasiga xuddi shunday qiyofada kirdi. Yaltirbosh kallasini egib, atrofga arzon atir hidini yoyib, og'ir, qo'pol Ignat go'yo shunday zarurat tug'ilib qolgan-u hech qanday to'siq uni to'xtata olmaydigan, salqin vestibulning keng zinasidan dadil qadamlar bilan ko'tarildi. Surepkin esa uning ortidan laylaksimon qadam tashlab chiqib bordi.

. . . . . .

G'ururga to'lib-toshgan shunday so'zlar borki, ular mardonavor va kuchli bo'lib, o'z vaqtida aytilganda mardlik va jasorat talab qiladi. Bu so'zlar – urug' kabi, ulardan inson jasorati yetiladi.

Biroq yana boshqa turdagi so'zlar ham bor. Ularda na go'zallik, na iftixor, na kuch seziladi. Ular sezilmaydi, yuzaki, odatiydir. Ularni minbardan aytishmaydi, ular hissizdir. Kimki shunday so'zlarni ishlatar ekan, bu so'zlarga e'tiborsizlik bilan qaraydilar, duch kelgan joyda boadablik bilanmi yoki mutlaqo hissiz ovozda tashlab ketaveradilar. Shunday bo'lsa ham bu so'zlar o'z kuchiga ega. Ehtirosli xohish, qaynoq g'ayrat, irodali sarkashlik, yoshlarga xos qiziqish – bu so'zlar hammasini o'chirishga qodir.

Bu so'zlar orasida oxirgi safda bo'lmagan «Kutish» fe'li ham dastlab bezarar ko'rinadi – u o'zining muomalada bo'lishi yetmaganday, o'ziga o'xshash so'zlarni ham yaratgan.

Viloyat qo'mitasida Ignat Gmizinga aytganlaridek, Surepkinga ham oddiygina qilib:

– Kuting, aniqlaymiz, – deyishdi.

Va ular kuta boshlashdi.

Ignat imtihon topshirar, savdo-sotiq va qurilish tashkilotlariga borib kolxoz ishlarini to'g'rilashga vaqt topa bilar, tez-tez viloyat qo'mitasidan ham xabar olib turar, biroq u yerda:

– Kutib turing, – degan javobga duch kelardi.

Serafim Surepkin bu so'z ta'siridan kundan kunga ta'bi xira bo'lari, uning komandirovka puli ham tugagandi va Ignat Gmizin uni talabalar oshxonasiga tushlik qilish uchun olib borar, ruhi tushmasin, deb hatto pivo bilan mehmon qilardi.

Korshunovoda esa Pavel Mansurov masalaning yechimini besabrlik bilan kutardi...

16

Viloyat markazi bo'lmish K*** shahri hech narsasi bilan mashhur emas: asfalt qilingan keng yoki tosh yotqizilgan tor ko'chalar, ko'p qavatli binolar hamda to'rt derazali eski kulbalar, opera teatri, uchta institut, muzeylar, kinoteatrlar; stadion, suv stansiyasi, trolley-

buslar, avtobuslar va o‘ziga xos tarixga ega shahar – ilgari bu yerga atoqli yozuvchilar va jamoat arboblari surgun qilingan...

Shahar va uning aholisi ko‘chalarida qishloqlarga xos oftobda qoraygan, yarqirab turuvchi ko‘zlarigacha shapkasini bostirib kiyib olgan, egniga yenglari kalta jun gazlama kastum, oyog‘iga diqqat bilan tozalangan pishiq etik kiyib olgan, bo‘yi uzun yigitcha paydo bo‘lib qolgani bilan ishlari yo‘q edi, albatta. U ming-minglab o‘tkinchilardan biri, chetdan olib kelingan qum zarrasiday edi.

Biroq shaharga kelishi, ushbu yigitcha uchun hali qisqa bo‘lgan hayotida katta voqea edi.

Sasha shu vaqtgacha umrida bir martagina Korshunovo qishlog‘idan chetga chiqqan edi. Bunga ancha bo‘lib ketgan, urushdan oldin oilasi bilan Leningrad yaqinidagi xolasinikiga borishgan edi. Bu sayohatdan uning xotirasida faqat bir ko‘rinishgina – vokzallardan birining aktida chiroyli poli-yu, mo‘ylovi va chekka soqoli oppoq serjahl shveysar qolgandi.

Sasha «Saxalin» dashti ortida ulkan va sershovqin hayot mavjudligini faqat kitob va kinolar orqali bilardi. U o‘zlarining Shora daryosidan kattaroq daryolar ham borligini, shaharlarda, xuddi o‘rmondagidek uylar orasida adashib qolish mumkinligini, uylar ham boshqacha bo‘lib, ularda Korshunovo qishlog‘i aholisidan ham ko‘proq odam yashashini faqat kitoblar orqali bilardi. Olamda sahrolar, baland-baland tog‘lar (ularning oldida Gorodishche hech vaqo emas) bor. Yo‘ldagi har bir tosh, har bir buta tanish bo‘lgan tinchgina Korshunovoda turib ana shulardan xabar topsang, bolalar kitoblaridagi ertaklarday aql bovar qilmas mo‘jizaga o‘xshaydi. Ko‘k otning qulog‘iga kirib chiqqan Ivanushkaning qahramonligi bilan bepoyon dengiz suvi, tag‘in oddiy suv emas, ichib bo‘lmaydigan sho‘r suv – bular aqlga sig‘maydigan mo‘jiza emasmi?..

Mana, Sasha ostona hatlab katta olamga qadam qo‘ydi. Bu shaharning ayrim joylari chang, iflos, ba’zi xilvat ko‘chalari Korshunovo qishlog‘iga o‘xshagan, mamlakatdagi eng oddiy shaharlardan biri bo‘la qolsin, ammo u – shahar! Sasha shahardagi kamchiliklarni sezmas, ko‘p qavatli binolarga, do‘kon peshtaxtalariga, asfaltga, mashinalarning ko‘pligiga, hatto kuygan benzin hidi kelib turgan havoga ham hayratlanardi.

Bu shahar faqatgina katta olamga darvoza bo‘lib qolmay, Sasha uchun yangi hayot eshigi ham edi. Markazga yaqin ko‘cha yuzida baland eshiklari tepasiga qora rangda «Viloyat qishloq xo‘jalik instituti» deb yozib qo‘yilgan katta kulrang uy bor. Bu uy – uning taqdiri, uning orzusi, bo‘lajak baxti edi. Besh yil davomida uning, Sasha Komelevning qanday qilib bilim va tajriba to‘playotganini shu uyda kuzatishdi. Bu uy – yangi vasiy, tushunarsiz, yuragiga biroz cho‘chituvchi muallimi edi. Va qachonki shu uy ruxsat berganda sen uchun haqiqiy hayot boshlanadi.

Birinchi imtihonlarini Sasha Ignat Yegorovichdan ko‘ra yaxshiroq topshirdi. Uning havasi keldi:

– Miya yosh deb shuni aytadilar-da. Mening boshim ortiqcha narsalar bilan to‘la, keragini darrov yuzaga chiqara olmaysan.

Sasha shaharga kelib o‘zida yangi kuch va ilgari sezmagani – o‘ziga bo‘lgan hurmatni his qila boshladi. Uning ishi jiddiy, u bu yerda fotih. Kitoblarda o‘qiganimiz jahongirlar kabi fotih emas, u o‘z kelajagini zabt etish uchun kelgan.

IKKINCHI QISM

1

Ikki qavatli derazaning tuman bosgan oynalarini teshib o‘tayotgan erta bahor quyoshining nurlari xonani ikkiga ajratib, devorga qoqilgan tuman rejada asta yotardi. Keng sariq gazlamada chegara qizil tush bilan aylantirilgan. Agar jiddiy razm solinsa, Korshunovo rayonining tashqi ko‘rinishi afsonaviy ayiqning bahaybat oyoq iziga o‘xshaydi. Tumanning sharqiy qismida, chegara Paraskovyushka daryosi bo‘ylab ilang-bilang bo‘lib ketgan joyda, ko‘zga tashlanuvchi turtib chiqqan joyi xuddi changalni eslatadi.

Rejada ko‘k chiziqchalar bilan daryo, soy va anhorchalar, ko‘k doirachalar bilan ko‘llar, qiyalama chiziqlar bilan ekiladigan yerlar, yozuvli aylana bilan qishloqlar, tush tegmagan qog‘ozning «oq dog‘i» bilan o‘rmonlar ko‘rsatilgan. Ular har tomondan dalalarni siqib kelgan, qishloq va ovullarni daryolar sohiliga haydagan...

Quyosh rejani yoritib turibdi.

«Qishdan ham bir amallab chiqib oldik...» Pavel Mansurov chekar, papiros tutuni quyosh nurida g‘oyib bo‘lib ketardi. U tez-tez oyna orqasiga – go‘ng to‘kilgan, ho‘l, yaltiroq tekis yo‘lga ko‘z tashlab mashinani kutar edi.

Bu yilgi qishda kutilmagan hodisa sodir bo‘ldi...

Kuzgi ekinlar ekilib, don yetilib, yig‘im-terim ishlari boshlangan, hamma narsa odatdagiday ketayotgan edi. Pavel Mansurov avvalgiday targ‘ibot bo‘limida ishlar, seminarlar uyushtirar, o‘tkazilgan doklad va leksiyalar yuzasidan hisobotlar yuborar, komandirovkalarga borib kelar, raislarni ildamlatardi. Goh-gohida Ignat Gmizinnikiga ham kirib turardi. Ignat sertashvish chumoli kabi zo‘r berib o‘z kolxozi ishlarini yo‘lga solardi: silos uchun chuqur kovlatar, ularni sement qilar, terim paytida odamlarni yangi unib chiqqan o‘tni

o'rishga ham jalb qila olardi... Suhbat vaqtida u achchiqlanib, yaltiroq boshini tebratardi:

– Og'ayni, yana sen bilan havoni mushtladik shekilli!

Papka haqida esa qancha surishtirmang, viloyat qo'mitasidan hamma vaqt bir xil javob kelardi:

– Kuting.

Oxir-oqibat nafaqat Bayev va ishi boshidan ortib yotgan Ignat, balki Pavelning o'zi ham papkani eslamay qo'ydi. Pavel o'zidan talab qilingan ishlarni qo'lidan kelgancha bajarar, Korshunovodan chiqib ketishni chin yurakdan orzu qilardi.

Korshunovoda esa Yemelyan buva erta ertalab darvozalardan chiqib keladigan sigirlarni qarshi olardi. Tomorqalarda kartoshka qazib olinar, yakshanba kunlari ish yurituvchilar, buxgalterlar, idora boshliqlari devonxona stullarida o'tiraverib qotgan chigillarini yozish uchun butun oilalarini savat va pichoqlar bilan jihozlantirib o'rmonga, qo'ziqorin terishga jo'nardilar. Hammasi tanish. Dammasi jonga tekkan. Pavel Mansurov o'zini yolg'iz, unutilgan va baxtsiz his etardi. Qanday qilib Korshunovodan chiqib ketsa ekan?

Cho'zilib ketgan quruq poyalarga osilib qolgan oppoq mezonli, harakatsiz tiniq havoli, to'kilayotgan barglarning shitirlashi, taxta tomlardagi shudring bilan yoz ham o'tib ketdi. Sovuq kunlar keldi...

Ana shundagina viloyat qo'mitasidan qisqacha rasmiy javob keldi: o'rtoq Mansurov to'plagan hujjatlar Markaziy qo'mitaga yuborildi.

Bundan xabar topgan Pavel Mansurov indamadi. Ignat istehzo bilan:

– Bunday jasorat uchun juda ko'p tayyorlanishibdi! – dedi.

Bayev bo'lsa to'satdan Pavelga juda katta hurmat bilan qaraydigan bo'lib qoldi – e'tiborsiz qoldirishmabdi, Markaziy qo'mitaga jo'natishibdi. Bundan chiqdi, ish hazilakam emas. Hali gazetalarda qishloq xo'jaligini rejalashtirish haqida Markaziy qo'mitaning qarori bosilmasdan, Pavelni zudlik bilan viloyat qo'mitasiga chaqirtirishdi. Ajablanarlisi, papkani eslab qolishdi, Paveldan viloyat gazetasida maqola bilan chiqish qilishni iltimos etishdi...

Shu vaqtdan boshlab Mansurovning hayoti keskin o'zgardi. Familiyasi hisobotlardagina tilga olinadigan, ko'zga ko'rinmaydigan tuman qo'mitasi xodimi birdan doiralarda mashhur bo'lib qoldi.

Viloyat gazetasida uning rejalashtirishdagi kamchiliklar to‘g‘risidagi maqolalari bosilib turdi.

Viloyat qo‘mitasining birinchi kotibi Kurganov o‘zining ma’ruzalarida Pavelning papkasidan namuna olardi.

Viloyat qo‘mitasi Korshunovo tumaniga, byuro hay’atini yangitdan ko‘rib chiqishni taklif etdi.

Navbatdan tashqari majlisda Gmizin byuro hay’atiga kiritildi. Esankirab qolgan, ezilgan Bayev uni partiya ishidan ozod etishlarini so‘rab, qaytadan maktabda biologiya o‘qituvchisi bo‘lish istagini bildirdi.

Pavel Mansurovni birinchi kotib qilib saylashdi.

Yangi ishidagi birinchi tongi esidan chiqmaydi. Deraza tashqarisida Korshunovo tomlariga, tekis yo‘lga, odamlarga, o‘tib ketayotgan mashina kuzovlariga qor asta qo‘nardi. Xonani qorning mayin nuri yoritib turardi: ustiga ko‘k movut yozilgan stol, movut ustida kattakon marmar siyoh idish, Komelev to‘rt yildan ortiqroq, Bayev esa bir necha oygina egallab o‘tirgan stul.

Pavel ana shu stulga o‘tirdi. Uning qalbini hali shu joyda o‘tirib boshlashi kerak bo‘lgan buyuk ishlarning ishtiyoqi egalladi. Nimani buzish kerak, qanday ish boshlash kerakligi, mayli, hozircha noaniq bo‘la tursin. Eng muhimi – Pavel tumanda eng birinchi odam: tepasida na Komelev, na Bayev bor. Shu paytgacha u qayerda ahvol yaxshi-yu, qayerda yomon ekanligini sergaklik bilan sezib yurar, sezsa-da beparvo bo‘lmasdi...

Befarqlik – insoniy qusurlarning eng buyugi.

Befarqlik – ko‘pchilik o‘ylagandek yomonlik emas. Zahlik o‘z-o‘zidan hali chirish emas, u faqatgina chirituvchi bakteriyalarning ko‘payishiga zamin yaratadi. Shu bois qayerda zah bo‘lsa, o‘sha yer chiriydi.

Befarqlik yovuzlikni ko‘paytiradi, u yovuzlikning zamini, oziqlanuvchi muhiti.

Pavel Mansurovning befarqlarga toqati yo‘q, ularga qarshi kurashadi. Tashqarida, qor uchqunlari ostida yurgan odamlarning baxti deb o‘zini ham ayamaydi – bu uning shioriga aylanmog‘i lozim!

O‘sha tong Pavel papkasiga bittalab hujjat, bittalab fakt yiqqani kabi, donama-dona, korshunovoliklarning hayotini ham asta-sekin yangilayman, deb o‘yladi.

Lekin dastlabki kunlardanoq to‘g‘ri yo‘ldan yurish qiyin ekanligini sezdi.

Korshunovo tumanining Paraskovyushka daryosi bo‘ylab ketadigan chegarasida, ayiqning ulkan panjasiga o‘xshab turtib chiqqan joyda tumanning eng olis kolxozi – «Shuur» joylashgan. Shu kolxozning yonida, naq ikki qadam narida o‘rmon uchastkasi joylashgan, biroq u boshqa viloyatga tegishli (Paraskovyushka daryosi faqat tuman chegarasi bo‘lib qolmay, viloyat chegarasi ham hisoblanadi). Shu sababli «Shuur» kolxozi yog‘och tayyorlash uchun odam va ot-aravalarni butun Korshunovo orqali yuz kilometr uzoqlikda – Velikaya stansiyasi yonida joylashgan o‘rmonga yuborishga majbur bo‘lardi. Bu esa kolxozga juda qimmatga tushardi. Oddiy hisob-kitob... Yog‘och tayyorlashga boradiganlarga kuniga bir rubldan to‘lanardi: yo‘lda birorta qishloqqa kirib, hovliga otlarni joylashtirish, uy egasidan qaynoq choy, tunash uchun issiq uy so‘rash ham kerak. Bunday «sayohat» uchun sutkasiga bir rubl katta pul emas, ko‘pchilik tashkilotlar komandirovkaga buncha to‘lamaydi. Biroq qish bo‘yi kolxoz bir necha bor har birida yigirmatalab aravasi bo‘lgan olti-yettita karvonni yo‘lga tayyorlaydi. Bu karvonlar sovuqda, qor ostida ko‘milib ketgan yo‘llarda haftalab, hatto o‘n kunlab yo‘l yurishadi. Bir rubllab yig‘ilganda ham, hisoblab chiqsa mingga yetadi. Yo‘lda otlarni boqish, odamlarning ovqatlanishi uchun oziq-ovqat to‘g‘risida gapirmasa ham bo‘ladi... Otlarning holdan toyishi, so‘ng o‘rmonda yomon ishlashi, bahorda boronani arang tortishini o‘ylab ko‘rilsa-chi... «Shuur» kolxozi katta noqulayliklarni boshidan kechiryapti. Ammo bularni osonlikcha hal qilish mumkin. Paraskovyushka daryosining u tarafida o‘rmon uchastkalari turibdi, boshqa viloyatga qarashli bo‘lsa ham nima qilibdi. Shu o‘rmonda tayyorlanayotgan yog‘och boshqa davlat uchun emas, o‘z davlatimiz uchun-ku...

Bu haqda xabar topgan Pavel Mansurov qizishib ketdi: kuch va mablag‘larni bemaqsad sarflash, kolxozga ortiqcha yuk, la’nati rasmiyatchilik! Pavel viloyatga xat yozdi, rasmiy rad javobi keldi: «O‘z ishchi kuchimizni boshqa viloyatning ixtiyoriga berolmaymiz». Mansurov viloyat qo‘mitasining birinchi kotibi Kurganovga qo‘ng‘iroq qildi. U taxminan shunday javob berdi: «O‘zimiz rejani

bajarolmayapmiz-ku, qo'shnimizni ishchi kuchi bilan siylaymizmi?» Lekin Pavel shu bilan tinchimadi, o'zi viloyat qo'mitasiga bordi, Kurganov bilan shaxsan uchrashdi: odamlar o'z uyi oldida yaxshi ishlaydi, yurtiga ko'proq yog'och yetkazib beradi, davlat nuqtayi nazaridan turgan-bitgan foyda-ku, deya isbotlay boshladi.

Pavel uchun kutilmaganda Kurganov rozi bo'ldi:

– Xo'p. Sen davlatga foydasi bor, deb hisoblar ekansan – odamlarni chetga beraver. Yog'och tayyorlash rejasini esa bir kubometrga ham kamaytirmaymiz. Uddalay olsang, ishchi kuchingni beraver. Uddalay olmasang – joyingdan uchasan. Yog'och tayyorlash rejasining buzilishi uchun erkalatib o'tirmaymiz.

Pavelning dami ichiga tushdi – tumanda yog'och tayyorlash ishlari yaxshi ketmayapti, ortiqcha tashvishning nima keragi bor, o'z boshingga balo orttirib, boshqa viloyatdagi qandaydir noma'lum tuman qo'mitasi kotibining ishini yengillatishdan qanday foyda? Ishdan voz kechish kerakmi, kim biladi, ehtimol bajarish ishtiyoqida yurgan, o'ylab qo'ygan rejalaridan voz kechish lozimdir. Agar uning o'rniga Bayev yoki Komelevga o'xshagan yangi rahbar tayinlansa, hattoki «Shuur» kolxoziga ham foydasi bo'lmaydi. Yaxshisi, mayda-chuyda narsalarni deb tavakkal qilmagan ma'qul.

Paraskovyushka qirg'og'idan, avvalgidek butun tuman bo'ylab qor ostida qolib ketgan yo'llardan karvon cho'zilib kelardi...

Pavel bahor oldidan Chistotelov, Ignat Gmizin va boshqa raislar bilan birgalikda bahorgi ekish rejasini tuzib chiqdi. Bu rejada zig'irga katta ahamiyat berilgandi. Mehnat unumdorligi ortadi, kolxozchilarning cho'ntagi pulga to'ladi deb umid qilishdi. Lekin viloyatdan quruq javob keldi:

– Sizning zig'irni ko'paytirishdagi tashabbusingizni qo'llabquvvatlaymiz, biroq don ekiladigan maydonlarning qisqartirilishini mutlaqo taqiqlaymiz.

– Nima qilmoq kerak? Zig'irni bulutga ekmaymiz-ku?

– O'zingiz o'ylang, ammo don maydonlariga tegmang.

Yana o'z xohishiga qarshi rozi bo'lishga to'g'ri keldi.

Pavel Mansurov tumanda hali unchalik shuhratga erishmagan bo'lsa ham, viloyatda uning tirishqoq, mustaqil, tumanni qoloqlik-

dan ilg'orlar qatoriga olib chiqish uchun zarur barcha xususiyatga ega odam sifatida nom chiqargan edi.

Ammo Pavel Mansurov bu maqtovlarning qadrini biladi, gerdayib ketmaydi, kibr-havoga berilmaydi. Maqtashaversin: odamlar orasida obro'ying ortadi, o'zingga nisbatan shunday xayrixohlik sezsang, joyingda mustahkamroq o'tirasan..

Muvaffaqiyatsizliklar bo'lsa – vaqtincha. O'ngga-chapga qaramay darhol maqsadga erishish mushkul. Hali g'ayrating bor. Faqat uni mayda-chuydalarga sarflamay, katta-katta ishlarga saqlash kerak...

Tashqarida bahor. Derazadan ko'rinib turgan ko'm-ko'k osmon parchasi, quyosh tovlanuvchi tomchilaridan emas, balki bo'lajak g'alabalar kutayotganidan quvonasan. G'alabaga kelishi aniq! Pavelning bunga ishonchi komil.

«Qishdan ham chiqib oldik... Ajoyib!..»

Tomdan osti erigan katta qor bo'lagi gumburlab tushdi, bir zum derazadan tushayotgan yorug'ni to'sib o'tdi-yu, yerga gupilladi, aks sadosi esa yengil tin olgandek eshitildi. Jin ursin! Hatto shu narsa ham quvontiradi!

Eshik ochilib, Pavelning yordamchisi Ivan Samsonovichning ajindor peshanasiga yosh bolalarniki kabi bir tutam oq sochi tushib turgan boshi ko'rindi.

– Pavel Sergeyevich, mashina eshik oldida.

– Yaxshi, – javob berdi Pavel va tun-u kun yurishga, tinmay ishlashga, charchash nimaligini bilmay yashashga tayyor odamday, sakrab o'rnidan turdi.

2

Molxona eshigi ochiq. Havo quyoshli, ochiq, qurigan devor sinchlari yarqiraydi, ichkari esa shunday qorong'iki, xuddi butun borliq tuni bir joyga yig'ilib, yorug'likdan molxona ichkarisiga yashirinib olgandek. Molxona havosi ham tashqaridagidek yengil, toza, zah bo'lmay, qatrondek og'ir va yurakni zirqiratadi.

Sigirlar qorong'i molxonadan quyoshga birin-ketin chiqib kelishdi. Eti ustuxoniga yopishib ketgan sigirlar, tutam-tutam kulrang

tuklari bilan, turib qolgan go‘ng va yangi sog‘ilgan sut hidini olib chiqdilar.

Ko‘p kunlik qamoq tugadi. Tig‘iz og‘ilxona, oyoq ostida yotgan poxol, xira bo‘yalgan past shift, kunduzlari darchalardan elas-elas tushib turadigan nur, kechalari bazo‘r yonadigan lampochka, hidi aynigan somon – hamma-hammasi ortda qoldi. Oldinda shabnam tushib namlangan yangi ko‘kat yeb, qalin archazor salqinida dam olish, ariqlarga qoringacha tushib olib, pashshalarni haydash, suvga tushgan quyosh shu’lasidan teskari o‘girilish...

Chiqib kelayotgan sigirlarning birinchi qadamlarigina bir-biriga o‘xshash edi. Ular o‘zlarining qing‘ir-qiyshiq cho‘p kabi oyoqlari bilan yumshoq yerda bir-ikki qadam tashlab, ko‘lmak suvlarning tovlanishidan, kun yorug‘idan ko‘zlari tinib, bo‘ylardan mast bo‘lib to‘xtab qolishar, turgan joylarida bo‘yinlarini egib qotib qolardilar. Biroq birozdan so‘ng har bir sigir o‘z qilig‘ini ko‘rsata boshladi. Bittasi to ikkinchi sigir kelib unga urilmaguncha joyida qotib turaverar, so‘ngra bir-ikki beso‘naqay qadam tashlab, yana hayron bo‘lib qotib qolardi. Ikkinchisi boshini ko‘tarib issiq quyosh nurlariga, bahor va erkinlikka chiqqaniga xursand bo‘lganidanmi yoki sarosimaga tushganidanmi bo‘zlab ma’rab qo‘yardi. Uchinchisiga yovvoyi avlodlarning qoni ta’sir etib, dumini xoda qilib, oyoqlarini beso‘naqay ko‘tarib, zulmat og‘ilxonadan qochardi. Uning orqasidan molboqarlarning hayqirig‘i eshitilar edi:

– Huv, ovsar! Aqldan ozdingmi?

Faqat Barinya laqabli burama shoxli qari sigirgina ozg‘in yelinlarini selkillatib, uyib qo‘yilgan qor oldigacha to‘xtamay bordi-da, ko‘zi qamashib, mudramoqchi bo‘lganday qalin oq kipriklarini tushirdi. Unga na eriyotgan qorning mast qiluvchi hidi, na oftob nurlari bilan to‘lgan olam ta’sir qilmadi – issiq bo‘lsa ham mayliga... Sigirning ustiga zog‘cha kelib qo‘ndi, u maqtanganday bo‘lib boshini chayqadi-da, bir-ikki sakrab, tullayotgan yungni cho‘qiy boshladi. Barinyaning lat yegan shoxi ham qimirlamadi.

Ignat Gmizin oldiga kelgan Pavelga indamay qo‘l uzatdi-yu, o‘girilib sigirlarni tomosha qila boshladi. Unga molxona oldidagi bozorlardagidek to‘s-to‘polon ham, ochiq kun ham ta’sir etmasdi, jo‘ja tukiga o‘xshash sarg‘ish siyrak qoshi uyilgan, pastki qalin labi

esa nafratni aks etib turar, iyagini paxtaligining tugmalari solinmagan yoqasi orasiga berkitib olgan edi.

– Xafamisan? Qo'riqchiday turibsan, – qiziqdi Pavel.

– Xursand bo'ladigan yeri yo'q. Yoki senga mana shu manzara yoqyaptimi? – dedi Ignat ko'zi bilan turtishayotgan podani ko'rsatib.

– Xo'sh, nima qipti? Mollar qishdan doim shunaqa biroz ozib-to'zib chiqadi.

– Muammo ozib-to'ziganda emas. Men ularni minib paradga chiqmayman-ku. Sen menga birorta yaxshiroq yelinligini ko'rsata olasanmi?

Pavel sigirlarga ko'z yugurtirib chiqdi – sigirlar mayda, qorindor, dumg'aza suyaklari tor edi. Yaqindagi sigirning yelini mushtdek bo'lib qolgandi.

– Sigirlarimiz zotli emas. Gaping rost.

– Men xashak terimida odamlarni qiynab qo'ydim. Maqtanmay aytaman – zo'r xazina to'pladim. Xo'sh, kimlar uchun jon kuydirdim? Manavi juldurvoqilar uchunmi? Bular yeb to'ymaydi, xazinani go'ngga aylantirishga usta... Qayoqqa tumshug'ingni tiqyapsan, ko'r jonivor?! Qulmoq yeb oldingmi!

«Yeb to'ymas zotli» yosh ola sigir Ignatning shunday yonginasidan o'tib ketdi, Ignat o'zini chetga olmaganida qulatib ketishi mumkin edi.

– Bilmaysanmi, qachon bizlarni va'dalar bilan to'ydirishni bas qilishadi? – deb so'radi Ignat uchib ketayotgan sigirni kuzatar ekan. – Yoki va'da qilinganni uch yil kutish kerakmi?

– Shu hafta viloyatda chorvachilik bo'yicha majlis o'tishi kerak. Aytishadi... Sen ham u yerda bo'lishing shart.

Ignat tushunarsiz ha-a dedi-yu, gapni bo'lib:

– Xo'sh, Kudryavinoga boramizmi? – deb so'radi.

Ular qishloq tomon yo'l oldilar.

Qishloqqa yetmasdan keng xarobazor bor. Ikki yil oldin bu yerni qichitqi o't, chakamug' bosib yotar, har yer-har yerda archa butasi va bahor paytlari ustini pushti rang ko'pik qoplaydigan to'nkalar ham bor edi. Unda hali erimagan, shamol yalab ketgan qor uyumlari orasida usti tol bilan yopilgan yog'och chodirlar qad rostlab turibdi, xarobazor esa lo'lilar tashlab ketgan zim-ziyo taborni eslatadi. Har

bir chodir ostida chuqurlik bor. Ularda turli nav, turli sifatli silos saqlanadi. Kolxozchilar har bir navga o'zlaricha nom qo'yib olishgandi: no'xat poyasidan qilingani – «qanttek», ya'ni shirin; kungaboqardan qilingani – «solomat»[1], ya'ni ham shirin, ham to'yimli; qichitqio'tdan qilingan silosni dag'al bo'lgani uchun «Tyura»[2] deb atashardi.

Ignat Pavelga burilib qaradi.

– Mana bu go'ng sigirlarni zotli sigirlarga alishtirmasam, shular bilan birga, – Ignat qo'li bilan o'ralarni ko'rsatdi, – dimlangan cho'chqa go'shti konservasi bankasiga tushib qolgan och sichqonga o'xshab qolaman: tagida butun boshli boylik yotsa-yu, foydalana olmasang. Yuzi xunuk kelinga bezaklarning nima keragi bor... Ana, Sasha kelyapti, – so'zini bo'ldi Ignat ko'chaning narigi boshiga qarar ekan. – Hoy! Bu yoqqa!.. Bola juda chaqqon. Juftakni rostlab qolsa, kunduzi chiroq yoqib ham topolmaysan.

Pavel deyarli qish bo'yi Sasha Komelev bilan ko'rishmagandi. Uning yelkalari kengayib, eskirgan kastumi (bahor hali sovuq bo'lsa ham, Sasha kastum kiyib olgandi) tor kelib qolgani darhol ko'zga tashlansa-da, yuzidagi tushunib bo'lmaydigan, ko'zga ko'rinmas o'zgarish Pavelni hayron qoldirdi. Yuz tuzilishi, qoshlari yaqqolroq ko'ringani uchunmi, biroz dag'allashgandi, oldingi shaffof ko'zlari hozir qorayib qolgandek edi.

– Otlarni qo'shib qo'ydim, – dedi Sasha Pavel uchun kutilmaganda yo'g'on ovoz bilan.

Sasha yonida tinch ketolmasdi: engashib bir siqim qor olib yumaloqlab panjara ustuniga otdi – yuzida alam belgisi paydo bo'ldi – tegmadi, etigining uchi bilan eski g'ildirak vtulkasiga tegindi, osilib turgan daraxtning yalang'och novdasini yulib oldi, kurtagini ochib, hidladi... Uning tanasi uchun eng og'ir jazo harakatdan to'xtab qolish ekanligi bilinib turardi.

– Ajoyib yigit bo'lib qolibsan-ku, – o'zini tutolmay dedi Pavel.

---

[1] *Solomat* – shimoliy tumanlarda ustiga ko'p yog' solingan suli yoki bug'doyli bo'tqa.

[2] *Tyura* – suv, kvas kabilarga to'g'ralgan piyoz va nonli ovqat nomi.

Sasha uyalib chetga o'girildi, ketayotib panjara qozig'ini joyida qattiq turibdimi, deb siltab ko'rdi. Pavelning shu paytgacha norozi va tumshaygan chehrasi ochilib ketdi.

– Albatta, ulg'ayyapmiz... – Sasha uchun javob berdi u o'zicha mag'rurlanib.

3

Pavel Mansurov kabinetida osilib turgan rejadagi tush tegmagan joylar o'rmonni bildirar, har joy-har joyda yozuvli aylana ham bor, atrofida esa – ekin maydonlari shtrixlangan; ana shularning hammasini jamoat bilan egri-bugri ingichka ipday chiziq birlashtirib turadi. Bu yamoqlar odamlar: «Atrofi o'rmon, tuynugidan osmon ko'rinadi» deyishadigan qishloqlar. Ularni keng dunyo bilan birlashtiradigan ip faqat piyoda yuruvchilar-u, arava g'ildiragi va traktor o'ta oladigan faqirona qishloq yo'li.

Tuman rahbarlari uchun har bir shunday ta'mir tuzatib bo'lmas kasal. Chetlarda qirqdan ortiq odam yashaydi, ularga mashina-traktor stansiyasidan kombayn, traktor olib borib berishni uddalab ko'rchi, ularni qanday qilib yiriklashtirish, qaysi kolxozga qo'shish kerakligi haqida o'ylash kerak.

Kudryavino ta'mirtalab yeri «Mehnatkash» va «Porloq yo'l» kolxozlari o'rtasida, ikkalasidan ham uzoqda joylashgan. Yiriklashtirish boshlangan yili Kudryavinoni keksa, tajribali rais Fedosiy Murgin boshchiligidagi mustahkam «Porloq yo'l» kolxoziga qo'shib yuborishdi.

Kudryavinoliklar bebosh xalq: bahorda ekishga, kuzda esa yig'imterimga shoshilmadilar, davlatdan kredit olishar edi-yu, sarflashar, to'lashni esa mutlaqo o'ylashmasdi. Fedosiy Murginning qanoti ostiga o'tib olgandan so'ng: «Fedosiy Savelyich, bug'doy ko'kardi... Fedosiy Savelyich, avans bersang yaxshi bo'lardi», – deya uning jahlini chiqara boshlashdi, shu sababli mulohazali Murgin ularni ichida yoqtirmay qoldi, ana shu o'rmon orasida qolgan brigadani «Kudryavino avtonom respublikasi» deb atay boshladi, bu bilan u tuman rahbarlariga kudryavinoliklarni o'ziga bo'ysundirolmayapman, degandek shama qilardi.

Tarqoq «Porloq yo'l» kolxozining tayanchi va asosi bo'lgan Pogrebnoye, Sutolokovo, Ivashkin Bor qishloqlarida «jingalak», «Oshna, jingalak bo'lib qolibsan...» deyishdan yomonroq kamsitish yo'q edi. Bu so'zlarni eshitgan odam, albatta, uning tashqi ko'rinishini maqtashmayotganini, balki insofsiz tilanchi va hech narsaga yaramaydigan odam deb hisoblashayotganini tushunar edi.

Pavel Mansurov Kudryavinoni «Mehnatkash» kolxoziga berishni taklif qildi.

– Fedosiy eski odam, shu sababli eskicha yashaydi, bu bo'lakchasiz o'z kolxozini uddalasa ham katta gap. Sen bo'lsang hamma yoqni eplayapsan. Kuching yetadi, kudryavinoliklarni ildamlatasan, – derdi u Ignatga.

Yangi Ramenye qishlog'idan Kudryavinogacha o'n besh kilometrcha kelardi. Kim ham o'rmon yo'llarining kilometrini o'lchabdi deysiz?

Ot ikki soatdan beri chanani o'rmon yo'lidan tortib borardi. Goh loydan, goh qotib qolgan qordan, goh ko'lmak suvlarga botib sudralib ketardi. Shunisi borki, chananing oyog'i g'ildirak emas: aravaga o'xshab hech qayerda botib qolmaydi.

Yo'l borgan sari torayib, o'rmon qalinlashib, xilvatlashib, balandlashib borardi. Bir joyda qarag'ayning qalin tanasi bir-birining ustiga ag'darilib, yo'lni to'sib yotardi – aylanib o'tishdi. O'zida juda kuchli bo'ron izlarini saqlab qolgan bunday tartibsizlik, ayniqsa, o'rmonda kishida juda g'ayrioddiy hissiyot tug'diradi. Bundan keyin inson tomonidan ochilgan yo'ldan borish g'alati tuyulardi. Beixtiyor hozir yo'l uzilib, otlar aravani sinib yotgan daraxt tanalari, to'nkalar, o'nqir-cho'nqir joylar uzra tortib ketadi, deb kutasan kishi.

Biroq quyuq o'rmon orasida havorang yorug'lik ko'rindi-yu, g'oyib bo'ldi, yana bittasi undan ham kattaroq bo'lib ko'rindi... Chana yopishqoq loy bosgan, u yer-bu yeri go'ng aralash muz qoplagan arava iziga tushib oldi. Yo'l kuzgi ekin dalasini kesib o'tdi. Dala orqasidan qishloq uylari, ko'kka bo'y cho'zgan qayin daraxtining uchi ko'rindi. Mana, Kudryavino!

Sasha biron marta ham o'rmon orasidagi qishloqlarda bo'lmagan edi; u qiziqsinish bilan qishloqqa tikilardi – axir o'rmon orasidagi qishloq ovloq joyligi bilan ajralib turishi kerak-ku. Ammo yo'l odat-

dagiday oddiy qishloqqa olib keldi: qish davomida qiyshayib qolgan to‘siqlar, egik poyadan qilingan, mehmondo‘stlik ila lang ochiq darvozalar, yog‘och kulbalar...

– Ularda elektr ham bor ekan! – hayron bo‘lib hayqirdi Sasha.

Qishloq yo‘li bo‘ylab ichkarigacha sariq simyog‘ochlar ko‘rinib turardi.

– Fedosiy Murgin ularga lokomobil bergan, – tushuntirdi Ignat. – Bir qishgina chiroq bo‘ldi, keyin qandaydir buzilish yuzaga keldi. Bu vaqtga kelib Fedosiy kudryavinoliklardan yuz o‘girdi, ular esa Fedosiyning lokomobilidan... Simyog‘ochlar turibdi, kulbalarda ham lampochkalar bor...

Ignat bu yerga bir necha bor kelgan bo‘lsa ham, hamma yoqqa tezda ko‘z yugurtirib chiqdi, peshanasini tirishtirdi, ko‘rayotgan joylari endi uning qaramog‘idagi xo‘jalik bo‘ladi.

– Eh-he-he!– xo‘rsinib qo‘ydi u. – O‘roq mashinasi qishi bilan ochiq joyda qolib ketibdi-ku.

«Porloq yo‘l»ning raisi Fedosiy Murgin hali kelmagan, hademay kelib qolishi kerak edi.

Yiriklashtiruvga qadar boshqarma idorasi vazifasini bajarib kelgan brigada uyida mehmonlarni brigadir Savvatiy Kopachyov kutib oldi. U hammaga «Savvushka uydirmachi» laqabi bilan mashhur. O‘zi kichkina bo‘lsa ham kallasi keng peshanali, soqoli qirilgan, qoshlari va o‘ynoqi ko‘zlari tepaga-pastga sakrab turardi. Pavel u bilan tanish emasdi, Ignat bo‘lsa Savvushkani ko‘pincha o‘z xonasida uchratib turardi. Ignat hayratini yashirmay to‘ppa-to‘g‘ri so‘radi:

– Bu qanday sodir bo‘ldi? Sen brigadirmisan?

– O‘zim ham tushunmayman, – yosh bolalarniki kabi ingichka ovozda javob berdi Savvushka. – Xalq meni bo‘lsin deydi.

Ignat shubhalanib bosh chayqadi:

– Buni qara-yu... arbob.

Savvushka uydirmachi yoshligidan nimjon, qishloq ishlariga odatlanmagan bo‘lib, o‘zi ham buni tan olar, qishloq xalqi «bekorchi yigit» deydiganlardan edi. Kolxoz u yoqda tursin, o‘z xo‘jaligiga ham qaramasdi. O‘z tomorqasini chopib, ekin ekadigan paytda Savvushka u qo‘shninikidan bu qo‘shninikiga yugurib, papiros uchun maxorka so‘rar, so‘ng:

– Jo‘rajon, ortiqcha taxtang yo‘qmi mabodo?.. Nimaga deysanmi? Choy puli, bahor; eshityapsanmi, chug‘urchiqlar uchib kelgan, ularga in qurish kerak, – derdi.

U kuni bo‘yi burun vujudi bilan berilib, in yasayman deb urinib yotar, hatto kampir zinadan turib butun qishloqqa eshittirib qarg‘ayotganiga ham e’tibor bermasdi.

– Buni qarang, qo‘shnijonlar! Uyda yegani ushog‘i yo‘g‘-u! Bu landavur bilan umrim bo‘yi qiynalyapman!.. Ey yaratgan Egam! Qachon unga aql berasan?

Savvushkaning dovyurak ofitser o‘g‘li bo‘lib, ba’zida qishloqqa kelganda o‘z husni, ofitser kiyimi bilan qizlarni o‘ziga rom qilardi. Savvushka o‘g‘li bilan faxrlanar, yo‘lida uchraganga: «Mening o‘g‘lim», deb maqtanardi. O‘g‘li yuborib turgan pulga kampiri bilan yashardi.

Atrofda hech kim Savvushkaday ajoyib, kulgili latifalar va qo‘rqinchli afsonalarni bilmasdi. Ikki-uchta bo‘lib yig‘ilishib qolishsa bo‘ldi, Savvushka o‘zining ingichka ovozi bilan hikoyasini boshlardi.

Hozir ham u Fedosiy Murginning kelishini kutib, maqtanib gapira boshladi:

– Biz tomonlarga yetib kelish oson emas. Pavel Sergeyevich, siz ham mashinangizni qoldirib yog‘och chanada kelibsiz-a. Biz o‘rmon odamlari... Bu yerlarga qanday qilib kelib qolganimizni eshitmagandirsiz hali?.. Yo‘q deng. Ana, shunday. Ignat Yegorovich, biz kudryavinoliklar bilan ildizing bir. Sen Ostanovodansan. biz ham. Taxminan yuz ellik yil burun Ostanovoda Fyokla ismli ayol yashagan, hamma uni Alvasti deb chaqirardi. O‘ziyam juda baquvvat bo‘lgan. Ayiqni yengadigan erkaklarimizni bir mushti bilan yiqitardi. Eri bo‘lsa nimjongina edi. Fyokla uni xotinlarning ishini qilishga majbur etardi – sigir sog‘dirardi, xamir qordirardi, kir yuvdirardi. O‘zi yer chopib, ekin yig‘ib olar, bo‘z yerlarni o‘zlashtirardi. Juda badqovoq, hamma ishning teskarisini qilardi. Xalq undan xavfsiray boshladi: yalmog‘iz yoki alvasti bo‘lmasin tag‘in, uni bir yoqlik qilish kerak. Bir yoqlik ham qilishdi: ekinzoriga sigirlarni qo‘yvorishdi, buqachasining oyog‘ini sindirishdi, ish shu darajaga borib yetdiki, hatto uning otini ham o‘ldirib yuborishdi. Shunda Fyokla dosh be-

rolmadi, kimning ishi ekanini bilib oldi... Otini qishloqda eng abjir yigitcha o'ldirgan edi. Nima bo'ldi deng! Kuppa-kunduz kuni yigitni bopladi, xalq o'rtasida boshini tizzasi orasiga olib, qizlar oldida ishtonini yechib, rosa savaladi... Yigit uyalganidan adoyi tamom bo'ldi. Fyokla esa yuklarini aravaga tashlab, erini ham o'tqazib, o'zi aravani tortib o'rmon tomonga ketdi... Orqasidan hamma tupurib: «Yalmog'iz yalmog'izlar joyida yashasin, qayerda istasang o'sha yerda yasha, shayton nasli», deyishdi. Fyokla uzoqroq, ammo so'lim bir joyni tanladi, bu tomoni qarag'ay, u tomoni qayinzor, juda go'zal manzara...

Sasha qiziqib, Pavel bo'lsa zerikib tingladi, Ignat kechgacha qolib ketishdan qo'rqib, tez-tez soatiga va derazaga qarab qo'yardi. U birinchi bo'lib Savvushkaning so'zini bo'ldi:

– Xayriyat! Fedosiy keldi.

«Porloq yo'l»ning raisi Murgin qornini osiltirib, kalta oyoqlarini ikki yoqqa tashlab inqillab xonaga kirib keldi-da, semiz qo'lini avval Pavelga, so'ngra Ignatga, ikkilanib Sashaga uzatib ko'rishdi, Savvushkaga esa qaramadi ham.

– Korostelskiy o'tloqlari yonidagi jarlikni suv bosibdi, zo'rg'a o'tdik. Mening yoshimda o'nqir-cho'nqirlarni sakrab o'tish... – U boshidagi charm kartuzini yechib, peshana va yuzlarini dastro'mol bilan artdi.

Yiriklashuvga qadar Murginning kolxoziga hamma havas qilardi. O'sha yillari faqatgina korshunovolik xaridorlar emas, balki viloyat bozorida ham uy bekalari: «Porloq yo'l»dan cho'chqa go'shti olib kelishmadimi?» deb so'rashardi.

Yiriklashtiruvdan so'ng «Porloq yo'l» kolxozi ancha o'tirib qolda. Mana, oradan uch yil o'tdi, biroq avvalgi darajasiga yeta olgani yo'q.

Murgin hozir qovog'i solingan, qornini qappaytirib, viqor bilan o'tirar, qovoqlari ostidan hamsuhbatlariga bir-bir qarab qo'yardi. Axir nima bo'lganda ham, u kudryavinoliklar bilan kelisha olmadi, endi ularni Gmizinga topshirishga majbur. Gmizin kim bo'pti o'zi? Rais bo'lganiga atigi to'rt yil bo'ldi. Fedosiy Savelyich ichida, tuman qo'mitasi kotibi Mansurov istehzo bilan: «Yelkangdan og'ir yukni olayotgani uchun Ignatga rahmat ayt», deya pisanda qiladimi deb qo'rqardi. Qariganingda bunday gaplarni eshitish osonmi?..

Biroq Pavel:

– Xo'jaligingni bir aylanib ko'raylik. Sen, Savelyich, hammasini ochiq-oydin aytib berasan, – deb qo'ydi.

– Xursand qiladigan gap yo'g'-u, ammo hamasini oqizmay-tomizmay aytib beraman. – Murgin o'rnidan turib, Savvatiyga qo'pol ravishda bosh irg'adi. – Marfa Karpovnaning oldiga yugurib borib ayt, birozdan keyin samovarni tayyorlab tursin. Mehmonlar kuni bilan shu yerda bo'lishadi.

– Bu qiyin muammo emas, birontasiga aytib qo'yaman, – gerdayib dedi Savvatiy. – Xo'jalikni ko'zdan kechirishda mening ham so'zim ortiqchalik qilmaydi.

– Yuborgan joylariga bor. Xo'jaligingni o'zim ko'rsataveraman.

Savvatiy ochiqdan ochiq afsuslanib mehmonlar bilan xayrlashdi: yangi odamlar bilan suhbatlashishni istardi.

– Brigadirlikda Savvushka uydirmachini ko'rib hayron bo'lmadingizmi? – gap boshladi Murgin hansirab. – O'z brigadirlarimni ko'p martalab qo'yib ko'rdim... Dastlab Nikita Obozniko vni qo'yib ko'rdim. U bir oyga ham chidamadi, oldimga kelib shapkasini yerga urib: «Nima qilsang qilaver, kudryavinoliklardan qochaman. O'rim-yig'im pallasida ular o'rmonga meva terish uchun ketishadi. Har birini iskovuch it bilan qidirib yurish kerak», dedi. Aqlga sig'maydi, bechora o'rmonga ketib qolishmasin deb, ertalab deraza oldida poylab tursa-yu, ular ayyorlik qilib jo'nab qolishsa... Ivan Mishin bilan ham ahvol yaxshilanmadi. Majlislarda esa: «Begona kerakmas! O'zimizdan saylaymiz!..» deb qichqirishadi. Mana endi shu ta'viyani brigadir qilib saylab qo'ydik. O'zlari uchun juda qulay odam... Bu yerlik xalqni o'rmon buzgan.. Ularni yer emas, o'rmon boqadi! Meva terishadi, olib borib sotishadi. Bir stakan malina bir rubl turadi, bunday malinalar bu yerda bir dunyo. Yovvoyi parranda otishadi, ko'lda baliq ovlashadi. Kerak bo'lsa bug'uni ham gumdon qilishadi... Qonun uzoqda... Butun qonun, hokimiyat brigadirning qo'lida. Shuning uchun ham begona bilan chiqishmaydi... Shu sababdan beozor odam deb Savvushkani saylashgan. Tomorqani haydab olishlari uchun otlarni yo'q demay beradi, malina bilan shug'ullanishni man qilmaydi, hech kimni ishlashga majburlamaydi, chunki o'zi ham mehnat qilishni yoqtirmaydi. Ana shu ochiqqo'l

«payg'ambar» Savvushka qanoti ostida kun kechirishadi, bu ahmoq esa hurmatda bo'lganidan xursand. Sizlarga ham «Xalq menga ishonadi...» deb maqtangandir. Mana, Ignat, eshit... Bu gaplarimni qo'rqitish uchun emas – saboq bo'lishi uchun aytyapman.

Kechki ayozdan yer qatqaloq bo'lib, otlar chanani bazo'r torta boshladi. Ko'proq piyoda yurishga to'g'ri kelardi. Dastavval sukut saqlab ketishdi, nihoyat Pavel:

– Rozi bo'lganingga afsuslanmaysanmi? – deb so'radi.

Ignat bazo'r kulimsirab, javob berdi:

– Yoki chanani orqaga buraman deb o'ylayapsanmi?

– Hali ham kech emas... To'g'risini aytsam, taklif qilgan bo'lsada, endi shubhalanib qoldim. Sening kolxozing qo'ziqorinday o'syapti. Kolxozing tuman bayroqdori bo'lishi mumkin edi, mana endi og'ir yuk osib qo'yishdi.

– Menga yuk bo'lmasa, Fedosiyga osishardi; bu yukni kimningdir yelkasiga ortish kerakda axir...

– Faqat shugina majbur qilyapti. Lekin kudryavinoliklar boshingga bitgan balo bo'ladi. Eh, rosa qiynalasan...

– Men ularni o'z foydamni ko'zlab olmadim, odamlarga achinaman. O'rmonda yovvoyilashib ketishgan, o'zlari bu botqoqdan chiqolmaydilar. Fedosiydan bo'lsa bir narsa kutish qiyin, o'zing bunga amin bo'lding. Oyog'ida arang turibdi, ularni chiqaraman deb o'zi o'sha botqoqqa tushib ketmasin tag'in. Harakat qilib ko'raylik. Bu ishni boshqa kim ham qilardi.

– Unda ajoyib ish bo'ladi. Rahmat deymiz.

– Shart emas. O'z kolxozimni boshqalardan ayirishni istamayman.

– O'rmonliklarni qanday qilib joyidan siljitmoqchisan?

– Qanday qilib deysanmi? – qayta so'radi Ignat. – Buning yo'li oson. Ularning yerlariga don ekmaymiz. Befoyda. Yerning bir qismini maysazor uchun ajrataman, qolganiga sabzavot ekaman. Yaxshi molxona qurdiraman, silos uchun chuqurlar qazdiraman, moyjuvoz qilib Kudryavinodan yog' olaman. Yaylovlari keng, o't ko'p, butun tumanga yetadigan silos tayyorlasa bo'ladi... – Ignat biroz jim turib qo'shib qo'ydi: – Bu – kelajak rejalari, hozircha ularni shunchaki

sudrash kerak... Menga ko'paytirish uchun zotdor, naslli mollar kerak! – deb gapini qaysarlik ila yakunladi.

Pavel kulib yubordi.

– Senda hamma kasallikka bir xil dori ekan-da! Chorva berasan – gap tamom!

Ignat javob bermadi, bir-ikki katta qadam tashlab chanaga yetib oldi-da, o'zini uning ustiga tashladi.

– O'tir! Bu yer qiya – otlarga oson bo'ladi...

Mansurov va Sasha uning yoniga o'tirishdi.

Chana g'ichirlar, qorong'ilik qa'riga kirayotgan o'rmon osoyishta edi.

4

Sasha vaqt-vaqti bilan hayot uni es-hushini yig'ib olishiga qo'ymay, o'ziga qaysarlik bilan tortayotganini seza boshladi. Har bir kun biron-bir yangilik olib kelardi.

Yaqinginada gazetada: «Falonchi kolxoz silos rejasini oshirib bajardi...» degan gapni o'qishdan ham zerikarliroq narsa yo'q edi. Rangpar, siyqasi chiqqan gaplar qalbida hech qanday iz qoldirmasdi.

Ammo vaqt o'tar, Sasha ochko'zlik bilan gazetadan ana shunday xabarlarni o'qiy boshladi. Silos qilishibdimi? Qanday qilib? Nega kam? Uch qatorgina xolos, qo'rslik qilishibdi...

Yangilik xavotir bilan birga kelar, tashvishga solardi.

Kolxoz o'ryapti, kolxoz pichanni zaxira qilyapti. Bunday kunlarda hamma havoga xavotir bilan qaraydi: shir etib yog'ib qolsa, o't chirib ketadi, keyin qishda mollarni nima bilan boqib bo'ladi? Poxol bo'lsa yaxshi, u ham yetmasa-chi? O'lmasdan sigirlarni so'yish kerak bo'ladi.

Kuzda o'rilgan o'tloqlarda kechki o't qalin o'sadi – ikkinchi marta o'rib olaver. Ikki karra pichan yetilsa yomonmi? O'rib olish mumkin-u, lekin qanday qilib quritasan? Kuz quyoshi uncha issiq bo'lmaydi, ko'p yomg'ir yog'adi. O'rib olsang-olmasang baribir chirib ketadi – shunday boylik nobud bo'lyapti. Nima qilish kerak?

Rogovo botqog'ida, qiyoq bosib yotgan tepaliklar atrofida sonsanoqsiz yerlar yotadi. Mol u yoqlarga bormaydi, qiyoqni yemay-

di. Chunki o'tning tig'i o'tkir, lab kesib ketadi. Befoyda o't. Ramenye dalasi ortidagi qichitqio't bosib yotgan daladan ne foyda? Ko'pchilik, dunyoda befoyda o't kam o'sadimi deydi, bu Xudoning irodasi, deb jahli ham chiqadi.

Bu faqat vaqtinchadek tuyuladi, ko'zmg ochilguncha bilolmaysan.

Kechki o'tni o'rib. o'raga bosib to'ldirish uchun ko'p aql kerakmas. Buning uchun quyosh chiqishini kutib o'tirishning-da hojati yo'q, yomg'ir, namgarchilik ertalabki shamolning zarari yo'q. Qish oxirida ana shu o'ralarni ochib, achigan non hidi ufurib turuvchi kechki o'tni og'ilxonalarga tarqatilsa, mol so'lagini oqizib yeydi. Qiyoq va qichitqio't – hatto ularni ham sut va go'shtga aylantirish mumkin...

Ignat Yegorovich o'ttiz yetti hovuzni silos bilan to'ldirdi. Har bir hovuzda o'ttiz-qirq tonna silos bor. Sanab ko'rilsa, ana shu yalanglikda, yer qa'rida kolxozning yig'ib-tergan xazinasi yotibdi!

Bankda yuz minglab pul, molxonada go'ngni qo'lda tashimaslik uchun yangi osma yo'llar, yigitlar uchun velosiped, qizlar uchun ipak ko'ylaklar, tunuka tomli uylar, musiqa ovozi yangrab turuvchi radiopriyomniklar – mana silos nima degani! Go'zal zaminda – go'zal hayot! – Sashaning otasining orzusi! Sasha bularga beparvo bo'lmasligi kerak.

. . . . . .

Ignat Yegorovich haligacha kechqurunlari Sasha bilan kitob ustida o'tirishni qonun deb bilardi. Sasha kitobdagi hikmatlarni Ignatga nisbatan tezroq fahmlab olardi. Ammo Sasha kitobda yozilganlarni eslab qolib, o'qigan narsasiga pisandasiz ishonsa, Ignat ming'irlab, darsliklar bilan tortishardi:

– Yozishgan narsalarini qara? Silos minorasi o'raga nisbatan arzonga emish. Uni isitish, ta'mirlash-chi?.. Taxta har yili yorilaveradi. Bunday ta'mirlashlar yaxshigina pulga tushadi...

Ignat bir qancha hayotiy misollarni uyib tashlagandan keyin Sashaning o'qigan narsasiga ishonchi qolmasdi.

Ularning g'am-tashvishlari umumiy edi, ular birga orzu qilishar, birga o'qishar, birga ishlashar, Sasha uchun yangilik Ignat Yegorovich orqali ochilardi.

Sasha Katya bilan shahardan qaytishi bilan yarashib oldi.

Aytishib qolishgandan keyingi yolg'iz o'tkazgan tunning qolgan qismi Sasha uchun qari qarag'ay bilan xayrlashuv daqiqasi bo'ldi. Ularning qayta uchrashishlariga faqatgina kuzgi yomg'irlar, qishning sovuqlari emas, balki boshqa bir narsa xalaqit berdi. Ularning munosabatlari o'zgarib, odatiy hodisaga aylandi qoldi-yu, lekin sovimadi, aksincha, oddiy, do'stona yaqinlik paydo bo'ldi. Bu do'stlikni qorong'i tunda chetdagi qarag'ay ostida yashirib o'tirishning keragi bo'lmay qolmadi.

Qari qarag'ay o'z xizmatini o'tab bo'ldi-yu, kerak bo'lmay qoldi.

Katya Sashani uyiga taklif qila boshladi. Katyaning buvasi, Sashaning sobiq o'qituvchisi Arkadiy Maksimovich bilan choy ichishdi. Katya kastumini yengil xalatga o'zgartirib, sochlarini silliq tarab chiqdi-da, qizarib, mehmondo'st uy bekasi ishini bajarayotganidan mamnun bo'lib, Sashani qunt bilan mehmon qildi:

– Sasha! Nega qizlardek uyalib o'tiribsan? Mana murabbo, mana qatlama. Yalinishga majbur qilaverma.

Arkadiy Maksimovich choydan keyin balandparvoz mavzuda dunyo, odamzod, kelajak haqida falsafa qilishni yaxshi ko'rardi.

– Atrof olamning cheksizligidan g'am-g'ussaga botmayman. Aksincha! Ana shu cheksizlikda inson tafakkurining bitmas-tuganmas imkoniyatlarini ko'raman. Ha, ha, do'stlar! Dunyoning birgina hokimi bor – odam!

Stol ustidagi hali yig'ib olinmagan finjonlar xira yiltiraydi... Qariyaning bo'g'iq ovozi qandaydir yoqimli ish bilan birga ulkan, yetib bo'lmaydigan orzuni uyg'otardi. Katya katta eski divan ustida oyoqlarini yig'ishtirib olib, tanbal, yumaloq, ishonqiramas o'ychan ko'zli mushugi Fomkani silab o'tirardi. Sasha boshini o'girmasa ham, Katyaning nigohini sezardi. U o'zini ana shu kichkina oilada tinch va qulay his qilardi.

Sashaning bunday tashriflari Katya bilan Sashani unashtirib qo'yilgan deyilishiga sabab bo'ldi. Sasha ko'pincha onasining yig'lab o'tirgani ustidan chiqib qolardi. «Men shunchaki, bolajonim, shunchaki... Faqat sen onangni tashlab ketma, sening yordamingsiz qiynalib qolamiz...» mujmal tushuntirardi u. So'nggi paytda ona zo'r berib yung ro'mol to'qirdi – bu bo'lajak kelinga sovg'a emasmikin?

Kolxozda Sasha ramenyelik xushchaqchaq qizlardan biri Nastya Baklushinaning e'tiboriga tushib qoldi.

Bu qiz dugonalari orasida jussasi, sog'lom ko'rinishi bilan ajralib tursa-da, o'zi past bo'yli, yuzlari quyoshda ham qoraymaydigan darajada bo'lib, ko'zga darhol tashlanmasdi. Ammo ko'pchilik hammaning havasini keltiradigan flot ofitseri (oq furajka, egniga kelishgan kitel kiyib, beliga xanjar taqib yurardi) Pyotr Dyomin Nastyaga xatlar jo'natar, ularda uylanishni va'da berardi. Nastya flot ofitseriga unchalik zor bo'lmay, qishloq kengashi kotibi Mitya Golikov va mashina-traktor stansiyasi agronomi Fyodor Perxunov, haydovchi Nikita Shurenkovlarning boshini aylantirib yurishini ko'pchilik yaxshi bilardi. Nastya bilan suhbatlashish uchun yigirma kilometr yo'l bosib, qandaydir yoshi kattagina desyatnik, kim bilsin, oilasi ham bordir, kelib turardi. Shuning uchun ham ramenyelik to'ladan kelgan qizlar Nastyani ich-ichlaridan ko'rolmas edilar.

Nastyaning yosh qizlarnikiday beo'xshov qomati va oriqqina yuzida shirali, yorqin lablari ko'zga tashlanib turardi.

Nastya birinchi kunlardanoq Sashaga ko'zini o'ynata boshladi. Pichan o'rog'ida Sashaga qarab:

– Kel buyoqqa! Yosh yigitcha bilan o'ynagim kelyapti! – deb qichqirardi.

Keyinchalik Sasha bunday hayqiriqlarga o'rganib ketdi, hatto javob ham qaytara boshladi. Nastya uni vaqtincha tinch qo'ydi.

Mana, yana qandaydir shayton Nastyani Sashaga gijgijladi. Idorada ko'rib qolsa ham, tiqilib-surtilib Sashaning oldiga kelib:

– Qayoqqa shoshilyapsan? Hech ko'rinmaysan. Kel bu yoqqa, jonginam, yonimda birpas o'tir, gaplashamiz, – derdi.

Kolxoz idorasida ishlaydigan soqolli bir kishi Sashaga maslahat berib:

– O'zingga qara, yigit... Undan uzoqroq yur – chaqib oladi. Ajinasi bor qiz, – dedi.

5

Viloyatda qoramolning o'sish sur'ati past, sut kam sog'ilyapti, yozda yog'ingarchilik oz bo'lgani bois beshta tumanda yem-xashak yetishmaganligi sababli, qishda mollarni so'yishga to'g'ri keldi. Viloyat chorvachiligi juda og'ir ahvolda qoldi.

Shahar teatrida ana shu masala yuzasidan ilg‘or ishchi xodimlar uchun majlis chaqirildi.

Shifti baland, rang-barang qandilli, hashamatli foye bu kecha bayramona ko‘rinishda emasdi. Garderobchi xotinning chehrasi ham ma’nosiz, qo‘lida dasta-dasta dastur ko‘targan tarqatuvchilar ham ko‘rinmaydi. Teatrga yig‘ilganlarning kayfiyati ham odatdagiday, qiyiq yoqali ko‘ylaklar, xrom etiklar, dazmollangan shim-kastumlar elektr chiroqlarining yorug‘ shu’lasida yaltiraydi. Erkaklar ko‘p, ayollar esa kam edi. Odamlar to‘da-to‘da bo‘lib yig‘ilishar, chekishar, suhbatlashishardi.

Devorlarga, shiftning shundaygina ostiga, List, Betxoven, Motsart, Glinka, Chaykovskiy va boshqa buyuk bastakorlarning suratlari osilgan. San’atning ana shu buyuk arboblari oldida yaylov, sog‘ish, uloq, buzoq, silos, konsentrat kabi so‘zlarni eshitish g‘alati tuyuladi...

Pavel Mansurov so‘nggi vaqtlarda viloyatda bo‘ladigan ana shunday majlislarni yoqtirib qolgandi. Egnida bekam-ko‘st kastum, jingalak sochli boshi mag‘rur, duch kelgan odam bilan quchoq ochib ko‘rishish uchun tayyor odamday sertabassum, foyeda yumshoq qadam tashlab yurar, tanishlariga bosh irg‘ar, suhbatlashardi. Orqasidan hamma unga o‘girilib qarab, shivirlashardi:

– Korshunovodanmi?

– Ha.

– Yosh ko‘rinadi...

Odatda, shunaqa kunlari ishi boshidan ortib yotgan, foye, zal va sahnada u yoqdan bu yoqqa o‘z yumushlari bilan yelib-yugurib yurgan viloyat qo‘mitasi xodimlari Mansurov bilan biroz gaplashib olish uchun uning qarshisida to‘xtar edilar.

Sumkovo, Klyuchayev, Glaznov kabi yirik sanoat tumanlarining o‘z qadrini biladigan, bundan bir necha oy avval Pavel Mansurovni tanimagan keksa kotiblari ham hozir uni do‘stona, o‘z tenglari kabi qarshi olardilar.

Olisroqdagi, uncha mashhur bo‘lmagan tuman kotiblari ko‘pchilik orasida Pavelni axtarishar, sekin yengidan ushlab chetga olib chiqishib, maslahat so‘rashar, shikoyat qilishardi.

Korshunovoliklar alohida to‘planishdi: Ignat Gmizin, pivo ichaverganidan yuzlari lavlagidek qizargan Fedosiy Murgin, «Birinchi besh yillik» kolxozining zootexnigi Ogarishev, ushbu kolxozning ozg‘in, zohidlarniki singari yuziga ich-ichiga tushib ketgan ko‘zlarining ikkilanib, yumshoq qarashi mos tushmaydigan raisi Pyaterskiy, ko‘kragida urushdan oldingi ordenni taqib olgan sut sog‘uvchi Raspopova – hammasi bir joyga yig‘ilishib turishardi.

Hozirgina viloyat ijroqo‘mi raisi Chernishyov ma’ruza qilgandi. U viloyatga katta bir to‘p zotli mol olib kelinayotganini aytdi. Ilgari bunday mol juda kam miqdorda kelib, ular duch kelganga tarqatilar edi. Viloyat qishloq xo‘jaligi bo‘limida, shuncha mol u yoqqa, mana buncha mol bu yoqqa deb bo‘lishar, istaysizmi, istamaysizmi, tarqatildimi, marhamat qilib qabul qilishingiz kerak, yem-xashak yo‘q degan bahonangiz ketmaydi! Bu yil esa olish-olmaslikni tuman rahbarlari, o‘z tuman kolxozlarining hol-ahvoliga qarab hisoblashlari kerak.

Fedosiy Murgin iyagini burishtirib, katta qorni ustidagi tugmachalarni ko‘zdan kechirar ekan, odatdagidek norozi bo‘lib dedi:

– Bunday mollarni bilamiz. O‘tgan yilgidan oldingi yili menga uchta xolmogor zotli mol yuborishgandi. Hech qanday qog‘ozsiz, ko‘rinishdan zotdorlardan edi, orqalari supaning o‘zginasi, yelinlari esa meshdek. Lekin ularni boqaman deb esim ketdi. Buni qarangki, ularga sug‘oriladigan o‘tloq topib berishim kerak emish. Oddiyroq o‘tni yeyishmaydi, tumshug‘ini teskari o‘girishadi. Sug‘oriladigan o‘tloqni qayerdan olib beraman, o‘z yog‘imga o‘zim qovurilayotgan bo‘lsam, hamma yoq qaqrab-qaqshab yotibdi… Axir mollarni tekinga berishmaydi, pul to‘lash kerak, oz bo‘lsa ham mayliydi...

Zootexnik Ogarishev ranjigandek bo‘lib e’tiroz bildirdi:

– Ertami, kechmi, baribir o‘limtik mollarimizni mahsuldor mollarga almashtirishimiz kerak. Qulay fursati kelganda olib qolish lozim! Yo‘q, dermiding?

– Mollarimizning o‘limtikligi to‘g‘ri, – xijolatsiz javob berdi Murgin. – Xo‘sh, nimaga o‘limtik?.. Yaxshi boqolmayapmiz! Bunday yemga bizning mollarimiz chidaydi, zotdorlari esa o‘lib ketadi, keyin ulardan na sut olasan, na yaxshi nasl. Oshna, sigirning suti og‘zida, degan maqol bor.

Ignat Gmizin indamadi, biroq diqqat-e'tiborini bir joyga jamlab, kal boshini qashlashdan xayolan qancha mol olish, qayerga joylashtirish kerakligini rejalashtirayqtgani bilinib turardi. Murginning shubhalari uni mutlaqo qiziqtirmasdi.

Pavel Mansurov Ignatni tushunganday, unga qarab qo'ydi: «Tadbirkor yigit... Xuddi bilganday ish qilgan! Bekorga silos zaxirasini yig'magan... Bu odam qo'rqmasdan zotdor sigir olaveradi, poda ham yaratadi!»

– Pavel Sergeyevich! Salom, qadrdonim... – Pavelning ro'parasida qo'shni Shumakovo tumanining kotibi, o'rta bo'yli, tepakal, harakatchan odam paydo bo'ldi. U Pavelning qo'lidan ushlab olib, yo'l-yo'lakay gapirganicha ketdi.

– Kurganovning nima haqda gapirmoqchi ekanligini eshitdingizmi?

Shumakovo kotibining bitta ajoyib xislati bor edi: u hech kim bilmaydigan yo'l bilan viloyat qo'mitasi yangiliklarini hammadan besh daqiqa avval bilib olar, lekin bu yangiliklarni ichida saqlab yurolmasdi.

– Viloyat qo'mitasining birinchi kotibi Kurganov tuman rahbarlarining ishi, ular o'z yelkalariga qanchadan zotli mol olishlariga qarab belgilanadi, deydi. Ko'p olsang, yaxshi hisoblanasan, demak, tumaningda yem-xashak yetarli, mol qo'yadigan joying ham tayin. Kam olsang, senga yomon ko'z bilan qarashadi. Viloyat qo'mitasidagilar ana shu moldan iloji boricha ko'p olib qolish ilinjida. Qoramolning soni ko'payadi – bu hazilakam ish emas. Go'sht beraman deb xom xayol qilib bo'lmaydi, eski molni so'yishga ham osonlikcha ruxsat berishmaydi. Miqdor kerak, miqdor! Bu miqdorlar kimga yuk bo'ladi – bizga! – Shumakovo tumanining kotibi o'zining bo'yniga urib qo'ydi. – Men tavakkal ish qilmayman, yo'-o'-q. Nima deyishsa deyishaversin. Kolxozchilarim orasida bir bog' ortiqcha pichan topiladigani juda kam. Qachon xaloskorimiz bo'lmish maysa unarkin deb kutamiz. Zotli mol kamayib ketsa, adabingni berishadi! Mayli, kechirasiz, o'zimiznikilarning oldiga keta qolay. Maslahatlashib olish kerak. Bunday masalalarni yolg'iz o'zim hal qilishga qo'rqaman. Hal qilish kerak, shoshirishyapti...

Shumakovo kotibi Pavelning oldidan ketdi, yo'lda yarim harbiy kiyimdagi, bo'yi baland, sochi oq kishiga duch kelib qoldi, uni ham qo'ltiqlab olib, o'z dardini gapira ketdi. Baland bo'yli kishi sabr bilan uni eshitdi.

Pavel ishchilarday sodda ko'rinishli, tekis keng yelkali, bashang kiyinib yuradigan ushbu zaxiradagi ofitserni tanirdi. U Klyuchayev tuman qo'mitasining kotibi Zvonsov edi. Pavel shumakovolik kotib Zvonsovga shoshib-pishib, ichidagini to'kib sochayotganini ko'rib kulimsirab qo'ydi: «Buni qarang-u, sa'va lochinga o'z dardini aytib yig'layapti. Zvonsovning nima ishi bor?.. Uning tumanida butun viloyatning chiroyi bo'lgan kolxozlari bor. Nafaqat yem-xashak, hatto zotdor qoramolga ham zormas u. Kurganovning aytganlari unga tegishli emas...»

Novcha Zvonsov yo'lini qilib shumakovolikning qo'lidan yumshoqqina chiqib ketdi, bosh chayqadi-da, ketdi. Pavel Mansurov yelkador odamni beixtiyor hurmat va havas ila kuzatib qoldi. «Mayli, ko'ramiz kim kimdan yuqori kelarkin. Odamning qo'lidan kelmaydigan ish yo'q...»

Pavel o'zinikilar yoniga qaytdi.

– Tortishuvni to'xating, – dedi u. – Hozir muzokaralar boshlanadi. Men chiqish qilishim kerak. Hozir kelishib olishimiz darkor.

Ularning kichkina majlisini qo'ng'iroq tovushi bo'ldi.

Mo'maygina o'ljani qo'lga kiritsa, bir harakat bilan chorvachilikni yo'lga qo'yib yuborsa yomonmi – ishtiyoq zo'r, lekin tumanning ko'pchilik kolxozlarida yem-xashak kam, molxonalar ham zotli mol talabiga javob bermaydi, buning ustiga chorvador xodimlar bo'sh. Yo'q, katta va'dalar berib bo'lmaydi.

Pavel haddan oshmaslikka ahd qilib, o'z joyiga o'tirdi.

Shumakovo kotibi gapirayotgan edi. U shu miqdorda zotli mol kelishi viloyat uchun katta hodisa, bu narsa bilan balki iqtisodiyotimizda inqilob bo'lar, shunga qaramay mol qabul qilishda ehtiyotkorlik bilan o'ylab ish ko'rish kerak derdi...

Prezidiumda o'tirgan viloyat qo'mitasi kotibi Kurganov quruq luqma tashladi:

– O‘ylab ish ko‘rish kerak deyishingizning sababi o‘tgan yili xashakni chiritib yuborganingizdan emasmi?

– Buni ham inobatga olishga to‘g‘ri keladi, Aleksey Vladimirovich, – javob qildi shumakovolik.

– Bundan keyin ham xashak chiritishni hisobga olish kerakmi?

Shumakovolik kotib dovdirab qoldi, zalda o‘tirganlar orasida ichi qoralikni bildiruvchi kulgi va shivirlashlar ko‘tarildi. Pavel Mansurov ham hamma qatori ta’nali kulib ko‘ydi. Shumakovo kotibining peshonasida ter ko‘rindi, o‘zi bo‘lsa minbarda bukchayib qoldi, shoshilganidan apil-tapil gapira boshladi:

– ...Viloyatimizga ming bosh zotli mol keltirish! Bunday dadil chora xo‘jaligimizning qudratidan dalolatdir!..

– Tuman haqida aniqroq gapiring! – deya gap tashladi yana Kurganov.

– Tumanimiz, – hozirjavoblik bilan ilib ketdi shumakovolik, – javob bermay turolmaydi... Bor kuchimizni sarflaymiz...

– Aniqroq!

– Iqror bo‘lishim kerakki, biz hali yetarli darajada... – shumakovolik kotib terga botib gapini davom ettirdi.

Ma’ruzachi so‘zini tugatib, hovliqib qog‘ozlarini yig‘ib oldi, minbardan yugurib tushdi-da, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi...

Raislik qiluvchi e’lon qildi:

– So‘z Korshunovo tuman qo‘mitasi kotibi o‘rtoq Mansurovga!

Pavel joyidan turib yumshoq gilam to‘shalgan o‘rtaliqdagi yo‘ldan har doimgidek yengil, dadil qadam tashlab minbarga chiqdi. Qator chetida o‘tirgan, qo‘y terisidan tikilgan nimcha kiygan, yuzlari keng odam, ko‘rinishdan mustahkam irodali, kolxoz raisi yoki zootexnik bo‘lsa kerak, yonidagi sherigiga qarab:

– Qani, qani, bunisining jur’ati nimaga yetarkin? – dedi.

Pavel bu so‘zlarni eshitdi.

Prezidium stolida o‘tirgan Kurganov Pavelni qo‘llab-quvvatlovchi beruvchi tabassum bilan qarshi oldi. Uning butun yuzi – boshini ko‘tarib o‘tirishi ham, ochiq yuz bilan qarab turishi ham ishonch alomatidan darak edi: bu odam sharmanda qilmaydi, aytadi, hattoki hammani lol qoldirishi ham mumkin.

Pavel, haddimdan oshmaslik, ortiqcha va'da bermaslik ahdini minbargacha olib borolmadi. U bir daqiqaga o'zini yo'qotib qo'yib, xayolini bir joyga yig'ib olguncha zalga qarab turdi. Yorug' zal ichkarisidan esa yuzlab ko'zlar unga tikilib turardi.

Sukunat qat'iyat bilan gapir, qulog'imiz senda, nima deysan? – deya talab qilardi. Ana shu sukunatda, odamlarning sabrida hurmat sezilmoqda. Odamlar go'yo, o'zlari istamasalar-da, Pavelni bir daqiqa avval sog'lom aqli ogohlantirgan fikrga qarshi chiqishga majburladi. Qarshilik qilishga unda kuch yetmadi, ko'pchilik ixlosini qaytarishning esa imkoni yo'q!

Pavel xotirjam ovozda, astagina, odatdagiday:

– O'rtoqlar! – deya gap boshladi.

Shumakovolik kotib kabi shoshilmasdan gapira ketdi: bugungi majlis eng murakkab masalalardan birini hal qilishi kerak – zotli mollar mahalliy mollarimiz naslini yaxshilaydi, mahsuldorligini oshiradi...

Shu zaylda gapirar ekan, u o'zicha o'ylab qo'ydi: odamlarning diqqati so'nmoqda, tiniq sukunat asta loyqalanmoqda. Qatorlarga jon kirib, odamlar sekin-asta yo'tala boshladilar. Hozir prezidiumda o'tirgan viloyat qo'mitasi kotibining qattiqqo'llik ila: «Aniqroq!» degan ovozi eshitilayotganday edi.

Pavel dabdurustdan o'zining sust, bema'ni gaplariga nafrati uyg'ondi. Yo'q, u shumakovolik kotib emas, u Mansurov!

U qattiq zarba berilganday, qaddini birdan rostlab, boshini dast ko'tardi, yoshlarniki singari suyakdor, kelishgan, bug'doyrang yuzlarida dadillik belgisi paydo bo'ldi, ovozi jaranglab, qat'iy tus oldi:

– Biz botqoqda o'tirib, toqqa ko'tarilishni orzu qilamiz! Bizga yordamga kelishdi, narvon tashlashdi, biz bo'lsak narvon pog'onasiga qadam qo'yaylikmi, yo'qmi deb ikkilanib, o'ylab o'tiribmiz? Qulab tushishdan qo'rqyapmiz. Shu qo'rqoqlik sabab biz o'z baxtimizdan voz kechishga tayyormiz!

Zalda g'ala-g'ovur ko'tarildi, biroq bu avvalgi bee'tibor shivirlashlar-u yo'tallardan juda farq qilardi. Zulmat qo'ynidagi sonsanoqsiz chehralar Pavel Mansurovning so'zlariga quloq tutib, unga yaqinlashib kelayotganday edi.

Pavel gapirgani sari ahamiyatsiz raqamlarni tilga olish mumkin emasligini tushuna boshladi.

U besh yuz bosh sigirning daragini aytishi bilan zaldagilar uni olqishlab, chapak chaldilar.

Majlisdan keyin teatr garderobi oldida tiqilinch bo'lib ketdi – tiqilinch; hamma shoshmoqda. Ko'pchilikni mashinalari kutib turadi, tumangacha ellik-oltmish kilometr yo'l bosish kerak.

Qo'y teri nimcha kiygan, darroz kishi bir quchoq palto va plashni olib burchakka o'tib borar ekan:

– Kep qoling! Egalari bilan birga qo'shib sotishim mumkin! – deya baqirdi.

Tiqilinchda plashini kiyib bo'lgan Pavelning oldiga Kurganov keldi. U baland bo'yli emas, adil, harakatlari jonli va shiddatli odam edi. Kurganov Pavelning qo'lini qattiq siqib dedi:

– Ushlab olding – tortinib o'tirmading. Dadil harakat qilyapsan. Nima ham derdim, keng yelkaga og'ir qop. Ammo mollarning hammasini yashab ketishini talab qilamiz. Bironta shikoyatingni, bir dona ko'z yoshingni ham qabul qilmaymiz. Esingda tursin!

Uning yarim hazil ovozida yarim dadillik ohangi bor edi, lekin Pavel viloyat qo'mitasi kotibining so'zlarida jiddiy ogohlantirishni fahmladi va so'zidan qaytolmasligini tushundi.

Pavel ham yarim chin va dadil tarzda shunday javob berdi:

– Va'da berolmayman, Aleksey Vladimirovich, ehtimol yig'lashga ham to'g'ri kelib qolar!

Fedosiy Murgin bu suhbatni eshitdi va Kurganov ketganidan so'ng noxayrixoh qiyofasini yashirib, ming'irladi:

– Bizga o'xshaganlar yig'lamasa, kim ham yig'lardi...

Pavel o'zini arang tutib uning so'zini sovuqqina bo'ldi:

– Iltimos, elburundan ko'z yoshi qilma... Nega Gmizin yig'lay demayapti, axir kolxozni boshqarishda sening tajribang unikidan ham kattaroq-ku!

Kiyinib bo'lib, chetda qarab turgan Ignat Yegorovich indamadi.

6

Shora daryosi sirtmoq hosil qilib o'tloqlarni aylanib o'tadi. Yozda bu daryoning yon atrofini tolzor va suv o'tlari qoplab ketganidan u po'stinning yengiga o'xshaydi.

Daryo butun yil davomida sokin oqadi. Gohida toshli sayoz joylaridagina daryoning qoramtir, erinchoq suvi o'zboshimchalik bilan shildirab oqadi, ammo daryo kamariga borib, nilufar barglari ostida yana sokin oqa boshlaydi. Bahorga kelibgina bu sokin daryo quturadi. Tol novdalariga burkangan sohil uning uchun torlik qiladi, qulochini keng yozishi kerak bo'lib qoladi. Yayrab oqish uchun o'tloqlar juda mos joy! Yo'llar, butalar, chopilishdan so'nggi to'nkalar – hammasi suv ostida qoladi. Shora o'zining loyqa suvida erishga hushi yo'q katta-katta muz parchalari bilan birga uch kecha-kunduz g'adir-budur to'nkalarni, eski mo'rchalarning chirib, qorayib ketgan g'o'la va xodalarini kesib, taxlab qo'yilgan yog'ochlarning bir qismini oqizib ketadi.

Uch kun, nari borsa besh kun deganda avjiga mingan suv pasaya boshlaydi. Shora oldingi sohilga asta-sekin qaytadi. Faqat butalar orasida yotgan kir muz parchalari-yu qandaydir qarag'ayning singan suv o'tlariga o'ralib yotgan tanasigina ilgarigi ulug'vorlikdan darak berib turadi.

Shora yana turmushga uzatilishga tayyorgarlik ko'rayotgan qizday muloyim va odobli bo'lib, suvi yana erinchoqlik bilan oqa boshlaydi.

Suv toshqinidan so'ng maysazorlarda behisob katta-kichik, chuqur va sayoz, faqat osmon singari ko'm-ko'kligi bilangina bir-biriga o'xshash o't-o'lan orasida, har joyda paydo bo'lgan soychalar qoladi.

Quyosh bu soychalarni darhol qizitadi, shu bilan u yerda hayot boshlanadi. Oynadek sof va tekis suv yuzasida uzunoyoq, siniq chiziq hosil qilib qo'ng'izlari suzib yurishadi.

Qirg'oqda esa baqa ko'zlari chaqchayib atrofga qaramoqda.

O'rgimchaklar bilag'onligi bilan odamni hayron qoldiradi. Ular havoga qarata o'zlarining ingichka iplarini chiqaradilar, shamol bu ipni uchiradi. O'rgimchak esa panjalarini ochib, ko'lmakning u beti-

dan bu betiga uchib o'tadi. Suvda esa kichkina kema kabi suzganday mayda to'lqinchalar hosil bo'ladi.

O'rgimchakning qimir etmay qotib qolgan ipi sohildan sezilmaydi, suvda sirpanib yurgan o'rgimchak mo'jizakor ko'rinadi.

Sasha shunday o'rgimchakni tutib, uning to'rini topmagunicha, Katya hayron bo'lib qarab o'tirdi.

Quyoshga intilib uchayotgan qushlarni o'z bag'riga singdirib olayotgan tiniq moviy osmon, suvning jilvalanishi, qizigan havoning hayajonli, bo'rsigan hidi, bahorgi nam, qurbaqa zaxini eslatuvchi jonli tuproq hidi – hammasi Katyani sarxush qildi.

Ular quruq tepalikda o'tirishardi. Katyaning ustida quyoshda yarqirab turuvchi yaltiroq ko'ylak, oyoqlarini rostlab, biroz bo'shashib o'tirar edi: ikki yelkasi tushirilgan, bo'yni egilgan-u, lekin yerga qarab turgan ko'zlari sabrsiz o'ynar, qovoqlari xavotirli edi. Uning bu o'tirishi hushi oqqan va biron narsani xavotirlanib kutayotgan odamni yodga solardi...

Sasha oxirgi paytlarda Katya bilan yolg'iz qolganida o'zini o'ng'aysiz sezayotganini, o'rtalaridagi samimiylik yo'qolib, munosabatlari parokanda bo'lib borayotganini seza boshladi.

Mana, hozir ham Sashaning yonida g'oyat maftunkor Katya hayajonlanib, undan hayratomuz so'zlarni kutib o'tiribdi. Sasha aslini olganda nima deyish kerakligini biladi, allaqachonoq aytmoqchi bo'lib yuribdi-yu, ammo boshlash qiyin!.. Agar Katya bezovta bo'lmaganda edi, jur'at etishi oson bo'lardi...

– Sen hech qachon bunday holatni his qilmaganmisan?.. – deya so'radi Sasha gapni uzoqdan boshlab.

Katya kipriklarini ko'tarib, «Qanday holatni?..» degandek qarab qo'ydi.

– ...Aytarlik hech narsa yo'q, biroq shu daqiqa bir umr xayolingda qolishini sezasan... Oldindan sezasan...

Katyaning yuzidan «tushunmayapman...» degan savol ketmas edi.

– Mana, hozir shu yerda o'tiribman-u, aniq bilaman – shu kun xotiramda qoladi: mana bu o'rgimchaklar ham, anavi qayin ham... Qara, havo ko'tarilib, qayin ko'rinyapti, xuddi sovuqdan junjikayotganga o'xshaydi. Atrofda nimalardir bor. Sen-chi, sezyapsanmi?

Sasha Katyaning tushuna boshlaganini, lekin mug'ambirlik qilib o'zini hech narsani tushunmayotgandek qilib ko'rsatayotganini, oddiy suhbatdek ko'zlari atrofga maroqsiz alanglasa ham mayin yuzlariga yengil qizillik yugurganini sezdi.

– Hozir ham, mana shu daqiqada menga o'zgacha bo'lib ko'rinyapsan... Yerga tiralgan qo'llaring, ko'tarilgan yelkalaring, yuzlaring, tizzalaring... yoqadi (Katya ko'rinib qolgan tizzasini shosha-pisha ko'ylagi bilan berkitdi), menga qarashing, meni eshitishing – hamma-hammasi yoqadi. Yorug' kun qorong'ilashadi... Eh! Ortiqcha narsalarni gapirib yubordim, shekilli...

Sasha qoshlarini chimirib teskari o'girilib oldi. Katya o'rnidan biroz ko'tarilib, Sashaga yaqinroq o'tirdi, uning qo'lini ushlab, quyi solingan yuziga qarab hayron bo'lib, sekin dedi:

– Qiziq ekansan. Goh silos haqida gapirasan... To'satdan ichingda shayton qo'ziydi.

– Katya!.. Men ko'pdan beri bir gapni aytmoqchi bo'lib yuribman, sen nima demoqchiligimni bilasan...

– Nima haqda?

– Bilasan! Mening rafiqam bo'lishingni istayman! Buni aytadigan vaqt keldi!

Sasha bu so'zlarni keskin, achchiqlanib, deyarli qo'pol gapirdi. Katya cho'chib tushmadi, hayron ham bo'lmadi, balki ko'lga tikilgancha yana xayolga cho'mdi. Suv sathini cho'rtan baliq kesib o'tdi. Bu baliq endi tutqun bo'lib qolgan, uni qadrdon daryosidan, yuz metrlab quyosh qizdirib yotgan maysazor ajratib turadi. Ko'lchaning suvi kun sayin, soat sayin kamayib boryapti. Qishloq bolalari kelishadi-da, shunday ham turib qolgan suvni loyqalatishadi... Chaqqon, kuchli cho'rtanbaliq bolalarning yalang'och oyoqlari orasida, ularning intilgan qo'llaridan qochib uzoq kurashadi, lekin ilojsiz, yakuni aniq... Tol novdasi jabralaridan o'tkazilgan, nursiz, katta ochilgan ko'zlari quyoshga parvosiz boqqan cho'rtanbaliqni bolalar xursandchilik bilan qishloqqa olib borishadi.

Sukunatdan Sasha bezovtalanib qoldi: Katya nega javob bermayapti, xohlamayaptimi, nega?... Shu paytgacha o'ylab yurganidek, o'zi Katyaga yoqarmikin?.. O'zicha taklif qildi, xuddi Katya o'lib turgandek...

Sasha bo‘zarib, hayajonini ko‘rsatmaslikka urinib, Katyaga tikilib qarab turar, yuragining urayotganini eshitardi.

Nihoyat Katya boshini ko‘tarib Sashaga, uning quyoshda kuygan sochlariga, keng peshanasiga, o‘jar lablariga, ko‘ylagining g‘ijimlangan yoqasidan ko‘rinib turgan bo‘yniga uzoq qarab turdi...

– Er... – hayron bo‘lib dedi u. – Nahotki taqdirim sen bo‘lsang?.. Har qaysi qiz ham bo‘lajak turmush o‘rtog‘i haqida ko‘p o‘ylaydi. Bekitishning hojati yo‘q, men ham o‘ylaganman... Qanday ahmoqlik... Nazarimda – baland bo‘yli, chiroyli, yelkador, kuchli, qayg‘uli, tushunib bo‘lmaydigan hamda eng muhimi, sirli bo‘lib ko‘rinardi. Uyqu oldidan ertakdek! U qayerda, qanday qahramonlik ko‘rsatyapti, yo‘llarimiz qachon uchrashar ekan?.. Mana, senga Shahzoda Ivan emas, balki oddiy Sasha Komelev... Er... Aleksandr Stepanovich...

– Nega tikilasan? Avval hech ko‘rmaganmiding?

– Oldin Sashkani ko‘rgandim, endi esa boshqa bir odamni.

Sasha sakrab o‘rnidan turdi-da:

– Qo‘ysang-chi! – dedi.

U yuzini bekitib yerni tepdi. Katya o‘z kuchini va ustunligini sezib, Sashaning xafa bo‘lib, tashlab ketib qolmasligiga ishonib iliq tabassum ila kuzatib turardi.

– Ketdik!

Sasha Katyaning turishini kutmasdanoq, xuddi uni birov turtib yuborgandek, odimlay boshladi. Katya uning orqasidan kulib qarab turar ekan, asta o‘rnidan turdi, qaddini rostladi, quyosh nurlari yoritib turgan tiniq yuzlari qizarib, biroz joyida turdi-da, yengil qadam tashlab Sashaga yetib olib, bo‘ynidan quchdi...

Ular bolalar kabi qo‘l ushlashib bahorgi sarg‘ish maysazor bo‘ylab ketishar ekan, uyalganlaridan bir-birlaridan yuzlarini yashirishardi.

Havorang ko‘llar, mudrab yotgan qorong‘i archazor va ko‘ksini siyrak hovur qoplagan, ko‘kka bo‘y cho‘zib yotgan qarag‘ayzorda bezangan zax hidli yer musaffo osmon bag‘rida issiqdan rohatlanib yotardi.

Uychalari qizdiruvchi oftob nurlari ostida sochilib ketgan Korshunovo qishlog‘i bahor namgarchiligidan keyin isimoqda. Bu qishloq cheksiz osmon ostida, yerning ko‘z ilg‘amas bir burchini egallab

yotadi, biroq hamma joydagidek bu qishloqda ham oddiy va noyob, kichik va buyuk insoniy baxt taralgan!

Sasha Korshunovodan kolxozga kech qaytib keldi.

Bahorda Yangi Ramenye ko'chasi uzoq vaqt loygarchilikdan qurimaydi. Bir uydan ikkinchisiga yo'l chetidan chetan devorni ushlab o'tish kerak. Ikki qo'li band, oyog'i esa mustahkam tayanch topishi mushkul bo'lgan o'sha yo'lda Sashaning ro'parasidan bir kishi chiqib qoldi.

– Kim bu? Qay birimiz orqaga yurishimiz kerak? – xursand bo'lib dedi Sasha va Nastya Baklushinani tanib qoldi.

Nastya nozik gavdasi bilan chetan devorga zich yopishib olib bir-ikki qadam bosdi-yu, loy ko'chani qiya kesib o'tgan qorong'i soyadan chiqdi; chehrasi yoqimli, cho'zinchoq yuzli qiz Sashaning qarshisida to'xtadi. Sashaga Nastyaning tashna do'mdoq ustki labi aniq ko'rinib turardi.

– Mana, jonginam, qorong'i ko'chada ham uchrashdik. Bunday uchrashuvni anchadan beri orzu qilib yurgandim, – dedi Nastya yarim shivirlab, ko'kragi bilan chetan devorga suyalar ekan, oldinga ham, orqaga ham siljishni o'ylamay. – Nega atrofga alanglaysan? Hali ham mendan cho'chiyapsanmi?.. Ketaver, ushlab turganim yo'q, bor! Qo'rqma, orqangdan itga o'xshab quvlamayman.

Sasha uchun bugungi kun baxtli kunlardan biri edi, unga dunyo chiroyli, odamlar mehribon ko'rinar, ko'ziga ko'ringan odamning oldiga borib yoqimli so'zlar aytgisi, shunday ajoyib dunyoda yashayotgani uchun minnatdorchilik bildirgisi kelardi... U hozir o'zini Nastyaning oldida ixtiyoridan tashqari, tushuntirib bo'lmaydigan aybdorday his qilardi.

– Nimadan xafa bo'lyapsan, Nastya? – so'radi u muloyim. – Men sen to'g'ringda yomon fikrda emasman, senga yomonlik tilamayman...

– Yomonlik tilamaysan?... Menga bu kam, Sashenka. Sen menga yaxshilik tila... Menga yaxshilab qara – xunuk ham, buzuq ham emasman... – Qiz yanada yaqinroq kelib yelkasi bilan Sashaga suyanib oldi. – Nega o'girilasan? Men seni bog'lab qo'yayotganim yo'qku!

Nastyaning qaynoq nafasidan, lablarining yaqinligidan Sashaning fikri chalkash-chulkash bo'lib ketdi.

– Nastya, – dedi u bo'g'ilib, – yopishaverma... Hammasi bekor...

– Bilaman, korshunovolik lo'li boshingni aylantirib qo'ygan. Shunda ham... Men kolxozchi qizman, u o'qimishli, ma'ruza qiladi, qo'lini faqat siyoh bilan ifloslaydi...

– Yaxshisi, o'tkazib yubor.

– Yo'q, sen o'tkazib yubor. Chetga o't! Oyoqchalaringning ho'l bo'lishidan qo'rqma.

Sasha chekinib, Nastyani o'tkazib yubordi. Qiz qorong'ilikda ko'zdan g'oyib bo'larkan, orqadan:

– Baribir tinchlik bermayman! Men qaysarman! Aytganimni qilaman! – deb qichqirib qoldi.

Sasha jahl bilan yelkalarini uchirib qo'ydi, xolos.

7

Katya ba'zida Pavel Mansurovning xotini, o'zining sobiq o'qituvchisini, hozir shunchaki dugonasi bo'lib qolgan Anna Yegorovnani ko'rgani kelardi.

Anna binafsharang shoyi ko'ylakni tizzasiga yozib, tikib o'tirardi. Eshikdan kirib kelgan Katyani ko'rib ipni og'ziga oldi-da, u bilan so'rashdi:

– Kecha ko'ylak sotib olgandim, moslayapman, – dedi.

Katya uning yoniga o'tirib, ko'ylakka baho bera boshladi.

– Yelkasi yaponcha... Yubkasi uch buklamli ekan – soddaroq...

– Menga shunisi ham bo'laveradi. Oliftagarchilik qilishga vaqti o'tdi... Shuncha yashab, yaxshiroq oyna sotib ololmaymiz-ku! Menga yaxshi kelarmikin, a... Katya, sen bir kiyib ko'r, bir ko'ray-chi.

– Menga tor kelsa kerak...

Biroq Katya ko'ylakni olib yoza boshladi. Anna qayg'u bilan uning quyosh nurida kuyib qoraygan bosonojkali oyog'idan tortib, kichkina kuloqlariga tushib turgan yumshoq qalin qora sochlarigacha diqqat bilan qarardi.

– Torlik qiladiyov... Hozir, Annushka, boshqa xonaga kirib kiyib chiqaman.

Lekin Anna uni to‘xtatdi.

– Kerakmas.

– Nima uchun?

– Xohlamayman... Ko‘ylak yoqmay qoladi.

– Nega endi?

Anna kulib xo‘rsinib qo‘ydi.

– Fahming yetmayapti... Axir biz go‘zallikka hasad qilamiz. Sen go‘zalsan, men bo‘lsam yoshligimda ham sen kabi emasdim, hozir bo‘lsa aytmasayam bo‘ladi.

Xursandchilikdan Katyaning yuziga qizil yugurdi.

– Bunaqada hech narsani ko‘rolmaysan. Mening ustimda yaxshiroq ko‘rinadi...

Anna xohlar-xohlamas ko‘ylakni qo‘yib yubordi.

Katya hali yosh bo‘lishiga qaramay, Annaga nisbatan yelkador, gavdali edi. Ko‘ylak chindan ham tordek ko‘rinardi, faqat bel qismi tekis turar, Katyaga juda yopishib turgandi.

Anna alam bilan qo‘llarini tushirdi.

– Bilgandim... Yechmasang ham mayli. Bu ko‘ylakda endi o‘zimga qaragim ham kelmaydi.

Beso‘naqay, qo‘llari ozg‘in, bo‘yni haddan tashqari uzun, yelkalari kichkina, Anna qiyo boqib o‘zini oynaga solayotgan baland bo‘yli, qomati kelishgan, shoyi ko‘ylakning yengi tarang turgan bug‘doy mag‘iz, momiqday bilakli, chehrasida shodon tabassum o‘ynayotgan Katyaga tikilib qarab turardi – kimning go‘zal bo‘lgisi kelmaydi.

– Annushka... – deya Katya Annani mehribonlik bilan quchib olib, divanga o‘tqazdi, o‘zi esa g‘ijim bo‘lmasin deb ko‘ylagini avaylab asta o‘tirdi. – Turmushga chiqyapman...

– Komelevgami?.. Sashagami?

Katya uyalib bosh irg‘adi.

– U sendan yoshmi?

– Atigi bir yosh. Bu to‘g‘anoq bo‘lolmaydi-ku?

– U hali bola. Sen yoshingga nisbatan katta ko‘rinasan.

– Annushka, jim, gapirma. Eshitishni xohlamayman.

– Yo‘q, nima deyapsan! Seni shashtingdan qaytarmoqchi emasman... Faqat bir narsani bilib qo‘y: bu ishda zarracha xato qilsang

ham, xatoying oxiri yo‘q azobga aylanishi mumkin... Shunisi borki, hammamizga ham tajribali odamlar maslahat berishgan bo‘lsa-da, ularga hech kim quloq tutmagan. Mening gapim ham befoyda, hammasini unut. Sevib qoldingmi – tegaver.

Katya Annaga tikilib, indamay quloq solib o‘tirdi. Anna gapini tugatgandan so‘ng asta so‘radi:

– Nima bo‘ldi, Annushka?

Anna boshini egdi-da, yelkasini qisib qo‘ydi.

– Kim biladi... Ishdan kelganidan keyin nari borsa: «Ovqat ber. Choy tayyormi?..» deydi, xolos... Nima bo‘lganini bilmayman? Shunisi yomon, Katya...

Katya Annaning gaplarini tinglarkan, o‘zi baxtli bo‘la turib birovning tashvishiga hamdard bo‘lgan kishilarday o‘ng‘aysizlandi. Ko‘nglini ko‘tarish uchun biron gap aytish kerak, lekin gap topolmasdi.

Shu vaqt hovlidagi eshik taraqladi, zinadan qadam tovushlari eshitildi.

– Pavel... Yo‘qlaganday o‘zi hozir-u nozir. – Anna xo‘rsinib o‘rnidan turdi.

Pavel odatdagiday shiddat bilan kirib keldi – sochlari to‘zigan, kelishgan bo‘ynidagi yoqasining tugmasi yechilgan, ko‘zlari quruq porlaydi. Katyani ko‘rib, sovuq chehrasi yorishib ketdi.

– Ehhe! Mehmon bor ekan... Salom.

Tushunish qiyin bo‘lgan bu g‘ayrati ichiga sig‘maydigan odam Katyani qo‘rqitardi. U ustida yelkalarini tarang tortib turgan birovning kelishmagan ko‘ylagi borligi esiga tushib, uyalib ketdi. Qo‘shni xonadagi parda orqasiga kirarkan, u orqasidan Pavel Sergeyevichning baqrayib turganini sezdi.

Katya o‘zining kamtarona, rangi ochiq ko‘ylagini kiyib chiqdi. Uning quloqlari ustidagi sochlari to‘zg‘igan, uyalganidan qizarib ketgan, o‘zini yo‘qotib qo‘yganidan kipriklari pir-pir uchardi.

– Katya, ketma, qol... – deya yolvordi Anna.

– Mendan qo‘rqib ketdingmi deyman-a? – kulib qo‘ydi Pavel.

Yuvinish uchun kastumini yechib, ko‘ylagining yenglarini shimargan, yelkador, kulib turgan Pavel hozirgina Anna odamovi, beshafqat deb ta’riflagan erga mutlaqo o‘xshamasdi.

Katya ketib qoldi. Nimadir qolishiga xalaqit berardi. Pavel Sergeyevich kirib kelishi bilan u o'zini hech sababsiz noqulay seza boshlagan edi.

Katya uyiga asta qadam tashlab borardi. U Pavelning suyakdor, kelishgan yuzini, to'zg'ib ketgan tikan sochlarini, yenglari shimarilgan qo'lini, to'g'ri, do'stona, shodlanib boqishini esladi, biroq ana shu boqish zamirida qandaydir tashvishli uchquncha bor edi.

Katya bu uchqunni birinchi sezishi emas edi. Kabinetlardagi tasodifiy suhbatlarda, majlislarda uchrashib qolishganda Pavel Sergeyevich Katyaga hammaga qaragandek emas, boshqacha qarayotgandek bo'lardi... Bema'ni xayol. Mansurovday odamning hurmatiga kim ham sazovor bo'lgisi kelmaydi. Biroq Katya Pavel Mansurov hammadan bir bosh yuqori turishiga shubha qilmasdi. Shuning uchun ham Pavel oldida hadiksirashi tabiiydir.

8

Pavel faqat tinib-tinchimas odamlargina hayotni yaxshi boshqara oladi deb o'ylardi.

Uzun yog'och uchiga o'tkir tosh bog'lab olgan ibtidoiy odamning ham doim tashvish va izlanishda bo'lgani aniq. Uni qo'llarining ojizligi ezardi, u boshqa ovchilarga nisbatan kuchliroq bo'lishni istar, ana shu istak unga tinchlik bermay, o'ylashga va nayzani kashf qilishga majbur qilgandi! U hammadan oldin g'ordagi ayiqni urib yiqitadigan bo'ldi, endi u kuchli. Jonsaraklik – kuch-qudrat belgisidir!

Tashvishli odamlar mashinalarni o'ylab topishgan, yer yuzini temir yo'llarga to'ldirishgan, dengizlarda bahaybat shahar-kemalarni suzdirib, osmonda bahaybat temir qanotli qushlarni uchirganlar. Bamaylixotir, og'ir odamlar esa jonsarak kishilarning bitmas-tuganmas g'ayratiga bo'ysunganlar, xolos. Ular terga botib, ko'rsatma bo'yicha rudadan metall quyganlar, ko'rsatma bo'yicha mashina qismlarini yasaganlar, ko'rsatma bo'yicha shpallar terishadi, tunnellar ochishadi, beton qoziqlar qoqishadi, daryolarni to'g'on bilan to'sishadi... Osoyishta kishilarning kuchi mutlaqo halovatini yo'qotgan kishilarga bo'ysunadi, ularning qaramog'ida bo'ladi...

Pavel Mansurov shunday fikr qilardi.

Unga doim bir tashvish tinchlik bermasdi. Bu tashvishni ikki so'z – «Bunday emas!» – bilan ifodalasa bo'ladi.

Pavel Mansurov Uraldagi xilvat bir qishloqda voyaga yetdi. Maktabdagi o'qituvchilar, qishloq kutubxonasidagi kitoblar, goho ko'chma kino olib kelib turadigan, hozir unutilgan «Abrek Zaur», «Qizil iblischalar» deb ataluvchi kinolar Pavelning havasini keltirardi. Ushbu kashfiyot bilan birga unda qishloqdan chiqib ketish istagi ham paydo bo'ldi. Uning atrofidagi hamma narsa bunday emasday ko'rinardi, o'sha haqiqiy, go'zal, sehrli orzu kelajakda edi.

Maktabni tamomlab, Pavel o'rmon sanoati xo'jaligiga qarashli ishchilar ta'minoti bo'limi idorasida ish yurituvchi bo'lib ishlar, bunday emas deya tashvishga tushardi.

Shaharga borib chilangar, tokar bo'lib ishlab ko'rdi, hatto bir haftadan ko'proq kinoteatr ma'muri ham bo'ldi, lekin bularning hammasi uning orzusidagiday emas – bunday emasdi. U boshqa narsaga, hozircha mujmal narsaga intilardi.

Institutga kirishga muvaffaq bo'ldi. Leksiyalar, imtihonlar, Krasnoyarsk o'lkasiga amaliyotga qilgan sayohatlar... Shumi yoki boshqa? Hayotda o'z o'rnini topa olarmidi yoki yo'q? Noma'lum. Urush boshlandi…

Front va xotirjamlik bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Umring zavol ketadi deb qo'rqishning keragi yo'q, bir xillik jonga tegadi. Har kuning – yangilik, tirik ekansan – zerikishga vaqt yo'q. Hatto o'lim ham har qadamda o'zi uchrab turadi, uni kutishmas, uchratishga tayyorgarlik ko'rishmasdi. Pavel ikki kun oldingi pozitsiyada vzvod komandiri bo'ldi. Uchinchi kuni leytenant Yasenko halok bo'ldi. Pavel rotaga komandirlik qila boshladi, to'rt oydan keyin esa batalyon komandiri bo'ldi, bir yildan keyin polk shtabiga o'tdi... Demobilizatsiya bo'ldi-yu, armiyadan xotira bo'lib chamadonning eng tubiga bekitib qo'ygan mayor pogoni va ish kunlari kiyadigan ofitser gimnastyorkasi bilan chiroyli shimi qoldi, xolos. Yana qayerga boray, nimaga qo'l ursam ekan, deb sarosimaga tushib, tinchi buzildi. Yana bunday emas.

Sirli moviy qush ortidan yugurish yetar: fursat kelganda boshqa harakatingni qil, kuchingni ko'rsat. Komelev yoki Bayevga qaram emassan, o'z-o'zingga xo'jayinsan, qolganlarni ham boshqarasan.

Pavel viloyat majlisidan keyin dastlab biroz dovdirab qoldi. Besh yuz bosh zotdor mol boqishga so‘z berdi. Bu mayda ish emas, hali qizig‘ida bu shashtidan qaytib, viloyat qo‘mitasi kotibining huzuriga borib, shuncha molni boqolmayman, deb bo‘yniga olishiga kech emas.

Fedosiy Murgin va yana ko‘pgina raislar shuni xohlaydilar. Hatto Ignat Gmizin ham (u kolxoziga zotli mol kelishini juda orzu qilardi) ehtiyotkorlik qilib jim turgandi, ko‘rinishdan Pavelning so‘zi uni esankiratib qo‘ygandi.

Lekin tashvish ham dadil bo‘lsa, kuch-qudratga ega bo‘ladi. Agar ibtidoiy odam qo‘rqoq bo‘lganda edi, nayza o‘ylab topmagan bo‘lardi. Qo‘rqoqqa nayza ham yordam berolmaydi. Tashvish ham dadil bo‘lmasa ojiz va behudaga urinish bo‘lib qoladi.

Fedosiy Murgin anchadan beri tashvish qilmay qo‘ygan, buning uchun uni ayblash noto‘g‘ri: oltmishni qoralab qo‘ydi, bunday yoshda odamga vahima, ortiqcha qiy-chuv ham og‘ir yuk bo‘lib qoladi.

Ignat – aqlli, kuchli odam, dovyuraklida ham yetakchi, ammo katta ayiqdek og‘ir karvonligi bor.

Kimga quloq solsin: Fedosiygami yoki Ignatga? Yoki o‘zigami?

Bu tavakkallik, lekin qaysi bir katta ish tavakkalsiz bo‘lgan? Bu yerda esa ish katta! Tuman kolxozlariga tarqatilgan besh yuz bosh sigir keyingi yili nasl beradi. Chorvachilik oshadi, kolxozlar oyoqqa turib oladi. Mana shu ko‘rsatkich emasmi! Viloyatda gap tarqaladi, gazetalar shovqin-suron ko‘tarishadi, Korshunovo tumanining shon-shuhrati Moskvagacha yetib boradi. Tavakkal qilsa bo‘ladi.

Yo‘q, Pavel Mansurov so‘z berdimi, so‘zidan qaytmaydi. U kurashadi: «Yo dong‘im chiqadi, yo changim chiqadi».

Keti ko‘rinmaydigan tashvishlari sabablimi yoki boshqa narsa uchunmi, xullas, Pavelning xotini bilan yashashi kun sayin og‘irlashib borayotganini sezardi.

U Anna bilan armiyadagi xizmatining tugashiga atigi bir necha kun qolganda tanishib qolgandi. Polk Vladimir viloyatining kichik bir shaharchasida turardi. Aksariyat ofitserlar, ba’zilari sabrsizlik bilan bo‘shatilishlarini kutishardi. Mashg‘ulotlarni erinib o‘tkazishar, zerikishardi. Oilaliklar bir-birining xonasiga borib qarta o‘ynashar,

«bo'ydoqlar» esa tugmacha va etiklarini yaraqlatib, shaharning ko'rimsizgina xiyoboniga borishardi. Bu xiyobonga o'rmon texnikumining talaba qizlari bilan shahardagi bor-yo'g'i ikkita maktabning muallimlari ham tashrif buyurishardi. Pavel Anna bilan shu xiyobonda uchrashdi. Ozoda, sipo, she'rni yaxshi ko'radigan bu qizning quruq, tarqoq sochlari qora ko'ylagining oppoq yoqasiga tushib turar, yuzlari nozik va tiniq edi. Anna isqirt okop, front yerto'lalaridan hozirgina chiqib kelgan Pavelning ko'ziga eng oilabop ayol bo'lib ko'rindi. Uning pokizaligi, yoqasining bejirimligi Pavel xayolida deraza pardalari, yerga to'shalgan gilamchalar, javonga taxlangan kitoblar, stol ustidagi osoyishta chiroqni, xullas, jang maydonlarida sog'ingan hayotni gavdalantirdi.

Bularning hammasi bor edi. Oilaviy shinamlikdan-da ortig'iga erishdi. Urug'lik materialini yetkazishni kechiktirgan qandaydir aravalar, deb komandirovkaga borib, ta'bi tirriq bo'lganda ham, majlislarda targ'ibotchi Korobkov tashviqotchi seminarini qoniqarsiz o'tkazdi, deb unga malomatlar yog'dirishganda ham, Pavel uyda uni ehtiyotkor xotini kutayotganini, u ko'zbo'yamachilik uchun emas, oqil, chin qalbidan eriga hamdard bo'lajagini, g'ildiraksiz aravalarni ham, targ'ibotchi Korobkovni ham esdan chiqarishga majbur etadigan qiziqarli kitob tayyorlab qo'yishini bilardi.

Ish uni butunlayin egallab olmagunicha bularning hammasi joyida edi. Anna top-toza, Korshunovo imkoniyatlariga mos jihozlangan uyida Pavelni har qanday ko'ngilsizliklardan xoli qila olardi.

Biroq Pavelning butun hayoti o'zgardi, Anna bo'lsa shundayligicha qolaverdi. Pavel dastlab har doimgidek Annaga shikoyat qilardi.

– Jin ursin! Sorokindan to Yuqori Dvorkigacha bordim-u, bironta yaxshi ko'prik ko'rmabman. O'rim-yig'im ham yaqin, kombaynlar ana shu ko'priklardan o'tishi kerak. Sutolokov bo'lsa turtmaguningcha pinagini buzmaydi.

Anna unga buzilgan aravalar ustidan shikoyat qilganidagi javobini berardi:

– Shunga ham asabingni buzib o'tiribsanmi?

O'shanda xotini haq edi: uning boshiga omadsizliklar to'satdan yog'ilardi, aravalar tayyor emasligi uning aybi emasdi, ammo dakki-

ni u yerdi. Endi Pavel hamma yerda xo'jayin, ko'priklar ham, aravalar ham uniki. Tashvishga tushsa, achchiqlansa arziydi! Anna bo'lsa buni tushunmas, borgisi ham kelmas, oldingidek Pavelning xotirini jam qilishga intilardi. Anna Pavel qanday ishlayapti, deb qiziqmasdi, xotinim maktabda nima ish qilyapti, deb Pavel xayoliga ham keltirmasdi. Xotinining: «Ilmiy mudirimiz Nikita Petrovich dars jadvalini g'alati tuzibdi. Men haftada to'rt kun bo'shman» yoki «Natalya Ivanovna o'quvchilardan kitobdagini aynan talab qiladi, yodlash tizimini qo'llayapti...» kabi shikoyatlariga Pavel jiddiy ahamiyat bermasdi.

Ularni ko'p narsa birlashtirib turmaganligi aniq bo'ldi: faqat gilamchalar to'shalgan xona, umumiy stol va... tepalarida tom.

Parokandaga uchragan oilalar: er o'z o'ynashlari, xotin ham o'z ma'shuqlari bilan alohida yashaydigan holatlar ham bo'ladi. Lekin yana boshqa turi ham bor: er va xotin tashqaridan qaraganda binoyidek hayot kechirishadi-yu, biroq dunyoqarashlari, manfaatlari turlicha, bir-birlarini tushunmaydilar, bir-birlariga begona, ammo har kuni bir dasturxonda ovqatlanishadi, er-xotinlik vazifalarini ado etishadi, kunlar, oylar, yillar o'tishi bilan bir-birlariga o'rganib qolgan bo'ladilar. Bu narsa hech kimni hayron qoldirmaydi, nafratlantirmaydi ham, hamma buni odatiy hol deb biladi.

Pavel to'satdan Annaning qarib qolganini, avvalgi dilbar, tiniq yuzlari xiralanib, tirsaklari haddan tashqari o'tkirlashib ketganini, ko'z qovoqlarini esa ajin bosganini payqay boshladi...

Bu, ayniqsa, Pavel yaqinda Katya Zelensovaning egnida ko'rgan ko'ylakni Anna ham kiyganda yaqqol ko'zga tashlandi. Ularni birbiriga taqqoslab bo'lmaydi!

9

O'tgan yili yozda «Saxalin» taqirligiga yondosh Demyanovo o'rmonining eng ovloq joyidan bir g'aram pichan yig'ib olingan edi. Uni qishda olib kelib bo'lmadi: qalin yoqqan qor sababli ot bo'ynigacha botib ketar edi. Hech kim bahorgi loygarchilikda ham pichan olib kelishni o'ylamadi. Endi o'rmon yo'li quridi, Ignat Yegorovich Demyanovodagi g'aramchani eslab qoldi, yem bekorga uvol bo'lmasin, deb Sashaga olib kelishni buyurdi.

Sasha o'zi bilan Lyoshka Lyapunovni olib ketmoqchi edi. Yigit baqiroq bo'lsa ham, ishga uddaburon, u bilan ko'chada qolib ket-

maysan. Lekin Lyoshka, Funtikovning duradgorlik brigadasiga o'tib ketgan bo'lib, xodalarni arralar ekan, hamma bilan san-manga borib yurardi.

Birinchi dalachilik brigadiri Yevlampiy Nogin o'zining qalin soqolini chimdilab kimni ajratsam ekan, deb uzoq xayol surib turdi, so'ng birdan kulimsirab dedi:

– Bo'ldi, yigit, senga g'ayratli bir yigitchani topib berayki, aslo zeriktirmaydi... Qachon jo'naysan? Tushlikdan keyinmi?.. Otxonada kutib turadi. So'zim rost, aldamayman.

Sasha uning kulimsiraganiga e'tibor bermadi, ammo otxonaga kelib, sherigini ko'rganida brigadirning nega kulimsiraganini bilib oldi.

Otlar og'ilidan chiqarilib, aravalarga qo'shilgan edi, aravalarda xodachalar, yog'och ayrilar, arqonlar – xullas, nima kerak bo'lsa, hammasi tayin edi, hatto gulli ro'molga o'ralgan nonushta ham bor edi. Ot yonida, eski etikda, egniga uzun erkakcha kastum kiyib, belini kamar bilan zich qilib olgan Nastya turardi. Qiz shodligini yashirmay Sashaga qaradi.

– Sekin-asta yo'lga tushsak ham bo'lar, Stepanich!

– Borasanmi?

– Yoqmayaptimi?

– Men «soqol»dan yigit ber deb so'ragandim.

– Hamma gap hozir yigitlarning yetishmayotganida-da.

– Jin ursin! Ko'p gapiraverma! Yaxshisi, uyingga ket... Bir o'zim boraman.

– Kim senga ikkita otni ishonib topshirib qo'yadi, azizim? Bir o'zing Orol jarligi yonida ularni narigi dunyoga ravona qilasan-ku!

Sasha, istasa-istamasa Nastyani birga olib ketishga ko'ndi. Hozir yugurib borib brigadirga aytsa, u kulgisini soqoli ostiga yashirib e'tiroz bildiradi: «Nimasi yomon? Zo'r ishlaydi, ot bilanmi, ayri bilanmi ishlasa, har qanday yigitingni dog'da qoldiradi». Uning bu e'tirozi faqat kulgi, ortiqcha gapga sabab bo'ladi.

O'rmon yo'llari har xil bo'ladi. Shundaylari ham borki, issiqda chang, yomg'irdan keyin loygarchilik bo'ladi, g'ildirak yo'li past, o'nqir-cho'nqir. Bu yo'llar juda serqatnov, ular qishloqlarni bir-bir

bilan birlashtirib turadi, bu yo'llardan kuniga bir necha bor arava qatnaydi, hattoki mashina g'ildiragining izlarini uchratish mumkin.

Aholi yashaydigan qishloqcha va yaylovlarga olib boradigan yo'llar ham bor: g'ildirak izlari sezilib turadi, ularning oralig'idagi o't esa ot va mol tuyoqlari ostida bosib yanchiladi... Bunday yo'llardan arava har kuni ham qatnamaydi, ammo haftada bir-ikki marta, albatta, o'tib turadi.

Maysazorga olib boradigan yo'llar ham bor: g'ildirak izi zo'rg'a bilinib, ustini mayin o't bosib yotadi, bu yo'llarni faqat pichan o'rimidagina bezovta qilishadi.

Lekin yana shunday yo'llar ham borki... Goho ko'k yuzida tarqalib ketib, bulut yoki sarobligini bilib bo'lmagani kabi, yo'l yoki o'rmonning yakkam-dukkam joyligini ajratish qiyin bo'lgan yo'llar ham bo'ladi. G'ildirak izi yo'q, barxitday, toza, hali bosilmagan o't yo'l o'tishi kerak bo'lgan joyda, qoq o'rtada kichik-kichik archalar bemalol o'sib yotadi. Uch yilda bir marta zarurat tug'ilganda arava yoki qishda qorni g'ichirlatib chana shu archalarning uchini egib o'tadi. Boshqa paytlarda esa bu yerdagi jonli tabiat to'liq xotirjamlikdagi quyosh va yomg'irdan quvonadi.

Bunday yo'lning boshlanishi aniq, biroq oxirini hech kim bilmaydi. Odam ko'zi bunday yo'lning o'rmonga aylanib qolganini ilg'amaydi.

Bunday yo'lda adashish, oti bilan yo'qolib ketish mumkin.

Goho bu yo'l o'zining ayrim qiliqlari bilan odamni esankiratib qo'yadi: qoq o'rtaga qadimiy qarag'ay qulaydi, uni na aylanib, na ustidan o'tib bo'ladi, chetga ham ko'tarib olib tashlab bo'lmaydi, xunob bo'lib orqaga qaytishga ham to'g'ri keladi. Shak-shubhasiz xavfli joylar ham bor...

Demyanovo o'rmonining ana shunday nomsiz, yurilmagan yo'llaridan biridagi Orol jarligi xatarli joylardan edi. Bu jarlikning hech qanday qo'rqinchli joyi, favqulodda ajralib turadigan yeri ham yo'q, u oddiy jar, o'pirilgan joyi ham yo'q, lekin yuking bilan butalarni yorib o'tib ko'r-chi...

Jarlikdan yuksiz yengilgina o'tib ketishdi. Nastya odatiga xilof ravishda yo'l bo'yi indamadi, faqat ba'zida Sashaga:

– O‘ngroqdan yur! Tushib ketsak chiqolmaymiz! – deya baqirardi.

Qiz odatdagidek bezorilik qilsa, sho‘xligini qo‘ymasa Sasha bularni yengilroq o‘tkazardi.

Bir tarafida siyrak, qorong‘i archazor, bir tarafida tog‘ terakzori bo‘lgan maydonda quyoshda o‘zini toblayotgan sho‘rpeshana kampirday egilib ketgan kichkina g‘aram bor. O‘rmonda bir o‘zi qolgan, qolganlari allaqachon olib ketilgan.

Otlar g‘aram oldiga borishib, tumshuqlarini tiqa boshlashdi.

– Namuncha shoshilmasalaring! – deya baqirdi Sasha. U otlarning boshini tortib, suvliqdan bo‘shatar edi.

Keyin g‘aram orasidan chirimagan poxoldan olib otlarning oldiga tashladi.

– Buni qara, boyo‘g‘li! – deb asta shivirladi Nastya.

G‘aramning eng tepasida xodaning yoniga qo‘ng‘ir-kulrang boyo‘g‘li yashirinib olib, tashvishli ko‘r ko‘zlarini baqraytirar, qanotlarini g‘azab bilan hurpaytirib olgandi. Sasha aravadan yog‘och ayrini olib, u tomon cho‘zildi. Boyo‘g‘li qanotlarini katta yozib, ovoz chiqarmay o‘zini qorong‘i archazor qo‘yniga urdi. Archazordan qushning qanot qoqqani eshitildi.

– O‘rmon alvastisi! Uni kimdir u yerda qo‘rqitib yuborgan ko‘rinadi, – jonlanib gapirarkan Nastya, javob kutib Sashaning ko‘zlariga sinovchan, savolomuz qarab qo‘ydi.

Lekin Sasha teskari burildi-yu, g‘aramni buzish uchun uyum tepasiga chiqib ketdi. Nastya yana jimib qoldi. Arava to‘lgunga qadar boshqa bir og‘iz so‘z demadi.

...Yuklar bilan butalar orasidan o‘tish qiyinroq bo‘ldi. Vaqt-vaqti bilan goh u, goh bu arava yiqilay deb og‘ib ketardi. Sasha va Nastya uni yelkalari bilan tirab otlarga baqirishardi. Ularning qo‘llari bir necha bor bir-biriga tegib ketar, Sasha shoshib qo‘lini tortib olib, Nastyadan yuzini o‘girardi...

Ular Orol jarligi oldida to‘xtashdi. Sasha qurib yotgan shoxlar orasidan yog‘och xoda topib, aravaning orqa g‘ildiraklari orasiga tormoz uchun suqub qo‘ydi-da, jilovni qo‘liga oldi.

– Sekinroq, – buyurdi Nastyaga. – Orqadan qarab bor, atrofga qara. Biror narsa bo‘lsa darhol chaqir.

O‘zi arang, tebranib turgan arava butalar orasidan istar-istamas asta pastga qarab siljidi.

– Sekin, sekin, jonivor. Asta tort, uzib yuborma, – deb otga yalinardi Sasha.

Qiyalikning qoq o‘rtasiga kelganda arava to‘xtadi. Sasha otni jahl bilan qamchilagan edi, u bir sapchidi-da, butalarni bosib depsindi, so‘ngra tinchib qoldi.

– Mana bu yerda, butalar orasida chuqur bor ekan – g‘ildiraklar tushib qoldi. Nima qilish kerak, aqlim yetmaydi, – dedi arava orqasidan Nastya.

Sasha yuganni qo‘yib, og‘ib yotgan aravaning orqasiga o‘tdi-da, xo‘mrayib:

– Men orqaga tortaman, sen xodani tortib ol. Tormozsiz tushamiz, – deb buyurdi.

– Qiyalik tikka-ku. Otni mayib qilib qo‘yishimiz mumkin.

– Yukni tushirib o‘tirmaymiz-ku... – Sasha otning tumshug‘iga tiralib, bor ovozicha baqirdi:

– Qani, jonivor! Orqaga! Orqaga! – degan ovoz butun o‘rmonga taraldi.

Bo‘yincha otning qulog‘iga tushib ketdi. Sasha bir necha bor otning nag‘alli tuyog‘i tizzasiga tegay deyayotganini payqadi. Qattiqroq tegib ketsa bormi, umr bo‘yi mayib bo‘lib qolasan.

– Orqaga! Ha, jonivor!.. Bo‘la qol, Nastya!

Nastya orqa g‘ildiraklar oldida kuymanardi.

Birdan arava silkindi, nimadir qattiq sindi, Sasha o‘zini arang chetga olib qochdi, arava shotisi uning yelkasiga tegib, chetga turtib yubordi. Otning xirillashi, butalarning sinishi, Nastyaning qichqirishi eshitildi... Yerda yotgan Sasha qulayotgan g‘aram ko‘kning yarmini to‘sib qolganini ko‘rdi, g‘aram o‘zining yumshoq, bo‘g‘uvchi og‘irligi bilan Sashani butalar orasiga, nam tuproqqa siqib qo‘ydi.

Hamma yoq jimjit bo‘lib qoldi.

Sasha kastumini shilib g‘aram ostidan chiqdi. Uning tepasida rangi oqarib lablari titragan Nastya turardi.

– Yaratganga shukur, tirik ekansan. O‘ldirib qo‘ydi, deb o‘ylagandim. Aytgandim-ku… – Qiz uzoq yig‘lagan yosh bola kabi oh tortib, avaylab Sashaga turishga yordam berdi. – Lat yemadingmi?

Nastyaning ko'zlarida ham qo'rquv alomati bo'lsa-da, biroq endi sariq kalta kipriklari orasidan ko'ringan yosh bilan birga ko'zlari qandaydir mayin, mehribon yaqinlik bilan yarqirardi.

– Butman, – xijolat bo'lib, qat'iyatsiz javob berdi Sasha.

Ot buralib qolgan bo'yinchada bo'g'ilib yotardi. Uni bo'shatishdi, o'rnidan turg'izishdi, silab-siypashdi. Otga shikast yetmagan edi, lekin aravaning orqa g'ildiragidan faqat uch-to'rtta osilib qolgan kegaylari bilan o'qi qolgandi, xolos. G'aramni tortib turgan arqon uzilib ketgani sababli, pichan butalar orasiga sochilib ketgandi.

Ot buzilgan aravani yuqoriga tortib chiqdi. Ikkinchi aravani ham, harsillab qolgan otga zo'r berib chuchulab, pastga olib tushishdi va xuddi shu yo'sinda g'ildiraklariga tormoz bo'lsin deb xoda tiqib asta yuqoriga, jarning u tomoniga olib chiqib, buzuq arava yoniga qo'yishdi.

– Sen pichanni yuqoriga tashi, men qarag'ay ko'rib kelaman, xodacha chopib kelaman, g'ildirak o'rniga ishlatamiz, – dedi Sasha, arqon ostidagi boltani olar ekan.

Yerdan chiqadigan salqin zax asta shivirlayotgan daraxt uchlariga ko'tarilar, qorong'i tushib borardi. O'rmon borgan sari qorong'ilashib, xunuklashib, vahimali manzara yuzaga kelardi. Daraxtga urilayotgan bolta tovushi sokinlikda odamning jig'iga tegadigan darajada qattiq eshitilardi.

Sasha arava yoniga yosh qarag'ay tanasini yelkasiga ko'tarib keldi. Jarlikdagi pichan buzuq arava yoniga uyib qo'yilgandi.

– Nastya! – qichqirdi Sasha.

Javoban pichan orasidan bo'g'iq yig'i ovozi eshitildi.

– Nastya, senga nima bo'ldi?

Pichan orasidan Nastyaning eskirgan, taglari pachoqlangan etigi chiqib turgandi.

– Ana xolos... Nima bo'ldi axir? Gapir?

Nastya o'tirib oldi – sochlari to'zg'ib ketgan, ro'moliga xashak yopishib qolgandi. Charchagan, so'lg'in yuzlari, g'ijim bo'lib ketgan kastum, qo'pol etikda, qizning butun qiyofasi hasratga to'lgan odamni eslatardi.

– Tuzata qol, ketaylik, – dedi qiz sekin.

– Seni xafa qilib qo'ydimmi?

– Xafa qilganingni bilar ekansan, so‘rab nima qilasan?

Nastya yana yuzini kaftlari bilan bekitib oldi.

– Nastya...

– Nima, Nastya? – qo‘llarini yuzidan keskin tushirib dedi Nastya. – Mana, ko‘r, quvon! Yig‘layapman! Yoqayotgandir... O‘zim xohlagan yigitni rom qila bilaman, sen esa meni rom qilib qo‘yding... Yana nimang bilan? Atrofimda parvona bo‘layotganlar kammi?..

– Nastya, tushun...

Sasha Nastyaning qo‘lini asta ushladi... Nastyaning qo‘li ozg‘in, terisi mayin bo‘lib, kafti dag‘al va qo‘pol edi. Qiz Sashaning qo‘lini ushlab olib o‘ziga tortdi.

– Tushlarimga kirasan. Tinchim yo‘qoldi... Sen meni behayo, uyatsiz deb o‘ylayapsan... Osilib olyapman... nima qilay, o‘zi tortsa! Hech kim meni o‘ziga shunchalik rom qilmagan edi. Pichan ostida qolganingni ko‘rib aqldan ozay dedim. Mabodo ot seni ezib qo‘yganda, men ham o‘lish uchun yoningga yotib o‘lardim... Sen bir og‘iz shirin so‘z demay, kulib qaramaganingdan keyin, albatta, odamga og‘ir botadi-da, yig‘lash ham gapmi...

Sasha Nastyaning yaqinligini tuyar, qizning kiyimiga o‘tirib qolgan pichanning achchiq hidini sezardi. Yuziga qizning ho‘l, qaynoq yuzi yopishdi.

– Nastya, aqldan ozdingmi!

– Ha, ozdim... Esimni yo‘qotdim, sensiz turolmayman. Vaqtincha bo‘lsa ham, menikisan... Muzsan, senda inson quvonchidan asar ham yo‘q.

Qiz unga yopishar, qaynoq lablari Sashaning labini izlardi, aqlhushini quruq tuman qoplab oldi... Nastyaning shivirlashi Sashaga olisdan eshitilganday edi:

– Ba’zida o‘ylayman: ursang ham, suyaklarimni sindirsang ham, og‘riqdan emas, baxtdan yig‘lardim...

Nastya jimim qoldi, faqat titrab turgan lablari yuzni kuydirar, unsiz yalinar, iltijo qilayotgandek edi...

Sasha otlarni chiqarib, aravani shundayligicha otxona oldida qoldirdi-yu, o‘g‘riday bilintirmasdan Ignat Yegorovich uyi tomon yo‘l oldi...

Kulbalar tungi qorong‘i nam derazalari bilan unga tikilishardi. Qishloqdagi sinchkov odamlar uxlamay derazadan Sashaga tikilayotganday edi.

Sharmandali ish bo‘ldi. Katyaga endi qaysi yuz bilan qaraydi? Qanday qilib aybini yuvadi? Aytmasinmi, sharmandalikni bekitsinmi? Gap-so‘z bo‘ladi, keyin qochib qutulolmaysan... Mish-mish ham gapmi, o‘z vijdoni oldida aybdor!

Sasha ertasi kuni Nastya bilan idora eshigi oldida uchrashib qoldi. Oppoq ko‘ylak, tarang tortilgan qora yubkada bashang kiyingan Nastya xuddi ozoda uy mushugiday idoraning iflos hovlisida yangi urfdagi tuflisini avaylab, qadam tashlab borardi.

Katta o‘rmonlik keksa cho‘pon Nezadachka har doimgidek sarxush holida Nastyani ko‘rdi-da, hayron bo‘lib, qo‘llarini yoyib:

– Oh, mening g‘unchaginam! Chindan ham, g‘uncha... – dedi.

Nastya hang-mang bo‘lgan cholning yonidan o‘tib ketdi-da, Sashaga mag‘rurona, g‘olibona, mayin tabassum tashladi.

Sasha uyatidan, alam va Nastyaga bo‘lgan nafratidan seskanib ketdi.

10

Vokzali ham, platformasi ham yog‘ochli Velikaya stansiyasi bunyod bo‘lgandan buyon bunday gavjumni ko‘rmagan bo‘lsa kerak.

Yo‘l bo‘yida bir-biriga zich bo‘lib yuk mashinalari turnaqator bo‘lib turardi: o‘ydim-chuqur yo‘llarda ishdan chiqqan polutorkalar, jihozlangan uch tonnali mashinalar, barcha kolxoz raislarining havasi keladigan, kuzovi ko‘tarilgan besh tonnali dizel ham bor edi. Yuk mashinalari bortiga qalin taxtadan qafas qilingan... Shu yerning o‘zida hamma yog‘ini qalin chang qoplagan yengil mashinalar: «Gazik»lar, «Pobeda»lar turishardi. Yengil arava, chetan arava va eski urfdagi tarantas[1]lariga qo‘shilgan, bearava egarlangan otlar ham shu qatordan joy olgandi. Ot oldiga tashlangan tayyor xashakka o‘rmon xo‘jalik qishlog‘idan echkilar yugurib kelishgandi. Aravakashlar ularni qamchilari bilan urib haydashmoqda. O‘sha qishloq-

[1] *Tarantas* – odam tashiydigan to‘rt g‘ildirakli arava.

dan o‘yinqaroq, echkilardan kam bo‘lmagan olg‘ir bir to‘da bolalar ham kelishdi.

Tashvishga tushgan kolxoz raislari to‘da bo‘lib yig‘ilishar, ko‘zga ko‘ringan, hurmatli kolxoz raislari esa chetda o‘z holicha turishardi: yelkalarini osiltirib olgan durkun Ignat Gmizin; qip-qizil bo‘yni ko‘ylagining yoqasi ustiga osilib chiqqan Fedosiy Murgin; suyagi yo‘g‘on, boshini yuqori ko‘tarib olgan Maksim Pyaterskiy; galifesining ustidan ko‘ylagini tushirib olgan qadimgi suratlardagidek olifta Kostya Zaysev...

Stansiya atrofida furajka kiyganlar ham, bosh yalanglar ham, etik kiyganlar ham, yalang oyoqlar ham yig‘ilishgan.

Ikki to‘p bo‘lib turgan xotinlardan bir qismi jazirama quyosh nurlari ostida terga botib, ro‘mollarini yelkalariga tushirib olishib, bir-birlariga so‘z qotib o‘tirishardi. Boshqa to‘pdagi xotinlar ham oftobda qolib ketgan bo‘lsalar-da, hamma yoqqa shovqin solib gap sotishardi.

Kolxozlardan yig‘ilgan yigit-qizlar esa vokzal soyasida quvnoq suhbat qurib turishardi. Ular orasida Katya Zelensova ham bor.

Shoxlari tarvaqaylagan qayin ostiga stol qo‘yilgan. Stol oldida oq xalat kiyishib zootexnik Dyadkin bilan tuman veterinar shifokori Permyakov turishardi. Dyadkinni Korshunovodagi hamma uy bekalari bilishadi, chunki u cho‘chqa bolalarining o‘sib ketgan tishlarini mohirlik bilan olib tashlaydi. Mallarang, yuzida biroz sepkili bor Permyakov sabri tugab cho‘ntaklaridan bir narsa axtarar ekan, o‘zicha:

– Obbo, lapashanglar! Nima balo, eshelonlari quduqqa tushib ketdimi? – deb ming‘irlardi.

Qiyshiq stulda o‘tirgan Dyadkin osoyishta, fikrini bir joyga yig‘ib, papiros chekar, tutunini esa sertuk burun teshiklaridan chiqarardi.

Stansiya eshigidan qizil furajkali stansiya boshlig‘i bilan birga tuman rahbarlari: Mansurov, Sutolokov, Zibina chiqib kelishdi.

Stansiya boshlig‘i shoshib furajkasini bosib kiyib oldi-da, g‘izillab ombor tomonga yugurdi. Unga har tarafdan savollar yog‘ildi:

– Hoy, xo‘jayin! Ostonangni yana qancha qo‘riqlaymiz?

– Samovarlari botqoqqa botib qoldimi?

– Hushtak chalsang bas – otlar bilan tortib otamiz.

– Rost gap. Ho‘kizlar parovoz tortishyapti.

Boshliq javob bermas, faqat yelkasini qisardi.

Terga botgan yuzidan tuman rahbarlari adabini berishgani ko‘rinib turibdi, uning jahli chiqqan.

– Kelyapti, kelyapti, yigitlar! – qattiq baqirdi Pavel Mansurov raislar oldiga o‘tar ekan. – Besh daqiqadan so‘ng ko‘rinadi. Qabul qilishga shaylaning.

Hamma g‘imirlab qoldi, butalar ostida o‘tirgan odamlar birin-ketin turishdi. Salqinlanish uchun oyoq kiyimlarini yechib o‘tirganlar shosha-pisha kiyina boshlashdi.

Velikayada hech kimni hozirgichalik, zotli mollarning birinchi partiyasini kutgandek kutib olishmagandi.

Eshelonni ertalab keladi deb va’da qilishgandi-yu, lekin qayerdadir turib qoldi... Uchta yuk poyezdi va bitta yo‘lovchi poyezdi o‘tib ketdi. Poyezddan shoshib tushgan yo‘lovchilar kolxozchilar oldiga kelib:

– Sut sotmaysizmi? – deb so‘rashdi. Bunga javoban kolxozchilar:

– Kutib turing, hozir mol yetib kelsa, sog‘ib beramiz, – deb javob qilishardi-da, yo‘lovchini kulgi ostida kuzatib qolishardi.

Nihoyat tutun chiqarib kelayotgan parovoz orqasidan uzun Pulmanov vagonlari ko‘rindi. Poyezd boshidan to oxirigacha bir silkindi, buferlari g‘ijirlab to‘xtadi. Vagonlarning yarim ochiq eshiklaridan odamlar qarab turishardi, ularning aksariyati ayollar edi.

Qayerdandir, ehtimol, vagon ostidan malla polotnodan bosh kiyimi kiygan, xuddi shu matodan tikilib, yo‘l-yo‘lakay rosa ishqalangan gimnastyorkalik chaqqon odam paydo bo‘ldi. U Mansurov va Sutolokov bilan bir-ikki og‘iz gaplashib oldi-yu, dala sumkasini qo‘ltig‘iga qistirib, daraxt ostidan stol yoniga ketdi.

Kolxozchilar, raislar vagonlar oldiga to‘planishib, go‘ng, xashak, sut hidi anqib turgan qorong‘i vagonga tikilishar, kuzatuvchilar bilan suhbat qurishar edi.

– Uzoqdan kelyapsizmi?

– Komidan...

– Ana xolos, shimoldan sigir olib kelishyapti.

– O‘zlaringda bo‘lmagandan keyin iloj qancha?

– U yoqda kolxozlar molga boymi?

– Yo‘q, bu sigirlar chorvachilik xo‘jaligi va shahar atrofidagi xo‘jaliklardan olib kelindi.

– Shunday moldan ajralish alam qilmayaptimi?

– Oz-moz shunday... Bizda ularni boqish oson emas, yem-xashakning ko‘p qismi chetdan keltiriladi, sizlarning esa o‘z pichanlaring bor...

– Borlikka bor-u, ko‘p emas-da. Mollaringiz tanlab yesa kerak, to‘g‘ri kelganini qaramaydi, nazarimda?

– Nega endi... Odatdagi yem-xashakni yeyaverishadi.

– Bizning yemimiz: yozda o‘tloq, qishda esa xashak beramiz, suli bo‘lsa yaxshi bo‘ladi-yu, yo‘q bo‘lganidan keyin javdar ham bo‘laveradi.

– Bu mollar uchun yem olib kelishdi – bular oddiy zotlardan emas.

– Hamma gap shunda-da...

Birinchi vagonni ochishdi, to‘shama qo‘yildi. Uzoq yo‘lda chayqalaverib qiynalib ketgan sigirlar quyosh nurida, odamlarning ko‘pligidan dovdirab bosh egib tashqariga chiqishib, sarxush bo‘lganday chayqalib to‘xtashar edi. Ularning katta-katta g‘amgin, itoatkorona ko‘zlarida o‘zini chetga olgan betinch olomon akslanardi.

Ignat Gmizin zich olomonni yorib o‘tib, oyoqlarini kerib, ikki qo‘lini cho‘ntagiga solib, oldinda turib oldi. Uning qoshlari chimirilgan, qarashi sovuq edi. Kichkina ko‘zlari yanada toraydi, boqishlari keskin, sinovchan edi.

– Xo‘sh, xo‘sh, – g‘o‘drandi u o‘zicha, – suyagi buzuq, go‘shtli bo‘ladi... Yo‘lda ozib qolishibdi...

Uni xotinlar yon-atrofidan turtishib-surtishib ovozlarining boricha gaplashishar, sigirlarga o‘zlaricha baho berishardi:

– Voy o‘lmasam! Mana buni yelin desa bo‘ladi! Sening xaltangdan katta-ya!

– Hozircha bo‘sh, to‘lishsa bormi... Kamida bir chelakni to‘ldiradi.

– Qornini qarang-a, chamamda, ikkiqat...

– Bunday o‘pqonga qancha yem ketadi. Ular bizlarni ham qo‘shib yeb qo‘yadi, dugonalar.

– Seni yesa bo‘kib o‘ladi.

– Huv, gazanda! Kulishga vaqt topding-da.

Xotinlarning yuzlarini ter bosgan, jiddiy, jonlangan qiyofalarida parishonlik va yashirin qo‘rquv sezilib turardi. Qaysi dehqon, ayniqsa, dehqon ayoli sigirga parvosiz qaray olardi? Buning ustiga qandaylari deng – keng sag‘rinlari biroz egilgan, biqinlari semiz, to‘sh suyaklari bilan qorni o‘rtasidagi kichkina chuqurchasi yo‘lda qiynalganini bildirardi. Ba’zi bir sigirlarning yelinlari yumshoq, qatqat bo‘lib, osilib turishidan yaqinda sog‘ilganga o‘xshaydi. Molga bo‘lgan muhabbatlari ota-bobolaridan qon-qoniga singib ketgan odam – aqli bilan emas, butun vujudi bilan bu xazina ekanini fahmlaydi! Lekin shuning o‘zi ham vahima uyg‘otadi... Mahalliy ola sigirlarni ertalabdan yaylovga haydab qo‘yib, faqat kechqurunlari sog‘ish uchun olib kelishsa bo‘ladi. O‘zi qornini to‘yg‘izish uchun narsa topib oladi. Zotlilarini esa bu ola sigir yeydigan yem bilan boqish mumkinmi?..

– Veterinarlarga olib boring! Nega ushlab turibsizlar? Hali ko‘rishga ulgurasiz, – degan ovozlar eshitildi.

– Shunday ham... Vagonlarning bekor turishi uchun pul to‘lash kerak bo‘ladi...

Odamlar g‘imirlab qolishdi, ko‘pchilik vagonlar tomon yugurib ketdi, bir qismi esa sigirlarni chetga olib chiqa boshlashdi.

Ikki soatdan keyin Velikaya stansiyasi oldida yirik shoxli mollarning zich podasi ma’rashib, o‘zlarini u yoqdan bu yoqqa tashlashardi. Xotinlarning ovozi endi ishbilarmoncha tus olib, xo‘jayinlardek baqirib-chaqirar edilar:

– Marya! Marya! Anavi kulrangini qaytar! Qara-ya, uyiga qaytgisi kelib qolibdi!

– Uying uzoqda qoldi, azizam, uzoqda! Qani, bu yoqqa kel!

Oxirgi vagonlarni bo‘shatishayotgan edi.

Stansiyaning kichkina bufetidagi hamma suv zaxiralari ichib bo‘lingan, peshtaxtalarda faqat qimmatbaho «Shimoliy Palmida», «Gersegovina flor» papiroslari-yu shokoladlar qolgandi.

Stansiya boshlig‘ining baxtiga qarshi kichkina suv chiqaruvchi nasoslar o‘rnatilgan bino oldida gulxan yoqilib, unda artelning bir chelak kartoshkasi qaynatilmoqda edi.

Bolalar xursand, chinqirib yugurishar, echkilar esa mol podasi orasiga o‘zlarini otardilar...

Sigirlarning ma’rashi, odamlarning g‘ovur-g‘uvuri, daraxt shoxlari orasida buralib yurgan gulxan tutuni, yengil kuyindi, go‘ng va terlaganning achchiq hidi... Velikaya stansiyasini ko‘chmanchilarning katta to‘dasi o‘ziga manzilgoh qilib olgan-u, shu yerda kuch to‘plab, yana yo‘lga tushishga hozirlik ko‘rayotganday tuyulardi.

Pavel Mansurov bir joyda o‘tirolmasdi. U goh veterinarlar oldiga, goh vagonga chopib borar, o‘zi sigir shoxidan ushlab chayqalib turgan omonat taxta ko‘prik tomon sudrar, yugurib Ignatni axtarib topar, quvonib undan:

– Xo‘sh, qalay? Mo‘ljalladingmi?.. Ko‘z ostingga olib tur, eng saralari senga... – deya so‘rardi.

Lekin Ignat Gmizin katta oppoq buqa oldidan ketolmasdi, uning biqinlariga urib qo‘yar, silar, tirnog‘i bilan terisiga yopishib qolgan loy va go‘ngni tozalardi. Buqa vagon kiri, temiryo‘l moyidan xalos edi, uning oppoq yungi orasidan pushti rang terisi ko‘rinib turar, bo‘ynida, ko‘kragi va kalta oyoqlarida paylari osilib turardi. Mana shu buqa «Mehnatkash» kolxoziga olib borilishi kerak, Ignat bilan hozir gaplashish befoyda edi, u yo «ha» yoki «yo‘q» deb javob berardi. Buqa qon yugurgan ko‘zlarini baqraytirib o‘zining bo‘lajak xo‘jayiniga qarab qo‘yar, jahl bilan tuyog‘i bilan yer tepar, baquvvat bo‘ynida qat-qat burmalar yig‘ardi. Uning terisi bolalarnikidan ham nozik qizg‘ish burnida kattagina halqa osilib turar, halqadan tortilgan zanjir daraxt tanasiga bog‘langan edi.

Yoshlar gulxanda kartoshka qaynatardi. Ularga Katya Zelensova boshchilik qilardi. Qaynoq loyqa suvni to‘kishib, bug‘lanib turgan kartoshkani ko‘kat ustiga ag‘darishdi. Qizlar ikkita ro‘molni yozishdi, unga yirik-yirik non burdalarini terib qo‘yishdi, tuz esa qog‘ozda edi.

Harsillab o‘tib ketayotgan Fedosiy Murgin yo‘g‘on bo‘yni bilan yoqasini ezib burildi-da, havasi kelib:

– Yomon emas-ku... – dedi.

– Ha, yomon emas... Ulfatchiligingizga qo'shinglar! – dedi tez yurib kelgan Pavel Mansurov. U vagonlarda ohakmi va yo unga bulangan kastumini yechib bir chetga tashladi.

«Birinchi may» kolxozidan kelgan, siyrakqosh, to'ladan kelgan, har bir harakatida yonoqlari dirkillaydigan sut sog'uvchi Fanya Goroxova ko'ylagini to'g'rilab olib, bir chetga surildi-da, Pavelga joy bo'shatdi:

– Marhamat, marhamat, yirganmaysizmi... – deb, mehmon kutayotgan tadbirkor uy bekalaridek obro' saqlab, labini tishlab qo'ydi.

Katya to'satdan Fanyaga havasi kelayotganini sezib qoldi.

Pavel Sergeyevich issiq kartoshkani u kaftidan bu kaftiga otar ekan, ko'zlari porlar, tez-tez nafas olar, biroz ochiq og'zidan bir tekis oppoq tishlari tovlanib turardi. «Xudoyim, yosh bolaga o'xshaydiya!» Pavel o'ziga Katyaning tikilib turganini sezib qoldi-da, boshini ko'tardi, uning bug'doyrang yuziga xira qizil yugurdi. Katya o'girilib oldi.

Shu payt chetdan ayol kishining qichqirgan ovozi eshitildi:

– Xotinlar! Hoy, dugonajonlar!

Erkak kishining boplab so'kingani, bir narsaning jaranglagani, bo'g'iq, uzuq ma'ragan tovush eshitildi.

Yaqinda daraxtga kishanlangan katta oq buqa veterinarlar stolini ag'darib, kalta bo'ynini egib, zanjirini sudrab oldinga qarab odimlardi.

– Zanjiridan ushlang! Zanjiridan!.. Shunda tinchiydi!

– Seryoga! Qayoqqa ketyapsan?

– Bu tarafdan emas, tentak! Joningdan to'ydingmi?

– Yo Xudo! Azizlar! Orqasidan, orqasidan kelsanglar-chi!

Ignat Gmizin qirilgan boshini oftobda yiltillatib yo'lda uchragan odamlarni chetga itarib, buqaning orqasidan quvib qoldi, chaqqonlik bilan o't ustida sudralib ketayotgan zanjirga o'zini otdi. Ammo buqa xavfni sezgandek orqasiga tez o'girildi-da, Ignatni yelkasi bilan urib yiqitdi.

– Voy! Hoy yaxshilar! Ezib tashlaydi!

Og'ir, durkun Ignat yosh bolalarday bir-ikki ag'anab buqaning tuyoqlariga chap berdi. U zanjirni ushlab qolib silkitishga ulgurdi

shekilli, buqa og'riqqa chiday olmay qattiq g'azab bilan bo'kirib yubordi. Buqa hali turishga ulgurmagan Ignatga parvo qilmay odamlar ustiga qarab asta kela boshladi, uning sakrashidan yer larzaga kelayotganday edi. Odamlar yiqilib, to'qnashib, kalta bo'yinli kallasini bukib bostirib kelayotgan bahaybat maxluqdan har tarafga qocha boshladilar. Turtib qosh suyaklari ostidan qon quyilgan ko'zlari olayib qarab turardi.

Boshidagi ro'moli uchgan, sochlari to'zg'igan bir xotin o'chib qolgan gulxan atrofini o'rab olishgan yigit-qizlar davrasiga o'zini otdi.

– Voy sho'rim! Qutqaringlar, hoy odamlar!

Katya Pavel Mansurovning suyakdor yuzlari qotib qolganini ko'rdi, yoni biroz chiqqan, tarang tortilgan galife va yumshoq etigida bo'yi biroz cho'zilgandek edi. U shovqin bo'layotgan tomonga asta kela boshladi.

Buqa tumshug'i ro'parasiga zootexnik Dyadkin duch kelib qoldi. G'ijimlangan xalat kiygan semiz, beso'naqay bu odam o'zini yo'qotib buqaga orqa o'girmaslikka harakat qilib orqaga tisarildi. Uning qo'lida qandaydir papka bo'lib, shu papkasi bilan buqani quvib haydar, yo'rg'alashdan to'xtagan buqa sekin qadam tashlab zootexnik ustiga bostirib kela boshladi. Dyadkinga qichqirishardi:

– Silkima! Bekorga jahlini chiqaryapsan!

– Yonga sakra, yonga!

– Qochsang-chi, axir, jin ursin!

– Oh! Halok bo'ladi hozir!

Nihoyat Dyadkin xalatining osilib yotgan etagidan ushlab orqasiga o'girildi-da, quyonga o'xshab sakrab-sakrab qochib qoldi.

Buqa bir silkindi, og'ir gavdasini o'nglay olmay, biroz kechikib, uning orqasidan tashlandi.

Dyadkin stansiyaning panjara devoriga qorni bilan osilib, orqasiga ag'anab tushdi... Yupqa taxtachalardan chilingan panjara buqa oldida bardosh berolmay, sinib ketdi.

Xaloyiq bir yo'la «O-oh!» deb yubordi.

Dyadkin ko'tarilishga ulgurmadi. Buqaning to'mtoq kallasidan zarb yeb, qopday bo'shashib dumaladi. Buqa yugurib kelib stansiyaning yog'och devoriga tiralib turdi-da, bir-ikki soniya dovdirab, bez-

day qotib qoldi, so‘ng burildi-da, avvalgiday quturib qaradi: pushti rang burnidan o‘tkazilgan og‘ir halqadan so‘lagi cho‘zilib oqardi. Telba ko‘zlari yangi o‘ljani axtarardi.

Shu payt xaloyiq buqaning yaqinida Pavel Mansurov bir o‘zi turganini sezib qoldi. Buqa ham buni payqadi, bir tebrandi, terdan yilt-yilt qilayotgan keng oppoq biqinlari tortilib ko‘tarilib tushar, hozir bir sakrab uni yerga tekislamoqchi bo‘lganday turardi...

Pavel buqa tomon yurdi. Buqa boshi bilan bir silkidi-yu, shoxlari Pavelga tegmadi – u to‘satdan dahshatli bo‘kirdi... Lekin ana shu bo‘g‘iq bo‘kirikda og‘riq azobi va nola ohangi bor edi. Pavel qo‘li bilan buqaning pushti rang burniga taqilgan halqani ushlab turardi.

Buqa bo‘ynini itoatkorona cho‘zib, Mansurovning ketidan yurdi. Faqat biqinlarining silkinishigina asta so‘nayotgan g‘azabidan dalolat berardi.

Buzilib yotgan panjara oldida xalat kiygan Dyadkin yuz tuban yotardi. Uning atrofida o‘t ustida papkasidan tushgan oq qog‘ozlari har qayoqqa sochilib yotardi. U arang boshini ko‘tarib, bor kuchini yig‘ib, zo‘rg‘a ihradi – yo g‘o‘ldirab so‘kindi yoki kimnidir chaqirdi... Hamma uni esladi-yu, u tomonga yugurishdi...

Ignat Gmizin o‘ng‘aysizlanib, taqir boshidagi shishlarini paypaslab ko‘rdi.

Katya joyida qotib turardi. U buqaga yo‘l berayotgan xaloyiq orasidan Pavel Sergeyevichni izladi.

Sigirlarni to‘dalarga ajratib olib ketishardi. Stansiya tezda bo‘shay boshladi. Qizil qalpoqli boshliq u yoqdan bu yoqqa borib kelar, sigirlardan qolgan tappilarga va buzilgan panjaraga qayg‘uli qarab qo‘yardi. Qo‘lidan kelsa-yu, shunday yuk solib kelgan poyezdni bu stansiyadan uzoqqa, iloji bo‘lsa dunyoning narigi burchagiga jo‘natgan bo‘lardi. Stansiyaning o‘zi ham juda kichkina, bo‘linadigan temiryo‘llar ham vokzalning shundaygina qarshisida...

Katyaning tuman qo‘mitasi bergan yuvoshgina, bo‘ysunuvchan Rohatijon laqabli biyasi bor edi. U aravaga minib qo‘liga jilovni ushlab olib, otini: «Chu! Rohatijonim! Qimirla!» deb erkalashidan o‘zi bolalarcha zavqlanardi.

Katya yo'l to'g'ri o'rmon ichiga kirib ketadigan joyda, omborxonalar orqasida yelkasiga kastumini tashlab, Dyadkinning papkasini qo'ltiqlab olgan Pavel Sergeyevichni uchratdi. U tez, dadil qadam tashlab, Katyaning ro'parasidan chiqdi.

– Yekaterina Nikolayevna, yetimchani o'zingiz bilan olib keting, – deb Pavel qo'lini aravaning shotisiga qo'ydi-da, qizning yuziga termilib turarkan, gunoh ish qilib qo'yganday jilmaydi. – O'z mashinamda so'ligan Dyadkinni o'rmon sanoati xo'jaligi ambulatoriyasiga yubordim. Aylanib borgunimcha, hamma ketib qolibdi...

– Ha, ha, marhamat, – dedi Katya shosha-pisha xashak to'la aravadan surilib Pavelga joy bo'shatar ekan.

Ular yo'lda zotli sigir haqida ham, kolxozlar haqida ham, umuman jiddiy masala haqida gaplashishmadi. Pavel Sergeyevich jilovni o'z qo'liga oldi, xromlangan etikli oyog'ini aravadan osiltirdi-yu, bunday quturgan buqa bilan umrida ikkinchi marta to'qnash kelishi haqida hikoya qila boshladi. U yoshligida bir safar otasi bilan o'tin chopayotgandi. To'satdan bir buqa ro'paradan chiqib qoldi. Otasi jahl ustida chopib qo'ymay deb (keyin javob bermaslik uchun) boltani yerga tashlabdi-yu, chuqurlikka tushib ketibdi. Pavel bo'lsa o'zini yo'qotib qo'yib, yosh qayin daraxtiga chiqib olibdi, buqa shu daraxtni shoxi bilan tebrata boshlabdi.

– Meni daraxt ustidan yiqitib yuboradi yoki daraxtni ildiz-pildizi bilan qo'poradi deb o'yladim. Yer bilan osmon bir bo'lib ketganday tuyuldi...

Korshunovo qishlog'igacha yo'l qisqa emas. Pavel Sergeyevich Shimoliy Ural o'rmonining changalzorlarida o'sadigan yovvoyi malinalar haqida ham so'zlab berdi: «O'rmonda otda yurib qolsang bormi, bizning otimiz oppoq edi, uyga kelib qarasang, otning qorni va oyoqlari qizarib, etiklarimiz malina sharbatidan ivib ketardi». Yovvoyi daryo Gusova, guldur-guldur portlashlar ostida jang qilishga to'g'ri kelgan Don dashti haqida hikoya qilib berdi.

Katyaga bu odam negadir doim odamovi tuyulardi – yo'q, unday emas, oddiy, sergap ekan. Ba'zida odamlarga noto'g'ri baho berib qo'yish mumkin...

11

Kechqurun tuman qo'mitasi va tuman ijroqo'mi binosi bo'shab qoladi. Kuni bilan tiqilinch bo'ladigan yo'lakda hech kim yo'q. Umumiy bo'limdagi stollarda usti yopqich bilan yopilgan mashinkalar turibdi. Xonalardagi kuldonlarda chekilgan papiros qoldiqlari (kuni bilan qilingan ishdan qolgan) yotar, telefonlar ham jimjit... Odamlar binoni qanchalik bezab turishar ekan! Hamma ketgan, har tarafdan devonxona hidi kelardi – chang bosib qolgan qog'oz, siyoh va qandaydir xonadonga yot bo'lgan rasmiylik isi atrofga taralgan.

Butun boshli binoning faqat bir burchagidagina hayot hamon qaynamoqda. Birinchi kotib kabineti yonidagi kichkina xonada tun yarmigacha chiroq yonib turibdi. Bu yerda kechqurunlari navbatchi o'tiradi. Tuman qo'mitasi xodimlari, hatto tuman markazida yashovchilar ham tartib bilan navbatchilik qilishadi.

Navbatchilik murakkab ish emas. Qo'lingga kitob olib xohlasang o'qib o'tir, xohlasang unga yotib uxla. Qo'ng'iroq qilib qolishsa, kimligini so'rab, birinchi kotibning uyiga telefon qil. Shunday bo'lsa-da tungi qo'ng'iroqlar juda kamayib ketgan...

Tun soat ikkida tungi qorovul Kseniya Pavlovna paydo bo'ldi. Navbatchi kitoblarni yig'ishtirguncha u odob saqlab stulning bir burchagida o'tiraverdi. Navbatchi ketadi. Kseniya Pavlovna ro'molini boshiga tashlab olib, esnab shkaflardagi qulflarni tekshirib chiqadi-da, keyin birinchi kotibning xonasiga kirib ketadi, u yerda yumshoq divan bor. Navbatchilar xonasidagi chiroqni o'chirmaydi, tashqaridan chiroqni ko'rishsin, telefon qo'ng'irog'i eshitilishi uchun xona eshigini ochiq qoldiradi.

Katyaning birinchi marta navbatchilik qilishi emasdi.

U orasiga konfet qog'ozi qistirilgan kitobni ochib o'qiy boshladi:

Quzg'un qanoti ostida oqshom o'tar beomon,
Sen dushmanga noma'lum sadolarni tinglaysan.

Qiz ko'zini kitobdan ko'tarib stol lampasining jilosiz qalpog'i atrofida aylanayotgan kulrang tun kapalagiga tikilib qoldi.

Uning hayotida qandaydir tushunarsiz o'zgarish yuz berayotgan edi. U Sasha bilan yarim yildan ko'proq uchrashib yurdi...

Qishloq chetidagi qari qarag'ay, gina-kudurat, yarashish va nihoyat «Rafiqam bo'lishingni istayman...» deb aytilgan so'zlar. Katya bu so'zlarni anchadan beri kutgan edi. Miyasidan bu fikrni haydardi: «Quruq gap... Shunchaki uchrashyapmiz...» Lekin qaysi qizning xayolidan birinchi uchrashuvdayoq agar yigit yoqib qolgan taqdirda bunday fikr o'tmaydi? O'ylaydi, so'ngra ikkitasidan biri – yoki umidi uziladi, yoki har uchrashuv, har kecha intizorlik bilan o'tadi. Bunday intizorlik o'ziga xos malollik keltirmaydi, mushkul ham emas, u bilan yashash oson, har bir daqiqa sari qandaydir buyuk yangilikni kutasan.

Va mana o'sha holat ro'y berdi, Sasha aytdi, kutish onlari tugadi. Bundan keyin qandaydir buyuk narsa ro'y berishi, Katyaning hayoti mutlaqo o'zgarib, yangi ko'rinishga ega bo'lishi kerak... Bir hafta o'tdi-yu, hammasi hamon o'sha-o'sha. Sasha ko'rinmay qoldi... Lekin o'sha so'z aytildi-ku!

Biroq eng og'iri va ajablanarli tomoni Sashaning birdan ko'rinmay qolgani emas. Boshqa narsa cho'chitadi... Uning o'zi xotirjam. Lekin Katya xavotirlanishi, achchiqlanishi, agar g'ururi yo'l qo'ysa uni izlashi kerak edi.

Lekin Katya izlamaydi ham, xavotir olmaydi ham. Sasha paydo bo'lib qolsa, xursand bo'ladimi? Bu fikrni o'ylagan zahoti u qandaydir sarosimalikni his qilyapti.

Katyaning hayotida tushunarsiz narsalar ro'y beryapti. Bu haqda o'ylamagani ma'qul.

Kulrang kapalak lampa qalpog'ining ustida o'rmalab yuribdi, xuddi santimetrlab uni o'rganayotgandek.

Jimjitlik… Har ikki qavatda, uzun yo'laklarda, ko'plab xonalarda hech kim bo'lmagani bois hamma yoqda sukunat hukmron.

Katyani hozir kimdir kirib keladigandek taassurot tark etmayapti, shu sababli u o'qiy olmayapti, atrofga quloq solyapti… Soat tungi o'n ikki, kim ham kelardi? Kino allaqachon tugagan, tashqarida suhbat qurib, bir-biri bilan yo'l-yo'lakay xayrlashib odamlar o'tib ketishdi. Kseniya Ivanovnaning kelishiga hali vaqt bor… Yo'q, o'qish kerak.

Sen dushmanga noma'lum hamma narsani eshitasan...

Soat necha bo‘ldi? Katya telefonga qo‘lini uzatdi, biroq qo‘li telefonga tegishga ulgurmasidan kimdir qo‘ng‘iroq qilib qoldi. Katya seskanib ketdi: «Namuncha jarangdor bo‘lmasa...»

– Navbatchi eshitadi...

Notanish horg‘in ovoz:

– Mabodo Mansurov o‘sha yerda emasmi? – deb so‘radi.

– Kim qo‘ng‘iroq qilyapti o‘zi? Qayerdansiz?

– O‘rmon sanoati xo‘jaligidan... U yo‘qmi? Yo‘q bo‘lsa, yo‘qda.

– Agar ishingiz zarur bo‘lsa, uning uyiga qo‘ng‘iroq qilib berishim mumkin.

Qo‘ng‘iroq qilish? – Katya besabr ovozni arang ushlab turibdi.

Lekin horg‘in ovoz e’tiroz bildirdi:

– Qo‘ng‘iroq qilganman, uyida emas ekan.

Olisda, o‘ttiz kilometr narida, o‘rmon sanoati xo‘jaligida trubkani qo‘yishdi. Katya ham istar-istamay trubkani qo‘ydi. Uning tashqi dunyo bilan aloqasi uzildi. Telefon yana jimjit, stolda jonsiz narsadek yotibdi.

Birdan yo‘lakda qadamlar tovushi eshitildi. Hozir eshik ochiladi. Nahotki Pavel kelgan bo‘lsa?

Eshik ochildi. Pavel kirib keldi.

Katya kitobning ustiga bukchayib, Pavel Mansurovni parishonxotir nigoh bilan kutib oldi.

– Navbatchilik qilyapsanmi?.. Hech kim qo‘ng‘iroq qilmadimi?

Uning ovozi sovuq va xotirjam, ko‘rinishi har doimgiday edi – ha, u tekshirgani kirgan.

– Qo‘ng‘iroq qilishdi... O‘rmon sanoati xo‘jaligidan... Sizni so‘rashdi...

– Nahotki?

Pavel stol yoniga o‘tirdi. Lampa qalpog‘i ostidan tushib turgan shu’lada Katya Pavelning ma’yus ko‘z qovoqlari ostidan ko‘zlari betinch porlab turganini sezib qoldi. Pavel ko‘zini yashirishga urinardi. Katya uning ko‘zlarini ko‘tarilishini hayajonlanib kutib o‘tirdi.

– Sening yoshingda, – deya xotirjam gap boshladi Pavel, – men institutdan taygaga amaliyotga borganman... Go‘zal joylar...

«Nimaga shama qilyapti?»

– Go‘zal va yovvoyi... Lekin bu go‘zallikni bir narsa buzib turadi – mayda chivinlar, hasharotlar. Odatiy hayotda ham shunday. Hamma narsa yaxshiday tuyuladi-yu, ana shunaqa mayda manzaralar, chivinlar yeb tashlashadi, chidab bo‘lmaydigan darajada...

«Nimaga shama qilyapti?»...

– Nima uchun indamaysan?

Katya indamasdi, nima ham derdi?

– Tushunarli... Nima deyishim mumkin? Sen katta hayotga endi qadam qo‘yyapsan.

Pavel Sergeyevich gapirar ekan, ko‘zlarini ko‘tarmas, faqat qiyalab qarab qo‘yardi.

– Tushunmayapman, – dovdirab iqror bo‘ldi Katya.

Pavel ko‘zlarini katta ochdi, uning ko‘z qorachiqlari kengayib ketgan edi. U qo‘lini Katyaning qaltirab turgan qo‘llari ustiga qat’iylik bilan qo‘yib, stolga bosdi.

– Men xotinimni sevmay qo‘ydim... Menga og‘ir. Gangib qoldim... Nima uchun bunday deyayotganimni endi tushungandirsan?

O-o! Bu Sasha emas... Hozir uni vahima va qo‘rquv bosdi, ammo eng shodumon onni vahimaga almashtirib bo‘lmasdi. Nari tur desinmi, e’tiroz bildirsinmi... Hech ham... Qimirlashga holi yo‘q. Mana, u sening oldingda. Talab qil.

12

Ilgari bironta xo‘jalikda buzoq tug‘ilsa, o‘sha uyda bayram qilishardi. Qo‘shnilar: «Ko‘payish bilan...» deb tabriklashar edi.

Korshunovo tumanida ana shunday hodisa ro‘y berdi. Har bir kolxozga zotli mol qo‘shilyapti. Hamma shod bo‘lishi kerak, boisi bu kelajak uchun boylik-ku! Lekin ba’zi kolxozlarda odamlar ko‘rinishdan oddiy narsadek tuyulsa ham bir holatni sezib qolishdi: yangi barra o‘tga qo‘yib yuborilgan o‘tloq va yaylovlarda (maysa ancha ko‘tarilib, quyuqlashgandi) zotli sigirlar boshlarini quyi egib, atrofga och ko‘zlari bilan alanglashar, og‘zilariga cho‘p ham olmay ma’yus ma’rashar edi.

Ular og‘ilxonada, chetdan keltirilgan somon, endi to‘yina boshlagan boshoq va silos yeb o‘rganishgan.

Ko‘pchilik kolxozlarda qishdayoq yem-xashak tugab, qolganlarini esa dalada ishlayotgan otlar yeb bitirgan (ularni, dalada ishlayotgan otlarni somon bilan ushlab turib bo‘lmaydi), o‘t-maysalar yetishguncha arpapoya berib turishdi, javdari bug‘doyni maydalab, bug‘lantirishdi. Xullas, yangi o‘t chiqquncha hisob-kitobni to‘g‘rilab qo‘yishgandi. Bu birinchi marta emas.

Mana endi kolxozchilarda mol uchun yem-xashak haqida unchalik bosh qotirib o‘tirishmaydigan paytda zotli sigirlarni boqayotgan molboqarlar ko‘z yoshi qilib idora eshiklarini taqillata boshladilar. «Xudo haqi, bizni shu mollardan xoli qiling. Qo‘limizda beryapmiz, teskari o‘girilib olishadi... o‘lib qolsa ham ajab emas...»

Tuman qo‘mitasi, tuman ijroqo‘mi viloyatdagi turli tashkilotlarga telefon qilib, qayerda xashak va konsentratlar bor, kreditga yoki o‘z hisobimizga bo‘lsa ham olamiz deb surishtirishdi. Lekin viloyatga zotli qoramol ko‘p olib kelingani bois, bunga o‘xshash qo‘ng‘iroqlar hamma yoqdan qilinardi. Mashina-traktor stansiyasi va tuman ijroqo‘miga yangi kelgan mollarni qanday qilib boqish kerakligi haqida batafsil ko‘rsatma berilgan qog‘oz keldi, dag‘al yemdan qancha, sersuv o‘tdan qancha, tanasiga darmondori bo‘lishi uchun qizil sabzidan qancha berish kerakligi ro‘yi-rost yozilgandi. Tuman rahbarlari bu aqlli ko‘rsatmalarni o‘qishib, yuzlarni burishtirishardi.

Butun tumanda Ignat Gmizinga havasi kelmagan bironta rais yo‘q: «Silosni rosa bostirgan, endi birin-ketin chuqurlarni ochaveradi – uning tashvishi yo‘q...» Qanday qilib havas qilmaslik mumkin... Agar «go‘ngchi zot» sigirlardan birontasi o‘lsa ham u yoqqa chaqir, bu yoqqa chaqir, sababini so‘rab-surishtirishadi, zotdor sigirlardan birontasi o‘lib qolsa bormi – suddan qochib qutulolmaysan.

Xudo ko‘rsatmasin, kimning boshiga bu tashvish birinchi bo‘lib tushib qolsa hamma kaltak o‘shaning boshida sinadi.

Kolxoz raislari qo‘llaridan kelganini qildilar. Nima bo‘lsa – suli bo‘lsa suli, arpa bo‘lsa arpa yozdirib olaverdilar, zotli molni har ehtimolga qarshi bekitib qo‘yilgan bahorgi bug‘doy bilan ham boqaverdilar.

Ammo omadsizlikni chetlab o‘tish mushkul. Ilk xabar Fedosiy Murgin kolxozidan keldi. Molboqar Praskovya Klikushina suli yozdirib olib, ikki kun och yotgan Karamel laqabli sigirni to‘yg‘azib,

ortiqcha ko'ngilchanlik qilibmi yoki parishonxotirlik qilibmi suv bilan to'ydirgan. Yarim kechada uxlab yotgan Fedosiy Murgin derazasini sindirgudek taqillatishdi. Karamel sanchiqdan o'layotgandi. Shu zahoti mol shifokoriga ot yuborishdi. Shifokor erta tongda kelib: «Kech bo'libdi», – dedi-da, akt tuzib ketib qoldi...

13

Jazoni kutishdan og'irrog'i bormi.

Fedosiy Murgin byurodan to'rt kun ilgari o'zini oldirib, yuzlari sarg'ayib ketdi. U o'z aybini tan olmasdi. Praskovya xatolikka yo'l qo'ydi. Haqiqatan ham bu xotinning aqli kam – umr bo'yi dehqonchilik qiladi-yu, oddiy narsaga aqli ishlamaydi. Sut fermasi mudiri Kunitsin ham aybdor – qaramagan; zootexnik Rubashkin esa o'z vaqtida ogohlantirmagan...

Fedosiy Murgin o'zini Praskovya va Kunitsin orqali oqlamoqchi emasdi. Hamma aybni eri frontda halok bo'lgan, ko'p bolalik jon, o'qimagan xotinga ag'darish ablahlik bo'ladi. Ammo ursang ur, deb o'zini jonfido qilish ham yaramaydi.

Mansurov esa birgina orzusi bor – boshqalarga ibrat bo'lsin uchun ta'zirini berish. Praskovya esa ta'zirini berish uchun juda kichik odam. Raisning hamma balo-qazolariga duchor bo'lishi odat bo'lib qolgan.

«Bolshevik» kolxozida (hozir «Mehnatkash» kolxoziga qo'shilib ketgan) omborchi ekish paytida saralangan don o'rniga chiriganini berib yuborgani yodida. Yuz gektar yerda hosil unmadi. Kim javobgar? Rais Timofey Ivashko.

Chapayev kolxozida esa ming sentner sabzavot chirib ketdi. Aybdorlar boshqa odamlar – shartnoma tuzishgan ishchi ta'minot bo'limi boshliqlari edi. Bu ablahlar bironta mashina jo'natishmadi, Aleksey Semyonovich Poprigunsev esa sud oldida javob berdi...

Yo'q, Fedosiy Savelyich, sen tajribali odamsan. Yoqangdan olishadi. Senga faqat bir narsa – oppoq soching-u, yigirma yildan ortiq benuqson raislik qilganing yordam berishi mumkin!

Fedosiy tunlari yaxshi uxlay olmas, o'tmishini batafsil yodiga olardi. Oltmish beshni urib qo'yibdi, qanchadan qancha suv oqib

ketdi, nimalarni ko'rmadi deysiz... To'plagan tajribasiga qaraganda har qanday qiyinchilikni oldindan sezishi kerak edi-yu, lekin qancha bilsang shuncha kam deganlaridek...'

Murgin o'rnidan og'ir to'lganib chiqdi, hayot uni nimalarga o'rgatganini esladi. Bunchalik olis va murakkab yo'l...

Otasi duradgor hamda pechkachi bo'lgan – «qo'li tilla-yu, aqli noqis». Yaxshi turmush qursa bo'lardi, biroq ichkilikka mukkasidan ketgandi. Ikki oyda bir marta bor-budini ichib tugatardi. Oldindan qiladigan ishining ham pulini yo'q qilar, so'ng garmonni bir qulog'idan ushlab olib maqtanchoqlik qilib: «Qani, kim Savelka Murginga qarshi!» deb qichqirardi. Troitsa bayramida mast holida o'ldirib ketishdi.

O'zidan keyin yangidan yashiraman deb tomi ochilgan, taxtasini ichib qo'yib, qolib ketgan kulba-yu, Privajensk o'tzoridan narida bir parcha yer qoldirib ketdi.

Fedosiy otasiga o'xshamadi. Yozda birovning otida yer haydab dalada qolib ketardi. Qishda esa atrofdagi qishloqlarni aylanib pechka tuzatar, biroz pul topgan paytlari ham bo'lar, ammo o'ziga kiyimkechak sotib olmay ot olishga yig'ib qo'yardi. O'ziga o'zi xo'jayin bo'lish niyati bor edi. «Otlik bo'lib olsam, osonroq bo'ladi...» Mana endi qarigan chog'da o'zini qo'yib yubordi – eni bo'yidan keng, yoshligida hamma yog'i pay, sahroda o'sadigan saksovuldek cho'tir, tinmasdi. To'rt soatdan ko'p uxlagan tuni oz edi, bayram kunlari ham tinim bilmasdi.

Va xo'jayin bo'ldi.

Tongda hovliga chiqar, uni tuyog'i bilan taxta devorni depsiyotgan ot kutib turardi, qari, qorni katta, ozg'in bo'lsa-da, o'ziniki edi! Og'ilxonada o'z sigiri kavshanardi! O'z qo'ylari pichan titkilashadi! Xo'jayin! Moli bor! Biroq yengil bo'lmadi: «Bu kam! Ko'proq kerak!»

Na o'zini, na xotinini ayamadi. Xotini ikki o'g'il – Pashka va Styopkani tug'ib berdi, yana uchtasi o'lik tug'ildi. Xotini bolalarga, xo'jalikka qarar, eriga yordam berishardi. «Qimirla, onasi! So'rida cho'zilib yotish uchun boy emasmiz!» Xotin boyoqish tinim bilmay ishladi, ana shunday yurib-turib o'ldi-ketdi – pechka ustiga bir yarim

chelak suv ketadigan cho‘yanda atalani qo‘yaman deb yiqilib tushdi... Fedosiy boshqasiga uylandi.

O‘g‘illari katta bo‘ldi, Fedosiy ularga ham osilib oldi. Mol-hol ko‘paydi, ikki otining yag‘rini shiftga tegay deydi, yana toychog‘i, to‘rt sigiri, bir qo‘ra qo‘yi bor... Yana... «Kam! Ko‘proq kerak!»

Avval bir baxtsizlik ro‘y berdi – o‘g‘illari o‘z otalarining zindonidan qochib ketishdi. Qishda shaharga bir mavsumga ishchi bo‘lib ketishdi-da, qaytib kelishmadi.

Uni o‘rtahol dehqon deb hisoblashar edi. Hovlisida birovni ishlatishni yoqtirmas, hammasini o‘zi qilardi.

Qishloqdagilar uni yaxshi xush ko‘rishmas, Fedosiy ham hamqishloqlariga nisbatan ortiqcha izzat-ikromli munosabatda emasdi. Boylarga yomon ko‘z bilan qarar, qashshoqlardan nafratlanardi. U faqat bir narsaga amal qilardi: «Dunyo keng bo‘lsa-da, yashashga torlik qiladi. Boshqalardan qancha uzoqda bo‘lsang, qulog‘ing shuncha tinch». Ayniqsa, o‘z o‘g‘illari qaytib kelib (ikkalasi ham harbiy xizmatni tugatib kelishgandi), dehqonlarni bir hayot, bir oila, bir kolxozga birlashtirishga chaqirayotganlari unga bema’ni, ahmoqona, xavfli ish bo‘lib ko‘rindi.

Shubino-pogostalik mushtumzo‘r Lavrushka Jilin Fedosiyning azaliy dushmani edi. Bir paytlar Fedosiy sotib olmoqchi bo‘lgan tegirmonni Lavrushka ilib ketgandi; Fedosiy Rjavinka daryosi bo‘yidagi ko‘zlab qo‘ygan o‘tloqni Lavrushka undan oldin olib qo‘ydi; Fedosiy egar-jabduq yasashni o‘ylab, teri sotib oldi, Yangi-Ramenyedan chol Danilkani yordamga chaqirdi, lekin bu safar ham Lavrushka unga xalaqit berdi – egar-jabduq ustaxonasini tuzatib, Danilkani ham o‘ziga og‘dirib oldi. Fedosiy charmlari chirib ketayotganini ko‘rib ich etini kalamush kemirdi. Jilinga nisbatan esa u kuchsizlik qilardi. Ular bir-birlariga qarashmasdi ham, salom-alik ham yo‘q edi, kolxoz boshlandi-yu, birlashib qolishdi. Fedosiy Lavrushka huzurida hech tap tortmay o‘z o‘g‘illarini koyirdi.

Bir kuni erta bilan Ostanovo qishloq kengashi eshigi oldida Fedosiyning katta o‘g‘li Stepanning jasadini topishmaganda ish qanday tus olishi noma’lum edi. Stepanni boshining orqasidan urib majaqlashgan edi.

Beliga bolta qistirib Lavrushkani axtardi-yu, topolmadi, qochib ketibdi, haromi...

Fedosiy o'sha kuni birinchi marta o'ziga o'zi savol berdi: bu dunyoda nima uchun yashayapti?

Nima uchun?

Ba'zi odamlar hayotni shunchaki sevishadi. Ertalabki shabnamni, momaqaldiroq oldidan xavotirli sukunatni, bir yoqdan quyosh nur sochib, narigi yoqdan yog'ib turgan yomg'irni, nam havodagi kamalakni sevishadi. Bularni beg'araz, faqat go'zalligi, hayotning bir bo'lagi bo'lgani uchungina sevishadi.

Fedosiy bunday hayotni bilmasdi va bilishni istamasdi ham.

Uning uchun maysa ustidagi shabnam kunning ochiq bo'lishidan dalolat, demak, u o't o'rib olishga ulguradi.

Hamma yoqqa jimlik cho'ksa, momaqaldiroq bo'ladi deyaver, yomon bo'ladi, Xudo ko'rsatmasin, do'l boshoqlarni urib ketadi.

Quyosh charaqlab turganda sel yog'ib o'tsa juda soz bo'ladi! Don quriydi, yerning namligi oshadi.

Kamalak esa – bu puch narsa, bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Turaversin, hech kimga xalaqit bermayapti.

Fedosiy hayotni hasad bilan sevardi: «Bu kam! Ko'proq kerak!» degan so'zlar unga tinchlik bermasdi.

U xo'jalik uchun yashardi.

Stepan vafot etgandan so'ng Fedosiy o'ziga o'zi savol berdi: bu xo'jalik unga nima uchun kerak? To'q bo'lishi uchunmi? Yo'q. Bir qoshiq sho'rva bilan bir burda nonni u katta xo'jaliksiz ham topardi, tansiq ovqatlarga esa u befarq qaraydi.

O'g'illari uchunmi? Yo'q. Xuddi shu xo'jalik deb o'g'illari undan voz kechdilar.

Demak, hech narsa uchun ekan-da! Kelajak hayoti unga bo'mbo'sh ko'rindi, oyoqni uzatib narigi dunyoga ravona bo'lishdan boshqa chora qolmadi.

Lekin Fedosiy o'lmadi, hayot boshqacha tus oldi...

U necha o'n yillar davomida yaqinlari va o'zini azoblab yiqqan boyligini kolxozga topshirdi. Hammasini – otlar, sigir-qo'ylarini topshirdi. Hayoti tugab borayotganidan keyin ayab o'tirishdan nima foyda?

O‘sha vaqtlarda o‘g‘li Pashka kolxoz raisiga aylandi. U endi hazilakam odam bo‘lgani yo‘q – firqa bo‘lsa ham, hali-hali o‘sha mishiqi bolaligicha qolgandi. Har safar otasining oldiga yugurib kelib: «Ota, buni qanday qilish kerak? Maslahat bering», – deb yordam so‘rardi. Fedosiy unga ko‘maklashar, odamlarga eshittirmay jerkib qo‘yardi: «Hokimiyatimiz bema’ni ekan, shunday ishni yosh bolalarga topshiribdi...» O‘zi esa oddiy kolxozchi bo‘lib ishladi. Shuncha yil uyda siqilib ishlaganidan keyin kolxoz ishi unga g‘alati tuyuldi. Ishda qiynalmasdi-yu, biroq jon berib ishlamas, zerikib qolmaslik uchungina urinardi.

Umumiy majlisda hammaning ko‘zi oldida uni qizil dasturxon yopilgan stol yoniga chiqarib mukofot berishgani esida. Mukofot arzimagan bir ko‘ylaklik chit bo‘lsa ham, Fedosiy ruhan juda siqildi. Avvallari qancha ko‘p ishlasa, shuncha ko‘p dakki yerdi: «Unga kamlik qiladi, dunyosi oshib-toshib yotsa ham! Yulg‘ich!» – deyishardi. Endi bo‘lsa: «Rahmat senga, Fedosiy Savelyich. Kam bo‘lsada, ko‘pdek ko‘rib, shu bir parcha chitni ol!» – deyishdi. Eh! Odamlar!..

Otasining nazoratlari, maslahatlari bilan Pashka xo‘jalik ishlarini tushunib qolgan edi-yu, o‘qishga ketaman deb qoldi. Majlisda tasodifan Fedosiyni rais qilib ko‘rsatishdi. «Sen ishning ko‘zini biladigan odamsan, boshboshdoqlikka yo‘l qo‘ymaysan, o‘zing uchun qanday xo‘jalik yaratganingni bilamiz, endi xalq uchun ham ishla...»

Bu yigirma bir yil avval bo‘lgan.

O‘tmish xuddi eski yara kabi unut bo‘lganday edi... Urush paytida xotinlar bilan frontga ikki ming sentnerdan bug‘doy, qanchadan qancha yog‘, go‘sht bergan!.. Kolxoz esa faqat ikki kichik-kichik qishloqchadan iborat edi.

Ikkala qishloq ahil-inoq yashashar, qo‘shni kolxozdagilarni esa suyishmasdi. Atrofdagi kolxozlarning ahvoli achinarli edi, ko‘p qarz so‘rashardi, ularning o‘rniga front fondiga ham to‘lashga to‘g‘ri kelardi... Murginning kolxozidagilar traktor va kombaynlarni unchalik yoqtirishmasdi, ularga naqd pul to‘lash kerak edi-da. Ot esa boshqa gap: otda nima ish qilmagin, foydasi cho‘ntagingda qolaveradi.

Qabrga qadar ilm egalla, deydilar. Yomon ishlagan ekansan. Butun xo'jalik sening bo'yningda, rais bo'lganingdan keyin butun kolxozning tirgagi bo'lishing kerak. Kolxozing ikkita qishloqdan iborat bo'lib, uch yuz gektar yering bor edi, qanday ishlashga aqling yetardi. Kolxozga yana yer qo'shib berishdi, endi uch yuz gektar emas, arava bilan bir kunda ham aylanib chiqib bo'lmaydigan darajada kengaydi. Endi to'g'ri yo'lda ham qoqiladigan bo'lib qolding.

Faqat o'z aqling bilan yashasang yetmas ekan, odamlarni ham o'ylashga majbur etish kerak. Faqat birgina Alyoshin degan agronom bor – tilla yigit, boshqalar raisning og'ziga qarab turishadi. Shuning uchun ham yem-xashak tanqis, shu sababli ko'ngilsizliklar ro'y beradi...

Xudo xohlasa, ana shu tashvishdan qutulib olsa bo'ldi, chorvachilarni o'qishga yuboradi, o'z yigitlaridan eng yaxshilarini topib traktorchi qiladi, o'z aqllaring bilan, o'ylab ish qilinglar, mening buyrug'imni kutib o'tirmanglar, deb o'ylashga majbur etadi. Faqat ana shu tashvish uni joyidan qo'zg'atmasa bo'lgani. Qo'zg'atsa bormi – Fedosiy Murgin o'ldi, boshqatdan ko'tariladigan yoshda emas, sekin tadorigini ko'rsa ham bo'laveradi. Qimirlatmasa, chollar nimalarga qodirligini hali ko'rsatib qo'yadi. Ha, ko'rsatib qo'yadi!

14

Ikkita kichikkina xona. Birining derazalari taxta yo'lakli ko'chaga qaragan, deraza orqasidan gohida o'tib turuvchi korshunovolik yo'lovchilarning furajka va kamzullari ko'rinadi. Yotoqxonaning yakka derazasi tomorqadagi baland chetan butasiga qaraydi. Shuning uchun eski urfdagi yashikli javon, oldida atir-upalari qo'yilgan oyna, yostiqlari ustiga to'r tashlangan ikki kishilik karavotli bu xona kunduz kunlari, hatto hozir chetan barglari hali yaxshi ochilmaganida ham salqin bo'lib turadi. Kechqurun va tunlari derazadan tinchlantiruvchi shitirlash eshitilib turadi...

Oshxonada ikkita stol bor: biri ovqatlanadigan stol – havorang chiroq ostiga qo'yilgan bo'lib, ustiga doim toza dasturxon to'shalgan, ikkinchisi yozuv stoli – kichkina, ustiga kitoblar jamlangan. Anna ana shu stolda o'quvchilarning daftarlarini tekshiradi.

Pavel bo'lsa yoniga, stulga kuldonni qo'yib olib, divanda yotib olib gazeta o'qishni yaxshi ko'radi.

Anna va Pavel ana shu to'rt devor ichida, ana shu tanish anjomlar orasida to'rt yilga yaqin birga yashab kelishdi. Qo'ni-qo'shnilarning havasini ham keltirmay, ta'na-dashnomlarini ham eshitmay oddiygina hayot kechirib kelishdi. Korshunovolik boriga qanoat qiluvchi ziyolilar, o'qituvchilar, tuman xodimlari kabi yashashdi.

Anna shu to'rt yil davomida o'z turmushidan ko'ngli to'q edi: uyini toza va shinam saqlash bo'sh paytlarida qo'lidan keladi, kechqurunlari kitob o'qiydi, hech narsada yetishmovchiligi yo'q edi, bundan ortiq yana nima kerak? Farzandi yo'qligiga achinardi-yu, lekin o'quvchilarga ko'p vaqt ajratganidan shodlanardi... O'quvchilari bo'lmaganda to'rt devor ichidagi hayot joniga tegardi, quvonchi ham, azobi ham o'quvchilar bilan edi, kuni bilan charchasa, demak, ozoda, shinam uyida maza qilib dam oladi. Mehnat qil, me'yorida charcha, tinchgina damingni ol, o'zingni foydali odam deb his qil, bundan boshqa odamga hech narsa lozim emas, faqat qarib-chiriguningga qadar shunday bo'lsa bas. Ehtimol, hayotning eng oddiy, biroq chinakam donishmandligi shundadir.

Pavel hayotning bunday donoligidan mahrum. Omadi qanchalik yurishmasin, qancha ko'p yutuqqa erishmasin, unda qandaydir tushunib bo'lmas vahima, begona jonsaraklik sezilib turardi.

Oldinlari bu vahima Annani ham, ularning uyini ham chetlab o'tar, mehmonga kelib turadigan Ignat bilan talashib-tortishardi. Pavel ba'zida ishdan xomush qaytar, ammo kamzulini yechib, eski galifesini, oyog'iga shippagini kiyishi bilan bahri-dili ochilib ketardi. U ichki ko'ylakda, yumshoq chehra bilan havorang chiroq ostida shoshilmasdan choy ichar, so'ng divanga cho'zilib gazeta-jurnal o'qir, gohida tashqaridagi shamolga, derazaga urilayotgan yomg'irga quloq tutar va:

– Havo juda aynidi-da... rosa yog'adi, shekilli... – derdi.

Ana shu yo'l-yo'lakay aytilgan gapda ruhiy osoyishtalik, baxtiyor beparvolik sezilib turardi. Havo aynidimi, aynimadimi, baribir, uning uyi issiq, toza va quruq, baribir oqlangan shiftga chiroqning havorang soyasi tushib turadi, stol tagida esa mushuk dasturxon popugini tortqilab o'ynaydi. Tinchlik mustahkam, uy mustahkam,

kichkina bo'lsa ham ikki kishidan tashkil topgan oila qo'rg'oni mustahkam edi!

Mana, Pavel uyidan erta sahar ketib, qorong'ida qaytadigan, ishdan qanday kelsa kastumdami-yo'qmi, hatto komandirovkadan paxtali shimda qaytsa ham shunday o'tirib xuddi bir soatga kirib ketadigan begonalar kabi o'tirib choy ichadigan bo'lib qoldi. Eski, uyga kiyadigan galifesi shkafning pastki tortmasida bekor yotar, divan tagidagi shippagini esa chang bosib ketgandi. Ilgarilari ozoda yurgan Pavel endi etigini artmay, yiltiratib moylagan polda iz qoldirib, to'ppa-to'g'ri yotoqxonaga bostirib borardi. Endi tabiatga quloq tutishga ham, shinamlikni baholashga ham vaqti yo'q...

Anna tushunardi – ishi ko'p! Tuman qo'mitasi kotibi bo'lmoq hazilakam ish emas, butun tuman unga ishonib topshirilgan. Anna bunga tushunar, gina-kuduratni xayoliga ham keltirmasdi. Shunday bo'lsa-da Pavelning uyni mensimasligi bahonasida Annaga bo'lgan e'tiborsizligi ham sezilib turardi. Axir polni yaltiratgan Anna-ku, uning harakati bilan uy ozoda va shinam bo'lgan, albatta, havorang soya, did bilan yasatilgan stol Annani xursand qilgani kabi Pavelni ham shodlantirishini xohlardi. Anna yaratgan kichik baxtga Pavelning e'tiborsizlik bilan qarashi oraga sovuqchilik tushganligini bildirib turardi. Oiladagi rishtalar biroz uzildi, qaysidir holatlarda alohida yashayotgandek bo'lishdi.

Yugur-yugurlar tugaydi, Pavelning ishi o'z me'yorida qaytadi. So'ng hamma narsa o'z o'rniga tushadi. Hayotda nimalar bo'lmaydi deysiz. Vaqtincha tushunmovchiliklar bo'lib turadi. Anna shunga ishonar, shu sababli bexavotir edi.

Lekin kunlar o'tishi bilan Pavel asta-sekin uyidan, shu bilan birga Annadan ham uzoqlasha boshladi. Avval kastumini yechib, eski galifesini kiyishga vaqti bo'lmay, eshikdan kirishi bilan: «Annushka, qornim och, yegulik biron narsang bormi...» desa, endi bu gap qisqarib: «Annushka, tamaddi...» deydigan bo'ldi. Nihoyat, eshikdan kirar ekan, qisqa qilib: «Ovqat!» deya boshladi. Shapkasini shoshilib ilgakka ilib qo'yarkan, stol oldiga kelib o'tirar va «Ovqat!» derdi, xotinimi, boshqasimi kim bo'lishidan qat'i nazar unga ovqat keltirsa bas.

Anna yana uni oqlardi: ishi ko'payib ketgan, hamma narsani esidan chiqargan, g'alvasi ko'p... Biroz muddat o'tsin, ishi yengillashadi, oldingiday bo'lib ketadi...

U o'zini shu zaylda aprel oyining bir yakshanbasigacha aldab keldi.

Pavel, odatda, yakshanba kuni ham ishda bo'lardi. Gohida kolxozlarga borar, ba'zida oddiy ish kunidagiday tuman qo'mitasida o'tirardi. Lekin bu yakshanba u uyida qoldi.

Bahor kelgan edi. Yo'llar loy, taxta yo'lkani esa ko'kargan suv bosib ketgandi, quyosh yoqimli isitardi. Pavel uyqudan uyg'onganida kayfiyati yaxshi edi: yuvinayotib xursand tabassum qilib qo'ydi, zinapoyada etigini tozalar ekan, hushtak ham chaldi. Yuvindi, toza etigini kiydi, choy ichdi, gazeta o'qidi-da, deraza oldida yo'lovchilarga biroz tikilib turdi. Anna birdan o'rtalarida suhbatga o'rin qolmaganini dahshat bilan payqadi. U miyasiga birinchi kelganni aytdi: «Bahorga birozgina urug'lik kartoshka olib qo'yish kerak, senga komandirovkalarda yuraverib eskirib ketgani uchun yangi palto tiktirish kerak, charm kamzulda u yoq-bu yoqqa borish noqulay bo'ladi», – dedi. Pavel lo'nda javob berib, derazaga qarab turib indamay rozi bo'ldi, nihoyat o'rnidan turdi-da:

– Toza havoga chiqib kelay, – dedi.

U chiqib ketdi, Anna o'zini bir daqiqa yengil his etdi, har holda oldida dikkayib turmaydi-yu, biroq shu onda o'ziga kelib, bu qanday gap, axir begona emasmiz-ku, deya savol berdi... Shu paytgacha asliga qaytib qolar deb ishonib yurardi. Lekin kun o'tishi bilan ular bir-birlaridan uzoqlashishyapti. Yakka-yu yagona umidi, xaloskori bo'lgan vaqt xoinlik qilar, ularni yaqinlashtirish o'rniga bir-biridan uzoqlashtirardi.

Chindan ham Pavelning ko'chada qiladigan ishi bo'lmagani bois barvaqt uyga qaytdi. Qaytmagani yaxshi edi... U har doimgidek divanga yotdi, kuldonli stulni oldiga surib qo'ydi-da, qo'liga kitob oldi... Hamma narsa burungidek, Pavel yotib kitob o'qir, Anna o'z stolida daftar tekshirardi, ammo rohat, xotirjamlik yo'q edi. Pavel indamay kitob varaqlar, Annaning oldidagi stol ustidagi budilnik esa shoshilinch chiqillar edi. Anna soatning mayin chiqillashiga quloq tutar ekan, ana shu oddiy budilnikning yashirin g'ildiragi har bir

tishi, har bir qadami bilan Pavelni undan sabot bilan shafqatsiz uzoqlashtirayotgandek tuyuldi. Daqiqa sayin gap boshlash qiyinlashib boryapti. Kech bo'lmasdan biror chorasini ko'rish kerak, tushuntirish kerak... Ammo qanday qilib?..

Pavelning tepasiga borib, uning yoniga o'tirib, nima haqda o'ylayapti, qanday mushkuli bor, so'rab bilsinmi? Aytsinmi? U bo'lsa hech narsa tushunmay yelkasini qisib qo'yadi, axir tashqi ko'rinishdan hech narsa o'zgarmagan-da! Uni toshbag'ir, xotining borligini unutyapsan, deb urushsa-chi... U, ish ezib qo'yyapti, yukim og'ir, ayollarning jumboqli va nozik qalbiga quloq solishga vaqtim yo'q, deydi.

Ana shu og'ir yakshanbadan so'ng Pavel uyiga tush paytida va tunda keladigan bo'ldi. Anna o'zini ko'proq oyna oldida ko'rar, ko'zlari atrofida ajin ko'payganidan siqilardi. Hatto po'rim mayor Mansurov Annaga xushtorlik qilib yurganida ham hozirdagidek rashk va havas bilan unga yoqish istagi bo'lmagandi. U endi o'ziga oro berib kiyinadigan bo'ldi. Yangi ko'ylak va ikkita kofta sotib oldi. Ammo u bu ishi bema'ni, yosh, soddadil qizning hiylasi ekanini bilardi. Kunlardan birida yangi ko'ylak kiyganida, Anna Pavelning yuzida hazar qilish belgisini payqab qoldi...

Vaziyatni qanday o'nglash mumkin! U ojiz edi!

Dunyoda indamay hazar qilishdan ham og'irrog'i bo'lmaydi. To'g'ridan to'g'ri so'kib, xo'rlab tahqirlash ham odamga bu qadar og'ir botmaydi. Bularga qarshi jahli chiqib to's-to'polon ko'tarish mumkin. Indamay hazar qilsa-chi, hech narsaning iloji yo'q. Shallaqi xotin bo'lmay desang, alamingni ichingga yutasan.

Anna chidar edi.

Yaqindagina, bundan bir necha kun avval Pavel uyga juda ham kech qaytdi. Anna eshikni ochar ekan, Pavel odatdagiday dadil kirib kelmaganini, shapkasini siltab ilmoqqa ilmay, yuzini yashirib, devordagi mixni uzoq qidirib ilganini, so'ng Annaga tegib ketmay deb uning yonidan asta yoni bilan o'tganini payqab qoldi. Xonada:

– Yot, yotaqol, nega turibsan? – dedi.

Anna uning ovozida qandaydir gunoh ish qilgan odamning ohangini, xavotir va mulozamat qorishmasini sezdi.

Gumoni uning ichini kuydirdi. Lekin Anna shu kunni anchadan beri kutardi, ahvol shu zaylda ketaversa bir kuni shunday bo'lishi aniq.

– Nega turibsan? Yotsang-chi, – dedi Pavel alam bilan.

– Pavel... – dedi sekingina Anna, – sen boshqa ayolni sevib qoldingmi?

Soat birdan keyin Korshunovo elektr stansiyasi ishini tugatgani sababli chiroq yo'q edi. Ammo Anna qorong'ilikda Pavelning sapchib tushganini sezdi.

– Nima deyapsan? Aqldan ozdingmi?

– Mayli. Men xato qildim... Kechir... Unday bo'lsa boshqa narsani gaplashib olishimiz kerak...

– Yana nimani?... Kech bo'ldi-ku. Hozir vaqti emas.

– Yo'q, vaqti! Nima bo'ldi o'zi, aytsang-chi? Nima uchun men senga begona bo'lib qoldim? Nima uchun soat sayin, daqiqa sayin mensimasliklaringni ko'tarib yurishim kerak? Nima uchun?

– Rostini aytsam, jinni bo'lib qolibsan. Nima xohlayotganingni tushunmayapman?

– Yolg'on so'zlama! Juda yaxshi tushunib turibsan! Ha, juda yaxshi!

– Baqirma!

– Juda uzoq jim yurdim. Boshqa chidayolmayman! Bas!.. Mening o'z insoniy qadr-qimmatim bor. Sen buni unutding...

– Mening bunday ahmoqona gaplarni eshitishga sabrim yo'q, ayniqsa, hozir, – dedi Pavel ovozini ko'tarib.

– Yo'q, eshitasan! Sen javob berasan! Indamay yurish yetar! – Anna birinchi bo'lib baqirishni boshladi.

Ikkalasi baqirib-chaqirishdi, bir-birlarining yuziga solishdi, Anna kaftlariga boshini qo'yib yig'ladi. Bu ularning hayotida birinchi, keyin o'zingga o'zing jirkanib qaraydigan eng bema'ni janjallari edi.

Pavel divanga yotdi. U ertalab qovog'i osig'liq, uyquga to'ymay turdi, shoshib-pishib bir stakan choy ichdi. Lekin shu choyni Anna tayyorlaganidan vijdon azobiga tushdi. Arzimas narsa bo'lsa-da, bu tobelik, Annaning iltifoti edi-da!

Kechqurunlari, ayniqsa, qiyin bo'ladi. Deraza ortida tekis yo'l bo'ylab kechikib qolgan mashinalar guvillaydi, yoshlar chaqchaq-

lashib, o‘ynab-kulishib o‘tadi; qo‘shnilari, maktab ilmiy mudiri Nikita Petrovichlarnikiga o‘zlarini jiddiy tutadigan er-xotin o‘qituvchi Krupyanovlar kelishgandi. Ular zinada oyoqlarini artishar ekan, mulozamat bilan so‘rashdi:

– Agniya Fyodorovnaning sog‘lig‘i yaxshimi?

– Rahmat, yaxshi... Tanechka qalay?

– Ko‘kyo‘tal bo‘lib qoldi.

Anna ikki xonada bir o‘zi edi, atrof jimjit, faqat yotoqxonadan hovlidagi chetanning shitirlashi eshitilib turardi. Kutma, hech kim kelmaydi. Keyingi paytlarda hatto Ignat ham xabar olmaydigan bo‘lib qoldi. Bu yaxshilikka bo‘lsa kerak... Baxtsizlik sirini ochish uchun shikoyat qilgisi kelib qoladi. Nima zarurati bor? Bunday ishda hech kim yordamga kelolmaydi. Oiladagi sirni uydan tashqariga olib chiqib bo‘lmaydi. Katya kirib-chiqib turardi. Hozir uning vaqti yo‘q, turmushga chiqyapti... Yolg‘iz o‘zi... Pavel tuman qo‘mitasida. Rostdan ham tuman qo‘mitasidamikin? Balki o‘zganikida, o‘sha jirkanch ayolnikidadir... Ahmoqona xayollar! Haddan tashqari badgumon bo‘lib ketibdi. Pavel bugun tashvishli edi, hatto ertalab qandaydir o‘lgan sigir haqida ming‘irlab ham qo‘ydi. Ammo tumanda bunday hodisaning birinchi marta ro‘y berishimi? Bitta sigir uchun shunchami! Nega bu haqda gapirdi, ko‘pincha indamas edi-ku? Bekorgamas!.. Ko‘zlarini ham yashirayotgandi... Qayerda u? Nima qilyapti? Bunaqada jinni bo‘lib qolish hech gapmas...

Anna shartta o‘rnidan turib, junli koftasini kiydi, boshiga ro‘molini tashladi.

Yo‘q, yo‘q, u Pavel orqasidan poylab bormoqchi emas. Hali orqasidan yugurib yuradigan darajadagi pastkashlikka yetib borgani yo‘q, bormaydi ham! Qanday xohlasa, shunday yashayversin, ko‘ngli tusaganini qilaversin. Toza havoda aylanib kelish kerak, kechqurungi havo iliq ko‘rinadi...

Biroq Anna sayr qilgani daryo bo‘yiga ham, o‘rmonzorga ham bormay, markaziy ko‘cha bo‘ylab ketdi. Tuman qo‘mitasi yonidan o‘tar ekan, hatto o‘z-o‘zidan yashirib ikkinchi qavat oynalariga ko‘z tashladi. Uni qiziqtiradigan burchakdagi ikkita deraza sokin, ishchan, hatto biroz xavotirli yorishib turardi. U yerda majlis bo‘lyapti. Odam bir o‘zi qolsa xayoliga qanday ahmoqona fikrlar kelishi mumkin.

Anna xotirjam tortdi, biroz yurgach, uyiga qaytdi...

Uyda uni jimjitlik qarshi oldi, uyda hech kim yo'q, xayolini yana shubha-gumonlar egallay boshladi...

15

Byuro ikki soat davom etdi. Ikki soat mobaynida terlab, ko'zlari kirtaygan Fedosiy Murgin ta'nalar eshitdi, u goh e'tiroz bildirar, o'zini oqlar, goh o'z aybiga iqror bo'lardi. Kechirilishing uchun aybingni, mayli, qanchalik qiynalib bo'lmasin, o'z vaqtida bo'yningga olishdan osonroq yo'li yo'q. Ovozlar darhol pasayadi, ta'nadashnomlar kamayadi.

Nihoyat Mansurov dedi:

– Seni yoshing qutqarib qoldi. Sochingning oqini hurmat qildik. Boshqa odam bo'lganda gapni qisqa qilgan bo'lardik. Biroq shuni bilib qo'yki, yana shunday holat takrorlansa, sen bilan biz emas, prokuror gaplashadi!

Murgin otiga juda g'amgin holda mindi: hayfsan, buning ustiga qattiq hayfsan e'lon qilindi, ayniqsa, qariganda bu narsa juda og'ir botadi. Lekin qalbining qa'rida yengillik sezardi: bundan battari ham bo'lishi mumkin edi, unday bo'lmadi, raisligida qoldirishdi. Bu haqda o'ylashning o'zi odamni dahshatga soladi... Mayli, hayfsanmi, qattiq hayfsanmi – bo'laversin... Alam qiladi, lekin endi o'z kolxozchilarini qistovga oladi, uyalmasdan o'rganish uchun Ignat Gmizin huzuriga boradi. Bir yildan keyin qarabsizki, hayfsan ham yo'q bo'ladi – o'chirishadi. Vahima tugadi, Xudoga shukur!..

Hayfsandan ham boshqa muammo yo'q emasdi. Sigir uchun to'lash kerak, bu badbaxt esa oz emas, ko'p emas to'rt mingdan ortiq turadi. «Ortig'i» to'lanadi, so'yishga ulgurishdi... To'rt ming! Qonun bo'yicha to'rt mingni Praskovya to'lashi kerak edi. U qanday qilib to'laydi? Boshqarma vakillari bilan o'ylashib ko'rish kerak...

Fedosiy bir amallab, qiynalib aravaga chiqdi-da, so'ligan beda ustiga joylashib oladi. «Qanday kunlarga qoldik-a, hatto raisning otiga bir siqim poxol tashlab qo'yishmabdi». Ot o'z mayli bilan uyi tomon yurib ketdi.

Qishloqdan chiqqandan so‘ng Fedosiy tosh ustida taraq-turuq qilmasin deb aravani yo‘l chetidan soldi-da, o‘zi uyquga ketdi. Arava yiqilay-yiqilay deb bir yoqqa og‘ib borar, mudrab borayotgan Murgin xirillab: «Hoy! Ko‘r bo‘lgur!» – deb qo‘yar va yana uyquga ketardi.

Fedosiyni qishlog‘ida uylar atrofidagi qalin buta va daraxtlar orasidan miltillab ko‘rinayotgan chiroqlar qarshi oldi.

«Iye, – dedi rais sakrab o‘rnidan turarkan, – yarim kecha bo‘lib ketdi-ku, nega chiroqlar o‘chmagan?»

Pogrebnoye va Sutolkovo qishloqlarini ilgarigi tegirmon o‘rniga qurilgan gidroelektr stansiyasi yoritar edi. Fedosiy Savelyichning buyrug‘i bo‘yicha yoz paytlari soat o‘n birdan chiroq o‘chirilar, gidroelektr stansiyasi qulflanardi. Generatorni bekordan bekor ishlatishning nima hojati bor, kechasi chiroq kimga ham kerak, xalq barvaqtroq uyquga yotsa ertaroq ishga turadi.

«Ablah Grishka Svetushkin ko‘ngliga kelganini qilyapti, shekilli, – dedi o‘zicha Fedosiy. – Bolalar qizlar bilan o‘yin-kulgi qilish uchun uni ko‘ndirishgan. Unga hali ko‘rsatib qo‘yaman! Juda o‘yin qilgilaring kelgan bo‘lsa lampa yoqib o‘yna...»

Qorong‘ilikda eshikning ochilib yopilgani, kimdir chiqib, yugurib ketgani, xotin kishining asta, vahimali baqirgani eshitildi:

– Yo Xudo! Yo Xudo! Bu baxtsizlik qaydan keldi?

«Nahotki, yana biron nima sodir bo‘lgan bo‘lsa?» – dedi Fedosiy a’zoyi badaniga muz yugurib. Otni qamchiladi-da:

– Avdotya! Senmisan?.. Nega yig‘i-sig‘i qilyapsan? – deb qichqirdi.

– Savelyich! Chirog‘im! Yana musibat! Yana!

Fedosiy Avdotyaga yetib olib, otning jilovini tortdi.

– Dovdiramasdan, to‘g‘ri tushuntirsang-chi! Qanday falokat? Nima yuz berdi?

– Oh! Peshanamiz sho‘r ekan! Seni ham kechirishmaydi...

– Hoy, ovsar, qonimni qaynatma!

– Natalyaning qudasinikidagi-chi...

– Yana molxonadami?

– Ha, o‘sha yerda, jonim, yana o‘sha yerda...

Fedosiy boshqa surishtirib o‘tirmadi, yoshlarga o‘xshab oyoqqa tik turdi, arava g‘ichirlab ketdi, so‘ngra bor kuchi bilan otni qamchiladi.

Molxonada xira chiroqlar o‘rniga yuztalik yorug‘ chiroqlar qo‘yilgandi. Chiroqning yorqin shu’lasi molxonaning eski oqlangan taxta devorini, tozalanmagan, bosilib-yanchilgan polini yoritardi. Sigirlar, bunday chiroqqa o‘rganmaganlari uchun hammasi o‘rnidan turishgan, yig‘ilgan odamlarga termilishar va asta ma’rashar edi. Sut fermasining mudiri Trifon Kunitsin g‘azab va vahima bilan, molboqar ayollardan ham uyalmay og‘ziga kelganini qaytarmasdan so‘kinar edi.

Molxonaga kirgan Fedosiy Savelyichni ko‘rib so‘zi og‘zida chala qoldi, kayfi buzildi, chol so‘kinishlarni yoqtirmasligini bilar edi.

Raisga yo‘l berishdi. Vlata laqabli zotli sigarlardan biri yangi to‘shalgan poxol ustida dam olayotgan itga o‘xshab tumshug‘ini oldinga cho‘zib, uzala tushib yotardi. Sigir tez-tez nafas olar, biqini borib-kelar, orqa terisi silkinardi. Yig‘ilgan odamlarga boqib turgan katta ko‘zlari nam, kipriklari odamlarnikiday ho‘l edi, mayda yosh tomchilari qattiq burni ustidan oqib tushardi.

Fedosiy Savelyichning xotirjam ovoziga hamma hayron qoldi.

U qisqa qilib:

– Sulimi? – deb so‘radi.

– Suli bermagandik, Savelyich! O‘sha sulisiga ming la’nat! – deya javradi molboqar Natalya yig‘lamsirab, ko‘zidan dastro‘molini olar ekan.

Kunitsin uning so‘zini bo‘lib dedi:

– Bundan battari. Lyushnevodan keltirilgan pichan berishgan.

– Xo‘sh, xo‘sh, suli emas...

Fedosiy Savelyich chiroq yorug‘idan o‘zi shunday ham qiyiq ko‘zlari yana ham qisilib, begonalardek, rahmi kelmay kasal sigirni ko‘zdan kechira boshladi. U hech kimni urishmadi, nafratini ham yashirib o‘tirmadi. G‘azabi yo‘qligi atrofdagilarga hozir yanada dahshatliroq tuyulardi.

Kunitsin ovozini pasaytirib, bidirlagancha tushuntira boshladi:

– Suv ostida qolib ketgan g'aramdan berdik, Savelyich... Esingdami, suv xashak orasiga qumni aralashtirib yuborgandi. Sigir o'shani yegan, shekilli.

– Bilag'on-a, axir men shunday... – jahli chiqib dedi Natalya.

– Ovozingni o'chir! – deb unga po'pisa qildi Kunitsin.

– Xo'sh, xo'sh, to'g'ri... To'shashga arziydi... – deya takrorladi rais.

– Nima? – cho'chib qayta so'radi Kunitsin. Xotinlar jim qolishdi.

Kunitsin javobni kutmayoq, hovliqib gapira ketdi:

– Darrov shifokorga odam yubordik... Ivan yuk mashinasida ketdi. Yo'lda uchratmabsan-da?..

– Xo'sh, xo'sh... Yo'q, uchratmadim, yo'q...

To'satdan Fedosiy Savelyich qandaydir ojizona asoslilik ila dedi:

– Meni pichoqsiz so'ydilaring...

U chayqalib nari ketdi, borib go'ng aravaning bir chetiga oftobda sarg'aygan kastumini tarang tortib turgan keng orqasini odamlarga o'girdi. Raisning yelkalari qaltirayotganini, boshi tobora egilib borayotganini hamma ko'rib turdi.

Molboqar Natalya qo'rquvdan ro'moli bilan og'zini berkitib ingradi...

16

Yem yo'q. Bu safar hatto o't ham yordam bermayapti. Birinchi pichanga hali bor. Zotli mol orasidagi kasallik kundan kunga odatiy bo'lib boryapti. Murgin kolxozidagi o'lat, «Iskra» kolxozidagi o'lat hodisalari... Norozilar ham ko'paydi, ko'pchilik Pavel Mansurovning qilayotgan ishi to'g'rimi? – deb shubhalana boshladi.

Uning qilgan va hozir ham amalga oshirayotgan ishini hujum deyishdan boshqa iloj yo'q. Ehtimol, u shoshilgandir, balki juda katta ketib yuborgandir, lekin bo'lar ish bo'ldi, hujum paytida yarim yo'lda to'xtab bo'lmaydi. Yo'lda to'xtab qoladiganlarga nisbatan beshafqat munosabatda bo'lish kerak.

Viloyat qo'mitasidagilar hozir unga ishonishadi. Bundan bir necha kun oldin viloyat gazetasida uning nomi tashabbuskorlikda va dadillikda o'rnak sifatida tilga olindi. Agarda o'lim hodisalari shunday davom etaversa, dastavval viloyat qo'mitasi, keyin erinmagan har bir kimsa: «Maqtanchoq! Beqaror, uyatsiz, tavakkalchi!» deb malomat qilishadi. Faqat malomatning o'zi bo'lsayam mayliga... Har bir o'lgan sigir bir necha ming rubllik zarar keltiradi. Puldan tashqari zotli mol – bu boylikka umid, bu kelajakdagi baxt uchun ko'prik! Bordi-yu shu ko'prik Pavelning aybi bilan buzilsa kechirishmaydi – sud qilinishi mumkin. O'zi haqida gapirishga, hurmat qilishlariga hammani majbur etgan Pavel Mansurov o'zining yuksak, balandparvoz orzulari va keng niyatlari bilan loyga botadi.

Hujum ketyapti, u hujum oldida! Tavakkal katta, lekin orqaga qaraydigan va ikkilanadigan vaqt o'tdi. Qat'iyatsizlikka joy yo'q!

«Porloq yo'l» kolxozida ikkinchi sigir o'lganini Pavel Mansurov ertalab eshitdi, peshinda esa Fedosiy Murginning o'zi keldi.

U qaddini tik tutar, hatto bo'yi ham odatdagidan uzunroqdek, faqat yuzlari yassilashgandek ko'rinardi. Fedosiy ruxsatsiz stulga o'tirgandagina Pavel undagi o'zgarishni sezdi: yelkalari ostida, ter bosgan qovoqlari ostida shish paydo bo'lgandi.

Murgin ancha vaqt indamay turdi, zinadan chiqqani uchun hali nafasini rostlab olmagan edi. U atrofga qarab, asta, lekin ichki hayajon bilan gapini boshladi:

– Jazola, Pavel Sergeyevich. Shunday bo'lib qoldi.

Uning osilgan qovoqlari ostidagi ma'yus ko'zlari Mansurovning sovuq nigohi bilan to'qnashdi-da, chetga qaradi. Mansurov miq etmadi.

– Keyingi kunlarda, mana, o'tmishimga ham nazar tashladim, – deya asta-sekin, xuddi dor ostida turganday davom qildi Murgin, – qarasam, hayotim davomli bo'lsa-da, ma'nosiz o'tgan ekan. Eng qizig'i kolxoz... Oltmish besh yil ichida faqat ana shu yigirma yiligina...

– Qisqaroq gapir, Fedosiy Savelyich. Rahmimni keltirmoqchimisan? Umid qilma.

Murgin Mansurovga tikildi – bo‘yni cho‘ziq, yonoqlari tarang tortilgan, gapirar ekan, qisilgan lablari ahyon-ahyonda ochilardi. Fedosiy uf tortib qo‘ydi.

– Hayot haqida gapirmoqchiman, biroq hayot haqida qisqa gapirib bo‘lmaydi... Gap shu, kolxozdan boshqa mening hech narsam yo‘q. Kolxoz meni kerak qilmasa, qo‘rqmasdan aytaman – o‘lganim. Qayoqqa ham borardim?.. Oddiy kolxozchi bo‘lish uchun qarib qolganman, xotinlar qatori o‘toqqa ham kuchim yo‘q. Boshqa ish qo‘limdan kelmaydi. Oxiratni o‘ylab yotishdan boshqa chora yo‘q.

– To‘g‘ri aytasan! Bahona qilmay! Raislikdan olib tashlashadi, deb qo‘rqasanmi?

– Qo‘rqaman, Pavel Sergeyevich. O‘limday qo‘rqaman.

– Sen, agar rais o‘z o‘rnini yo‘qotishdan qattiq qo‘rqsa, biz rahmimiz kelib unga kolxozga ishonib topshirib qo‘yarmidik deb o‘ylaysanmi? Rais molboqar va chorvadorlarga mol boqishni o‘rgatmasa, vaqtida yem-xashak tayyorlamasa, o‘limga yo‘l qo‘ysa – hammasi, mayli, faqat qo‘rqmay o‘z o‘rnida o‘tiraversin ekan-da.

Pavel Sergeyevich! – og‘ir-bosiq, past bo‘yli Murgin qisiq ko‘zlari bilan ma’yus boqib o‘rnidan turdi. – Modomiki raislik lavozimidan bo‘shashdan o‘limdan battar qo‘rqar ekanman, demak, bu ish ich-ichimga singib ketgan, bunday saboqdan keyin bor kuchim bilan hammasini to‘g‘rilayman, kolxozni ko‘taraman, odamlarni ham o‘stiraman. Rahm qilishlaringni emas – ishonishlaringni so‘rayman! Inson sifatida ishoninglar!

– Inson sifatida?.. Sen o‘z ishing bilan inson degan nomga dog‘ tushirding! Kechirish, boshingni silash kerakmi? Boshqa takasaltanglar buni ko‘rib, hech narsa bo‘lmaydi, tuman qo‘mitasidagilar rahmdil odamlar, hammasini kechirishadi, deb quvonishlari uchunmi? Yo‘q, seni himoya qilib o‘tirmayman! Seni tezda raislikdan olishlarini qattiq turib talab qilaman!.. Bori shu!

Murgin qarshisida baland bo‘yli, qomati kelishgan, jingalak sochlari qoshiga tushgan, katta-katta qora ko‘zli Mansurov viqor ila turardi. Semiz Murgin noqulay ahvolda qolgan kishilarday bo‘shashib, Mansurovning ro‘parasida oppoq boshini egib turardi.

– Oltmish besh yoshga kirdim, – dedi u asta yerga qarab, – bundan keyin esa... Pavel Sergeyevich, o‘sha eng zotli sigirlar axir odamdan ham qimmat emas-ku. Butun hayotim alg‘ov-dalg‘ov bo‘lib ketadi!

– Gap sigirlarda emas! Seni kechirsam boshqalar boshga chiqib olishadi. Aybga buyurmaysan, ammo tergov organlariga murojaat qilamiz, sening merovliging haqida tuman gazetalarida yozishga majbur qilamiz... Uyalmaysanmi, o‘rtoq Murgin, bir o‘zingga qarab qo‘y, rahm-shafqat so‘rab kelibdi-ya.

Murgin tirishib o‘rnidan turdi.

– To‘g‘ri... Uyat...

Uning charm shapkasi tizzasidan yerga tushib ketdi. Murgin buni sezmay, etigi bilan bosdi.

– Uyat... – dedi yana bo‘g‘iq ovozda, yana bir narsa demoqchi edi-yu, lekin talvasaga tushib nafas yutdi-da, qo‘lini silkidi. Qaddi egilgan Murgin bo‘shashib, oyog‘ini sudrab eshikka tomon yurdi, chiqayotib yelkasi bilan eshik kesakisiga tegib ketdi.

Pavelning qalbida achinish alomati uchqunladi: «Chindan ham, bechoraga jabr bo‘ladi...» Lekin u avaylab bekilgan eshikdan keskin yuz o‘girdi. «Shalpayish kerakmas. Boshqalar, yigirma yillik raisni ishdan olib tashlaganidan keyin bizga yo‘l bo‘lsin, deb mas’uliyatni kuchliroq sezishadi».

Murginning bosilgan charm shapkasi yerda yotardi. Pavel uni olib burchakdagi seyf ustiga qo‘ydi. O‘zicha: «Kelib olib ketar», – dedi.

Ammo Murgin qaytib kelmadi... Ertasi ertalab raisning yuvoshgina Protochina degan baytali jilovi yerda sudralgan holda aravasiz to‘g‘ri Pogrebnoyedagi otxonaga kirib keldi. Pogrebnoyelik xalq yoppasiga ko‘tarilib, raisni izlashga o‘rmonga ketdi.

Fedosiy Murginni qayin ostida o‘tgan yilgi chirigan o‘t-o‘lanlar ustiga muk tushib yotgan holda topishdi. Qayin shoxi Fedosiyning og‘ir gavdasi ostida sinib ketgandi, lekin Protochina laqabli baytalning bo‘ynidan olingan uzun jilov uning yo‘g‘on bo‘ynida iz qoldirgandi.

Shuncha yurib juda ham baxtli ekanini o‘zi ham payqamagan ekan, qadriga ham yetmabdi, go‘yoki hayot xuddi shunday bo‘lishi kerak, boshqacha emas. Mana endi hammasi tugadi... qanday ahmoqlik! Keyingi voqealar, hattoki Murginning o‘limi ham Sashani hayajonlantirmadi, uning o‘z qayg‘usi boshidan oshib yotardi.

Sasha Lyoshka Lyapunov bilan ko‘chada uchrashib qolib, taxta haqida yoki cho‘chqaxona fundamenti uchun daryo bo‘yidagi «har biri buzoqday» keladigan toshlarni olib kelib yotqizish to‘g‘risida gaplashganda, doim bir narsani o‘ylardi: «U bilib qolsa nima bo‘ladi!» Lyoshkaning qaynoq suvda kuyib qolganday qizil yuziga asta, qo‘rqib qarab qo‘yardi. Sasha bilan Lyoshka ikkalasi juda qalin do‘st, Sashadan xafa bo‘lish kerak emas-u, bilib qolsa, beg‘araz, shunday o‘zicha kulgi qiladi, albatta. «Ha-ha! Qiz bola ko‘ndiribdida! Ha-a! Axir sen kuyov sanalarding-ku! Ana xolos! O‘zingni yo‘qotib qo‘ymapsan... Korshunovolik qallig‘ing nima bo‘ladi?.. Hasrat qilmayaptimi, gunohingni kechiryaptimi?» – deydi.

Sasha doim shu haqda o‘ylar ekan, ovozining boricha baqirgisi kelardi. O‘zi uchun uyalmaydi. Gap faqat o‘zida bo‘lganida-ku, har qanday kulgi, achchiq gaplar – hammasini miq etmay ko‘tarardi. Qilmishiga yarasha jazosini oldi. Hamma gap shunda-da, faqat bir o‘ziga emas – Katyaga ham isnod bo‘ldi!

Katya bilan bo‘ladigan uchrashuvni hayotidagi eng baxtli onlar deb hisoblar, uni entikib, orzu qilib kutardi! Katyaga u o‘rni kelsa faqat go‘zalligi, sofligi, barhayotligi uchungina minnatdorchilik bildirsa arziydi! Ha, u pokiza qiz! Katya o‘ziga qandaydir dog‘ tushirish mumkinligini tasavvur ham qilolmaydi! Ana shunday qizni sharmanda qildi-ya!

Mana endi uning ustidan kulishadi, har xil bema’ni gap aytishadi, yomonlashadi. Kim sababli? O‘sha, Katya sevib, qadrlagan Sasha Komelev bois. Nahotki, shunday bo‘lishi mumkin?! Dunyoda bundan ham yomonrog‘i bo‘lmasa kerak.

Mana endi Sasha ilgari o‘ylamagan ishni qilishga tayyor edi. U Nastya oldida mulozamat qila boshladi. Bu yengiltak qizga ishonib bo‘ladimi? Alamidan yoki o‘zining suyug‘oyoqligidan hammaning

oldida og'zidan gullab qo'yadi-da, o'zi birinchi bo'lib kuladi, u shunday ustomonki, o'ziga gard yuqtirmaydi, Katyaning ustidan esa kulishadi. Unda sochingni yulsang ham befoyda, kech bo'ladi.

Sasha Nastya bilan muloyim munosabatda bo'lishga urinar, uning tabassumiga tabassum bilan javob berar edi. Lekin Nastya tabassumning o'ziga aldanadigan qizlardan emasdi. Boshqarma eshigi oldidami, kechqurunlari ko'chada molxona oldidami yuzma-yuz to'qnashishganida qulay vaqt poylar, yelkasini ko'tarib o'ynoqi ko'zlarini qisib so'rardi:

– Sezib yuribman: mendan qochyapsan. Yoki senga mos emasmanmi? Yoqmayapmanmi?

Yurak yutib bir-ikki marta hazilga olib ketish mumkin, biroq kuniga bir necha martalab uchrashganingda har safar bunday qilolmaysan-ku! Sashani uning qisiq ko'zlari, o'ynoqi gaplari, tashna lablari, nozik qomati nafratlantirar edi. Sashaning baxtsizligiga Nastya sababchi bo'ldi, endi unga hazil bilan javob qaytarishi, unga jilmayib qarashi kerak, bunday jazoni jin ursin.

Bir kuni Sasha cho'chqaxona qurilishi uchun olib kelinib taxlab qo'yilgan yog'och uyumi oldidan o'tib ketayotganida yo'lini Nastya to'sdi, Sasha unga qo'pol qilib:

– Menga osilaverma, eshityapsanmi? Hammasi tugadi, – dedi va po'pisa bilan qo'shib qo'ydi. – Agar har xil yaramas mish-mishlarni tarqatsang, o'ldiraman, chin so'zim!

Sasha uchun doim tayyor tabassum Nastyaning chehrasida bir daqiqa qotib qoldi, lablari titradi. Qiz o'zini yo'qotib qo'yib, biroz jim turdi-da:

– Eh, sen, dumbul, – dedi u afsus bilan, so'ng teskari o'girildi, bir qadam qo'ydi-yu, to'xtab orqasiga o'girildi. Sashaga uning yonog'i, ro'moli ostidan peshanasiga tushib turgan sochlari ko'rinib turardi. – Kulgiga qo'yadi deb qo'rqasanmi? Qo'rqma. Hech kim o'ziga qadrli odamining ustidan kulmaydi... bemalol yashayver.

U yelkasini ko'tardi-yu, tez yurib ketdi.

Boshqa payt bo'lganda Sasha uyalgan, Nastyaga achingan bo'lardi, lekin og'ir yuk ko'targan aravaga kichkina tugunchaning og'irligi bilinmaydi. Busiz ham uni nomus va alam ezib yotardi. Mayli, durust ish bo'lmadi, ammo endi Nastya uni tinch qo'yadi.

Biroq ertasi kuni Nastya uning oldiga keldi-da, labini tishlab, dedi:

– Nega endi korshunovolik lo'li qizni borib ko'rmaysan? Yoki yo'lakdan javobingni berdimi? – uning ko'zlarida achchiq kulgi yashirinib yotardi.

Sasha gapirgisi kelmay, o'girilib Nastyadan nari ketdi. Lekin qiz uning orqasidan:

– Bekor ovora bo'lasan! Sen uning uchun mayda baliqchasan. Tajribali cho'rtanbaliqqa qarmoq tashlabsan! – deya qichqirib qoldi.

Sasha qishloq chetiga chiqdi. Qip-qizil battol shafaq ko'rindi – bu shamoldan darak bo'lsa kerak. Osmonning bu burchidan oy ko'tarildi. U go'yo kun bo'yi quyoshdan daryo ostida berkinib yotgan-u, endi suvda yuvilib oqarib chiqqandek edi. Pag'a bulutlar hali o'zlarining bahorgi yengilliklarini qo'ldan boy bermagan, ko'kda uchib charchagandek, hozir ufqqa yonboshlagandilar.

Sasha boshini quyi solganicha qo'llarini cho'ntaklariga tiqib, shudgor uchun qoldirilgan, begona o't bosa boshlagan dala bo'ylab borardi. Shudgor nam bo'lib, uning etiklariga loy yopishardi.

Nastya nima demoqchi edi?.. «Mayda baliq... Tajribali cho'rtanbaliqqa qarmoq tashlagan... «Nahotki Katya ham eshitgan? Unda tamom. Undan uzoqroq yurish kerak. Endi qaysi ko'zi bilan qaraydi... Katyaga yaqinlashmaslik?! Nahotki, tamom bo'lsa? Shunday bo'lishi mumkinmi? Quvonchsiz yashash – umidsiz yashash. Axir hozir qanchalik uyalmasin, bag'rida qanchalik og'ir tosh yotmasin, ishonchi yo'qolmagan-ku – hammasi unutiladi, kechiradi...» Katya qayerdan bilib qolishi mumkin? Qishloqda hech qanday gap yo'q, agar mish-mish tarqalsa, birinchi bo'lib yangi ramenyeliklar uning quloq-miyasini yeyishadi. Nastya aldayapti! Ha, yolg'on so'zlayapti!.. Katya mutlaqo bexabar...

Lekin bilib qolgan mumkin... Bu unchalik qiyin emas-ku. Shuncha kundan beri Katyaga qorasini ko'rsatmadi, kunlari Yangi Ramenyeda o'tdi. Katya g'ururli qiz, faqat esdan chiqarib, ko'rinmagani uchungina nojo'ya ish qilib qo'yishi mumkin.

Yuraksizlardek yashirinyaptimi? Faqat birgina chorasi bor – Katyaning oldiga borish, u bilan uchrashish kerak. Borgandan keyin

hammasini aytib, aybini tan olishi shart. Aybini bo'yniga olishi kerak! Biroq bu Katyani oyoq osti qilish degani-ku. Mana men keldim, marhamat qilib meni sevaver. Shundan keyin gunohidan o'tishiga ishonchi komil bo'ladimi? Oqlanishning bu yerda hech iloji yo'q. O'zingdan o'zing nafratlanasan, o'zingdan o'zing xazar qilasan-u, birovlar senga nisbatan marhamatli bo'lishini xohlaysanmi?

Hali shudgor qilinmagan dala qayg'uli, xunuk ko'rinardi. Qor eriganda suv ostida qolgan yer qurib qolgan, ayrim joylarida esa ustki qatlami yorilib ketgandi. Tullayotgan it singari g'adir-budur ko'rimsiz yerni yovvoyi o't bosib ketgandi. Dalaning ko'rinishi kasalday edi, egri-bugri qatlam ostida yotish og'ir, hayotbaxsh o'simliklar o'rniga o'z bag'rida qirqbo'g'inning shirzada ildizlariga, qiyoqo'tning tekinxo'r tanasiga, ko'kalamzordagi oddiy maysalar orasida topilmaydigan har xil chiqit o'tlarga bardosh berishi kerak. Dala zoriqib, temir tishlarning tanasini tarab hamma ifloslikldardan tozalaydigan, unga erkinlik va kuch beradigan kunni kutib yotardi.

Sasha hech narsani ko'rmay, sezmay borar, shunday bo'lsa-da hamma yoqni qoplagan xira qizg'ish oqshom, bepoyon tashlandiq yerga o'xshash dala xayolini chetlab bo'lsa ham qalbining bir chetini o'rtardi. Usiz ham qayg'uli, notinch, talpinayotgan fikrlar yana ham sarosimali bo'lar edi. Sashani yangi bedavo tushkunlik qamrab oldi.

U bekinib yuribdi, Katyaga ko'rinishdan hayiqyapti. Sashaning bu xatti-harakati Katya uchun kundan kunga qorong'ilashib, tushunishi qiyinlashib boryapti. Kun o'tishi bilan botqoqqa chuqurroq botyapti, uchrashishga yuragi betlamayapti, ko'ziga qarash borgan sari og'irlashyapti. Nimani ham kutsin?.. Katya uni unutishini kutishi kerakmi, o'zi bunday judolikka bardosh bera olarmikan? Uyat! Dahshat! Iloji yo'q! Lekin bu zarur!.. Katyaning huzuriga borishi, unga hammasini aytish kerak. G'ururni yig'ishtirib qo'yib, undan kechirim so'rash kerak... Qanday g'urur bo'lsin Sashada, u g'urur haqida gapirmasa ham bo'ladi. Kechirim so'rash kerak... U yog'i Katyaning ixtiyorida...

Sasha tosh yo'lga chiqib mashina kuta boshladi.

18

Mansurov bilan tungi uchrashuvdan so'ng Katya yaxshi ish qildimmi yoki yomonmi deb ancha qiynalib yurdi.

Yaxshimi yo yomonmi?..

Katya o'rnida u yoqdan bu yoqqa ag'nab yotarkan, tuni bilan qilgan ishidan norozi bo'lib chiqdi. Qilgan ishidan afsuslanib, uni vijdon azobi qiynardi.

Katyaning buvasi o'z xotini bilan yigirma sakkiz yil yashadi, kumush to'yini o'tkazishdi. Chol-kampir umrlarining oxiriga qadar bir-birlaridan mehrlari sovimagani Katyaning yodida. «Keshenka, azizim, – derdi suyib Sofya Kuzminichna, – oyog'im hech sovqotmaydi». – «Onasi! – derdi ko'tarilib Arkadiy Maksimovich, – agar meni xotirjam yashasin desang, menga quloq sol. Oyog'ingni o'rab, pechka yonida o'tir».

Katyaning ota-onasi esa birga atigi to'rt yil yashashgan, xolos. Otasi o'z xotinining hurmatini bajo keltirishi haqida ham eshitgan. Xotini kutilmaganda vafot etganda juda qattiq siqilgan, hatto o'zini o'zi bir balo qilib qo'ymasin, deb kuzatib ham yurishgan.

Buvisi har doim: «Bizning oilamizda hech qanday qusur yo'q. Xalq oldida Zelensovlar oilasining qalbi toza», – derdi.

Katya bo'lsa hamma oilaviy tartiblardan yuz o'girdi. Zelensovlar oilasidan birinchi bo'lib Katyaning orqasidan gap tarqatishadi. Sasha-chi?.. Zelensovlarning hammasi ham halolligi, sadoqati, to'g'ri so'zligi bilan ajralib turardi. Katya Sasha bilan uchrashib yurarkan, unga seni sevaman degan, nihoyat jufti haloli bo'lishga rozi bo'lgan. Sasha ishongan-u, lekin Katya aldadi. Juda noto'g'ri ish qildi, Katya o'zini oqlashga hech yo'l yo'q.

Katya bir kecha-kunduz shunday deb o'yladi.

Biroq bu haqda o'ylar ekan, u beixtiyor Mansurovni eslardi. Bir daqiqa ham yodidan ko'tarilmasdi. Katya uning tundlashgan, buyruqnamo iltijo bilan boquvchi ko'zlarini, ba'zida jur'atsiz, tortinchoq qiyofaga kirgan qat'iy chehrasini, qizning qo'llarini qattiq qisgan qo'llarini, goh yumshoqlashib, ehtiyotkorona qilgan mehribonchiligini eslardi. Uning qizishib shivirlaganini, erkaklarga xos o'kinch bilan azoblanayotganini, turmushining og'irligidan hasratlanishini eslardi.

Bu xotira, o'kinch, qilgan ishining yomonligini sezish tuyg'usi bilan birgalashib Katyaning vujudini qo'rquv egallardi. Dahshat esa hayrat uyg'otardi. Qanday qilib Pavel Katyaga bunday qarashga, gapirishga jur'at qildi, Katyani azobga solib bunday qilishga uning nima haqi bor? Axir uning yoshi kattaroq, aqlliroq, nima qilayotganini u ko'proq tushunardi-ku! Ozgina bo'lsa ham o'zini oqlash, qalbini tirnayotgan gunohining bir qismini bo'lsa ham boshqaga ag'darish istagi bor edi. Katya Pavel Sergeyevichga nisbatan gina saqlardi.

Bordi-yu Pavel Sergeyevich ertasi kuni kechqurun Katyaning oldiga kelganida u, mayli, sarosimalanibmi, dovdiraganidanmi undan yuzini burgan bo'lardi. Biroq Mansurov kelmadi. Katya tumanda ish qizg'inligini bilardi, Pavel Sergeyevichning vaqti yo'q, tuman qo'mitasida yarim kechagacha chiroq yonib turadi.

Kelmadi, band bo'lsa kerak... Katyani eslashga vaqti yo'qligi faqat bandligidanmikin?.. Yo'q, yo'q! Nega bo'lmasa u o'shanda hayajondan xiralashgan ko'zlari bilan Katyaga termildi. Jasur, mustahkam irodali bu odamning yuzlaridagi jur'atsizlikka, qo'llarining xatti-harakatiga, turmush og'irligi haqida nafasi tiqilib shivirlashiga bir daqiqalik ishtiyoq sabab bo'lmagandir axir... U samimiy emasmidi? Bu haqda gumon qilishning o'zi bema'nilik. Bunday hazil qilishi, aldashi mumkin emas! Gaplari samimiy, demak, sevadi... Katyachi? Nahot o'z qadrini shunchalik yo'qotganki, birovni sevmay turib yaqin aloqada bo'ladi? Yo'q, bekor gap! Ming marta bekor! Katya ham sevadi! Sevadimi, xo'sh, bo'lmasa qilgan ishida qanday yomonlik bor? Nega afsuslar ichida yonadi, nomusdan azoblanadi?

Kutilmaganda Katya uchun hayot o'zgacha tus oldi. Katya qanday holat yuz bermasin, ancha xavotirsiz bo'lardi. Uni zotli mol kelgani suyuntirar, ularning yomon ko'nikishi ranjitar, biroq suyunsa ham, har bir ongli korshunovolik qatori edi, undan ortiq emasdi. Endi bo'lsa u atrofga Pavel Mansurov ko'zi bilan, tumanni boshqarayotgan odamning ko'zi bilan qaraydigan bo'ldi.

Mol uchun yem-xashak yo'q. Nima qilmoq kerak? Kolxozchilarga qanday maslahat bersin? Pavelga hozir juda og'ir!

Murgin kolxozida sigir o'ldi. Bu musibatning boshlanishi emasmi? O'ylashning o'zi dahshatli. Hammadan ham dahshatlirog'i esa uning bo'ynida...

Murginda ikkinchi mol o'ldi! Rais degan shunchalar lapashang bo'ladimi? Pavel, azizginam, u seni isnodga qo'yadi, qari ahmoqqa ayt, es-hushini yig'ib olsin, qattiroq talab qil!..

Yo tavba! Kundan kunga qiyinlashyapti! Murgin o'zini osib qo'yibdi! Hammasi Pavelning boshiga tushdi, uning yuki og'ir! Bu odamga juda og'ir! Odamlarni baxtli qilish naqadar qiyin...

Katya qanchalik manfaatparast ekan! Tag'in uchrashmayapti, unutadi deb ichida gina qilib yuribdi-ya... Boshqa ishi ham boshidan oshib yotibdi. Ko'rishmasa ham, gohida esidan chiqarsa ham mayliga, Katya kechiradi, Katya tushunadi... Katya xalqning hamma tashvishlarini o'z yelkasida ko'tarib yuradigan odamni sevishdek baxtga musharraf bo'lgan. Mushkul baxt! Biroq Katya bu baxtdan voz kechmaydi.

Azob chekish bema'nilik...

Buvasi: «Oilamizning kamchiligi yo'q» deb to'g'ri aytgan.

Katya o'z oilasini unutmagan.

Katyaning buvisi ham Arkadiy Maksimovich singari maktabda ishlardi, ammo oxirgi darsini yakuniga yetkazolmay yurak xuruji tutib o'ldi.

Katyaning onasi esa shifokor edi. Issiq yoz kunlarining birida Verxneshorye qishloq kengashida ich burug'i epidemiyasi tarqaldi. Onasi o'sha yoqqa bordi, o'ziga ham shu kasal yuqdi. O'n sakkiz, yigirma soatlab toliqib ishlash ustun keldi, shekilli, kasalni ko'tarolmay o'ldi.

Otasi esa qirq ikkinchi yili qishda Stalingrad yonida halok bo'ldi.

Buvasi maktabda o'ttiz yilcha ishladi...

Katya o'z oilasidan doim g'ururlanib yurardi, o'zi ham hayotini zo'r ishga, qahramonlikka bag'ishlashday ulkan baxtni orzu qilib yurardi.

Qiz bola narsa, qo'lidan nima ham kelardi? Qahramonlik ko'rsatish qo'lidan kelarmikin? Paytini poylab yurdi. Hayot esa o'z yo'lida tekis, odatdagiday davom etmoqda...

Mana endi payti keldi, uning qahramonligi – muhabbati! U oddiy odamni, bo'lajak umr yo'ldoshi sifatida sevmaydi. Katya o'z hayotini odamlarga bag'ishlagan kishini sevadi. O'ziga nisbatan alohida

e'tibor qilishni talab etmaydi! Yo'q! E'tibor talab qilish, bu uning vaqtini olish degani.

Katyaning birgina istagi bor – Pavel unga cheksiz ishonadigan, uni sevadigan, faqat uning uchun yashayotgan Katyasi borligini bilsin! Axir Pavel uchun yashash – odamlar uchun yashash degan gap!

Shuning uchun Katya, Zelensovalar oilasidagi badbaxt qiz emas. Uning niyati xolis, qalbi toza! Nima bo'lsa-da bema'nigarchilikka yo'l qo'ymaydi.

Sasha-chi?.. Unga tushuntirib bo'larmidi? Ularning avvalgi sevgilari shunchaki ovunchoq edi...

19

Pastak uy, butalar orasiga derazadan yorug' nur tushib turibdi, yolg'iz oyoq yo'l boshidagi panjaraga o'rnatilgan eshik ochiq, bir chetda qari jo'ka daraxti – hammasi tanish! Avvallari ham bu joy qadrdon edi, endi esa qadrdonligi yana ham oshdi.

Mana shu yerda, butalar orqasida, deraza ortida Katya yashaydi. Mana shu yolg'iz oyoq yo'lni uning oyoqlari yaqindagina bosib o'tgan, uning qo'llari eshikning qo'pol tortqichini tutganligi rost...

Sasha eshikni asta ochib, hovliga kirdi. Noma'lumlikdan yuragi bir zum to'xtab qolganday bo'ldi: «Qanday kutib olarkin? Nima derkin?..»

Qizil qorag'at butasi bilan uyning yog'och devori o'rtasidan deraza oldiga o'tish qiyin emas. Sasha kolxozdan qishloqqa kelib qolsa, eng chekkadagi derazani ikki marta sekingina chertardi. Bu deraza oldida Katyaning stolchasi bor...

Deraza pardalari tortilib qo'yilgan edi-yu, lekin parda bilan kesaki orasida tirqish ochilib qolgandi... Sasha derazaga yopishdi, ko'ziga tanish stolning bir bo'lagi, qalin, eskirib ketgan kitob, kitob ustida qizning qo'llari ko'rindi! Ozg'in, jajji qo'llar o'zlarining nozik harakati bilan osoyishtalik va o'ychanlikni bildirardi. Katya nima haqida o'ylanib qoldi?.. Faqat deraza oynalari-yu, pardalar uni Katyadan ajratib turibdi. Katya, Katya... Sasha yengilgina chertdi. Kitob ustidagi qo'llar cho'chib tushdi-yu, joyida sarosimalanib qotib qoldi – tinglayapti... Sashaning yuragi bo'lsa shunday qattiq ur-

yaptiki, hatto uyda ham eshitilayotgan bo'lsa kerak. Katya, Katya!.. Qo'llar bo'shashdi, chamasi, qulog'iga chalinganday bo'ldi.

Sasha derazani yana bir marta chertdi. Qo'llar kitobdan uzildi. Parda ochildi-yu, nigohlar to'qnash keldi, Sasha oyna orqasida Katyaning yuzini ko'rdi.

– Katya, – dedi sekin Sasha.

Parda tushdi, lang ochilib qolgan tirqishdan xonaning bir qismi – devorga tanish «Sinop jangi» surati ko'rindi. Katyaning buvasi chollarga xos yurish bilan surat yonidan o'tib ketdi.

Sasha butalarga qoqinib eshik tomon yurdi.

Eshik uzoq vaqt ochilmay turdi. Oy yorug'ida yiltirab turgan eshik halqasi hissiz – hayotdan hech qanday darak yo'q edi. «Nega Katyadan xabar yo'q, eshitganmikin? Bilib qolgan bo'lsa-chi? Balki chiqqisi kelmayotgandir? Qachon ochadi? Katya! Katya!..»

Eshik orqasida ehtiyotkorona tovush eshitildi. Eshikka tushib turgan yorug' silkindi, eshik asta g'ichirlab ochildi.

Katya oppoq ro'molga o'ralib chiqdi – uning na yuzi, na qo'li ko'rinmaydi. Sashaning tomog'iga bir narsa tiqilganday bo'ldi, u asta xirillab:

– K-katya! – dedi-da, boshini egib olgan, qo'llari ikki yonida, ro'molining popuklari tizzasigacha tushib turgan, novcha Katyaga tikilgancha jim bo'lib qoldi.

Katya ko'zini yerdan uzmay dedi:

– Kelganing yaxshi bo'libdi. Men senga bir narsani aytishim kerak...

– Katya! O'zim senga aytib beraman! Hammasini!

– Men aytishim kerak! – ovozini balandlatdi Katya. – Meni kechir, men endi tushundim, havasga berilgan ekanman. Men sevmas edim... Baribir emasmi!.. Sasha, iltimos, boshqa kelma.

– Katya, avval eshit...

– Bir-birimizni qiynab nima qilamiz... Men endi... boshqa odamni sevaman, – yengil tortib dedi Katya. – Bor gap shu.

U endi yarim ochiq eshik orqali, qorong'ilikda turib shoshganicha qo'shib qo'ydi:

– Tushunishingni istardim.

Bu safar eshik zarb bilan cho'chib, go'yoki, «Oh!» degandek g'ijirladi.

Halqa uzoq vaqt silkinib turdi. Sasha hech narsaga tushunmay, fikrsiz, og'risiz, miyasi g'ovlab, qalbi bo'm-bo'sh, halqacha joyida qimirlamay qotib qolguncha tikilib qoldi.

U ko'cha eshik oldida to'xtadi, oyoqlari bo'shashib yog'ochga suyaldi. Ikki soat avval xira bo'lib turgan oy endi kuchga to'lib, qarab nur sochardi...

Sasha ana shu eshik oldida ilk bor Katya bilan xayrlashganini yodiga oldi. Oy buri xuddi ana shunda yerga tangadek sochilib yotar, shamolda hozirgiday erinib harakatlanardi... Ana shunday nurlardan biri Katyaning oppoq ko'ylagini silardi. Faqat o'shanda oy dumaloqroq va yanada yorug'roq edi...

UCHINCHI QISM

1

Murginning charm qalpog'i xona burchagida, seyfning ustida yotardi. Mansurov qalpoqni unutib yuborgandi – keyingi kunlarda u deyarli joyida o'tirmadi. Pogrebnoyega borib tergovchiga ma'lumot berdi. Shaxsan o'zi marhumning dafn marosimida ishtirok etdi, yosh agronom Alyoshinni rais qilib saylashgan kolxozchilar yig'ilishini o'tkazdi.

Mansurov charm shapkani esidan chiqardi, lekin Murginni yarim tunda, uyquga ketganida unutmasa, bo'lmasa doim xayolidan ketmasdi.

Birpasda bukchayib, cho'kib qolgan gavda, bo'shashib, oyog'ini sudrab yurib ketayotgan Fedosiy yodiga tushardi. Uning: «Menda hammasi tugaydi!..» Bo'g'ilib «Uyat...» deganlari, eshik oldida bir chayqalib, kesakiga urilgani esiga tushdi. Odamga achinasan kishi. Esizgina, bekor ketdi! Lekin Mansurov hamon o'zini aybdor hisoblamasdi. U yumshoq gapirishga, qirralarni yumshatishga, gina qilmaslikka, kechirishga va shu bilan boshqatdan mas'uliyatsizlikka yo'l qo'yishga haqqi yo'q edi. U nima qilish kerak bo'lsa, o'shani qildi!

Ammo bunday bahonalar kimga kerak? Yo'l qo'yib bo'lmaydigan voqea sodir bo'ldi, endi aybdorlarni izlashadi. Viloyat qo'mitasi shubhasiz qiziqadi. Bu voqea yig'isiz o'tmasa kerak... Bordi-yu bilvosita aybingni topsalar ham ishda ushlab turmaydilar. «Yetarli darajada ishbilarmon emas... Odamlarni chuqur tushunmaydi» kabi yorliqlarni yopishtirishadi. Eh, g'ildiragiga yana bir tayoq suqishdi-da!

Mansurov shu kunlari ko'nglini yozib suhbatlashadigan odamga muhtoj edi. Shu sababli kechqurun Ignat Gmizin oldiga kirib kelganda juda quvonib ketdi. Ignat Pavelning eng yaqin do'sti edi. Keyingi

paytlarda oralariga biroz sovuqlik tushgani bois kam uchrashishar, ro'para kelib qolishsa ham bir-ikki og'iz so'zlashib, o'z yo'llarida davom etadigan bo'lib qolishgandi. Boz ustiga Anna bilan aloqalari taranglashib qolgan, har holda Ignat uning tug'ishgan akasi, shuning uchun ham so'zsiz, istasa-istamasa Pavelni uyaltirardi.

– Qarasam, chirog'ing yoniq ekan... – dedi Ignat odatdagi ohangda, stol ustidan qo'lini uzatar ekan.

Quyoshda toblangan Ignat yelkador, yaqinda qirilgan boshi va silliq tumshug'i bilan shunday yaltirar ediki, odam beixtiyor uni silagisi kelardi. Bunday odamlar o'zlarining tabiati bilan shubha o'tida yonmaydilar, sarosimalanmaydilar, ular doim bir xil, ishonchlari komil, bexavotir. Ignat o'z kolxozini asta-sekin, shoshilmay, qoqilmay yuqoriga olib ketyapti. Zotdor sigirlarni boqishda omadsizliklar, Murgin halokatiga sabab bo'lgan favqulodda hodisalar qayerdadir boshqa joyda, sochsiz kallaga tegmay o'tmoqda. Pavel Ignatga yashirin hasad bilan qarab turardi.

– Kelganingdan xursandman. Juda xursandman.

– Ish bilan kelgandim.

– Ishingni qo'y! Kel, o'tirib oddiy odamlar kabi bir suhbatlashaylik, yem-xashak bazasi haqida emas, shunday, mutlaqo hech narsa haqida, misol uchun, kechagi yomg'ir haqida. Bilasanmi, Ignat, juda og'ir. Buning ustiga Fedosiy... Obro'yim, hurmatim bor, lekin qarab tursam o'zim yolg'iz ekanman.

– Nega endi? Katta xo'jayin bo'lganing uchunmi?

– Bilmayman. Burnimni osmonga ko'tarmayapman, kibrga berilmayapman, shekilli.

Ikkisi jim turishdi. Ishdan boshqa narsalar gaplashishni unutishgan ekan. Qachonlardir Ignat Pavelni baliq oviga taklif etar, ular Katta O'rmon yonidagi ko'lda yonlariga yarimtani qo'yib olib uchrashishar, har qaysilari front haqidagi o'z xotiralarini so'zlab berar edilar. Bu ko'lda tovonbaliq juda ko'p edi. Mana, ishdan qo'llari bo'shamagani uchun tovonbaliq tutgani borishmaganiga, birga ichishmaganiga ancha bo'lib ketdi...

Pavel xo'rsinib qo'yib: «Qani, so'zla, qanday ishing bor?», demoqchi edi-yu, ammo Ignat:

– Bu nima? – deb so‘radi va borib seyf ustidagi Murginning qalpog‘ini oldi. Yumshoq, sergo‘sht yuzi qotib qoldi, ko‘nglida qanday-dir odatdagidan tashqarigi berahmlik paydo bo‘ldi.

Pavel uchun esa shapkaning paydo bo‘lib qolishi kutilmagan holat edi. Ikkalasi bir-ikki daqiqa jim, qalpoqni kuzatib turishdi: charmi sarg‘aygan, eskirib ketganidan o‘zining shikastnafas xo‘jayiniga ko‘p yil xizmat qilganga o‘xshaydi, ayvonchasi shalpaygan, ushlanaverib – Fedosiyning qo‘li bilan ushlangan – kirlangan, astari esa terdan qoraygan bo‘lib, hanuz ter hidi anqib turardi. Murgin ana shu siyqasi chiqqan qalpoqda yashashni davom ettirardi. O‘tgan kuni uni ko‘mib kelishgan Pavelga ham, Ignatga ham hayotning bu xotiralari ajib tuyulardi...

– Qoldirib ketibdi... Olib qo‘ygandim. Keyin bermoqchi edim... Bo‘lmadi, – bazo‘r dedi Pavel.

– Xo‘sh, xo‘sh... Qalpoqsiz chiqib ketibdi, – xo‘mrayib og‘zidan chiqardi Ignat.

– Ignat... sen meni ayblayapsanmi?

– Nimada? Bundami? Axir sen unga tanbehni arqon qidirsin deb bermagansan-u.

– Menimcha, ba’zilar shunday deb o‘ylashyapti.

– Bunday bo‘lmasa kerag-ov...

O‘rtaga yana o‘ng‘aysiz jimlik cho‘kdi. Ignat qo‘lidagi qalpoqni har tarafini kuzatib aylantirar, Pavel esa alamiga chidolmay: «Qo‘lingdagini qo‘ysang-chi! O‘yinchoq topib oldingmi...» degisi kelardi.

Ignat nihoyat qalpog‘ini qo‘yib dedi:

– Rostini ayt, Fedosiyni hammani qo‘rqitish uchun haydamoqchi edingmi?

– Nega endi qo‘rqitish uchun bo‘larkan? Men faqat qolganlar o‘z ishiga jiddiyroq munosabatda bo‘lsin, degan niyatda edim.

– Arava moylanmagan bo‘lsa yurishi qiyin bo‘ladi – bunga ot aybdor emas-ku!..

– Jumboq qilmay aytsang-chi...

– Qanaqasiga jumboq bo‘lsin. Pavel, zotli sigir deb haddan tashqari o‘tkazib yubording.

– Bilaman. Bu oddiy hadiksirash.

– Mening hech hadiksiraydigan joyim yo‘q, uka. O‘z molimni boqib olaman, issiqdan ham saqlayman, molning harom o‘lishiga ham yo‘l qo‘ymayman, hammasini saqlab qolaman.

– Nega bo‘lmasa tashvishga tushyapsan?

– O‘zim uchun emas. «Uchqun»lik Nikita Bochkov, «Qizil tong»lik Luchshilnikov uchun, qolgan hamma kolxozlar uchun xavotir olyapman. Zotdor mol ularni g‘aflatda qoldirdi.

– Kechirasan. Bu ishlarni hal qilishni o‘zimizga qo‘yib bersang.

– «O‘zimiz» deganing kim?

– Tuman qo‘mitasi.

– Men tuman qo‘mitasi byurosining a’zosiman. Nima uchun men senga nisbatan tuman uchun kamroq qayg‘urishim kerak?

Mansurov labini burib, jilmaydi:

– Demak, kam emas, ko‘proq qayg‘urar ekansan-da. Nima ham derdik, yaxshi, juda yaxshi.

– Ehtiyot bo‘l, yangi o‘tni yulib tashlash oson, yangi xatoni tuzatish ham yengilroq bo‘ladi.

...Ha, do‘stligiga putur yetdi. Pichan o‘rish ustida, shu paytgacha traktor o‘roqlarini yubormagan mashina-traktor stansiyasi ustida (Ignat shu haqda xabar bergani kirgan edi) tortishishdi, vazminlik bilan xayrlashishdi.

Mansurov qoni qaynab o‘zicha o‘ylardi:

«Tavakkaliga ish qilasan-u, atrofingdagilar o‘girilib qoladi. Ignatchi, Ignat! U qanday qilib tushunmaydi: mol kelgan, bo‘lingan, tisarilsang – viloyatda katta janjal ko‘tariladi...»

Murginning qalpog‘i stolda yotardi. Uni nima qilish kerak? Xonasida saqlab o‘tirmaydi-ku. Tashlab yuborsinmi? Negadir unamayapti. Fedosiyning bevasiga yuborsinmi?.. Pogrebnoye qishlog‘idagilar nima deb o‘ylashlari mumkin? Tuman qo‘mitasi kotibi marhumning qalpog‘ini yuboribdi, har xil gap-so‘zlarni to‘qib yurishadi. Qalpoqning o‘zi esa sariq chaqaga arzimaydi.

Pavel uni stolining eng pastidagi tortmasiga tiqib, qulflab qo‘ydi – ko‘zdan nariroq tursin.

Pavel xayrlashmoqchi edi-yu, biroq tuman qo'mitasi kotibi qurilish maketini avaylab silab qo'ydi-yu, mutlaqo boshqacha ovozda dedi:

– Hech narsaga qiziqmaysan-a! Qarab turibsan-u, nima ekanligiga qiziqmaysan.

– Tushunmayapman, – dedi Pavel aybdorlarday uyalib maketga qarar ekan. – Molxona emasmi? Yo'q. Cho'chqa fermasiga ham o'xshamaydi…

– Ana ko'rdingmi? Atrofda nimalar bo'layotganini yaxshi bilmaymiz. Borshagov kolxozida bu binoning qurilganiga ikki yil bo'lyapti. Bu o'yinchoqni menga u yo sovg'a tariqasida yoki ibrat bo'lsin, mana boshqalardan o'rgan, deb yuborgan...

Pavel hushyor tortdi: Borshagov kolxozi mashhur edi. Borshagovning o'zi esa iqtidorli, mashhur odam. Ma'lumoti faqat uch sinf bo'lgan, hatto cherkovga qarashli maktabni ham bitirmagan bu odamni Timiryazev akademiyasiga professorlarga dars berishga chaqirishgan. Yana qandaydir yangilik bo'lishi kerak, ehtimol, gazetalar hamma yoqqa jar solsalar kerak.

– Bu, qadrdonim, molxona ham, cho'chqaxona ham emas, bu fabrika-oshxona... Ha, ha, fabrika! Mana, qara... – Kurganov shiferni ochdi-da, yem-xashak dimlanadigan hovuz, issiq bug' o'tadigan quvurlar, mashina bo'limi haqida gapira boshladi. Xullas, bu dargohga, deylik, somon ortilgan arava kirsa, bir soatdan so'ng vagonchalar somonga mutlaqo o'xshamaydigan ozuqa olib chiqishadi. Borshagov kulib, temir mixni ham shunday tayyorlasa bo'ladiki, sigirlar uni yeb ko'rib, hatto labini yalashadi deb kuladi. Bir bosh sigirni to'ydirish ikki karra arzonga tushadi. Elektr suv chiqaradi, elektr yem-xashak maydalaydi, ularni tarqatadi. Odam vagonchalarni dimlanadigan hovuz oldida to'xtatib, yem-xashakni o'sha yerga ag'darsa bo'lgani.

Kurganov Pavelning tirsagidan mahkam ushlab yoniga o'tqazdida, ishonch to'la quvnoq ko'zlari bilan uning yuziga tikilib, gapida davom etdi:

– Mana, shuni ko'zda tutish kerak! Zotli mol bor, eski yem-xashak bazasi – pichan, silos va boshqa yem-xashak bor, biz faqatgina ularni ko'paytirishimiz kerak. Bunda bizga mana shunday ozuqa sexlari yordam beradi. Ana shundagina bizning viloyatimizda eshe-

lonlab go'sht-yog' yetkaziladi, buning ustiga arzon ham bo'ladi! Sening tumaning zotli sigirlarni o'zlashtirish bo'yicha yetakchilar qatorida ketyapti, Borshagov tashabbusini ham birinchi bo'lib qo'llashi kerak.

– Ozuqa sexi... Ha-a, havas qilsa arziydi, – deya tasdiqladi Pavel ortiqcha zavq-shavqqa berilmay, – faqat qimmat-da, kolxozlarimizning mablag'i yetmasa kerak.

– Sizda elektr bor. Asosiysi shu. Hech kim sizdan ertagayoq bunday sex qurgin deb talab qilmayapti. Asta-sekin, sharoitga qarab qura boshlang, biroq chidamli bo'lsin. Faqat va'dalar bilan cheklanib qolmaslikka harakat qiling. Boshlansa hozirdan boshlanishi kerak, bugunmas, ertaga ozuqa sexlari qurilishi boshlanishi kerak...

Poyezd taqillatib shahardan uzoqlashar edi. Sibirga ketayotgan yo'lovchilarning hayoti o'z me'yorida ketardi. Bu hayot Pavel vagonga chiqquncha boshlangan bo'lsa, u o'zining Velikaya stansiyasida tushib ketganidan keyin ham shunday davom etaveradi. Kupedagilar domino toshlarini taqillatishar, ochiq kitob ustida uxlashar edi....

Pavel deraza oldida turardi. Murgin voqeasi boshqacha tugashi mumkin edi. Endi Pavel o'zini ancha yengil his etishi kerak edi-yu, ammo oson bo'lmadi... Ko'pchilik kolxozlarning molxonalari buzilgan, qishda zotdor mollar sovuqdan tarasha bo'lib qolishadi. Ozuqa sexiga yo'l bo'lsin! Ko'rpaga qarab oyoq uzatish kerak... Ammo Kurganovga e'tiroz bildirib bo'lmaydi... Masalani darhol ko'ndalang qo'yadi: «Kuchingiz ozmi?.. Nega bo'lmasa shuncha mol olasiz, kuchingizni hisobga olmagan ekansiz-da?..» Nima deb javob berish mumkin?..

Bu yoqdan Ignat... U bir gap boshladimi – haddan oshirib yubordingiz, iqror bo'l, deb qo'ymaydi. Iqror bo'lib ko'r-chi, viloyat qo'mitasidan shunday yashin chaqnaydiki, Mansurovning changi chiqib ketadi. Mol, yem-xashakning ozligi, hatto Murgin o'limini ham eslashadi. Chigil murakkablashib boryapti, uni qanday yechib bo'ladi?

Deraza ortidan ketma-ket tanish manzaralar o'tib boradi: oxiri yo'q o'tloqlar, sariq yamoq shudgorlarni oftob qizdirgan, ko'rinishdan sokin qishloqlar, yo'llardagi tinim bilmagan yuk mashinalari ko'zga

tashlanadi. Ba'zida kosilka, pichan yig'ayotgan ayollarning rang-barang ko'ylaklari, pichan g'aramlari ko'rinib qoladi.

Atrofda hayot osuda, osoyishta. Hamma bilan yashab xursand bo'lsa qanday ajoyib. Yo'q, bo'lmayapti.

3

Sasha hayotidagi eng birinchi ozorni hammadan bekitib, hech kimga aytmay yurdi. Bu ozorlik tashqaridan bilinmagan – yuzidagi qizillikni yo'qotmadi, tunlari uyqusizlikdan bezovta qilmadi deylik, boshqarmada bironta brigadirning qiziq gapiga hamma qatori astoydil kulsa-da, ammo baribir bu bilan uning g'ami kamaymasdi.

Nastya Baklushina benihoya shod edi... Bir kuni kechki payt Nastya Sashaning oldiga kelganida, yigitning o'zi qizni daryo sohiliga olib ketdi...

Ignat Gmizin Sashani «Mehtankash» kolxozining yangi brigadasi – Kudryavinoga yubordi.

Bahordan to pichan o'rimigacha vaqt oz. Kudryavinoda hayot o'zgardi-yu, ammo u qadar sezilarli emas. Uydirmachining o'rniga baland bo'yli, oriq, oyoqlari poyaga o'xshash, ingichka tomog'idan kekirdagi xuddi tosh yutib yuborganday chiqib turadigan Pyotr Miroshinni brigadir etib tayinlashdi (uzun tomog'i va tomoq qirib gapirgani uchun uni «G'oz» deb atashardi). U kolxozga o'tgan yili kelgan. Pyotr armiyada muddatdan ko'p xizmat qilgan, lekin faqat starshina unvoniga ega bo'la olgan, xolos. U siyrak, qizg'ish mo'ylovini doim burab yurar, hech qachon qattiq jahli chiqmas, biroq kurdyavinoliklar undan cho'chirdilar. Ular endi o'rmonga hadeb ketib qolmasdilar, buning sababi, ehtimol, o'rmonda qo'ziqorin va meva pallasi yetib kelmaganidan bo'lsa kerak. Kudryavinoliklar bu yil yerlarini boshqacha ekdilar: arpa va bug'doy kam ekildi, ko'proq kungaboqar, ozuqa uchun sholg'om, ko'k yem uchun no'xat ekdilar. Miroshin silos hovuzini qazdirish uchun har kuni odam to'plardi. Kudryavinoliklar, «Nonga boyib ketadigandek tuproq kovlaganimiz kovlagan ekan-da...» deb norozi bo'lishardi. Lekin har oyning oxiri Yangi Ramenyedan arava-arava un (un qo'l tegirmonida tortilmay, oziq-ovqat sanoatiga qarashli jo'vada tortilgandi) keltirilib, uni Mi-

roshin ro'yxat bo'yicha mehnat kuniga tarqatganida jimib qolishib, aksincha, o'z istaklari bilan chuqur qazishga boradigan bo'lishdi... Ignat Kudryavinoni chorvachilik brigadasiga aylantirishga sidqidildan kirishdi.

Qachonlardir, qadim zamonlarda o'rmon ichkarisida kichkina ariqlar bilan birlashgan chuqur ko'llar bo'lardi. Yillar o'tishi bilan bu ko'llar qurib, torayib botqoqlikka, ko'lmakka aylanib qolgandi. Ayrimlarida yozda suv ko'karib hidlanib yotar, boshqalari esa yorug' kunda ham qatron kabi qop-qora bo'lardi.

Qurib qolgan sohillari esa bahor paytlari suv ostida qolib, kichkina o'tloqqa aylanib qolgandi. Yakka xo'jalik egalari o'z tomorqasiga ko'z-quloq bo'lib turardi, haddan ortiq o'sib ketgan butalarni kesib tashlar edi. Kolxoz vaqtida esa kudryavinoliklar o'zi shunday ham tashlandiq bu maysazorlarga mutlaqo qaramay qo'ydilar. O'radigan deyarli hech narsa bo'lmay, har joy-har joyda yovvoyilashib, kim o'zarga o'sib ketgan, faqat yog'och bo'lib qolgan butalarnigina yig'ib olishardi.

Sasha kolxozchilar bilan birga o'roqda ishladi, joy ochdi. Qishloqqa bormay, shu yerda yotib qolishga, ertasiga qolganini yig'ib-terib qaytishga kelishdilar. Butalar ostidan yig'ib olingan bir siqim o't qilingan mehnatga arzimasdi.

Quruq joy topib gulxan yoqishib, tepasiga ikkita chelak osib qo'yishdi – birida tuzlangan go'shtdan qaynatma sho'rva, ikkinchisida hamma uchun choy qaynatishdi. Gulxan goh o'z alangasi bilan chelakni qoplaguncha ko'tarilar, goh pasayardi. Tun goho qarag'ayning alangadan qizg'ish tanasini ko'rsatib orqaga chekinar, goho daraxt tanasini qizg'anib yashirar, atrofdan bostirib kelardi. Chelaklar oldida g'imirlab yurgan ayollarning soyasi juda ulkan tuyular, qorong'ilikda daraxtning uch-uchigacha chiqib tushar edi. Bu soyalar qimirlab go'yo qorong'i o'rmonni qorishtirayotganday edi.

Sasha brigadir Miroshin bilan yonma-yon chekkadagi bir uyum yangi o't ustida yotardi. Miroshin chalqanchasiga, tizzasini yulduzlari xira miltirayotgan osmonga tiragandek qiyofada yotib, bo'g'ilib gapirardi.

– Men ularning hamma qog'ozlarini ko'rib chiqdim... Bir yuz o'n gektar o'tloq yozilgan. Bir yuz o'n-a! Ha! Aslida esa, rostini

aytsam, nari borsa ellik gektar yerni o'rishadi. Shunday qishloq yonginasidan, ha! Ularga qaysi hisobdan reja berishadi? O'z-o'zidan ma'lumki, bir yuz o'n hisobdan.

– Qancha o'rolsak, shuncha aytamiz-da...

– Aytamiz?.. Hali yosh va qiziqqonsan-da. Nega rejani bajarmading, nega hamma yerni o'rmading? – deb yoqangdan ushlab silkitishadi. Reja bo'yicha bir yuz o'n gektar, aslida-chi?.. Nima deysan?

– Borini aytaman.

– Aytamanmish. Axir seni boshqarma o'rim ishlariga boshliq etib tayinlagan. Ha! Mening ishim – silos chuqurlari-yu, dalani parvarishlash.

Kudryavinoning sobiq brigadiri, hozir oddiy kolxozchiga aylangan Savvushka Uydirmachi gulxan oldida xotinlar orasiga o'tirib olib, bolalarnikiga o'xshash ovozda ochilib (biron uydirmani aytib bermoqchi) gapirar edi.

– Bizning o'tni, do'stlar, o'rishni bilish kerak, bu yerda ishbilarmonlik ketmaydi... Temirchi Dyomka Kryukov qanday o't o'rganini eshitganmisiz? – Uydirmachi tutunda yig'lamsirab, burishgan aftini g'olibona u yoq-bu yoqqa qaratar ekan, dedi: – Darya, sen Dyomkani eslasang kerak... Ana o'sha Dyomka bir xil o'tni bilardi. U «tumka» deb nomlanadi...

– Qani, dugonalar, etagingni tut, Savvushka rosa to'kadigan bo'ldi.

– Zotli ayg'irning o'zginasi, jilovini qo'yib yuborsang bas...

– Mayli, gapiraversin. Baribir kutish kerak.

– Boshla, Savvatiy, eshitamiz.

– Xo'sh, – dedi Savvushka, so'ngra hamma jim bo'lishini kutib, ingichka ovozda gapini davom ettirdi: – Shunaqa o't bor, ko'rinishi juda oddiy. Uni-chi, og'aynilar, Dyomka topgan... Xo'sh, qanday qilib topgan? Bu, azizlarim, butun boshli bir tarix... Kunlardan bir kuni u kvasga qornini shishirib olib, o'zining ustaxonasida yotgan ekan. Bir mahal qarasa, usti berk arava kelyapti, oldida esa qari lo'li xotin o'tirib olgan, og'zida papiros naychasi, qo'lida jilov, arava orqasida esa bir gala lo'livachchalari yugurib kelishayotgan emish. Lo'li otining jilovini tortib debdi: «Otning taqasi tushib qoldi, qoqib ber, go'zal yigit. Pulingni beraman, xafa qilmayman». Bu ishning

havosini olgan Dyomkaga birpaslik ish: otni bo'shatib, tuyoqlarini oyog'ining orasiga olib boplab qoqib qo'yibdi. «To'la, alvasti», debdi. Lo'li xotin bo'lsa yerdan bir siqim o't yulib olib uzatibdi: «Mana, ushla», debdi. Dyomka bolg'ani olib do'q qilibdi: «Mening ustimdan kulmoqchimisan, shum kampir!» Lo'li uning qo'lidan ushlab qulog'iga bir narsa deb shivirlagan ekan, Dyomka tinchibdi. Mana shunday, og'aynilar... Lo'li o'z lo'livachchalari bilan jo'nabdi. Dyomka chelakni olibdi, o'sha o'tdan solib, suv to'ldirib ustaxonaning o'zida qaynatibdi... Xo'sh, keyin o'ziga cholg'i yasab olibdi. Shunday toblabdiki, cholg'ini olovdan olsa, ustaxona yorishib ketarmish, cholg'ini olib bir narsalar deb pichirlab, o't qaynatilgan chelakka solibdi. Qizdirib, yana solibdi... Keyin cholg'isini olib o'rmonga ravona bo'libdi. Cholg'ini bir silkitsa, tig'iga uchragan hamma narsani: daraxtni ham, butani ham havoni kesgandek oson kesib ketaveribdi. Mayda o'tni esa xuddi ustara bilan olingandek kesar emish. Shuncha kessa ham cholg'i o'tkirligicha turaveribdi. Dyomka o'limidan oldin cholg'ini odamlarga tashlab ketish o'rniga, daryoga tashlab yuboribdi. Aytishlaricha, cholg'i tashlangan joyda suv uch kun qaynab turibdi... Mana shunday gaplar...

Savvushka atrofga tantanavor qarab chiqdi.

– O'sha cholg'ini o'zing ko'rganmisan?

– Dyomkaga yasashga yordamlashgan.

– Dyomka pichirlab turgan, Savvushka yasagan...

– O'zi ham lo'lidan yaxshi dam soladi.

– Lo'lilarda shunday bir voqea yuz bergan. Men u vaqtlarda hali yosh bola edim...

Sasha noodatiy ishdan toliqib qolgandi, endi suyak-suyaklarigacha zirqirar, toshdek og'ir qo'llarini ikki yoniga tashlab yotardi, ana shunday, qimirlamasdan tutun aralashgan nam havodan to'yib-to'yib nafas olib yotish va Uydirmachining shoshilinchda to'lib-toshib (gapini birov bo'lib qo'ymasligi uchun) gapirishini eshitib, xayol surib yotish odamga qanchalik huzur baxsh etadi.

Katya hozir undan uzoqlashdi; u o'tmishda, boshqa olamda qoldi. Daraxtlar orqasidan asta-sekin ko'tarilgan oy archaning qora shoxlariga o'ralashib, o'sha joyida qoldi. Odamning qulog'i atrofida o'nlab ko'zga ko'rinmas mayda chivinlar uchishib, kattarog'ining

ovozi hammasining ichida ajralib turadi. Bunisi Sashaning chakkasiga qo'nishni mo'ljallamoqda. Chakkasiga tekkan shu chivinni urib o'ldirish Sashaga huzur bag'ishlar edi-yu, lekin kuni bo'yi cholg'ida ishlagani uchun qo'lini ko'tarishga kuchi qolmagandi.

Sashaning xayoli erinchoqlik bilan Kudryavino pichanzorlari atrofida uchib yuribdi. Jiddiy fikr yuritadigan odam bu brigadada topilmaydi, hamma yoq changalzor bo'lib yotibdi. Tentak Miroshin, nega o'rab olmadilaring, deb so'rab qolishadi deb qo'rqib o'tiribdi. O'rib bo'lmaganidan keyin nimani so'rashsin... Ertagayoq hamma o'rimdagilarni qishloqqa qo'yib yuboradi, Miroshin ularni qayerda ishlatsa ishlataversin. Ignat Yegorovichga yetkazadi...

Sust, mudroq bosgan inson fikrlari asta suzib bormoqda. Ustingga paxtalik, uning ustidan plash tashlab, oyog'ingni engaginggacha yig'ishtirib olib uyquga ketsang qani edi... Kechki ovqat ham cho'zilib ketdi-da...

Sochlari to'zg'igan, qorong'ilikdan keyin gulxanda ko'zlari tovlanayotgan uyqusiragan Sashaning tizzasiga chuqur tovoqda bug'i chiqib turgan quyuq sho'rva keltirib qo'yishdi. Sho'rvadan biroz botqoq balchig'ining isi taralib turardi.

Gulxan o'chdi. O'rimchilar quchoq-quchoq o't keltirib yotishga shaylanardilar. Butalar orasiga joylashib olgan Savvushka shoxlarni shitirlatib, u yoqdan bu yoqqa ag'darilar ekan, shovqin soldi:

– Oyimchalar! Bir o'zim sovqotaman, yonimga kelsalaring, birgalashib orqamni biroz isitib qo'yardilaring.

– Sendan naf yo'q, yoshroq bo'lganingda ham mayli edi.

– Mariya, sen yonimga bir kelib ko'r-chi, foydasi bor-yo'qligini bilasan. Sendek do'mboqchani silab qo'yardim.

– Uxlasang-chi, qari taka, silaydigan vaqting o'tdi. Yoshlarning ovozi ham chiqmayapti-ku.

Atrofdan miriqib esnash, yo'tal, shitir-shitir, xotinlarning asta so'nib boruvchi shivir-shivirlari eshitilardi.

4

O'rmondagi o'rim-yig'imdan keyin hatto Yangi Ramenye qishlog'i ham jonlanib ketgandek tuyuladi. Yangi molxona devorida bolta ovozi eshitila boshladi. O'sha yerda mashinadan g'isht tushi-

rishardi. Quruvchilar brigadiri Funtikov ingichka belidagi shimini ko'tarib qo'yarkan, qizlarga achchiqlanib baqirardi:

– Senlarga tashlashni! O'zboshimchalik qilishni ko'rsatib qo'yaman! G'ishtni chaqaloqdek avaylab qo'y!

Oftobda kuygan, hamma yog'i qora moy traktorchilar yurishadi, uylar orqasidan motorning g'uvillashi eshitiladi. Shovqin-suron ko'tarilgan. Kolxoz markazi bu, Kudryavinoga o'xshash chet joy emas.

Sashaning bu yerda bo'lmaganiga bir hafta bo'libdi-yu, uni bir qancha yangiliklar bilan kutib olishdi. Kudryavinoga ketayotganida hamma zotli sigirlarning ko'zi og'rigan, sutlari ham qandaydir qo'lansa edi. Hamma nima qilarini bilmay bosh qotirardi.

Buning siri juda oddiy: oxur yaxshi tozalanmas, qolib ketgan yem ustiga yangisi tashlanar ekan. Endi oxur kuniga uch mahal yuviladi...

Sasha, avvallari maysadan yuz o'giradigan ko'pgina sigirlar, hozir jon deb, o'rilgan beda yeyishayotganini bilardi. Lekin shu paytgacha oyoq ostida o'sib yotgan o'tga og'iz ham urmasdilar. Tayyorini yeyishga juda o'rganib qolishgan ekan. Ignat Yegorovich, o'z sigirini birinchi bo'lib yaylovda o'tlashga o'rgatgan mol boquvchi ayolga mukofot tayinladi.

Sasha Ignat Yegorovichni o'z «puchmog'ida» uchratdi. Shunday deb brigadirlar raisning taxta to'silgan bir derazali xonachasini atardilar.

– Hozirgina seni eslab turgandim. Xo'-o'sh, qani gapir-chi, Kudryavinoda ishlar qalay ketyapti?

Sasha o'riladigan yerning yarmidan ko'pini har xil begona o't bosib ketgani, qolgan qismi esa o'rib bo'lingani haqida gapirib berdi.

Ignat Yegorovich xayolchan tomoq qirib:

– O'zimam biluvdim, – dedi va stol tortmasidan qog'oz oldi. – Hisobot berish kerak-ku, xo'sh, qanday qilib? Demak, Kudryavino deb biz oltmish gektar yerni o'rib ololmabmiz-da.

– O't bosib ketdi deb aytish kerak.

– Kimga? Bilishadi. Ko'pchilik kolxozlarda shunday bo'lgan.

Ignat Yegorovich ruchkani oldi-da, o'ychan, siyohdonga botirdi.

– Istasang-istamasang, qolganini qog'ozga pero bilan o'rib qo'yishga to'g'ri keladi.

Sasha Ignat Yegorovichning blanka qog'oziga sanani qo'yib, so'ngra 60 raqamini yozib qo'yganini ko'rdi.

– Ignat Yegorovich! Axir, bu yolg'on-ku!

– Yolg'on, Sasha, yolg'on. Qo'l qo'yyapman-u o'zimni salkam qalbaki pul yasovchidek his qilyapman.

– Tushunmayapman... Bo'lmasa nega?..

Ignat Yegorovich qog'ozlarni chetga surib, stol ustiga tomirlari bo'rtib ketgan og'ir qo'llarini qo'ydi-da, Sashaning hayron boqib turgan ko'zlariga qarab dedi:

– Sen bularni bilmasligingni istardim. Juda ham istardim! Biroq hayot hayotligini qiladi, undan qochib qutulolmaysan. Meni tekshirib turadigan odamlar raqamlar bilan ovqatlanishga o'rganib qolganlar. Sal boshqacharoq raqamni olib borsang, sapchib tushishadi, kolxozimizga ustma-ust do'q-po'pisali qog'oz, telegramma yuboraverishadi. Nega rejani bajarmading? Tumanga pand beryapsiz! Kolxozni buzyapsiz! – deb gap uqtirishning foydasi yo'q! Ularga kerakli raqamni berishing kerak, bo'lmasa ko'zga ko'rinmaysan, hamma ish joyidami, bilinmaydi, gap tamom, vassalom.

– Bundan chiqdi, yolg'on gapirish kerak ekan-da! Vijdoningiz azoblanmaydimi?

– Xo'p, yaxshi, vijdonli bo'laman-da, oyog'imni tirab olaman. Keyin meni majlisma-majlis sudrab yuraverishadi, qo'li bilan ko'rsatishadi. Bu hali holvasi. Ishonmay qo'yishadi, raqamni Xudo deb biladigan vakillarni yuborishadi. Vakillar orqangdan qolmay yurib senga aql o'rgatishadi, ikki qo'lingni bog'lab qo'yishadi. Hamma mashmasha shu kichkina raqam deb... Xohla, yoz, xohlama yozma yoki biroz yolg'onni qo'shib yoz – bu bilan Kudryavino pichanzori butalardan tozalanib, pichani ortib yo kamayib ham qolmaydi. Agarda zarari tegib, yashashimizga xalal berganda edi, kallamiz ketsa ham olishardik. Na ta'na-dashnom-u, na vakillar qo'rqitolmasdi, ishonaver. Hozir esa bola nima bilan ovunsa, shuni berish kerak, yig'lamasa bo'lgani.

Sasha gangib, ma'yus o'tirardi – umrida eshitgan nasihati, halol bo'l, to'g'ri so'z bo'l, vijdonsizlik qilma... edi. Hech to'g'ri kelmayapti, sira tushunib bo'lmaydi...

Ignat Yegorovich Sashaga uzoq qarab turdi-da, gunohkorlarday xo'rsinib, dedi:

– Nimasini aytasan, ish pachava... Odamdan ko'ra raqamga ko'proq ishonishadi.

Sasha bu suhbatni tez orada unutdi. Unga nima...

«Omadsiz» laqabli cho'pon juda quvnoq, mukkasidan ketgan araqxo'r edi. U mukofot daragini eshitib qolib har kuni kechqurun «Katta o'rmon» qishlog'idan kelib, rais hujrasini ajratib turuvchi to'siqqa osilib olib Ignat Yegorovichning asabini o'ynardi.

– Mukofoting nima! Menga araqdan quygin-da, zotlilaringni podamga qo'shishga ruxsat et – tanlab o'tirishmaydi. Eh, omadsizlik!

Hadeb bezor qilaverganidan, oxiri, bir tavakkal qilib ko'rmaymizmi, deb sinab ko'rishga qaror qilishdi. Chindan ham bir necha kundan so'ng «Omadsiz» mol podasiga qo'shilgan zotli mollar mahalliy mollar safida maza qilib o'tlay boshladilar.

Mukofotni «Omadsiz»ga berishmay, uning kampiriga yozib berishdi. Lekin «Omadsiz» haqini qo'ymadi, ikki kecha boshqarma idorasi oldida o'z-o'zidan qoyil qolib, gerdayib yurdi.

– Men bilaman! Sigir boqishni professorlarga ham o'rgatib qo'yaman! Yegorich! Hov, rais! Sen menga ishonaver! Ikkalamiz xo'jalikni balalaykaday sozlaylikki, hayotimiz jannatdagiday bo'lsin!

5

Viloyat qo'mitasidan xat keldi. Pavel Mansurov bu xatni anchadan buyon kutayotgandi. Xatda ozuqa sexlarining afzalliklari ta'riflanib, Borshagov kolxozida bu sexlar qanchalik daromad keltirgani aytilgandi, hamma tumanlarda bu tashabbus qo'llab-quvvatlanishi kerakligi, hozir ozuqa sexlari qurilishiga katta ahamiyat berilayotgani va hokazo haqida yozilgandi.

Odatdagi xat, ammo Pavel Mansurov bu xatni o'qib chiqib, xayol surganicha xonada u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi.

Ozuqa sexlarining qulay va foydaligida gap yo'q. Ammo torf chirituvchi xumchalar ham shunday foydali edi. O'shalar saboq bo'lishi kerak edi-ku...

Bodring, pomidor, karam yetkazish arpa yoki javdar emasku, sepib qo'yib, unib chiqishini poylab yursang. Erta bahorda issiqxonalarga ko'chat ekiladi. Issiq kunlar boshlanishi bilan bu ko'chatlar keng joyga olib ekiladi. Bunda qildek ingichka ildizlarni ehtiyot qilish shart. Qo'pol, dehqonchilik ishiga o'rgangan qo'llar uchun bu ish zargarlik ishidek gap. Buning ustiga, o'rganib qolgan issiqxona tuprog'idan keyin dabdurustdan boshqa maydonda har qanday o'simlik ham yetilavermaydi. Ko'pincha qisman ko'chatlar so'lib, quriy boshlaydi. Ko'p qismi nobud bo'ladi, mehnati qiyin, mashaqqatli ish. Torf chirituvchi xumchalar bunda yordam beradi.

Go'ng va torf aralashmasidan uzunchoq qirrali stakansimon xumcha yasaladi yoki qo'l bilan siqib chiqariladi. Uning orasiga urug' qo'yiladi. Ichiga bodring, pomidor yoki karam urug'i solingan xumcha boshqalar qatori issiqxonaga qo'yiladi... Ildizlar xumchaning qalin tuprog'i orasida qanchalik chirmashib ketmasin, ko'chat qanday o'smasin, vaqti kelib qo'pol qo'llar ularni yerdan sug'urib olaman deb ingichka ildizlarini uzib yubormaydi.

Torf chirituvchi xumchalar juda foydali! So'zsiz foydali!

Bundan uch yilcha avval Korshunovo tumaniga hozirgiga o'xshash torf chirituvchi xumchalar haqida xat kelgandi. Korshunovo rahbarlari o'zlarining ilg'or tashabbusini qo'llashga qanchalik usta ekanliklarini ko'rsatish maqsadida ishni boshlab yuborgandilar. Kolxozlarga jiddiy ko'rsatmalar yuborildi: «...Ommaviy ishlab chiqarish yo'lga qo'yilsin. Falon sanadan falon sanagacha bajarilsin...» Katta-katta raqamlar misol keltirilgandi. Xumchalar ishini to'la yo'lga qo'yolmagan kolxoz raislari, uchastka agronomlari tuman qo'mitasi yoki tuman ijroqo'miga chaqirtirilib rosa gap uqtirilar edi. Xumchalar qo'lda maxsus dastgohlarda yasalar: omborlar, turar joylar, kolxoz idoralari xumchalarga to'lib ketgandi. Qotirilgan xumchalar to'ppa-to'g'ri ko'chalarga ham taxlab qo'yilgandi. Tumanni «xumchalar talvasasi» qamrab oldi.

Havo aynib, xumchalarning bir qismi tuproq uyumiga aylanib qoldi, issiqxonalarning bir qismi urug' yetishmagani bois bekorga qolib ketdi. Bir qismi muvaffaqiyatli yetishtirildi. Erta bahorda ho'l, ancha cho'kib qolgan yosh ko'chatli xumchalarni kolxoz rais-

larining kabinetlarida, kolxozchilarning deraza tokchalarida ko'rish mumkin edi.

Bahor boshlarida sabzavot ekish rejasi kutilganidek amalga oshmagani ma'lum bo'lib qoldi. Zig'ir, kartoshka ekish kerak – bodring, karam, pomidorga esa yer yetmay qoldi. Yana xumchalardagi yetilib qolgan nihollar maydon ko'rmadi.

Kuzda esa bodring, karam oladigan kimsa yo'qligi ma'lum bo'lib qoldi. Korshunovo aholisi ko'p emas, har bir oila o'z tomorqasiga ega. Sanoat korxonalaridan faqat birgina o'rmon kombinati bor, xolos, u ham bo'lsa qo'shni tumanda, u yerda bemalol savdo qilib bo'lmaydi. Bundan tashqari, raislar past narxda sotishga rozi bo'lmaydilar: havo yomon kelib nobud bo'lgan xumchalarga ketgan pulni oqlash kerak edi-da, axir bunga odamlarning mehnati singgan.

Ko'pchilik kolxozlar Velikaya stansiyasiga, o'rmon sanoati xo'jaligi ishchilariga tashlandilar, istar-istamas juda past narx – bir kilogramm bodringga bir yarim rubldan qo'ydilar. Biroq poyezdlarda janubiy tumanlardan xuddi shunday bodring keltirishib, sakson besh tiyindan sotishdi...

Tayyorlovchi tashkilotlar korshunovoliklarni chetlab o'tishardi – olib kelish qiyin, temiryo'l ancha mushkul bo'lgani sababli narxini ham kamaytira olmasdilar. Sabzavot chiriyotgandi. Raislardan biri Aleksey Poprigunsevning ishi sudga berildi. Ko'pchilik kolxozlarda qimmatbaho sabzavotni cho'chqa va sigirlarga bera boshlashdi...

Torf chirituvchi xumchalar foydali narsa-yu, lekin ular Korshunovo kolxozlariga ancha qimmatga tushdi.

Ozuqa sexlar ham foydali. Borshagovning bunday sexlardan katta foyda ko'rayotganiga ishonish mumkin.

Biroq Borshagov kolxozi millionlarni sanashmoqda. Ularning molxonalari allaqachon mexanizatsiyalashgan, allaqachon suv chiqaruvchi minoralar qurilgan, suv quvuri o'tkazilgan, xo'jalik durust edi, faqat ozuqa sexlari yetishmasdi, mana bunisi ham qurildi. Korshunovo kolxozlarida esa buzoqxona tepasini yopish masalasi tez-tez muammo bo'lib turadi.

Ko'p mehnat talab qilmaydi: joy tanlab, yog'och olib kelish, kerakli materiallarni sotib olish-u ozuqa sexi qurilishi boshlandi, deb xabar berilsa bo'ldi. Xo'sh, keyin-chi?.. Bu sexlar bitmay qolib ke-

tishi, qishda eski teshik fermalarda zotli mollar kasal bo'lib qolishi muqarrar. Hamma kuchni ana shu fermalarni ta'mirlash, yangilarini qurishga tashlanganda edi. Reja, hisob-kitob, bu sexlar Korshunovo kolxozlarini umrbod qarzga botirib qo'yishi mumkin.

E'tiroz qilish, mustaqillik uchun kurashish kerak!

Kurashish kerakmi?..

Agar marhum Komelev o'z vaqtida: «Men torf chirituvchi xumchalarga qarshiman!» deganida mutaassiblar qatoriga qo'shilib qolishi aniq edi. Kimning ham qoloq odamga ta'na toshini otib, o'zini ilg'or g'oyalar tarafdori qilib ko'rsatgisi kelmaydi.

Biroq torf chirituvchi xumcha talvasasi chippakka chiqdi, buning uchun Komelevning yuziga solmadi. Nima uchun solishi kerak? U nima talab etilgan bo'lsa, hammasini qildi. Kim yuziga solishi kerak! Avval uni qat'iyligi va keng avj olgani uchun maqtashganmi? Ular ham Komelev kabi oddiy qarorga kelishdi: hech narsa qilolmaysan – hayot qiyin narsa.

Pavel Mansurov ozuqa sexlariga e'tiroz bildirib ko'rsin... E'tiroz bildirmay, loqayd qarasa ham, biron kor-hol yuz bergan kuniyoq: «Sen aybdorsan! Sening harakatsizliging, befarqliging sababli bo'ldi! Bizning eslatib turishlarimizga qaramasdan...» deb malomat toshlarini otishadi. Hech qanday kuch bilan teskarisini isbotlab berolmaysan.

Yangi molxona, silos bostiradigan hovuz va minoralar qurishni boshlab yubor, qishda zotli sigirni saqlab qolish uchun bor imkoniyatlarni ishga sol, baribir rahmat aytishmaydi. Molxona oddiy narsa, u bilan hech kimni hayron qoldirolmaysan. Ozuqa sexlari-chi, yangilik, uni qo'llab-quvvatlasang darhol ko'zga ko'rinasan, hamma seni tirishqoq odam deb hisoblaydi. Agar keyin muvaffaqiyatsizliklar boshlanib qolsa (ehtimoldan xoli emas) viloyatdagilar Korshunovo tumanining omadi kelmayapti-da, deb hayron bo'la boshlaydi... Mansurovning emas, tumanning omadi chopmayapti! Viloyatdagilar tuman qo'mitasi kotibi Mansurov butun imkoniyatni ishga soldi, hatto o'zini zo'r tashabbuschi, qat'iy, tirishqoq odam ekanini ko'rsatdi deb hisoblaydilar. O'zingni ko'rsatsang, Sezarning xotiniga o'xshab shubhadan xoli qolasan.

Pavel u burchakdan bu burchakka asabiy, qalbi jo'shib, ayni paytda ohista borib-kelib turdi, faqat xrom etigi g'irchillar edi.

«Qaysi ahmoq o'zini zarba ostiga qo'yadi? – deb o'ylardi u. – Ozuqa sexlari qurish kerakmi, quramiz. Ammo shu sexlar orqali boylik orttirsak chimdimlab emas, hovuchlab olsak ham tugamaydi. Borshagovning hayratdan va havasi kelganidan barcha tumanlar Korshunovoga boshqacha nazar soladigan bo'lib qoladilar... Shunday qilishdan boshqa iloj qolmadi».

6

Tuman qo'mitasining ikkinchi qavatida ikkita deraza yorug'. Ravshan, yorqin shu'la telegraf simyog'ochining chinni yakkalik uchini yoritib turibdi. Goh u, goh bu derazada bir vaqt oralig'ida soya o'tib turardi.

Shu deraza orqasida – Pavel!

Bir soat oldin kechki kino seansidan keyin xalq o'tib ketdi, hozir ko'cha bo'sh. Faqat o'rmonzordan garmon ovozi kelar, tuman qo'mitasi hovlisida esa kimningdir taxtalarni tashlayotgani eshitilardi.

Katya bir chetda, tuman qo'mitasi binosining oldida turgan simyog'och ro'parasidagi boshqa bir simyog'ochga chakkasini qo'yib suyanib, Pavel Mansurovning o'tib ketayotgan soyasiga tikilardi. Simyog'och bir me'yorda g'amgin g'uvillardi, u yonidan o'tadigan hech bir yo'lovchi xayoliga ham keltirmagan, bilishni ham istamagan o'tmishini kuylardi. Ana shu mungli qo'shiq ostida Katya o'ylayapti.

Pavel Katyaning unga bo'lgan muhabbatini, hammadan maxfiy tuman qo'mitasi derazasi ostida turishini bilarmikin? Qayerdan ham bilsin... Bilganda edi... Faqat bir martagina u Katyaning qo'llarini ushlagan, o'tga solgan, dag'dag'a qilgan, mehribon ko'zlari bilan boqqan. Bir martagina yaqinlikda bo'lishgan. U baxtli dam qaytarilmadi. U paytda Katya tushunmasdi, qarshilik ko'rsatolmadi, taslim bo'ldi-yu, quvonch sezmadi, qo'rqdi. Yosh qizning ahmoqona qo'rquvi baxtli onlarni sezdirmadi. Oh, qani endi, bu onlar yana takrorlansa!..

So‘nggi vaqtlarda odamlar orasida uchrashib qolishar, bir-birlariga ma’noli qarab qo‘yishar, bir-ikki og‘iz ahamiyatsiz gap tashlab qo‘yishardi... Ammo yoshlarning ozuqa tayyorlovchi brigadalari haqida Katyaga aytilgan gaplar ham unga mukofotday eshitilardi.

Katya bir kuni unga ma’ruzachilar ro‘yxatini olib keldi. Pavel Sergeyevich xonada yolg‘iz o‘zi edi. U ro‘yxatga xo‘mrayib uzoq tikildi. Katya uning yonida hadiksirab turardi. Nihoyat, Pavel boshini ko‘tardi, Katyaning qo‘lini ushlab dedi:

– Hayotimiz naqadar noqulay tuzilgan.

Shu payt eshik orqasidan qadamlar tovushi eshitildi, Katya Pavel Sergeyevichning stoli ustida ro‘yxatni qoldirib, zudlik bilan xonadan chiqdi. Kirib kelayotgan Sutolokovga urilib ketishiga oz qoldi.

Katya keyin ana shu g‘alati ibora ustida ko‘p bosh qotirdi. U nimani «noqulay» deb aytdi? Balki qishloqda uylar ko‘p-u, Korshunovo atrofida dalalar poyonsiz-u, yolg‘iz uchrashib bir-ikki og‘iz gaplashib olishga joy yo‘q demoqchidir. Pavel Sergeyevichning o‘zi Katyaning uyiga kelolmaydi-ku, Katya ham Annani ko‘rgani bormay qo‘ydi. Korshunovo yoshlari kabi sohilda yoki o‘rmonzorda uchrashib bo‘lmaydi. Pavel Sergeyevich yosh bola emas, mashhur odam, buning ustiga oilali! Odamlar nima deb o‘ylashi mumkin, bundan keyin qanaqa gap-so‘zlar tarqaladi!

Katyaning simyog‘ochga suyanib, derazaga qarab turgan daqiqalari uchrashuv o‘rnini bosardi. Shu yerda turib nimalarni o‘ylamadi. Nimalarni orzu qilmadi u! Yangi umidlar bilan yashadi, yangi istaklarni his qildi.

U butun vujudi bilan Pavelning yoniga borishni istardi, lekin bunday qilish mushkul, chunki Pavel tuman qo‘mitasidan doim odamlar bilan birga chiqardi. Katya uyiga umidi puchga chiqib qaytar ekan, o‘zini goh yengil his etar, goh xavotirlanardi. Uchrasholmagani uchun hafsalasi pir bo‘lsa, o‘zini yengil his qilishining sababi uni ko‘rgunga qadar holdan ketguncha azob chekishida edi, xavotirining boisi – kechalar birin-ketin bekorga o‘tib borar, ikkisi esa bir-biridan tobora uzoqlashmoqda edi...

Katya har kuni o‘zini o‘zi ertaga huzuriga boraman deb tinchlantirar, har safar ham orzusi chippakka chiqardi. Bir kuni Pavel huzu-

rida Ignat Gmizin o'tirgandi. Katya u chiqib ketguncha kutdi. Gmizin xonasidan jahl bilan chiqdi, simyog'ochga biqinib olgan Katyani sezmay o'tib ketdi. Chorak soatdan so'ng derazadagi chiroq o'chdi, zinapoyaga nimagadir tashvishlangan holda Pavel chiqib keldi. U boshini bukkancha tez nari ketdi. Unga yetib olish, chaqirish kerak edi-yu, lekin Katyaning tomog'iga bir narsa tiqilib, oyoqlari yerga botib qolganday bo'ldi. Shu paytgacha Katya bu qilgan ishi uchun o'zini o'zi kechirolmaydi.

Pavel kabinetda bir o'zi qolganga o'xshaydi. Chiqsa, Katya, albatta, oldiga boradi. Hozir yoki hech qachon!.. Biroq hayajonlanishga hali erta – vaqt bor, Pavel o'z xonasidan hali-beri chiqmaydi.

Bolalarning o'rmonzordan garmon chalib qaytishayotgani, tuman ijroqo'mining keksa otboqari hovlida belkurak sabab farrosh xotin bilan urishayotgani eshitildi. Hamma narsa odatdagiday, hech kim shu deraza ortida kim o'tiribdi, nima qilyapti deya o'ylamaydi. Pavel bo'lsa ular haqida o'ylaydi, bu uning vazifasi!

Mana, hozir u xonasida yurib o'ylamoqda.

Kelishgan, yelkador, qalin jingalak sochli kallasi viqor bilan ko'tarilgan Pavel yengil, shaxdam qadam tashlaydi, hatto eslaganingda ham unga havasing keladi. Tumanning rahbari! Insoniy go'zallik, kelajakning ulug'vorligi, umuman, o'quvchilik davridan boshlab inson qalbini larzaga solgan hamma narsa Pavelda mavjud! Va u, ehtimol, Katyani sevar... Bu qizning buyuk g'ururi, buyuk quvonchi!

To'satdan Katyaning yuragi soviy boshladi. U orqasida kimdir unga tikilib razm solib turganini sezdi. Katya burildi. Yo'lkaning o'rtasida, o'n qadamcha narida o'rta bo'yli ayol ko'rindi, qorong'ida uning oqargan yuzi, qora kamzulining ichidagi oq ko'ylagi ajralib turardi. Ayol Katyaning o'girilganini sezdi-da, qiz tomon sekin qadam tashlab kela boshladi. Katya Annani tanidi.

– Salom... Katya.

Annaning past, sovuq ovozi «Katya» so'zini aytayotganda titrab ketdi. Hurpaygan sochlari orasida uning ozg'in yuzi sirli tuyulardi. Faqat ko'zlarigina yarq etib bir daqiqa Katyaga, yorug' derazaga qaradi-yu, qayoqqadir, qorong'ilikka, cheksizlikka tikilib qoldi.

Katya unga javoban faqat bosh qimirlay oldi xolos, ammo Anna teskari qarab olgani uchun sezmay qoldi...

– Kutyapsanmi? Poylab turibsanmi? – so'radi Anna quruqqina.

Uning ovozi avvalgiday sovuq edi-yu, lekin qahr-g'azab ohangi sezilmasdi. Katya javobga yana so'z topolmadi. U simyog'och oldida, xavf-xatar tahdid solayotgan o'ziga aziz insonni go'yo Annadan saqlayotganday orqasi bilan yashirishga urinib, ko'kragini kerib turardi.

Anna sekin Katyaga yuz o'girdi, uyalib o'tirmay boshdan oyoq unga razm solib chiqdi: Katyaning yuzi shapaloq kutayotganday jiddiy, nigohi qotib qolgan, ko'ylagi tarang tortib turganidan kelishgan ko'kragi chiqib tushar, yarim yalang'och qo'llari orqasida edi.

– Chiroylisan... Yoshsan... Nega bunday qilyapsan?

– Anna... – arang ovoz chiqardi Katya va o'zining begona, ifodasiz ovoziga quloq solib turdi, – nimani xohlaysan?

Anna ufladi. Katya unga yaqinlashib:

– Meni urishib, ta'na qilmoqchimisan?... O'zing bilasan: meni nazar-pisand qilma, nafrat bilan boq – hammasiga chidayman, senga ham, odamlarga ham, hammaga ham bardosh beraman!

– Nima uchun bunday qilding?

– Nima uchunligini bilasan. Bilasan!

– Men-ku bilaman... Sen esa bilmaysan... Sen uni bilmaysan. Mayli, hayotimni buzyapsan... Ha, buzyapsan. Men yosh emasmanki, boshqa er qidirib, boshqatdan turmush qursam, endi men uchun bu juda ham qiyin masala. Kim ham yolg'iz yashagisi keladi... Ammo sen faqat mening emas, o'z hayotingni ham buzyapsan, Katya, o'z, hayotingni!

– Hech narsa eshitgim kelmayapti.

– Yo'q, eshitasan... U senga mehribon, ziyrak, samimiy tuyulyapti. Ha, u mehribon, lekin faqat o'z g'amiga, o'z dardiga nisbatan. U faqat bir narsada odob saqlashi mumkin – o'z shaxsiyatiga nisbatan. Unda samimiylik ham bor... Atrofdagi odamlarga nisbatan o'zining kattaroq ishlarga qodirligiga ishonuvchan odamning samimiyligi bor.

– Yolg'on, yolg'on! Uyalmaysanmi?!

– Sening boshing aylanib qolgan. O‘zingga kelganingda esingda tut – sevgi tugaydi, ammo kech bo‘ladi, hayoting sinadi...

– Meni urishaver, la’natla, ammo unga bo‘hton qilma!

– Baqirma. Men baqirishim kerak. Ranjigan sen emas – men.

– ...O‘zingdan jildirmaslik niyatida eringga tuhmat qilyapsan!...

– Bo‘hton qilayotganim yo‘q!

– Bo‘lmasa nega undan yuz o‘girmaysan, uni qaytarmoqchi bo‘lasan, kechalari meni kuzatasan?

– Chunki men uni shundayligicha, boricha sevaman. Men uni kechira olaman. Sen o‘ylab topilgan Pavelni sevasan. Haqiqiysini bilganingda kechira olmaysan... Es-hushingni yig‘, Katya.

– Eshitishni istamayman! Istamayman!..

Anna javob bermadi, Katyaning yelkasi osha, tepaga, tuman qo‘mitasi derazalariga qaradi. Yoshli ko‘zlari yiltiragan, qorong‘ida yuzlari qordek oqargan Katya simyog‘ochga yopishgancha indamay qotib qoldi. U o‘girilib qarashga jur’at qilmadi, Mansurov derazasida chiroq o‘chganini sezdi. Hozir Pavel chiqishi kerak.

– Hay, mayli, men tushunarsan deb o‘ylagandim. Hozircha, – Anna ovozini ko‘tardi, – men uning qonuniy xotiniman. Sen emas, men uning oldiga boraman.

Anna g‘alati qadam tashlab tuman qo‘mitasi zinasi tomon ketdi. Katya yelkasi osha qorong‘ilikka sho‘ng‘ib ketayotgan Annaning ozg‘in gavdasiga tikilib qoldi. Uning qadam tovushini, ko‘ylagining shitirini tinglab turar va Annaning eri bilan uchrashishdan cho‘chiyotganini, unda qat’iylik yo‘qligini sezdi.

Er-xotinning ovozlarini eshitmaslik uchun, ayniqsa, Pavel sezib qolmasin, deb Katya uyi tomon yugurib ketdi.

U yarim tungacha buvasidan pinhona yostiqqa burkanib xo‘rligidan, Pavelga bo‘lgan sevgisi, sababsiz, tushunib bo‘lmas mehr-shafqati bois yig‘ladi. U haqda nima deb o‘ylashmasin, Pavel haqida nimalar deyishmasin, baribir uni sevadi, sevadi, sevadi!

7

Qizil stol ustiga ikki tomondan bir necha o‘n juft qo‘l qo‘yilgan. Oldinda Ignat Gmizinning og‘ir, katta, oddiy qo‘llari va Maksim Pyaterskiyning suyakdor, qattiq qo‘llari bir-birlariga qarama-qarshi

joylashgan. «Birinchi may» kolxozining raisi Kostya Zaysevning keng, kelishgan, kuchli qo'llari barmoqlari bilan bir-biriga chirmashib ketgan, sabrsiz bo'lib bir-birini ezar, olishardi. Bu odamga hozir aytilayotgan gaplar yoqmayotgani uning qo'l harakatlaridan sezilib turibdi. «Niva»lik raisning oppoq, momiq, ifodasiz qo'llari ibratli, birinchi sinf bolalarining qo'liday odob bilan bir-birining ustiga qo'yilgan. Uning yoniga esa go'yo atayin ajralib turishi uchun qo'yilganday Darya Teryoxinaning ayollarnikiga o'xshamaydigan beso'naqay qo'llari suqilgandi. Bu qo'llar hayotida qanchadan qancha tuproq ag'darmagan, hozir ham qog'ozlarga raislik qo'lini qo'yishdan ko'ra panshaxada bir pudli somonni irg'itish osonroq bo'lsa kerak. Stolning uzoq burchagida qiyofasiz qo'llar sitilib ketgan yenglar orasidan chiqib turardi.

Pavel Mansurov kolxozlarda ozuqa sexlari qurilishini boshlab yuborish haqida gapirar ekan, hech kimning yuziga qaramasdi...

Odamning fe'l-atvorini qo'liga qarab bilsa bo'ladi deyishadi. Ha, shunaqa! Ignat Gmizinning qo'llari eng oddiy qo'llar, Pavel Mansurov ko'proq Ignatdan cho'chiydi.

Birdan faqat Ignatgina emas, anavi rang-barang fe'l-atvorli odamlarning qo'llari ham ozuqa sexlariga qarshi devor bo'lib ko'tarilsachi...

Bunday bo'lishi mumkin emas! Tuman qo'mitasi, viloyat qo'mitasi ham qurilish tarafdori. Kim muammolarga giriftor bo'lgisi keladi? Buning ustiga, marhum Komelev hammani yuqoridan kelgan ko'rsatmalarga so'zsiz itoat qilishga o'rgatgan.

E'tiroz bildirmasliklari kerak! Faqat Ignatning yirik qo'llarigina Pavelni hushyor bo'lishga majbur qilardi.

Pavel gapini tamomlab, qog'ozlarni chetga surib qo'ydi, shundan so'nggina qizil alvondan ko'zini uzib odamlarga boqdi.

Ignatning oqish-ko'kimtir kallasi egilgan. Maksim Pyaterskiyning kemirchagi turtib chiqqan burni, uzun, oriq yuzi ko'rinishdan vazmin, beparvo edi, biroq, faqat tashqi ko'rinishdan. Pavel Mansurovning nigohi unga qadalganda Pyaterskiy shoshib, hech kimga bildirmay «Ovora bo'lasan, nima haqda o'ylayotganimni bilolmaysan...» deganday qovoqlarini tushirdi. Ko'pchilik raislar tuman qo'mitasi

kotibiga tik qaramaslikka harakat qilardilar, faqat qizil mag'iz, tiniq yuzli Dudirinsevgina kotibning nigohini izlab, ko'zlarini o'ynatardi.

Odatda, majlisda muhokama boshlanishidan oldin hamma bir-ikki daqiqa jim o'tirib, tayyorgarlik ko'rardi. Shu bir-ikki daqiqali jimjitlikda Pavel Mansurovni noma'lum xavotir egalladi – mana, u shuncha odam oldida o'zini begonadek sezib o'tiribdi. Hammasi boshini egib, ko'zlarini olib qochishyapti, Pavel haqida nima deb o'ylashyapti ekan, Ignat Gmizinning yiltiroq boshida qanday ginakuduratlar pishib yetilayotgan ekan, Maksim Pyaterskiyning taralgan siyrak sochli kallasida-chi?.. Balki jirkanishayotgandir, balki nafratlanishayotgandir?

– Ruxsat eting ikki og'iz so'zga...

Raislarning orqasida, bir burchakda o'tirgan Serafim Surepkin o'rnidan turdi. Uning sarg'ish, tikan sochli boshi avval bir tomonga, keyin ikkinchi tomonga burildi, rangpar, samimiy, bolalarnikiga o'xshash sodda ko'zlari hammaga bir-bir qarab chiqdi.

– O'rtoqlar! Biz birgalashib kolxozni mustahkamlashga bor kuchimizni sarflashimiz kerak. Bizning vazifamiz, o'rtoqlar, chorvachilikni ko'tarish. Burchimiz – har bir tomchi qonimizni kolxoz rivoji uchun berish...

Surepkinning nutqini majburiyat sifatida eshitishga odatlanib qolishgandi: ma'lum vaqtgacha chidasang bo'ldi, gapini aytib oladi-da, joyiga o'tiradi, buning hech kimga na foydasi, na zarari bor. Pavel Mansurov Komelev hayotlik chog'idayoq beozor yo'riqchini yoqtirmas edi – bunday xodimlarning tuman qo'mitasiga nima keragi bor! Keyinroq uni ishdan olib, uning o'rniga tirishqoq, o'ylab ish qiladigan odamni olmoqchi edi-yu, qo'li bormadi, buning ustiga, Surepkindan norozi bo'lishga hech qanday o'rin yo'q, u halol, aytilgan ishni o'z vaqtida bajaruvchi odam edi.

Lekin hozir baland bo'yli, bukchaygan odamni ko'rib, uning yod bo'lib ketgan, gohida pasayib, gohida ko'tariladigan ovozini tinglaganda Pavel Mansurov kutilmaganda o'zini yengil his qildi – bu odam bir og'iz ham qarshi chiqmaydi, albatta, qo'llab-quvvatlaydi...

Surepkin Pavel nimani istayotganini sezganday har bir so'zi bilan uning joniga ora kirardi.

– O‘rtoqlar, ozuqa sexlari – ulkan ish. Ularni qurish esa – birinchi galdagi vazifa...

Kaltafahm Surepkin, ana shu daqiqada, xo‘mrayib o‘tirgan raislar orasida o‘zi sezmagani holda Mansurovga do‘st bo‘lib olgandi. Pavel uning har bir so‘zini «ha, ha, to‘g‘ri» deb ma’qullab bosh chayqar edi.

Surepkin kamtarona obro‘ga to‘lib-toshib joyiga o‘tirdi. Dudirinsev turdi. To‘lachadan kelgan, ozoda, odamning ko‘ngliga singib ketadigan mayin ovozli bu rais tadbirlarga birinchi bo‘lib javob berar, majburiyatlarni doim oshirib olar, lekin har doim ham ularni bajaravermasdi, u yetishmayapti, bu yetishmayapti deb nolib, asta ilojlini qilardi – davlatga kamroq berib, kolxoz omboriga ko‘proq yig‘ar, kolxozchilarning ham ko‘nglini ovlar, tuman boshliqlarining ham tomog‘ini moylab turardi.

– Pavel Sergeyevich, ozuqa sexlari chorvachilikdagi vaziyatni qutqarishga yordam beradi, deb to‘g‘ri aytdilar. Men qurilish boshlanishi uchun ikki qo‘llab imzo chekaman...

Pavel Mansurov yana «ha, ha, to‘g‘ri» deb bosh chayqadi. Biroq Dudirinsevning so‘zga chiqqani uni hushyor tortishga majbur etdi. Shunday mug‘ambirki, hammaning jahlini qo‘zg‘atib, me’yoridan oshirib yuboradi. Keyin o‘tirgan joyida yelkasini qisib: «Men nima? Men Pavel Sergeyevichning qarashlariga qo‘shilyapman!» – deydi. Pavel Sergeyevichning o‘zi uning uchun javobini beradi...

Shunday ham bo‘ldi. Dudirinsev ozuqa sexlarini maqtar ekan, yo‘l-yo‘lakay ular yangi molxonalardan ham muhimroq deb ketdi. Bu bema’nilik edi. Pavel Mansurov e’tiroz bildirishga ulgurmay, Ignat Gmizin o‘rnidan turib, butun gavdasi bilan joyiga o‘tirayotgan Dudirinsevga burilib:

– Sen hozir ozuqa sexlarining qurilishi kolxozingga foyda keltirishiga ishonasanmi?.. – deb so‘radi. – Javob bermasang ham bo‘ladi. Bilaman – ishonmaysan. Sen-chi, Pavel Sergeyevich? – deya Ignat Mansurovga o‘girildi.

– Ishonaman! – shoshilib javob berdi Pavel. – Ha, men hozir emas, kelajakdagi foydasiga ishonaman.

– Kelajakdagi foyda? Hamma zotli sigirlarimiz ta’mirlanmagan molxonalarda muzlab bo‘lganidan keyinmi?

Ignat Gmizinning shu paytgacha sodda ko'ringan qo'llari kattagina mushtga aylandi va stol ustida po'pisali harakatga keldi.

– Bunday foydaga hech kim ishonmaydi, men ham, Dudirinsev ham, sen o'zing ham, o'rtoq Mansurov! Birgina Surepkin ishonmasa... Ishonmasmiz-u, zo'r beramiz, jiddiy sabablar keltirasiz. Buning boisi – shu ozuqa sexlari bilan viloyatda ko'zga ko'rinmoqchi bo'lyapmiz. Bu qanday gap, o'rtoqlar, hayot quryapmizmi yoki o'yinchoq o'ynayapmizmi? Bunday o'yin juda xavfli. Bu o'yinda butun tuman taqdiri turibdi. Tuman taqdiri bilan hazil qilib bo'lmaydi.

– Seningcha, viloyat qo'mitasi o'yinchoq o'ynayotgan ekanda? – dedi Pavel chidab turolmay. – Biz kimning maslahatiga ko'ra ish boshlayapmiz?

– Viloyat qo'mitasi raisi bizning tumanimizni yaxshi bilmaydi, senga o'xshaganlarga ortiqcha ishonib qo'ygan! Sen o'zing chalg'ib ketding, endi soxta yo'llar bilan qutulib ketmoqchisan...

– Menimcha, biz bu yerda shaxsiy turdagi masalani ko'rib chiqmayapmiz, shekilli, – dedi Mansurov vazmin.

– Sen viloyat oldida o'zimni ko'rsataman deb tumandagi hamma kolxozlar chorvachiligini garovga tikayotganingda shaxsiy masalaga yo'l bo'lsin.

Mansurov shiddat bilan o'rnidan turdi, u basavlat, ko'kragini kerib, kallasini yuqoriga ko'tarib turardi. Yonib turgan ko'zlari bexosiyat qarab turar, ovozi sovuq edi.

– O'rtoq Gmizin! Muhokamani fitnabozlikka aylantirmang. Yo'qsa, sizni so'zdan mahrum qilishga majbur bo'laman.

– Mahrum qilishga ehtiyoj yo'q, men so'zimni tugatib bo'ldim. Yana bir marta takrorlayman: bizning hozirgi vaziyatimizda ozuqa sexlari – xavfli ish!

Ignat Gmizin o'tirdi.

Endi o'tirganlarning hammasi – biri qo'rquv bilan, biri pinhona tantana bilan, boshqasi qiziqsinib Mansurovga tikilib turishardi.

– Menga so'z bering, – deya o'rnidan turdi Maksim Pyaterskiy.

Baland bo'yli, tor yelkali, yuzida soqoli yo'qligini inobatga olmaganda taqvodor rohibga o'xshash bu odam ushlanaverib siyqasi chiqqan qalin yon daftarchasini oldi, shoshilmay kemirchakli burniga ko'zoynagini taqdi-da, sekin gap boshladi:

– Mana, o‘rtoqlar, raqamlarni bir eshiting...

Pavel Mansurov Maksim Pyaterskiyning ozg‘in qornidagi shimining kamariga tikilgancha eshitib o‘tirdi... Ozuqa sexi uchun faloncha yog‘och kerak, ishchi kuchi faloncha, material olib kelish, falon rubllar, yillik daromad hisoboti... Buzoqxona tomini ta’mirlashga yetmay qoladi... Pavel Mansurov esa tinglashni, tushunishni xohlamayapti! U faqat bir narsani biladi: ozuqa sexlari qalqon, ozuqa sexlari parda, agar bular bo‘lmasa viloyat qo‘mitasi oldida uyatli ko‘rinib qolamiz, ayniqsa, Fedosiy Murgin voqeasidan keyin ehtiyot bo‘lish kerak. Qarshilik qilishmaydi, qo‘rqishadi deb ishongan. Qarshilik qilishdi! Endi Ignat aybdor, o‘zini baloga qo‘ydi. Ignat Yegorovich, xo‘p gap eshitasiz endi! Hali Pavel Mansurovning qanaqaligini ko‘rib qo‘yasiz!

8

Pavel ortiqcha qora mol xato ekanligiga, Mansurovning haddan o‘tkazib yuborganiga hammadan ko‘ra Ignatning imoni komil ekanini bilardi.

Ignat Fedosiy Murginning aybi yo‘qligiga, aybini oshirib yuborishganiga ham ishonar edi.

Nihoyat, Ignat Gmizin Pavelning kabinetida Fedosiyning charm qalpog‘ini ko‘rgan yagona odam bo‘lib, o‘tgan suhbat xarakterini fahmlardi. O‘sha suhbatdan so‘ng o‘rmonda cholning murdasini topishgandi. Ignat istasa Murgin voqeasi yana yuzaga qalqib chiqishi mumkin. Bordi-yu shunday bo‘ladigan bo‘lsa, Pavel Mansurovga shubha bilan munosabatda bo‘lishadi.

Ignatning ozuqa yetishmayapti deb doim eslatishi-chi... Molxonalarning qishga tayyor emasliklari haqidagi fikri-chi...

Pavel shu damgacha o‘z odamim, eski do‘stligimiz bor, deb o‘zini tinchlantirib kelardi. Har uchrashganda istasa-istamasa hazilkashlik qilar, yelkasini qoqib, yaqinligi haqida so‘z ochardi:

– Bir-birimizni bozordagi tanishuvimiz bog‘lab turmaydi-ku.

Qandaydir puch orzular ila yashayotganini o‘zi ham sezmas ekan – ehtimol tegmas, gunohidan o‘tar. Shunday tegdiki! Hammaning oldida: «Noto‘g‘ri yo‘llar bilan qutulmoqchisan...» dedi.

Pavel Mansurov endi Ignatni eslasa g'azabi qo'zib ketardi. Uning bo'g'ilgan, ohista, yo'g'on ovozini, sinovchan kichkina kulrang ko'zlarini, qirilgan boshini yomon ko'rar, hattoki tirsaklarini ikki yoqqa kerib, mushtlarini tizzasiga qo'yib, o'zi shunday ham keng odam yana ham yoyilib o'tirishigacha suymaydigan bo'ldi. Odam emas, naq haykalning o'zi.

Raislarning majlisi hech narsani hal qilmadi. Vaqt esa kutib o'tirmaydi. Viloyat gazetalarida esa har kuni yangilik: falon tumandagi falon kolxozda ozuqa sexi qurilishi boshlanganligi haqida xabar bosilib chiqadi. Viloyat qo'mitasida esa Mansurov naridan beri ish qilyapti, degan taassurot uyg'onayotgandi.

Shunga o'xshash ikkinchi majlisni chaqirishdan ma'no yo'q. Raislar yana Ignat Gmizinning keng yelkalari orqasiga o'tib olishadi.

Pavel Mansurov raislarni birma-bir chaqirtirib, yuzma-yuz gaplasha boshladi.

– Mumkinmi?

Maksim Pyaterskiy kafti bilan sochini silab, yonlamasiga kirib keldi-da, ko'zi bilan qalpog'ini iladigan joy axtarib, u yoq-bu yoqqa alanglay boshladi.

Dazmollangan polotno kitel kiygan, soqoli yangi qirilgan Pavel Mansurov o'rnidan turdi-da, unga ro'para chiqib, qo'lini cho'zdi:

– Kiraver, kiraver, Maksim. Qani, o'tiraylik-chi.

Raisning yelkasiga qo'lini tashlab, divan tomon tortdi, o'tqazib yoniga o'zi o'tirdi, xrom etikli oyoqlarini chalishtirdi, portsigarini ochib:

– Chek. Seni qaysi masala bilan chaqirtirganimni bilasanmi? – deb so'radi.

– Payqayapman, Pavel Sergeyevich, – deya chuqur xo'rsindi Pyaterskiy va qirg'iy burnini chetga burdi.

U hozir jang bo'lishini sezdi, bu jangni yengib chiqish oson emas. Bu, o'ng-u so'lingda o'zingga o'xshaganlar o'tirgan majlis emas. Ular gap qistirib qo'yishadi, bosh silkib ma'qullashadi, so'zga chiqib qo'llab-quvvatlashadi – qo'rqmay harakat qilaverasan. Bu yerda esa yolg'iz o'zing. Shkaf oynalaridan qalin kitoblar ko'rinib turibdi, biri qora, ikkinchisi jigarrang, lok yuritilgan ikkita telefon tovlanadi, ularning biri mahalliy bo'lib, kolxoz va tu-

man tashkilotlari bilan, ikkinchisi to‘g‘ri viloyat bilan aloqa qilish uchun mo‘ljallangan. Hamma narsa muhim, hamma narsa katta xizmatga tegishliligini, ishning qanchalik keng miqyosli ekanliligini eslatib turibdi. Pavel Sergeyevich ko‘rinishidan juda sodda, qarashida hech mug‘ambirlik yo‘q, ammo xohlagan paytida turib: «Men tuman qo‘mitasining kotibi sifatida hisoblaymanki...» deyishi mumkin. E’tiroz bildirish osonmi?

– Demak, sen ozuqa sexlari qurilishidan qat’iy bosh tortyapsan-a? – deb so‘radi Pavel Sergeyevich «qat’iy» so‘ziga urg‘u berib.

– Pavel Sergeyevich, o‘zingiz o‘ylang, – deya Maksim Pyaterskiy shohib cho‘ntagidan qalin yon daftarchasini chiqardi.

Ammo Pavel Sergeyevich uni ochishga yo‘l qo‘ymayapti.

– Hammasini tushunaman... Sizning qiyinchiliklaringizdan bexabarman, deb o‘ylayapsiz, shundaymi? Ishchi kuchi yo‘q, shundog‘am kreditdan qarzga kirib ketgansiz... Xo‘p, deylik, qurmaslikka qaror qildik, boshqa tumanlardan orqada qolib, viloyat oldida aybimizni bo‘ynimizga olamiz: kechirasiz, qiyinchiliklarni yengib o‘tishga kuchimiz yetmayapti, deymizmi?

– Tushuntirish kerak, Pavel Sergeyevich. Bunday vaziyatni hisobga olishar...

– Tushuntirish kerak deysanmi? Yoshing anchaga borib qolgan, tajribali ishchisan. Tushunasanmi o‘zing, «kuchim yetmaydi» so‘zi bizga mutlaqo begona. Bu so‘zdan hatlab o‘tishga to‘g‘ri kelyapti.

Pavel Mansurov papiros kulini gilamga qoqib, tozalangan etigining uchini likillatar ekan, osoyishta so‘zlar, Pyaterskiyning ikkilanib bildirgan e’tirozlarini osongina puchga chiqarardi. Maksim Pyaterskiy asta-sekin kurashda mag‘lub kelganiga, qarshilik ko‘rsatishning foydasi yo‘qligiga iqror bo‘ldi.

– Ignat Gmizin miyali boshliq, – shoshilmay gapida davom etdi Pavel Mansurov, go‘yo Pyaterskiyning yutqizganini sezmaganday, – lekin Ignat bilan yaqin tanish bo‘lgan men uchun (sen bilasan-ku, biz hattoki qarindoshmiz) inson sifatida shu paytgacha jumboq bo‘lib kelyapti. Mana, senga bir misol: Gmizin o‘zi zotdor mol so‘ragandi, uni oldi, boshqalar olganidan esa norozi bo‘ldi. Uning bir necha bor: «Oshirib yubordingiz, kuchingiz-

ga yarasha olmadingiz...» deganini ehtimol eshitgandirsan. Hozir ozuqa sexlariga chiqyapti, lekin ishonchim komil, o'zi qurilishga asta-sekin tayyorgarlik ko'radi. O'zi qurib oladi, senga o'xshaganlar esa mana senga, rais rosa boplabdi-ku! – deya hayron bo'lib og'zingizni ochib qolaverasiz. Aniq aytolmayman-ku, biroq u izzattalab, birinchi bo'lgisi kelyapti, faqat o'zim shuhrat qozonsam deb o'ylayapti, shekilli. Bunday shuhratparast bo'lish – chin inson uchun uyat...

Bir soatlardan keyin Maksim Pyaterskiy Mansurov huzuridan, ozuqa sexlari qurilishini boshlab yuborishga va'da berib chiqdi, qalbi gumonlarga to'la edi.

O'n besh daqiqadan so'ng esa Mansurov xonasiga rangi o'chgan qalpoqli odam kirdi va:

– Mumkinmi? – dedi.

Pavel Mansurov yana ro'para chiqdi.

– Ha-a, Nikita Fomich! Kiraver, kiraver...

Suhbat yana boshqatdan boshlandi.

Ignat Gmizin, raislar uning atrofiga to'planishadi deb o'ylayapti. Pavel bunday jamoani zaiflashtirishga kuchi yetishiga ishonadi. Shunday bo'lsa ham bu hali g'alaba emasligini tushunardi...

Maksim Pyaterskiy ozuqa sexi qurilishini boshlab yuboradi: yog'och keltiradi, poydevorni qo'yadi, chala-yarim buzoqxona esa rais vijdonini azoblagancha tomsiz yotaveradi. Buning ustiga, el og'ziga elak tutib bo'lmaydi, deganlaridek, boshqarma a'zolari, kolxozchilar: «Noto'g'ri ish qilyapsan. Bizga ozuqa sexlari shoshilinch lozim emas, buzoqxona suvdan-da zarur...» deb, albatta, malomat qilishadi. Maksim yana shubhaga tushib qolishi mumkin. Gumonsiray boshlasa, kimning oldiga boradi? Tuman qo'mitasi kotibining oldiga bormaydi, kotib uni ma'qullamaydi, albatta. Faqatgina Ignat Gmizinning oldiga boradi...

Hozircha hamma yoq osoyishta. Kolxozlar banklardan kredit olishyapti, yog'och tayyorlashyapti. Sukunat... Ammo uchqun hali tutamoqda, Pavel Mansurov uni bosib o'chirmadi. Birinchi imkoniyatdayoq janjal yana alanga olib ketmasligiga kim kafolat bera oladi?

Faqat mana shu Ignat Gmizin, qichitqio't urug'i!..

9

Ikki hafta oldin «Mehnatkash» kolxozida majlis bo'lgan edi. Majlisda sochi olingan, ammo har doimgiday ortiqcha xushmuomalaligi yo'q, qovog'i osig'liq Ignat Yegorovich, soqoli protokol ustida osilgan Yevlampiy Nogin, Sashaga ayollarga xos nazokat bilan tikilayotgan molboqar Mariya Gulyayeva uch nafar urush qatnashchilari yoki Ignat Yegorovich aytganidek, «gvardiya»chilar Pyotr Miroshin, Fyodor Gulyayev, Ivan Pojinkovlar to'planishgan edi.

Sasha ular bilan stolga yaqinroq o'tirdi.

Majlisga kudryavinolik brigadir Pyotr Miroshin raislik qilardi. U o'rnidan turdi, tomoq qirdi, Sashaga vahimali qaradi-da, e'lon qildi:

– Kun tartibida bitta masala: Aleksandr Komelevni partiyaga nomzodlikka qabul qilish. Ha!

Sashadan o'zi haqida so'zlab berishni iltimos qilishdi. Uning uchun hozir ham avvalgidek, hayot haqida gapirish mushkul. Maktabni tamomlab, hozir kolxozda ishlayapti, bor-yo'g'i shu.

Uni eshitib bo'lishib, ko'nglini ko'tarishib qo'yishdi.

– Qo'yaver, yigitcha, bu orttirib bo'ladigan narsa. Tarjimayi holing hali ko'payadi.

Tavsiyanomalarni o'qishdi, nizomdan so'rashdi, bir ovozdan qabul etishdi.

Sasha tuman qo'mitasining umumiy bo'limida Mansurov huzuriga chaqirishlarini kutib o'tirardi. Mansurov Sashaga hozir nomzodlik biletini topshirishi kerak.

Hozirgina Mansurovning ishchi xonasiga o'rmon sanoati xo'jaligidan kelgan, novcha yog'och tashuvchi – traktorchi yigit kirib ketdi. U xonaga kirguncha shapkasini tizzalari orasida ezg'ilab, ikki-uch marta bukilib xona eshigini ko'rsatarkan, Sashadan pichirlab:

– Og'ayni, bilmaysanmi, u yerda siyosatdan savol-javob qilishmaydimi? – deb so'radi.

Sasha yakka o'zi qolib, cho'ntagidan biletini olib, ochdi. Bilet xuddi kecha berilgandek yap-yangi, besh yil ichida na dog'i, na kiri yo'q edi. Biletni avaylar, terdan sarg'ayib ketmasin deb ishga ham olib bormasdi, endi hatto alam qiladi – juda yangi, sira urinmagan

ham edi. Biletning yoshi faqat sonsiz binafsharang shtamplardan-u, sochlari hurpaygan, ko'zlari boyqushning ko'zlari kabi chaqchaygan go'dak rasmidagina ko'rinib turibdi...

Sasha birinchi bor shu biletni qo'liga olgan kunni esladi. Tuman qo'mitasining kotibi Jenya Voloshina biletni topshirar ekan: «Endi kimligingni esingdan chiqarma!» – dedi. Kuz payti edi, maydalab yog'ayotgan yomg'ir yuzni qitiqlar, tosh yo'l ho'lligidan yaraqlardi, xullas, havo aynigandi. Sasha bilan birga Pasha Varsov ham bilet olgandi. Ular turli sinflarda o'qishgan, o'rtoq ham emasdilar, hatto tungi baliq oviga ham birga borishmagan. Mana endi, tuman qo'mitasidan chiqishdi-yu, yomg'ir yog'ib turgan bulutli kunni, ho'l tosh yo'lni, quloqlarida haligacha shang'illab turgan: «Endi kimligingni esingdan chiqarma!» degan so'zlarni unutmasliklarini fahmlashdi. O'sha kunni, bir-birlarini eslab qolishadi. Xijolatomuz jilmaygancha qo'llarini uzatishdi: «Tabriklayman...» – «Seni ham...»

Onasi biletni ko'rib o'z fikrini aytdi: «Iflos qo'llaring bilan ushlama, darrov kir qilib qo'yasan, keyin qarab bo'lmay qoladi...»

Otasi biletni qo'lida ushlab turib: «Mana, voyaga ham yetding, Sasha. Endi sen bizning yordamchimizsan», – dedi.

Sashaning o'zi bir necha kun davomida o'zini bosib ololmay yurdi. Bir o'zi qolsa kissasidan olib, kulrang muqovali biletdan ko'zini uzmay qarab o'tirardi – ichini ochsang, ko'p raqamlar ostida familiyasi, ismi va otasining ismi to'liq yozilgan. Umrida hech qachon hujjati bo'lmagan – bu birinchisi.

Sasha, bir necha yildan keyin bilet qanday ko'rinishga ega bo'lishini o'zicha tasavvur qilib ko'rdi. Biletini eskirib, ezilib ketgan holda, kim biladi, balki qon sachragan, o'zining qoni sachragan holda tasavvur etdi! Kelajagi ana shu bilet bilan bog'liq. O'sha paytda kelajagini bir ko'rgisi kelardi! Balki biletini dushman sohiliga o'taman deb askar bosh kiyimiga yashirib qo'yar, ehtimol, noma'lum daryo suvi tuman qo'mitasining binafsharang muhrini yuvib ketar, balki bir parchasi ko'kragiga tegib, kulrang muqovaning bir chetini uzib ketar...

Bir necha daqiqadan so'ng nomzodlik biletini oladi, eski biletini esa topshirishi kerak bo'ladi. Yangiligi alam qiladi, faqat bir chetigina biroz sarg'aygan, xolos.

Balki Pashka Varsovning bileti bunday emasdir. U hunar maktabini bitirdi, aytishlaricha, hozir uzoqda, Novosibirskda ishlayotgan emish, hayoti ham sershovqin bo'lsa kerak...

Yog'och tashuvchi yigit xonadan qizarib, og'zi qulog'ida chiqib keldi. U cho'ntagidagi biletini qizg'anib yashirardi.

– Gazeta o'qish-o'qimasligimni so'radi, – dedi ishonch va samimiylik bilan. – Doim kelib turadimi, kelmay qolgan kunlari ham bo'ladimi? – dedi. – Og'ayni, bo'l, qimirla, seni chaqirishyapti, – deb pichirlab qo'shib qo'ydi.

Sasha xonaga kirdi, sarosimalanib salomlashdi, eshik oldida qotib qoldi.

– Marhamat, o'rtoq Komelev, kiravering.

Pavel Sergeyevich o'rnidan turib, jingalak sochli boshini o'ng yelkasi tomon biroz egib, qo'lini uzatdi va erkakchasiga siqib qo'ydi.

– O'tiring.

Sasha stulning bir uchiga o'tirdi. U ham, hozir chiqib ketgan yog'och tashuvchi – traktorchiga o'xshab, qandaydir maxsus, qiyin savol berishlarini kutgandi.

– Institutda o'qiysanmi?

– Ha, sirtqi... – javob berdi Sasha va yuragi orqasiga tortib ketdi: «Birdan talaba deb o'ylab, deylik, empiriokrititsizm haqida so'rab qolsa-chi! Rosa olib qochaman-da...»

– Nechanchi kursda?

– Ikkinchi.

– Tugatganingdan so'ng nima qilmoqchisan?

– Nima? Kolxozda ishlayman.

– Hozir kolxozda nima qilyapsan?

– Mana, pichan o'rimida ishladim.

– Pichan o'rimida kim bo'lib ishlading? Oddiy o'rimchi bo'libmi?

– Oddiy ham bo'ldim. Boshqarma meni Kudryavinodagi brigadaga jo'natgandi...

– Bu yil kudryavinoliklar qalay uddalashdi?

– Yashirishning hojati yo'q, o'riladigan yerlar changalzorga aylanib ketdi. Oltmish gektarcha yer shunday qolib ketdi.

Sasha asta o'zini bosib oldi – savollar oddiy, hayotiy edi.

– Shunday bo‘ldimi? Ma’lumot bo‘yicha hammasi o‘rilganku, – hayron bo‘ldi Mansurov.

– Nima ham qilardik, – dedi Sasha beixtiyor Ignat Yegorovichga taqlid qilib, qo‘lini tashvishli yoyib, – yolg‘on gapirishga to‘g‘ri kelyapti.

– Qo‘shib yozibsiz-da? – shoshib gap tashladi Mansurov. Uning rasmiy xushmuomala murojaati jiddiy tus oldi. Sasha, go‘yo Mansurov uni yolg‘onchilikda qo‘lga tushirganday o‘zini o‘ng‘aysiz sezdi.

– Ha, – deb javob berdi dovdirab.

– Ignat Yegorovich Gmizinning tashabbusi bilandir?

– Ha, – dedi yana Sasha, qandaydir xosiyatsizlikni sezib.

Baxtiga Mansurov shu bilan savolini tugatdi. U o‘rnidan turdi, stol ustidagi qog‘ozlar orasidan jigarrang biletni oldi, yuzi tantanavor tus oldi, ovozi jarangladi:

– Komelev Aleksandr Stepanovich! Shu daqiqadan boshlab siz nomzodsiz! Ishonamanki, siz nomzod degan nomni sharaf bilan oqlaysiz. Mana, biletingiz!

Sasha hayajonlanib biletni oldi.

– O‘rtoq Komelev, ruxsat eting, sizni qutlay, – Mansurovning ovozi yangradi.

Sasha nigohini biletdan uzdi, ko‘zi uzatilgan qo‘lga tushdi. U Mansurovning qo‘lini ushlab, qattiq qisdi.

Kolxozga qaytishda Sasha otini unchalik qistamadi, bir o‘zi qolib xayol surgisi kelardi.

Ro‘paradan kelgan yuk mashinasi, sillasi qurigan ot ter hidi chiqargani kabi, qaynoq benzin hidini ufurib g‘izillab o‘tib ketdi. Orqasidan motor ovozi sekin-asta uzoqlashdi. Ot imillab qadam tashlab borardi. Sasha to‘g‘riga qarab borsa ham uni ko‘rmasdi. Uning xayoli olislarda, sokin daryoday oqib borardi...

...Korshunovo madaniyat uyi, sahna uzra ikkitagina chiroq yonib turibdi. Zalda bolalar va ota-onalarning chehralari ko‘zga tashlanadi... Birgina kamzul, uning ustiga bosh yalang bo‘lsang sovqotasan…

Deyarli yetilgan arpa issiqdan darmoni qurib, bo‘ynini yergacha egyapti. Havo dim. Kechga borib yomg‘ir quymasmikin?

U Sasha o‘tgan yili Ignat Yegorovich bilan shu yo‘ldan ketayotganida yomg‘ir ostida qolganini esladi.

Hozir Ignat Yegorovich kutyapti... Kecha kechqurun ular dars qilib bo‘lishib, zinaga – yulduzli osmon ostiga chiqib o‘tirishdi. Ignat Yegorovichning qovog‘i osilgan, papiros chekar, nima haqidadir, ko‘rinishidan xunuk narsa haqida xayol surardi.

Sasha, nima haqda o‘ylayotganini so‘radi.

– To‘g‘rilik haqida, Sashka, – deya javob berdi Ignat Yegorovich.

– Nega endi to‘satdan to‘g‘rilik haqida?

– To‘satdan emas. Hayot shunga majbur qilyapti.

– Nimalarni o‘ylayapsiz?

– Men birovning cho‘ntagiga tushmagan emas, tushayotganini ushlab olib, o‘g‘rilikning oldini olgan odam halol deb o‘ylayapman. Bunisi murakkabroq. Ertaga hujjatlarni olgani borasan, esingdan chiqmasin.

Bu so‘zlarni eslash qiyin emas, mana, hozir ham eslayapti, lekin Sashaga buning ma’nosi tushunarli emas: kimni ushlash kerak, kim cho‘ntakka qo‘l tiqyapti? Negadir Ignat Yegorovich aqllilik qilyapti.

10

Ignat Yegorovich band edi. Uning hujrachasida o‘tirgan viloyat gazetasining muxbiri har savollar bilan uning boshini qotirayotgandi.

Sayyor muxbir Ilya Romadskiyning yoshligidagi g‘ayrati boshidagi qalin sochlari bilan birga tamom bo‘lgandi. Tepakali hozircha atrofida qolgan qora sochlari orasidan ko‘rinmasdi. Romadskiy biroz semirgan bo‘lsa-da, serharakatligini, yoshligidagi kuchini yo‘qotmagandi. Gazeta ishidan faxrlanar, ammo hali «moviy ko‘zli baxt» va «oltin soch»larga bag‘ishlab lirik she’rlar yozib turardi. Garchi xotini qora sochli ayol bo‘lsa ham, erining moviy ko‘z va tillarang sochga bo‘lgan muhabbatini kechirar, uning odobliligiga qattiq ishonardi.

Ilya Romadskiy o‘zini yetilgan muxbir, ma’lumot yig‘ish bo‘yicha usta deb hisoblardi. Bu ishda u quyidagi nazariyaga rioya qilardi. Bizning hayotimizda eski, o‘lib borayotgan emas, yangi,

vujudga kelayotgan narsa muhim. Hayotimizda yangilik bo'lgani ma'qulroq. Demak, dastlab eng yaxshi kolxozlarni, yaxshi odamlarni yoritish kerak. Yomon kolxoz, yomon odamlar esa eskilik, o'limtik bir narsa, ular e'tiborga loyiq emaslar.

Shu sababli Ilya Romadskiy Korshunovo tumaniga kelayotib shahardaligidayoq tumanda eng yaxshi kolxozlardan biri «Mehnatkash» ekanini bilib olgandi.

Stansiyada avtosug'orgichlarga asbob-uskunalar olgan haydovchi Nikita Shurenkov muxbirni plashi, fotoapparati va ko'rinishigina chamadonga o'xshash kichik sumkasi bilan birga Yangi Ramenyega olib kelib qo'ydi.

Ilya Romadskiy shlapasini ensasiga tushirib olgan, eskirib ketgan kamzulida, tuguni kirlanib ketgan bo'yinbog'da Ignat Gmizin qarshisida paydo bo'ldi.

Hali raisni ko'rmagan bo'lsa ham, u haqida eshitib uni sirtdan yaxshi ko'rib qolgandi. Bo'lmasam-chi, axir u bo'lajak ocherkining bosh qahramoni-ku.

– Meni kechirasiz, vaqtingizni olaman. Atayin siz bilan suhbatlashish uchun keldim...

Har bir yangi odam Ignatni xijolatga solardi, bu esa gazetaga yozadigan muxbir. Ignat aybdorlarday kulib qo'ydi.

– Bilmayman, yaxshi suhbatdosh bo'la olarmikinman... – Romadskiy o'zining bo'lajak qahramoniga tikildi, uning timsolini qanday yozishni xayoldan ko'z oldiga keltirdi: «Miqti, erkinlikda o'sgan daraxt kabi baquvvat... Aqlli, ruslarga xos yuz tuzilishli...»

Raisning hujrachasida o'tirib olgan Romadskiy har doimgi savollarini bera boshladi:

– Zotdor mol qanday ko'nikyapti?

– Yomon emas, nolimayapmiz.

«Rais Gmizin o'z muvaffaqiyatlari bilan maqtanadigan odamlardan emas. U javobga ziqna...» – yo'l-yo'lakay o'zicha qayd qilib qo'ydi Romadskiy.

– Ozuqa tayyorlash ishi qalay ketyapti?

– Hali o'tgan yilgi silosimiz yetadi, lekin bu yil ham tayyorlab qo'ydik. Silos va poxoldan yetishmovchiligimiz yo'q.

«...Biroq ana shu xasis javoblardan kolxoz xo'jaligi qanchalik tartibga qo'yilganini bilish mumkin...»

– Albatta, siz birinchilar qatoriqa ozuqa sexlari qurilishiga kirishgandirsiz?

Ignat Gmizin yelkasini qisib qo'ydi:

– Hozircha o'ylamayapman.

– Qanday qilib?

– Bizga birinchi navbatda avtosug'orgich, elektr sog'uvchi agregatlar, xullas, hammasi mexanizatsiyalashgan yangi molxonalarni jihozlashimiz kerak. Orzumiz – cho'chqaxona qurish.

– Ozuqa sexlari-chi?

– Hali vaqtli.

– Shuncha imkoniyatlaringiz bilan yangilikdan voz kechyapsiz-a! Yo'q, yo'q, hech miyamga sig'mayapti.

– Yangilikni butalardek yulib cho'ntakka sololmaysiz. Atom elektrostansiyasi, deylik, gidroelektr stansiyasiga qaraganda ancha ilg'or narsa. Biroq hozir mamlakatimizda keng ko'lamda gidroelektr stansiyalari qurilmoqda. Hamma narsaning o'z fursati bor, vaqti keladi, ozuqa sexlari ham qura boshlaymiz.

Ignat Gmizin butun gavdasi bilan stolga egilib, muxbirga nima uchun hozir kolxozda ozuqa sexlaridan ham mexanizatsiyalashtirilgan fermalar qurish kerakligini bafurja so'zlab berdi.

Romadskiy Gmizinning oldida biroz gangib chiqdi. U «hayotni chuqurroq o'rganish kerak» so'zlarini hadeb qaytarib aytishni yaxshi ko'rardi, har safar sayohatga chiqar ekan, u o'z so'zining ustidan chiqayotganiga ishonchi komil edi. Lekin hayotni chuqurroq o'rganishga uning vaqti yetishmasdi, chunki bir kolxozda ko'proq ushlanib qololmas edi. U o'z ko'zi bilan ko'rib, masalani aniq hal qilish o'rniga beixtiyor birovlarning fikriga quloq tutib, o'z fikriday aytardi. Xuddi shu, birovlarning fikrini to'plashni u hayotni chuqur o'rganish deb bilardi.

Hamma tahririyat xodimlari ozuqa sexlarini har taraflama foydali deb hisoblashar, Romadskiy ham shunday fikrda edi. Mana endi butun viloyatga mashhur bo'lgan rais Ignat Gmizin teskarisini aytyapti. Romadskiy ikkilanib qoldi.

«Birma-bir dalillarni o'rtaga tashlab – ozuqa sexlarining qurilishi hamma yerda ham birinchi galdagi vazifa emasligini isbotlab, bir qavat maqola bilan chiqsa-chi?..» Darhol ocherk shov-shuvga, qizg'in muhokamalarga sabab bo'lganini ko'z oldiga keltirdi. Mas'ul kotib Sorochinsev, albatta, ocherkni chiqarishga qarshilik qiladi. Bo'lim boshlig'i Korolkov esa dadil maqolalarni ep ko'radi.

Ammo birgina Ignat Gmizinning fikri kamlik qilardi.

Romadskiy Ignatdan Korshunovo qishlog'iga «tashlab o'tishni» so'radi. Ikki soatlardan keyin esa u Mansurovning xonasida o'tirib, yaqindagina bo'lib o'tgan suhbat haqida unga xotirjam hikoya qilib berdi.

– Siz nima deb o'ylaysiz, – deya Romadskiyning so'zini bo'ldi Pavel. – Gmizin haqmi yoki nohaq?

– Qisman haq deb o'ylayman.

– Qisman? Hm...

Romadskiy gapini tuzatmoqqa oshiqdi.

– Balki ko'p narsalarda haqdir.

– Siz, gazeta xodimlarisiz, – deya ta'sirchan gap boshladi Pavel Mansurov, – hayotga ko'pincha katta qilib ko'rsatadigan oyna orqali boqasizlar. Sizlar uchun bironta kolxoz raisi o'zicha oyog'ini qimirlatsa bas, shu zahotiyoq, bu o'rtoq kelajak sari shaxdam qadamlar tashlab boryapti, deya olamga jar solasiz.

– Yashirmayman, bunaqa holatlar ham bo'lib turadi.

– Ignat Gmizin – fahmli xo'jayin, aqlli dehqon. To'rt yil ichida kolxozni tanib bo'lmas darajaga olib keldi...

– Ha-ha, men buni sezdim. Uning ozuqa sexlari haqidagi fikrida jon bor.

– Biroq bu odam murakkab shaxs...

– Tasavvur qiling, ko'rinishdan oddiy...

– Bu odamning hamma ma'qullagan tashabbusga qarshi chiqishining birgina boisi – raqib orttirgisi kelmaydi...

Pavel Mansurov stuldan turib, xonada u yoqdan bu yoqqa yurib, muxbirga uning bo'lajak ocherkini aytib berayotgandek baland ovozda ishonch bilan gapirardi. Muxbir bo'lsa labini tishlab, xonada borib-kelayotgan kotibni o'ynoqi ko'zlari bilan kuzatar, uning har bir so'zini o'tkazib yubormaslikka intilardi.

– U qalbi toza, tartibli odam, kolxozchilar uni jiddiyligi uchun hurmat qilishadi, ammo aslidagiga qaraganda yaxshiroq bo‘lib ko‘rinish, har doim birinchi bo‘lish istagi Gmizinni qing‘ir ishlar qilishga majbur qilyapti. Bir necha soat oldin nomzodlik biletini olayotgan «Mehnatkash»lik kolxozchi menga Gmizin tumanga soxta ma’lumot yuborayotganini aytib berdi.

– Qanday qilib?

– Juda oddiy. O‘tloqlarning ayrim yerlarini changalzor bosib ketgan emish. Changalzor orasidagi o‘tni yig‘ib olish o‘rniga Gmizin raqamning o‘zini yozib yuborgan, xolos. Agar jiddiy qaralsa, u tuman qo‘mitasini, odamlarni, davlatni aldagan!..

– Kechirasiz, bu haqda sizga xabar bergan kolxozchining familiyasi nima edi?

– Komelev. Aleksandr Komelev. Marhum tuman qo‘mitasi kotibi Komelevning o‘g‘li. Yaxshi yigit. Kolxozda ishlaydi, qishloq xo‘jalik institutida sirtdan o‘qiydi. Bugun men unga hujjat topshirdim.

– Xo‘sh, xo‘sh, eshitaman....

Romadskiy o‘sha kuniyoq Korshunovo tumanini tark etdi. Yo‘lyo‘lakay vagonda ketarkan, hayajonlanar, o‘zida ijod ilhomini tuyardi.

U ocherkni «Mehnatkash» kolxozining raisi bilan uchrashgani, raisning o‘zida qanday taassurot qoldirganidan boshlaydi: «Baquvvat, erkinlikda o‘sgan daraxtday baquvvat... yuz tuzilishi ruslarga xos, aqlli... Gmizinning aqlli xo‘jayin ekanligini, kolxozchilarning hurmatiga sazovorligini ham yashirib o‘tirmaydi, avval o‘quvchida unga nisbatan havas uyg‘otadi-da, keyin birin-ketin uning tub mohiyatini ochib tashlaydi: izzattalab, boshqa kolxozlarning ham o‘z qatori ilg‘or bo‘lishini istamaydi, ilg‘or yangiliklarga keskin qarshilik ko‘rsatadi, aldam-qaldam ishlarga o‘ch...» Axir u serqirra, murakkab obraz! Juda ajoyib material uchradi-da!

11

Korshunovo mashina-traktor stansiyasi eski ibodatxonaga joylashgan bo‘lib, pastda vagranka[1] va temirchilik sexi joylashgan edi.

[1] *Vagranka* – cho‘yan eritadigan pech.

Ilgari mehrob bo‘lgan podsho darvozasi orqasidagi joy hozir direktor xonasiga aylangan. Tashlandiq qo‘ng‘iroqxonada esa kaptarlar xo‘jayinlik qilishadi. Ibodatxona ayvonida bo‘lsa, odatda, traktorchilar, haydovchilar, ish bilan kelgan kolxozchilar bir-birlariga tamaki xaltachalarini uzatib, chekishib, cho‘zilib dam olib yotishadi.

Sasha butaqirqqichni Kudryavinodagi brigadaga yuborish haqida gaplashgani kelgandi. Direktor yo‘q edi. Tushgacha qaytaman deb va’da bergan ekan. Sasha hamma qatori ayvonda o‘t, yoqilg‘i, podshipniklarni sozlash haqidagi gaplarni tinglab o‘tirar edi...

Cho‘yan panjara oldida sim to‘r bilan o‘ralgan gazeta vitrinasining oldiga bir dasta gazeta ko‘tarib bir qiz keldi, shoshilmay vitrinadagi gazetalarni yangiladi-da, ayvonda o‘tirganlarga qarab baqirdi:

– Valaqlab o‘tirgandan ko‘ra gazeta o‘qing! Tumanimiz haqida yozishibdi.

«Porloq yo‘l» kolxozidan kelgan chol birinchi bo‘lib sakrab o‘rnidan turdi-da, qizning oldiga bordi.

– Shoshma, go‘zal qiz. Kerak bo‘lmagan gazetalarni tamaki o‘rashga qoldirib ket.

Gazetani oldi-da, buklayotib vitrinaga tikilgancha turgan joyida qotib qoldi.

– Nima deb yozishibdi, borib o‘qib ko‘raylik-chi, – deya yana bir traktorchi erinchoqlik bilan o‘rnidan turdi.

Birozdan so‘ng gazeta vitrinasi oldida olomon yig‘ildi.

Traktorchi ikkita katta-katta yamoq yopishtirilgan orqasini chiqarib, bukilgancha bor ovoz bilan o‘qidi:

«Chuqur mulohazali, tadbirli xo‘jayin, qobiliyatli tashkilotchi rais Gmizin bor kuchi bilan ilg‘or yangiliklarga qarshilik ko‘rsatyapti. Buning sababi nima?..»

– Mana, xo‘jayinlarga qarshi chiqishning oqibati.

– Hm, bechoraning ta’zirini berishibdi.

– Jim turinglar, ahmoqlar! Quloq tutinglar. Seryoga, o‘qiyver.

– «Sababi nima?.. Sababi shuki, o‘rtoq Gmizin nihoyat darajada xud... xudbin maqsadda...»

Sasha quloqlari tepasida kimningdir qaynoq nafasini tuyar, g‘ujanak bo‘lib olib eshitardi-yu, lekin nima bo‘lganini yaxshi anglab ololmasdi. Shu vaqtgacha u Ignat Yegorovich haqida vijdonsiz,

o‘z manfaati yo‘lida hiyla ishlatadi, deb hech kimdan bir og‘iz so‘z eshitmagandi, hattoki, hech kim shama ham qilmagandi. Hamma unga hurmat bilan qarardi. Birdan shunday malomat qilishsa! Kolxozga deyarli dushman. Hammasi o‘zgarib ketdi! Haqiqat qani? Nimaga ishonsin?

Traktorchi Seryoganing qoqinuvchi so‘zlari olisdan eshitilayotgandek edi, miyasini egallab olgan, dovdiratuvchi chalkash fikrlar asl ma’nosini darhol ilg‘ab olishga yo‘l qo‘ymasdi. Qo‘qqisdan Sasha cho‘chib ketdi – traktorchi uning ism-familiyasini o‘qidi. O‘qidiyu, jimib qoldi. Sashani o‘rab olgan odamlar qimirlab qolishdi, u hammaning o‘ziga qaratilgan hushyor nigohlarini sezardi.

– «...Kolxozchi Aleksandr Komelev, – davom etardi traktorchi, – tuman qo‘mitasi kotibi Mansurovning qo‘lidan nomzodlik biletini... nomzodlik biletini olarkan, bunday dalilni yashirib turolmasligini aytdi... rais Gmizin tuman qo‘mitasi va tuman ijroqo‘miga noto‘g‘ri ma’lumot yetkazadi...» Yo Xudo! Bundan chiqdi, muttahamlik qilibdi-da. U qilganga hech o‘xshamaydi-da.

– Qanday dalil? Men aytmadim! Hech narsani aytmadim! – achchiqlanib baqirdi Sasha.

– Jim tur, og‘ayni. Xo‘rozligingni keyinroq qilarsan, – deya orqadan kimdir uning gapini bo‘ldi.

– «Uydirma ma’lumot...» E-e, ablahlar, chalkashtirib yubordinglar... mana... «Mehnatkash» kolxozidagi o‘tloqlarning bir qismini changalzor bosib ketgan. Buning o‘rniga...»

Sashaning oyoqlari bo‘shashib ketdi, tik turishga majoli qolmadi, boshqa eshitolmaydi, chetroqda o‘tirib, o‘ziga kelib olmoqchi bo‘ldi. Lekin u qimirlashga jur’at etolmasdi, oxirigacha eshitdi.

Traktorchi o‘qib bo‘ldi. Odamlar harakatga keldi, asta-sekin tarqalib, ibodatxona pillapoyasi tomon ketishdi.

– Tosh tashlashibdi.

– Oshirib yuborishibdi.

– Oshirib yuborishganmi, yuborishmaganmi, endi kech. Bo‘yniga qo‘yishibdi, gap tamom.

– Endi raislikdan olib tashlashsa kerak.

– Albatta... Viloyatda hamma devorlarga yopishtirib chiqishgan.

Sasha nari ketdi, panjaraning g'isht fundamenti ostidagi maysaga o'tirdi, yuztuban qilib yotdi. Atrofdan esa odamlarning gapi eshitilar edi. Uning eshitib qolishidan ham qo'rqmasdan, odatdagidek gaplashishardi.

– Qarang, yigitcha qiynalyapti, shekilli.

– U nega qiynalar ekan. Uni emas, raisni do'pposlashgan.

– Axir Ignat uni sigir o'z buzog'ini parvarish qilgani kabi ardoqlardi.

– Shuning uchun pand beribdi-da.

– Hali yosh, yosh bo'lsa ham birovlarning hisobiga obro' orttirishni biladi.

Sasha sakrab o'rnidan turib, nari ketdi.

Rjavinka qirg'og'i tomon so'qmoq yo'l goh yopishib, goh uzoqlashib boradi. Bu so'qmoq ham tosh yo'l kabi Yangi Ramenyega olib kiradi. Ammo tosh yo'l jarlik, tepalik, dalalarni to'g'ri kesib o'tsa, o'jar daryo kabi buralib boradi. Undan yurilganda Yangi Ramenyegacha ikki barobar uzoq.

Oqimning zo'ridan titrab turgan qamishlar uchida ninachilar jimgina, xayolchan qo'nib turishadi. Jiblajibonlar ingichka dumlarini likillatib suv yuzida toshdan toshga sakrab yurishadi. Quyosh butalarni ham, daryoni ham jonlilik bilan nurlariga burkagan.

Rjavinkaning yoqimli sokinligi ham, tez harakati ham Sashani tinchlantirmasdi.

U Ignat Yegorovichga o'g'li kabi bo'lib qolgandi. Orqasidan yashirincha chaqimchilik qildi – qilgan yaxshiliklariga javobi shumi? Odamlar: «Nonko'rlik qildi... Birovlarning hisobiga obro' orttiryapti...» deyishyapti. Birovlarning hisobiga! Birov emas, demak, Ignat Yegorovichning yuziga oyoq qo'yibman-da! Nega bunday bo'ldi? Mansurov! Axir faqat ugina aytishi mumkin edi, faqat u!

Daryo o'rtasida yumaloq katta toshlar yotardi. Ustini ko'm-ko'k shilliq parda qoplagan, kovakli, unsiz, qarib xunuklashgan bu xarsang toshlarni daryo o'ynoqi suvi ila qitiqlar hamda muloyimlik bilan oqib o'tardi.

Ignat Yegorovich bilan uchrashib qolmasa bo'lgani! Uyat bo'ladi. Dahshat. Uning nigohi, ovozi ham, hatto indamay qo'ya qolsa, hech narsada ayblamasa ham qo'rqinchli emasmi? Uchrashib, Yangi Ra-

menyega borib bo‘lmaydi. Odamlar-chi?.. Axir u yerda Ignat Yegorovichni taniydiganlar ham bor-ku. Agar begonalar: «Pand berdi...» degan bo‘lsa, ramenyeliklar nima deydi? Hattoki Nastya ham undan yuz o‘girsa kerak...

So‘qmoq butalar orasiga kirib ketdi, yerdan bo‘rsiqqan hid taraldi. U qadam-baqadam Yangi Ramenyega yaqinlashyapti. Nega ketyapti? U yerda ko‘zga ko‘rinmasligi kerak-ku!

Mumkin emasmi?.. To‘xtab, jimjitroq joy topib, o‘t ustida biroz yotish kerak... Suv toshlar orasidan sharillab oqyapti, ninachilar shoxchalarda osilib yotishibdi, jiblajibonlar sakrashyapti. Ana shularni tomosha qilib, hech narsani o‘ylamay tungacha yotsa... Kechasi uyga, onasining oldiga borsa-yu, biroz pul olib, ertalab birinchi mashina bilan stansiyaga jo‘nasa. Butun uyat va sharmandagarchiligini shu yerda qoldirib ketsa.

So‘qmoq butalar orasidan chiqib, javdarzorga kirib ketdi. Bu yil javdar juda baland bo‘lib o‘sdi, boshoqlari o‘zini ko‘z-ko‘z qilyapti... U hamon ketardi. Ketyapti, lekin qayoqqa? Nimaga? Borishi mumkin emas!

Mumkin emas?.. Yashirinib olsinmi?.. U paytda Ignat Yegorovich, haqiqatan ham uyatdan qochib qoldi, pastkashni katta qilgan ekanman, deydi. Va haq bo‘ladi!

Sasha qadamini tezlatdi, boshoqlar yuziga urila boshladi...

Hammasi kutilmaganda oddiy bo‘lib chiqdi. Sasha yuragini hovuchlab rais hujrasining eshigini turtdi. Ignat Yegorovich uni xotirjamlik bilan qarshi oldi, «o‘tir» deya bosh silkitdi-yu, yozishda davom etdi. Uning tomirlari o‘ynab ketgan katta qo‘li ingichka o‘quvchilar ruchkasini ushlab, tirishqoqlik bilan harflarni birma-bir tizib borardi. Nihoyat, qog‘ozni chetga surib qo‘ydi, chekdi-da, dedi:

– Qani, aytib ber-chi, nima bo‘ldi?

Sasha ko‘zlarini katta ochib, hayrat va minnatdorchilik aralash Ignat Yegorovichga tikilib qoldi. U esa iljayib:

– G‘azab otiga minadi deb o‘ylaganmiding? – dedi.

– Ignat Yegorovich! Bunday bo‘lmagan... Hammasi biroz boshqacha...

– So‘zlab beraver. Boshqacha ekanligini bilaman.

Sasha tutilib, hovliqib Mansurov bilan bo'lgan suhbatni aytib berdi.

– Yaramas!

– Ignat Yegorovich...

– Sen emas, Mansurov yaramas... Sashka, hayotimizda chegaralar bo'ladi. Ba'zida bu chegaralar torlik qilib qoladi. Deylik, shifer sotib olish kerak, bankda pulimiz ham bor, lekin smetada yo'q bo'lgani uchun berishmaydi. Beda ekish kerak bo'lib qoladi – mumkin emas, dastur ko'rsatmasiga xilof. Bunday ma'lumotlar bo'lsa... Kudryavinoda o'tloqlar chakalakzorga aylanganiga o'n yildan oshib ketdi, ma'lumotda ana shularni ko'zda tutishimizni talab qilishadi. Kim smeta, dastur, ma'lumotlarini chetlab o'tmagan deysan? Men chetlab o'tdim. Meni sudla – javob beraman, ammo menda ham, boshqa raislarda ham chetlab o'tish ehtiyoji qolmaslik masalasini ko'tar, hayotni to'g'rila. Biroq Mansurovga bu kerakmi? Uning uchun xizmat vazifasi – faqat hammadan baland bo'lish uchun xizmat qiladigan pog'ona, xolos... Xo'sh, Pavel Sergeyevich, ochiqchasiga so'zlashib oladigan vaqt keldi... Mana, Sasha, o'qi: viloyat qo'mitasiga yozdim...

Sasha qo'liga qog'oz oldi.

12

G'adir-budur gazeta qog'ozida yozilgan so'zlarning kuchi ulkan.

Ignat Gmizinning barcha tanish-bilishlari maqolaga qo'shilmas, ko'pchiligining hatto g'azabi qaynar, ba'zilar esa chin dildan achinardi:

– Pero bilan qog'ozni qoraladi-yu, qara – uchiga chiqqan firibgarning oyog'ini sindirdi

– Bunday mushtdan so'ng oqsoqlanmaslikning iloji yo'q.

Odamlar Ignat Gmizinga achinishar, kimga rahm-shafqat qilinsa, beixtiyor o'sha odamni kuchsiz, zaif deb hisoblab unga ishonmaydigan bo'lib qolishadi.

Ignatning o'zi esa qanday yashagan bo'lsa, shunday yashayverdi. Ertalabdan dalaga ketardi – oralab o'radigan vaqti kelmadimikan, deb mo'ljallar edi. Kunduz kunlari uni yangi molxona qurilishida

uchratish mumkin edi. U yerda yo'lkalarni beton qilishar, avtosug'orgichlar o'rnatishar edi. Ignat oldingiday xotirjam, o'ziga pishiq, sochi to'kilgan boshiga shapkasini bostirib kiyib olib, qishloqda og'ir va dadil qadam tashlab yurardi. Uni har kuni ko'rib turadiganlar esa bora-bora gazetadagi maqolani eslaridan chiqara boshladilar. Faqat Sasha eslar, hech tinchlanolmasdi.

Sashaning uyi bilan yalanglikda joylashgan maktab orasida oldinlari tog'terak o'sib yotardi, hozir u yerga qishloq do'koni va omborxona qurilgan, Sasha har kuni shu tog'terak oldidan bir necha marta u yoqdan bu yoqqa o'tardi-yu, uni sezmasdi, ahamiyat ham bermasdi. Yoz kunlarining birida, yomg'irdan so'ng, og'ir va past uchayotgan bulutdan hamma yoqni qorong'ilik bosib, xira ko'lmaklargina u yer-bu yerda ko'zga tashlanayotgan bir vaqtda Sashaning nigohi tasodifan tog'terakka tushib qoldi. Nigohi tushdi-yu, to'xtab qoldi: tog'terakning ingichka metallsimon tanasi sovuq yiltirar, yengil barglari uni qurshab olgan, rangi ham tanasiga o'xshash, xira kumushsimon sovuq edi. Daraxt tirik, u nafas olyapti, quyuq zah havoga cho'milyapti. Necha yil yonidan o'tib yurib daraxtning go'zalligini payqamagan ekan, hozir xohlasang bir soat, ikki soat tomosha qil – hech zerikmaysan. Kashfiyot!

Goho inson go'zalligiga ham ana shunday mahliyo bo'lib qolasan kishi.

Sasha Ignat Yegorovichni bir kun emas, bir oy emas, bir yildan ortiq biladi. Endi hech narsasi bilan uni hayron qilmasligi kerak edi, nima deyishi, nima qilishi Sashaga oldindan ma'lum tuyulardi. Ammo mana oddiy voqea: gazetada chiqqan maqoladan keyin jahli chiqib, undan yuz burish o'rniga Ignat Sashani oddiy so'zlar bilan kutib oldi: «Qani, aytib ber-chi, nima bo'ldi?» Sasha hayroq qoldi, izohsiz tushundi. U Ignat Yegorovich ranjiydi, deb o'ylagandi. Qanday qilib Ignat Yegorovich haqida bunday o'ylashga haddi sig'di? Axir uni yaxshi bilardi, birga yashagan...

Kundan kunga nafrati ortib borardi – qanday insonni nohaq ayblashdi! Haqiqat qani? Nega isyon ko'tarishmaydi?..

Ba'zan tuman qo'mitasining ikkinchi qavatiga chiqib, kotibning xonasiga kirib hamma ko'rgan-bilganlarini yuziga aytishni xohlardi.

Albatta, bema'nigarchilik, bolalik bo'lardi, bu bilan ishga foydasi tegmasdi.

Katyaning oldida hamma gapini to'kib-solishga xuddi shunday xohish majbur etganmidi?

Katya eshikni yopib kirib ketgan tundan so'ng ular hali bir og'iz ham gaplashishmadi. Sasha uni faqat uzoqdan ko'rardi.

Bir kuni Katya ko'rinishdan tashvishli, tuman qo'mitasi zinasidan yengil yelib tushdi. Shamol oq ko'ylagini, oftobda toblangan oyoqlarini ko'z-ko'z qilgandek hilpiratdi. U boshini keskin burdi-da, ochiq derazaga qarab kimgadir gapirdi.

Balki... Sasha kinoga ketayotgandir. Dazmollangan ko'ylagi yelkasida tortilib turar, cho'ntagida biletni g'ijimlar edi. Rang-barang ko'ylaklar, yelkalarga tashlangan ro'mollar orasidan biri ko'ziga yarq etib tushdi – sochlari tekis taralgan, peshanasi oppoq, qalam qoshli qizning yuzi ham tanish, ham unutilgandi!.. Porlab turuvchi ko'zlari yarq etdi-yu, yonga qaradi. Yonginasidan o'tib ketdi...

Bunday uchrashuvlardan keyin Sasha bir-ikki kun bezovtalanar, bir joyda o'tirolmas, bir ishni tashlab, ikkinchisiga urinardi, nimadir yetishmas, nimanidir izlardi. Biroz muddat o'tib yana o'ziga kelardi.

Sashaning qulog'iga Katya kimnidir emas, Mansurovni sevishi, kechalari Mansurov derazasiga tikilaverib «ko'zlari to'rt bo'lishi», u esa juda bandligi bois Katyani sezmasligi haqidagi ovozalar yetib keldi. Sasha istagiga qarshi bu gaplarga quloq tutar, goh ishonar, goh ishonmas, o'zini o'zi: «Menga nima? Kimning derazasiga termilishi bilan nima ishim bor?» deb koyirdi.

Sasha tuman qo'mitasiga biletini topshirgani keldi. Allaqachon berishi kerak edi.

Tushlik ovqat paytida kelib qolibdi. Birinchi xonada hech kim yo'q edi. Ochiq derazadan shamol kirib qog'ozlarni hilpiratardi. Ikkinchi xonaga kirdi. Katya qaysarlik bilan yuzini burushtirib, qaynalib bir barmog'i bilan mashinkada nimanidir terardi. Sashani payqadi-yu, chetga qaradi.

– Salom. Biletni topshirmoqchi edim, – dedi Sasha.

– Salom.

Katya ko'rinishdan tinchlangan, tortinchoq, aybdorday edi... Sashaning qalb qa'rida birdan ishonch porladi, afsuslangan bo'lsa, yana ilgarigiday bo'lishini xohlab qolsa-ya, degan umid uchqunladi...

– Mana... – Sasha stolga biletni qo‘ydi.

Katya biletni olar ekan, uyatchanlik bilan jilmayib, suratga qaradi-da, dedi:

– Esdalik uchun olib qolishni xohlaysanmi?

– Kerak emas.

– Men olsam-chi?

– Sen nima qilasan?

– Sasha... – Katya ishonch, mehr to‘la nigohini ko‘tardi. Shunda Sasha sapchib tushdi – nahotki!.. Lekin u xato qilgandi. Katyaning ovozi, nigohi ishonchli, o‘tinchli bo‘lsa ham, ammo qiz Sasha eshitishni orzu qilgan gaplarni aytmadi. – Sasha... Nahotki, biz shunchaki do‘st bo‘lib qololmasak?

– Bekor gap sotishning keragi yo‘q... Biletni olasanmi yoki Kleshinsevani kutaymi?

– Yaqinda Mansurov Sutolokovga sen haqingda gapirayotganini eshitib qoldim. Rosa maqtadi...

– Men Mansurovning maqtoviga zor emasman!

– Nega?

Shu payt Sasha tutaqib ketdi. U Ignat Yegorovichdan eshitganlarini-yu, ko‘nglidagi hamma gapni to‘kib soldi.

– ...U mansabparast! Ish qilish o‘rniga fisq-fasod bilan ovora! Menga bunday qarama – kor qilmaydi! Uning yuziga aytaman! Hammasini, to‘ppa-to‘g‘ri aytaman!

Katyaning ko‘zlari yiriklashdi. Oldin sarosimaga tushdi, keyin qahr-g‘azabdan qaynab ketdi, nihoyat lablari nafratdan cho‘chchaydi, yumshoq muloyim yuzlari tundlashdi.

– Pastkash, – Katya uning gapini bo‘ldi. – Bilaman, nimaga bunday deyayotganingni. Bilaman! Adovating sababli! Shaxsiy hisob-kitob tufayli! Har xil g‘iybat gaplarni eshitgansan. Seni andishali deb o‘ylab, do‘st bo‘lmoqchi edim... Ket! Ke-et! So‘zlaringni eshitishni xohlamayman!..

13

Bo‘yni oqqush kabi egilgan lampa stol ustidagi ko‘k matoning dumaloq joyini yoritib turibdi. Yorug‘ chegarasidan tashqarida telefonlar yiltiraydi. Xona qop-qorong‘i. Xonaning yoritilgan qismi

Pavel Mansurovning ikkinchi uyi, hatto ikkinchi ham emas, yolg'iz uyi desa ham bo'ladi.

Pavel xonasida faqat kechalarigina, kutilmagan mehmon kelmasligidan xavotirlanmasa o'zini juda erkin sezardi.

Hozir qog'ozlarni birma-bir ko'zdan kechirar ekan, shoshilmay o'ylardi:

«Mana endi seni o'z uyangda yoqangdan olish oson. «Mehnatkash»da majlis chaqiramiz. Gaplashib olamiz. Vaqti bo'ldi... Himoya qilib ko'rishsin-chi! Jamoatchilik fikriga qarshimi? Tanqiddan chil-parchin qilingan odamni-ya? Kim boshini kundaga qo'yib bergisi keladi. Ignat Yegorovich, o'zingni qanday his qilasan?.. Ana o'shanda samimiy gaplashib olamiz. Senga yomonlikni xohlamayman, faqat oyoq ostida o'ralashmasang bo'lgani...»

Pavel yo'g'on qalam bilan bir varaq qog'ozga: «Mehnatkash»dan Noginni chaqirtirish kerak» deb yozib qo'ydi.

«Balki majlisning hojati yo'qdir? Ignat bilan uchrashib, unga, jilovi mening qo'limdaligini bildirib qo'ysam... – deb o'ylashda davom etar ekan, Pavel shu zahotiyoq bu fikridan qaytdi. – Tushunmaydi, terisi qalin, qaysar, o'ziga ishongan. Faqatgina ortiqcha shovqin ko'taradi – ishga zarar bo'ladi».

Qayerdadir Ignatning o'tgan yilgi, Pavelga papkangga solib qo'y, deb bergan xati bor edi. Bu xatda ozuqa dimlagichlar haqida aytib o'tilgani esida bor. Ignat o'tgan yili ozuqa bug'latgichlarning yonini olgan edi, bu yil esa ozuqa sexlarini inkor etyapti. Qiziq hujjat, foydasi tegib qoladi hali...

Pavel stol tortmalarini tortib titkilardi. Quyi tortmaga qo'lini uzatgan edi, qo'liga dag'al bir narsa ilindi, tortib oldi... Lampaning shu'lasi Murginning buklangan charm shapkasini yoritdi.

Deraza ortida qishloq uxlamoqda. Faqat taxta yo'lkada kechikib qolgan o'tkinchining qadamlari eshitildi-yu, uzoqlashib ketdi. Pastdan, birinchi qavatdan qandaydir noma'lum g'ijirlash va shitirlash ovozi eshitilardi.

Pavel shapkani lampaning ostiga qo'ydi. Bu qo'pol, dag'al, ayvonchasi titilib ketgan shapka xona qog'ozlari orasida g'alati ko'rinardi, chetlari biroz so'kilgan, astari terdan qorayib ketgan bo'lib, ko'pni ko'rgan odam hayotining izlarini saqlab qolgandi.

Pavel shapka shu yerda yotganini unutgandi. Ko'p narsani unutdi... Sababi, orqaga o'girilib qarash yoqimsiz bo'lgani uchun emasmikin?..

«Bunday kamchilik faqat mendagina emas... Qo'shnimiz Shumakovoda ham ozuqa masalasi og'ir! Tuman qo'mitasi kotibi Bannikovni har oy viloyat qo'mitasi byurosiga chaqirtirishadi, hayfsan ham berishadi. Sumkovolik shunday obro'li Perxunov-chi – bahorda kolxozlarning uchdan biri ishchi kuchisiz qoldi, odamlar selluloza kombinati qurilishiga ketib qolishib, ekishni barbod qilishgan edi, endi bechorani ishdan olishdi...Yaqinda Soboryansk tuman qo'mitasi kotibini, tuman qo'mitasi vakillari kolxoz raislarini almashtirganlari uchun gazetada yaxshigina tanqid qilishdi. Komelevda ko'ngilsizliklar kam bo'lganmidi?.. Hammaga qiyin, lekin hech qachon Murginniki kabi voqea bo'lmagandi. Pavel ham eshitmagandi... Pavel Sergeyevich, sen bir o'zing o'rnak ko'rsatding... Bir o'zing!.. Endi shapkani tomosha qilaver...

Odamlar orasida eng yaxshisi bo'lmoqchiyding, tumanni birinchilar qatoriga ko'tarmoqchi eding. Ishingni ko'rib, taqdirlashadi, viloyatga ko'tarishadi deb o'ylaganding, korshunovoliklar tajribasida butun viloyat muvaffaqiyatini ko'rganding... Qayoqdanam shu ishni boshladim. Hamma narsa ham o'ylagandek bo'lavermaydi. Odamlar ana shunday qilib davlat boshqaruvchisi darajasigacha o'sishsa kerak.

Orzusi shunday edi. Boshqacha bo'lyapti...

Oldinda nima kutyapti? Noto'g'ri yo'ldan ketaverarmikin? Oxiri nima bo'larkin?..»

Fikrlari boshi berk ko'chaga kirib qolganidan, yuragiga qandaydir g'ashlik solayotgan eski shapka sababli Pavel Mansurov o'zini keraksiz, tashlandiqdek sezdi. Xuddi inida o'tirgan yumronqoziqdek u ham to'rt devor ichida o'tirib nimanidir kovlar, nimanidir to'qirdi... Ignatni yo'lidan olib tashlash mumkin bo'lar-u, biroq bir hafta o'tib boshqa Ignat bosh ko'tarmasmikan? Abadiy kurashib bo'lmaydi-ku. Bir kun kelib ikki qo'lingni ko'tarib: «Bo'ldi! Ortiqcha madorim qolmadi!» deyishga majbur bo'lasan. Boshqa tumanga qo'yishganda edi, ishni boshqatdan boshlab, u yerda aqlliroq bo'lgan bo'lardi...

Kutilmaganda Pavel kimningdir eshikni ochayotganini sezib qoldi. U bir sapchib tushdi, shapkani qo'liga oldi, ko'zini lampa yorug'idan qo'li bilan to'sib, tikildi.

Eshik oldida Katya turardi. Pavel Mansurov uni ko'rganini sezgan qiz, oldinga shaxdam qadam tashladi.

– Boshqa chidayolmayman... – dedi qiz va divanga asta cho'kdi. Yarim qorong'ilikda qizning rangsiz yuzida katta-katta ko'zlari hayajon bilan boqardi. – Sizning o'zingizdan o'z qulog'im bilan...

– Senga nima bo'ldi, Katya?

– Pavel Sergeyevich, siz haqingizda yomon gaplar yuribdi... Aytishyaptiki, siz... Yo'q, takrorlay olmayman... Ayting-chi, sizni aybladshga ozgina bo'lsa ham asos bormi? Bu menga zarur, men uchun baribir emas... Pavel Mansurov Katyaga qarar ekan, hayron bo'lardi: so'nggi vaqtlarda haddan tashqari ishga berilib ketibdi. Esidan chiqaribdi... Bir daqiqalik havas ham, oilalik odamning erkinligi ham, hatto haqiqiy... Haqiqiysiga ham boshqa ishlarda yetishmagandek yetisholmadi. Katya buni tushunarmidi?.. Ro'molga burkanib o'tirib olib, yelkalarini uchiryapti, ko'zlarida og'riq va tashvish. Pavel uchun tashvishlanyapti – yaxshi odam.

– Pavel Sergeyevich, nega jimsiz? – qattiqroq shivirlab so'radi Katya, u hayajonda, jiddiy, hozir o'rnidan turib ketadigandek butun gavdasi bilan oldinga intilib o'tirar edi.

– Katya... – muloyim va g'amgin ohangda dedi Pavel, u hali qizga nima deyishini ham, nimada iqror bo'lishini ham bilmas edi. Qo'lidagi Murginning shapkasini birozdan so'ng uzatdi: – Mana!

– Bu nima? – Katya yengil qo'llarini ro'mol ostidan uzatdi.

– Tanimayapsanmi?

– Yo'q.

– Bu narsani Fedosiy Murgin o'z o'limidan bir necha soat oldin mening xonamda unutib qoldirgandi.

Katya seskanib tushdi.

– Men ortig'iga iqror bo'laman: agar men u bilan shunday jiddiy gaplashmaganimda o'lmagan bo'lardi.

– Pavel Sergeyevich...

– Men odamman, Xudo emas. Adashishim mumkin. Men odamlarga yaxshilikni istadim, men qattiqroq turmasang, dadil gap qil-

masang natijaga erishib bo‘lmasligini bilardim. Qattiqqo‘llik qildim, dadil gapirdim, atrofimdagilar esa loqayd. Men ular bilan kurasha boshladim, shafqatsiz bo‘lish kerakligini tushundim. Bir odamga bir-ikki og‘iz (bor-yo‘g‘i bir-ikki og‘iz) qattiq gapirgan edim, mana... odam o‘rniga qo‘limda uning shapkasi qoldi, xolos... Men temirdan emasman, ba’zida umidsizlanib qolaman. Menga qiyin, Katya.

Pavel Katyaning achinishini istagan edi va shunga erishdi ham. Katya qorong‘i xonada yanada xiraroq ko‘ringan holda ko‘zlari hayajondan porlab o‘rnidan turdi.

– Agar yordam qila olganimda edi, – dedi qiz titroq ovozda, – hayotimdagi qahramonlik deb hisoblardim. Lekin nima ham qila olaman, nima?

– Rahmat, Katya! Yaxshi gap ham bir yordam.

– Siz men uchun hammadan ham tepadasiz. Siz bilan abadiy birga bo‘lish, sizga doim yordam berish men uchun baxt bo‘lgan bo‘lardi... Hech qanday mishmishlarga quloq solmayman, hech qanday! Siz men uchun kimligingizni bilmaysiz! Siz mening orzumsiz! Yopishib olish balki ahmoqlikdir... Mayli! Bilib qo‘ying! Uzoq vaqt indamay yurdim!..

Katya qo‘lidagi shapkani tashlab, kafti bilan yuzini yopdi-da, keskin burildi. Ro‘molning shamoliga stoldagi qog‘ozlar joyidan siljidi. Pavel Katyani to‘xtatmadi. U anchagacha qimirlamay zinadan tushayotgan Katyaning qadam tovushiga quloq solib o‘tirdi. Uyalib ketdi...

Sevardimi? Ha! Faqat Pavelni emas – boshqani! Yashash qiyin. Balki hammaning oldida oshkorasiga iqror bo‘lsa-chi? Yo‘ldan adashib qolib, ishni rasvo qilib, endi tavba qilyapsanmi, deyishadi. Yo‘q, Moskva ko‘z yoshga ishonmaydi... Yo‘l bitta... Oldinga! Chekinishga kech!

Pavel ketayotib Murginning shapkasini o‘zi bilan oldi, yarim yo‘lga yetganda kimningdir hovlisiga, qalin qichitqio‘t orasiga tashlab yubordi. Yomon esdalik, yomg‘irda chirib ketguningcha shu yerda yot...

Ertasiga «Mehnatkash» kolxozi tashkilotining kotibi Yevlampiy Nogin tuman qo‘mitasi partiyaga chaqirtirildi.

Kechasi Yevlampiy Nogin Ignat Gmizinning uyiga kirib keldi. Taraddud bilan engagini qashlab turdi, kosasi sarg'ayib turtib chiqqan ko'zlari aybdorlarday atrofga alangladi-da, Sashaga murojaat qildi:

– Qani, do'stim, borib uxla, biz Yegorich bilan sirlashib olishimiz kerak.

Sasha chiqib ketdi, Yevlampiy dahanini Ignatning yuziga yaqinlashtirib shivirladi:

– Ishlaring yaxshi emas... Buni senga aytishim kerak emasdi. Mansurov bilib qolsa meni siquvga oladi. Seni majlisda muhokama qilishni tavsiya etishdi...

– Mayli... Muhokama etaverishsin.

– E-he! Maylimish... Axir sen Sasha emassan, nimaning hidi kelayotganini bilasan!

– Sizlar-chi, yosh bolamisiz? Haqiqat uchun turib berolmaysizmi?

– Hozir shundayki, bizni ham so'roqqa olishi mumkin. Gazeta seni yaxshigina urdimi? Urdi. Ilg'or g'oyaga qarshi chiqqanmisan? Yozilgan, e'lon qilingan – chiqqansan. Ma'lumot voqeasi-chi? Buni shunday bo'rttirish mumkinki... Burnimizni tiqsak, bizni ham sen bilan bir qatorda kulimizni ko'kka sovurishadi.

– Men bilan bir safda turishdan qo'rqasanmi?

– Isbotlay olsam qo'rqmasdim. Qanday qilib isbotlab bo'ladi, qachonki gazetada ham seni unday-bunday deb isbotlashgan bo'lishsa... Sen meni eshit, so'zimni bo'lma, – deb shoshilgancha gapida davom etdi Yevlampiy, – o'zingni o'zing bekorga baloga duchor qilma. Agar aybingni tan olib, manmanlik qilmasang hammasi o'z joyiga tushadi, ishon so'zimga. Orqa-o'nginga qaramay o'jarlik qiladigan bo'lsang, olov olib ketadi. Sendan zo'rlarini ham bosib qo'yishgan...

Ignat, Noginning aybdorlarday yugurdak ko'zlariga g'azab bilan qaradi.

– Quyon yurak ekansan. Mansurov yo'limizda to'nkaday turib oldi. Biz bunday to'nkalarga ta'zim qilmaymiz. Bor, gapim esingda tursin.

Ular xayrlashishdi.

14

Pastakkina derazadan taxta devorga botayotgan kunning qizg‘ish yorug‘ligi tushib turardi. Deraza orasiga tushib qolgan ari o‘jarlik bilan o‘zini derazaga urardi.

Buxgalterlar, kassirlar, idoraning hamma xodimlari bugun ishni barvaqt tugatishdi, ish bilan kechikib kelganlarni orqalariga qaytarishar edi. Yopiq majlis bo‘lishi kerak, ortiqcha odamlar xalaqit berishlari mumkin.

Hozirgi majlisga faqat uch kishigina – Yevlampiy Nogin, Ivan Pojinkov va Sasha Komelevlar hozir bo‘lishdi. Yevlampiy ba’zida derazaga dahanini tirab, tashqariga, mashina ko‘rinmayaptimi, deb qarab qo‘yardi; tez orada Mansurov yetib kelishi kerak edi.

Yevlampiy majlis sababli ozoda, qiyiq yoqa ko‘ylak kiyib olgan, soqoli ikki yoqqa taralgan, jigarrang, ajin bosgan qotma yuzi azobli tish og‘rig‘idan azob chekkan chehraga o‘xshab qotib qolgandi. U bir joyda tinch o‘tirmas, Pojinkovga qarab betinim hasratlanardi:

– Axir kolxozdan juftakni rostlamoqchi bo‘lib turgandim. Kampirimni uy qo‘riqlashga qoldirib, o‘rmon kombinatiga ketmoqchi edim. Meni bu yo‘ldan kim qaytardi? O‘sha, Ignat, mana, endi podshohlardek hayot kechirmasam-da, sigirim yemsiz qolmayapti, cho‘chqani non bilan boqyapman, peshana teri bilan bo‘lsa ham, o‘zimga yetarli pulim bor. O‘g‘limga velosiped olib berdim. Ignat bo‘lmasa olib bera olarmidim? Yo‘q. Endi o‘zing o‘ylab ko‘r – uni hurmat qilmaslikka haqim bormi? U bebaho inson...

Ivan Pojinkov keng yelkalari bilan devorga suyanib, to‘rtburchak boshini quyi solib o‘tirardi, shu holda u Yevlampiygami yoki derazada g‘ing‘illayotgan arigami quloq solayotganini bilib bo‘lmasdi.

– Otamday yaxshi ko‘raman. U mening hayotimni tartibga soldi. Uning qanoti ostida yosharib ketgandek bo‘ldim... Mana, endi bo‘lsa...

Pojinkov jim turardi. Undan na xayrixohligini va na e’tirozini eshitmagan Yevlampiy gapida davom etdi:

– Mansurov esa qo‘limga qog‘oz tutdi. So‘zga chiq, shaxsiy ishlaringni chetga surib, asosiy masalani qo‘y, dedi. Bu qog‘ozda esa gazetadagidan ham battar yozilgan, Ignatning bo‘yniga ne-ne aybblarni osmagan...

Pojinkov sukut saqlardi. Yevlampiy sekinlatib, qiya qaradi-da, chuqur xo'rsindi.

– Attang! Gapirayotganimda Ignat yonimda, qalbimga qarab o'tirishini eslasam. Nima qilish kerak?.. Hech nima. Qilg'ilikni qilib qo'ydingmi, endi jazosini tort! Indamay turib bo'lmaydi. Tuman qo'mitasiga qarshi chiqsang – chaqirib so'roq qilishadi? Gazetaga qarshilik qilyapsanmi, ko'pchilikning fikrini tan olmaysanmi, deyishadi. Qani, bir ko'raylik-chi, asling qanday ekanligini!

Pojinkov hamon miq etmasdi. Hurpayib o'tirgan Sasha tinchini yo'qotgan Yevlampiyga jahl bilan qarab qo'yardi.

– Menga qara, Yevlampiy, – deb chaqirdi Sasha. – Majlisda menga so'zga chiqishga ruxsat berishadimi?

– Bo'lmasa-chi, albatta, albatta! – ovoz beradigan odam topilganidan xursand bo'lgan Yevlampiy sakrab turdi. – Sening faqat ovoz berish huquqing yo'q. Bemalol so'zga chiqaverasan.

– Unday bo'lsa so'zga chiqaman, – dedi xafa bo'lib Sasha.

– Faqat shuni yodingda tut, lochin: bu majlis brigadirlar yig'ilishi emas. Yoshlik o'ktamliging bilan bir baloni boshlab yurma. Har bir so'zing qarorga tushadi, qarorlarni esa yuqoridagilar ipidan ignasigacha ko'rib chiqishadi.

– Ha-da, ko'rib chiqishsin. Men majlisgacha Ignatni qanday maqtaganingni, majlisda teskarisini aytganingni gapiraman. Majlisdagilarni aldayotganingni isbotlab beraman!

Ivan Pojinkov joyidan jildi, Sashaga qiziqsinib qarab, shoshilmasdan tamaki xaltachasini oldi. Yevlampiy gangib sarg'ish ko'zlarini Sashaga tikdi. U engagini titratib bir daqiqa indamay turdi.

– Tilingga chipqon chiqsin, – beozor so'kindi u. – Tushunsangchi, axir, jo'jaxo'roz, men Yegorichni qutqarib qolmoqchiman, eshityapsanmi! U yosh bo'lmasa ham, Xudo ko'rsatmasin, boshi bilan devorni buzmoqchi bo'ladi. Uni gijgijlash o'rniga, masala tinch hal bo'lishini ko'zlab, raisligida qolishi uchun ko'ndirishimiz kerak. «Isbotlayman – aldayapsan!» Eh, sen. Men aldayapmanmi? Gazeta yozib chiqdi-ku, butun viloyatga mashhur bo'ldi. Ignatning atrofini dengiz o'rab oldi, shu dengizni sen bilan biz ham qoshiqlab ho'playmiz, deb xomtama bo'lma.

– Buni ham aytaman.

– To‘tiqushday, aytaman, aytaman, deb qolding. Bizda sen go‘dakchalik halollik yo‘q deysanmi?

– Cho‘ntakka tushmagan halol,emas, cho‘ntakka tushishga yo‘l qo‘ymagan odam halol.

– Eh!..

Ammo shu vaqt zinada etikning dukirlashi eshitilib eshik ochildi, odamlar birin-ketin kira boshlashdi. Ignat sekin, osoyishta ovozda so‘radi:

– Nega qorong‘ida gap sotishib o‘tiribsiz? Chiroqni yoqib yuborsangiz bo‘lmaydimi?

Chiroqni yoqishdi, xonani darrov shovqin egalladi.

– Miroshin qani? Bir dunyo yangilik olib keldim, deb maqtanayotgandi.

– Otini otxonaga burib ketmadimikin?

– Shu yerdaman, shu yerdaman. Yangiliklarni olib qochib ketganim yo‘q.

Miroshin chiroqning xira yorug‘ida eshikning pastak kesakisidan o‘ng‘aysiz bukilib, ostona hatlab o‘tdi. Borib Pojinkovning yoniga o‘tirdi, o‘tirganda ham uzun va beso‘naqay edi. Ingichka tomog‘idan uchli kekirdagi chiqib turar, mo‘ylovlari esa tamaki tutunidan sarg‘ayib ketgandi.

– Xo‘sh! Shunday.... Faqat yangiliklar yaxshi-yaxshi emasligini bilmayman.

– Borini aytaver, yomon bo‘lsa ham seni do‘pposlamaymiz.

– Tumanimizga viloyatdan birinchi kotib kelgan.

– Kurganovmi?

– Xuddi o‘zi. Bo‘yi past, to‘lachadan kelgan, ko‘rinishi jiddiy. Ko‘z qarashlari, turgan gapki, talabchan. Ha!

– Vaqtida kelibdi! Kolxozimizga mehmon bo‘lib kelsa yomon bo‘lmasdi.

– Balki chigal masalalarni yechib ketar...

– Mansurov bilan bir mashinada keldi. Ha! Xuddi men hozir Pojinkov bilan o‘tirganimday, yelkalari yelkalariga tegib o‘tirishdi.

– Albatta, senga yelkasini tekkizib yurmaydi-ku.

– Mansurov rosa qulog‘iga quyadi.

– Mansurov mashinani to‘xtatib, tirsagimdan ushlab meni chetga olib chiqdi-da, bugun majlisingizga borolmayman, dedi...

– Bo‘lmaydi. Bizga ishonyaptimi? Bekor qilibdi.

– Nimasiga achinasan, usiz bemalolroq o‘tiramiz.

Miroshin Yevlampiyga o‘girilib:

– Yana, majlis qoldirilsa yaxshi bo‘lardi, deb aytib yubordi, boisi Ignat Yegorovich masalasini hozircha yuqoriroq... nimaydi?.. instansiyada hal qilishar emish. Shunaqa. Ha!

– E-he!.. Man buni yangilik desa bo‘ladi, og‘aynilar.

Bunday yangilikdan so‘ng Yevlampiyning lablari hayratdan osilib ketdi. U Miroshinga chaqchaygan ko‘zlari bilan tikilib turdi-da, aslida boshliqlarga nisbatan doimo ehtiyotkor, hurmat bilan qaraydigan odam, birdan qaynab ketdi:

– Bu nima degan gap? Nima uchun u bekinmachoq o‘ynayapti? O‘zi qo‘limga qog‘oz berib talab qilib, endi shashtidan tushib qolibdi.

– Kurganov kelganidan keyin tushadi-da.

– Chatog‘i chiqmasin deb qo‘rqadi.

Yevlampiy bosilmasdi:

– Bu qog‘ozlarni endi nima qilaman? Saqlab qo‘yaymi yoki cho‘chqalarga beraymi? Ularni ko‘rishga ko‘zim yo‘q!

Umumiy shovqinni Sashaning jarangli ovozi bo‘ldi:

– O‘rtoqlar! Majlis o‘tkazish kerak! O‘sha qog‘ozlarni muhokama qilamiz! O‘zimizcha hal qilamiz!

– Eh, senimi! – deb baqirdi Yevlampiy. – Sichqonlar mushukni sud qilishibdi...

– E-e, Yevlampiy, qizishma, – e’tiroz bildirdi Miroshin. – Bolakay juda aqlli maslahat beryapti. Ha!.. Yigitlar, shundaymi?

G‘ala-g‘ovurda ham miq etmay o‘tirgan indamas Pojinkov papiros qoldig‘ini o‘rindiqqa ezib o‘chirdi-da, qisqa qilib dedi:

– Haq gap.

Hamma bir daqiqa indamay qoldi.

– Ignat Yegorich, sen nima deysan? – so‘radi Miroshin.

Ignat Gmizin o‘zining raislik hujrachasi oldida tor eshikni salmoqdor gavdasi bilan berkitib turardi. U katta, og‘ir kallasini Sasha tomon sekin burdi, unga jiddiy, sinovchan, muloyim qaradi-da:

– Aqlli va o‘z vaqtida, – deya rozi bo‘ldi.

Yevlampiy Nogin stolga itoatkorona o‘tirdi, odatdagidek barmoqlari bilan soqolini tarashladi-da:

– Unday bo‘lsa... Kim protokol yozadi? – dedi-da, birdan o‘ziga kelib: – Shunday bo‘lsa-da, siz chindan ham Mansurovning qog‘ozlarini muhokama qilmoqchimisiz yoki bu hazilmi?

Uning uchun «kelishib olmasdan» va «muvofiqlashtirmasdan» majlis boshlash noodatiy yangilik edi...

15

Korshunovo qishlog‘i ertalab soat to‘rtda hali uxlab yotibdi. Hatto eng serg‘ayrat, tinchi yo‘q tekis yo‘l ham dam olyapti. Qalin tuproq bosgan bu yo‘lda oxirgi yuk mashinasining izlari qolgan. Izni yo‘lovchilarning oyog‘i ham, ertalabki mashinalarning g‘ildiraklari ham bosib yuborishga hali ulgurganicha yo‘q. Bu kechagi kunning izi, yangi kun uni yo‘q qilmadi.

To‘rt yarimda qayin tepalariga qizil yugura boshlaydi. Jo‘kazor qurshovidagi ana shu qayinlardan zag‘chalar galasi parvoz qilardi. Bir-birlari bilan betartib chig‘illashib kimsasiz yo‘lga qo‘nishadi, shu yerda ular o‘zlarini har yoqqa tashlab yurishar, har yer-har yerga chaqqon uchib o‘tishardi.

Birinchi yo‘lovchi omonat kassaning kassiri, baland bo‘yli Akindin Mitrofanich qushlarni quvib asta ketardi. Qo‘lida dudlanib ketgan chelak, bukchaygan yelkasida esa qarmoq. Har tong shu manzara. Soqoli oqargan bo‘lsa ham, shayton uni yo‘ldan uradi...

Har qanday durust rus qishlog‘ida rosa soat beshda xo‘rozlar qichqirib, uy bekalari uyqudan uyg‘onadilar. Issiq yostiqdan yuzlari bo‘rtib, qizargan uy bekalari chelaklarini shaqirlatib quduq tomon ketishadi.

Soat oltida birinchi yuk mashinasi bortlarini taraqlatib o‘tadi. Ortidan ko‘tarilgan chang uy oldidagi bog‘chaning nam ko‘katlariga qo‘nadi.

Musaffo osmonga pechka quvurlaridan erinib tutun ko‘tariladi.

Bir xonadonda bir yo‘la o‘nlab ikki stvolli miltiqdan o‘q otilgandek gumburlash ovozi keldi. Slavka Kalachyov mototsiklining

motorini yurgizgan edi. U mototsiklini sotib olganiga bir oy bo'lgan bo'lsa-da, baxtiga ishongisi kelmasdi. Slavka kechqurunlari mototsiklida qishloqni bir aylanib chiqqani kamdek, ertalab motor ovozini eshitmasa kun bo'yi g'amgin yuradi. Mototsiklning tarillashi uning uchun har qanday musiqadan-da yoqimli...

Vaqt odamlarga o'zining oddiy va bebaho sovg'asini – uyquni taqdim etgan. Uyqu taqdim etish – kuch-quvvat taqdim etishdek gap.

Taqdim etilgan uyqu shirinroq bo'lishi uchun uyg'onish daqiqasi bayramdagidek bezalgan: o't-alaf, ayniqsa, ko'm-ko'k, havo juda sof, eshikning temir halqasi, hatto uyning yog'och devorlari, yo'ldagi toshlarga ham qo'lingni tekkizsang muzdek shudring yoqimli tuyuladi. O'rningdan tur, inson, yuvinib, tarangin – dunyo sen uchun hozirlangan! Yangi kuch-quvvat bilan turgin!

Mansurov kechasi yaxshi uxlay olmadi, ertalab turganida boshi og'rirdi. Tongning nimasiga xursand bo'lsin – deraza ostidagi shudringi qurimagan butalar ko'ziga ko'rinarmidi? Yangi kun... Shu kunni chetlab o'tishning iloji bo'lganda edi.

Kurganovning tumanga kelganiga bir hafta bo'ldi. O'shanda u Mansurov bilan quruqqina ko'rishib, Gmizin xati haqida gapirdi: «Yozilganining uchdan bir qismi ham to'g'ri bo'lsa o'zingdan ko'r», – deb qo'rqitdi. Bunday mehmon bevaqt kelgandi, lekin Kurganovning yo'l-yo'lakay: «Butun tumanni aylanib, ipidan ignasigacha ko'rib chiqmagunimizcha seni hech qayerga qo'yib yubormayman...» – deya qistirib ketgan gapi Pavelga dalda berardi. Birga aylanishi kerak, tavba qilish, hasrat-nadomat qilishga vaqt bor, keyin qarabsizki, kelishib ham oladi. Eldan burun cho'chish yaramaydi.

Pavelning omadi chopmadi...

Ertasi kuni tongda Kurganov bilan Korshunovoga yo'l olgan Pavel Tarovatka qishlog'i ostonasida Ignat Gmizinni uchratib qoldi. Ignat arava ustida engashib, ko'ylagi ustidan belbog' bog'lab olgan zabardast bir yigit bilan suhbatlashar edi. Yigit arava shotisiga ag'darilgan uzun qarag'ay xoda ustida o'tirgandi. Uning ko'rimsizgina oti, Gmizinning to'q me'da ayg'irining bezovta bo'lib xirillashiga ham e'tibor qilmay, aravaga qo'shilgan joyida uxlar edi. Ertami, kechmi – Kurganov baribir Ignat bilan uchrashishi kerak, shuning uchun Pavel:

– Gaplashib olish kerakdir. Mana u, Gmizin, – dedi.

U, Kurganov yo'lda gaplashib o'tirmas, deb o'ylagandi. Lekin Kurganov mashinani to'xtatdi.

Ana shu yerda, yo'l yoqasida Mansurov va peshanasiga tushib ketgan betartib sochlari ostidan qiziqsinib qarab turgan zabardast yigit huzurida Gmizin bilan viloyat qo'mitasi kotibi o'rtasida qisqa suhbat bo'lib o'tdi.

– O'rtoq Gmizin, sizning xatingizga yana qo'shimcha isbotlar kerak. Ularni qachon olaman?

– Bir qismini hoziroq olishingiz mumkin, o'rtoq Kurganov.

– Shunday tez-a?

– Besh daqiqa ham olmaydi.

– Shunday deng... Xo'p, o'sha besh daqiqalik isbotlarni eshitaylik-chi.

– Eshitadigan narsa yo'q. Yuring, tomosha qilamiz.

Oldinda Ignat Gmizin, uning orqasidan Kurganov, Kurganovning ketidan bir narsadan sergaklanib, hushyor tortgan Pavel Mansurov, yo'l-yo'lakay ko'ylagini shimining ichiga tiqib kelayotgan yigit odob bilan Mansurov ketidan, yo'l chetidan tonggi quyosh nurlari ostida cho'zilib yotgan molxona tomon ketishdi.

Molxona devorlari yiqilay deb qiyshaygan bo'lib, ularni yog'och tirgovuchlar ushlab turar edi. Gmizin to'xtadi va boshini silkib dedi:

– Mana... Bunday manzaralar biz uchun noyob hodisa emas.

– Bunaqa manzaralarni tomosha qilish emas, tuzatish kerak, – dedi Kurganov.

– Gap shunda-da, tuzatish kerak. Yakov! – deb baqirdi Ignat chetda turgan yigitga qarab. – Ayt-chi, yog'ochni qayerga olib ketyapsan?

Baquvvat Yakov uyalib yerga qaradi, etigining poshnasi bilan yerni o'yar ekan, dedi:

– Qayergaligi ma'lum... Narigi betda ozuqa sexi quryapmiz, o'sha yerga tashiyapman...

Kurganov Yakovga o'girildi, bir daqiqa unga boshdan oyoq razm solib chiqdi-da, so'radi:

– Seningcha, o'sha ozuqa sexini qachon bitirasizlar?

Yigit dovdirab qoldi.

– Keyingi yilda, agarda... Buni ham rais bilsa kerak.

– Kelasi yili... Molxonani qachon ta'mirlaysiz?

– Uning nimasini ta'mirlaydi. Buzib yangitdan qurilsa arzonroqqa tushadi.

Kurganov Ignat bilan xayrlashdi, yo'lda indamay ketdi, faqat qarshidan changitib kelayotgan yuk mashinasini ko'rib:

– Pavel Sergeyevich, shu mashinani to'xating, – deb iltimos qildi.

Esankirab qolgan Mansurov yo'lga chiqib mashinani to'xtatganda, Kurganov sekin dedi:

– O'tiring, ortga ketavering. Men bir o'zim kolxozlarni aylanishga qaror qildim.

Ular ana shunday ajralishdi.

Kurganov tumanni aylanib yurardi. Pleso bilan Dvorki qishloqlari o'rtasida uning «gazigi» buzilib qoldi. Mashina-traktor stansiyasidan boshqasini so'rab oldi, uning qayerda bo'lganini, qayerga bormoqchi ekanligini, nimalarga e'tibor berayotganini bilib bo'lmasdi.

Pavelning qulog'iga faqat uzuq-yuluq gap-so'zlargina yetib kelardi...

Kurganov «Mehnatkash» xo'jaligining hammasini aylanib chiqdi – bunda bir gap bor!

Kurganov marhum Murgin kolxozida bir kun bo'lgan – bekorga emas.

Kurganov qayerga bormasin, silos bostirgan, molxonalarni qishga tayyorlash ishi bilan qiziqyapti...

Nihoyat, o'tgan kuni qo'ng'iroq qildi: «Tuman faollarini yig'ing, mol qishlovi haqida ma'ruza tayyorlang».

Hammasi tushunarli.

Kecha kechqurun quyoshda biroz kuygan, Korshunovo havosida yuziga qizil yugurgan, galife shim, oyog'iga katta etik kiygan Kurganov tuman qo'mitasida paydo bo'ldi...

Hozir u korshunovoliklar bilan tongni kutib olyapti.

Shu daqiqalarda Pavel Mansurov qalbida nimalar sodir bo'layotganidan xabardormikin? Bo'lishi mumkin. Lekin qassob qo'yni tushunarmidi. U bilan qo'ylarga o'xshab emas, ochiq so'zlashib olish kerak...

Pavel yuvindi, bir stakan choy ichmoqchi bo'lib o'tirdi. Yuvinib, kiyingan Anna stol oldida o'tirgandi. Ochiq rangdagi oddiy ko'k gulli chit ko'ylagi uni yoshartirib yuborgan. Anna hech narsaga qiziqmaslikka, hech nimani surishtirmaslikka ko'nikib qolgandi, odatdagiday indamasdi.

Vahimali yoki yurakni siqadigan yakkalikmi, Pavelni, qalban uzoq bo'lsa ham dunyoda Annadan yaqin insoni yo'qligini tushunishga majbur etdi. Atrofida hech kimi yo'q.

– Anna, – dedi u ohista, – bugun mening ustimga ag'darilishadi...

Anna eriga savolomuz qarab qo'ydi.

– Hamma akang tomonini olgan...

Anna biroz indamay, nihoyat so'radi:

– Nega buni menga aytyapsan? – biron narsa dermikan deb qarab turdi-da, so'ng qo'shib qo'ydi: – Balki bu yaxshilikkadir.

Pavel indamay choyini ichib bo'ldi.

Uning baxtsizligi xotinini ham tashvishlantirmayapti, boshqalardan nimani kutish mumkin? Faqat o'zi o'zini himoya qila oladi. Kurganov bilan ochiqchasiga gaplashib olish kerak, boshqa chora qolmadi.

Pavel ko'chada o'zining dazmollangan yozgi kitelida, tozalangan etikda, odatdagiday biroz bashang va dabdabali borardi. Na chiqib qolgan yuz suyaklari, na ko'zlari ostidagi ma'yuslik alomati uning yuzidagi odatiy insoniy qadr-qimmatini o'zgartirmagandi.

Yo'lda uchraganlar u bilan har doimgiday hurmat saqlab salomlashar edi.

16

O'ydim-chuqur qishloq yo'llari, goh dalalar orasiga sochilib ketgan, goh sho'x daryolar qirg'og'ida yastangan, kartoshka palagiga cho'mgan qishloqlar; kampir, qiz-yigitlar bilan tinimsiz uchrashuvlar, papirosni kanda qilmaydigan kishilar orasidagi osoyishta suhbatlar, Kurganov rahbarlik qilayotgan viloyatning bir burchagidagi qishloq hayotini ochib berardi.

Xilma-xil suhbatdoshlar ichida eng oxirgisi mashina-traktor stansiyasi agronomi Chistotelov bo'ldi. Kurganov u bilan kolxoz

boshqarmalaridan birida ro'para kelib qoldi va dalaga olib borishni so'radi.

– Charchatib qo'yamanmi, deb qo'rqaman. Lapanglab, yurishni bilmayman. – Chistotelov osilib turgan qoshlari ostidan viloyat qo'mitasi kotibiga boshdan oyoq razm solib chiqdi.

– Kim kimni charchatar ekan. Qornimga qaramang. Men ovchiman, uka. Tog'larda echki izlaridan yurganman, yovvoyi takalarni ovlaganman.

– Unday bo'lsa, yuring...

Dalama-dala o'tib yurishar ekan, odatdagi mavzuda suhbatlashib ketishdi. Mineral o'g'itlarning yetishmasligi, dalalarning bo'lak-bo'lakligi, o'rmonlarga sochilganligi, ularni mashinalar bilan ishlash qiyinligi haqida suhbatlashishdi.

Orqaga qaytishayotganda yomg'ir tomchilab qoldi. Qisqa bo'lsa ham qattiq yog'di, ivib ketishdi, lekin Kurganov ko'p yurganidan juda isib ketgandi.

Yonboshlagan kechki quyosh binafsharang orasida qoldi. Qora yer bilan yassi bulut o'rtasidagi shafaq ikki sohil o'rtasida cho'g'ga aylangan daryo kabi qizarib ketgandi.

Zig'irpoya bo'ylab kelishardi. Zig'ir allaqachon gullab bo'lgan, hozir har bir ko'k boshog'ida yomg'ir tomchisi yerga intilgancha osilib qolgandi. Ana shu tomchilar osmonga cho'zilgan alangadan zarradek yorug'lik o'g'irlab olibdi – tomchi tomchidan ortig'ini ololmaydi. Atrofda millionlab zig'ir boshoqlari mayin shu'la taratyapti. Qayoqqa qaramang, ohista yerga osilib turgan shu'lachalarga ko'zingiz tushadi. Ular etik qo'njiga tegib so'nmoqda...

Kurganovni shu kunlarda xavotir bir daqiqa ham tinch qo'ymasdi. Ayniqsa, hozir, qimirlamay qotib qolgan tabiatmi, zig'ir boshoqlaridagi yomg'ir tomchilarining alohida jivirlashimi yoki kamgap hamroh uchrab qolib, xayol surishga xalaqit bermaganidanmi – tashvishi ortib yuragi siqila boshladi.

U o'zini jiddiy rahbarlardan hisoblar, xushomadgo'ylarni yomon ko'rar, e'tiroz bildirganlarga ham o'z yuqori mansabidan foydalanib yomonlik qilmasdi. Mansurov hammasini bajarar, shikoyat qilmas, qaytaga viloyat qo'mitasi devorlarida tug'ilgan har bir g'oyani darrov ilib olardi. Unga shubha bilan qarab bo'larmidi?..

Mana, ilma-teshik molxonalarga qamalgan zotli mollar, hademay qish va... ma'lumotlar, ozuqa sexlari qurilishi boshlandi, shuncha yog'och keltirildi, falonchi kolxozlarda ozuqa sexlari fundamenti yotqizildi...

Chistotelov Kurganovning sukut saqlash sababini tushundi shekilli, unga o'girilib dedi:

– Shunaqa ekan... Uzoqdan qaraganda qo'ndoqdagi xo'roz ham lochinga o'xshab ketadi.

– Menga shama qilyapsanmi? – deb so'radi Kurganov.

Chistotelovning qalin qoshlari chimirilib, tiniq, charchoq ko'zlarida yashiringan kulgi oshkor bo'ldi.

– Nimasiga shama qiladi... Odamni tumanning u burchagidan bu burchagiga tashlashgandan keyin tegib ketgan-da!

– Tegib ketgan, – tan oldi Kurganov. – Yashirishga hojat yo'q – aldandi.

– E-e, biz u bilan yonma-yon yashardik, har kuni birga edik, shunday gul ochilganini bilmay qolibmiz. Boshida men uni himoya qilardim.

– Nimasiga uchdingiz?

– Zig'irga. U zig'irga mustahkam yopishib oldi, hujjatlar to'pladi: falonchi sabablarga ko'ra yomon o'syapti, dedi... Unga zig'irning emas, o'zining tuman qo'mitasi kreslosidagi o'sishi kerak ekan.

– Nega unda viloyat qo'mitasiga xabar bermadingiz?

Chistotelov sarg'ayib ketgan qattiq mo'ylovlari ostidan hiqillab qo'ydi, qoshlari ostidan tikilib qaradi.

– Bilmayapsizmi?

– Yo'q.

– Shunchaki hadiksirar edik: siz uchun men yoki Ignat Gmizinga ishongandan ko'ra Mansurovga ishonsangiz foydaliroq-ku...

– Nega endi?

– Chunki viloyat qo'mitasi Mansurovning arqonini tortib turar edi.

Quyosh bota boshladi. Etik qo'njiga urilayotgan zig'ir poyasi ham ho'l edi-yu, lekin jimirlab turuvchi yomg'ir tomchilari ko'rinmasdi.

Tabiat odamni o'zining kamtargina quvonchi bilan biroz erkaladi-da, qolganini keyingi safarga saqlab qo'ydi.

– Demak, sizning firkingizcha, viloyat qo'mitasi aybdormi? – dedi Kurganov bir daqiqalik jimlikni buzib, hamrohini zimdan, achinish bilan ko'zdan kechirar ekan.

Uning uzun kekirdagi chiqib ketgan qotma bo'yni cho'zildi.

Chistotelov boshini burmay, xotirjam bo'shliqqa qarab:

– O'zingiz shunday deb hisoblaysiz, aks holda shuncha kun Mansurov huzurida yurarmidingiz.

Kurganov ayblovni indamay ichiga yutdi.

Oldinda, ikki tarafdan yam-yashil dala siquvida qolgan tosh yo'l ko'zga tashlanadi. Yo'l bo'yida mashina turardi: Kurganovning haydovchisi ularni olib ketish uchun kelgan edi.

17

Tush paytidan to kechga qadar madaniyat uyida faollarning majlisi bo'ladi. Kechqurun esa o'sha majlis qatnashchilariga atab Korshunovo havaskorlar to'garagida konsert uyushtirildi.

Sahna tagidagi yarim yerto'lada ikkita xona joylashgan. Taxta devorda chang bosgan yasama sochlar osilgan, shkafda kastumlar saqlanadi, bir burchakda ustida mis barkashli kattagina baraban turibdi, uni momaqaldiroq ovozini ifoda etish uchungina tepaga olib chiqishardi. Hech ishlatilmaydigan karnay ham bor. Eski fisgarmoniya[1], grim qiladigan yuzi dog'-dog' bo'lib ketgan toshoynali stolcha bor.

Konsert bo'ladigan kunlari bu xonalarda tuman iste'molchilar birlashmasining omborchisi Vasiliy Vasilyevich Borovskov urush olib boradi. Yoshi anchaga borib qolgan (Vasiliy Vasilyevichning yoshi qirqdan oshgan) bo'lsa ham, jahli tez xotini, hattoki frontdan bir oyoqsiz bo'lib kelgani ham san'atga bo'lgan mehrini so'ndirolmasdi. Tepakal boshi, qo'ltiqtayoqqa suyangan ozg'in gavdasiga qaramasdan u bir kunmas-bir kun, albatta, Gamlet rolida chiqishni orzu qilib yurardi: «Men ushbu rolni shunday qadrlaymanki, qirq mingta aka-

[1] *Fisgarmoniya* – dam berib chalinadigan klavishli musiqa asbobi.

uka ham bir-birini shu darajada qadrlamaydi!» – deb duch kelgan odamga hasrat qilib turardi.

Hozir esa u o'zining qo'lbola aktyorlari orasida o'zini u yoqdan bu yoqqa otib, hamma narsaga jahli chiqar, qo'ltiqtayog'ini yerga uloqtirar, tepakal boshini ushlab baqirardi:

– Axir, shu ham frak bo'ladimi? Bu chakmon-ku? Chatskiy chakmonda! Nodonlar!

Repetitsiyaning bunday taraddudi Katyaning joniga tegdi. Bu yarim yerto'la xonaga zaldan shovqin-suron tovushi kelardi. Majlis ishtirokchilari to'planayotgan edilar.

Keyingi kunlarda Pavel Sergeyevich haqida yomon gaplar eshitib yurdi. Odamlar Pavel Sergeyevichning izlanuvchan shaxs ekanini tushunishmaydi. Izlanish xatosiz bo'lmaydi-ku! Bugun ertalab Katya Sashani uchratdi. U o'zining Ignat Yegorovichi bilan majlisga kelgandi. Sofdil, vijdonli bola, Gmizinning qo'liga tushib, uning nog'orasiga o'ynamoqda. O'sha Gmizinning tashqi ko'rinishidanoq gerdayganligini bilib olish qiyin emas: yuzlari qip-qizil, yo'g'on odam keng yelkalarini u yoqdan bu yoqqa tashlab yuradi, shayton ham uning oldida xijolat. Sasha ham uning yonida, shimining tizzalari shishgan, shapkasi gardaniga tushib ketgan – jo'jaxo'rozning o'zginasi. Bundaylar oldida Pavel Sergeyevich o'zini tuta biladi.

Odamlar yig'ilishib qoldi. Katya ham zalga chiqishi kerak.

U tor, g'ichirlaydigan zinadan eski bezaklar bilan to'silgan sahnaga ko'tarildi. Alif moy, chang, yashash uchun begona bo'lgan qandaydir noxush hid – teatr xilvatxonasining hidi dimoqqa urardi. Qadam tovushi, stullarning g'ichirlashi, asta-sekin odamlar bilan to'layotgan zalning g'ala-g'ovuri endi yaqqol eshitilayotgandi. Sahnaning orqa tomonini prezidiumning qizil alvonli stol qo'yilgan qismidan faqat parda ajratib turardi.

Bo'yog'i ko'chib qiyshayib qolgan faner ustuni orqasida turgan Katya to'satdan parda oldida turgan ikki kishini ko'rib qoldi. Ikki oyog'ini kerib, mustahkam turgan viloyat qo'mitasi kotibi miqti Kurganov qo'llarini orqasiga chalishtirib boshidan oyog'igacha Mansurovga qarab turardi. Pavel Sergeyevich ham qaddini tik tutib, shay bo'lib qat'iylik bilan Kurganovga tik, sinovchan nazar solib turardi. Uning ko'rinishidan Katya, shunday suhbat ketyaptiki, bu

yerda guvohlar o‘rinsiz bo‘lib, shu daqiqa ular yonidan o‘tib ketish noqulay ekanini, yaxshisi, kutib turish kerakligini tushundi.

– Sizga bir-ikki og‘iz aytadigan gapim bor, – dedi Mansurov past ovozda, lekin aniq qilib, – keyingi kunlar yakkama-yakka uchrashish uchun qulay payt topolmadim.

Pavelning yonoq suyaklari chiqib qolgan, jigarrang horg‘in ko‘z kosalaridagi o‘tkirlik yo‘qolib, Kurganovga tikilgani Katyaga yaqqol ko‘rinib turardi. Katyaning qalbini qandaydir juda kuchli va iliq rahm-shafqat hissi egallab oldi. Katyadan boshqa hech kim tushunolmagan, hamma uchun begona bo‘lib qolgan sho‘rlik Pavel Sergeyevich azob chekyapti.

– Nega endi odamlar orasida gaplasholmas ekanmiz? – deb e’tiroz bildirdi Kurganov. Uning quruq, dushmanona ohangi Katyani o‘ksitdi.

– Aleksey Vladimirovich, o‘ylashimcha, shunday ishlar borki, oldindan gaplashib olmasdan ko‘pchilik muhokamasiga qo‘yish ahmoqlik bo‘lsa kerak.

Kurganov alohida e’tibor bilan soatiga qarab qo‘ydi, xolos.

– Bu gapni aytish menga juda og‘ir, – deb davom etdi Mansurov, – ammo majburman... Aleksey Vladimirovich, sizga alam bilan, chin yurakdan aytamanki, men tushundim. Gmizin haq... Mutlaqo haq...

«Mutlaqo... Nega endi? Gmizin mutlaqo haq bo‘lishi mumkin emas! – Katyaning achinishiga qo‘rquv ham aralashdi. – Nahotki, qo‘rqqan bo‘lsa? Mumkin emas! Unday odam emas!»

– Molni oshirib yubordim. Mening aybim – odamlarning maslahatiga quloq tutmadim, yaxshilab o‘ylab ko‘rmadim, o‘z vaqtida xatoyimni tushunmadim... Ozuqa sexlari voqeasi esa, to‘g‘ri, ogohlantirishlariga qo‘l siltaganim sababli...

«Sigir masalasida nohaq, ozuqa sexlarida nohaq?.. Nima deyapti o‘zi?» – Katya g‘ujanak bo‘lib olib, dahshat bilan Mansurovni kuzatar edi, u bo‘lsa sekin, ammo ravon tarzda gapini davom ettirardi:

– Aleksey Vladimirovich, ko‘rib turibsizki, men sizdan hech narsani bekitayotganim yo‘q, ichimdagini aytyapman. Agar avval meni nohaqlikda ayblagan bo‘lsalar-u, shu paytgacha yo‘lini qilib yurgan

bo‘lsam, mening haqimda yomon fikrda bo‘lishlaridan qo‘rqib yurgan bo‘lsam, endi ochiqchasiga gapirmoqchiman...

– Ochiqchasiga gapirishganda , burchaklarga bekinmaydilar, o‘rtoq Mansurov. Qalbingizni ana u yerda oching! – deya Kurganov parda tomon bosh irg‘adi.

Hammasi tushunarli edi. Pavel Sergeyevichning xatti-harakati g‘alati, yana shu narsa ajablanarliki, Kurganov hayron bo‘lmadi. Axir shunday gapni xotirjam tinglab bo‘ladimi, bunday gaplarga hayron bo‘lmaslik mumkinmi?

– U yerda aytish hech qayoqqa qochib ketmaydi... – Pavel Mansurovning so‘lg‘in chehrasidan afsus va jahli chiqqanligi sezildi-yu, shu zahotiyoq g‘oyib bo‘ldi, ovozida umidsizlik ohangi bilinib turardi. – Aleksey Vladimirovich! Kimning halol bo‘lgisi kelmaydi? Avval bir qoqilgan qaysi bir odam yelkasida yolg‘onchilik yukini olib yurgisi keladi? Yuzaga chiqishimga yordam bering. Itarib tashlamang... Toptamang, ishoning, Korshunovodan boshqa joyga borsam bunday kirdan xalos bo‘laman, mutlaqo, jon deb o‘tmishimni unutaman!

– Demak, sizni boshqa tumanga o‘tkazish masalasini qo‘yishim kerak ekan-da?

– O‘tkazing, Korshunovodagi narsalarni esdan chiqarishga yordam bering...

– Xullas, siz odamlardan yaramas ishlaringizni yashirishimni iltimos qilyapsiz.

Katya kesak bo‘lib, soxta ustun orqasida shu gaplarni eshitib turardi.

Kurganovning keyingi aytgan gapidan so‘ng Pavel Mansurov qaddini rostladi, ko‘zlari tundlashdi, lablarini qattiq juftladi.

– Iltimosimni boshqa yoqqa burish sizning ixtiyoringizda, men esa iltimos qilyapman – bunga haqim bor – yana halol insonga aylanishga imkon bering.

– Halol inson?.. Inson zoti uchun xatolikka yo‘l qo‘yish jinoyat emas, uni bekitishga uringanning o‘zi o‘n baravar og‘ir jinoyat! Siz bir necha oy davomida xatolaringizni yashirib keldingiz, endi menga bunday gaplarni gapirishga yurak betlayapsiz: mendan o‘tgan xato-

larni yashirib, top-toza bo'lishga yordam bering, deyapsiz. Bunaqasi bo'lmaydi, o'rtoq Mansurov!

– Xo'sh... bo'lmaydi... Mening xatolarim... ular haqida sahnada turib hammaga eshittirib aytishimni istaysizmi? – deb Mansurov sahnaga bosh irg'adi. – Nima ham derdim, aytaman. Mana shunday bo'lib qoldim, deyman. Biroq bunga kim aybdor? Imkoniyatimdan ortiq zotli mol olayotganimda kim menga yordam berdi? Kimning ma'qullashi bilan ozuqa sexlari qurilishiga zo'r berdim? Men qaltis yo'lga tushdim, ammo kim menga so'z bilan, qog'oz bilan xayrixohlik qilib dalda berdi? Hammasini aytishga majbur bo'laman, o'rtoq Kurganov!

O'rta bo'yli Kurganov kerilgan oyoqlarini polga mustahkamlab bosib turar, qo'llarini orqasiga chalishtirgan holda Mansurovga qovog'ini osib tikilar, faqat yo'g'on bo'ynining yoqasidan yuqorirog'ida tomirlari tuganak bo'lib o'ynab ketgandi.

– Juda soz, – dedi ohista u, – aytganingiz yaxshi. Men o'z xatolarimni yashirmoqchi emasman. Sizgina emas, o'zim ham aytaman. Xavotirga tushmay qo'ya qoling, o'zimni ham qattiq turib muhokama qilishlarini talab qilaman! Nahotki siz, tovlamachiligingizga uchrab o'z gunohlarimni, shu bilan birga sizning ham gunohlaringizni xalqdan yashiradi deb o'ylasangiz! Adashdingiz, hamma ham sizga o'xshagan emas!.. Bunday gap sotish befoyda, yuring, bizni kutishyapti!

Kurganov parda tomon qadam tashladi-yu, to'xtadi va Mansurovga o'girilib:

– Hozir ma'ruza qilasiz. Hozirgina men bilan tuzmoqchi bo'lgan bitimingiz haqida ham eslatib o'tishni unutmang, – dedi.

Kurganov parda orqasiga o'tdi.

Mansurovning ko'tarilgan yelkalari bo'shashdi, dadilligi yo'qoldi. U qimir etmay biroz turdi-da, so'ngra arang bir yelkasini ko'tarib, yoni bilan pardaning u tomoniga o'tdi...

Yo'tal va shitirlashlar tindi. Pardaning u tomonida, tuman klubining keng zalini jimlik bosdi. Prezidium stolida qog'ozlarning shitirlashi eshitildi...

Katya sahnaning qorong'i burchagida, polda o'ralib yotgan bo'z, deraza panjaralari, mixlari chiqib ketgan qandaydir xodalar orasida,

faner ustunning ohagiga ko‘ylagi bo‘yalgan, shu changi chiqib yotgan tartibsiz lash-lushlar orasida yo‘qolib, unsiz yig‘lardi.

18

Har kecha Korshunovo tomlari ustida bulutlar ochilib, tagi qum soy suvini quyosh nurlari yoritgani kabi mayin tillarang qilib ko‘rsatar, goh qorayib borayotgan birinj rangiga solar, ba’zida bulutlar qahr-g‘azabidan yallig‘lanar, gohida pag‘a-pag‘a bo‘lib buralib hamma yoqni egallab olardi.

Har oqshom, har bir kun botar payt har xil, bir-biriga o‘xshamaydi. Lekin oqshom osmoni ostidagi ikkita soya aslo o‘zgarmaydi: ikkita uchli tom, biri balandroq, boshqasi pastroq, birida eshitadigan tuynuk bor, ikkinchisida esa kaltagina quvur qaqqayib turibdi, ikkisining o‘rtasida shumurt daraxti barglarining oddiygina dumaloq soyasi-yu, daraxt tepasida uzun xodaga chug‘urchiq uyasi qoqilgan.

Pavel Mansurov ham shu ko‘yga tushib qolgandi – goh g‘azab isyon ko‘taradi, goh alamzada bo‘lib eziladi, goh umidsizlik botqog‘iga botadi, biroq nima bo‘lsa ham noiloj, ojiz edi.

Hamma birday unga tashlangan yig‘ilish kunidan bir hafta o‘tdi. Yig‘ilishdan keyingi dastlabki kunlarda byuro a’zoligidan, ishdan ozod etishgan, plenum, byuro majlislarida ham unga malomat toshlarini otishdi... Keyin Kurganov jo‘nab ketdi. Majlisda ko‘tarilgan gaplar sekin-asta tinchidi. Birinchi kotib xonasini vaqtincha Zibina egalladi. Ishning bu qadar keskin tus olishidan Pavel Mansurovdan ham battar cho‘chigan bu ayol iloji boricha o‘zini kam ko‘rsatib, gapni ko‘paytirmay boshqara boshladi. Sabab bo‘lsa-bo‘lmasa «Mehnatkash» kolxoziga qo‘ng‘iroq qilar, Ignat Gmizindan maslahat so‘rar edi, Zibina, agar hech kim qarshilik ko‘rsatmaganda, jonjon deb hamma qog‘ozlarga Ignatning qo‘lini qo‘ydirishga rozilik bildirgan bo‘lar edi.

Hammadan unut bo‘lib ketgan Pavel Mansurov esa uyida kutaverib ko‘zi to‘rt bo‘ldi, nimani kutayotganini o‘zi ham bilmasdi. Ko‘chaga deyarli chiqmas edi. Avvalgiday dazmollangan kitelda, chehrasida obro‘ saqlab qishloq ko‘chasida ko‘rinib bo‘lmasdi, boisi hamma orqasidan labini burib kulishi, shivirlashi mumkin.

Har yoqqa borib-kelib yurish, haftalab tinimsiz hayot kechirishga o'rganib qolgandi, ovqatlanishga ham vaqti bo'lmagan kunlari bo'lardi, endi esa to'rt tarafi devor, o'z xohishing bilan qamalib o'tirishing kerak, bekorchilikdan ham yomon narsa yo'q... Bekorchilikning yomonligi shundaki, bir-biridan ayanchli fikrlar keladi.

Kunduzi divanda yotib asabiylashib ketguncha faqat bir narsa haqida o'ylardi.

Kechqurun derazaning yon tarafiga o'tirib olar (haddan ziyod sinchkov odamlar ko'rmasin deb), kun botishini, Korshunovo hayotini asta kuzatar edi. Ko'chada bolalar yugurishar, changitib, g'izillab mashinalar o'tar, egilib-bukilmaydigan, gerdaygan chol Zelensov uchraganlar bilan shlapasini ko'tarib salomlashib maktabdan qaytar, ammo hech kim deraza kesakisi oldidagi Mansurovni sezmas, hech kimning u bilan ishi yo'q edi. Deraza tashqarisidagilar uchun Pavel Mansurov o'lgan...

Pavel bo'lsa yashar, o'ylar, azoblanar, o'zining qulashini ming martalab hasrat bilan esga olardi.

Hamma tashlandi! Hatto sariq tumshuq Sashka Komelev ham so'zga chiqdi. Qizarib bo'zarib, ikkilanib bo'lsa ham Gmizinchasiga toptadi... Jon berayotgan sherni qo'chqor ham suzadi. Ignat-chi?.. Pavelning Ignatga u qadar xusumati yo'q. Olishishdi. Nima bo'pti, zo'rroq ekan, halol jangda Pavelni yengib chiqdi. Ammo Pavel hammadan ko'ra Kurganovni ko'rarga ko'zi yo'q edi. Juda yomon ko'rardi!

Kurganov suvdek toza. U emas, Mansurov tumanga ortiqcha mol oldi; u emas, Mansurov raislarni siqa boshladi. Kurganov vaqtida emas, Mansurov vaqtida Fedosiy Murgin o'z joniga qasd qildi. Kurganov emas, Mansurov ozuqa sexlari qurilishida ortiqcha ma'lumot berib yubordi. Faqat Pavel Mansurov aybdor, faqat u.

U, Pavel, Kurganovni ayblamoqchi bo'ldi – qayoqda deysiz...

Kurganov odamlar oldida o'z kamchiliklarini bekitib o'tirmadi: «Ortiq ishonib qo'yibman! Nazardan qochiribman. O'z vaqtida tegishli e'tibor bermadim...» Shunisi qiziqki, u o'zini qanchalik ko'p gunoh, xatolar, kamchiliklarda ayblamasin, jinoyatlar shunchalik Kurganovning bo'yniga emas, Pavel Mansurovning bo'yniga tushar edi...

Eh, Pavel Kurganovni naqadar yomon ko'radi! Pavel badnom bo'ldi, xo'rlandi, kelajagiga nuqta qo'yildi, musibati, fojiasini hech kim bilan o'rtoqlasha olmadi, faqat bir o'zigina azobini tortadi. Ammo u yiqilayotib Kurganovning etagidan ushlab qola olganida juda ham xursand bo'lardi. Hozir Mansurov o'ldirilgan, lekin qasos unga hayot ato qilib, o'ziga hurmat orttirgan, odamlarning ko'ziga tik qaray oladigan bo'lardi.

Bekorga orzu qilishning nima keragi bor. Pavel Mansurov pastda, Kurganov esa yuqorida, oldingiday top-toza, oldingiday shubhalardan xoli. Markaziy qo'mitaga xat yozsinmi?.. U yerda, albatta, xat kimdan ekan? – deb surishtirib qolishadi. Eh-ha, Mansurovdanmi, xalq ishidan olib tashlangan tuman qo'mitasi kotibidanmi. Chuqur qaziyapti! Tuhmat qilyapti deyishadi. Kurganovga ko'targan har bir mushting, shundoq ham ko'p azob chekkan o'z boshingga kelib tegadi, o'rtoq Mansurov. Kuchsizsan. To'rt devor orasida o'tira tur, deraza orqasida odamlardan yashirinib, yana so'roqqa tutgunlaricha, ozgina bo'lsa ham marhamat qilish uchun esga olgunlaricha kut. Katta rahm-shafqatni kutib bo'lmaydi...

Bugun shafaq juda sekin va zerikarli darajada quruq, sarg'ayib lovullardi. Ko'm-ko'k, muloyim musaffo osmon-u falakda faqat to'q loyqa rangdagi bir parcha bulut hordiq chiqarardi. Derazadan yo'l chetida o'ynayotgan bolalar ko'rindi. Bolalar qalin o'tin ustiga qo'yilgan taxtaning bir uchiga bir siqim payrahani qo'yib, ikkinchi uchini tepishar, payrahalar har tomonga uchib ketardi. Bir bola emaklab sochilgan payrahalarni izlardi. Qolganlar esa har tarafga – biri qo'shni eshigining orqasiga, biri uy burchagiga, biri devor ortiga yotib yashirinardi. Hammasi bir joyga to'planishganda g'ala-g'ovur ko'tarishar, yashirinishganda esa oraga jimlik cho'kardi...

Pavel Mansurov o'yinga qiziqmay, parvosiz kuzatar, miyasini oxiri yo'q sertashvish xayollar qamrab olgandi.

Endi qanday hayot kechiradi? Nima qiladi? Hech qanday hunari yo'q, hech kimga kerak emas. Boshi berk ko'chaga kirib qoldi.

Anna kuzga qolgan o'quvchilar bilan mashg'ulot o'tkazib bo'lib, maktabdan qaytdi. Asta qadam tashlab stol oldiga o'tdi, kitoblarni stol ustiga qo'ydi-da, yotoqxonaga kirib g'oyib bo'ldi. U yerdan kiyimning shitirlashi eshitildi. Birozdan keyin chit ko'ylak kiyib, yana

o‘sha zaylda sekin yurib oshxonaga kirib ketdi. Primus shang‘illadi, qovurilgan piyoz hidi keldi.

Pavel Annaga shikoyat qilmadi, u bilan ochiqchasiga gaplashmadi, ular haligacha bir-birlari bilan so‘zlashmasdilar. Shunday bo‘lsada Pavelning ishdan tushishi ularni bir-birlariga yaqinlashtirdi. Pavel hech qayoqqa chiqolmay uyda o‘tirar, Anna bo‘lsa uning yonida edi. Shunga ham Pavel undan minnatdor edi. Anna unga hamdardlik bilan yopishmas, har doim o‘z ishi bilan shug‘ullanar: kitob o‘qir, nimanidir tikar, xullas, uy ishlari bilan ovora edi.

Lekin avvalgiga qaraganda Pavelga nisbatan e’tibori sezilarli darajada oshgan, hatto unda Pavelga nisbatan hurmat paydo bo‘lgandi. Bu hurmat ko‘proq Pavelning g‘am-hasratiga nisbatan edi, Annaning bu alamni sezmay, unga hamdard bo‘lmay iloji yo‘q edi.

Mana, hozir ham Pavel o‘rnidan qimirlamadi, avvalgiday bolalarning o‘yinini parishonxotir kuzatar, faqat fikri biroz o‘zgargandi. Lekin o‘zgargani bilan tinchimadi...

Pavel unga kerak... Anna uni asraydi, g‘amxo‘rlik qiladi. Kim biladi, balki uning e’tiboriga, hattoki, malakali o‘qituvchining oyligiga muhtoj bo‘lib qolar. Dadil havas qilib, inson taqdiriga yangi qonun-qoida kiritishdek buyuk orzu egasi, yaqindagina ich-ichidan nafratlanadigan xotinining huzurida ko‘nikib o‘tiribdi.

Pavel, bolalarning ichida eng sho‘x va sershovqini, rangi o‘chib ketgan maykasidan suyaklari turtib chiqib, qoraygan yelkalarida osilib turgan, ko‘zlarigacha tushib ketgan qandaydir shapka kiygan bolani anchadan buyon kuzatib o‘tirgandi.

– Sen meni topdingmi? Topdingmi?.. Tumshug‘ingga bir tushiraymi! – deya baqirishi yopiq deraza orqali yaqqol eshitilardi.

Negadir bolaning burnigacha tushib ketgan, uni kekkayishiga sababchi bo‘layotgan bema’ni shapkasi Pavelning diqqatini jalb etardi. Tungi g‘ira-shirada olisdan shapkani yaxshi ko‘rib bo‘lmasdi, ammo Pavelning nazarida shapka charmdan qilingan edi. Qanday qilib...

– Vaska! Vaska! – ayolning ovozi chaqirdi. – Butun qishloq bo‘ylab qidirdim, hu, yaramas! Yugur, o‘tloqdan echkini haydab kel! Uni kechasi sog‘amanmi!

Bola shang‘illashdan to‘xtadi, burnini qoqdi, jiddiy qiyofada qo‘lini ishtoniga artdi-da, bo‘ysunib onasining orqasidan ketdi. Bola

deraza oldidan o'tib ketayotganida, Pavelning badani jimirlab ketdi: «Jin ursin! Nima qilib shayton vasvasasiga tushdim!» Bolaning boshida Murgin charm shapkasining ayanchli qoldig'i edi. Ayvonchasi uzilib ketgan bo'lsa ham, bujmayib, eskirib ketgan ustki qismi shunday tanish, xayolida ediki, bu yerda adashish mumkin emas.

– Iflos narsani boshingga kiyib olibsan, chuvrindi. Hoziroq tashlab yubor! Tashla, deyapman senga!

Taqdir hazili emas, agar bola Pavel otib yuborgan shapkani topib olgan bo'lsa, tanib qolishadi, har xil gap-so'zlar bo'ladi, deb qo'rqayotgani yo'q, uni mutlaqo boshqa narsa xavotirga solayotgandi. Vijdoni qiynay boshlagandi. Shu vijdon azobi uning xo'rlanish hissini ham, dilini ranjitgan azoblarini, hatto Kurganovga bo'lgan nafratini ham bosib yubordi.

Ustomonlik qildi, ishni bulg'adi, hatto o'ziga o'zi ham soxtalik qildi, ko'pchilik foydasi uchun qattiq talabchanlik qilayotgan bo'ldi... Ahmoqlik! Xo'rlikka chidashi, kelajagi buzilganiga ko'nikishi mumkin, biroq mug'ambirlik qilgani, ustalik qilib kelganini, hammani, hatto o'zini ham aldaganini unutolmaydi. Bekordan bekorga aldadi, hech narsaga ega bo'lmasa ham, buning uchun hech narsa olmasa ham aldadi! O'zingdan o'zing abadiy norozi bo'lib yurasan. Abadiy. Bunday hayotga ming la'nat! Murginga o'xshab... yaxshi bo'lmasmikin. Devordan miltiqni olib ichiga yirik pitra solingan patron qo'yib, kelajak avlod uchun buyuk ishlar esdaligini emas, fojiaviy o'lim voqeasi-yu, charm shapkaga o'xshash esdalik qoldirsa...

Eshik orqasida, oshxonada kimningdir notanish ovozi eshitildi. Anna uyga kirib, aybdorlarday, favqulodda muloyimlik bilan:

– Pasha, kelishibdi... Telefonni olishlari kerak ekan, – dedi. Pavel bilan bunday muomala qilmaganiga ancha bo'lgandi.

O'tmish tashvishlari, betinch vaqt, hukmronlik, o'tmishni yodga soladigan hamma narsa ichida birgina devorda osilgan eski urfdagi, ruchkasi aylanadigan telefon qolgan edi. Nima ham qiladi endi, u tuman rahbari emas, telefon qiladigan joyi ham, odami ham yo'q. Pavel: «Olib ketishaversin» degandek boshini silkidi.

Dumaloq yuzli, hali soqoli chiqmagan, sumkasini yelkasiga tashlab olgan, boshiga aloqachilar shapkasini kiyib olgan bola kirib keldi. U, albatta, tumanning sobiq birinchi kotibi uchun uning kelishi

noqulayligini tushunganidan uyalar, shu sababli qovog'ini solib olgandi.

– Apparatingiz buzilgan emasmi? – deb so'radi go'yoki meni texnikadan boshqa hech narsa qiziqtirmaydi demoqchiday.

Pavel javob berishga ulgurmadi: shuncha kundan beri jim turgan telefon o'zining o'rgangan joyidan qo'zg'atmoqchi bo'lganlari uchun norozilik bildirmoqchiday birdan jiringlab qoldi.

– Eshitamiz, – jiddiy javob berdi aloqachi va shu zahotiyoq trubkani Pavelga uzatdi. – Sizni so'rashyapti.

Zibinaning shoshilinch, tashvishli ovozi eshitildi:

– Pavel Sergeyevich, Kurganov imzosi bilan telegramma keldi. Sizni viloyat qo'mitasiga chaqirishyapti ekan. Zudlik bilan...

– Xo'p, – deb Pavel trubkani ildi-da, aloqachiga «olaver» deganday ishora qildi.

Viloyat qo'mitasiga bo'lsa, o'sha yoqqa-da. Endi qo'rqadigan joyi qolmadi. U yigitning gulqog'ozda telefonning hali sarg'aymagan yangi izini qoldirib devordan olishini, shnurini trubkaga o'rashini ma'nosiz beparvolik bilan kuzatib turdi. Pavelga yigit hammasini haddan tashqari sekin qilayotgandek tuyuldi.

Aloqachi ketgandan keyin Pavel qo'ng'izning mo'yloviga o'xshab osilib qolgan ikkita sim turgan joyga qaramaslikka intildi.

19

To'rt devor ichidagi surgun tugadi: Korshunovodan Velikaya stansiyasigacha yuk mashinasining kolxozchilar va o'rmon sanoati xo'jaligi ishchilari bilan liq to'la kuzovida silkinib bordi. Havo bulutli, suvli o'tloqlardan nam shamol esadi, gohida yomg'ir shivirlab yog'adi, ob-havo haqida, unayotgan kartoshka, don haqida odatdagi suhbatga quloq solib ketdi...

Pavel Mansurov o'zini darhol qayta dunyoga kelgandek his qildi. Kechagi fikrlari u qadar qo'rqinchli, vaziyat u qadar ilojsiz emasdek, tushkunlikka tushishi o'rinsiz, o'zini o'zi o'ldirish haqidagi qarori esa ahmoqona va jirkanch ko'rindi.

Poyezd ketmasdan stansiyada uning yurgisi, harakat qilgisi kelib qoldi. Tobora avjiga chiqayotgan yomg'ir yoqimli tuyuldi. Pavel

taxta perronda u yoqdan bu yoqqa yurar, shalabbo bo'lib ketsa-da huzurlanar edi. U o'zining yoshligini, sog'lom ekanligini yangitdan kashf etgandek, yurishlari shaxdam, tomir-tomirlarida g'ayratshijoati jo'sh urardi.

Vagonda u notanish kishilar bilan ketishi kerak edi. Ulardan birontasi ham uning o'tmishini bilmasdi. Oddiy odamlardek bemalol hamma bilan suhbat qila olishi Pavelda avval sezmagan yangi rohat baxsh qilardi.

U shahar vokzalida taksi oldi, ko'cha bo'ylab ketar ekan, taksi oynasidan tomosha qilib ketdi. Lekin mashina uni viloyat qo'mitasi binosi tomon olib borar ekan, Kurganov bilan bo'ladigan uchrashuv yaqinlashgani sayin Pavelni vahima bosardi. Hali hech narsadan umidini uzgisi kelmasdi.

Pavel kechayoq Kurganovning xonasiga boshini baland ko'tarib kirishiga, u bilan bemalol suhbat qurib qo'pol muomalasiga xuddi shunday muomala bilan javob berishiga qattiq ishongandi. Nimasini yo'qotardi, demak, qo'rqishning ham keragi yo'q. So'nggi kunlarda uni ezayotgan nafrat-adovatini sezdirish yakka-yolg'iz ovunchi edi.

Ammo eshikni ochib maktab sport zaliga o'xshash katta, shiftga tegay deb turgan derazali, majlis o'tkazadigan, qizil movut yopilgan uzun stol, shohlarning poyandoziga o'xshash uzun, tantanavor gilam poyandozli tanish xonaga kirib, xonaning to'rida o'tirgan, xona, stol va baland derazalari bilan solishtirganda juda kichkina odamni ko'rishi bilan Pavelning vujudini ikkilanish, hadiksirashlik qamrab oldi. Hali hech narsa yo'qolmaganiga ishongisi kelar, xonaning u to'rida o'tirgan o'rta bo'yli odam juda e'tiborli bo'lib, ko'p narsa unga bog'liqdek edi. Jur'atsizlik adovat tuyg'usini itarib chiqardi.

Mansurov boshini ozgina ko'tarib, yelkalarini kergan holda, etigining poshnasi bilan jarangdor parketni shaxdam bosib Kurganovning oldiga keldi-da, odob saqlab salomlashdi.

– O'tiring, – deb bosh silkidi Kurganov. U yangi kiyingan bo'lib, bo'ynidan ko'ylagining ko'zni qamashtirar darajada oppoq yoqasi ko'rinib turar, jigarrang qovoqlari esa ko'zlarini yashirib turardi. Kurganov gavdasiga nisbatan kichik qo'llari bilan qog'oz varaqlardi.

– O'rtoq Mansurov, – hech qanday ma'no – na nafrat, na muruvvatni tushunib bo'lmaydigan nigohini ko'tarib dedi Kurganov, –

o‘ylaymanki, o‘z qilmishingizga yarasha olgan sabog‘ingizni yetarli darajada tushungandirsiz...

Pavel o‘zida paydo bo‘lgan sevinch belgisini Kurganov sezmasin, deb ko‘zlarini yashirdi: yana saboq haqida gapirishyapti, demak, yana kelajakni ko‘zda tutishyapti...

– Yoki hanuzgacha o‘zingizni ranjitilgan deb hisoblab, hanuzgacha aybni viloyat qo‘mitasi bo‘yniga to‘nkarish niyatidamisiz?

– Men aybdorman. Mutlaqo aybdorman. O‘zimnikini oldim. Menga og‘ir... Boshqa hech narsa qo‘sholmayman, Aleksey Vladimirovich, – sekin javob berdi Pavel.

Kurganov ko‘zlarini yashirdi, shu sababli o‘sha ko‘zlaridan Pavelning javobi yoqdimi yoki viloyat qo‘mitasi kotibi bu gapga ishonmadimi yoinki xayrixohmi, tushunib bo‘lmasdi.

– Biz odatdagi jazo bilan, hayfsan yozib, qattiq chora ko‘rish bilan cheklanib, sizdan yuz o‘girishimiz mumkin edi. Qanday yashasangiz, shunday yashardingiz. Sizni ishdan quyi ma’muriyat ishlariga qo‘yib qo‘yardik. Biroq!.. – Kurganov ovozini ko‘tardi, so‘ngra Mansurovning sabr-toqatini sinagandek to‘xtab turdi.

Mansurov lablarini qattiq qisib olib, «biroq»dan keyin nima kelarkin, deb kutib turdi. Ammo qalbidagi og‘ir yuk g‘oyib bo‘ldi: quyi ishlarga qo‘yishmoqchi emas, demak, «biroq» nimanidir bildiradi...

– Biroq jazo berish, yuz o‘girish juda oson. Biz oson yo‘lni tanlamoqchi emasmiz... Rahbarning eng muqaddas burchi, bu ishchilariga g‘amxo‘rlik qilishdir. Xatoliklarga yo‘l qo‘ydingiz, qilar ishni qilib qo‘yib, o‘zingiz qutulib, hamma aybni viloyat qo‘mitasiga to‘nkarmoqchi edingiz. Kurganov jazosini tortaversin demoqchi bo‘lgansiz-da... Gap mana bunday, o‘rtoq Mansurov, viloyat qo‘mitasi shu bilan sizdan yuz o‘girmoqchi emas, sizni tarbiyalashga qaror qildi. Biz sizni Oliy maktabga o‘qishga yuboryapmiz. Biroq esingizda bo‘lsinki, hech kim sizni haqiqiy jiddiy rahbar qilib yetishtirolmaydi, agar siz o‘zingiz...

Pavel Mansurov boshini samimiy egib tinglar edi. Oliy maktab... O‘zi bundan yaxshi yo‘lni o‘ylab topolmas ham edi. Endi bu viloyatga qaytib kelishi dargumon, korshunovoliklar bilan umrbod xayrlashishi aniq. Yaxshisi qolishsin, ularga aslo achinmaydi... Hammasi yaxshi ko‘chyapti, bundan ortig‘ini kutib bo‘lmaydi.

Lekin xayrlashish paytida Kurganov Pavelning uzatilgan qo'lini sezmadi, sovuqqina bosh irg'ab, teskari burildi.

Pavel parket ustida shaxdam qadam tashlab borar ekan, qalbida yengil nafrat hissi bilan ketardi: «Obro' saqlayapti. Jiddiy ekanligini ko'rsatyapti: shaxsiy munosabat beg'araz bo'lishga xalaqit bermaydi, deb isbotlamoqchi... Indamay ketmaydi deb qo'rqdingmi, birodar, seni ham o'zim bilan suv yuzasiga olib chiqardim».

U qabulxonada to'satdan Kurganovning qabul qilishini kutib o'tirgan Ignat Gmizin bilan ro'para kelib qoldi. Pavel bir daqiqa oldin Kurganov o'ziga bosh irg'agani kabi Ignatga sovuqqina, nafrat ila bosh irg'adi. Ignat ham unga javoban qirilgan boshini zo'rg'a qimirlatib qo'ydi.

«Ignat bu yerda nima qilib yuribdi? Mening o'rnimga qo'yishmayaptimikan? Bunday bo'lsa, juda yaxshi sovg'a bo'ladi. Yo'l-yo'riq, qarshilik ko'rsatish o'rniga o'zi ham bir kurashib ko'rsin... Kurganov-chi, tan berib qolibdi-ku. Kutilmagan hol!..»

Hayajonlangan, erishgan yutug'idan o'zini yo'qotgan holda Pavel viloyat qo'mitasi yo'laklari bo'ylab o'qish yo'llanmasini rasmiylashtirib yurar ekan, o'zicha hadeb: «Tan beribdi, tan beribdi»... degan so'zlarni takrorlar edi.

Pavel kechqurun mehmonxona nomeridagi o'rnida xotirjam yotib, vaziyatni shoshilmay, sog'lom aql bilan taroziga solar ekan, bekor yurganida ham, betinim bo'lib izlanishda yurgan paytlarida ham xayoliga kelmagan narsani kashf etdi.

Yo'q, Pavel nohaq edi – Kurganov unga aslo tan bergani yo'q. Kurganov chetga chiqarilgan tuman qo'mitasi kotibidan hayiqishning hech keragi yo'qligini yaxshi bilardi. Pavel Mansurovning har bir hamlasini o'ziga qaytarish osonligiga aqli yetardi. Qandaydir alamzada Mansurovning qahridan ham dahshatliroq narsalar borligini bilardi.

Pavel Mansurov, turgan gap, ko'z ostiga olinganlarning oxirida emasdi. So'roq varaqasi, berilgan baholar, tavsif, xullas, kadrlar bo'limi uchun kerak bo'lgan hamma qog'ozlarda tuman qo'mitasi kotibi Mansurov haqida to'la-to'kis aytilgan. Bu qog'ozlarda bironta ham harf yo'qki, uni yomonlasin, rahbar Mansurov faoliyatiga soya tushiradigan bironta vergul ham yo'q. Aksincha, hamma qog'ozlar –

armiya siyosiy bo‘limi, Pavel Mansurov bo‘lim boshlig‘i bo‘lib ishlab yurganida Komelev bergan tavsifnomalarda, nihoyat, Korshunovo kotibligiga viloyat qo‘mitasi bergan tavsiyanomada ham, hamma-hammasida bir ovozdan tashabbuskor, g‘ayratli, aqlli, siyosiy pishiq... deyilgan. Agarda Markaziy qo‘mitadan komissiya kelib tekshira boshlasa-yu, ana shu tavsifnomalarga duch kelib qolsa, Mansurovning hech ogohlantirmay, biron marta oldindan hayfsan e’lon qilmasdan ishdan bo‘shatilganini bilib, albatta, surishtirishadi: «Kadrlarga qanday munosabatda bo‘lyapsiz? Nega tarbiyalamadingiz? Nega asrab-avaylamaysiz? Adashdimi, eplay olmadimi? Avval qayerda edingiz, nega o‘z vaqtida yordam bermadingiz?..»

Kurganov bo‘lsa hamma ishlarga aralashgan, ko‘rsatadigan odami ham, guvohi ham yo‘q, o‘zi qizarib, o‘zi chap berishi, dashnomlarga chidashi kerak bo‘lardi. Eng to‘g‘ri va tinch yo‘li, ortiqcha gap-so‘zsiz, qog‘ozlarga qarshi chiqmay, Mansurovdan qutulishning chorasi – uni o‘qishga yuborish.

Pavel Sergeyevich, sen hali xomsan, tajribang yo‘q. Qiynalib, devorga boshingni urishga, umidsizlikka tushib, o‘z-o‘zini o‘ldirish xayoliga borishga arzimaydi. Ulug‘ xaloskor kuch – imzolar chekilgan, devonxona papkasiga tikib qo‘yilgan qog‘oz borligini unutyapsan. Bu narsa Kurganovdan ham, hatto o‘zingdan ham kuchliroq.

Kurganov nafaqat sening yo‘lingni to‘sadi, u kelajakda senga ortiqcha to‘sqinlik qilmasliklari chorasini ham ko‘radi. Oliy maktabga yomon tavsifnoma bilan yubormaydi-ku, albatta, yaxshi so‘zlar yozadi, chin ko‘ngildan bo‘lmasa-da, yaxshi so‘zlarni yozadi...

Pavel Mansurov xayol surar ekan, uni na quvonch egallardi, vijdon azobi qiynardi. U shunday hisoblardi: nimasiga xursand bo‘laman – axir g‘olib emasman-ku, nimadan norozi bo‘laman – shunday bo‘lishi kerak.

20

Sasha Ignat Yegorovich bilan shaharga bordi, institutga kirib o‘tdi, har xil xo‘jalik tashkilotlariga kirib, suv quvurlari, nasoslar, elektr jihozlari topish mumkinmikan deb surishtirdi. Ignat bu kunlar viloyat qo‘mitasidan uzoqqa ketmadi.

Sasha kechasi, poyezdga o‘tirmasdan oldin viloyat qo‘mitasi Ignat Yegorovichni birinchi kotiblikka tavsiya qilayotganidan xabar topdi. Byuro a’zosi, hurmatli, institutda o‘qiydi – har taraflama mos keladi.

Katta yangilik, «Mehnatkash» kolxozi uchun alohida yangilik, shu bilan birga uncha ham quvonchli emas. Shunday raisdan ajralish hazilakam gapmi?

Sasha Velikaya stansiyasigacha, tuni bilan hamma narsani muhokama qilib, batafsil suhbatlashishga vaqt yetmaydi, deb o‘ylagandi. Biroq Ignat Yegorovich miq etmas, tashvishli, hatto ma’yus ko‘rinardi. U yuqoridagi polkaga chiqib olib, uning har bir qadamini kuzatayotgan Sashaga qisqa qilib: «Uxla, ukajon, uxla. Kechqurun qo‘ya turib, ertalab o‘ylasang durustroq aql topilib qolar», – dedi. Xo‘rsinib, inqillab orqasini o‘girdi-da, jimib qoldi – yo uxlab qoldi, yoki g‘ildiraklarning taqirlashi ostida xayolga berildi.

Ular Korshunovoga ketayotganlarida kunjara ortilgan uch tonnali yuk mashinasining ustida gaplashib ketishdi.

Necha kundan buyon yomg‘ir to‘xtamasdi (yig‘im-terim pallasida juda bemavrid yog‘yapti). Tangadek yorug‘i yo‘q, past bulutli osmon ostida ho‘l, yangi unib chiqqan ko‘kimtir o‘tloqlar, boshoqlari egila boshlagan bug‘doy dalalari, namgarchilikdan yerga yotib qolgan butalar birin-ketin suzib o‘ta boshladi.

Atrof juda g‘amgin ko‘rinar, yomg‘irdan holdan toygandek tuyulardi.

Sasha bilan Ignat kunjara ustida birgina plashga burkanib yotib olishgandi.

– Mansurovni viloyat qo‘mitasi o‘qishga jo‘natyapti, – dedi Ignat.

– Qulog‘imga chalindi. Nega bunday bo‘lyapti?

– Shunday... Eski etikni tozalab, yiltiratib, yo‘lingda davom etaver, deyishadi. U bo‘lsa maktab hujjatlari bilan dadilroq qadam tashlaydi. Ish shunday oson ketayotganidan u orqasiga qayrilib o‘tirarmidi. Tuman qo‘mitasi stulida o‘tirib chiqdi, Oliy maktabdan so‘ng ko‘tariladi, deyaver.

– Nima uchun bunday, nima uchun? Kurganov bizda ekanligida, Mansurovga qarshi so‘zga chiqqan edi-ku...

Ignat Yegorovich javob bermadi. U engagini qo'liga qo'yib yotar, shapkasini ko'zigacha bostirib kiyib olib, ayvoni ostidan uzoqqa, xira ko'kimtir o'rmonga tikilib borardi.

– Kurganov odamlarga dushman emas-ku, – dedi Sasha yana.

– Yo'q, odamlarga dushman emas, o'ziga esa mutlaqo...

Mashina past-balandliklardan silkinib ketdi. Og'ir Gmizin brezent bilan yopilgan qattiq kunjara taxtasiga yopishib qolgandek qimirlamay yotardi. Sasha bo'lsa bortni qattiq ushlab olib, og'riqdan yuzini burishtirardi.

– Demak, kolxozdan ketar ekansiz-da? – deya gap boshladi Sasha mashina to'g'ri yo'lga chiqib, tekis yura boshlaganda, shamol esa avvalgidek qaysarlik qilib brezentni hilpiratardi.

– Ketishni xohlamayapman. Juda ham. Kishini quvontirmaydigan ish kutib turibdi. Qish kelib qoldi, molxonalar ham tuzatilmagan. Ozuqa sexlari bebaho vaqtni oldi! Yem-xashak u qadar ko'p emas, mol esa ko'paydi, yana tag'in zotli. Ishni qilgan Mansurov, jazosini men tortaman. Uning tirnog'i ham og'rimaydi, shaharda yashaydi, dialektik rivojlanish haqida ma'ruza eshitadi, Kurganov esa ahvolni o'nglash uchun mayda-chuyda narsalarni ham mo'ljalga oladi. Unga birovning yuki bo'ynida ekanligini eslatib ko'r-chi, darhol rad qiladi, zo'rmisan – ko'rsat...

– Yegorich, siz rad qiling. Kolxozda yashaymiz, xo'jalikni kengaytiramiz.

– Kolxozda yashash?.. Kotiblikka Zibinani qo'yishadi yoki Korshunovo tashvishidan na issiq, na sovuq bo'ladigan begonani jo'natishadi. Yo'q, Sasha, bu yana o'z joni uchun qayg'urish bo'ladi. Bu ish emas-da.

Mashina yo'l ustidagi bir qishloqchaga kirib keldi: tomlar, oq parda tutilgan derazalar, chodirsimon eshiklar ko'rindi, yo'l o'rtasidagi tovuqlar har tomonga qochishdi, hovlilardan itlar ankillab yugurishardi. Ignat o'rnida avvalgiday joylasholmay, u yoq-bu yoqqa qimirlay boshladi. Qishloq ortda qoldi, ikki tarafdan tosh yo'lga bo'y eggan bug'doy dalalari suzib o'ta boshladi...

– Bizda endi kim rais bo'ladi? – so'radi Sasha.

– Mana shu masala hammadan ko'p xavotirga solyapti. Bekitib nima qilaman, seni yetishtiraman deb orzu qilgandim. Vaqti

kelib munkayib qolgan, nafaqadagi qorni to‘q Ignat chol bekorga bolani o‘rgatmagan ekanman, ishni mendan ham oshirib bajaryapti deb ko‘nglim to‘q bo‘lib supachada o‘tirarman, deb o‘ylagandim. Bo‘lmadi... Ulgurmadim...

Ignat bir daqiqa o‘ylanib qoldi, keyin birdan jonlanib Sashaga burildi:

– Vologda viloyatidagi Zyazina degan raisa ayol haqida eshitganmisan?..

– Eshitgan bo‘lsam ham, esimda yo‘q.

Bu ayolni o‘n to‘qqiz yoshga to‘lar-to‘lmas rais qilib saylashgan. Ungacha kolxoz bazo‘r oyog‘ida turardi, o‘zi bo‘lsa institut eshigini ham ko‘rmagan, kolxozni ko‘tardi, o‘zi ham xalq orasida dovrug‘ qozondi, deputat bo‘ldi, orden oldi, uning oldida tuman rahbarlari cho‘chib turishadi... Mayli, omon bo‘lsak – ko‘rarmiz. Odamlar hali nima deydi... Ulgurmadim...

Ignat Yangi Ramenyega kiraverishda tushib qoldi. Sasha Korshunovoga, onasining oldiga ketdi.

Jonajon qishlog‘ini ko‘rmaganiga yillar emas, bor-yo‘g‘i bir necha kun bo‘ldi. Sashaning o‘zi ham hali yosh bo‘lgani bois uyni tashlab ketishga o‘rganmagandi, har bir qaytishi uning uchun yangilik edi. Ehtimol, kelajakda, oldinda yo‘l, oxirida Korshunovoning birinchi uylari ko‘rinishi bilan qalbida ana shunday shodlik, hayajonlanganidan yurak ezilishini sezmasligi mumkin. Balki qishlog‘ini sog‘inar... Hammasi bo‘lishi mumkin, biroq hali unday vaqt kelmagan.

Qishloqqa kiraverishda, tik tepalikda, mahobatli soqchi kabi keksa qarag‘ay turibdi.

Haydovchi mashinani ishtiyoq bilan haydab borardi. Kuzovda Sashani ko‘tarib tashlar edi. Yaqinlashgan sari qarag‘ayning atrofi, cho‘zilib ketgan shoxlari aniq ko‘rina boshladi.

Korshunovo tomondan, qarama-qarshi tarafdan mashina ko‘rindi. Ikkala mashinaning tezligi pasaydi, tenglashib, kabinalar bir-biriga ro‘para bo‘lganida to‘xtashdi.

Haydovchilarning o‘zlariga yarasha do‘stliklari, tanishlari, tezroq to‘kib-sochgisi keladigan yangiliklari bor. Bir kabinadan ikkin-

chi kabinaga papiros pachkasi borib-keldi, nam havoda tamaki tutunining hidi yoyildi.

Yondagi mashina kuzovi odamlar bilan to'lgan. Sasha qotib yotgan kunjaraga urilgan yerlarini paypaslab, to'g'rilanar ekan, Katyani ko'rib qoldi. Katya katta chamadon yonida, qo'lida avaylab tuguncha ko'tarib o'tirar, boshida qalin ro'mol, ustida Sashaga tanish paltosining safarga ketayotgan odamlardagidek hamma tugmachalari qadalgan edi. So'nggi bor uchrashganlariga qaraganda oz-moz o'zgargan – yuzi noodatiy mahdud va begona edi.

Ular yonma-yon turishardi; indamay turish, teskari qarash noqulay.

– Qayerga ketyapsan? – deb so'radi Sasha.

– Ketyapman. Batamom.

– Qayoqqa?

– Olisga.

– Aniqrog'ini aytsang-chi?

– Qozog'istonga.

– Nega?

– Tuman qo'mitasi yo'llanmasi bilan.

Qansharida o'sha-o'sha bilinar-bilinmas qosh tuklari, nigohi esa jiddiy, sovuq lablarida avvalgi mayinlik yo'q, og'zining quruq bichimida xotinlarniki singari achchiq alam ifodasi paydo bo'lgandi. Sasha busiz ham so'nggi vaqtlarda Katyaning hayoti oson bo'lmaganini sezardi. Qochyapti. Ehtimol, tushib, odamlardan chetroqda, shoshmasdan gaplashib olish kerakdir...

Ammo Katya o'tirgan mashina haydovchisi kabina ichiga sho'ng'idi, mashina shesternasi g'archilladi. Katya tuguncha ostidagi paltosining etagini asta tortib qo'yib, silkinishga shay bo'lib o'tirdi. Sashaga bosh silkidi. Sasha ana shu so'nggi daqiqada uning nigohi parishon va hasrat bilan qaltirab, lablari ochilib ketganini sezib qoldi, Katya ham haydovchilar darhol xayrlashmasliklarini istardi.

Mashinalar shoshilib har biri o'z yo'li bilan ketdi. Sasha Katyaga kechikib qo'l siltadi.

Qayerdadir, notanish Qozog'istonda u o'z baxtini izlay boshlaydi, hayotini tartibga keltiradi. Ana shu baxtida, uning hayotida Korshunovo qishlog'i Qozog'istondan qancha olis bo'lsa, Sasha ham

shunchalik olis bo‘ladi. Bir oyga, bir yilga, hatto bir necha yilga ham emas, batamom ajralishdi.

Oxirgi haftalarda Katyani kamdan kam eslaydigan Sasha birdan tomog‘iga nimadir tiqilganini, yuragi zirqirab og‘riy boshlaganini sezdi. Tezlik bilan tushib, orqasidan yugurishi, baqirib-chaqirishi, ilojsiz chaqirishi kerak!..

Ammo Katyaning mashinasi muyulishda ko‘zdan yo‘qoldi. Bulutli osmonga qalin shoxlarini bukkan qarag‘ay suzib o‘tib ketdi. U salobatli hayotini davom ettirar, eng uchidagi ho‘l ignabarglarini biroz silkitardi, xolos...

MUNDARIJA

O‘rmonlar orasida (*Gulnora Aripova tarjimasi*).....3

Yechilmas tugun (*Raila Isxakova tarjimasi*).....195

Rus adabiyoti durdonalari

Adabiy-badiiy nashr

Vladimir Fyodorovich Tendryakov

O'RMONLAR ORASIDA

Qissa va roman

Tarjimonlar: ***G.Aripova va R. Isxakova***

Nashr uchun mas'ul *Azimboy Boboniyozov*
To'plab, nashrga tayyorlovchi *Toshpo'lat Mirzayev*

Muharrir *Toshpo'lat Mirzayev*
Badiiy muharrir *Behzod Zufarov*
Texnik muharrir *Lina Xijova*
Musahhihlar: *Shohida Hojiyeva, Durdona G'aybullayeva*
Kichik muharrir *Matluba Salimova*
Kompyuterda sahifalovchi *Saodat Aziztoyeva*

Nashriyot litsenziyasi AI №158, 14.08.2009.
Bosishga 2021-yil 9-sentabrda ruxsat etildi. Bichimi $60\times90^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. «Times New Roman» garniturasida
ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 28,0.
Nashr tabog'i 26,81. Adadi 10000 nusxa.
Buyurtma № 21-265.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz

Tendryakov, Vladimir Fyodorovich 776

T 39 O'rmonlar orasida [Matn]: qissa va roman / V.F. Tendryakov. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. – 448 b.

ISBN 978-9943-7333-6-7

UO'K 821.161.1-32
KBK 84-445(2Ros=Rus)

31993,00 сум

V.F. Tendryakov

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7333-6-7
9 789943 733367